kolxozlarni tashkil qilish bir kampaniya sifatida o‘tkazildi. Bunday holatda “ixtiyoriy-majburiy” prinsipiga amal qilib, bu sohadagi barcha tadbirlar yuqori (Moskva va Toshkent) ning ko‘rsatmasi bilan joylardagi mahalliy partiya, sovet va xo‘jalik organlarining rahbarligi hamda bolsheviklarning qat’iy nazorati ostida amalga oshirildi. 1930 yil 5 yanvarda VKP(b) Markaziy Komitetining “Kollektivlashtirish sur’ati va kolxoz qurilishiga davlatning yordam berish tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Bu qarordan kelib chiqqan holda 1930 yil 17 fevralda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining “Kollektivlashtirish va quloq xo‘jaliklarni tugatish to‘g‘risida”[1] maxsus Qarori qabul qilindi. 1930-1932 yillarda O‘zbekistonda o‘ziga to‘q dehqon xo‘jaliklari quloq sifatida tugatilib, qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish amalga oshirildi[2].

Ma’lumki, Sovet davrida kolxozlar V.I. Leninning kooperativ planiga asosan tuzilgan edi. U dastlab qishloq xo‘jaligi arteli shaklida tashkil topgan. Keyinchalik “qishloq xo‘jaligi arteli” iborasi o‘rniga “kolxoz” atamasi qabul qilindi. Bu atama kolxozning 1969 yilda qabul qilingan kolxoz Namunaviy ustavida o‘z ifodasini topdi.

Umuman olganda, SSSR tarixida kolxozlar faoliyati turli kamchilik va ziddiyatlarga qaramasdan ijobiy rol o‘ynaganligini aytib o‘tish lozim. Bu holat, xususan, Ikkinchi jahon urushi yillarida va undan keyingi dastlabki o‘n yilliklarda ko‘zga yaqqol tashlangan. Kolxozda ishlagan aholi “kolxozchilar” deb atalgan. Kolxozchilar muayyan kolxozda ishlash bilan bir qatorda, o‘zlariga ajratilgan tomorqa xo‘jaligida ham mehnat qilishgan. Ayniqsa, O‘zbekistonda XX asr 60 – 80-yillarida kolxozchilarning tomorqa xo‘jaliklari nisbatan rivojlangan edi.

XX asr 70-80 yillarida O‘zbekistonda agrar qurilish strategiyasining navbatdagi muhim yo‘nalishi sifatida qishloq xo‘jaligini sanoat negiziga o‘tkazish siyosati maydonga chiqdi. Bu davrda O‘zbekistonda ilg‘or kolxozlar va sovxozlar tashkil qilindi. Bu kolxozlar tomonidan ayrim zamonaviy qishloqlar va posyolkalar ham qurildi.

O‘zbekistonda kolxoz va sovxozlar tarixi jamoatchilik instituti tomonidan XX asr 70-80 yillarida 20 ga yaqin kitoblar chop etildi. Bu kitoblarda ilg‘or va mash’al kolxozlar tarixi yoritilib, bunday xo‘jaliklar boshqalarga namuna qilib ko‘rsatildi.

Jumladan, Beruniy tumanidagi Kirov nomli kolxoz Qoraqalpog‘iston ASSRning ilg‘or xo‘jaliklaridan hisoblangan. Xo‘jalik ko‘p tarmoqli bo‘lib, unda paxtachilik, chorvachilik, pillachilik va bog‘dorchilik sohalari rivojlangan. Kolxozning janubi-g‘arbida Bo‘zyob kanali oqib o‘tgan. Kolxoz yerlari Hayitboy-yorgan, Oqsoqol-og‘a ariqlaridan suv ichgan.

1982 yilda kolxozning umumiy maydon 6185 gektar yerni tashkil qilib, undan 2100 gektari sug‘orilgan. Xo‘jalikka qarashli 2000 gektar yer barhan, qumlik va ko‘llardan iborat bo‘lib, 1980-yillarda bu hududlar o‘zlashtirilgan. Kolxozlarda turli millat vakillari istiqomat qilib, o‘zbeklar 70%, qozoqlar 20%, qoraqalpoqlar 10% ga yaqinni tashkil qilgan. Aholiga hammom, madaniyat uyi, klub va kutubxonalar xizmat qilgan[3].

Ana shunday ilg‘or va namunali sovxozlardan yana biri Buxoro viloyati Romitan tumanidagi F. Engels nomli sovxoz hisoblangan. Sovxoz iqtisodiy jihatdan mustahkam hamda aholining turmush darajasi qo‘shni kolxozlarda yashayotgan odamlardan nisbatan yaxshi bo‘lgan. Bu kolxozda paxtachilik, bog‘dorchilik, chorvachilik kabi tarmoqlar keng rivojlangan.

Xo‘jalik hududi 4000 gektarni tashkil qilib, shundan 2500 gektar yerda dehqonchilik qilingan. Xo‘jalik aholisi 4604 kishidan iborat bo‘lgan. Xo‘jalikda o‘zbeklardan tashqari tojiklar, turkmanlar, ruslar, tatarlar ham yashashgan[4].

Bunday namunali kolxozlar nafaqat O‘zbekistonda, balki butun Ittifoqda unchalik ko‘p bo‘lmagan. Har bir viloyat yoki tumanda 1-2 ta shunday zarbdor kolxozlar sun’iy ravishda rivojlantirilib, qolgan o‘nlab va yuzlab kolxozlar hamda sovxozlarda aholining o‘rtacha hayot kechirishi uchun yetarli sharoitlar bo‘lmagan. Xususan, XX asr 70-80 yillarida avj olgan qo‘shib yozish jarayoni va xalq mulkini talon-taroj etish natijasida iqtisodiy ahvoli shunday ham yaxshi bo‘lmagan xo‘jaliklar miqdori tobora ko‘payib borgan.

1985 yil 2 martda Toshkentda V.I. Lenin nomli SSSR xalqlari do‘stligi saroyi (hozirgi

Xalqlar do‘stligi saroyi)da O‘zbekiston paxtakorlari, g‘allakorlari, chorvadorlari va qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlari xodimlarining an’anaviy Kengashi (Qurultoy) o‘tkazilgan. Unda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari Inomjon Usmonxo‘jaev (1930-2017) qatnashib, ma’ruza qilgan. Aslini olganda, bunday kengashlar va qurultoylar avval Sharof Rashidov davrida ham, keyinchalik Rafiq Nishonov va boshqalar respublikaga siyosiy rahbarlik qilgan yillarda ham ko‘p o‘tkazilgan. Bu qurultoylarda tanqidiy fikrlar va sohadagi kamchiliklar ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lsa ham, sovet jamiyatida qayta qurish boshlangan 1985 yildan boshlab, O‘zbekistonda kolxozlar va sovxozlar iqtisodiy jihatdan inqirozga uchray boshladi. Bu davrga kelib, xususan, O‘zbekistonda agrar sohada o‘n yillar davomida to‘plangan muammolar yana ham kuchayib, pirovardida, u xo‘jalik yuritishda kolxoz va sovxoz tizimining butunlay yo‘q bo‘lishiga olib keldi.

1985 yil 14 noyabrida KPSS Markaziy Komiteti va SSSR Ministrlar Sovetining “Agrosanoat kompleksining boshqaruvini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” nomli Qarori qabul qilindi. Qarorga binoan qishloq xo‘jaligi agrosanoat tarmog‘ini rivojlantirish uchun SSSR Qishloq xo‘jalik ministrligi, SSSR Meva-sabzavot xo‘jaligi ministrligi, SSSR Go‘sht va sut sanoat ministrligi, SSSR Oziq-ovqat sanoat ministrligi, SSSR Qishloq qurilishi ministrligi va SSSR Qishloq xo‘jaligini ilmiy ishlab chiqarish – texnik bilan ta’minlash davlat komiteti o‘rniga Ittifoq – Respublika davlat agrosanoat komiteti tuzish zarur deb topildi.

Qarorga ko‘ra, SSSR Davlat agrosanoat komiteti (DAK) mamlakat, agrosanoat kompleksini boshqaruvchi markaziy davlat organi bo‘lib, u ittifoqdosh respublikalarning Ministrlar Sovetlari bilan birga qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish, bu sohadagi davlat rejalarining bajarilishi, bu mahsulotlarni qayta ishlash va sotish bilan shug‘ullanishi kerak edi. Ittifoqning barcha respublikalarida, jumladan, O‘zbekistonda ham Respublika agrosanoat komiteti tashkil qilindi. O‘sha paytdagi O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi ministri Ismoil Jo‘rabekov bu komitetning rahbari qilib tayinlandi.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida 1985-1986 yillardan boshlab, boshqaruvning yangi shakli yuzaga keldi. Barcha tumanlarda rayon agrosanoat birlashmalari (RAPO) tashkil qilindi. RAPO joylarda qishloq xo‘jaligini asossiz ravishda qayta qurish, turli samarasiz islohotlar o‘tkazish bilan shug‘ullandi. Biroq qishloq xo‘jaligidagi bu jarayonlar o‘zini oqlamadi. Butun Ittifoqda bo‘lgani singari O‘zbekistonda ham agrosanoat kompleksi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini bajara olmadi. Aynan XX asr 80-yillari ikkinchi yarmida O‘zbekiston agrar respublika bo‘lishiga qaramasdan bu yerda asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining taqchilligi kuchaydi. Aholining go‘sht, sut, tuxum va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari, hatto oddiy nonga bo‘lgan ehtiyoji to‘liq qondirilmadi. Respublikada mavjud bo‘lgan kolxozlar va sovxozlarda davom etayotgan inqiroz va iqtisodiy tanglik kuchaydi.

Bu paytda islohot dasturlari va turli qarorlarda ko‘rsatilgan jamoa pudrati g‘oyalarining boy imkoniyatlarini ham ro‘yobga chiqarish imkoni bo‘lmadi. Brigada va zveno pudratini shoshilinch ravishda qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining barcha turlarida qo‘llash boshlandi. Ana shu joriy qilingan yangiliklar, masalan, ijaraga berish va xo‘jalik hisobi muqobil tashkil qilingan eskirib qolgan shakllarga asoslangan edi. Sotsializmda iqtisodiyotning bu yangiliklarni tan olishi xohlanmadi.

XX asr 80-yillari o‘rtalariga kelib, brigada pudrati asosida ishlayotgan qishloq aholisining umumiy salmog‘i respublika agroxo‘jaliklaridagi xodimlari umumiy miqdorining 44,5 foizni tashkil etgan[5]. Ayrim pudrat bo‘linmalarining yuqori ko‘rsatkichlarga erishishiga qaramasdan qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishda aytarli ijobiy o‘zgarishlar ko‘zga tashlanmadi.

Agrar sohada salbiy holatlarning ortib borishi natijasida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining samaradorligi pasayib bordi. 1989 yilning oxirlarida qishloq xo‘jaligining yalpi mahsuloti hatto o‘rtacha yillik darajaga ham yetmadi, 3 mlrd. rubldan ortiq mahsulot davlatga topshirilmadi. G‘alla, paxta, poliz ekinlari tayyorlash rejalari surunkasiga bajarilmay keldi. Faqat 1986-1987 yillar mobaynida yetkazib berilmagan paxtaning miqdori 1575000 tonnadan ko‘p bo‘lgan.

Asosiy dehqonchilik ekinlarining hosildorligi barqaror ravishda pasayib bordi[6].

O‘zbekistonda bir yil mobaynida bir kishi iste’mol qiladigan go‘sht Ittifoq bo‘yicha o‘rtacha 62-64 kg o‘rniga 30 kg, sut 341 litr o‘rniga 186 litr, shu jumladan, o‘z resurslari hisobiga 137 litr o‘rniga 21 litrdan tushadi, meva va sabzavotlar iste’mol qilish respublikada 170-173 kg, Ittifoqda esa o‘rtacha 260-270 kgni tashkil qildi[7].

Partiya va sovet organlari agrar sohani rivojlantirish va sohadagi ishlarni o‘nglash uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirdi. Ko‘plab majlislar va yig‘ilishlarda bu masala bir necha marta muhokama qilinib, ko‘plab qarorlar qabul qilinadi. Masalan, 1987 yil 11 iyunda Toshkent shahrida bo‘lgan respublika partiya xo‘jalik aktivlarining yig‘ilishida KPSS Markaziy Komitetining “O‘zbekiston SSR, Tojikiston SSR va Turkmaniston SSRda agrosanoat kompleksining tabiiy-iqtisodiy potensialidan foydalanilayotganligi to‘g‘risida”gi Qarorini bajarish yuzasidan partiya va sovet organlarining agrosanaot komitetlari va birlashmalarining kolxozlar va sovxozlarning vazifalari haqida O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari Inomjon Usmonxo‘jaev ma’ruza qildi[8]. Biroq bu tadbirlar yetarli samara bermadi. Kolxozlar va sovxozlarning tanazzuli kuchayib ketdi. O‘zbekistonda qishloq aholisining turmushi bu davrda yildan yilga pasayib, yomonlashib bordi.

Sovet davlati rahbariyatining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish yuzasidan oldiga qo‘ygan vazifalarni hal qilishga urinishi ham jiddiy muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Iqtisodiyot tuzilmalarini qayta qurish, ularning moddiy bazasini qaytadan tuzish, yangi texnologiyalar va g‘oyalarini ishlab chiqarishga joriy etish yo‘li bilan iqtisodiyot va ijtimoiy sohani jadal rivojlanishni ta’minlash ko‘zda tutilgan edi. Shu maqsadda xalq xo‘jaligini boshqarish va mexanizmini takomillashtirish yuzasidan ko‘plab tajribalar amalga oshirildi. O‘zbekistonda bir qancha sanoat, qurilish va transport korxonalari, ko‘plab kolxoz brigadalari va sovxoz bo‘limlari xo‘jalik hisobi yoki brigada (jamoa) pudratiga o‘tkazildi.

Xullas, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida mehnatni tashkil etishning brigada yoki oila pudrati va ijara singari yangi shakllarini joriy etish ishlari ilg‘or choralar ko‘rilishi bilan bir qatorda, boshqaruv tizimi va ma’muriy-hududiy tuzilishida islohotlar ham amalga oshirildi. Biroq bu islohotlar natijasida boshqaruv organlari kamayish o‘rniga ular yanada kengayib, boshqaruvning byurokratik yo‘li kuchaydi. Boshqaruvchi xodimlar ulushi xalq xo‘jaligida band bo‘lgan xodimlarning umumiy soniga nisbatan 14,5 foizga yetdi, ularni ta’minlashga qilinadigan sarf-xarajatlar miqdori ikki barobar oshdi[9].

Brigada (jamoa) pudratini tashkil qilish tizimni o‘zgartirishni talab qilardi, bu esa pirovard natijada mazkur bo‘g‘inning yangi shakli – rayon agrosanoat birlashmalari (RAPO) paydo bo‘lishiga olib keldi. Tarixiy tadqiqotlarda aytilganidek, RAPOlar qishloq xo‘jaligi rivojlantirishining navbatdagi qutqaruvchi vositasi bo‘lib xizmat qilishi ko‘zda tutilgan edi. Haqiqatda esa, u ma’muriy-boshqaruv organ, agrar sohadagi yangi mahkama diktaturasiga aylanib qoldi[10].

Jamoa pudrati g‘oyalarining boy imkoniyatlarini ham ro‘yobga chiqarish imkoni bo‘lmadi. Brigada va zveno pudrati shoshilinch ravishda qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining barcha tarmoqlarida qo‘llanila boshlandi. XX asrning 80-yillari o‘rtalariga kelib brigada pudrati asosida ishlayotgan qishloq xo‘jaligining umumiy salmog‘i respublika agroxo‘jaliklari xodimlarining umumiy miqdorida 44,5 foizini tashkil etdi[11].

O‘zbekistonda 1981-1985 yillarda har yili o‘rtacha 2380100 tonna don hosili olingan bo‘lsa, 1986-1990 yillarda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 1692400 tonnani tashkil qildi. 1990 va 1991 yillarda respublikaga mos ravishda 1898700 g‘alla va 1908200 tonna don hosili yetishtirildi[12].

XX asr 80-yillari va 90-yillari boshiga kelib, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida chuqur inqiroz hukm surdi. Rayon agrosanoat birlashmalari (RAPO) negizida tashkil qilingan agrosanoat majmuasi (ASM) ham vaziyatni o‘nglashga ojizlik qildi. Qishloq xo‘jaligida asosiy rol o‘ynagan kolxoz va sovxozlar tizimi inqiroz yoqasiga kelib qoldi. Sohada katta o‘zgarishlar

va tub islohotlarni amalga oshirish zarur bo‘lib qoldi.

Xulosa. O‘n yillar davomida kolxoz-sovxoz tizimi bir qadar barqaror rivojlandi. Biroq bu rivojlanish ortida qishloq aholisining fidokorona mehnati, kuchli ma’muriy boshqaruv tizimi, qishloq ustidan shaharning ekspluatatsiyasi yotgan. Kolxozchilar barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha ishchilar sinfidan past turgan. Dehqon atamasi bu paytda o‘zining asl mohiyatini yo‘qotgan edi.

Sovet jamiyatida boshlangan qayta qurish va oshkoralik siyosati barcha sohalarda bo‘lgani singari qishloq xo‘jaligida to‘planib qolgan muammolarni hal qilish o‘rniga shoshma-shosharlik bilan qabul qilgan turli qarorlar, hukumat dasturlari va boshqa tadbirlar natijasida agrar sohadagi inqirozni yanada tezlashtirdi. Qishloq xo‘jaligida o‘tkazilayotgan turli tajriba va urinishlar o‘z samarasini bermadi. Brigada (jamoa) pudrati, ijara pudrati va boshqa shakldagi ijobiy o‘zgarishlar ham chala qolib ketdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1.Ўзбекистон Коммунистик партиясининг очерклари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1964. – Б. 326-327.

2.Ражабов Q., Qандов Б., Ражабова С. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (Энг қадимги даврлардан бугунги кунгача). Тўлдирилган ва қайта ишланган 6-нашри. – Тошкент: O‘zbekiston, 2015. – Б. 203.

3.Олломов С. Юксалиш йўлида // Ўзбекистон колхоз ва совхозлар тарихи очерклари. XI китоб. Бош муҳаррир: Х.Т. Турсунов. – Тошкент: Ўзбекистон, 1982. – Б. 5.

4.Жумаев М. Довон ошаётган хўжалик // Ўзбекистон колхоз ва совхозлари тарихи. XI китоб. – Б. 394.

5.Народное хозяйство Узбекской ССР в 1985 г. Статический ежегодник. – Ташкент: Узбекистан, 1986. – С. 187.

6. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир: М.Жўраев. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 640.

7. “Правда Востока” (Тошкент), 23 апреля 1988 г.

8.Совет Ўзбекистони” (Тошкент), 1987 й, 12 июн.

9. Ражабова Р.Ё. ва бош. Ўзбекистон тарихи (1917-1993 й.) Илмий муҳаррир: А. Асқаров. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 336-337.

10. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккита китоб. Иккинчи китоб. 1939–1991 йиллар // Масъул муҳаррирлар: Р. Абдуллаев, М. Раhимов, Q. Ражабов. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019. – Б. 431.

11. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1985 г. Статический ежегодник. – Ташкент: Узбекистан, 1986. – С. 185.

12. Народное хозяйство Республики Узбекистана в 1992 г. Том II.¬¬ – Ташкент, 1983. – С. 139; Ўзбекистон миллий архиви. М-110-фонд, 1-рўйхат, 13-иш, 139-варақ.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING HUQUQIY TARBIYAGA OID QARASHLARI

Djabborova Yulduz Djumaniyazovna,
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qiituvchisi

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek xalqi tarixining XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi davrda maydonga kelgan jadid ma’rifatparvarlik harakati namoyondasi, maktab va maorif, matbuot, adabiyot va san’at sohalarida islohotchilik ishlarini amalga oshirgan Maxmudxo‘ja Bexbudiyning huquq sohasidagi islohotlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek xalqi tarixi, XIX asr oxiri - XX asr boshlari, jadid ma’rifatparvarlik harakati, Maxmudxo‘ja Bexbudiy, huquq sohasi.

Ma’lumki, “jadid” so‘zi “yangi”, “yangilik” ma’nolarini anglatib, insoniyat tarixida jamiyat va inson hayotidagi tanazzulga qarshi kurashgan, yangi g‘oyalarni targ‘ib qilgan jadidchilik ma’rifatparvarlarining harakatlari davriga to‘g‘ri keladi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda Turkiston, Buxoro va Xivada, shuningdek, ayrim xorijiy Sharq mamlakatlarida junbishga kelgan jadid ma’rifatparvarlik harakati katta tusiqlarga uchragan. Bugun biz, oradan 100 yil o‘tganidan keyin, Turkistonda M.Bexbudiy rahbarligida yuzaga kelgan jadid ma’rifatparvarlik harakati tarixini o‘rganganimizda, ularning qanday murakkab sharoitda yangi maktablarni ochgani, milliy matbuotga asos solgani, yangi badiiy adabiyot va teatr san’atiga tamal toshini qo‘yganini o‘ylasak, ularning bu faoliyatlarini fidoyilik va jasorat deb baholash lozim bo‘ladi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy merosi adabiyot, tilshunoslik, dinshunoslik, siyosat, tarix, falsafa, geografiya kabi qator fanlar doirasida o‘rganilgan. Milliy va xorij ilm-fanida juda ko‘p tadqiqotlar yaratilgan. Tabiiyki, huquq sohasi ham mustasno emas. Chunki Behbudiy milliy mustaqillik uchun qilgan barcha harakatlarini siyosiy, huquqiy yo‘nalish orqali amalga oshirilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, qipchoq millatidan Muhammadjon Shermuhamedov”. Ko‘rinib turibdiki, ushbu sanadan e’tiboran Behbudiy sovet hukumati tarkibida yuqori martabali mulozim sifatida faoliyat boshlagan.

O‘zbekiston davlat milliy arxivida komissariat xodimlari soni va ularga to‘lanadigan maoshlar haqidagi ma’lumotlar bilan ham tanishdim. Behbudiyning maoshi 700 rubl miqdorida belgilangan ekan. Bu o‘sha davr vazir o‘rinbosarining maoshi bilan bir xil bo‘lgan. Komissar o‘rinbosari sifatida ma’naviy va ma’rifiy masalalarga mas’ul bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy tashabbusi bilan shu davrda “Ishtirokiyun” (“Kommunist”) gazetasi chop etila boshlaydi. Nashrning Bosh muharriri etib Orif Klivliev tayinlanadi, u 1906 yilda Rossiyadan Turkistonga kelgan va Farg‘ona vodiysidagi jadid maktablarida muallimlik qilib kelayotgan edi.

1918 yilga kelib Mahmudxo‘ja Behbudiyning siyosiy faolligi ancha oshadi. Arxiv hujjatlarida qayd etilishicha, u yoz oylarida Toshkentga kelib Turkiston hukumatining Qurultoyida ishtirok etadi, oziq-ovqat muammosini hal qilish va ocharchilikka barham berish masalalariga bag‘ishlangan maqolalarni chop qiladi. Partiya, ijroiya organlari mutasaddilari bilan uchrashadi. Turkiston o‘lkasining rahbar va mulozimlari bilan uchrashuvlari haqidagi arxiv hujjatlarining hammasi ham to‘liq o‘rganilmagan. Hozirgi kunda mutaxassislar bu yo‘nalishda keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borsalar, ayni muddao bo‘lar edi.

Ma’lum bo‘lgani shuki, qisqa davr ichida Behbudiy sovetlar, kommunistlar siyosati mafkurasining noto‘g‘ri yo‘nalishda ekanini anglab yetadi. Uni hatto mahalliy xalqlar uchun zararli, degan hulosaga keladi. Natijada, 1918 yilning oktyabr-noyabr oylarida mazkur tizim tarkibidan chiqishga qaror qiladi. Hujjatlarga ko‘ra, Turkiston komissarlar Kengashi raisi Malkovning imzosi bilan 1918 yil 5 noyabrdan e’tiboran, Mahmudxo‘ja Behbudiy rahbarlik

qilgan sektor tarqatib yuboriladi, sektor a’zolariga berilgan targ‘ibot-tashviqot olib borish huquqini beruvchi guvohnomalar bekor qilinadi. Behbudiyning o‘zi mazkur tashkilotni tark etadi va shu kundan boshlab faoliyat olib borishning boshqa yo‘llarini izlashga tushadi.

Bexbudiy “A’molimiz yoinki murodimiz” sarlavhali maqolasida turkistonliklarning turli tadbir, to‘ylaridan tortib milliy o‘yinlarigacha bo‘lgan har kunlik turmush tarzini tahlil qilar ekan, xalqni ko‘zini ochib yon-tevaragidagi millatlar ishlariga va qanday yashayotganlariga qarashga chaqiradi. U xalqni isrofli tadbirlardan voz kechib, ularga sarf qilinadigan mablag‘ni iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida milliy kadrlar tayyorlash maqsadida davlat ta’lim muassasalarida bolalarni o‘qishi uchun yo‘naltirishga da’vat etadi. Behbudiy bu harakatlarini umummilliy ishlar, oliy maqsadlar, xoxishlar va intilishlar deb ataydi. [1]

Jadid ma’rifatchilarining erkparvarlik va tashqi siyosiy hamda ijtimoiy aloqalari tizimini o‘rganishda Maxmudxo‘ja Bexbudiynning xam ahamiyati yuksak bo‘lganligini e’tirof etib o‘tish kerak. Maxmudxuja Bexbudiy olim sifatida tarix falsafasi nuqtai-nazaridan tarixiy qonuniyatlarning ayrimlarini Turkiston tarixi misolida ko‘rsatadi va asoslaydi.

Maxmudxuja Bexbudiyning «Oyna” jurnali, «Samarqand” va boshqa gazetalarda ijtimoiy-siyosiy sohadagi har bir maqolasini «O‘zbekiston tarixi”, «Jahon tarixi”, «Madaniyatshunoslik” va boshqa fanlarga tegishli bo‘limlarida, ayniqsa, XIX asrning oxiri va XX asr boshlaridagi davr tarixini o‘rganishda foydalanish mumkin. Chunki Maxmudxuja Bexbudiy olim sifatida Turkistonning tushkunlik holatini sabablarini ochib bera olgan. Shuningdek, Turkistonning og‘ir tushkunlikdan chiqarish yo‘llarini aniq va ravshan ko‘rsatib bergan.

Jadidchilik harakatining muxim faoliyatlaridan biri milliy matbuot va jurnalistikasiga asos solish bo‘ldi. Jadidlar o‘z davrida xalqning savodxonlik darajasini oshirmasdan, madaniy axloqiy jihatdan xalq ongini rivojlantirmasdan samarali natijaga erishib bo‘lmasligini bilar edilar. Shu sababdan ham asosiy e’tibor xalqning ijtimoiy-xuquqiy ongini oshirishga qaratilganligi xam bejiz emas edi.

Ma’rifatchilik asosan uch soha orqali tezkor tarzda taraqqiy topib bordi. Bular - maorif (yangicha maktablar ochish, ta’lim usulini yangilash), san’at (badiiy adabiyot, teatr) va matbuot. Pirovard maqsad millatni, bir tomondan, ilmli - ma’rifatli qilish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg‘unlashuvi natijasida o‘zligini, o‘z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga yetkazish edi. Turkiston ma’rifatchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yo‘lida katta ishlar qilindi.

Jadidchilar asosiy e’tiborini jamiyatda ma’naviyatni rivojlantirishga qaratdilar. Ular yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, gazetalar chiqarish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini nashr ettirish, G‘arbning yangi madaniyat va texnologiya uslubiyatlarini joriy etish zaruriyatini xamda uni Turkistonda targ‘ib etish orqali milliy-dunyoviy ta’limni yuzaga keltirish, ma’naviy hayotni yangilash va boyitish orqali milliy o‘zlikni anglashni yuksaltirishga zamin yaratishga intilganlar.

Bunday siyosiy yondashuv bevosita jamiyatda adolatli-demokratik davlat qurilishining asoslarini rivojlanishiga xizmat qiladigan nazariy omillar ekanligini e’tirof etmasdan bo‘lmaydi. Albatta, ular o‘sha tarixiy davrda demokratiyaning tom ma’nodagi ko‘rinishlaridan uzoqda bo‘lganlar.

1917-1918 yillarda jadidlar milliy-madaniy muxtoriyat qurilishi tamoyillarini ulkan rivojlantirishning amaliy dasturlarni, Turkistonda davlatchilik shakli va uni boshqarish vakolatlari, barcha sohalar bo‘yicha qonunlarni joriy etish, sud organlarini tashkil qilish, davlat tuzilmalarini yaratish kabi masalalariga katta e’tibor berishgan. Ammo shu davr siyosiy sharoiti hamda yerli xalqning tushunchasida Turkistonda mustaqil demokratik jamiyat qurish to‘g‘risidagi qarashlari bir muncha cheklanganligini ko‘ramiz. Behbudiyning “Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi” dasturida to‘la mustaqil demokratik jamiyat to‘g‘risida emas, davlatning avtonomiya shakli nazarda tutiladi.

1917 yildagi Umumturkiston musulmonlarining qurultoyida ham davlatchilik qurilishi

to‘g‘risidagi qarashlarda demokratik yoki federativ shakllari to‘g‘risida bahs olib boriladi. Ammo ularning demokratiya va federatsiya to‘g‘risidagi qarashlari ham aslida konstitutsion monarxiya tuzumidan tashqariga chiqib ketolmasdi.

M.Bexbudiy tomonidan asos solingan «Oyna» jurnalida e’lon kilingan «Tarix va geografiya» makolasida yozadi: «Xdyotga ishonish uchun, komil va odil inson bulish uchun tarixni o‘rganish va uni bilish lozim». Davom etib yozadi: «Iloxiy va dunyoviy xayot tugrisida bilim xosil kilmokchi bulgan xar bir kishi tarixni o‘rganishi kerak, chunki butun mavjudotning ibtidosi va kelib chiqishi tarix orsali idrok etiladi».

Bexbudiy uz xalsining ravnatsini nafasat ta’lim-tarbiya, ayni paytda, mustatsillik tufayli uning siyosiy masomidagi tub o‘zgarishlar bilan bog‘laydi. O‘zining ko‘plab maqolalari va qizg‘in faoliyati orqali u Rossiya imperiyasi va muvaqqat qukumatning mustamlakachilik siyosatini fosh etdi, ularning maxalliy axolining axvolini og‘irlashtirgan qonunlarini tanqid qildi. Lekin, Bexbudiyning qat’iy ishonchiga ko‘ra, mustaqillikni kurashsiz qo‘lga kiritib bo‘lmaydi. «Shuni bilish kerakki, - yozadi u, - xaq olinur, berilmas. har bir millat va mamlakat xalqi o‘zining diniy va siyosiy xaq-xuquqlarini kurash orqali qo‘lga kiritadi» Lekin Bexbudiy mustamlakachilikka qarshi qon to‘kmasdan kurashish tarafdori edi. U Duma faoliyatini diqqat-e’tibor bilan kuzatib borardi va parlament kurashi orsali kup narsaga erishish mumkin deb xisoblardi. Turkiston muxtoriyatining sat’iy tarafdori sifatida u taraqqiyotni olg`a siljitishning evolyusion (tadrijiy) shakllarini ma’sullar edi.

Maxmudxuja Bexbudiy tasavvurida Turkistonning siyosiy tuzilmasi uz ichiga davlat saylov organlari (Markaz va Majlis), soziylik sudlari tizimini bekor silish va ularning urniga davlat sudlarini joriy etish, apellyatsiya (shikoyat) komissiyalari va Oliy sud palatasini olishi kerak edi.

M.Bexbudiy kutargan masalalar kulami juda keng. Ular orasida maorif masalalari, siyosiy muammolar, ma’naviyat va axlos-odob xam, nikoh masalalari, tarixiy-geografik mavzular ham, til siyosati masalalari, etnografiya muammolari va boshqalar ham bor.

M.Behbudiy faoliyatining asosiy samarasi, shubhasiz, u tomonidan 1913 yilda asos solingan, jadidlarning jarchisiga aylangan va tez fursatda ommalashib ketgan «Oyna» jurnali edi. Jurnal materiallari mavzusi va janriga ko‘ra ilmiy-ma’rifiy, adabiy maqolalarga ajratilardi. Jurnal jamiyatning madaniy va ijtimoiy hayotidagi yangi jarayonlarni keng yoritdi; unda, shuningdek, kino, teatr, yangi kutubxona va o‘quv zallari haqidagi xabarlar berib borilgan. Jamiyat tartib-intizomi to‘g‘risidagi ilmiy maqolalar asosiy o‘rin tutgan. Yaponiyadan tortib Amerikagacha bo‘lgan xorijiy mamlakatlar hayotini yoritishga ham katta e’tibor berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qosimov B. va boshq. Milliy uygonish. -B.190.
2. Bexbudiy M. Turkiston madaniy muxtoriyati loyixasi. Jaxon adabiyoti, 2003 yil. Avgust. B.146.
3. Dustsoraev B. Uzbekistonda yangi davlatchilik ma’rifati // Jamiyat va boshsaruv, 1997 yil, 2-son. B.13.
4. Chusay M. Istislol jallodlari. Toshkent: F. Fulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1992. B. 6.
5. A’zamxujaev S. Turkiston Muxtoriyati: milliy demokratik davlatchilik uchun kurash tajribasi. Toshkent: Ma’naviyat, 2000. B. 6-28; Krsimov B. Milliy uygonish. Toshkent: Ma’naviyat, 2002. B. 8.

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

O’ZBEK VA INGLIZ TILI MEDIAMATNLAR DIAXRONIK KORPUS BAZASINI AVTOMATLASHTIRISH VA DEZAYN MUAMMOLARI

Ataboyev Nozimjon Bobojon o’g’li
Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
BuxDU Xorijiy tillar fakulteti dekani

Annotatsiya. Insoniyatning intellektual boyligini elektron korpus asosida avtomatik raqamlashtirish zamonaviy tilshunoslikning bugungi kundagi dolzarb vazifalari sirasiga kiritildi. Shu sababli til yoki tilning muayyan qismini o‘zida ifoda etgan, yozma va og‘zaki matnlarni umumlashtirgan elektron lisoniy baza – korpus tahlil metodlarining amaliy ifodasi bo‘lgan milliy korpuslar til rivoji, leksik qatlam boyishi va uning bugungi kuni xususidagi statistik tahlilini aniq sonlarda takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Dunyoda lisoniy tadqiqotlar sifati statistik tahlillarga asoslanar ekan, sohada til korpuslarini yaratish amaliyotining samarali natijasi matn tahlili jarayonida sarflanadigan vaqtning tejalishiga imkon yaratadi. Ushbu maqola o‘zining oldiga diaxronik korpuslar tushunchasiga ilmiy izoh berish bilan bir qatorda, o‘zbek tilining ingliz tili bilan hamohang diaxronik korpusini yaratishning ahamiyatini va uni avtomatlashtirish nazariyasini tahlil qilishni maqsad qilib belgilagan.

Kalit so’zlar: Corpus linguistics, text, corpus, diachronic corpus, base, concordance, automation.

AUTOMATION AND DESIGN PROBLEMS OF DIACHRONIC CORPUS OF UZBEK AND ENGLISH LANGUAGE MEDIA TEXTS

Ataboyev Nozimjon Bobojon o’g’li
Doctor of philosophy (PhD) in philology, associate professor
Dean of the Faculty of Foreign Languages of BukhSU

Abstract. Automatic digitization of the intellectual wealth of mankind based on the electronic corpus has been included among the current tasks of modern linguistics. Therefore, it is of urgent importance to collect an electronic linguistic database that summarizes written and spoken texts, which represents a language or a certain part of the language, is a practical expression of corpus analysis methods, national corpora, language development, enrichment of the lexical layer, and the improvement of its statistical analysis in specific numbers. Since the quality of linguistic research in the world is based on statistical analysis, the effective result of the practice of creating language corpora in the field allows saving the time spent in the process of text analysis. In addition to giving a scientific explanation to the concept of diachronic corpora, this article aims to analyze the importance of creating a diachronic corpus of the Uzbek language in harmony with the English language and the theory of its automation.

Key words: Corpus linguistics, text, corpus, diachronic corpus, base, concordance, automation.

ПРОБЛЕМЫ АВТОМАТИЗАЦИИ И ПРОЕКТИРОВАНИЯ ДИАХРОНИЧЕСКОГО КОРПУСА УЗБЕКСКИХ И АНГЛОЯЗЫЧНЫХ МЕДИАТЕКСТОВ

Атабоев Нозимжон Бобожон угли
Кандидат наук (PhD) по филологии, доцент
Декан факультета иностранных языков БухГУ

Аннотация. Автоматическая оцифровка интеллектуальных богатств человечества на основе электронного корпуса вошла в число актуальных задач современной лингвистики. Поэтому актуально создание электронной лингвистической базы данных, обобщающей письменные и устные тексты, представляющей язык или определенную часть языка, являющейся практическим выражением методов корпусного анализа, национальных корпусов, развития языка, обогащения лексического слоя и совершенствование его статистического анализа в конкретных цифрах. Поскольку качество лингвистических исследований в мире основано на статистическом анализе, эффективный результат практики создания языковых корпусов в полевых условиях позволяет сэкономить время, затрачиваемое на процесс анализа текста. Помимо научного объяснения понятия диахронического корпуса, в данной статье ставится задача проанализировать важность создания диахронического корпуса узбекского языка в гармонии с английским языком и теории его автоматизации.

Ключевые слова: Корпусная лингвистика, текст, корпус, диахронический корпус, база, конкорданс, автоматизация.

Kirish. Diaxron va sinxron tadqiqotlar va yondashuvlarga to‘xtalinganda sinxron va diaxron lingvistik tahlilga bir-birini to‘ldiruvchi ikkita nuqtai nazar sifatida qarash o‘rinlidir. Sinxron yondashuv (qadimgi yunonchadan: syan-“birga” va chrós- “vaqt”) tilni uning tarixini hisobga olmagan holda vaqtning bir lahzasida ko‘rib chiqadi. Demak, sinxron tilshunoslik tadqiq etilayotgan tilni ma’lum bir vaqtning o‘zida, ya’ni, ayni hozirgi zamon doirasida tasvirlash, tahlil qilish va o‘rganishga qaratilgan. Bundan farqli ravishda, diaxron (dia-“orqali” va chrós-“vaqt” so‘zlaridan) yondashuv, tarixiy tilshunoslikda bo‘lgani kabi, tilning tarix orqali rivojlanishi va evolyutsiyasini ko‘rib chiqadi .

O‘zbekcha electron Qomus lug‘atida diaxron tadqiqotlar quyidagicha izohlanadi: Diaxroniya – til tizimining lingvistik tadqiqot manbai sifatidagi tarixiy taraqqiyoti, til taraqqiyotini vaqt nuqtayi nazaridan o‘rganish. Tilshunoslikda diaxroniya tushunchasi sinxroniyaga qaramaqarshi qo‘yiladi. Diaxronik tilshunoslik ba’zan qiyosiy-tarixiy tilshunoslik hamda tarixiy fonetika bilan aynan bir fan tarmoqlari deb qaralgan. Keyinchalik uning tadqiqot obyekti sifatida tildagi o‘zgarishlarni, bu o‘zgarishlarning sabablarini, paydo bo‘lish davrini o‘rganish nazarda tutildi. XX asrning 2-yarmida diaxronik yondashuv, til tarixini davrlarga bo‘lib o‘rganish bilan bog‘liq sof tarixiy yo‘nalishdan farqli o‘laroq, til tizimida sodir bo‘ladigan diaxronik o‘zgarishlarni, tilning tizim sifatidagi taraqqiyoti qonuniyatlarini o‘rganishga qaratildi. Diaxroniya til faoliyati xususiyatlarini zamonda, jumladan, sinxroniyada bilishga imkon beruvchi vosita bo‘lib, umuman til nazariyasining muhim qismidir .

Shunday ekan, diaxron terminini korpus lingvistikasiga ham kiritilishi uning mazmuniy va vazifaviy xususiyatlariga soya solmaydi. Ya’ni, diaxronik korpus turli davrlardagi matnlarni o‘z ichiga olgan korpus bo‘lib, tilning rivojlanishi yoki o‘zgarishini tadqiq qilish uchun ishlatiladi.

Asosiy qism. “Korpus – bu lisoniy matnlar to‘plami bo‘lgani uchun emas, balki u yaxshi ishlab chiqilgan va ehtiyotkorlik bilan tuzilgan bo‘lsa, o‘rinli dezayn berilgan bazaviy xususiyatlari tufayli ajoyib tushunchadir” [13]. Bizningcha, olimning fikrini ma’qullagan holda korpusni istalgan shakldagi, taxminiy tanlangan har qanday turdagi matnlar jamlanmasi sifatida qabul qilishni rad etamiz hamda korpus yaratish metodlarini ketma-ket, uzluksiz

ravishda va to‘g‘ri qo‘llagan holda tadqiq etilayotgan tilni ifoda etuvchi autentik materiallardan yig‘ilgan lisoniy baza elektronlashtirilsa, shundagina uni korpus deb atash mumkin ekanligini ta’kidlaymiz.

Korpuslarni yig‘ish, uni avtomatlashtirish, kompyuter qurilmalari vositasida ular ustida ishlash va dezayn muammolarining ahamiyati borasida quyidagi olimlar bir qator ilmiy-amaliy ishlarni amalga oshirganlar: S.Hunston korpus dizayni va korpus turlari haqida to‘xtalib, korpus tushunchasi oid qarashlardagi o‘zgarishlar, xususan, kichik korpuslarni katta korpusdan maxsus asosda tuzish imkonini beruvchi metama’lumotlar bilan ta’minlash, hajm, muvozanat, reprezentativlik va taqqoslashning dizayn xususiyatlariga alohida urg‘u berish kerakligini ta’kidlaydi [7]. J. Egbert, D. Biber va B. Gray kabi olimlar korpuslar yatatish amaliyoti lingvistik tadqiqotlarda hamma joyda mavjudligini, ammo hozirgi kunga qadar korpus reprezentativligini kontseptual asoslash va bu borada korpus namunalarini qanday yig‘ish bo‘yicha konsensus mavjud emasligini ta’kidlab [3], korpus dizayni va reprezentativligi uchun kontseptual va uslubiy asosni joriy etish orqali bu bo‘shliqni to‘ldirishga oid nazariy qarashlarni o‘rtaga tashlaydi.

D. Biber, E. Karantzola, B. Gray, S. Raineri va D. Camille, S. Gries, P.Hanks, M.B. O‘Donnell va boshqa qator olimlar korpuslar yaratish amaliyoti [1; 8; 2; 4; 12; 5; 6; 10], unda til korpuslarining namunaviylik, reprezentativlik va boshqa xususiyatlari to‘g‘risida so‘z yutirib, ushbu omillarni to‘g‘ri amalga oshirish uchun tadqiqotchilarga eng asosiy vazifa korpus dezaynini aniq belgilab olinganligining dolzarbligini ta’kidlashadi. Aytish joizki, ilmiy sohaga yo‘naltirilgan korpusni loyihalashdan oldin korpus dizayni asosidagi eng muhim tamoyillarni aniqlab olish kerak. Ixtisoslashgan korpuslar paydo bo‘lishi bilan bu mavzu bo‘yicha juda ko‘p munozaralar va dizayn, qurilish va qo‘llanilishiga oid eng yaxshi amaliyot qoidalari yuqorida sanab o‘tilgan ko‘plam tilshunoslar tomonidan ishlab chiqilgan. Biroq, ularning fikricha, asosiy tushuncha shundaki, korpus qanchalik katta bo‘lmasin, u puxta ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan taqdirdagina tilshunoslar qo‘lida foydali vositaga aylanadi. Demak, korpuslar yaratishda faqatgina manbani unumli, o‘rinli shakld tuzish orqali jarayon yakunlanmaydi, aksincha, korpusning internet havolasiga joylanishi bilan tugaydigan ketma-ketlik mantiqiy ma’romiga yetkazilishi kerak.

Qolaversa, biz tomonimizdan ishlab chiqib, taqdim etilgan olti bosqichli korpus lingvistikasi metodologiyasining to‘rtinchi bosqich metodlari korpuslarni to‘liq elektron shaklga o‘tkazishga qaratilgan avtomatlashtirish metodlaridir. Bu bosqichdagi metodlar barcha yig‘ilgan, saralangan, havolali metadataga biriktirilgan va tekshirib chiqilgan matnlarni elektron shakldagi korpus ko‘rinishiga keltirish hamda uning dizayni bilan ishlaydi. Shuningdek, korpuslarda konkordanslarning shakllanishi, qidiruvga berilgan so‘zning va u birikib kelgan so‘zlarning rangidan tortib, korpus tahlil asosida erishilgan natijalarni grafik ko‘rinishlarda ifoda eta olishi kabi keng imkoniyatlarni o‘zida mujassamlashtirishiga qaratilgan ishlash aynan shu bosqichda olib boriladi. Bu bosqich metodlari yordamida amalga oshirilgan ishlar ilmiy tadqiqotning keyingi bosqichida juda katta yordam beradi. Zero, o‘ziga kerakli ko‘rinish va ma’lumotlar taqdimotini shakllantirgan tadqiqotchi izlanishning keyingi bosqichida o‘zi uchun zamin yaratadi, desa bo‘ladi. Inge de Monnink va boshqalar ilk bor Biber tomonidan MF/MD (Multi-Feature/Multi-Dimension) – ko‘p tarmoqli metodlarning bosqichlarini ham eslatib o‘tgan [9]. Ular soni to‘rtta bo‘lib, dastlabki tahlillar (preliminary analyses), omillar tahlili (factor analysis), hisoblash omillari koeffisienti (compute factor scores) va klaster tahlili (cluster analysis) kabilarni o‘z ichiga olishini aytib o‘tadi. Bu bosqichlarning amalda qo‘llanilishi aynan avtomatlashtirishga oid tahlillarga qaratilgan bo‘lib, har bir bosqich o‘z ichiga bir necha maqsadni belgilab olgan. Dastlabki tahlillar:

1) potensial muhim lisoniy xususiyatlarni va janrlarni aniqlash uchun oldingi tadqiqotlarni ko‘rib chiqadi;

2) korpusdagi matnlarda ushbu xususiyatlarning paydo bo‘lish chastotasini aniqlaydi.

Omillar tahlili:

1) yuqori chastotalar bilan birga keladigan klasterlash xususiyatlari va chastotalar bo‘yicha omillarni tahlil qiladi;

2) har bir omilni tashkil etuvchi xususiyatlar bilan keng tarqalgan kommunikativ funksiyalarni baholash orqali omillarni matn o‘lchamlari sifatida talqin qiladi.

Hisoblash omillari koiffesenti:

1) har bir omil uchun, har bir matn uchun koiffesentlarni hisoblaydi;

2) omillar koeffisientining janrlar orasida taqsimla-nishini tahlil qiladi;

3) matnli o‘lchamlarning keyingi funksional talqini ko‘rib chiqadi.

Klaster tahlili:

1) bir-biriga o‘xshash matnlarni klasterlaydi.

2) klasterlarni «matn turlari» sifatida talqin qiladi.

Xulosa. Lingvistik birliklarning xususiyatlari, ularning nutq tarkibidagi xossalariga oid minglab misollarning konkordansda aniqlanishi korpusning birlamchi xususiyati sanaladi. Shunday ekan zamon talablariga hamnafas bo‘lishni istovchi har qanday tilshunos borki lisoniy tadqiqotlarda korpus lingvistikasining yutuqlaridan foydalansa, tezkorlik, statistik aniqlik va empirik tahlilga yetarli misollarga osonroq yetisha oladi. Shu o‘rinda tillar tarixini, ularning tadrijiy rivojini kuzatib borish maqsadida keng foydalanilayotgan diaxronik korpuslar yaratish zarurati barcha tillar qatori o‘zbek tilining ham oldida turgan muammolar sirasiga kiradi. Zero, bugungi kunda o‘zbek tilining ilk korpuslari yaratilayotgan bo‘lsada, uning tarixiy/monitor korpusi haligacha yaratilmagan. Bunday turdagi korpusni yaratish uchun, unda elektron shakldagi manbalar bilan ishlas amaliyotlarini avtomatik amalga oshirish prinsiplarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Biber D. Representativeness in corpus design. // Literary and Linguistic Computing 8, 1993. – pp. 243-257. Available at https://www.semanticscholar.org/paper/Representativeness-in-corpus-design-Biber/e562225df181df2d2f2dee9355d887895b8350db;

2. Biber D. Using Register-Diversified Corpora for General Language Studies. // Comput. Linguistics (19). 1993. – pp. 219-241. Available at https://www.semanticscholar.org/paper/Using-Register-Diversified-Corpora-for-General-Biber/79a0e0d47f80d9cfb3b50bf6aa6922a0026b93aa

3. Egbert J., Biber D., Gray B. Designing and Evaluating Language Corpora. – Cambridge University Press. Available at https://assets.cambridge.org/97811071/51383/frontmatter/9781107151383_frontmatter.pdf

4. Gray B. Exploring Methods for Evaluating Corpus Representativeness. 2017. Available at https://www.semanticscholar.org/paper/Exploring-Methods-for-Evaluating-Corpus-Gray/ba4a57dcb8555f2a035dad72fb65c9de8cd2408e

5. Gries S. Th. Dispersions and adjusted frequencies in corpora // International Journal of Corpus Linguistics. V. 13. 2008. – pp. 403-437. Available at https://www.semanticscholar.org/paper/Dispersions-and-adjusted-frequencies-in-corpora-Gries/8c21dbcf9cf398933ea36ad1cdc21290902f0f51

6. Hanks P. The Corpus Revolution in Lexicography // International Journal of Lexicography. V. 25. 2012. – pp. 398-436. Available at https://www.semanticscholar.org/paper/The-Corpus-Revolution-in-Lexicography-Hanks/d261f0ce88755845ff23b6c93fe45a61028a1560

7. Hunston S. Designing a Corpus. In: Corpora in Applied Linguistics. // Cambridge Applied Linguistics. – Cambridge University Press; 2022. – pp.18-46. Available at https://www.cambridge.org/core/books/abs/corpora-in-applied-linguistics/designing-a-corpus/8AA5B087C4997242886B6E0C99AAF58D

8. Karantzola E. Investigating the linguistic representativeness of Early Modern Greek

Corpora.// Digital Lexis and Beyond. 2021 Available at https://www.semanticscholar.org/paper/Investigating-the-linguistic-representativeness-of-Karantzola-Kostopoulos/d5ca52388e4a30571eabad62ab8473d7524dbe93#citing-papers

9. Mönnink I., Brom N. and Oostdijk N. Using the MF/MD Method For Automatic Text Classification./Extending The Scope Of Corpus-Based Research. – New York: 2003. – 15-25 pp.

10. O'Donnel M. B. KWICgrouper – Designing a tool for corpus-driven concordance analysis // International Journal

11. Of English Studies. – University of Liverpool. Liverpool. vol. 8 (1), 2008. – pp. 107-121. Available at https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1072200.pdf

12. Raineri S. and Camille D. Corpora and Representativeness: Where to go from now? // CogniTextes, 2019. Available at https://www.semanticscholar.org/paper/Corpora-and-Representativeness%3A-Where-to-go-from-Raineri-Debras/63c57933ce14eb855984168a9398a72ae654f12d

13. Sinclair J. Corpus and Text – Basic Principles // Developing Linguistic Corpora: a Guide to Good Practice. – Tuscan Word Centre. 2004. Available at https://bond-lab.github.io/Corpus-Linguistics/dlc/chapter1.htm

TARJIMALARDA NUTQNING MADANIY MOSLASHISH HOLATLARI

Komilova Dildora Shavkatovna
Ўқитувчи, Тошкент Давлат шарқшунослик университети

Annotatsiya: Ushbu maqolada noqardosh xalqlar o‘rtasidagi tarjimadalarda nutq odobining madaniy moslashishi va umumiy kontekstda muqobillarini topib, ulardan unimli foydalanish xaqida ma’lumotlar taxlil qilingan.

Kalit so‘zlar: nutqning madaniy moslashish, arxaik so‘zlar, evfemizm, muqobil so‘zlar, ma’daniyatlar aro muloqot, asliyatni saqlash, adabiy tarjima.

Annotation: In this article, information about the cultural adaptation of speech etiquette in translations between non-fraternal peoples and finding alternatives in the general context and their effective use is analyzed.

Key words: cultural adaptation of speech, archaic words, euphemism, alternative words, intercultural communication, preservation of originality, literary translation.

Аннотация: В данной статье анализируются сведения о культурной адаптации речевого этикета при переводах между небратскими народами и поиске альтернатив в общем контексте и их эффективном использовании.

Ключевые слова: культурная адаптация речи, архаические слова, эвфемизмы, альтернативные слова, межкультурная коммуникация, сохранение оригинальности, художественный перевод.

Kirish qismi: Tarjimalarga xalqlar o‘rtasida ma’rifat tarqatish vositasi deb qarash, u orqali o‘zga xalqlar bilan yaqinlashishni ko‘zlash davom etib bordi. To XX asrgacha Evropa xalqlarining ko‘plab madaniy, ilmiy, tarixiy, adabiy yodgorliklari o‘zbek tiliga o‘girildi.

Tarjima bu bir so‘zning bir tildan boshqa tilga o‘girilayotganda ma’noning aslligini saqlab qolishdir. Ba’zi tarjimalarda siz faqat ma’noni, boshqalarida esa faqatgina ibora va to‘g‘ri talaffuzni ko‘rishingiz mumkin.

Muayyan holatda ishlatiladigan so‘zlar, ularning ma’nosiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Muayyan so‘z aloqa o‘rnatilgan vaziyatdagi turli faktorlarga bog‘liq bo‘ladi. Tarjimon vaziyatga bog‘liq bo‘lgan so‘z ma’nolaridan xabardor bo‘lishi lozim. So‘zlar munosabat va tuyg‘ulami ifodalaydi. Masalan: “ona” so‘zi ko‘pgina insonlar uchun ijobiy ma’noga ega. “Ayol” so‘zi boshqa tomondan neytral ma’noga ega, ammo “jodugar” so‘zi ko‘pchilik inglizlar uchun salbiydir. So‘zlar insonlarda hissiy javob paydo qiladi. Yuqoridagi so‘zlaming barchasi bir insonga nisbatan qo‘llanishi yoki qo‘lanmasligi mumkin.

Asosiy qism: So‘z bir insonga qaratilgan bo‘lsa ham ular orasida hissiy bo‘yoqda farq bo‘ladi. Masalan: “father”, “daddy”, “dad”, “pap” so‘zlari leksik birliklar, ulaming barchasi oldingi avloddan bo‘lgan qarindosh kishini ifodalaydi. “Ota” - “father” so‘zi hurmatni “dadajon” - “daddy” - yaqinlikni ifodalaydi. Insonlar ko‘pincha so‘zlarni denotativ ma’nosiga e’tibor berib qolmay, ulami hissiy bo‘yoqdorligiga ham qarashadi. So‘zning konnotativ ma’nosi madaniy tarzda bo‘ladi. Bir madaniyatda ijobiy ma’noga ega bo‘lgan so‘z boshqa madaniyatda salbiy ma’noda kelishi mumkin. Masalan: “tribe”-“qabila” so‘zi. Dunyoning ba’zi qismlarida insonlar “tribe”-“qabila” deb atashlariga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishadi.

Ba’zi joylarda insonlar bunday atalishni yoqtirishmaydi. To‘g‘ri ma’noda, qabila-etnik gumhdir. Agar so‘z tarjima uchun tanlangan bo‘lsa, so‘zning ijobiy va salbiy tomonlari ham hisobga olinishi kerak. “Tulki” so‘zi ingliz tilida yolg‘onchi, ayyor ma’nosini beradi. Ba’zi tiliarda bu so‘z hech qanday his chaqirmaydi, hatto ijobiy ma’noda bo‘lishi mumkin. Asliyat tilidagi to‘1iq neytrallikka ega bo‘lgan so‘zlar adabiy tarjima natijasida tarjima qilinayotgan tilda kuchli his-tuyg‘uni ifodalashi mumkin. So‘zlar o‘zlarining ajralmas ma’nosida ham

o‘zgarishi mumkin.

Yuqoridagi “qabila” so‘zi neytral ma’noda bo‘lsa ham, keyinchalik salbiy yoki ijobiy ma’no kasb etishi mumkin. So‘zlar ko‘pincha salbiydan ijobiy tomonga yo‘nalib boradi. Masalan: “skinny”-“qotma”, “thin”- “ozg‘in”, “slender” — “nozik” ko‘pchilik insonlar uchun quyidagi ma’r.olarga ega: “skinny” - “qotma” - salbiy, “thin” - “ozg‘in” - neytral, “slender” - “nozik” - ijobiy. Ma’nosiga ko‘ra ular sinonimlar. Lekin ular turlicha qo‘llanadi. “Fat”-“semiz”- salbiy, “overweight” - “ortiqcha vaznli” (semiz) - neytral, “plump” - “to‘laroq” - ijobiy.

Tarjimon asliyat tilidagi so‘zlarning turli ma’nolaridan va tarjima qilinayotgan tildagi muqobillaridan xabardor bo‘lishi lozim. Sinonimdek ko‘ringan sifatlami aslida o‘zaro almashtirib bo‘lmasligi mumkin.

Masalan: “beautiful” - go‘zal, “handsome” - kelishgan. “lovely” – ko‘rkam, “pretty” - suluv so‘zlari bir ma’noda kelsa ham, turlicha qo‘llanadi. Ular kelishgan - erkaklarga, otlarga, mebel qismlariga nisbatan, ko‘rkam -ayol kishiga, gullarga nisbatan, go‘zal - neytral so‘z bo‘lib, ko‘plab kontekstda qo‘llanishi mumkin. So‘zlar o‘zining yangi va eskirganligiga ko‘ra ham farq qiladi. Umuman aytadigan bo‘lsak. so‘zlar-arxaik, eskirgan, neytral va zamonaviy bo‘ladi. Har bir tilda o‘ziga xos arxaik va eskirgan so‘zlar mavjud bo‘ladi. Ba’zi hollarda tarjimada zamonaviy so‘zlarni qo‘llash to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Chunki bu kabi so‘zlar qabul qilinmagan. Boshqa tomondan, arxaik so‘zlar jamiyatning ba’zi a’zolari tomonidan rad etilishi mumkin. Masalan: “thee” - “sen” va “thou” so‘zlarini qo‘llovchilar diniy yoki shu kabi so‘zlarni ishlatuvchi ma’lum guruhga oid insonlar bo‘lishi mumkin. Shu sababdan bu kabi so‘zlar hozirgi kunda tarjimada ishlatilmaydi.

Tilning lug‘atini o‘rganayotib, so‘zlaming ma’nolari nimalami anglatishi, ularning eski yoki yangi, hozirgi lug‘atda neytral o‘rinda turis’niga e’tibor qaratish lozim. Tarjimada ba’zan eski va yangi so‘zlar almashtirib qo‘lanishi mumkin va tarjimon bu kabi holatlami nazarda tutadi. Tarjima uchun tanlangan eng yaxshi so‘zlar - barcha uchun tushunarli so‘zlardir. So‘zlar turli madaniyatlar rivojida ijobiy va salbiy ma’nolar tashiydi. Aytib o‘tganimizdek, o‘ta salbiy ma’noli so‘zlar, evfemizmni hosil qiladi.

Evfemizmning mavjudligi o‘sha so‘zning o‘ta salbiy ma’noli ekanidan dalolat beradi. Ba’zi madaniyatlarda o‘lgan inson nomini aytish taqiqlanadi. Boshqalarida esa, bolalami o‘tgan ajdodlari nomi bilan atash ijobiy munosabat belgisidir. Bundan tashqari, ijobiy tabular ham bo‘lishi mumkin. Masalan: yahudiy aholisi hurmat bilan Xudo nomini evfem istikyo‘l bilan ifodalaydilar. Bu ism oddiy suhbatlarda qo‘llanilmay, osonroq bo‘lgan, “hammadan ulug’ ” kabi so‘zlar ishlatiladi. Bu kabi so‘zlar adabiy tarjimada hisobga olinishi zarur.

Tarbiyaning maqsadi - har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish. Tarbiya mazmuni deganda, qo’yilgan maqsad va vazifalar bilan bog’liqlikda ta’lim oluvchilarning egallashi lozim bo’lgan bilim, malaka, e’tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi. Tarbiyaning umumiy vazifalari: jamiyat a’zolarining maqsadga yo’naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish; jamiyat rivoji uchun zarur bo’lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi «inson kapitali»ni tayyorlash; madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta’minlash; ma’lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a’zolarining harakatini tartibga solish.

Tarbiya jarayoni - bu shaxsda muayyan ruhiy, aqlim, jismoniy, axloqiy va ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon. Shuningdek u insonning jamiyatda qanday o’rin egallashi, kim bo’lishi, insonning insonligini ta’minlaydigan eng

qadimiy va adabiy qadriyatlardir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlovchi qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga ya'ni kelajak avlodga o'tadi. Tarbiya haqida buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy shunday deb yozadi: ,,Qobiliyatli odamni tarbiya qilmaslik zulmkorlik va noqobil odamga tarbiya hayfdir. Tarbiyaning ayab unisini nobud qilma, tarbiyangni bunisiga zoye ketkazma».Ya'ni tarbiyani kerakli joyda va kerakli insonlarga berish haqida aytib o'tilgan.

Nutqning normal shakllanishi uchun miya yarim korteksining ma'lum bir yetuklikka erishishi, artikulyar apparatning shakllanishi va eshitishning saqlanib qolishi kerak. Yana bir ajralmas shart - bu bolaning hayotining birinchi kunlaridan boshlab to'liq huquqli nutq muhiti. 1 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan nutqni rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan .

Nutq buzilishi bo'lgan bolalar - bu normal eshitish va buzilmagan aql bilan nutq rivojlanishida og'ish bo'lgan bolalar. Nutq buzilishlari xilma-xil bo'lib, ular talaffuzning buzilishi, nutqning grammatik tuzilishi, lug'atning kambag'alligi, shuningdek, nutq tezligi va ravonligining buzilishida namoyon bo'lishi mumkin.Og'irlik darajasiga ko'ra, nutq buzilishlarini davlat maktabida o'qishga to'sqinlik qilmaydiganlarga va maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan og'ir kasalliklarga bo'lish mumkin. «Nutq buzilishi, nutqiy muomalaning cheklanganligi bola shaxsining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, aslida boMmagan ruhiy buzilishlarni, hissiy-irodaviy sohaning o'ziga xos xususiyatlarini keltirib chiqarishi, uning xarakteridagi salbiy faziiatiar (tortinchoqlik, qat'iyatsizlik, odamovilik, salbiylik, nom ukam m allik tuyg'usi) ning rivojlanishi uchun yo'l ochib berishi mumkin». Bularning barchasi ommaviy bolalar muassasalarida nutqi buzilgan bolalar ham alohida yordamga muhtoj. Ko'pgina «umumiy ta'lim» bolalar bog'chalarida nutq terapiyasi guruhlari mavjud bo'lib, ularda bolalarga nutq terapevti va maxsus ta'limga ega o'qituvchilar yordam beradi. Nutqni tuzatishdan tashqari, bolalar xotira, diqqat, fikrlash, umumiy va nozik motorli ko'nikmalarni rivojlantirish bilan shug'ullanadilar, savodxonlik va matematikani o'rgatadilar. Umumta'lim maktablari qoshidagi logopediya markazlarida maktab yoshidagi bolalarga yordam ko'rsatilmoqda. Nutq markazlariga talaffuzida nuqsoni bor, nutqi rivojlanmaganligi sababli yozishda nuqsoni bor, duduqlangan bolalar yuboriladi. Maktabdagi nutq terapiyasi mashg'ulotlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan oilaning to'g'ri nutq ko'nikmalarini mustahkamlashga qanchalik hissa qo'shishiga bog'liq.

Og'ir nutq buzilishlarida bolalarni ommaviy bolalar muassasalarida o'qitish mumkin emas, shuning uchun og'ir nutq buzilishi bo'lgan bolalar uchun maxsus bolalar bog'chalari va maktablar mavjud. Og'ir nutq buzilishining asosiy belgisi - bu oddiy eshitish va buzilmagan aql bilan og'zaki aloqa vositalarining aniq cheklanishi. Bunday kasalliklardan aziyat chekadigan bolalarda nutq zaxirasi kam, ba'zilari esa umuman gapirmaydi. Bu holatda boshqalar bilan muloqot juda cheklangan. Ushbu bolalarning aksariyati ularga aytilgan nutqni tushunishga qodir bo'lishiga qaramay, ularning o'zlari boshqalar bilan og'zaki muloqot qilish imkoniyatidan mahrum Bu bolalarning jamoadagi qiyin pozitsiyasiga olib keladi: ular tengdoshlari bilan o'yinlarda, ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish imkoniyatidan to'liq yoki qisman mahrum.

Bunday sharoitlarda muloqotning rivojlanayotgan ta'siri minimaldir. Shu sababli, aqliy rivojlanish uchun yetarli imkoniyatlarga qaramay, bunday bolalar ikkilamchi aqliy zaiflikni boshdan kechirishadi, bu ba'zida ularni noto'g'ri intellektual jihatdan past deb hisoblashga asos beradi. Bu taassurot savodxonlikni o'zlashtirishda, arifmetik masalalarni tushunishda kechikish bilan kuchayadi.

Har bir bolaning eng birinchi ta'sir muhiti uning oilasi hisoblanib, psixologik ta'sirlar ham aynan shu muhitdan boshlanib salbiy omillarga ya'ni nutq nuqsonlariga olib keladi. Shuning uchun har bir logoped birinchi o'rinda psixologik ta'sirni qanchalik ahamiyatli ekanligini ota-onalarga yetarlicha tushuntirish kerak. Bola nutqining rivojlanishi uchun aynan ota-onaning

nutqi namuna bo’ladi. So’nggi yillarda psixologik omillar xavfi ortib bormoqda. Shu sababli bolalarning ilk yoshidanoq psixonevrolog nazoratida bo’lishiga e’tibor kuchayib boshladi boshlandi. Ilk yoshlarda bolani onadan ajratish ba ‘zan m iya faoliyatining og’ir buzilishlarini keltirib chiqaradi va keyinchalik hissiy turg’unlikning buzilishi, o ‘z navbatida nutq kam chiliklari bilan murakkablashishi mumkin bo’lgan xulq -atvor buzilishlarining rivojlanishiga asosiy sabablardan biri bo’lib qoladi. Bola hayotining keying davrlarida psixoloiyasiga ta’sir qiladigan tashqi muhit salbiy omillardan himoyalash ota-ona va maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachi, pedogog-logopedlar vazifasi hisoblanadi. Bolaning ulg’ayishi va rivojlanishiga qarab, tashqi muhit ta’sirlarining o’sib borishi hisobiga ko’payuvchi psixik travma oluvchi vaziyatlar doirasi birmuncha kengayadi. Bular tengdoshi yoki kattalar bilan mojoroli munosabat, haddan tashqari jazolash, qo’rqitish, cho’chish (qo’rqinchli hayvonning to’satdan paydo bo’lishi, ,,qo’rqinchli filmni tomosha qilish, ,,qo’rqinchli»ertak) va boshqalarni o’z ichiga oladi. Misol tariqasida hozirda keng tarqalgan psixolog ta’sirlar oqibatida kelib chiqadigan duduqlanish nutq nuqsonini olaylik.

Duduqlanish nutq nuqsoni soni ko’payib borayotgani bugungi kunda psixologik salbiy ta’sirlar ko’p uchrayotganidan darak beradi. Shu sababli muammoning yechimini topishda kasallik keltirib chiqaradigan omilni kamaytirish kerak. Duduqlanuvchi bola o’z nuqsonini anglagach, odamlardan uzoqlashishga va nutqiy muloqotdan qochishga harakat qiladi. Buning natijasida bola nutqi umuman sutlashib qolishiga olib keladi. Duduqlanishni keltirib chiqaruvchi asosiy asab buzilishi -bu logofobiya. Logofobiya - nutqdan, muloqotdan qo’rqish ma’nosini bildiradi. Logofobiya duduqlanuvchining barcha shaxs xususiyatlariga ta’sir etadi va uning xulqida salbiy o’zgarishlarga sabab bo’ladi. Logofobiya bola ruhiyatiga shu darajada qattiq ta’sir etadiki, hatto duduqlanish bartaraf etilgandan keyin ham o’z asoratlarini qoldiradi. Ayrim ota-onalar duduqlanuvchi farzandlari bilan xuddi bemorlarga bo’lgandek munosabatda bo’ladilar. Ular bolalarning ko’ngillariga qaraydilar, hamdardlik bildiradilar. Bunda bolalarda nevroz rivojlanishi mumkin. Duduqlanish faqat psixologik sabablardan emas balki, balki genetik va boshqa sabablar orqali kelib chiqadi. Muhimi bu va boshqa nuqsonlarni psixologik tomondan karreksiyalsh samarali natija beradi.

Inson husni chiroyli bo’lishi go’zallikni to’liq ta’minlab bera olmaydi. Chiroyli talaffuz, nutqning ravonligi ham ko’rk aslida. Lekin mana shu ko’rkka ziyon yetkazuvchi va zararlovchi omil bu - nutq buzilishidir. Dunyo miqyosidagi statistik ma’lumotlarga ko’ra nutq nuqsonlarining soni ko’payib bormoqda, shuning uchun bolalar va o’smirlarda nutq kamchiliklarini oldini olish dolzarb muammo bo’lib qolgan. Bizning mamlakatimizda nutq kamchiliklariga ega bolalar bilan olib boriladigan korreksion-tarbiyaviy va pedagogik ishga katta e’tibor qaratilmoqda. Nutq kamchiliklarini erta aniqlash, korreksion ta’lim va tarbiyani tashkil qilish va ta’lim-tarbiyaning uslublari masalasini hal qilish bo’yicha ma’lum miqdorda yutuqiarga erishilgan. Ko’p hollarda maxsus ta’sir etish yo’llari orqali bolalardagi turli xil nutq patologiyalarini oldini olishga erishilmoqda. Bolalardagi nutq kamchiliklarini o ‘z vaqtida oldini olish nerv- psixik kasalliklami oldini olish bilan uzviy bog’liqdir. Bu davolash, pedagogik va ijtimoiy ta’sirlami o’z ichiga olgan kompleks tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Nutqning normal shakllanishi uchun miya yarim korteksining ma’lum bir yetuklikka erishishi, artikulyar apparatning shakllanishi va eshitishning saqlanib qolishi kerak. Yana bir ajralmas shart - bu bolaning hayotining birinchi kunlaridan boshlab to’liq huquqli nutq muhiti. 1 yoshdan 6 yoshgacha bo’lgan nutqni rivojlantirishning asosiy ko’rsatkichlari keltirilgan .

Nutq buzilishi bo’lgan bolalar - bu normal eshitish va buzilmagan aql bilan nutq rivojlanishida og’ish bo’lgan bolalar. Nutq buzilishlari xilma-xil bo’lib, ular talaffuzning buzilishi, nutqning grammatik tuzilishi, lug’atning kambag’alligi, shuningdek, nutq tezligi va ravonligining buzilishida namoyon bo’lishi mumkin.

Og’irlik darajasiga ko’ra, nutq buzilishlarini davlat maktabida o’qishga to’sqinlik qilmaydiganlarga va maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan og’ir kasalliklarga bo’lish mumkin.

«Nutq buzilishi, nutqiy muomalaning cheklanganligi bola shaxsining shakllanishiga salbiy ta’sir ko’rsatishi, aslida boMmagan ruhiy buzilishlarni, hissiy-irodaviy sohaning o’ziga xos xususiyatlarini keltirib chiqarishi, uning xarakteridagi salbiy faziiatiar (tortinchoqlik, qat’iyatsizlik, odamovilik, salbiylik, nom ukam m allik tuyg’usi)ning rivojlanishi uchun yo’l ochib berishi mumkin. Og’ir nutq buzilishlari uchun xarakterli xususiyat uning umumiy rivojlanmaganligi bo’lib, u nutqning tovush va leksik, grammatik jihatlarining pastligida namoyon bo’ladi. Natijada og’ir nutq buzilishi bo’lgan bolalarning aksariyatida fikrlash, nutqni umumlashtirish, o’qish va yozishda qiyinchiliklar mavjud. Bularning barchasi aqliy rivojlanishning birlamchi saqlanishiga qaramay, fan asoslarini o’zlashtirishni qiyinlashtiradi.

XULOSA. Nutq kamchiligiga ega bolalarni tarbiyalash jarayonida ota-onalar va pedagoglar doimo o’z xulq-atvorini va o’zining mavqeyini anglashi lozim. O’zaro tushunish, rag’batlantirish, o’zaro hurmat, tartibni saqlash, oila a’zolari o’rtasidagi singari pedagog va ota-onalar o’rtasidagi o’zaro ta’sir nutq kamchiligiga ega bolalardagi psixogen reaktiv holatlar profilaktikasida jiddiy rol o’ynaydi. Xususan, ushbu holat duduqlanuvchi o’quvchilar uchun dolzarbdir. Bolalar nutqiy nuqson bilan bog’liq shaxsiy kechinmalar, nutq qo’rquvi, nutqiy muloqotni talab qiluvchi vaziyatdan qochish va hoakazo holatlar kuzatilsa, logoped o’z ishida muhim psixoterapevtik aksentni kuchaytirishi lozim. Bu aksent va psixoterapiya shakllari har doim bola yoshiga va uning individual psixologik ta’sirlanish xususiyatlariga bog’liq bo’ladi. Nutqiy nuqson belgilarini yaxshi bilish va hisobga olish zarur, shuningdek, uning to’liq kompensatsiyasi ham e’tiborga olinadi. Buning natijasida har bir bolani har tomonlama sinchikovlik bilan o’rganish, nutq kamchiligiga ega bolalar korreksion ta’lim-tarbiyasining yuqori darajadagi variantini tuzishda alohida ahamiyat kasb etadi. O’qituvchilogopedning guruhdagi barcha bolalaming individual xususiyatlarini aniq bilishi nuqsonni bartarf etish imkoniyatini belgilashga yordam beradi, buning uchun kerakli muddatlarni o’rganish, umumta’lim maktablari dasturi bo’yicha o ‘qitishga qarab oldindan baho berish imkonini beradi.

Ko’pchilik nuqsonlar yuzaga kelishi psixologiyaga bog’liq bo’lgani uchun avvalo psixologik sabablarni aniqlab bartaraf etish katta ahamiyatga ega. Misol uchun psixologik bosimlar natijasida ko’pgina nutq nuqsonlari, aqliy va ruhiy kasalliklar kelib chiqadi. Nutq nuqsonlariga misol qilib: duduqlanish, nutqning to’liq rivojlanmasligi, funksional dislaliya, mator alaliya kabi nutqning fonetik, grammatik, leksik buzilishlar kabilarni o’z ichiga oladi. Bunday buzilish - psixik-ijtimoiy sabablari: ommaviy va majmuali depressiya; ota-onalar tomonidan diqqat-e’tiborning sustligi; bolalarga nisbatan qattiqqo’llik; oila va aholi intellektual saviyasining pastligi; oiladagi ajralishlar; fojiali vaziyat (ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy); ruhiy-pedagogik tashxis va korreksiyaning sifati, hajmi va hozirgi zamon talablariga javob bermasligi

Adabiyotlar:

1. Ayupova M.Y. Logopediya. Darslik. O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi. Toshkent, «O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti», 2007.

2. Y.Mo’minova, M.Qahramonova. Logopediya terminallarining ruscha-o’zbekcha izohli lug’ati. Toshkent, «O’qituvchi», 1988.

3. Микшина Е.П. и др. Методика формирования и развития устной речи. Москва,2001.

4. Сазанова.С.Н. Развития речи дошкольников с обшим недоразвитием речи. Изд-во. Академия. М., 2003.

5. Ayupova MY «Logopediya» Toshkent - 2019

6. Mo’minova L.R «Maxsus psixologiya» Toshkent 2016 y

7. Po’latxo’jayeva M.R. «Defektologiyaning klinik asosalari» Toshkent 2013

8. Po’latova M.P «Maxsus pedogogika» Toshkent 2014.

MOODLE ELEKTRON O‘QITISH MUHITIDA BO‘LAJAK DIZAYNERLARNING LOYIHAVIY FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISH

Abidova Zarnigor Kamildjanovna,
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti “Engil sanoat mashinalari va jihozlari” kafedrasi o`qituvchisi

Annotatsiya. Maqola dolzarb mavzu hisoblangan – professional ta`lim muassasalari bo`lajak dizaynerlarning o`quv loyihaviy faoliyatiga bagishlangan. Moodle elektron platformasi asosida loyihaviy faoliyatni tashkil etish tajribasi taqdim etilgan. O`quvchilarning loyihaviy faoliyatini tashkil etishda Moodle platformasining ijobiy jihatlari va qirralari va uning an`anaviy al’ternativ metodlardan farqli tomonlari ko`rsatilgan. O`quvchilarning loyihaviy ishlarini samarali tashkil etish va uning asosiy bosqichlari bayon etilgan.

Kalit so`zlar: loyiha metodi, loyihaviy faoliyat, dizayn – loyihalar, Moodle platformasi, masofaviy o`qitish, kompetentlik.

РЕАЛИЗАЦИЯ ПРОЕКТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ ДИЗАЙНЕРОВ В СРЕДЕ ЭЛЕКТРОННОГО ОБУЧЕНИЯ MOODLE

Абидова Зарнигор Камилджановна,
Преподаватель кафедры «Машины и аппараты легкой промышленности» Бухарского инженерно-технологического института

Аннотация. Статья посвящена актуальной теме – учебной проектной деятельности будущих дизайнеров профессиональных образовательных учреждений. Представлен опыт организации проектной деятельности на основе электронной платформы Moodle. Указаны положительные аспекты и детали платформы Moodle в отличие от традиционных альтернативных методов организации проекной деятельности учашихся. Описана эффективная организация проектной работы студентов и ее основные этапы.

Ключевые слова: метод проектов, проектная деятельность, дизайн - проекты, платформа Moodle, дистанционное обучение. компетенция.

IMPLEMENTATION OF PROJECT ACTIVITIES OF FUTURE DESIGNERS IN THE MOODLE E-LEARNING ENVIRONMENT

Abidova Zarnigor Kamildzhanovna,
Lecturer of the department of «Machines and apparatuses of light Industry» of the Bukhara institute of engineering and technology

Abstract. The article is devoted to an actual topic – educational project activity of future designers of professional educational institutions. The experience of organizing project activities based on the Moodle electronic platform is presented. The positive aspects and details of the Moodle platform are indicated, in contrast to traditional alternative methods of organizing students’ project activities. The effective organization of students’ project work and its main stages are described.

Keywords: project method, project activity, design projects, Moodle platform, distance learning, competence.

Kirish. Keyingi yillarda mamlakatimizning professioonal ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga yangicha yondoshish, o‘qitishning innovatsion vositalari va metodlarini joriy etish, zamonaviy didaktiik vositalar asosida mashg‘ulotlarni loyihalash hamda o‘quvchilarni ko‘proq amaliy faoliyatga yo‘naltirishga e’tibor oshdi.

Professional ta’lim muassasalarida tayyorlanadigan dizaynerlik kasbi – amaliy faoliyat jarayoni bo‘lib, kasbni chuqur o‘zlashtirishni va yuqori darajadagi mahoratni talab etadi.

Dizayn sohasidagi tadqiqotchilar ushbu soha bo‘yicha ta’lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada takomillashtirishni, an’anaviy qarashlarni qayta ko‘rib chiqishni va zamonaviy dizayn-mutaxassisni shakllantirish uchun yangi yechimlarni aniqlash va ularni ta’limda joriy etish lozimligini ta’kidlaydilar [1].

Hozirgi kunda, dizaynerlarning ishini yengillashtiradigan va dizayn-loyihalarni amalga oshiradigan ko‘plab kompyuterli instrumental dasturiy vositalar ishlab chiqilgan. Ularga “Corel DRAW”, “Autodesk 3ds Max”, “Adobe Photoshop” dasturlarini, shuningdek interfaol va modelling xususiyatlariga ega bo‘lgan elektron ta’lim resurslari yangi avlodini misol keltirish mumkin. Professional ta’lim muassasalari o‘qituvchilari innovatsion ta’lim texnologiyalarini va zamonaviy didaktik vositalarni, jumladan kompyuter texnologiyalarini o‘quv jarayonida yetarli darajada joriy etishga e’tibor berishlari lozim. Chunki, bo‘lajak dizaynerlarning kompyuter savodxonligi –dizaynerlik loyihalarni amalga oshirishda va loyihaviy qarorlarni qabul qilishda kreativ ijodiy qobiliyatga ega bo‘lgan mutaxassisni tayyorlashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusi: professional ta’lim muassasalarida dizayn mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilarning loyihaviy faoliyatini amalga oshirish jarayonida Moodle – (Modular Object-Oriented Dynamic Learning Environment (modulli ob’ektga yo‘naltirilgan dinamik o‘qitish muhiti) elektron o‘qitish platformasi imkoniyatlarini tahlil etishdir.

Tadqiqot maqsadi: loyihaviy o‘qitish dolzarbligi faktorlarini tahlil etish, o‘quvchilarning loyihaviy faoliyatini muvoffaqiyatli amalga oshirishda Moodle–o‘quv platformasi elektron resurslaridan foydalanish shartlari va imkoniyatlarini aniqlashdir.

Hozirgi kunda professional ta’limning zamonaviy tizimi bitiruvchining kompetentli modeliga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘zining kasbiy faoliyatini amalga oshirishda zaruriy kompetentsiyalarning shakllanganligini nazarda tutadi. Loyihaviy faoliyat o‘quvchiga o‘z g‘oyalarini amalga oshirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Loyihalash jarayonida o‘quvchi bilim va malakalarini qo‘llagan holda o‘zining shaxsiy va professional sifatlarini rivojlantiradi [2]. Shuning uchun loyihaviy faoliyatni akademik va soha ko‘nikmalari orasidagi uzilishni bartaraf etuvchi innovatsion manba deb hisoblash mumkin.

Ushbu maqolada biz professional ta’lim muassasalarida dizayn mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan va asosiy professional ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish doirasida o‘quvchilarning loyihaviy faoliyatini tashkil etishda Moodle–ta’lim platformasidan foydalanish imkoniyatlarini ko‘rib chiqamiz. Pedagogik nazariya va amaliyotidan kelib chiqqan holda, ta’lim metodi (loyiha) va vositaning (Moodle) muttanosibligini tahlil etamiz.

Adabiyotlar tahlili. Loyiha metodi XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lganiga qaramasdan, u XXI asr pedagogik texnologiyasi, - deb e’tirof etilgan. Ushbu metod amerikalik faylasuf va pedagog D. Dyunning g‘oyalariga asoslanadi. Zamonaviy loyihaviy o‘qitish nazariyasi asoslari V.D. Simonenko, N.S. Abramova, E.S. Polat, N.V. Matyaj va boshqa olimlar tomonidan rivojlantirilgan [2,3,6].

Loyiha so‘zi lotin tilidan “projektus” so‘zidan olingan bo‘lib, “oldinga tashlangan” –degan ma’noni anglatadi. Loyiha metodi - zamonaviy o‘qitishning interfaol metodlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Ushbu metod o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadi.

Loyiha metodi deganda ta’lim oluvchi amaliy topshiriqlarni – loyihalarni mustaqil rejalashtirish va bajarish jarayonida bilim va malakalarni egalaydigan o‘qitish tizimi tushuniladi [3].

Loyiha metodining asosiy vazifasi – o`quvchilar tomonidan amaliy masalalarni yoki muammolarni echish jarayonida turli predmet sohalardan talab etilgan bilimlarni integratsiyalash va mustaqil egallash uchun imkoniyatlarni taqdim etishdir. Agar loyiha metodini pedagogik texnologiya sifatida qaraydigan bo`lsak, unda ushbu texnologiya mazmun va ma`no jihatidan

o`quvchilar uchun tadqiqotli, qidiruv, muammoli metodlar majmuasi sifatida e`tirof etilishi kerak. O`qituvchiga loyiha doirasida ishlab chiquvchi, koordinaator, ekspert yoki maslahatchi roli belgilanadi.

Demak, o`quvchilarning o`quv loyiha ishlarini tashkil etish deganda, loyihaning goyasidan boshlab to uni amalga oshirgunga qadar bo`lgan barcha ishlarni o`quvchilar mustaqil ravishda bajarishlari va yangi bilimlarga ega bo`lishlari tushuniladi.

O`quvchilarning loyiha ustida ishlarini tashkil etish, ularda motivatsiyani oshirishni ta`minlaydi, intellektual rivojlanish darajasini intensiflashga imkon beradi.

Loyiha metodi asosida ta’lim oluvchilarning bilish ko‘nikmalarini rivojlantirishi, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda loyihalash malakalari, axborot muhitida samarali faoliyat yuritishi, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlanishi yotadi.

Shuning uchun, professional talim muassasalari pedagogik jamoasi oldiga o`quv-tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish, axborot texnologiyalarini, o`quvchilarning ilmiy-tadqiqot va loyiha faoliyatini ta’lim jarayoniga joriy etish, shuningdek, o`z-o`zini rivojlantirish, ichki harakatlantiruvchi kuchlar, qobiliyatlarni o`z-o`zini namoyon qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish vazifalari qo`yilgan bo`lib, bu borada har bir o`quvchining individual iste’dodi va qobiliyatini hisobga olishni taqozo etadi

Yigirmanchi asrning 80-90 yillaridan boshlab axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, Internet global tarmog‘ining ta’lim tizimiga kirib kelishi, masofaviy o‘qitish texnologiyalarining shakllanishi – ta’lim tizimida loyiha metodini qo‘llash imkoniyatlarini yanada kengaytirib, uning intensivligini oshirdi. Ta’lim muaassasalarida axborot ta’lim muhitini shakllantirish, masofaviy o‘qitish platformalaridan foydalanish, kompyuterli o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash asosida ta’lim oluvchilarning loyihaviy faoliyatini tashkil etish bo‘yicha pedagog- olimlar tomonidan ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi.

Ta’limda loyihalash jarayonining zamonaviy tadqiqotlari E.I. Zair-Bek, I.A. Kolesnikova, E.S. Polat tomonidan, loyihani boshqarish O.V. Vlasenko, I.V. Robert, I.G. Lukmanova tomonidan, loyiha strukturasi V.A. Burkov, D.A. Novikov, V.D. Shapiro tomonidan olib borildi [1,2,3,5,9].

O.V. Vlasenkoning dissertatsiyasida bo‘lajak dizaynerlarni loyihaviy faoliyatini kompyuter texnologiyalari vositalari asosida tashkil etishning pedagogik shartlari tahlil etilgan. Bo‘lajak dizaynerlarni kompyuter texnologiyalari vositalari asosida loyihaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik modeli ishlab chiqilgan [1].

V.K. Vinnik Moodle tizimini talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish vositasi sifatida baholaydi. Uning ilmiy tadqiqotlarida talabalarning mustaqil ishlarini Moodle tizimida tashkil etishning pedagogik modeli tavsiya etilgan [4].

Ushbu sohaga dahldor bo‘lgan keyingi tadqiqotlar amaliy yo‘naltirilganligi bilan farq qiladi va loyihaviy faoliyatning turli jihatlarini yoritishga bag‘ishlangan.

Materiallar va metodlar. Hozirgi kunda har qanday muassasalarda loyihani yaratish va amalga oshirish uchun olinadigan axborotning ishonchliligini ta’minlash muhim hisoblanadi. Bunga bir qator metodlardan foydalanish ijobiy samara beradi. Biz tomonimizdan tadqiqot mavzusi bo‘yicha tahlil etilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining nazariy asoslari va vazifalari o‘quvchilarning loyihaviy faoliyatini Moodle tizimidan foydalanib loyihalash bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif, tavsiya va xulosalarga asos bo‘lib xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1.Tizimli tahlil metodi (loyihani yaratish va uni amalga oshirish uchun turli xarakterdagi elementlarning o‘zaro hamkorligini hisobga olish).

2.Statistik metodlar (normativli metod, tasodifiy baholash metodi, konstruktiv-tanqidiy metod).

3.So‘rov metodlari (anketa o‘tkazish, intervyu, suhbatlar).

Loyihaviy faoliyatni Moodle tizimidan foydalanib tashkil etishni baholashning keng

tarqalgan metodi normativ metod bo‘lib hisoblanadi. Ushbu metod belgilangan bazadan foydalanishda “buni qanday bajarish kerak”, “tizim yoki quyi tizim qanday bo‘lishi kerak”, “loyihani yoki hujjatni qanday rasmiylashtirish kerak” – kabi savollarga javob olishni nazarda tutadi. Aslida normativ asos bo‘yicha model, obraz, namuni berilib, uning asosida loyihaviy faoliyatning haqiqiy darajasi baholanadi [6,7].

Professional ta’lim muassasalarida dizayn – loyihalar biror mavzu doirasida (qisqa muddatli) yoki oraliq nazoratlar mobaynida (o‘rta muddatli), shuningdek semestr mobaynida (uzoq muddatli) bajarilishi rejalashtiriladi. O‘quvchilar loyiha ustida individual yoki guruhga bo‘lingan holda faoliyat olib borishlari mumkin.

Moodle tizimida masofadan turib loyihaviy o‘qitish texnologiyasini muvoffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi pedagogik sharoitlarni yaratishi lozim:

1.O‘quvchilarga dolzarb va qiziqarli tadqiqot mavzularini shakllantirish uchun muammoli vaziyatni yaratish.

2.Loyiha mavzusini o‘quvchi tomonidan tanlash, individual yoki jamoada ishlash imkoniyatlarini yaratish.

3.Guruhda ishlashda o‘quvchining rolini va funktsiyalarini belgilash (nazariyotchi, tashkilotchi, dasturlovchi, stsenariy muallifi, videooperator, eksperimentchi, rasmiylashtiruvchi, ma’ruzachi va h.k.).

4.Axborotlarni qidirish jarayonida, shuningdek metodlarni tanlashda, loyihani ishlab chiqish va amalga oshirishda o‘quvchilarning tadqiqotli faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.

5.Loyiha ustida ishlashning barcha bosqichlarida o‘quvchilarga maslahatlar berish.

6.Ishning oraliq bosqichlarida xulosalar va maslahatlarni tashkil etish.

7.Bajarilgan loyihani o‘quvchilarning o‘zlari baholashlari va tegishli xulosalar chiqarishlari uchun imkoniyatlar yaratish.

8.Loyiha ustida ishlagan barcha o‘quvchilarni loyihani himoyalashda faol ishtirokini ta’minlash.

Bo‘lajak dizaynerlarga loyiha metodi bo‘yicha beriladigan mavzular tadqiqotli, nazariy, o‘yinli, axborotli yoki amaliyotga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin. Ta’lim muassasida dizayn bo‘yicha tashkil etilgan to‘garakda qatnashuvchi o‘quvchilarga tadqiqotli loyihalar ustida ish olib borishlarini tavsiya etamiz. Yuqori kurs o‘quvchilari esa, amaliyotga dahldor bo‘lgan dizayn-texnologiyalar yoki ishlab chiqarishda mavjud muammolar ustida ishlashlari maqsadga muvoffiqdir.

Muhokama va natijalar. Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Moodle platformasi hamda Buxoro viloyati Vobkent tumani kasb-hunar maktabi hamkorligida tashkil etilgan va o‘quvchilarning loyihaviy faoliyatiga yo‘naltirilgan tadqiqot natijalarini ko‘rib chiqamiz. Institutning elektron axborot-ta’lim muhiti o‘quv jarayonida loyihaviy faoliyatni tashkil etishning turli formalari va turlaridan foydalanish imkoniyatlarini beradi. Ushbu muhitda sifatli kontentni ishlab chiqish, ularni Internet orqali tarqatish va hamkorlikda ishlash uchun o‘rnatilgan maxsus instrumental vositalar joylashgan bo‘lib, sub’ektlarning masofadan turib ishlashiga imkon beradi. Loyiha metodini amalga oshirish uchun Moodle tizimi maxsus kommunikatsiya vositalariga ega. Interfaol muloqotni tashkil etish uchun forum, chat, har qanday formatdagi fayllarni almashish, tizimning ichki pochtasi, onlayn maslahatlar tizimi, uyali aloqa kabi kommunikatsiya vositalaridan foydalaniladi [3,8,10,11].

Loyihaviy faoliyatini tashkil etishdan oldin o‘quvchilarga topshiriqlar va maxsus instruktsiya beriladi. O‘quv guruhi kichik mikroguruhlarga bo‘linadi. Mikroguruhning muvoffaqiyati - har bir o‘quvchining faoliyatiga bog‘liq. Ishning bunday tashkil etilishi - umumiy muammoni echishda har bir o‘quvchining mahsuliyatini oshiradi, hamkorlikda ishlash va kommunikatsion ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Ishning birinchi tayyorgarlik bosqichida loyiha rahbari sifatida belgilangan o‘qituvchi tomonidan Moodle tizimida o‘quv kursi yaratiladi va mavzular ro‘yxati tavsiya etadi.

Barcha materiallar loyiha sahifasida joylashtiriladi. Ta’lim oluvchilarning loyiha guruhlari aniq bo‘lgandan so‘ng, “Forum” va “Chat” yaratiladi va mavzu muhokama etiladi, ta’lim oluvchilar dizayn-loyiha ustida ishlash bo‘yicha savollar beradilar. O‘qituvchi muhokamada qatnashgan holda, o‘quvchilarni asosiy g‘oyani tushunishga, muammoni aniiqlashtirish va tahlil etishga yo‘naltiradi va loyiha topshirig‘ini shakllantiradi.

Chat yoki forumda ishni muhokama etishning ushbu bosqichida ta’lim oluvchilarda o‘zaro va o‘qituvchi bilan muloqot qilish natijasida kommunikativ kompetentlik shakllanadi, yozma ravishda o‘z fikrlarini bayon etishga va hamkorlikda ish olib borishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Keyingi bosqichda loyihani bajarish bo‘yicha ish olib boriladi. O‘quvchilar Moodle masofaviy tizimning keng imkoniyatlaridan foydalanib zarur axborotlarni yig‘ish bilan shug‘ullanadilar. Axborotlarni yig‘ish va qayta ishlash jarayonida o‘quvchilar “Ma’lumotlar almashish” bloki orqali loyiha rahbari bilan maslahatlar o‘tkazadilar.

Loyiha mavzusi bo‘yicha tayanch iboralar va tushunchalar ro‘yxatini shakllantirish va undan foydalanish uchun o‘qituvchi tomonidan “Glossariy” bloki ishlab chiqilgan bo‘lib, loyiha bo‘yicha qo‘shimcha axborot olish imkoniyatlari yaratilgan.

Dizayn-loyiha ustida ishlashda eskizlar, kollajlarni mustaqil yaratish uchun maxsus dasturlarni qo‘llash talab etiladi. Dastlabki natijalar loyiha rahbariga kursning “Topshiriq” elementi orqali taqdim etiladi. Ushbu elementdan foydalanib o‘quvchilar individual loyihalarni ham o‘qituvchiga yoki guruh a’zolariga ko‘rsatishlari mumkin.

Guruhli loyihalarda ishni muhokama qilish uchun o‘quvchilar o‘zaro va loyiha rahbari bilan “Chat” yoki “Forum” orqali muloqot qilishlari va tegishli maslahatlar olishlari nazarda tutilgan. Maslahatlardan keyin loyihaga tegishli o‘zgarishlar kiritiladi.

Loyiha faoliyatining ushbu bosqichini amalga oshirish - o‘quvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga, shuningdek o‘quvchilarning analitik, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi,

Prezentatsion materiallar (Power Point dasturida tayyorlangan slaydlar, video materiallar, ma’ruzalar, annimaatsion effektlar, eskizlar va h.k.) umumiy muhokama uchun Moodle muhitining “Fayl” elementi yordamida joylashtiriladi. Muhokama “Forum” elementidan foydalanib amalga oshiriladi. Ish tugagandan so‘ng, baholash-refleksiv bosqichni bajarish majburiy hisoblanadi. Ushbu bosqichda o‘z-o‘zini tahlil etish, faoliyatni baholash, ish bo‘yicha xulosalarni shakllantirish bo‘ymcha ishlar amalga oshiriladi. Baholash-refleksiv bosqichni “Teskari aloqa” elementidan foydalanib bajarish mumkin. Bundan tashqari, platformada “Anketa” elementi ham mavjud bo‘lib, unda ta’lim oluvchilar orasida anketa o‘tkazish va ularning bajarilgan ishga bo‘lgan fikrlarini o‘rganish mumkin.

O‘quvchilarning loyiha ustida ishlarini samarali tashkil etish uchun xabarlar servisi yordam beradi. Mazkur servis barcha loyiha qatnashchilarini bo‘lajak yangiliklar, hodisalar yoki boshqa ma’lumotlar bilan xabardor qiladi.

Moodle platformasi o‘quvchilarning faolligini va “davomadini”, tarmoqda o‘quv ishlari vaqtini, real vaqtda tizimda ishlayotganlarni nazorat qilishga imkon beradi. Platformaning yana bir muhim xususiyatlaridan biri shundaki, o‘qituvchi har qanday baholash tizimidan foydalanishi mumkin. Loyihaga qo‘yilgan baholar elektron tizim uchun ishlab chiqilgan ochiq qaytnomalarda saqlanadi, ularni istalgan paytda ko‘rish mumkin.

Shuni ta’kidlash joizki, loyihaviy faoliyat davrida o‘quv jarayonida o‘qituvchining roli o‘zgaradi. O‘qituvchi o‘quvchilarning mustaqil bilish faoliyatini tashkillashtiruvchi t’yutor vazifasini bajaradi. Uning asosiy vazifasi – “o‘qishni o‘rgatish”, ya’ni tayyor bilimlarni transformatsiya qilish emas, balki o‘quvchilarni materialni mustaqil o‘zlashtirish va qayta ishlashga o‘rgatishdir. Loyihaviy faoliyat davrida o‘quvchining roli ham o‘zgaradi: endi u passiv tinglovchi emas, balki individual ijodiy muhitda o‘z qobiliyatini namoyon etish va o‘zining g‘oyalarini, qarashlarini bayon etish imkoniyatiga ega bo‘ladi [3,12].

Moodle tizimi asosida masofaviy o‘qitishda loyiha metodini qo‘llashning yana bir

xususiyati shundaki, o‘quvchilar loyiha ustida ishlash jarayonida mavzu bo‘yicha faqat o‘qituvchining materiallari bilan cheklanib qolmay, balki Internetning qidiruv tizimlaridan, elektron kutubxonalardan, ruxsat etilgan ma’lumotlar va bilimlar bazasidan, onlayn-ta’lim portallaridan hamda axborotlarni himoyalash vositalaridan keng foydalanadilar. Bu o‘z novbatida loyihaning sifatli bajarilishini ta’minlash bilan birga, o‘quvchilarning axborot madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Shunday qilib, bo‘lajak dizaynerlarni o‘qitishda loyiha metodini qo‘llash asosida real vaqt birligida turli kollektsiyalarda, modellarda, material va eskizlarda mujassamlashgan natijalarni olish mumkin. Oliy va professional ta’lim muassasalarida Moodle tizimidan foydalanib masofaviy o‘qitish sharoitida to‘plangan tajribalar, hozirgi kunda pedagoglar tomonidan e’tirof etilgan metodlarni dizayn - loyihalashda qo‘llash bilan birga, o‘qitishning klassik formalaridan innovatsion ta’lim texnologiyalariga o‘tish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Moodle platformasi asosida masofaviy o‘qitish natijalari uni tashkil etish darajasiga, ishlab chiqilgan materiallarning sifatiga va o‘qituvchilarning pedagogik mahoratiga bog‘liqdir

Xulosa qilib ta’kidlash joizki, Moodle platformasida tashkil etilgan masofaviy o‘qitish tizimida fanlar bo‘yicha loyihaviy metodni joriy etish katta pedagogik imkoniyatlarni yaratib, ta’lim oluvchilarga o‘quv materiallarni chuqur o‘zlashtirishga, o‘quv faoliyatlarini mustaqil rejalashtirishlariga, shuningdek maqsadni qo‘yish, tanqidiy fikrlash, muammoni echish va tegishli qarorlar qabul qilish malakalarini egallashga, o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan motivatsiyani oshirishga va jamoada ishlash ko‘nikmalarni shakllantirishga keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Власенко О.В. Педагогические условия подготовки будущих дизайнеров к проектной деятельности средствами компьютерных технологий. Дисс. ...канд. пед. наук. Черкесск. 2020. -192 с.

2.Абрамова Н.С., Гладкова М.Н., Гладков А.В., Кутепов М.М., Трутанова А.В. Организация проектной деятельности студентов в электронном обучении // Международный журнал экспериментального образования. – 2017. – № 6. – С. 7-11.

3.Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологий в системе образования. –М.: Академия, 2005. - 272 с.

4.Винник В.К., Григорян М.Э. Система Moodle в процессе обучения теории вероятностей как средство организации самостоятельной работы студентов в высшей школе // Электронный научный журнал. Современные проблемы наука и образования. 2014. № 3. URL:https://science-education.ru/ ru/article/view?id = 13232 (дата обращения: 12.04.2023)

5.Роберт, И.В. Современные информационные технологии в образовании / И.В. Роберт. – М.: Академия, 2003. – 370 с.

6. Логинова О.Б., Яковлева С.Г. Индивидуальные и групповые задания проектного типа // Современное дополнительное профессиональное педагогическое образование. 2015. №1. –С. 47-63.

7. Шкунова А.А., Плесовских Г.А. Организация личного труда: исследовательский проект самостоятельной работы будущих педагогов // Мир науки. 2016. Т. 4, №3. . – С. 35.

8. Абидов К.З. Создание математических моделей реальных процессов на основе компьютерных технологий. Международная научно-практическая конференция: Реальность – сумма информационных технологий. Курск, 08-10 сентября. 2016г. С. 32-34.

9. Букреева И. А. Учебно-исследовательская деятельность школьников как один из методов формирования ключевых компетенций. Молодой ученый. — 2012. №8. — С.

309-312.

10.Матяж Н.В. Инновационные педагогические технологии. Проектное обучение: учеб. пособие для студ. Учреждений высш. образования. – М.: Издательский центр «Академия», 2014. – 160 с.

11. Johnson K., Magusin E. Exploring the digital library. A guide for online teaching and learning// Jossey – Bass, 2005.–162 pp.

12. Merzon E.E. Educational environment as a factor of formation of professional competence of students of a pedagogical university // A young scientist. 2011. V. 2, № 10. P. 170-172

OLIY TA’LIM JARAYONIDA INDIVIDUAL YONDASHUVNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Arslonova Gulsora Kurbonovna
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada oliy ta’lim jarayonida individual yondashuvni tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlari keltirilgan. Xorij va rus olimlarining individual ta’lim va individual yondashuvga oid ilmiy-nazariy qarashlari keltirilgan. Ta’lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etishning pedagogik-psixologik jihatlari yoritilgan. Oliy ta’lim jarayonida individual yondashuvni tashkil etishning ilmiy-metodik jihatlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: individual ta’lim, individual yondashuv, individuallashtirish, differensiallashtirish, psixologik muhit, shaxs, psixik rivojlanish, korreksiyalash, iqtidor, fiziologiya, didaktik vosita.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПОДХОДА В ПРОЦЕССЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье представлены педагогические и психологические особенности организации индивидуального подхода в процессе высшего образования. Изложены научно-теоретические взгляды зарубежных и российских ученых на индивидуальное образование и индивидуальный подход. Освещены педагогические и психологические аспекты применения индивидуального подхода к образовательному процессу. Описаны научные и методические аспекты организации индивидуального подхода в процессе высшего образования.

Ключевые слова: индивидуальное обучение, индивидуальный подход, индивидуализация, дифференциация, психологическая среда, личность, психическое развитие, коррекция, талант, физиология, дидактический средство.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF AN INDIVIDUAL APPROACH IN THE PROCESS OF HIGHER EDUCATION

Abstract. The article presents the pedagogical and psychological features of the organization of an individual approach in the process of higher education. The scientific and theoretical views of foreign and Russian scientists on individual education and an individual approach are presented. The pedagogical and psychological aspects of the application of an individual approach to the educational process are covered. The scientific and methodological aspects of organizing an individual approach in the process of higher education are described.

Key words: individual training, individual approach, individualization, differentiation, psychological environment, personality, mental development, correction, talent, physiology, didactic tool.

Individual shaklda ta’lim berish 18-asrgacha yuqori darajada tatbiq etilgan. 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida ta’limni individuallashtirish dolzarb muammo hisoblangan, ta’lim oluvchilarni psixik rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Jamiyat rivojlanishi natijasida yakka o‘qitish aristokrat, boy va ayrim ijtimoiy qatlam oilalarida bola tarbiyasida amalga oshirilgan.

Individuallashtirish dunyo mamlakatlari olimlari tomonidan turlicha talqin qilingan.Ushbu tushunchani aniqlashtirishda ikki xil qarashlar uyg‘unlashib ketadi, ya’ni individuallashtirish va differensiallashtirish.

Mavzuga oid izlanishlar tahlili. Xorij va rus olimlari individual yondashuvga ilmiy nuqtai

nazardan qaraganda, bevosita asab tizimiga bog‘liq ekanligiga e’tibor qaratadi.

Ya.A.Komenskiyning ta’kidlashicha, individual yondashuvda ta’lim oluvchilarga ta’lim-tarbiya berish asosan ularning yosh va individual xususiyatiga asoslanadi, biroq ushbu holat tizimli kuzatuv yo‘li bilan aniqlanadi [6]. Individual ta’limda o‘qituvchi yuqori pedagogik mahorat egasi sifatida ishtirok etadi.

K.D.Ushinskiy “individual yondashuvga oid qarashlarida talabalarga ta’lim-tarbiya berishda ularning ijobiy odatlariga tayanish kerakligini asoslaydi”. Muammoning yechishning ijobiy tomoniga e’tibor qaratadi, qandaydir murakkab pedagogik vaziyatlarga tayanmagan holda ta’lim ishtirokchilariga individual yondashishni ma’qullaydi [10].

A.S.Makarenkoning pedagogik izlanishlarida individual yondashuv tamoyili, qator pedagogik vazifalarni hal etishda muhim sanaladi, masalan: jamoaviy ta’lim-tarbiyani tashkil etish, ijodkorlik, kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorlash va boshq. Olim shaxs rivojlanishining umumiy dasturini ishlab chiqqan, unda pedagog ta’lim oluvchilarning individual-xususiyatiga mos “Korreksiyalash” ishlarini olib borishi tavsiya etilgan [8].

Rus olimasi Ye.N.Vodovozovaning fikricha “ta’lim-tarbiyaning har tomonlama tahlil qilishdan avval, pedagog va ota-onalarning o‘zlari psixologiya va fiziologiya fanlarini ilmiy asoslarini bilishlari lozim. Barcha ta’lim oluvchilar bilan qat’iy bir qoidaga asoslanib, ishlash mumkin emas, chunki ular bir-biridan individual xususiyatlariga qo‘ra farqlanadilar” [1] . Insonning umumiy va o‘ziga xos xarakteri bevosita bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, ayrim chigalliklar uchraydi, bu esa individual yondashuvda murakkablik tug‘diradi. Olima ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim oluvchilarning ijobiy sifatlariga e’tibor qaratish, bu esa umumta’lim va individual yondashuvning asosiy nuqtasi deb hisoblaydi.

Shuning uchun, avvalo professor-o‘qituvchilar har bir talabaning ijobiy sifatlari, yutuqlarini aniqlashi va shunga asoslanib, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, shaxsiy imkoniyati, irodasini mustahkamlashi lozim. Ilk bolalikdan ta’lim-tarbiya berish jarayoni bolaning ijodiy faolligi va tashabbusini qo‘llab-quvvatlashga qaratilishi kerak. Darhaqiqat kichik bolalar hayoti davomida oladigan ma’lumotlarni 70% ni 5 yoshgacha olib bo‘lar ekan.

V.A.Suxomlinskiyning ta’kidlashicha, “shaxsning individual rivojlanishini ta’minlash uchun individual ta’lim muhiti zarur. Ta’lim oluvchining individual xususiyati asab tizimi bilan bog‘liq” [2].

I.P.Pavlov oliy nerv faoliyatini ilmiy asoslarini o‘rganish natijasida to‘rtta asab jarayonini belgilarini ya’ni temperament turlarini aniqlagan [9]. Shaxs shakllanishida psixologik xususiyatlar, temperament va xarakter muhim omil hisoblanadi. Shaxs rivojlanishi jarayonida asab tizimining fiziologik asoslari hamda sekin-asta temperament va xulq-avtor xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham individual o‘qitish mazmuni, metodlari va o‘quv faoliyati shakllari yakka tartibda ishlashga qaratiladi. Ta’lim oluvchilar faoliyati natijalarini tizimli va oson nazorat kilish imkonini beradi, pedagog va talabaga ta’lim jarayonini tuzatishga sharoit tug‘diradi. Bu esa o‘quv jarayonida yuqori natijaga erishishni ta’minlaydi.

Pedagogik atamalar lug‘atida individual yondashuvga quyidagicha ta’rif berilgan “Individual yondashuv- pedagogik jarayonni o‘quvchining individual o‘ziga xos jihatlari (mijozi, xarakteri, qobiliyati, moyilligi va boshqalarni e’tiborga olgan holda amalga oshirish usuli” [4; 27]. Individuallashtirish har bir talabaning alohida xususiyatini talab etmaydi, ayrim tadqiqotchilar ta’lim oluvchilarning qandaydir o‘xshash sifatlarini chegaralaydi.

A.A.Kirsanov tomonidan o‘quv ishlarini individuallashtirishda tarbiyaviy va didaktik vositalarga tizim sifatida qaraydi, jamoa a’zolarini bilish imkoniyati va faoliyat maqsadini yakka tartibda va guruh ishtirokchilari misolida taxlil qiladi. O‘quv faoliyatini har bir talabaning imkoniyat darajasini ta’lim maqsadlaridan kelib chiqib ta’minlashni tavsiya etadi[7]. Ba’zan individuallashtirish va differensiallashtirish sinonim sifatida foydalaniladi.

Ye.Ya.Golant esa ikkala tushuncha ham dars jarayonida bir xil xususiyatga ega degan mulohaza bildiriladi. differensiallashtirish terminiga izoh beradi [3].

Rivojlangan davlatlar pedagogikasida ham mazkur tushunchaga turlicha yondashuvlar mavjud. AQShda individual ta'lim ikki qismga ajratilgan.

1. Darsni rejalashtirishda barcha guruh ishtirokchilari ko'zda tutilgan.
2. Ta'lim oluvchilar bilan yakka tartibda shug'ullangan, ayrim talabalarning xohishiga ko'ra o'z bilimini chuqurlashtirish yoki umumqabul qilingan me'yorlarni o'zlashtirish, qobiliyati rivojlangan talabalar bilan alohida mashg'ulot olib borilgan.

Yuqorida keltirilgan mulohazalar ta'lim ishtirokchilarini individual xususiyatiga qarab, barcha shakl va metodlar tanlab olinishini ifodalaydi. Individual ta'lim o'qitishning eng samarali strategiyasi sifatida qaraladi.

N. E. Gronlund fikricha individual yondashuvda quyidagilarga amal qilinadi:

1. Eng kichik modifikatsii bo'lib, jamoaviy o'qitish to'la o'zlashtirishga bog'liq bo'lmaydi.
2. O'qitish uslubini variativ shakllari, ta'lim maqsadi, metodlari o'quv materiallari talabalarning o'zlashtirish darajasiga qarab tanlab olinadi.
3. Individual ta'lim o'qitilayotgan barcha fanlar mazmunini qamrab oladi, o'quv materialining muayyan qismidan alohida talabalar uchun foydalanadi[5].

Natija va mulohazalar. Fransiya pedagogikasida 1930-yillarda avvalo individual ta'lim talabalarni mustaqil ishlashini ularning individual xususiyatiga mos ravishda takomillashtirish deb ta'riflangan.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida ham uzok yillardan buyon individual yondashuvdan keng foydalaniladi. Ayniqsa amaliy fanlar, san'at va xunarmandchilik sohasida qo'llanilgan. Individual o'qitish talaba-yoshlarni o'ziga xos psixik sifatlarini, ilm-fan va kasb-hunarga tabiiy moyiligini e'tiborga olish imkoniyatini yaratadi. 20-asr oxirlarida respublikamizda individual ta'limga bo'lgan munosabat orta boshladi. Oliy ta'lim va kollejlarga qabul qilishga test tizimi joriy etildi, repititorlik faoliyati ham rivojlana boshladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, bu tushunchaning mazmuni har bir aniq vaziyatga bog'liq bo'lib, qanday maqsad va vositalar nazarda tutilganligi bilan namoyon bo'ladi. Individual ta'lim jarayonida metod va uslublar turli xil pedagogik, psixologik va texnologik, tashkiliy-boshqaruv tadbirlar uyushtiriladi va ta'minlanadi. O'qitishning ushbu turi ta'limiy va tarbiyaviy maqsadga erishish vositasi hisoblanadi.

Individual o'qitishning asosini talabalarning psixologik xususiyatlariga ustuvorlik berish tashkil qiladi. Dars natijasiga ko'ra metodlar tanlanadi va transformatsiya qilinadi. Tatbiq etilgan texnologiya, tamoyil va usullar bir-birini to'ldirishi lozim. O'qitish tizimida samaraga erishish uchun individual yondashuv talab etiladi. Individual yondashuvda har qanday pedagogik ta'sir ko'rsatish talabanig shaxsiy imkoniyatlari orqali amalga oshiriladi.


Talabaga individual yondashuv bu- ta'lim strategiyasi va taktikasi hisoblanib, o'qitish konsepsiyasi va tamoyili hisoblanadi. Dars jarayonida "o'qituvchi-auditoriya" emas, "o'qituvchi-talaba" munosabati o'rnatiladi.

Bugungi kunda barcha ta'lim tizimda o'qitishning turli shakllaridan foydalanilmoqda.Biroq qo'llaniladigan metod va shakllarni zamon talablari asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Pedagogika fanidagi tajribalar eng faol va samarali shakllardan biri individual yondashuv ekanligini ko'rsatdi. Individual jarayon professor-o'qituvchidan talabalar bilan yakka tartibda muloqotga kirishishni talab etadi. Bunda talabalar o'quv faniga oid qo'llanma va darsliklarni mustaqil ravishda o'zlashtiradi, kompyuter, qo'rgazmali qurol va tarqatma materiallar orqali bilimlarini mustahkamlaydi. Individual ta'lim jarayonida dars mashg'ulotlari o'qituvchi tomonidan talabaga pedagogik ta'sir o'tkazish natijasida samarali kechadi. O'qitishning ushbu turida o'qituvchi talabalar bilan guruhda emas, yakka tartibda ishlaydi.

Individual o'qitishning afzalligi shundaki, talabalar ta'lim mazmuni to'la o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladi, o'quv faoliyati metodlari va uslubi, uzining har bir harakati va

vazifalarni hal etishda natijalarni kuzata oladi.


Oliy ta’lim jarayonida individual yondashuv jarayonida quyidagi omillar inobatga olinadi:



Ushbu omillarga qo‘shimcha ravishda talabalarning umumiy sifatlariga ko‘ra turli guruhlarni shakllantirish mumkin. Agar talabalar dars jarayonida mustaqil ravishda topshiriqni bajarsa mustaqil ish hisoblanadi, mabodo har bir talabaning individual xususiyatiga ko‘ra topshiriq berilsa, ta’limni individuallashtirish deyish mumkin.

Xulosa va takliflar. Individual ta’lim jarayonida talabalarning imkoniyati va o‘ziga xos xususiyatiga tayangan holda metod va shakllari saralanadi. Fikrimizcha, individuallashtirish o‘quv topshiriqlari guruh talabalari o‘rtasida taqsimlanadi.

Individuallashtirishning uchta jihati mavjud:



Individual yondashuvda professor o’qituvchilar quyidagi umumiy xususiyatlarni inobatga olishi zarur:

- Talabalarning yaxshi o‘zlashtirmasligini bartaraf qiladi (bilim olishdagi bo‘shliqlar, tafakkur rivojlanishidagi muammo, o‘quv malakalarini shakllantirish, ishchanlik qobiliyatini pasayishi).
- Bilim, ko‘nikma va kompetensiyasi rivojlanadi.
- Talabaning motivatsiyasi ortadi va irodaviy-hissiy holati mustahkamlanadi.
- Qobiliyatli va iqtidorli talabalar uchun o‘quv jarayonini optimallashtirishga (ijodiy

faoliyat, auditoriyadan tashqari ishlarni tashkil etish) erishiladi.

- O‘quv jarayoni elementlarini erkin tanlashga imkon beriladi.
- Umumkasbiy ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi.
- Talabalar o‘z-o‘zini baholaydi.
- O‘qitish vositalari va axborot texnologiyalaridan keng foydalaniladi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, individual ta’limda pedagogik jarayon ta’lim oluvchilar qobiliyatiga moslashtiriladi. Natijada qulay maksimal muhim yaratiladi, talabalarning bilim darajasi muntazam nazoratga olinadi va zarur tuzatishlar kiritish imkoniyati paydo bo‘ladi. Individual yondashuv pedagogik tamoyil bo‘lib, pedagogik jarayonda o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi munosabatlar ularning individual xususiyatiga asoslanib tashkil etiladi va barcha talabalar hamda har bir talaba uchun psixologik-pedagogik muhit yaratiladi. Individual yondashuv ta’lim-tarbiya jarayonini asosiy qismi bo‘lib, bunda barcha ishtirokchilar faol ishtirok etishi ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аммосова В.Г., Николаева Л.В. Педагогическое наследие Е.Н. Водовозовой в современной теории и практике дошкольного образования // Современные наукоемкие технологии.. № 12-12 2019. – С. 129-133;

2. Борисенко, В.Н. Частицу сердца отдал мне: [о В.А.Сухомлинском] СПб : Сазанов А., 2001 – 135 с.

3. Голант, Е.Я. Методы обучения в советской школе / Е. Я. Голант. – М.: Учпедгиз, 1957. – 152 с.

4. Djuraev R.X., Tolipov O‘.Q., Safarova R.G‘. va boshq. Pedagogik atamalar lug‘ati.T.: 2008-136 b.

5. Gronlund N.E. Individualizing Classroom Instruction. N.Y., 1974.-237 p.

6. Коменский Я.А. Избранные педагогическая сочинения. М.: 2024-440 с.

7. Кирсанов, А. А. Индивидуализация обучения // Российская педагогическая энциклопедия: в 2-х тт. - Т. 1. - М., 1993. - С. 359-360.

8. Макаренко А.С. Педагогическая поэма. – М.: 2019-257 с.

9. Павлов, И. П. Физиология. Избранные труды / И. П. Павлов. — 2-е изд., стер. — Москва : Издательство Юрайт, 2024. — 402 с. — (Антология мысли).

10. Ушинский К.Д. Педагогическая антропология. В 2 томах. Учебник для вузов М.: 2024- 439 с.

11. Унт И. Индивидуализация и дифференциация обучения. – М.: Педагогика, 1990. – 189 с

12. Эрматова Г.П. Вопросы формирования социального интеллекта. - Журнал психологии, 2021, С. 103-108.

13. Юлдашев Ю.Г., Усманов С. Передовые педагогические технологии. - Т.: Учитель, 2004.- 96 б.

PEDAGOGIK FAOLIYATDA AKTYORLIK VA REJISSYORLIK ELEMENTLARINI QO‘LLASH

Baxriyeva Nargiza Axmadovna,
Buxoro davlat Pedagogika instituti
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Аннотация: maqolada zamonaviy darsni tashkil etishda pedagogning aktyorlik va rejisserlik elementlaridan foydalangan holda tashkil etilishi bilan bog‘liq jihatlar, shuningdnek, pedagogik muloqot va dars materialini ta’lim oluvchilarga yetkazishninig psixologik jihatlari aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: aktyor, aktyorlik mahorati, rejissyorlik, ssenariy, teatr san’ati pedagogikasi, “aynanlashtirish usuli”.

ПРИМЕНЕНИЕ АКТЁРСКИХ И РЕЖИССЕРСКИХ ЭЛЕМЕНТОВ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Бахриева Наргиза Ахмадовна
Бухарский государственный Педагогический институт
Доктор философии в области психологии (PhD)

Аннотация: в статье отражены аспекты, связанные с организацией работы педагога с использованием элементов актерского и режиссёрского мастерства в организации современного урока, а также психологические аспекты педагогического общения и подачи материала урока учащимся.

Ключевые слова: актер, актерское мастерство, режиссура, сценарий, педагогика театрального искусства, «метод визуализации».

APPLICATION OF ACTING AND DIRECTING ELEMENTS IN PEDAGOGICAL ACTIVITY

Bakhrieva Nargiza Akhmadovna
Bukhara State Pedagogical Institute
Doctor of Philosophy in Psychology (PhD)

Abstract: the article reflects the aspects related to the organization of the pedagogue using the elements of acting and directing in the organization of a modern lesson, as well as the psychological aspects of pedagogical communication and delivery of lesson material to students.

Key words: actor, acting skills, directing, script, theater art pedagogy, «method of visualization».

Pedagogik faoliyat – ijodiy faoliyat sifatida o‘qituvchidan o‘quv materialini ijodiy yondashgan holda o‘rgatishda ma’lum me’yorlarga rioya etishni talab qiladi. Darsning asosiy qismi o‘quv materialini idrok etish bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun ularda estetik ruh, kayfiyat yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchida “pedagog-aktyor” xususiyatlari bo‘lishi zarurligi ta’kidlanadi. Buning boisi bor, albatta. Chunki, o‘qituvchi o‘z faoliyatini samarali va sifatli tashkil etishi uchun tashkil etadigan bir soatlik darsini tuzilgan loyiha asosida amalga oshiradi. Dars jarayonida kommunikativ faoliyatni amalga oshirib, har bir o‘quvchi bilan muloqoti mobaynida dars ssenariysi va borishiga ma’lum o‘zgartishlar kiritadi, korreksiyalab boradi.

Yana shuni ta’kidlash lozimki, har bir dars yoki mavzu faqat bir martagina amalga oshiriladi. Bu o‘qituvchining aktyor faoliyati bilan o‘xshash tomonlaridir. Lekin uning o‘xshash

bo‘lmagan tomonlari ham bor, jumladan, aktyor har safar o‘z rolini bir xil ijro etadi, o‘qituvchi esa bunday qilolmaydi, u har safar ma’lum holatlar, vaziyatlarga ko‘ra o‘z faoliyatini tahrir qilib, takomillashtirib boradi.

Ta’kidlash zarurki, o‘qituvchi va aktyorning ish faoliyati bir-biriga juda yaqin. Ularning ish faoliyati juda ko‘p harakatni talab etadi, o‘zgaruvchan, har ikkalasi ham o‘sib kelayotgan yoshlar bilan muomala qiladi va umumiy vazifalarni bajarishadi, ya’ni, ilmiy ijodiyot mashg‘ulotlari vositasida boshqa inson (o‘quvchi)larda fikr va hissiyotlarni uyg‘otishdan iborat. Har ikkalasining ham ish faoliyati ijodiy jarayondan iborat.

Bu kasblarni qiyoslash shundan dalolat beradiki, o‘qituvchining ishi aktyornikidan ko‘ra qiyinroq. Aktyor bu spektaklning ma’lum bir qismi, xolos. O‘qituvchi esa uch qiyofani aks ettirgan obraz, ya’ni, o‘qituvchi darsni tashkil etuvchi muallif, chunki u darsning ssenariysini tuzadi, ham rejissyor, ya’ni har bir dars bu o‘ziga xos prem’era (ya’ni birinchi va oxirgi marta ijro etiladi) va asosiy rol ijrochisi [1].

Pedagogikada aktyorlik har bir mutaxassis uchun zarur ekanligiga shubha yo’q - u muhandismi, shifokormi, rassommi, o’qituvchimi yoki o’qituvchimi barchasi uchun zarurdir. O‘qituvchi ijodiy shaxs sifatida pedagogik mantiqni puxta egallashi, pedagogik sezgi, improvizatsiya qobiliyatini, pedagogik badiiy mahoratini rivojlantirishi kerak.

Pedagogik iste’dod - bu shaxsning jozibadorlik, sezgirlik, diksiya, imo-ishoralarni maqbul qo‘llash, mehnatga muhabbat, did, kuzatuvchanlik, ta’sirchanlik, tasavvur, samimiylik, o’z-o’zini nazorat qilish, yuqumlilik, shaxsiy topqirlik va boshqa ijodiy qobiliyatlari yig’indisidir. Aynan shu tufayli shaxslararo muloqotning asosiy qonuni - muloqot ishtirokchilarining o‘zaro uyg‘un harakatlari amalga oshiriladi.

Muvofiqlik 3 ta asosiy tarkibiy qismni o’z ichiga oladi:

1) kognitiv (o’qituvchining shaxsiy xususiyatlarni to’g’ri topa olish va boshqalarni baholash uchun malaka va ko’nikmalar tizimini o’zlashtirishi);

2) estetik (muloqot ishtirokchisining tashqi va ichki ko’rinishi o’ziga nisbatan ma’lum munosabatni uyg’otadi);

3) xulq-atvor (muloqot ishtirokchilarining bir-biriga murojaat qilish jarayonida so’zlari va harakatlari).

Pedagogik muvofiqlikni belgilovchi muhim shartlardan biri bu his-tuyg’ular va tajribalarning kuchliligi, ularning yorqinligi va xilma-xilligi, voqelikni har doim to‘laqonli idrok eta olish qobiliyatidir.

Yana bir o‘ziga xoslik: aktyor bir kunda bir spektaklda ijro etishi mumkin, o‘qituvchi esa bir kunda bir nechta dars o‘tadi. Darslar turli yoshdagi va turli intellektual imkoniyatlar hamda tayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan, turli mavzularda tashkil etiladi. Dars jarayonida barcha sinflarda o‘ziga xos tarzda ishchanlik vaziyati, faoliyatlar ustuvorligi yaratiladi. Bularga sinfdan tashqari ishlar, tadbirlar va to‘garaklarda faoliyat yuritishni ham kiritish mumkin.

Bunda o‘qituvchi quyidagilarga amal qilishi maqsadga muvofiq:

- o‘quvchilarni qiziqtirgan holda o‘quv faoliyatiga safarbar eta olish;
- o‘quvchilarning qiziqish va intilishlari doirasini oldindan ko‘ra bilish;
- turli yoshdagi o‘quvchilarning psixologik imkoniyatlari va idroki xususiyatlarini nazarda tutish;
- tashkilotchi bo‘lish, sinf xonasini zamonaviy talablar darajasida jihozlash;
- darsda multimedia vositalaridan keng foydalana olish;
- diqqatli bo‘lish;
- darsda o‘quvchilarning kayfiyatini o‘zida aks ettira olish.

Ushbu barcha sifat va xususiyatlar o‘qituvchi vazifasini tashkil etadi. O‘qituvchi aktyorlik layoqatiga ega bo‘lsa, yaxshi, faol, ishchan kayfiyatga ega bo‘lsa ushbu barcha sifatlarni o‘zida aks ettira oladi. Buning uchun yuqori pedagogik natijalarga erishishni ta’minlaydigan, asab zo‘riqishlarini nisbatan kam miqdorda kechiradigan psixologik ko‘nikmalar majmuasiga ega

bo‘lish zarur.

Shu bois, o‘qituvchi dars jarayonini tashkil etishda aktyorlik mahoratidek alohida qobiliyatlar majmuasiga ega bo‘lishdan tashqari, rejissyorlik mahoratiga ham ega bo‘lishi va ushbu imkoniyatlarni dars jarayonida qo‘llashi samarali natijalarga olib kelishi mumkin [1]. Rejissyorlik – darsni tashkil etish mahorati uchun zarurdir [2].

Darsda o‘qituvchi dirijor sifatida ish ko‘rib, ijodiy jarayonni tashkil etadi. Ya’ni, o‘quvchilarning dars materialini o‘zlashtirish faoliyatini amalga oshirishi zarur, bu uchun o‘qituvchi sinf jamoasi va har bir o‘quvchining o‘quv faoliyatini nazorat qilib boradi va zarur paytda ularga tegishli emotsional kayfiyat va holatlarni hosil qilishga ko‘maklashib boradi.

O‘qituvchining ijodiy faoliyati yo‘li bu doimo o‘quv jarayoniga yangilik olib kirish, takomillashishdan iboratdir. Bu vazifani amalga oshirish dastlab o‘qituvchining tasavvurida shakllanadi va so‘ngra ma’lum jarayonga aylanadi.

Pedagogik ijodiyot – yangi, oldin ma’lum bo‘lmagan, maxsus yo‘naltirilgan ijodiy faoliyat natijasida aniqlangan badiiy yangilikdir. Pedagogik ijodiyotning asosiy qirralari:

a) Metodik ijodiyot, bunga dars materialini o‘zlashtirishning optimal usullarini ishlab chiqish kiradi;

b) kommunikativ ijodiyot, o‘quv materialini yetkazishning uslubi va yo‘llari o‘qituvchidan o‘quvchiga ijodiy tarzda o‘tkaziladi;

c) o‘z-o‘zini takomillashtirishga qaratilgan ijodiyot, bilishning muhim qadriyat sifatidagi ahamiyatini teran anglash orqali uni o‘zida singdirishdir.

K.S.Stanislavskiy tomonidan ishlab chiqilgan metodni pedagogik mahoratni shakllantirishda qo‘llash ijobiy natijalarga olib keladi. Bunda teatr san’ati pedagogikasida keng qo‘llanib kelayotgan “aynanlashtirish usuli”, ya’ni, o‘z “men”ini o‘ynalayotgan obraz bilan aynanlashtirish, birlashtirish nazarda tutiladi. Bu usul darsni tashkil etish uchun nafaqat katta tayyorgarlik bosqichini amalga oshirishni, balki o‘qituvchi tomonidan dars materialini o‘zlashtirish jarayonlarida faol ishtirok etishni ko‘zda tutadi. Shundagina o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida chinakam tabiiy, samimiy, ishchan pedagogik muloqot amalga oshiriladi.

O‘qituvchining pedagogik mahorati qirralarini quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

O‘qituvchining pedagogik mahorati qirralari.

Bilim va malakalar	Umummadaniy, nazariy, psixologik, pedagogik
Ko‘nikmalar	Gnostik – bilishga yo‘naltirilgan, perseptiv – (idrok), harakat, kommunikativ (artistizm) va pedagogik
Sifat	Artistlik, dirijyorlik, muvaffaqiyatga ishonch, ichki intuitsiya, pedagogik muloqot imkoniyati
Yo‘nalganlik	Tarbiyaviy imkoniyatni amaliyotda tadbiq etish, o‘quvchilarga ta’lim berish va tarbiyalash, ularda fanga nisbatan qiziqish, kasbni ulug‘lash hissini uyg‘otish
Funksiyalar	Diagnostik, prognostik, tashkilotchilik, kommunikativ, loyihalovchi, tadqiqotchilik
Qobiliyatlar	Didaktik, kommunikativ, tashkilotchilik, konstruktiv, gnostik, perseptiv, kreativ, ekspressiv (hazil va yumordan oqilona foydalanish)

O‘qituvchida aks ettirilayotgan voqea-hodisalarda maqbul ifodalanadigan hissiyot,

emotsiya va kechinmalar ishonarli, ta’sirchan bo‘lishi zarur. Shunday vaziyatlar kuzatiladiki, ayrim o‘quvchilarni talab darajasidagi o‘quv faoliyati holatiga kiritish qiyin bo‘ladi. Bu ushbu dars oldidan jismoniy tarbiya, sport musobaqasi yoki shunga o‘xshash tadbirlardan keyin qo‘yilgan dars bo‘lsa, bu o‘quvchilarning emotsional holatiga ma’lum darajada ta’sir etadi.

Mazkur vaziyatlarda o‘qituvchi alohida ajralib turgan o‘quvchilarga dars mavzusi materialini yana bir marta, yotig‘i bilan tushuntirgandan so‘ng, unda aks ettirilgan voqelik mohiyatini anglatishi lozim. Mazkur vaziyatda o‘qituvchi aktyor rolida turib asar borasida o‘z fikrini bildirishi, o‘quvchilarni ijodiy jarayon holatiga olib kirishi zarur.

O‘qituvchi faoliyatida sahna mahorati va aktyorlik qobiliyatining barcha qirralari namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi o‘z o‘quvchilari oldida turib, aktyor sahnada o‘z fikrini bayon etganidek, dars materialini, undagi obraz kayfiyatini o‘zida ifodalashga harakat qiladi.

O.S. Bulatovaning ta’kidlashicha, артистизм - bu nimanidir go’zal, ta’sirchan va ishonarli tarzda o’quvchiga hissiy ta’sir ko’rsatish orqali ham etkazishdir. S.D.Yakusheva артистизм shaxsning ma’naviy boy ichki dunyosining namoyon bo’lishi, deb hisoblaydi. Bu shaxsning o’zini-o’zi kasbiy takomillashtirish va o’z-o’zini tarbiyalash ehtiyojlarini qondirish uchun ijodiy faoliyatning muayyan turlarini ma’naviy va amaliy o’zlashtirish jarayonida shakllanadi.

O‘quv mashg‘ulotlarida aktyorlik mahoratidan foydalangan holda ishni tashkil etish uchun quyidagilarga e’tibor qaratish muhimdir [3, 201].

1. O‘zini ishchan, ijodiy his etish, psixik faoliyat, emotsional holatlarni maqbul boshqarish.
2. Jozibalilik, shaxs sifatida o‘zini ifodalash, individual uslubning namoyon bo‘lishiga erishish.
3. Emotsionallik, nutq va hatti-harakatlarni amalga oshirishda obrazlilikni namoyon etish.
4. Tashqi qiyofa, moslashuvchanlik, tashqi ifodalilik, verbal muloqot sohasida malakalarga ega bo‘lish.
5. Intuitsiya, tasavvur, ijodiy fantaziyani namoyon etish.
6. Kommunikativ qobiliyatlar, munosabat shakllari, o‘quvchilar bilan muloqotga kirishish.
7. Nutq qobiliyati.
8. Kuzatuvchanlik, diqqatni boshqarish.
9. Suggestiv qobiliyat [4].
10. Rejissyorlik qobiliyati.
11. Rolga kira olish qobiliyati mavjudligi;
12. O‘qituvchi aktyorlik qobiliyati nuqtai nazaridan darsni psixologik tahlil qila bilishi.

Bundan tashqari:

a) dars uslubi (o‘qituvchi qaysi uslublardan foydalanadi; o‘qituvchining sinf jamoasi bilan muloqotni amalga oshirish uslubi va pedagogik muloqot vaziyatida boshqarish darajasi), o‘quvchilarning intellektual faoliyatga istak, xohishlari nisbati;

b) o‘qituvchining darsga psixologik tayyorligi. O‘zining ijodiy individualligini, o‘z psixofizik tabiatining xususiyatlarini anglashi. Dars boshlanishida va uning borishi jarayonida o‘qituvchining o‘zini ishchan his etishi, uning kayfiyati darajasi. Dars jarayonida o‘qituvchidagi emotsional kechinmalarning pedagogik maqsadga muvofiqligi (o‘qituvchi muntazam muloqotda bo‘lishi, sinfni yuqori ishchanlik holatida ushlab turishi yoki befarq, passivligi);

c) sinfdagi psixologik iqlim, o‘qituvchining o‘z psixologik holatini boshqarishi malakasi va zaruriy emotsional kayfiyat yarata olishi.

d) xayrixoh munosabatda, o‘quvchilar bilan xushmuomalada bo‘lishi, ochiqko‘ngilligi yoki aksincha.

e) o‘z hissiyotlarini, o‘z xususiyatlarini ochiq ifodalashdan chekinmasligi

f) muloqotmandligi, paydo bo‘ladigan muammolarni yengil hal eta olishi, mumkin bo‘lgan ziddiyatlarni tezda yechishi, o‘zini o‘quvchi o‘rnida ko‘ra olishi;

g) darsda o‘qituvchi harakatlarini kuzatish (o‘qituvchi o‘quvchilarning dars materialini

idrok etishi xususiyatlarini qanday hisobga oladi; dars rejasi va uning amaliyotda joriy etilishini qiyoslaydi – o‘zgarishlarni aniqlash, ularning sababini tushuntirish, qaysi harakatlar rejalashtirilganligini aniqlash; muloqot jarayonida tezkor pedagogik improvizatsiyani amalga oshirish qobiliyati).

O‘quvchilarda noverbal kommunikatsiyani rivojlantirish uchun turli rivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish mumkin.

“Axborot uzatish” mashqi. O‘quvchilarning bir qismiga savollar yozilgan kartochkalar beriladi. Qolgan o‘quvchilar kartochkalarda nima yozilganligini bilmagan holda o‘rtoqlarining hatti-harakatini bilib olishlari zarur. Ushbu mashq kompleks tarzda bajariladi va emotsional reaksiyani, o‘qish hamda ifodalash malakalari darajasini ko‘rsatadi.

 Sinfga kirdingiz, iliq kutib olishdi, siz darsning boshlanish qismidan mamnunsiz.

 Sinfga kirdingiz, shovqin va baqir-chaqir bo‘layapti. Siz buni kutmagan edingiz va hayron bo‘ldingiz.

 Sinfga kirdingiz, bu sizning sevimli jamoangiz. Siz darsning qiziqarli o‘tishini kutayapsiz.

 Sinfga kirdingiz, bu o‘quvchilar bilan ishlash hali ancha murakkab, siz darhol o‘quvchilarni ta’limiy faoliyatga jalb etishingiz zarur.

 Sinfga - o‘qituvchining kelmasligini, chunki u kasal bo‘lganligini va dars qoldirilganligini aytish uchun kirdingiz.

 Siz sinf nomiga tabrik xati kelganligini aytish uchun kirdingiz.

 Mustaqil ish ketayapti. Siz qatorla oralab yurib, o‘quvchilarning ishlashini nazorat qilayapsiz. Ular yaxshi ishlashyapti.

 Siz qatorlar oralab yuribsiz. Bir o‘quvchi bugun har doimgidan ko‘ra ancha yaxshi ishladi. Ta’kidingizni o‘quvchi ko‘rganligini bildiring.

Bu kabi mashqlar sinf jamoasi bilan muloqot jarayonini ijobiy tarzda amalga oshirish malakalarini shakllantirishda ko‘maklashadi.

Badiiy ijod shaxsning ma’naviy boy ichki dunyosining namoyon bo‘lishidir. Bu shaxsning o’zini-o’zi kasbiy takomillashtirish va o’z-o’zini tarbiyalash ehtiyojlarini qondirish uchun ijodiy faoliyatning muayyan turlarini ma’naviy va amaliy o’zlashtirish jarayonida shakllanadi.

Yuqorida keltirilgan tahliliy ish usullari o‘qituvchida aktyorlik va rejissyorlik mahorati elementlari mavjudligi darajasini aniqlashda muhimdir. Mazkur xossa va sifatlar darsni yuqori pedagogik-psixologik talablar darajasida tashkil etishga puxta zamin yaratadi, albatta.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘qituvchi darsda ta’limiy jarayonni amalga oshirib, o‘quvchilarga bilimlarni singdirish barobarida ularda yangi bilimlarni egallashga nisbatan mehr uyg‘otadi. Bunda aktyorlik va rejissyorlik mahorati elementlari o‘qituvchining kasbiy pedagogik mahoratini yuksaltirishda muhim omil bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Краткий словарь театральных терминов. – Тюмень, 2003. – С.29.
2. Толковый словарь Ожегова. Электрон манба: https://dic.academic.ru/dic.nsf/ogegova/206526
3. Якушева С.Д. Основы педагогического мастерства. Учебное пособие. - Оренбург: 2004. – 230 с.
4. Большой психологический словарь. Электрон манба: https://gufo.me/dict/psychologie_dict#

TALABALARDA OILAVIY QADRIYATLARGA IJOBIY MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISH VOSITALARI

Dilova Nargiza Gaybullayevna
Buxoro davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)
Axmedov Aminjon Amrullayyevich
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada oilaviy qadriyatlar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, farzand tarbiyasida oilaviy qadriyatlarning o‘rni va ahamiyati, talabalarda oilaviy qadriyatlarga ijobiy munosabatni rivojlantirish vositalari, ushbu jarayonda pedagogik yondashuvlardan foydalanish metodikasi, tadbirlarning mazmun-mohiyati, ular asosida insondagi ijobiy xislatlarni tarkib toptirish imkoniyatlari haqida ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: oila, tarbiya vositasi, vatanparvarlik, xalq og‘zaki ijodi, milliy meros, an’analar, urf-odat, qadriyat, milliy meros, alla, marosim, g‘oya, sog‘lom tarbiya, muhit, taraqqiyot, faravonlik.

Аннотация. В статье изложены сведения о семейных ценностях, их специфике, роли и значении семейных ценностей в воспитании детей, средствах развития у учащихся позитивного отношения к семейным ценностям, методике использования педагогических подходов в этом процессе, содержании мероприятий, возможности формирования на их основе положительных качеств в человеке.


Ключевые слова: семья, средство воспитания, патриотизм, устное народное творчество, национальное наследие, традиции, обычаи, ценности, национальное наследие, Алла, обряд, идея, здоровое воспитание, среда, прогресс, достаток.

Annotation. The article describes family values, their peculiarities, the place and importance of family values in the upbringing of children, means of developing a positive attitude towards family values in students, methods of using pedagogical approaches in this process, the content and essence of events, the possibilities of finding content in positive qualities in a person based on them.

Keywords: family, means of upbringing, patriotism, folk oral creativity, national heritage, traditions, tradition, value, national heritage, alla, ritual, idea, healthy upbringing, environment, progress, prosperity.

“Bola tug‘ilgan kunidan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an’analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi”[1]. Shuning uchun ham, oila muammolari, unda yuritiladigan ta’lim - tarbiya masalalari azal-azaldan olimlarning diqqat-e’tiborida bo‘lib kelmoqda. Oilaning shakllanishi, oila a’zolarining o‘zaro munosabati, uning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy asoslari, oila tarbiyasidagi o‘ziga xos qonuniyatlar singari kabi masalalar kishilik tarixining barcha davrlarida dolzarb bo‘lib kelgan.

Oiladagi asosiy tarbiya bu real hayot tajribalariga asoslanib, bunda oilaning yoshi katta a’zolari yoshlarga ibrat va namuna sifatida o‘rnak bo‘lishlari eng birinchi omil hisoblanadi. Bundan tashqari, oiladagi turli marosimlar, to‘y va tantanalar, oiladagi ijtimoiy muhit, dunyoqarash, ta’lim-tarbiyaga e’tibor, xalq donishmandlari merosiga amal qilish, ularning hayoti va ibratli so‘zlaridan misollar keltirish, xalq maqollaridan zarur holatda foydalanish kabilar ham bir qarashda oddiy, lekin juda muhim manba hisoblanadi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Talabalarda oilaviy qadriyatlarga ijobiy munosabatni rivojlantirish vositalari

Tajribalardan ma’lumki, har bir shaxsni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda “alla” qadimiy, muhim tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lgan birinchi vosita desak xato bo‘lmaydi. Ona allasidan bahramand bo‘lmagan bolaqalbida ota-onaga, Vatanga nisbatan mehr-muhabbat hissi bo‘lishi qiyin. Alla aytmagan yoki alla eshitib katta bo‘lmagan bola bo‘lmasa kerak. Alla tinglab katta bo‘lgan bolada ota-onaga nisbatan o‘zgacha muhabbat, hurmat hissi shakllanadi. Keksalarning aytishicha, alla insonlarni yovuzlikdan saqlab qolar ekan.[3]

Ota-bobolarimizdan meros qolgan chiroyli va ramziy ma’noga ega bo‘lgan urf-odatlarni bilish, bevosita ularda ishtirok etish va aynan ana shu urf odatlarning o‘tkazish tartibini bilish yoshlarni ma’naviy-axloqiy shakllanishida muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bunday malaka va ko‘nikmalarni yoshlarda tarkib toptirish vazifasi avvalo ota-onaga oilaga yuklatiladi. Oilada ota-onalar farzandlariga mehmonnavozlik malakalarini o‘rgatish bilan birga, bevosita mehmonda o‘zini qanday tutish, ovqatlanish, so‘zlashuv odoblarini ham o‘rgatib boradilar. Ayniqsa, ovqatlanish odobini o‘rgatishlari juda muhimdirki, bu birinchidan, bolaning salomatligini ta’minlasa, ikkinchidan me’yorga qarab ovqatlanishga ham o‘rgatadi, uchinchidan badnafslikdanqaytaradi, to‘rtinchidan tejamkorlikga o‘rgatish bilan birga insonlarni axloqiy jihatdan tarbiyalaydi.

Oiladagi yoshi kattalar o‘zlaridan kichiklarga pand-nasihatlar qilishlari, nima yaxshi-yu, nima yomon ekanligi tushuntirshlari, hayotiy misollar bilan fikrlarini izohlashlari va ularni sog‘lom fikr bilan yashashga o‘rgatishlari, undashlari shart. An’anaga ko‘ra, ota-ona nasihatlarina bajarmaslik katta gunoh hisoblangan. Otaga tik boqma, oxirating kuyib ketadi, ota-onani rozi qilish kerak, deb yoshlikdan bola ongiga singdirib borilgan. O‘zbek oilalarida bolani yoshlikdan to‘g‘ri va sog‘lom tarbiyalash, ushbu tarbiyani umr davomida uzluksiz davom ettirish, ularga axloq-odob qoidalarini tushuntirish masalalasi ota-onalar oldiga bir qator talablarni qo‘yadi. Jumladan,

-hech kimga yomonlik qilmaslikka, qo‘lidan kelgancha yaxshilik qilishga ko‘niktirish, uning ko‘ngliga muruvvat urug‘ini solishga intilishning kuchli bo‘lishi;

-to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirib, o‘zlari ham shunga amal qilishlari;

-ota-onaning yaxshi odob, xulq egasi ekanligi, har bir xatti-harakatidan ko‘rinib turishi,

bolalarga namuna sifatida xizmat qilishi;

-yaxshi deb bilgan har bir ishni o‘zlari amalda bajarib ko‘rsatishlari va bu ishning yaxshiligiga bolani ishontirishlari;

-ota-onaning o‘zi to‘g‘ri so‘zli bo‘lishi;

-farzandining qilayotgan yaxshi ishlariga qarab, o‘z darajasiga loyiq mukofatlash, xatoga yo‘l qo‘ysa tanbeh berish;

-farzandlar ota-onasining yuzidagi norozilik alomatlarini ko‘rib, uni jazo tarzida qabul qilishi va rag‘batlantirish ham me’yorida bo‘lishi kerak;

-farzand oldida adolat bilan, ustozlarcha ish olib borish axloqiy tarbiyaning eng muhim asoslaridan hisoblanadi.

Farzandlarga axloqiy tarbiya berishda milliy an’analarni ota-onalar to‘g‘ri tushunib olishlari, qaysi an’analar qanday maqsad uchun hurmat qilishini yaxshi anglashlari juda muhim. Chunki an’analar, urf-odatlar mazmunini, avvalo ota-onalarning o‘zlari yaxshi o‘zlashtirib, kundalik hayotda qo‘llay olsalargina, farzandlariga uni ta’siri samaraliroq bo‘ladi. Har bir xalqning ijtimoiy-madaniy hayotida azaliy an’ana, urf-odat, marosim, bayramlar alohida o‘rin tutadi. Ular kishilar turmush tarzining o‘ziga xos hodisasi sifatida namoyon bo‘ladi. “An’ana”, “odat”, “marosim” bevosita “bayram” tushunchasi bilan bog‘liq (1-jadvalga qarang)

1-jadval

Talabalarda oilaviy qadriyatlarga ijobiy munosabatni rivojlantirishda oilaviy tadbirlarning mazmuni

“An’ana”	tarixiy taraqqiyot jarayonida va ijtimoiy ehtiyojlar orasida vujudga keladigan, avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tadigan, kishilar ma’naviy hayotiga ta’sir ko‘rsatadigan madaniy hodisa
Xalq an’analari	uzoq taraqqiyot jarayonida etnoslarning ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojlari asosida vujudga kelib, ularning aqliy – ijodiy faoliyati asosida, atrof – muhit, tabiat, mehnat jarayoniga bog‘liq holda avloddan-avlodga o‘tib, taraqqiy etgan va asrlararo ajdodlar fikri, orzu-o‘ylari, tajribalari, yutuqlari va boshqa qadriyatlarini mujassamlashtirgan bebaho ijtimoiy–madaniy meros
Urf – odat	kishilarning turmushiga singib ketgan, ma’lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari ko‘nikmasi
Marosim	inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko‘tarinkilik vaziyatida o‘tadigan, tartib-qoidalarga amal qilinadigan tadbir

Talabalarda oilaviy qadriyatlarga ijobiy munosabatni rivojlantirishda “an’ana”, “urf-odat”, “marosim” kabi tadbir vositalari o‘zaro bir-biri bilan bevosita bog‘liq hodisa sanalib, an’analarning tarkibiy qismi urf-odatlarga, urf-odatlarning tarkibiy qismlari esa marosimlarga aylanib hayot tarzini boyitib boradi. Ba’zi holatlarda “an’ana”, “odat” va “marosim” tushunchalari alohida ishlatilsa, ular mavhum ma’noni anglatadi, bunda ularga aniqlovchi so‘zlar qo‘shilib, masalan “an’anaviy bayram”, “mukofotlash marosimi”, “to‘y marosimi”,

“nafaqaga kuzatish marosimi” tarzida qo‘llaniladi. Marosim so‘zi jamoatchilik ishtirokida o‘tkaziladigan katta tadbir ma’nosini bildiradi.[4]

Oilaviy tadbir va marosimlar har bir oila paydo bo‘lishi bilan vujudga keladi va doimiy ravishda takomillashib rivoj topadi, oila ehtiyojlarini qoniqtiradigan yangi marosimlar yuzaga keladi. Oilaviy marosimlar xalq ma’naviyatining tarkibiy qismi, muhim axloqiy qadriyati, ta’sirchan tarbiya vositasi sanaladi. Oilaviy marosimlar jarayonida namoyon bo‘ladigan axloq-odob, mehr-oqibat kabi xislatlar yoshlar ma’naviyati shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq an’analari qadrlanadigan oilalarda tarbiya topgan yoshlar ibratli axloqi bilan boshqalardan ajralib turadi. Bunday oilalardan tarbiyasi og‘ir farzandlar chiqmaydi. Shu bois xalq an’analari va oilaviy urf-odatlar yordamida yoshlarni ma’nan barkamol qilib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, jamiyat asosini oila va uning a’zolari tashkil qiladi. Jamiyatning taraqqiyoti oila, shaxs rivojlanishi bilan belgilanadi. Marosim va bayramlar inson hayotining uzviy qismi hisoblanadi. Har bir kishining shaxsiy hayotida shunday muhim voqealar, bosqichlar mavjudki, ular alohida e’tiborni, xursandchilikni taqozo etadi. Bu hodisalar o‘ziga xos tantana va bayram tarzida nishonlanadi.

Farzandlarning tug‘ilgan kuni, unga ism qo‘yish, bolaning ilk qadam bosishi, o‘g‘il-qizning birinchi bor maktabga borishi, maktabni bitirishi, oliy ta’limga kirishi, ishga kirishi, nikoh to‘yi, kumush, oltin va olmos to‘ylari, nafaqaga kuzatish kabilarni tantanali tarzda nishonlash inson hayotida ijtimoiy harakterga ega bo‘lgan ko‘pgina hayajonli hodisalar ham yuz beradiki, ular ham bayramona yoki tantanali kayfiyat yaratadi. Oliy o‘quv yurtiga kirib, talaba bo‘lish, uni tugatish, ishga kirish, 40, 50, 60, 70, 80 yoshini nishonlash marosimlari kishi hayotida shunday voqealar sirasiga kiradi.

Oilaviy marosimlar kishilik jamiyati madaniyatining tarkibiyqismi sanaladi. Shu boisdan ularda insonlarga xos bo‘lgan axloq me’yorlari aks etadi. Mamlakatimizda sog‘lom turmush tarziqaror topayotgani sari shaxs va oila hayoti bilan bog‘liq ilg‘or an’analar shakllanib, tabora takomillashib bormoqda. Oilaviy an’analarni, oila hayotidagi muhim bosqichlarni, voqea va sanalarni bayram tarzida nishonlash muhim ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan, xalq turmush tarzini takomillashtiradigan vosita hisoblanadi.

Xalq an’analari kishilar dunyoqarashini shakllanishida ta’sir etuvchi muhim omildir. o‘zbek oilalarida chaqaloq tug‘ilganidan to voyaga etib, o‘zi yangi oila qurguncha quyidagi urf-odat va marosimlar o‘tkaziladi:

- ayolni va tug‘ilajak chaqaloqni asrash;
- chaqaloqni dunyoga kelishi;
- chaqaloq sog‘lig‘ini saqlash;
- ism qo‘yish;
- chaqoloqni beshikka solish;
- soch olish;
- tish chiqarish;
- bolaning birinchi qadam qo‘yishi;
- o‘qil farzandlarni sunnat qilish;
- bolaning muchal yoshi;
- yangi oila qurish;
- kumush, oltin va olmos to‘ylari;
- 50, 60, 70 yoshlarni nishonlash bilan bog‘liq marosimlar shular jumlasidandir.[4]

Oilaviy marosimlarni o‘tkazish jarayonida namoyon bo‘ladigan insonparvarlik, mehribonlik, mehmondo‘stlik kabi fazilatlar yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta’sir etadi. Bu tadbirlar davomida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan xalq odatlari, folklor janrlari, lapar, yor-yor, o‘lan marosimqo‘shiqlari, o‘yin-musobaqalar, duolardan foydalanish – yoshlarning ma’naviy kamol topishida katta ahamiyatga ega.

Xalq pedagogikasida oilada farzandning tarbiyalanishi va uning ota onasiga munosabati ham oilaviy qadriyat hisoblanishi etirof etilgan. Har bir ota-ona o‘z farzandini cheksiz mehr-muhabbat, shafqat, kuch-g‘ayrat va moddiy imkoniyatlarini sarflab ularni tarbiyalaydi va ta’lim beradi. Buni har bir farzand yaxshi bilishi, o‘z oilasi va ota-onasiga nisbatan burch va vazifalari borligini anglashi lozim. Har bir farzand ota-onasiga yaxshi muomalada bo‘lishi, ularning xizmatida doim tayyor turishi, har bir ishda ota-onaning roziliklarini olishi ular bilan maslahatlashishi shart.

Farzandlar ota-onaning roziligini olish uchun quyidagi amallarni bajarishi zarur bo‘ladi:

- avvalo barcha ishlarda ota-onadan maslahat olishlari;
- yaxshi narsalarni o‘zidan avval ota-onaga taqdim etishi;
- ota-onaning maslahatlar va nasihatlarini jonu dil bilan qabul qilishi;
- ularni oldida baland ovozda gapirmaslik, “uff” demaslik;
- ota-onadan oldin taomga qo‘l uzatmaslik;
- ota-onalar oldilarida oyoqlarini cho‘zmaslik, yonboshlamaslik, ulardan yuqorida o‘tirmaslik;
- farzand ota-onaning ko‘ngillarini topib roziligini olishi shart;
- ota-onaning oziq-ovqati, kiyim-kechagi va sog‘lig‘idan o‘z vaqtida xabar olib turish kerak.[5]

Oilada farzand tarbiyasiga e’tibor va turli tadbir, marosimlar tarixiy jarayonda xalq padagogikasi va donishmandligi bilan uyg‘unlashib ketib, asrlar davomida yoshlarni tarbiyalashdagi asosiy shakllardan biri bo‘lib kelishi, mazkur jarayonda turli innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida xalq an’analarini qadrlagan, turli marosimlarni o‘tkazishda ma’noviy-estetik jihatlarga alohida e’tibor bergan oilalarda voyaga etgan yoshlar odob-axloqli bo‘lib voyaga yetadi.

Shu o‘rinda butun umrini jahon xalqlarining urf-odatlarini, axloq odobini o‘rganishga bag‘ishlagan ispaniyalik faylasuf olimning yurtimizdagi urf-odatlarmizni e’tirof etib: “Butun bir amalga oshirgan ishlarim va o‘rgangan bilimlarimni 15 yoshli o‘zbek qizalog‘ining, o‘rnidan turib, qo‘lini ko‘ksiga qo‘ygancha choy uzatishidagi odobi, nazokatiga almashtirishga rozi edim”– deb aytgan so‘zlari ham ajdodlarmiz asrab-avaylab kelgan urf-odatlarmizni, sharqona odobimizni, naslimiz pokligini, buyukligimizning isboti sifatida keltirish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, har bir farzand avvalo o‘zini inson sifatida har tomonlama kamolotga erishishi uchun harakat qilmog‘i, ushbu jarayonda unga tirgak va suyanch bo‘layotgan oilasini qadrlamog‘i, o‘zini shu oila qadriyatining bir bo‘lagi ekanligini unutmasligi, shu maqsadda o‘z oilasi taraqqiyoti va faravonligida munosib hissa qo‘shish uchun tayyorlab borishi eng oliy qadriyat ekanligini his etishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.– T.:Sharq 1998y, 4-b.
2. O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi - T., 2023 y.
3. Musurmonova O. Oila ma’naviyati - milliy gurur - T . , 1999y.
4. Hasanboeva O. va boshqalar. Oila pedagogikasi (darslik). - T., 2007 y.
5. M. Abbasitdinov Axloqiy kamolot va oila qadriyatlari. 2016y. dekabr

TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Djurayeva Lola Rustamovna
BuxDPI “Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi, tayanch doktoranti (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda, ayniqsa bo‘lajak o‘qituvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyalari MAT-Muammoga asoslangan ta’lim, shuningdek innovatsion interfaol ta’lim metodlari haqida ma’lumot keltirilgan. Bundan tashqari, ushbu maqolada muammoli ta’lim texnologiyasining kelib chiqishi va tarixiy taraqqiyoti, buyuk pedagog – olimlarning g‘oyalari hamda uning ravnaqiga qo‘shgan ulkan hissasi haqida so‘z boradi.

Tayanch iboralar: Muammoga asoslangan ta’lim, tanqidiy fikrlash, interfaol metodlar, innovatsion yondashuv, zamonaviy axborot texnologiyalari.

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ СПОСОБНОСТИ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ

Джураева Лола Рустамовна
Преподаватель кафедры «Педагогики» БухГПИ, докторант (PhD)

Аннотация: В этой статье представлена информация о проблемное обучение -ПО, а также об инновационных интерактивных методах обучения, направленных на развитие навыков критического мышления у учащихся, особенно у будущих учителей. Кроме того, в данной статье говорится о зарождении и историческом развитии проблемной образовательной технологии, идеях великих ученых-педагогов и их большом вкладе в ее развитие.

Ключевые слова: Проблемное образование, критическое мышление, интерактивные методы, инновационный подход, современные информационные технологии.

TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING STUDENTS’ CRITICAL THINKING SKILL

Djurayeva Lola Rustamovna
Teacher of “Pedagogy” Department, PhD student of Bukhara state pedagogical institute

Abstract: This article provides information on problem-based learning and innovative interactive teaching methods aimed at developing critical thinking skills in students, especially future teachers. In addition, this article discusses the origin and historical development of problematic educational technology, the ideas of great scientists and teachers, and their great contribution to its development.

Key words: Problem-based learning, critical thinking, interactive methods, innovative approach, modern information technologies.

Kirish. Hozirgi kunda mamlakatimizda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish maqsadida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakat istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo‘lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi – deyiladi 2017 yil qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmonida. Zamonaviy ta’lim - yuksak malakali mutaxassislarni davr talablarini inobatga olib tayyorlashni, talabalarning tanlagan

ixtisosliklari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni, mustaqil ravishda amaliy faoliyatga o‘rgatishni ta’minlashi kerak.

Shuning uchun ham tadqiqotchilar va ilg‘or o‘qituvchilar talabalarda o‘quv faoliyatiga ijodiy yondashishni rivojlantirish yo‘llari, texnologiyalari va usullarini qidirib topmoqdalar. Bu izlanishlar jamiyatni tarbiyalashning yangi tuzilmasini yaratishdan iborat umumiy jarayonning davomi va rivojidir.

Muammoga asoslangan ta’lim yoki muammoli ta’lim bu takomillashgan o‘qitish texnologiyasi sifatida zamonaviy ta’lim mohiyatini aks ettiruvchi ilg‘or pedagogik texnologoyalardan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonida ushbu texnologiyani qo‘llash tahsil oluvchilarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, ma’lum gipoteza(faraz)larni ilgari surish, qaror qabul qilish, natijalarni asoslash hamda muayyan xulosalarga kelish kabi 21 asr ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga, ularni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Muammoli ta’limda muammoli vaziyatlarga yechim toppish uchun bahs-munozalardan keng foydalaniladi.Bunda,ko‘p hollarda,kichik guruhlarda ishlash samarali bo‘ladi.

Muammoli ta’limda “fikrlash asosida o‘qitish, bilimlarni ijodiy o‘zlashtirish” shioriga amal qilinadi. Ba’zi adabiyotlarda,evristik ta’lim muammoli ta’limning muqobili sifatida e’tirof etiladi.

Muammoli ta’limning vazifalari:

1) talabalarning bilimlar tizimi va aqliy amaliy faoliyat usullarini o‘zlashtirishi;

2) ta’lim oluvchilarning bilish faolligi, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;

3) bilimlarni mustaqil egallash ko‘nikmalarini rivojlantirish;

4) bilimlarni ijodiy qo‘llash ko‘nikmalarini va ta’lim muammolarini hal qilish qobiliyatini rivojlantirish;

5) real faoliyatda tajribani shakllantirish va to‘plash.

Muammoli ta’lim jarayonida o‘qituvchining faoliyati eng murakkab tushunchalar mazmunini tushuntirish, tizimli ravishda muammoli vaziyatlar yaratish, faktlarni o‘quvchilarga yetkazish va ularning o‘quv va kognitiv faoliyatini shunday tashkil etishdan iboratki, faktlar tahlili asosida talabalar mustaqil ravishda xulosalar chiqarish va umumlashtirish.. Quyida ushbu jarayonga o‘qituvchiga muammoli o‘qitishda yordam beradigan ba’zi savollar keltirilgan:

1. Birinchi bosqich (yoki etap) qanday ko‘rinishda bo‘ladi? Qanday ochiq-oshkora savollar berish mumkin? Qanday o‘quv muammolari aniqlanadi?
2. Muammo qanday tuziladi?
3. Muammo qancha davom etadi? Tugatish uchun qancha vaqt kerak bo‘ladi?
4. O‘quvchilarga muammoni hal qilishda keyingi sahifalar (yoki qadamlar) bo‘yicha ma’lumotlar beriladimi?
5. O‘quvchilarga qanday manbalar kerak bo‘ladi?
6. O‘quvchilar vazifani bajarganda qanday yakuniy natijani oladilar?

Yuqorida keltirilgan savollar asosida tashkillshtirilgan har qanday muammoli ta’lim natijasida, o‘quvchilarda aqliy operatsiyalar va harakatlar ko‘nikmalari, bilimlarni uzatish ko‘nikmalari va boshqa qator qobiliyatlarnilar shakllantiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Muammoga asoslangan ta’lim (PBL-Problem based learning) - bu samarali o‘qitish usuli bo‘lib, unda faktlar va tushunchalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqdim etishdan farqli o‘laroq, o‘quvchilarning tushuncha va tamoyillarni o‘rganishiga yordam beradigan vosita sifatida murakkab real hayotiy muammolar qo‘llaniladi. O‘quv materiali mazmuniga qo‘shimcha ravishda, MAT tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyatlari va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, u guruhlarda ishlash, tadqiqot materiallarini topish va baholash va (LLL- life long learning) umrbod ta’lim olish imkoniyatini berishi mumkin.

Muammoli ta’lim amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog Jon Dyui (1859-1952) g‘oyalariga asoslangan. U 1894 yilda Chikagoda eksperimental maktabga asos solgan bo‘lib, unda ta’lim asosi o‘quv dasturi emas, balki o‘yinlar va mehnat faoliyati edi. Tajriba maktabida qo‘llanilgan metodlar, uslublar, yangi o‘qitish tamoyillari nazariy asoslanmasdan, tushuncha shaklida shakllantirilmagan, ammo 20-asrning 20-30-yillarida keng tarqalgan.Shuningdek, A.M.Matyushkin, M.I.Maxmutov, I.Ya.Lernerlar muammoli o‘qitish qonuniyatlarini chuqur o‘rgandilar.

Dj.Dyui muammoli ta’lim asosi sifatida quyidagi yo‘nalishlarni belgilaydi.

1) ijtimoiy;
2) konstruktiv;
3) badiiy ifodaviy;
4) ilmiy-tadqiqot.

Dyuining fikricha: “O`quvchilar muayyan muammo bilan shug‘ullana boshlasalargina, ularda tanqidiy fikrlash paydo bo‘ladi. Shu sababli, o‘quv jarayonining boshlang‘ich nuqtasi hisoblangan, biror vaziyat yoki hodisaga tegishli bo‘lgan eng muhim savol bu hodisa qanday muammoni vujudga keltirishini anglatadigan savoldir. Faqatgina muayyan muammo bilan kurashib, murakkab vaziyatdan chiqish uchun o‘zining shaxsiy yo‘lini izlagandagina, o‘quvchi haqiqatan ham fikrlaydi”.

Tanqidiy fikrlashning asosiy belgilari olim I.Resnik fikricha quyidagilardan iborat:

1) O‘quvchilar o‘z bilimlarini muayyan masalalarni yechishda tatbiq eta olsalargina ularda bilim va ijodiy fikrlash rivojlanadi;

2) Tanqidiy fikrlash ta’lim jarayoniga jo‘shqinlik baxsh etadi, mashg‘ulotlarni o‘qituvchi va o‘quvchi uchun o‘zaro hamkorlik faoliyatiga aylantiradi. Shu n

Sh.A.Abdullayeva “O‘quvchilarda refleksiv mushohada qilish ko‘nikmalarini shakllantirish” asarida: “Tanqidiy fikrlash - fikr yuritishning shunday ko‘rinishiki, unda aqliy operatsiyalar (analiz, sintez, induksiya, deduksiyajning barchasi ishtirok etadi»,- deb yozadi. Demak, o‘quvchi taqdim qilinayotgan o‘quv materialini o‘zlashtirishi uchun bilish jarayonining induktiv (ayrim, xususiy tajribalarni umumlashtirib xulosa chiqarishga fikran harakat qilish) va deduktiv (umumiydan ayrimlikka yuksalish)pog‘onalaridan o‘tadi.

Har qanday fan, mavzu o‘qituvchi tomonidan ozgina ijodkorlik bilan muammoli ta’limga moslashtirilishi mumkin. Asosiy muammolar fanlar bo‘yicha farq qilishi mumkin bo‘lsa-da, muammoli ta’limning ayrim yaxshi muammolari ramkadan oshib ketadigan ba’zi xususiyatlar mavjud:

• Muammo talabalarni tushunchalarni chuqurroq tushunishga intilishlariga undashi kerak.

• Muammo talabalardan asosli qarorlar qabul qilishni va ularni himoya qilishni talab qilishi kerak.

• Muammo mazmun maqsadlarini oldingi kurslar/bilimlar bilan bog‘laydigan tarzda o‘z ichiga olishi kerak.

• Agar guruh loyihasi uchun foydalanilsa, muammoni hal qilish uchun talabalar birgalikda ishlashlari kerakligiga ishonch hosil qilish uchun muammo murakkablik darajasi talab qilinadi.

• Agar ko‘p bosqichli loyiha uchun foydalanilsa, muammoning dastlabki bosqichlari ochiq va o‘quvchilarni muammoga jalb qilish uchun qiziqarli bo‘lishi kerak.

Muhokama va natijalar. Muammoli ta’limning asosiy maqsadi talabaning nafaqat yangi bilimlarni o‘zlashtirishi, balki uni faol mustaqil izlanish orqali egallashning butun yo‘lidan o‘tishidir. Bunday yondashuv kognitiv mustaqillikni, nostandart muammolarni ilgari surish va masalani hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga, real hayotiy faoliyat(o‘yin, o‘qish, mehnat)ga tayyorlanishida yordam beradi.

Muammoga asoslangan ta’limning uchta asosiy turi mavjud.

Muammo

O‘qituvchi o‘quvchilarga javobni bilmagan muammo yoki savolni taklif qiladi, lekin ular

asosiy bilimga yoki o‘z tadqiqotini amalga oshirish qobiliyatiga ega. Bunday muammoli vaziyatlar o‘quvchilarning yoshiga tushunarli bo‘lishi, o‘z tajribasiga javob berishi va haqiqiy materialga asoslangan bo‘lishi kerak.

Nazariy tadqiqotlar

O‘quvchilar nazariy ta’limiy muammoni hal qiladilar va shu orqali o‘zlari uchun yangi bo‘lgan qoida, qonun, teoremaning kashf etilishiga erishadilar .Shuni aytish mumkinki, ular kashfiyotchilarning yo‘lidan boradilar. Bu o‘sha muammoning yechimiga aynan empirik yo‘l bilan kelgan ilk tadqiqotchilardir.

Amaliy yechim topish

Talabalar yangi vaziyatga o‘z bilganlarini qo‘llash orqali yondashadilar. Odatda, bu laboratoriya darslarida amaliy vazifalarni yechish shaklida sodir bo‘ladi.

Muammoli vaziyatni yaratish usullari

O‘qituvchi muammoli vaziyatni darsning o‘quv maqsadlariga muvofiq modellashtiradi. Buni qanday qilish kerakligi haqida ko‘plab fikrlar mavjud. Keling, eng keng tarqalganlariniko‘rib chiqamiz.

- O‘qituvchi o‘quvchilarni ziddiyatga olib boradi va muammoni o‘zlari hal qilishni taklif qiladi.
- O‘quvchilarga vaziyatdan natijalarni solishtirish, xulosa qilish va faktlarni taqqoslash taklif etiladi.
- O‘qituvchi aniq savollar beradi va bir xil muammo yoki qarama-qarshi pozitsiyalar bo‘yicha turli xil nuqtai nazarlarni taklif qiladi.
- Muammoli masala o‘z formulasida noaniqlik, qarama-qarshi ma’lumotlar yoki qasddan qilingan xatolarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan bir qatorda, vazifani cheklangan vaqtda hal qilish kerak.
- O‘quvchilarga o‘rganilayotgan hodisa, fenomen, jarayon yoki shaxsga analog topish vazifasi qo‘yiladi.
- O‘qituvchi faktlarni ularda ob’ektiv ziddiyatlarni ta’kidlash va shu orqali kognitiv qiziqish va ularni hal etishga intilish uyg‘otish kabi tarzda ma’lum qiladi.
- O‘quvchilarga bu yoki shu muammo bo‘yicha muayyan nuqtai nazar tarafdorlari o‘z haqligini qanday isbotlashi mumkinligini taxmin qilish uchun muammoli savol va vazifa beriladi.
- Muammoli masala muhokamasini suhbat shaklida qurish mumkin, bu davrda o‘quvchilar o‘z javoblarida allaqachon mavjud bo‘lgan bilim va ko‘nikmalardan foydalana oladilar. Bu sinfning istalgan bosqichida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan eng dinamik usul.
- Guruh bir nechta ma’lum echimlardan eng oqilona echimni tanlashi kerak.

O‘qituvchi muammoli vaziyatni ishlab chiqishda qanday usulni qo‘llamasin, uning mohiyati talabalarni o‘zlari mustaqil yechim toppish, izlanish kerak bo‘lsa kashfiyotlar qilishga o‘rgatishdir. O‘qituvchi o‘quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini yo‘lga qo‘yishi, ularni yechimga yo‘naltirishi muhimdir.

Muammoli vaziyatlarga qo‘yiladigan talablar:

Talabalar muammoli vaziyatni tushunadilar va dastlab to‘g‘ri tuzilganda yechimni keltirishadi. Buning uchun quyidagi shartlarni vaziyatga solib qo‘yish kerak:

- o‘quvchilar muammoni yechishni bilmaydilar, ularning oldingi bilimlari yangi faktni tushuntirish uchun yetarli emas;
- talabalar ilgari olingan bilimlardan yangi amaliy sharoitlarda foydalanishlari kerak bo‘ladi;
- Muammoning nazariy jihatdan mumkin bo‘lgan yechimi bilan tanlangan usulning amaliy amalda bo‘lmasligi o‘rtasida aniq ziddiyat mavjud.

Oldinga qo‘yilayotgan muammoga bir nechta talablar qo‘yiladi.Agar ulardan biri bajarilmasa, muammoli vaziyat yuzaga kelmaydi.

1. Muammo o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi kerak. Ya’ni, u shunday shakllantiriladiki, ko‘pchilik nima haqida ekanligi haqida tasavvurga ega.

2. Muammoni ko‘pchilik uchun boshqarish kerak. Aks holda, o‘qituvchi yo tushuntirishga ko‘p vaqt sarflashi yoki muammoni o‘zi hal qilishi kerak bo‘ladi.

3. Muammo qiziqarli tarzda shakllantirilishi kerak. Ko‘ngilochar format jiddiy misoldan ko‘ra muvaffaqiyatli yechimga hissa qo‘shishi mumkin.

Muammoga asoslangan o‘quv texnologiyasi yuz yildan beri qo‘llanilib kelinmoqda va bu davrda u o‘zining afzalliklari tufayli tarbiyachi- pedagoglarning ishonchini qozondi,ammo shunga qaramay, muammoga asoslangan ta’lim usuli sifatida bir qator kamchiliklarga ham ega.(1-jadvalga qarang).

Muammoli ta’lim afzalliklari Muammoli ta’lim kamchiliklari

Usul talabani o‘ylashga, muammoli vaziyatdan chiqish yo‘lini izlashga, nostandart yechim izlashda mustaqil harakat qilishga undaydi Darsning har bir mavzusi uchun muammo tuzish oson emas

Mustaqil muammoni hal qilish bilan an’anaviy o‘rganishdan ko‘ra bilim va ko‘nikmalar assimilyatsiya qilinadi va mustahkamlanadi Har bir o‘quv materialini muammo bilan modellashtirish mumkin emas

Muammoga asoslangan ta’lim o‘quv jarayonida kuzatish, umumiylashtirish va tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi Bunday turdagi o‘quv mashg‘ulotini tayyorlash o‘qituvchining ko‘p vaqtini talab qiladi

Talabalar o‘zlari mustaqil o‘rgangan hodisalarni tezda tushunib, javoblarini tasdiqlashadi, natijalarni oldinga qo‘yishadi va o‘zlari gipotezalarni isbotlashadi

1-jadval. Muammoli ta’lim afzalliklari va kamchiliklari

Muammoli ta’lim afzalliklari	***Muammoli ta’lim kamchiliklari***
Usul talabani o‘ylashga, muammoli vaziyatdan chiqish yo‘lini izlashga, nostandart yechim izlashda mustaqil harakat qilishga undaydi	Darsning har bir mavzusi uchun muammo tuzish oson emas
Mustaqil muammoni hal qilish bilan an’anaviy o‘rganishdan ko‘ra bilim va ko‘nikmalar assimilyatsiya qilinadi va mustahkamlanadi	Har bir o‘quv materialini muammo bilan modellashtirish mumkin emas
Muammoga asoslangan ta’lim o‘quv jarayonida kuzatish, umumiylashtirish va tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi	Bunday turdagi o‘quv mashg‘ulotini tayyorlash o‘qituvchining ko‘p vaqtini talab qiladi
Talabalar o‘zlari mustaqil o‘rgangan hodisalarni tezda tushunib, javoblarini tasdiqlashadi, natijalarni oldinga qo‘yishadi va o‘zlari gipotezalarni isbotlashadi	

Shunga qaramay, ta’lim texnologiyasi sifatida muammoga asoslangan ta’lim o‘quv jarayonida eng samarali vosita sifatida keng foydalanilib kelinmoqda.

Muammoli ta’limda qo‘llaniladigan metodlar (M. N. Skatkin va I. Ya. Lerner metodlari tizimi)

1) tushuntirish metodi - o‘qituvchi tomonidan ma’lum fan faktlarini yetkazish va umumlashtirish, ularni tavsiflash va tushuntirishni o‘z ichiga olgan usullar tizimidan iborat;

2) reproduktiv metod - nazariy bilimlarni o‘zlashtirishni tushunish, ko‘nikma va malakalarni qayta ishlash, o‘quv materialini yodlash va boshqalar uchun qo‘llaniladi;

3) amaliy metod – ob’ektlarni ishlab chiqarishda amaliy harakatlar ko‘nikmalarini qayta ishlash, ularni takomillashtirish maqsadida qayta ishlash usullarining kombinatsiyasi bo‘lib, texnik modellashtirish va loyihalash bilan bog‘liq faoliyatni o‘z ichiga oladi;

4) qisman qidiruv metodi - bu o‘qituvchining tushuntirishlarini talabaning idrok etishining bilim jarayonining barcha bosqichlarini mustaqil ravishda o‘tishni talab qiladigan ishni bajarish uchun mustaqil tadqiqotchilik faoliyati bilanizohlanadi;

5) tadqiqot metodi - muammoni shakllantirish va uni hal qilish yo‘llarini topish uchun aqliy harakatlarni ifodalaydi.

Xulosa.

Hozirgi zamon psixologiyasi va didaktikasi shunga asoslanadiki, fikr yuritish jarayonining boshlang‘ich momenti, odatda, muammoli vaziyat bo‘ladi. Insonda biror narsani tushunishga talab paydo bo‘lganidagina u fikr yurita boshlaydi. O‘qituvchisi tomonidan qo‘yilgan muammoni hal etish jarayonida talaba ma’lumotlarni qayta ishlabgina qolmaydi, balki ularni o‘zlashtiradi va o‘zi uchun yangi bilimlarni kashf etadi. Muammoli o‘qitishning asosiy mohiyati hamda afzalligi shundaki, o‘qituvchi ta’lim usullari (muammoli savollar qo‘yish, gipotezalarni ilgari surish va ularni tasdiqlash yoki rad etish, talabalarga “yordam so‘rab” murojaat etish va boshqalar) orqali ularni ijodiy fikrlashga hamda munozaraga chorlaydi. Muxtasar qilib aytganda, muammoga asoslangan ta’lim talabalarni ayniqsa bo‘lajak o‘qituvchilarni ham kasbiy ham kundalik faoliyatlarida tajriba egallashlarida,mustaqil,kreativ hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (darslik). – T., 2006 y.

2. Duch, B. J., Groh, S. E, & Allen, D. E. (Eds.). (2001). The power of problem-based learning. Sterling, VA: Stylus.

3. H.T.Omonov, M.B.Xattabov “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” – T:. Iqtisodiyot moliya nashriyoti-2016 y.

4. Izbullayeva G.V. Mutaxassislikka kirish 1-qism [Matn]: darslik/-Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, 2023.-240b.

5. N.T. Omonov, N.X. Xo‘jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik.– T.: “Iqtisod-moliya” 2009 y. – 240 bet.

6. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik

7. texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2013 y. -279 bet.

8. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – T.: 2005 y.

9. Зайцев В.С. Современные педагогические технологии: учебное пособие. – В 2-х книгах. – Книга 1. – Челябинск, ЧГПУ, 2012 – 411 с.

BOSHLANG’ICH SINFLARDA BO’SH O’ZLASHTIRADIGAN O’QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Elibayeva Lola Sulaymanovna
Buxoro davlat Pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi katta o’qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda Respublikamizda ta’lim oluvchilarni yuqori saviyada o’qitish mamlakatimiz konstitutsiyaviy tuzumi, suverinitetini himoya qilish ruhida tarbiyalash, hamda bo’sh o’zlashtiruvchi o’quvchilar faolligini oshirish tizimi bo’yicha mexanizm ishlab chiqish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ko’maklashish, ularni mustaqil hayotga tayyorlash uchun keng imkoniyatlar yaratish, faollikni ijtimoiylashuvida dastlabki tayanch vazifalar xususida mushohada yuritilgan.

Kalit so’zlar: boshlang’ich sinf, ta’lim, tarbiya, o’quvchi, bilim, ko’nikma, malaka, kompetensiya, interfaol yondashuv, faollikni oshirish.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ, ОТСТАВШИХ В НАЧАЛЬНЫХ ОЦЕНКАХ

Элибаева Лола Сулаймановна
Бухарский государственный педагогический институт
Старший преподаватель кафедры педагогики

Аннотация: Сегодня в нашей Республике образование детей на высоком уровне заключается в воспитании их в духе защите Конституционного строя и суверенитета нашей страны разработке механизма повышения активности свобода мыслящых учеников, повышения их социальной активность, физическое и психологическое развитие, создаюшая широкое возможности для подготовки их к самостоятельной жизни, а также исходные основные задачи по социализации деятельности.

Ключевые слова: начальная образование, воспитание, ученик, знания, умения, подготовка, компетентность, интерактивный подход, повышения активности,.

IMPROVEMENT OF THE SYSTEM FOR INCREASING THE ACTIVITY OF STUDENTS WHO ARE LOOSE IN THE PRIMARY GRADES

Elibayeva Lola Sulaymanovna
Bukhara State Pedagogical Institute Senior teacher of the Department of Pedagogy

Abstract: Today in our Republic, education of students at a high level is to educate them in the spirit of protecting the constitutional system and sovereignty of our country, and to develop a mechanism for increasing the activity of free-thinking students, increasing their social activity, physical and supporting their mental development, creating ample opportunities for preparing them for independent life, and the initial basic tasks in the socialization of activity were observed.

Key words: elementary school, education, education, student, knowledge, skills, competence, competence, interactive approach, increasing activity.

“Ilm-fan, ta’lim va tarbiya, ma’naviyat biz uchun ustuvor masaladir”
Sh.M.Mirziyoyev

Kirish. Yoshlarning ta’lim-tarbiyasi bugungi kungacha va bundan keyin ham eng muhim va dolzarb masala bo’lganligi sababli ham, maktablarimizda ta’lim olayotgan o’quvchilar bilim, ko’nikma va malakalarini to’liq o’zlashtirib olishlariga erishish biz pedagoglar uchun muhim vazifadir. Boshlang’ich ta’lim konsepsiyasida bolalarning ongi va tafakkurida mavjud

bo’lgan yashirin imkoniyatlarni aniqlash va rivojlantirish kichik maktab yoshidagi bolalarda ta’limning dastlabki davridan boshlab yangi imkoniyatlarni o’quv materialini muvaffaqiyatli o’zlashtirishgagina emas, balki boshlang’ich sinflarda bo’sh o’zlashtiradigan o’quvchilar faolligini oshirish, hayotiy muammolarni yechishga ham tayyorlaydi, o’quvchilarda o’rganish va ta’lim jarayoniga bo’lgan qiziqishini oshiradi. Mazkur maqsad va vazifalarni chuqur tahlil qilib, quyidagicha talqin qilish mumkin. Har bir bo’sh o’zlashtiradigan o’quvchida yashirin holda yuragining tubida biror narsaga qiziqish, intilish ya’ni boshqacha qilib aytganda, iqtidor kurtaklari bo’ladi, ularni aniqlash hamda rivojlantirish kerak. Bu jarayon esa juda murakkabdir. Ana shu murakkabligi bilan boshlang’ich ta’lim boshqa ta’lim bosqichlaridan ajralib turadi. Agar shu bosqichda biz bo’sh o’zlashtiruvchi o’quvchilar bilan umumiy hamda individual ishlamas ekanmiz, ta’limning keyingi bosqichida o’qishni davom ettirishida, jamiyatda o’z o’rnini topishida turli muammolarga duch kelishi tabiiy. Demak, biz o’quvchilarning turli o’quv faoliyatlarini, usullarini o’zlashtirishlariga imkoniyat va shart-sharoit yaratib berishimiz lozim.

Asosiy qism. Boshlang’ich sinfdanoq bo’sh o’zlashtiradigan o’quvchilar ta’lim tarbiyasiga katta e’tibor berib, mas’uliyat bilan yondashib nazariy va amaliy bilimlarini berish kerak. Albatta, ta’lim-tarbiya sohasidagi har bir qadam ilmiy isbot va natijaviylikni talab etadi va yoshlar faolligini oshirish masalasida L.I.Bogovich, L.A.Petrovskaya, M.G.Davletshin, E.G’.G’oziev, G.Q.To’laganova, Z.Kamaletdinova, T.G.Kamilova, S.Nishonova, O.Musurmonova, M.Quranboevlarning ilmiy ishlari mavzularida yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda pedagogik-psixologik vazifalari masalalarini ilmiy ishlarida yoritganlar, lekin boshlang’ich sinflardanoq o’quvchi bo’sh o’zlashtiradigan o’quvchilarda ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirish masalalarini hech kim talqin qilmagan. Aytish joizki, bugungi kunda respublikamizning barcha ta’lim muassasalarida bo’sh o’zlashtiradigan o’quvchilar shaxsiga, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog’liq kelajagiga alohida e’tibor qaratilayotgan ekan, bu jarayonda har bir bo’sh o’zlashtiradigan o’quvchilardagi faollikni namoyon etuvchi ichki munosabatlarning qay darajada tarkib topayotganligini o’rganish, tahlil qilish va shular asosida tegishli ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, bo’sh o’zlashtiradigan o’quvchilar shaxsidagi ta’lim olish jarayonida munosabatlarining shakllanishi, avvalo, uning individualligi, betakrorligini hurmat qilish, uning o’z iqtidori, maslagi va imkoniyatlarini qanday bo’lsa, xuddi shundayligicha tabiiy tarzda qabul qilish va shu asosda uning rivoji uchun o’ziga xos shart-sharoitlar yaratish, jamiyatimizda bo’sh o’zlashtiradigan o’quvchilar tarbiyasida amalga oshirish zarur bo’lgan chora-tadbirlarning ahamiyatini yoritib beradi. Shunga qaramay, ayniqsa, bo’sh o’zlashtiradigan o’quvchilarimiz tarbiyasida uzoqni ko’zlagan, izchil rivojlanib boruvchi, bosqichma-bosqich amalga oshib boruvchi, tizimli va natijasi samarador kompleks chora-tadbirlarga ehtiyoj sezilmoqda. Bu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun esa pedagogic,psixologik, ayniqsa ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar olib borishga va ularning empirik natijalariga asoslanib tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishga to’g’ri keladi. Ijtimoiy faollik faol hayotiy pozitsiya, jamiyatga xizmat qilish kabi omillar natijasidir. Ijtimoiy faollik va uning shaxs hayotida namoyon bo’lish xususiyatlari O’zbekistonlik olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Zamonaviy ta’limning eng muhim unsurlari qadimdan shakllanib kelgan. Bo’sh o’zlashtiruvchi o’quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash o’qituvchidan alohida sabot va mas’uliyatni talab etadi. Shu bois bu toifa bolalar bilan shug’ullanish uchun, avvalo,yakkama-yakka suhbat o’tkazib,ularning qiziqishlarini aniqlash lozim. Maxsus jurnal tutilib, bolalarning o’zlashtirishini muntazam monitoring qilib borilishi, o’quvchilarga qiynalayotgan fanidan alohida mashg’ulotlar daftari tuttirish kabi usullar ham samarali hisoblanadi. Shuningdek o’quvchilardagi ijobiy o’zgarishlar rag’batlantirilishi muhim. Bo’sh o’zlashtiruvchilarning faolligini oshirish uchun ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini hamda nutqini rivojlantirish kerak. Bunda turli ertaklardan foydalanish mumkin. O’qituvchi dars o’tishda boshqa ko’plab usullardan ham foydalanishi

lozim. Eng muhimi, ular samara berishi. Shuningdek, o’zlashtirishi past o’quvchilar uchun o’qish darslarni tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.Bu orqali nafaqat o’quvchining o’qish savodxonligi ortadi,shu bilan birgalikda dunyoqarashi ham kengayadi. Ayniqsa, boshlangich sinf o’qish darsligida juda ham ko’plab hikoyalar beriladi. Boshlang’ich sinflarda past o’zlashtiruvchi o’quvchilar bilan ishlash jarayonini tashkil etishda zamonaviy ta’lim-tarbiyada texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozir aynan boalalarni mustaqil fikrlashga o’rgatish talab qilinadigan davrda yashamoqdamiz. Bola uchun o`qituvchi uning psixologik holatini belgilab beruvchi asosiy mas’ul hisoblanib, bu holat uning nafaqat sinfdagi, balki umumiy tengdoshlari bilan bo’ladigan munosabatiga, bu munosabat esa o’z–o’zidan oilasidagi munosabatlariga ham ta’sir ko’rsatadi. Bo’sh o’zlashtiradigan o’quvchilar faolligi oshirishning asosan uch xil ko’rinishi mavjud bo’lib, bular jismoniy, psixik va ijtimoiy faoliyatidir.

Jismoniy faollik sog’lom avlodlarning harakat qilishiga bo’lgan turli mavjud to’siqlarni yengishidagi tabiiy ehtiyojidir.Bu yoshdagi bolalar nihoyatda serharakat bo’ladilar, bu jismoniy harakat bolaning atrofdagi narsalarga qiziqishi bilan qarayotganligi,ularni o’rgatishga harakat qilayotgani bilan bog’liqdir. Bolaning jismoniy va psixik faolligi o`zaro bog’liqdir. Chunki, psixik sog’lom bola harakatchan bo’ladi, charchagan siqilgan bola esa hech narsa bilan qiziqmaydi.

Psixik faollik-bu normal rivojlanayotgan bolaning atrof –olamdagi predmetlarni, insoniy munosabatlarni bilimiga nisbatan qiziqishidir. Psixik faollik deganda, bolani o’zini bilimiga nisbatan ehtiyoji ham tushuniladi. Boshlang’ich sinf o’quvchisi uchun eng qiyin qoida bu dars vaqtida jim o`tirishdir. O`qituvchilar o’quvchilarning doimo jim o`tirishlariga harakat qilishadi, ammo harakati passiv, quvvati kam bo’lgan o’quvchigina dars jarayonida uzoq vaqt jim o’tira oladi. O’quv jarayonidagi kuzatuvlar shunga olib keladiki, aynan ana shunday passiv, kamquvvat o’quvchilar ham ko’pincha o’zlashtirishdan orqada qoladilar.

Ijtimoiy faollik-bu ijtimoiy hayotda o’zini to’la-to’kis namayon eta olishi, iqtidor va qobiliyatlarni namoyon qilishidir. Nafaqat jamoat ishlarida ishtirok etish darajasining oshishi, balki bolalarning axloqiy yo’nalganligini aniqlovchi motivlarning shakllanishi hamdir.

Bo’sh o’zlashtiradigan o’quvchilar o’quv fanlarni davlat ta’lim standartlarida belgilab qo’yilgan darajada o’zlashtira olmayotgan, bilim olishga ishtiyoqi pasayib ketgan va o’ziga ishonchi yuqolgan o’quvchilardan biri bo’ladi. Xo’sh, buning sabablari va muammo yechimi qanday bo’ladi?

O’quvchilarning past o’zlashtirishga quydagi holatlardan biri yoki bir nechtasi bo’lishi mumkin:

- o’quv materialining umuman yoki qisman tushunmasligi;
-o’qituvchining mahorati yetishmasligi;
-o’quvchininig sinfda o’zini juda yomon his qilishi;
-o’rtog’lari oldida kamsitilishi;
-tengdoshlari orasida yupin kiyinishi va nochorligi tufayli o’zini-o’zi kamsitishi;
-o’quvchini o’yinqaroqligi dangasaligi va xayol parastligi tufayli diqqatni jamlay olmasligi;
-o’quvchi davomatini pastligi;
-o’qituvchi tomonidan past o’zlashtiruvchi o’quvchilar o’z vaqtida aniqlanmasligi va e’tibor qaratilmaganligi;
-o’qituvchi past o’zlashtiruvchi o’quvchi hamda uning ota-onasi bilan muntazam ,izchil reja asosida ish olib bormasligi;
-o’quvchining oilaviy ijtimoiy muhtidagi salbiy omillar;
-o’quvchining sog’ligi bilan bog’liq holatlar;
-o’quvchining dars qilishi, o’zlashtirishi va mustaqil ishlash uchun shart-sharoitni yo’qligi;
-ota-onasining doimiy nazorati va yordami yetishmasligi;
-o’quvchi ota-onasidan uzoqdaligi;

-ota-ona va o’quvchi o’rtasida aloqa yo’qligi, bor bo’lsada ota-ona e’tiborsizligi;
-o’quvchi tarbiyasi birovlar qo’lida mutloqa nazoratsizligi tufayli va boshqalar.

O’qituvchi o’zining pedagogik mahorati ustida doimiy ishlashi lozim. Dars mavzusini soddalashtirib, o’xshash misollar yordamida yotig’i bilan tushuntira olishi, yoki har xil o’yinlar yordamida o’zlashtrishiga ko’maklashib faollikni oshirish mumkin. Masalan;”’Eng birinchi”’ topshiriq sodda qilib beriladi, vaqt belgilanib, javobni past o’zlashtiruvchi o’quvchidan so’raladi. Javob oz bo’lsa ham ijobiy tomoni ko’proq oshirilrb maqtab, harakatlarini qo’llab-quvvatlab, “o’zi biladi”, “o’zi aytadi”, “zo’r, ajoyib javob” deya faollikka jalb etishi lozim. Budan tashqari rasmlar orqali topshiriqlar berish mumkin. O’quvchi sinfda o’zini erkin his etmasa bu o’quvchida o’zida ishonch va mehr yetishmaydi. O’qituvchi xushmuomalali bo’lib, bu o’quvchini hech kimdan kam emasligini unda ham iqtidor borligini takror va takror aytib o’ziga ishonchini o’yg’otish shart. Bu toifa o’quvchilarga alohida mustaqil topshiriq berib javobini bir ozdan so’ng so’ralsa o’quvchida ishonch tuyg’usi paydo bo’la boshlaydi.Har bir darsda o’quvchiga e’tibor berilsa o’quvchini o’ziga bo’lgan ishonchi to’la kamol topadi.

Bo’sh o’zlashtiruvchi o’quvchilar faolligini oshirish yo’llari:
-ota-ona farazandining maktabdagi ta’lim-tarbiyasidan ogoh bo’lishi;
-ota-onaning o’zaro kelishmovchiliklari, janjallarisiz muhitni qaror toptirish;
-uydagi erkatoylik xislati maktabda barcha o’quvchilar tengligi va namunali bo’lishga undash mexanizmi;
-ota-onasi bo’lmagan o’quvchilar, qarindoshlar qo’lida qolgan o’quvchilar ruhlantirib, kelajakda undan yaxshi inson chiqa olishiga inontirish;
-nazoratsiz qoldirmaslik;
-betobligi va sog’ligi bilan bog’liq bo’lgan doimiy sabablarlani o’rganib borish;
-mashg’ulot jarayonida o’quvchining yoshi, xarakteri, tabiati va qiziqishlarini o’rganib, to’garaklarga yo’naltirish;
-oilada, maktabda, mahallada iste’dodlarini namoyon etishga ko’maklashish;
-olimpiada, turli tanlovlarda uning ham o’ri borligini doimiy uqtirib borish;
-buyuk allomalar rivoyatlari, hadislar, xalq og’zaki ijodi namunalari orqali estetik didni tarbiyalash;
-qiziqishlarini so’ndirmasdan, ularning keying ishlari uchun qadam tashlashlarida, suyanch ,tayanch bo’la olish lozim.

Bugungi kun o’qituvchilari ota-ona kabi mehribon, ma’naviyatli, o’z o’rnida qattiq qo’l, hayotga motivatsiya bera oladigan bilimli bo’lishi shart. O’qituvchi o’z o’rnida fanidan berilgan topshiriqlarni nazoratsiz qoldirmasligi lozim. Tadbirlarni, qiziqarli tashkillashtirish hamda ota-onalar yig’lishlarida otalarni ko’proq ishtirok etishini ta’minlash,o’quvchini har bir iqtidoriga e’tibor berib taqdirlab borish kerak.

Xulosa va tavsiyalar. Bo’sh o’zlashtiradigan o’quvchilardagi ijtimoiy faollikni tarbiyalash jarayoniga bir qator omillar o’z ta’sirini o’tkazadi. Ular quyidagilardan iborat:
-jamiyatda sog’lom ijtimoiy muhitning qaror topganligi;
-fuqarolar ma’naviy-axloqiy yetukligini ta’minlash masalasining davlat siyosati darajasiga ko’tarilganligi;
-ta’lim-tarbiya ishlarining muayyan maqsad asosida tizimli, uzluksiz va izchil olib borilayotganligi;
-tarbiyaviy ta’sir kuchiga ega subyektlar imkoniyatlarining yagona ijtimoiy maqsadni amalga oshirilishiga yo’naltirilganligi;
-shaxs omilining ijtimoiy munosabatlar jarayonida yetakchi mavqegi ega bo’lishi va boshqalar.

Bo’sh o’zlashtiradigan o’quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirish va o’z-o’zini rivojlantirish mohiyatini tahlili quyidagi tavsiyalarni ilgari surish imkonini berdi:

● bo’sh o’zlashtiradigan o’quvchilar faolligini oshirish ularning ijtimoiylashuv jarayonini

shakllantirishda ularga xos sub’ektlilikning turli shakllarini faollashtirib, shaxslilik xususiyatlarining rivojlanishiga sharoit yaratishi bilimlarini oshirish imkoniyatini ta’minlaydi;

● bo’sh o’zlashtiradigan o’quvchilar faolligini oshirish ularning ijtimoiylashuv jarayonini shakllantirishda hamkorlikdagi munosabatlar ko’rinishidagi sharoitni yaratishi mumkin;

● bo’sh o’zlashtiradigan o’quvchilar faolligini oshirish o’zaro hamkorlikdagi faoliyati ularning qiziqishlarini shakllanishidagi to’siqlarni bartaraf eta olishlarida o’zini-o’zi rivojlantirish sharoiti sifatida xizmat qilishi lozim. Bu esa, kelajagimiz bunyodkorlarini Vatanga muhabbat, orzu qilgan kasbiga o’z iqtidori, halol mehnati bilan erisha olishni kamol toptiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Назаров К. Аксиология. - Тошкент: «Akademiya», 2011. - Б. 361.

2. Мирзиёев Ш.М. Халкимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-том. - Тошкент: Ўзбекистон, 2018. - Б.491.

3. 2.Suvonov O.va boshqalar. «Pedagogik texnologiyalarni qo’llash davr taqozosi». «Xalq ta’limi», 2004 yil, № 5.

4 Musurmonov A. «Ta’lim-tarbiyada xalq og’zaki ijodidan foydalanish». T.: O’qituvchi, 2003.

5.R.D.Norqobilova. Boshlang’ich sinf o’quvchilari faoliyatini indikatorlar asosida diagnostika qilishning o’ziga xosligi. INTERNATIONAL CONFERENCES, 564-568. 2023

ADOLAT TAMOYILLARI ASOSIDA YOSHLARNING INTELEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALASI

Hamroyev Saidjon Sanoyevich
Buxoro davlat pedagogika institute Pedagogika fakulteti dekani,falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyat hayotining barcha jabhalarini yangilash insonning ijtimoiy-axloqiy, intellektual va ma'naviy salohiyati, mehnat faolligining o'sishi va faollashishi hamda adolat tamoyillarini o'rnatish orqali yoshlarning intelektual salohiyatini oshirish, ularni ma'naviy ongini yuksaltirish yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar, intellektual, ma'naviy, ijtimoiy, adolat, farovonlik, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, shaxs, jamiyat.

KIRISH:Jamiyat hayotining barcha sohalarida islohotlar o'tkazish aholi farovonligini sifat jihatidan yangi darajasini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy siyosatni faol amalga oshirishni ta'minlaydi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz yoshlarimizda umrimizning ma'no-mazmuni, hayotimizning asosiy mevasi va samarasini ko'ramiz. Yangi O'zbekistonni azmu shijoatli yoshlarimiz bilan birga bunyod etamiz!"[1]. Chunki, yoshlarimizning iste'dodi va qobiliyati hamda ijtimoiy faolligini oshirish va hayotda o'z o'rinlarini topishlari uchun yurtimizda barcha sharoitlar yaratishmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI:Adolat tamoyillarini izchil amalga oshirishda jamiyat va shaxs hayotining barcha jabhalarini yangilash va "Inson-jamiyat-davlat" va "Inson qadri uchun" [2] g'oyalarini dasturamal qilib olish jamiyat a'zolarining farovonligi yo'lidagi g'amxo'rlik sifatida mamlakatni yanada taraqqiy ettirish muhim asosiga aylanmoqda. Ijtimoiy munosabatlar tizimini takomillashtirish va axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Mamlakatni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatidan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq"[3]. "Inson omili" yoki "ma'naviy va intellektual salohiyat"ni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar jarayonining harakatlantiruvchi kuchini, ijtimoiy-siyosiy faoliyatda amalga oshiriladigan shaxsning g'oyaviy, axloqiy, ishbilarmonlik va irodaviy fazilatlari yig'indisini shu jumladan motivatsion tuyg'ulari shaxs intelektual salohiyati tuzilishini tashkil etadi.

Islohotlarning bosh maqsadi ijtimoiy munosabatlardagi burilish nuqtasi - bu xalqning moddiy farovonligining o'sishi, jamiyat va uning har bir a'zosining ma'naviy rivojlanishi va salomatligini mustahkamlash tamoyilini amalga oshirishdir. Jamiyatning yangilanish sharoitida ijtimoiy hayotning barcha jabhalari (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy) inson farovonligi uchun, uning barkamol rivojlanishi uchun e'tibor qaratmoqda.

Islohotlarning hozirgi bosqichida shaxs ijtimoiy voqelikni o'zgartiruvchi hodisa sifatida namoyon bo'ladi, ijtimoiy taraqqiyot mezoni hisoblanadi. Barqaror taraqqiyot esa mehnat unumdorligining o'sishiga, xalq farovonligining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga bog'liq.

Inson faoliyati davomida o'zini o'zi anglashi uchun, qobiliyatlarini to'liqroq ochib berishi uchun barcha sharoitlarni yaratish kerak. Shaxsning "ijtimoiy sifatlari"ni shakllantirishdan iborat bo'lgan bu jarayon salbiy hodisalar – loqaydlik, beparvolik, kam mehnat qilib ko'proq daromad olishga intilish, korrupsiya, poraxo'rlik, mahalliychilik jamiyat me'yorlarning buzilishi va shu kabi boshqa holatlarga qarshi keskin kurash olib borishni taqozo etadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy, ya'ni ijtimoiy munosabatlar va muloqotning har xil turlarida bo'lgan holda, odamlar o'zlarining hayotiy faoliyatini tashkil etish tizimini o'rnatadilar, o'z

xatti-harakatlarini tartibga soladilar, zamon ehtiyojlari uchun muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradilar.

Barkamol shaxsni shakklantirish jarayonida ijtimoiy adolat prinsiplariga amal qilgan holda quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

-jamiyatning o‘zini o‘zi boshqarishi uchun maksimal imkoniyatlarni yaratish;

-fuqarolarning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratish;

-hayotning barcha jabhalarida demokratiya va o‘zini o‘zi boshqarish tamoyillarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

-jamiyatning teng huquqli insonlar jamiyatiga aylanishi uchun barcha imkoniyatlardan unumli foydalanish;

-demokratlashtirish va ochiqlikni rivojlantirish;

- korrupsiyaga murosasiz munosabat qilish;.

Voyaga etmagan yoshlar, kam ta’minlangan va ehtiyojmand oilalar va nafaqadagilarga g‘amxo‘rlik, barcha sohalarda faoliyat va turmush sharoitlarini yaxshilash, salomatligini muhofaza qilish, bo‘sh vaqt va dam olishdan oqilona foydalanish jamiyatimiz adolatliligining yaxlit ko‘rsatkichidir.

Shu munosabat bilan, ijtimoiy institutlarning muhim vazifasi boshqaruvning demokratik tamoyillarini rivojlantirish, ochiqlik, tanqidiy tahlil qilish asosida adolat tamoyillarini amalga oshirishdan iborat. Har bir fuqaroda daxldorlik tuyg‘usini, siyosiy va huquqiy madaniyatni oshirishni talab etadi.

Ma’lumki, ehtiyojlar shaxs faoliyatining asosiy ichki manbai hisoblanadi. Zero, ulug‘ mutafakkir alloma Abdulla Avloniy ta’biri bilan aytganda, “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”[4]. Tarbiyalangan shaxs jamiyatning ajralmas qismiga aylanadi. Ularning ta’lim-tarbiyasi yurtning gullab-yashnashi va xalqning tinch, farovon yashashi uchun xizmat qiladi.

Oliy ta’lim, professional ta’lim va xalq ta’limini rivojlantirish, isloh qilish konsepsiyalarida belgilangan yangi iqtisodiy tafakkurga ega bo‘lgan umuminsoniy shaxsnigina emas, balki yuksak axloqiy va innovitsion tafakkurga ega bo‘lgan ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash chora-tadbirlari ko‘zda tutilgan. Chunki demokratik o‘zgarishlar, muammolarni hal etishda xalqning real ishtirokini kengaytirish zarurligi haqida gapirganda, yosh avlod va uning undagi o‘rni masalasi katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Yoshlar o‘rtasida ta’lim va kasblarni egallashni ommalashtirish, ular ongiga yuqori darajadagi ta’lim va umuman madaniyatni qo‘llash zarurligini anglashni, nihoyat, bilim va ko‘nikmalarni joriy etish alohida ahamiyatga ega. Bu esa o‘z shaxsiy qobiliyatlarini hayotning turli sohalarida faol ishlatish, ularning ma’naviy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini beradi.

Ijtimoiy adolat idealini ijtimoiy tuzumning belgilangan jami idealidan, unga xos bo‘lgan munosabatlarning sifat xususiyatlaridan - ularning o‘lchovi, uyg‘unligi, tartibliligi aniqlashtirishdan iborat. Axloqiy ongda adolat ideali ezgulik va yovuzlikning asosiy tushunchalarini aniqlashtirish vazifasini bajaradi.

Bu maqsadning amalga oshirilishi zamonaviy avlodning bilim va madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi, yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash, ularni hayotga, kasbga tayyorlash uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratmoqda. Yoshlar ma’naviy ongini rivojlantirish avvalombor, tarbiyaning mazmuni va tashkil etilishini ularning faoliyati bilan chambarchas bog‘liq holda takomillashtirishga, ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilishga yordam beradi. Ushbu omil odamlar o‘rtasidagi munosabatlarning muhim tartibga soluvchisiga aylanib bormoqda va shuning uchun zamonaviy yoshlarda adolatparvarlik tuyg‘usini shakllantirish hozirgi kunda alohida muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Zero Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Ta’lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo‘lgan yangi avlodni, ilm-fan va o‘z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz” [5].

Biz bugun jamiyatdagi barcha yosh avlod vakillarini taraqqiyotga hissa qo‘sha oladigan deb ayta olmaymiz. Yoshlar o‘rtasida o‘zgalarning taqdiriga befarq, mehnatdan qochib oson yo‘l bilan boylik ortirishni maqsad qilgan, engil elpi, bema’ni xulqi bilan omma e’tiborini qaratishga intiladigan, turli norasmiy guruhlarga qo‘shilib qoluvchilar borligi bizni xavotirga soladi. Natijada bunday yoshlar oilada, mahallada kattalarga farzandlar, maktabda tartib buzuq o‘quvchilar, voyaga etmagan jinoyatchilar, oliy ta’limdagi ta’lim-tarbiyani ko‘rmagan talabalar, bandligi ta’minlanmagan hamda uyushmagan yoshlar sifatida jamiyatga kirib kelayotganligi masalaning jiddiy tomoni hisoblanadi.

Bunday sifatlarga ega yoshlarni uzluksiz ma’naviy tarbiya asosida tarbiyalash, komil shaxs qilib voyaga yetkazish masalasi juda dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shu maqsadda 2020 – 2021 o‘quv yilidan boshlab mamlakatimizda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Tarbiya” fani joriy etildi [6]. 2020-2021 yillarda 1-9 sinflarda, 2021-2022 yillardan boshlab 10 - 11 - sinflarda ham ushbu fan o‘qitib kelinmoqda.

Davlat rahbari mamlakatimizni butun dunyoda o‘z o‘rniga ega davlat sifatida ko‘rish uchun butun xalqni safarbar qildi. Bu uchun bizga yangicha fikrlaydigan, hayotga qarashlari teran yosh avlodni tarbiyalash, turli mafkuraviy hujumlarga qarshi tura oladigan immunitetni shakllantirish, ertangi kunga aniq maqsadlari bilan qaray oladigan yoshlarni tarbiyalash zarur bo‘ladi. Tarbiya fanining darsliklarini ko‘zdan kechirar ekansiz unda turli sinfdagi bolalarga atrof-tabiiy muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, rahmdillik, kechirimli bo‘lish, kattaga hurmat kichikka izzat, insonga xos bo‘lgan ijobiy sifatlar egasi bo‘lishga chaqirish, orzu qilish va ularning ro‘yobi uchun doimo harakat qilish, jamoada liderlik xususiyatlariga ega bo‘lish malakalarini shakllantirishga qaratilgan bir qator mavzularni uchratishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish kerakki, jamiyat taraqqiy etishi uchun uning barcha a’zolarida yuksak ma’naviy fazilatlar qaror topgan bo‘lishi lozim. Bunda jamiyatda o‘sib kelayotgan yosh avlodni asl vatanparvar, millatning jonkuyarlari sifatida tarbiya etish, ulardagi ma’naviy bo‘shliqlarni oldini olishda jamiyatning har bir instituti hamkorlikda ish olib borib, belgilangan chora-tadbirlarni hayotga faol tatbiq etish ko‘zlangan maqsadga erishishda qo‘l kelishi shubhasizdir.

Tarbiya faniga “Bebaho ma’naviy merosimizda adolatparvarlik”, “Ijtimoiy adolat eng muhim ijtimoiy va ma’naviy-axloqiy masalalardan biridir”, “Vijdon va adolat”, “Shaxslararo munosabatlarda adolat, burch va vijdon” kabi mavzularini kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adolatparvarlikning mohiyatini chuqur anglashni talab qiladigan vazifalarni amalda qo‘llash kerak. Masalan, o‘rta maktabda:

“Adolat qonuni”, “Adolat - xulq-atvorga berilgan baho”, “Adolat - xulq-atvor tamoyili”, “Adolat - ijtimoiy foydali mehnatga hissa sifatida”, “Vijdon eng yaxshi axloqiy fazilatlar ifodasidir”, “Axloq kodeksi” kabi mavzularda targ‘ibot-tashviqot ishlarini o‘tkazish;

-jamoa, tengdoshlar, kattalar bilan muloqot qilish qoidalari haqida bukletlar;

- maktabda, oilada o‘zini tutish qoidalari to‘plamini ishlab chiqish ijobiy natija beradi.

Zamonaviy barkamol avlodni tarbiyalash-fuqarolik jasorati, halollik tamoyillarga sodiqlik, insonparvarlik va hissiy sezgirlik sintezidir. Bu, axloqiy-irodaviy tarbiya, ya’ni hayotdagi qarama-qarshiliklarni hal qilishda faol va qo‘rqmasdan ishtirok etishga tayyorlikni tarbiyalashga bog‘liq.

XULOSA:Demak, mavjud ijtimoiy munosabatlarni chuqur isloh qilish, shaxsga, jamoaga, mamlakatga nisbatan adolatni qaror toptirishning yangi usullarini tinimsiz izlash jamiyatni yangilash jarayonini boshqarishga kompleks yondashuvni taqozo etadi.

O‘zbekiston xalqining milliy yuksalishi amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mohiyatan ijtimoiy davlatni barpo etish va ma’rifiy jamiyat poydevorini yaratishga karatilganligi bilan bog‘langandir. Bu islohotlar eng avvalo, davlat hayotini, uning institutlari faoliyatini yangilashga qaratilgandir. “Inson qadri” “xalqparvar davlat” “adolatli ijtimoiy siyosat” yuritish, inson kapitalini rivojlantirish ana shu islohotlarda ko‘zda tutilgan maqsadlardir. Bugun ushbu maqsadga yetishning strategik yo‘llari “O‘zbekistonning-2030”

strategiyasida belgilab olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. –Тошкент: 2022, “Ўзбекистон”. –Б. 257.
2. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. –Тошкент: 2022, “Ўзбекистон”. –Б. 257.
3. Ш. Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. 1 том. –б. 168.
4. Жадидлар. Абдулла Авлоний. Ёшлар нашриёт уйи. –Тошкент: 2022, -Б. 152.
5. Ш. Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. “Ўзбекистон”.-Тошкент. 2021. –Б. 230.
6. https://lex.uz/ru/docs/4885018

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI RAQAMLASHTIRISH VOSITASIDA PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING ZARURATI

Hotamova Dildora Komilovna
Buxoro davlat pedagogika instituti doktoranti

Annotatsia: Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamlashtirish vositasida pedagogik faoliyatga tayyorlashning zarurati, bugungi kunda raqamli ta’lim vositalarining nazariy hamda amaliy ahamiyati yoritilishi bilan birgalikda, amaliyotda qo‘llanishiga misollar, shuningdek, erishilishi mumkin bo‘lgan natijalar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Bo‘lajak o‘qituvchi, raqamli vositalar, Mendeley, iTunes U, Hopscotch, Duolingo, Photomath, Khan Academy, YouTube, My Study Life, Studious, Learnist, Sololearn, TED, EdX.

НЕОБХОДИМОСТЬ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ПЕДАГОГИЧЕСЛОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЧЕРЕЗ ПОВЫШЕНИЕ КВАЛИФИКАЦИИ

Аннотатция: Педагогической деятельности с помощью цировизации, теоретическая и пратическая значимость цифровых образовательных инструментов сегодня, а также примеры их использования на практике, а также информация о результатах, которые могут быть достигнуты, достигнутые результаты представлены.

Ключевые слова: Будущий учител, цифровые инструментыб Mendeley, iTunes U, Hopscotch, Duolingo, Photomath, Khan Academy, YouTube, My Study Life, Studious, Learnist, Sololearn, TED, EdX.

THE NEED TO PREPARE FUTURE TEACHERS FOR PEDAGOGIGAL ACTIVITIES WITH THE HELP OF DIGITIZATION

Abstrakt: In this article, the necessity of preparing future teachers for pedagogical activity with the help of digitization, the theoretical and practical significance of digital educational tools, examples of their practical use, as well as information abaut the results that can be achieved are presented.

Key words: Future teachers, digital tools, Mendeley, iTunes U, Hopscotch, Duolingo, Photomath, Khan Academy, YouTube, My Study Life, Studious, Learnist, Sololearn, TED, EdX.

Kirish. Bugungi kunda turli fan sohasidagi kashfiyotlar, ixtirolar, yangiliklarni son-sanog‘i va cheki-chegarasi yo‘qdir. Shuni inobatga olgan holda, bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda ta’lim jarayonini fan, texnika va texnologiyaning rivojlanish darajasi va tezligi bilan muvozanatda bo‘lishini ta’minlash maqsadida hamda yaratilayotgan kashfiyot, ixtiro va innovatsiyalardan o‘z vaqtida xabardor bo‘lib, o‘qib-o‘rganib, o‘z faoliyatlarida qo‘llay olishlari uchun ta’limda raqamli vositalardan foydalanish muhim bo‘lgan masalalardan biridir. Buyuk jadid marifatparvarlardan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy shunday deydi, - Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur.

Raqamli transformatsiya jamiyatni yanada modernizatsiya qilish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish salohiyatiga ega. Shu nuqtai nazardan, amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, Yangi O‘zbekistonning kelgusi besh yilga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasida barcha asosiy sohalarni raqamlashtirish hamda mamlakatda haqiqiy axborot jamiyatini barpo etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston 2000 yillarning boshlardan beri axborot kommunikatsiya texnologiyalari(AKT)

ni rivojlantirish va raqamlashtirishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Masalan: “2013-2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi”, “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar sitrategiyasi” hamda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” va 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”da milliy iqtisodiyot, sanoat va umuman jamiyatda raqamli transformatsiyani amalga oshirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prizidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 5-oktabrdagi farmoniga asosan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, shuningdek, 2020-2020 yillarda uni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Strategiya ikki dasturni: hududlarni raqamlashtirish va tarmoqlarni raqamlashtirishni nazarda tutib, raqamli infratuzilma, elektron, hukumat, raqamli texnologiyalar milliy bozori, axborot texnologiyalari sohasida ta’lim va malaka oshirisni rivojlantirish kabi muhim bo‘lgan yo‘nalaishlarni o‘z ichiga oladi.

Asosiy qism. Oliy o‘quv yurtlarida ta’lim jarayonining xususiyatlari, shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning jamiyat va iqtisodiyotdagi ahamiyati jadal o‘zgarib bormoqda. Butun dunyoda oliy ta’limtlar talabalar, o‘qituvchilar va moliyaviy mablag‘larni jalb qilishda bir-biri bilan raqobatlashmoqda. Bunday raqobatda zamon bilan hamnafas va yangi raqamli imkoniyatlardan foydalanuvchi oliy o‘quv yurtlari boshqalarga nisbatan ustunlikka ega bo‘lib bormoqda.

Raqamlashtirish ta’lim va boshqaruv uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ma’lumotlar yig‘ish va tahlil qilish, o‘zaro hamkorlik va muloqot qilishni osonlashtirdi. Raqamlashtirishning afzalliklari samaradorlikni oshirish, talabalar faolligini oshirish, shaxsga qaratilgan ta’lim va yangi o‘qitish usullaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, raqamlashtirish oliy ta’limlarni, o‘quv dasturlarini, professor-o‘qituvchilarni, xodimlarni va resurslarni boshqarishni osonlashtiradi.

Raqamlashtirishning asosiy afzalliklaridan biri bu talabalarning faolligini oshirish imkoniyatlaridir. Onlayn ta’lim platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar kabi raqamli vositalardan foydalangan holda universitetlar o‘quvchilarni motivatsiya va yo‘lda ushlab turadigan interaktiv hamda qiziqarli ta’lim tajribalarini yaratishi mumkin. Shuningdek, raqamlashtirish universitetlarga o‘yin va virtual haqiqat kabi yangi o‘qitish usullaridan foydalanish imkonini beradi. Bu usullardan talabalarga murakkab tushunchalar va nazariyalarni tushunishni osonlashtiradigan interaktiv ta’lim tajribasini yaratish uchun foydalanish mumkin.

Talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini oshirish, ularda zarur kompetensiyalarni shakllantirish orqali ishga joylashish ko‘rsatkichlarini ko‘paytirish hamda turli vositalar orqali ma’lumotlarni yetkazish va tushuntirish usullarini qo‘llagan oliy ta’lim muassasalari nufuzi oshishi hamda ularda mazkur imkoniyatlar orqali qo‘shimcha foyda olishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi orqali boshqalarga nisabatan ustunlik shakllanadi.

Ta’kidlash kerakki, hozirgi vaqtda talabalar oldingilarga qaraganda nihoyatda farq qiladi. Endilikda ularning zamonaviy talablari va extiyojlari mavjud bo‘lib, zamonaviy oliy ta’lim xizmatini ko‘rsatuvchilar ularga munosib bo‘lishlari lozim. Bugungi kunga kelib, zamonning asosiy talabiga ko‘ra ta’lim tashkilotlari, ayniqsa oliy ta’lim tashkilotlari o‘z faoliyatini rivojlantirishda quyidagi kabi yangi texnologiyalarga tayanishi lozim: moslashuvchan o‘qitish, sun’iy intellekt, UX-dizayn, virtual yoki kibermakon, kengaytirilgan voqelik. Shu o‘rinda, oliy ta’lim tashkilotlari bosqichma-bosqich “Universitet 4.0”, ayrim hollarda “raqamli universitet” yoki “aqlli universitet” deya tavsiflanuvchi konsepsiyaga o‘tishi zarur.

Raqamli ta’lim vositalari: yangi imkoniyatlar va farqli fursatlar qamrovida tanlangan eng yaxshi raqamli vositalar. Ta’limda raqamlashtirish inqilobi, mavzu bilan aloqador manfaatdorlarga favqulotda imkoniyatlar va fursatlar taqdim qilmoqda. Bugun ega bo‘lganimizdan tashqari kelajakda erishadiganimizni ham inobatga olsak ta’limda haqiqiy

inqilobning yuz berishini ko‘ra olamiz. Avvalombor aytish kerakki, raqamli ta’lim vositalari faqat bu yerda keltirilgan va quyida tahliliy bir shaklda tushuntirilgan dasturlar emas. Albatta boshqa amaliyotda qo‘llanilayotgan yoki qo‘llanilishga hozir raqamli vositalar ham bor. Faqatgina bu yerda eng ko‘p tarqalgan va qo‘llanilgan dasturlar keltirilgan.

Mendeley[1] – tadqiqotlarni boshqargan, bir xil sohada boshqa tadqiqotlar bilan hamkorlik qilishga va eng oxirgi tadqiqotlarni ixtiro etishda foydalanilgan ma’lumotnomalarni boshqarish vositasi va akademik ijtimoiy tarmoqtir.

- kompyuterimizda joylashgan o‘qilishi kerak bo‘lgan va o‘qilgan maqolalarni boshqaradi;
- o‘qigan maqolalarimizni asos qilib ayni mavzuda o‘qishimiz mumkin bo’lgan boshqa maqolalarni tavsiya qiladi;
- yonimizda kompyuterimiz bo‘lmasa ham kompyuterimizga yuklangan maqolalarni onlayn erishish imkonini ta’minlaydi;
- smart telefon va planshetimiz istagan yerimizda maqolalarni o‘qish imkonini beradi;
- aftomatik tarzda ma’lumotnomalarimizi istagan uslubimizda hosil qiladi;
- Onlayn bo‘lgan tadqiqotlar bilan hamkorlik qilishimizni ta’minlaydi;

iTunes U[2] – o‘qituvchilarning sinf o‘quvchilarini IPad orqali bir oraga keltirish uchun ehtiyoj sezgan har qanday narsani ta’minlay oladi. o‘zingizniki bo‘lgan vositalar bilan dasturlarni qo‘llab, dars tayyorlashga, uy vazifalarini o‘quvchilardan to‘plab baho berishga, sinf bahs-munozaralarini tashkil etishga yoki savollarga javob berish va fikr bildirish uchun o‘quvchilar bilan birma bir gaplashishga imkon yaratadi. iTunes U ayni zamonda iPhone, iPad yoki iPod touch sohibi bo‘lgan har kim dunyoning eng buyuk bepul ta’lim mazmunini to‘plamini qo‘llab o‘rganishini ham imkonini beradi. Bu to‘plamda mashhur maktablarning, universitetlarning, muzeylarning va madaniyat tashkilotlarining har kimga ochiq darslari va to‘plamlari joylashgan.

O‘qituvchilar uchun:

- to‘g‘ridan to‘g‘ri IPodinizi qo‘llab darsni rejalashtira olasiz, uy vazifalariga baho berib aloqada qolabilasiz.
- turli hujjat yetkazib beruvchilardan ish varaqlari, web havolalari, rasmlar va videolar hamda o‘qitish materiallarini uzata olasiz.
- iTunes, App Store ve iBooksdaki dasturlarni, kitoplarni, videolarni, podcastlarni va yanada ko‘prog‘ini qo‘llab har bir o‘quvchini darsga jalb qilish imkon beradi.
- O‘rnatilgan izohlash vositalari bilan PDFlarga va fotosuratlarga ko‘rsatmalar yoki sharxlar qo‘shib bilasiz.
- o‘quvchilarning uy vazifalariga qachon qaraganini yoki bajarib bo‘lganini ko‘rib o‘quvchilarga uy vazifani topshirish vaqtini eslata olasiz.
- talabalar ishini baholab, o‘zlashtirish korsatgichida talabalarning muvaffaqiyat holatini kuzata olasiz.
- Tarbiyachi-o‘qituvchi majlisida individual kuztip bir nafar talaba tasvirini qo‘llay olasiz.
- birga bir uchrashuvlarda savollarga javob berish yoki videoli fikr bildirish yoki guruhda bahs-munozaralarni qo‘llay olasiz.
- talabalarning tayyor bo‘lishini va bildirishnomalardan xabardor bo‘lishlarini ta’minlay olasiz;
- muassasalar, dars yaratishni qulay qilish uchun “Apple universitet boshqaruvi bilan boshqarilgan Apple idintifikatsiyalarni qo‘llab guruh ro‘yxatini kirita olasiz;
- Vakolatli muassasalar bilan aloqador o‘qituvchilar, darslarni har kimning bepul qo‘llashiga taqdim etish maqsadida iTunes U katalogida tarqata oladsiz.

Talabalar uchun:

- vazifalarni va yangiliklarni yagona bir yerda ko‘rib, bajarib bo‘lingan uy vazifalarni belgilay oladilar;

- ishlarini har qanday bir Apple ijodkorlik dasturlaridan, ko‘plab uchinchi tomon ilovasidan yubora olish yoki maxsus darslarda izohli PDF va rasm holida yubora oladilar;
- audio yoki video fayllarini to‘g‘ridan to‘g‘ri boshqa ilovalarda ocha oladilar;
- birma bir mesajlar bilan talabalarga savollar berish yoki o‘qituvchilardan baholashlarini so‘ray oladilar;
- guruh bilan bahs-munozara tashkil qilish oladilar;
- barcha o‘tgan uy vazifalarining baholarini va o‘qituvchi fikrini ko‘rishlari mumkin;

Hopscotch[3] – kod yozish mantig‘ini oddiy bir shaklda ko‘rsatgan Ipad ilovasidir. Hopcscotch ilovasida yozuv yozishga hech ehtiyoj qolmasdan juda oddiy davomi biroq interveysi bilan birlashtirish kerak bo‘lgan bloklarni joylashtiriladi, harakat va halqa ma’lumotlariga kirib animatsiyalar hosil qila oladi. Bolalarning zavqlanib o‘rganadigan, o‘zlari erkin loyihalar qilishlarini taminlaydigan juda yaxshi ilovadir. Xato qilish xafini ham yo‘qotgan Hopscotch ilovasi bilan bolalarning yaratuvchiliklarining rivojlanishida katta ahamiyaga ega. Tarbiyachilar va oilalar tomonidan yuqori bahalangan bu ilova rivojlangan XXI asr bilan bolalarning o‘zi hayol kuchini rivojlantirishlari va hozirgi texnologiya bilan yangi narsalar yaratishning muvaffaqiyatini va xursandchiligini yashaydilar. Ushbu dastur talabalarga tajriba o‘tkazish va o‘zlarining kodlari va dasturlarini Hopscotch dasturlash tilida yozish huquqini beradi. Talabalar mustaqil kitobxon bo‘lishlari kerak va kodlash muammolarini hal qilish uchun ko‘p darajalarga kirishlari mumkin. Ular o‘zlashtirilgandan so‘ng talabalar o‘zlarining kodlash dasturlash hikoyalarini yaratishlari mumkin.

Duolingo[4] – butun dunyo uchun “Bepul til ta’limi” shiori bilan yaratilgan va ramzi yashil boyqush bo‘lgan chet tilini o‘rganish saytidir. Saytning falsafasini bo‘limda bayon etilgan “Har bir inson eng yuqori sifatda ta’lim olish huquqiga ega” tushunchasi hosil qilayapti. ilk bora 2011-yilda yaratilgan bu loyiha birinchi bosqichida ham xalqaro bilim fondi qo‘llab-quvvatlashiga erishgan. Ilova 23 ta xar xil tilda yordam beradi. Ayni zamonda bu Web sahifaning barcha planshet va telifonlarda ham qulay qo‘llanila oladigan bir ilovasi bor. Interfeysi va qo‘llanishi juda oddiy va zavqli. Bu ilova ko‘plab mukofotlarni olgan: 2013-yilda yilning iPhone ilovasi, yana ayni yilda Googlening eng yaxshilarning yaxshisi, 2014-yilda yana Googlening eng yaxshilarning yaxshisi va TechCrunchning eng yaxshi boshlang‘ich o‘rgatuvchisi. Duolingo ta’limining shiddatli ketishi e’tiborga olingan. Yani bunda foydalanuvchilar bosqichma-bosqich oldinlarkan qaysi savoldan xato qilganliklarini, qaysi savol uchun qancha vaqt sarflaganini bilib oladilar. Bilib olish bilandan tashqari tez-tez xato qilgan mavzularni ham har darajaning oxirida bitiruvchi mashqlar bilan takrorlaydi. Bu ham o‘qitishning aslida individuallashtirish, chunki har bir shaxsning o‘ziga xos til o‘rganish dasturi amalga oshirilmoqda. Olib borilgan tatqiqotga ko‘ra bu ilova 34 soat ichida har qanday universitetning til kursidan ikki marta tezroq til o‘rgatishi isbotlangan.

Foydalanishni shunday izohlaymiz: avval a’zo bo‘lish uchun ro‘yxatdan o‘tishingiz kerak. Istasangiz Google hisobingiz bilan, gmailingiz bilan yoki Facebook bilan faydalanuvchi ma’lumotlaringizni kiritib ro‘yxatdan o‘ta olasiz.

Facebook hisobingiz bilan a’zo bo‘lsangiz ilovani foydalanuvchisi bo‘lgan do‘stlaringiz bilan aloqaga kirisha olasiz. Ammo o‘quv yurtlarida talabalarning faydalanishi albatta gmail bilan a’zo bo‘lishlari maqsadga muvofiqdir. Kirish qilingandan keyin “O‘zimning tilim” bo‘limidan o‘rganishni maqsad qilgan tilimizi tanlaymiz. Afsuski o‘zbek tili kiritilmagan bo‘lib, kelajakda o‘zbek tilini bu dasturga kiritish orqali har birimizga ko‘plab tillarni o‘rganish imkonini tug‘uladi. Ammo Bundan tashqari ikkinchi til sifatida o‘rgangan xalqaro tan olingan tilimiz orqali boshqa tillarni o‘rganishimiz mumkin. Ayniqsa “O‘zimning tilim” bo‘limidan Ingliz tilini tallansak qarshimizga ko‘plab til tanlovlari chiqadi. Masalan: chet tilida talim beradigan o‘qituvchilar bu vosita bilan talabani ham inglizcha ham boshqa chet tili bilan qarshilashtirish orqali o‘rganishini taminlaydi. Ayni vaqtda boshqa tilning ham o‘rganilishi mustahkamlanishida ishtirok etadi.

Tilni tanlagandan keyin esa o‘zingizga maqsad belgilaysiz va bu sizning kunlik ishlash chegarangiz bo‘ladi. Belgilangan me’yorni har safar bajarganizda mukofotlanasiz. Avval oddiy o‘rganishingiz kerak bo‘lgan narsalar haqida bilim olasiz keyin har xil qiyin darajadagi harakatlarni boshlaysiz. Har bir darajada tilning to‘rt asosiy ko‘nikmasini ham sinagan savollar joylashgan. Foydalanishga boshlaganingizda to‘plangan barcha mukofotlarga loyiq til o‘rganish uchun ham zavqli ham o‘rgatuvchi hamda oddiy ilova bo‘lganini siz ham ko‘rishingiz mumkin. Albatta sizga ona tilingiz kabi boshqa tilda gapira olishingizni kafolatlamasa ham kundalik hayotda ehtiyojingiz bo‘lgan jumlalarni zavq bilan o‘rgana olasiz.

Photomath[5] – maxsus hisoblash mashinasi ilovasidir. PhotoMath bilan matimatik ifodalarni fotosuratga olib savollarni yechimlarini bilib olasiz. Dasturni ishlatganingizda kamera aftomatik faollashadi. Qizil chiziqlar bilan belgilangan maydonni ichiga teng keladigan shaklda savolni skayner qilasiz. Bu vazifa uchun har qanday belgiga tegishingiz kerak emas, ilova savolni o‘zi idrok qiladi va skaynerlaydi. Javob soniyalar ichida ekranda aniqlanadi. qorong‘u joylar uchun chap ust burchakdagi fanar belgisiga teksangiz skayner qilinadi. Ostidagi yichimning ustiga tegib vazifa bosqichlarining yechilish usulini ko‘rishingiz mumkin.

Coursera[6] – Stanford universitetidan kompyuter fanlari professorlari Endryu Ng va Dafne Koller tomonidan yaratilgan yirik ochiq onlayn kurs provaydiridir. Coursera Turli sohalarda va mavzularda jamoaviy onlayn ochiq dars yoki har qanday kishi tarafidan foydalana olinadigan bepul onlayn ta’lim bergan ijtimoiy tadbirkorlik tashkiloti hisoblanadi. Oliy ta’lim o‘quv yurtlari o‘rtasida homkorlik bilan ta’lim mavzularini doimiy kengaytirish mumkin. Muhandislik, gumanitar fanlar, tibbiyot, biologiya, ijtimoiy fanlar, matimatika, fizika, iqtisod, huquq va boshqa sohalarda xizmat qiladi. 2021-yilda, 150 ga yaqin oliy ta’lim Coursera orqali 4000 dan ziyod kurslarni taklif qilgani belgilangan.

Khan Academy[7] – auditoriyada va auditoriyadan tashqarida talabalarning o‘zlariga eng uyg‘un tezlikda o‘rganishlari uchun dars videolari va interaktif mashqlar bilan individuallashtirilgan o‘rganish tajribasini taminlaydi. Khan Academy mutaxassislar tomonidan yaratilgan ishonchli o‘quv materiallari majmuasi sifatida matematika, fizika, kimyo, biologiya va boshqa fanlardan chuqur va aniq ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan. Barcha uchun har doim bepul. O‘qituvchilarni yuksaltirish vositalari: o‘qituvchilar Khan Academy yordamida o‘quvchilarning bilimlaridagi bo‘shliqlarni aniqlashi, bartaraf etishi va har birining ta’limga bo‘lgan ehtiyojini qondirishi mumkin. Har bir o‘quvchini jalb qilish uchun topshiriqlar taqsimlanadi. O‘qituvchilarga barcha sinflarni qo‘llab quvvatlashga yordam beradi. Khan Academydan foydalangan AQSH o‘qituvchilarining 90 foizi bu vositani samarali deb topgan.

YouTube[8] – onlayn video ulashish va ijtimoiy media platformasi. AQSHdagi San Bruno, Kaliforniya shaharlaridir. 2005-yil 14-fevralda Bu loyiha a’zolari Steve Chen, Chad Hurley, Jawed Karimlar hisoblanishadi. YouTube saytini yaratishdan oldin bu insonlar Paypal da ish yuritishgan. Google kompaniyasi YouTube ni 2006 yilda sotib olgan. Sayt narxi 1.65 milliard dollarni tashkil qilgan. YouTube foydalanuvchilariga video yuklash, tomosha qilish va ulashish imkonini taqdim qiladi. Media kompaniyalari va foydalanuvchilar mahsuloti bo‘lgan videolarning ko‘rsatilishi uchun WebM, H.264 va Adobe Flash Video texnologiyalarini qo‘llaydilar. Odatda, Video kilip, telvidenya ko‘rsatuvlari, musiqiy videolar, video bloklar va video darslar tarkibi chop etiladi. YouTube a’zosi bo‘lmagan foydalanuvchilar faqat videolarni tomosha qila oladi, ro‘yxatdan o‘tgan a’zolar esa o‘zlarining kanallaridan video yuklash imkoniyatiga egadir. Bu vosita orqali nafaqat dunyodagi balki O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalari ham turli fanlarga oid darslarni ta’lim ishtirokchilari uchun taqdim qilib kelmoqda. Natijada talabalar turli o‘quv yurtlaridagi professor-o‘qituvchilar video darslarini tomosha qilib, o‘tilgan mavzuni mustahkamlashi yoki yangi darsga tayyorlanishi yoxud atroflicha bilimlarini kengaytirishi mumkin.

My Study Life[9] – O‘rganish hayotini qulaylashtirish uchun Google Chrome internet brauzerlariga ega talabalar va o‘qituvchilarning rejalashtiruvchidir. Darslarni, vazifalarni,

loyihalarni va sinovlarni saqlashni taminlaydi. Aslida ilova o‘quvchilar uchun tayyorlangan bo‘lsa ham ishlovchi insonlarning ham foydalana oladigan dasturdir. Topshiriq rejasini, ish jarayonini va maqsadga muvofiq dars va imtihonlarni olib, amaliyotda qo‘llab ko‘rish mumkin. Topshiriq boshlamasdan qancha daqiqa avval sizni ogohlantirishini xohlasangiz u sizni shu vatda ogohlantiradi. Bu vositani ochganingizda sizni to‘rt bo‘limni qarshilaydi. Bular: “Bugun”, “Topshiriqlar”, “Sinflar” “Siniflar bo‘limlari”. “Sinf bo‘limi”ga kirganingizda haftalik dasturingizdagi darslarni qaysi binoda bo‘lishi, qaysi sinda bo‘lishi, soatlari va dars o‘tadigan o‘qituvchi ham qayd qila olasiz. Ishni qulaylashtirgan asosiy narsa, agar darsingiz ikki kunda va boshqa soatlarda bo‘lsa buni dasturga kiritishingiz juda qulay. Masalan pedagogika darsi Dushanba 8:30 – 11-20 va Seshanba 13:30 – 16:20 orasida. Buni har darsning o‘ziga oid sahifada hozirlash juda qulay. Belgilangan kunlarni va soatlarni kirganingizda buni yana sizning belgilagan davr oxirigacha muammosiz takrorlaydi. Imtihonlarni ham yana o‘xshash shaklda qulaylik bilan qo‘shishingiz mumkin. Ilovada avtomatik tarzda kelgan rang etiketi sozlamalariga ko‘ra darslarning rangi yashil, sinovlar esa malla. Albatta bu ranglarni istagingizga ko‘ra sozlaylashingiz mumkin. Hatto istasangiz har darsga maxsus bir rang bilgilashingiz mumkin. Faqat darslar ham emas, o‘zingiz belgilagan vazifalaringiz, muhim faoliyat kabi tanlovlaringizga ham rang tanlay olasiz. Bu rang tizimi ko‘magida oylik dasturingizga xomaki qaraganingizda nimada qancha vaqt bo‘lganini ko‘rishingiz qulaydir. Ilova sizga taqvimga qarash usuli tarzida ikki farqlili tanlov so‘raydi; haftalik va oylik. Haftalik taqvim tabiy tarzda ko‘proq tafsilotlarni o‘z ichiga olgandi, oylik taqvim esa rang tizimi ko‘magida biroz ozroq tavsilotlarni bersa ham orqada qolmaydi

Studious[10] – O‘quvchilarning hayotini qulaylashtirish maqsadida loyihalangan Studious ilovasini Android qurilmalaringizga mutlaqo bepuhaklda yuklab foydalana olasiz. Studious ilovasini Android qurilmalaringizga muammosiz yuklab, darslariz va imtixonlariz uchun vaqt ogohlantirishini sozlay olasiz. dastur imtihoniz yoki darsingiz yaqinlashganda sizni ogohlantiradi. Bu soyada hech bir imtihonni o‘tkazib yubormay darslarizga vaqtida ulgurasiz. Bundan tashqari, Ilova darsga kirganingizda qurulmangizning ovozini avtomatik ravishda o‘chiradi va imtihan hamda dars ma’lumotlarini ilovaga batafsil kiritisangiz kifoya.

Learnist[11]– internetdagi video, electron kitob, xarita, blog, anketa, audiyo va boshqa ko‘plab kontentlarni qo‘llab yangi ma’lumotlar o‘rganishingizni ta’minlagan o‘rgatuvchi va zavqlantiuvchi ilovadir. Deyarli har narsani o‘rganishingiz mumkin bo‘lgan ilova bilan internet saytlari va bloglardagi ma’lumotlarga qulaylik bilan erish olasiz. Bundan tashqari, YouTube, Wikipedia, Soundcloud, Google Docs, Google Maps, Google Books va boshqa ko‘plab ma’lumotlar tarkibiga ham erishish mumkin. Tadqiqotchilar, o‘qituvchilar, professorlar va boshqa foydalanuvchilarning yaratgan o‘rganish ro‘yxatida sizni qiziqtirgan sarlavhalar ostida yangi ma’lumotlarni topib darhol o‘rganish juda qulaydir. O‘rganish ro‘yxatida sizni qiziqtirgan sohalarni “Sevimli” qilish orqali qulay taqib etib doimiy yangi ma’lumotlar olib bilasiz. Istagan ma’lumotlaringizni etiket, sarlavha, kalit so‘z qidirishi qilib, tezlik bilan erishishingiz mumkin.

Sololearn[12] - Web va mobil ilovalaridan C++, Java, Javascript, Python 3, PHP, C#, CSS, SQL va ko‘prog‘i uchun darslar beriladi. har dasturlash tilini o‘ziga xos ilovasi bor, masalan, C# o‘rganishni istasangiz iOS android yoki Windowsli telifoningizga SoloLearnning C# ilovasini yuklay olasiz. darslar oddiy tushuntirishga ega bo‘lib, o‘rganganlarizni turli testlar usuli bilan sinaysiz. Eng afzali barcha SoloLearn ilovalarining bepul bo‘lishidir.

TED[13] – turli mavzularda mutaxassislar tomonidan o‘tkaziladigan konferensiyalarni birlashtirgan notijorat tashkilot. Har yil minglarcha nutqlar chop etiladigan “Ted com” katta e’tiborni tortadi. TED ilovasi buning mobil qurulmalarga yuklangan ko‘rinishi. Oddiy va ta’sirli interfeyzga ega bo‘lib, bu ilova bepul.

EdX[14] – Garvard universiteti va Massachusetts texnologiya instituti qo‘llab-quvvatlashi bilan yaratilgan notijorat tashkilot va elektron o‘rganish muhitidir. EdX ichida MIT, Berkeley

va Garvard universitetlarida o‘rgatilgan bazi darslarning onlayn holda topa olasiz. Bu darslarga butunlay makon va qisman zamon bilan aloqador bo‘lmagan holda ishtirok etish mumkin. Bu ochiq darslar butunlay bepul va majburiy shart sifatida universitetni tamomlash shart emas. Faqat bazi darslarning og‘zaki shart bo‘lishi mumkin (masalan: “High school algebra and a reasonable aptitude for mathematics” kabi) albatta buning isboti talab qilinmayapdi. EdX platformasi orqali darslarga kirganlar muvaffaqiyatga erishsalar darsni tashkil qilgan ta’lim muassasasi tomonidan bir sertifikat sizga uzatiladi. Edx, MIT va Garvard tomonidan boshqarilgan ta’lim platformasidir. Asosan notijorat, ochiq manba tarzida bo‘lgan bu saytda MIT, Garvard, Vashington, Berkeley kabi maktablarning darslari bor. Bu darslarning boshlash vaqtini aniqlab ishtirok eta olish, o‘z bilimingizni sinab ko‘rish, bepul “Honor Code” deb nomlangan sertifikatni qo‘lga kirita olish imkoniyatiga egasiz. Bu modullarda videolar, qisqacha matnlar, savollar va bahs-munozaralarni topa olasiz. Har bir darsning bir sanada umumiy imtihoni bo‘ladi. Uyga vazifa berilsa, oxirgi yuborish vaqtiga diqqat qilinishi kerak. Har bir darsning o‘ziga xos o‘tish chegarasi bor va u chegara ostida qolmaslik kerak. Videolar, savollar va manbalar bu unversitetlardagi professor va mas’ullar tomonidan tayyorlanadi. Tushitirish shakklari albatta zerikarli va monoton emas. Darslar siz tinglashdan zavqlanadigan boshqacha tushuntirish uslubiga egadir.

Yuqorita yoritilganlarni kelajakdagi ta’lim uchun xizmat qiluvchi, qulaylashtiruvchi hamda ta’limni raqamlashtirish vositalari sifatida ko‘rsatish mumkin. Talabalarning raqamli asrga moslashishi, shubhasiz kattalar va rasmiy vakillarning moslashuvidan o‘zib ketkanligini ko‘rish mumkin. Raqamli asr talabalari “o‘z o‘zini o‘rganish”, “Mobil o‘rganish”, “Elektiron o‘rganish”, “Umur bo‘yi o‘rganish”, “maxsus o‘rganish”, “O‘rgatuvchi liderlar”, “Yangilanuvchi ta’lim”, “sun’iy o‘rganish” tarzida tartiblangan o‘rganish metod va usullarini yuqorida tilga olingan dasturlar va raqamli vositalar bilan amalga oshirishlari mumkin. Dars yoki kurs yoki boshqa ta’lim jarayoni bo‘lsin, hozirgi kunda o‘rganishni yanada tezroq, yanada tasirliroq, yanada tarqalgan, yanada tejamkor qilgan ko‘plab fursat va imkoniyatlar mavjuddir.

Xulosa. Muhim tomoni bulardan kimlarning qanday va qaysi vaqtda foydalanishidir. Bir so‘z bilan aytganda pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan zamon bilan hamnafas talaba auditoriyada o‘qituvchi beradigan bilimlardan tashqari mustaqil izlanishlar olib bora oladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamlashtirish vositasida faoliyatga tayyorlash maqsadga muvofiqdir. Chunki har qanday bo‘lajak soha mutaxassislarini faoliyatga tayyorlovchi kasb egasi bu o‘qituvchi shahsidir. Bugungi kunda juda ko‘lab fan sohalarida ixtirolar, yangiliklar bo‘lmoqda. Shunday ekan, zamon bilan barobar harakat etishni raqamli vositalar ko‘magida amalga oshirish mumkin. O‘qituvchilarning dunyo bo‘ylab qo‘llaniladigan zamonaviy bilimlarni bilish darajasini tezligi raqamlashrirish vositalarida faoliyatda tayyorlanishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu ishni amalga oshirish esa pedagog tayyorlovchi oliy o‘quv yurtlarining oldiga qo‘yilgan vazifasi hisoblanadi. Pedagogik faoliyatga tayyorlashda bu sxemaning ilk bosqichi, ehtiyojlatning, talablarning va haqiqatlarning eng oqilona tarkibda belgilanishi ilk qadamdir.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. ftp.sakarya.edu.tr/kutuphane/mendeley.pdf.
2. https://itunes.apple.com/tr/app/itunes-u/id490217893?1=tr&mt=8
3. http://www.egitimdeteknoloji.com/hopscotch
4. http://www.egitimdeteknoloji.com/duolingo
5. http://tr.fobito.com/android/photomath
6. https://tr0wikepedia.org/index.php?q=aHR0cHM6L
7. http://tr.khanakademy.org/abaut
8. http://tr.wikepedia.org/wiki/YouTube
9. https://www.sanalsantiye.com

ALOHIDA EHTIYOJLI BOLALARNING MAXSUS TA’LIM TIZIMDA O‘QITILISHIO‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA’LIMNING RIVOJLANISHI

Ibodulloyev Nurali Sheraliyevich
Buxoro davlat pedagogika instiuti Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
https://orcid.org/0009-0002-5376-7849

Annotatsiya: Maqolada Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyatlari, xususiyatlari va qobiliyatlariga ko‘ra maxsus yoki umumiy ta’lim tizimida ta’limni amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta’lim tizimi amalga oshirilmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim tizimida o‘qitish masalalariga e’tibor berish. “Ta’lim hamma uchun” umummilliy dasturining mohiyatini targ‘ibot qilish. Inklyuziv ta’limning maqsad va vazifalari tamoyillarini tasniflash hamda inklyuziv ta’lim asoslari haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim tizimi, bolalar, yo‘l xaritasi, alohida ehtiyojmand, maxsus ta’lim, umumiy ta’lim, inklyuziv ta’lim, ijtimoiy ajratish, maktab, konsepsiya, yaxlit, jins, umumiy ta’lim muassasalari.

EDUCATION OF CHILDREN WITH SPECIAL NEEDS IN THE SPECIAL EDUCATION SYSTEM DEVELOPMENT OF INCLUSIVE EDUCATION IN UZBEKISTAN

Ibodulloyev Nurali Sheralievich
Bukhara State Pedagogical Institute Teacher of the Department of Pedagogy

Abstract: In the article, the issue of educating children with disabilities is becoming one of the most urgent issues today. Currently, in our Republic, an inclusive education system is implemented in order to provide education in a special or general education system according to the level of development, capabilities, characteristics and abilities of children who need special support. Paying attention to the issues of education of children with disabilities in the general education system. To promote the essence of the national program «Education for All». Classification of the principles of goals and objectives of inclusive education and the basics of inclusive education are described.

Key words: Education system, children, roadmap, special needs, special education, general education, inclusive education, social exclusion, school, concept, holistic, gender, general education institutions.

ОБУЧЕНИЕ ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ В СИСТЕМЕ СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РАЗВИТИЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Ибодуллоев Нурали Шералиевич
Бухарский государственный педагогический институт Преподаватель кафедры педагогики

Аннотация: В статье вопрос обучения детей с ограниченными возможностями здоровья становится сегодня одним из наиболее актуальных. В настоящее время в нашей республике реализуется система инклюзивного образования с целью обеспечения образования в системе специального или общего образования в соответствии с уровнем развития, способностей, особенностей и способностей детей, нуждающихся в специальной поддержке. Уделение внимания вопросам обучения детей с ограниченными возможностями в системе общего образования. Распространять суть национальной

программы «Образование для всех». Описаны классификация принципов целей и задач инклюзивного образования и основы инклюзивного образования.

Ключевые слова: Система образования, дети, дорожная карта, особые потребности, специальное образование, общее образование, инклюзивное образование, социальная изоляция, школа, концепция, целостность, гендер, общеобразовательные учреждения.

Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarni rivojlanish darajasi, imkoniyati nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko‘ra maxsus yoki umumta’lim tizimida ta’lim olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta’lim siyosati amalga oshirilmoqda. Buning yaqol misoli sifatida prezidentimizning Ushbu sohada chiqargan farmon farmoishlarini oladigan bo‘lsak O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida

1. Quyidagilar:

2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya)1-ilovaga muvofiq;

2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” (keyingi o‘rinlarda – “Yo‘l xaritasi”) 2-ilovaga muvofiq;

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari (indikatorlari) 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Belgilansinki, Konsepsiya erishilgan natijalar, maqsadli ko‘rsatkichlar va tegishli davrga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlardan kelib chiqqan holda 2022-yildan boshlab har yili tasdiqlanadigan alohida “Yo‘l xaritasi” asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

2. Xalq ta’limi vazirligi 2021-yildan boshlab har yili 1-dekabrga qadar o‘tayotgan yilning “Yo‘l xaritasi” bajarilishi yakunlarini batafsil o‘rganish asosida keyingi yil uchun “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

Vazirlar Mahkamasi “Yo‘l xaritalari” hamda maqsadli ko‘rsatkichlarning (indikatorlarning) bajarilishi ustidan doimiy monitoring olib borsin hamda yiliga bir marta uning natijalarini Hukumat rayosati majlislarida tanqidiy ko‘rib borsin.

3. Belgilab qo‘yilsinki, Konsepsiya ikki bosqichda amalga oshiriladi, jumladan:

a) 2020 — 2022-yillar davomida:

inklyuziv ta’lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtiriladi;

inklyuziv ta’lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlar tayyorlanadi, qayta tayyorlanadi va malakasi oshiriladi;

inklyuziv ta’lim joriy etilgan muassasalarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanadi, ular maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta’minlanadi;

inklyuziv ta’lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalar joriy etiladi;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o‘qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o‘rtasida ijobiy ijtimoiy muhit shakllantiriladi;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni kamsitish, ularga salbiy muomalada bo‘lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi;

inklyuziv ta’lim tizimi tajriba-sinov tariqasida alohida ta’lim muassasalarining faoliyatiga joriy qilinadi;

b) 2023 — 2025-yillar davomida:

inklyuziv ta’lim tizimi bosqichma-bosqich boshqa umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida joriy qilinadi;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan har bir bolaning inklyuziv ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi;

inklyuziv ta’limda o‘qitish usullari takomillashtiriladi hamda ta’lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etiladi;

inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga, ularning jismonan sog‘lom va baquvvat shakllanishiga qaratilgan choralar ko‘riladi;

o‘quvchilarning jismoniy va aqliy ehtiyojidan hamda ta’lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqib alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalari (maktab va maktab-internatlar) (keyingi o‘rinlarda — ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari) soni optimallashtiriladi.

Maxsus ehtiyojli bolalarning maxsus ta’lim tizimda o‘qitilishi ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini qiyinlashtiradi. Shuningdek, ularning o‘z oilasidan uzoqda bo‘lishlariga majbur qiladi. Bu toifa bolalar boqimandalikka o‘rganib qoladilar, o‘z-o‘ziga xizmat qilishlarida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bundan tashqari juda ko‘plab maxsus ehtiyojli bolalar ta’limdan chetda qolib ketmoqdalar.

Inklyuziv ta’lim umumta’lim jarayonini rivojlantiradi va barcha bolalarga mos bo‘lgan ta’limni joriy qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim olishiga oid qo‘shimcha moslamalarni tashkil qilib bolalarni ta’lim olishiga qulay sharoit yaratadi. Inklyuziv ta’lim har xil ehtiyojli bolalarning ta’lim olishiga qaratilgan metodologiyani rivojlantirishga harakat qiladi. Inklyuziv ta’lim turli ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ixcham turdagi dars berishga yondashadigan ta’limni ishlab chiqishni amalga oshiradi. Agarda inklyuziv ta’limni tadbiq etishda dars berish, o‘qitish bir muncha samarali va unumli bo‘lsa unda nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar balki barcha bolalar yutadi. Inklyuziv ta’lim maktablari bolalarning bilim olish uchun shaxsiy huquqlarini himoyalaydi. Bunday yondashuv diskriminatsiyani bartaraf etadi, kamaytiradi chunki bolalar bir birlari bilan muloqot qilish jarayonida o‘zlarining o‘qitilish jarayonida turli ehtiyojlarga ega individum ekanliklarini anglaydilar.

Imkoniyati cheklangan bolalar va ularning ota - onalari o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, bu munosabatlardagi mavjud kamiliklarni tuzatish va oldini olish, mutaxassis va oila hamkorligini yo‘lga qo‘yish, ota-onalarning nogiron bola va uning o‘ziga xos xususiyatlari, oilada olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlar mazmuni haqidagi bilimlarini oshirish, oilalardagi psixologik muhitni yaxshilash, bolaga me’yordagi ijobiy munosabat turida qarashga o‘rgatish, imkoniyati cheklangan bolalarning kamchiliklarini samarali korreksiyalashga, bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishga, kasb-hunar o‘rgatishga, sog‘lom tengdoshlariga tenglashtirishga, ijtimoiy jamiyatga samarali moslashtirishga umumiy qilib aytganda inklyuziv ta’limning samaradorligini oshirishga yuqori darajada ijobiy ta’sir etadi.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim sharoitida o‘qitish, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, nuqson turi, darajasi va sinfdagi bolalar sonini e’tiborga olgan holda tashkil qilinadi. Avvalo shuni ta’kidlash joizki, o‘quvchilarning yoshlari bir xil bo‘lsada, lekin ular bir-birlariga o‘xshamaydilar. Barcha bolalarning individual psixologik, shaxsiy xususiyatlari, qabul qilish darajasi, zehn va idroki turlichadir. Shu bois maxsus ehtiyojga ega bo‘lgan bola ta’lim olayotgan inklyuziv sinflardagi o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish masalasi yanada murakkabroq muammolarni hal etishni talab etadi. Inklyuziv sinfda o‘qituvchi bolalarning imkoniyatini e’tiborga olib, darslarni shunga muvofiq rejalashtira olsa, bolalarning nogironligi bilim olishiga qanday ta’sir qilishini bilib, bu qiyinchiliklarni bartaraf etishning samarali yo‘llaridan foydalansa maktab va oila hamkorligini to‘la yo‘lga qo‘ya olsa hamda nogiron bolaning kelajagiga ishonch bilan qarasagina dars jarayonining muvaffaqiyatli kechishiga erishish mumkin.

Inklyuziv ta’limga yangicha fikrlarning talqin etilishi milliy, tashkiliy va uslubiy islohotlarni talab etadi. Maxsus ta’limga muhtoj bolalar hozirgi maktab tizimida ehtiyojlari qondirilmayotgan bolalardir. Shu sababdan maktablar barcha bolalarning turli xildagi umumiy maqsadlari, intilishlari, qiziqishlariga javob berishi va ularning bilim olishlarini ta’minlashi lozim.

Inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun umumiy ta’lim tizimiga tarkibiy o‘zgartirishlar kiritish muhimdir. “Umumta’lim” va “Maxsus ta’lim” o‘rtasidagi to‘siqlar olib tashlanishi kerak. Maxsus ta’lim umumiy ta’limning bir qismi bo‘lishiga qaramasdan, o‘zining o‘quvchilari, o‘qituvchilari, boshqaruv jamoasi va ta’minot tizimidan tashkil topgan ikkita ta’lim tizimi amalda qo‘llanilib kelinmoqda. Barcha o‘quvchilarning talablariga javob beruvchi “Inklyuziv maktab” da bunday tizimga ehtiyoj qolmaydi.

Inkyuziv ta’limning maqsad va vazifalari.

Inklyuziv ta’lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta’lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarning ta’lim olishlari uchun zaruriy psixologik - pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo‘naltirilgan umumta’lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;
- o‘quvchilarning ta’limdagi tenglik huquqini kafolatlash;
- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog‘lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;
- imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarni oilalardan ajralmagan holda yashash huquqini ro‘yobga chiqarish;
- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarga nisbatan do‘stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirishdir.

Maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o’qitilayotgan sinflarda yuqori malakali o’qituvchilarning dars berishi talab etiladi. Bundan tashqari inklyuziv sinf o’qituvchisi defektologiya sohasi bo’yicha ham malaka oshirgan bo’lishi kerak.

Inklyuziv ta’lim joriy qilingan maktablarga (muassasalarda) ta’lim jarayonini tashkil etish tamoyillari.

Maxsus ta’lim tamoyillari

Korreksion yo’naltirilganligi

Nuqsonlarni aniqlash, ta’lim berishda kompleks(klinik-genetik, neyrofiziologik, psixolo-pedagodik) yondoshish

Umumiy o’rta ma’limot berish, kasbga yo’naltirish va ijtimoiy hayotga tayyorlashga moslashtirish

Deffernsial tabaqalashtirish va alohida yondoshish

Ta’limning usluksizligini ta’minlash.

Imkoniyati cheklangan bolalar bilan munosabatda o‘qituvchi amal qilishi lozim bo‘lgan pedagogik-psixologik qoidalar.

Qachonki siz imkoniyati cheklangan bola bilan suhbat qurar ekansiz, hech qachon diqqat markazingizda nogironlik tushunchasi turmasin. Ya’ni bolaga nogiron bola sifatida emas avvalo bola sifatida qarang;

Imkoniyati cheklangan bola bilan tanishganingizda albatta bilan qo‘l berishib ko‘rishing. Chunki bu bolada o‘z - o‘ziga ishonch sizga nisbatan yaqinlik hissini shakllantiradi. Bunday vaziyatda bolaning qo‘l tutishi qiyin, protez qo‘l bo‘lsa ham, chap qo‘lini bo‘lsa ham uzatishiga muvaffaq bo‘ling;

Ko‘rishda muammosi bo‘lgan bola bilan uchrashganingizda atrofda va sinfda kimlar borligini ayting. Agar bola bilan birinchi marotaba muloqotga kirishayotgan bo‘lsangiz, so‘zlashayotganda ismingizni aytishni unutmang;

Imkoniyati cheklangan bolani ham barcha bolalar qatori o‘z ismi bilan chaqirishga, o‘smir yoshda bo‘lsa katta odamga qilinadigandek munosabatda bo‘lishga har doim e’tibor qarating;

Agar bola maxsus aravachada o‘tirsa, albatta sinf o‘quvchilarini aravachani harakatlantirish hamda xavfsizlik qoidalari bilan mukammal tanishtirish lozim;

Muloqot qilishida muammosi bo‘lgan bola biror bir narsa yoki hodisa xususida so‘zlayotganda bardoshli bo‘ling, uning fikrini keskin bo‘lib qo‘ymang. Nima xususida so‘zlamoqchiligini anglashga harakat qiling. Bosiqlik bilan unga o‘z munosabatingizni bildiring;

Eshitishda nuqson bo‘lgan bola bilan muloqot qilishda unga to‘g‘ri qarab, aniq qilib so‘zlang. U sizning og‘iz artikulyatsiyangizni aniq ko‘ra olsin. Mujmal bo‘lmang. Uni diqqatini tortish uchun qo‘l harakatlaridan foydalaning, qo‘pol bo‘lmang;

Albatta har bir muloqot jarayonida imkoniyati cheklangan bola bilan o‘rtangizda iliq munosabat yaratish xususida bosh qotiring;

Bolaning ichki imkoniyatlari, shaxsiy muammolari bilan qiziqing;

Uning imkoniyatlarini kengaytirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga undang.

Imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatga integratsiya qilish, ularning barcha qatori ta’lim – tarbiya olishlariga shart – sharoit yaratib berish bugungi kunimizning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim olishini samarali bo‘lishi uchun oila, pedagog o‘qituvchilar, mutaxassislar hamkorligi yo‘lga qo‘yilishi lozim. Shundagina ko‘zlangan natijaga erishish mumkin.

Inklyuziv ta’lim muassasasida ta’lim-tarbiya olayotgan

maxsus yordamga muhtoj bolalarning ayrimlari doimiy ravishda tibbiy xizmatga muhtoj bo‘lishi mumkin. Inklyuziv ta’lim muassasasi shifokor-pediatri (psixonevrolog) har bir bolaning ruhiy asab holatini doimiy ravishda tekshirib boradi, zarurat bo‘lganda davolash muolajalarini tavsiya etadi, korreksion pedagogik ta’lim jarayonida bolalar sog‘lig‘ini nazorat qiladi, aqliy va jismoniy yuklamaning me’yorini belgilaydi, ota-onalarga bolaning somatik hamda ruhiy salomatligini saqlash yuzasidan maslahatlar beradi.

Shunday qilib, inklyuziv ta’lim muassasasida ta’lim - tarbiya jarayoni har tomonlama amalga oshirilgan islohotlar asosidagina samarali kechadi.Alohida ehtiyojga muhtoj bolalar bilan ishlash masalasida etiborli bo‘lishi talab etilayotgan bir davrda o‘qituvchilarimiz etiborsiz bo‘lmasligi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1.Shomaxmudova .R.Sh Inklyuziv ta’lim (Xalqaro va O’zbekistondagi tajribalar) Toshkent-2011

2.Xodjayev. B Umumiy Pedagogika nazariyasi va amaliyoti Toshkent-2017 (188bet)

3. Grigoryans N.A Saidakbarova.T, Fayziyeva Z.Sh. Ko‘rishida muammosi bo‘lgan bolalar inkluziv ta’limi.-T.O‘XTV, A. Avloniy nomidagi XTRXMOI, UNICEF, 2005.

4. P. Pulatova Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika). T.:

«G‘afur G‘ulom», 2007.

5. V.S. Raxmanova. “Maxsus pedagogika”. -T., ”G‘afur G‘ulom”, 2004.

6. Федюкин В.К. Квалитология: Учебное пособие. Часть 1. - СПб.: Изд-во СПбГИЭУ, 2002.

7. Федюкин В.К. Основы квалиметрии. - М.: Изд-во «ФИЛИНЪ», 2004.

Axborot manbalari:

1. www.tdpu.uz

2. www.ziyonet.uz

3. www.edu.uz

TALABALARNING BILIMLILIK, QOBILIYATLILIK VA ISTE'DODINI RAG'BATLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI

Isabayeva Dilfuza Komiljonovna
BuxDPI "Pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi, tayanch doktoranti(PhD)
https://orcid.org/0009-0008-7284-8509

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodini aniqlash, rivojlantirish va rag'batlantirishning muammolari, shuningdek, pedagogik modeli yoritilgan. Ushbu maqolada bilimli, qobiliyatli va iste'dodli talabalarni aniqlashning turli muammolari va yechimlari keltirib o'tilgan. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, qobiliyatli va iste'dodli talabalarning asosiy qismi ijodiy yo'nalishlarda ya'ni, san'at, robototexnika va raqamli multimedialar orqali o'z bilim, qobiliyat va iste'dodini namoyon qilmoqda. Bundan tashqari, ushbu maqolada talabalarning bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodini rag'batlantirishning tarixiy taraqqiyoti, buyuk pedagog – olimlarning g'oyalari hamda uning ravnaqiga qo'shgan ulkan hissasi haqida so'z boradi. Ushbu maqola bir qator adabiyotlar va tadqiqot natijalarini ko'rib chiqadi.

Tayanch iboralar: bilimlik, qobiliyatlilik, iste'dod, rag'batlantirish, pedagogik metod, muammo, yechim.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ПООЩРЕНИЯ ЗНАНИЙ, СПОСОБНОСТЕЙ И ТАЛАНТЛОВ ОБУЧАЮЩИХСЯ

Исабаева Дильфуза Комилжоновна
Преподаватель кафедры «Педагогики» БуДПИ, базовый докторант (PhD)

Аннотация: В данной статье представлены проблемы и модели поиска, развития и поддержки талантливых студентов. Определены проблемы, сдерживающие эффективную работу по поиску, развитию и поддержке одарённых детей и молодёжи, и основные пути решения этих проблем. Показано, знание и творчества студентов в области искусство , робототехники и мультимедийного компьютерного моделирования позволяет раскрыться талантам и одарённости учащейся молодёжи. Более того, в данной статье говорится о зарождении и историческом развитии поддержки талантливых студентов, идеях великих педагогов-ученых и их огромном вкладе в его процветание. В этой статье рассматривается широкий спектр литературы и результатов исследований.

Ключевые слова: знание, талант, лечение гнева, педагогический метод, проблема, решение.

PEDAGOGICAL MODEL OF ENCOURAGEMENT OF KNOWLEDGE, ABILITY AND TALENT OF STUDENTS

Isabayeva Dilfuza Komiljonovna
Teacher of the Department of "Pedagogy" of BuxDPI, graduate student (PhD)

Abstract: This article presents problems and models of searching, developing and supporting talented students. The problems that hinder effective work to find, develop and support gifted children and youth are identified, and the main ways to solve these problems are identified. It is shown that the knowledge and creativity of students in the field of art, robotics and multimedia computer modeling allows students to reveal their talents and talents.Moreover, this article talks about the origin and historical development of project-based education and the ideas of great educator - scientists along with their huge contribution in prosperity of it. This article

reviews a range of literature and research findings.

Key words: knowledge, ability, talent, motivation, pedagogical method, problem, solution.

Kirish.O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “2019/2020 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida” 2019-yil 17-iyundagi PQ-4359-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun stipendiyalar tayinlash va to‘lash tartibini takomillashtirish maqsadida talabalarning bilimli va qobiliyatini rag‘batlantirish masalalariga qaratildi.

“Biz bunday iqtidorli yoshlarga o‘z vaqtida har tomonlama e’tibor qaratib, qo‘llab-quvvatlasak, o‘ylaymanki, ular katta-katta zafarlarni qo‘lga kiritadilar. Shu sababli yoshlarimizning nufuzli xorijiy oliy o‘quv yurtlarida tahsil olishi uchun ko‘maklashishga alohida e’tibor qaratamiz.”, deb fikr bildirdilar davlatimiz rahbari yoshlar forumida. Buning uchun – yosh avlodga bog‘cha, maktab va oliygohda sifatli ta’lim-tarbiya berish kuchaytiriladi; jismoniy va ma’naviy sog‘lom, vatanparvar shaxs bo‘lib ulg‘ayishlari uchun zarur barcha kuch va imkoniyatlar safarbar qilinadi; zamonaviy bilim, tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil hamda mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar sohibi bo‘lgan inson sifatida voyaga yetkazish kabi g‘oyalar mamlakat taraqqiyotining poydevori, hech shubhasiz, ilm-fan va innovasiyalar ekanligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda ilm-fanimizning asosiy masalalaridan biri bilimli, qobiliyatli va iste’dodli talaba-yoshlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘lib hisoblanadi.

Bu esa pedagogik yo‘nalishdagi oliy ta’limlarning bosh muammolaridan biridir, chunki aynan shu maskanda bo‘lajak o‘qituvchilar kamol topadi.

Hozirda ta’lim jarayonida bilimli, qobiliyatli va iste’dodli talablarni qo’llab-quvvatlashda quyidagi muammolarga duch kelishimiz mumkin:

1) Iqtidorli talaba-yoshlar bilan ishlashda to‘sqinlik qiluvchi muammolar;
2) Intellektual, ijodiy va sport musobaqalarining tashkil qilinishidagi muammolar;
3) Iqtidorli talabalarni aniqlashdagi umummilliy muammolar;

Bundan tashqari ko’pgina oliy ta’limlarda uchraydigan muammolar sirasiga quyidagilarni ham kiritish mumkin:

- iqtidorli, qobiliyatli talabalarni aniqlashda “Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo‘limi faoliyatining pastligi;
- dastlabki bosqichdagi bilimli, qobiliyatli talabani aniqlash imkoniyati kamligi;
- boshlang‘ich etapda o‘zini namoyon qilingan talabani rag‘batlantirish va talaba ijodiy ishini bozor infratuzilmasiga olib kirishning mavjud emasligi;

Bilimli, qobiliyatli va iste’dodli talabalarni aniqda oliy ta’lim doirasida quyidagilar muhim hisoblanadi:

- iqtidorli talabalarni baholashda professor-o‘qituvchilarning obyektiv yondashishi;
- bilimli va qobiliyatli talablarni aniqlashda jahon oliy ta’lim muassasalaridan andaza olish;
- qobiliyatli va bilimli talabalarning ilmiy rahbarlarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish;

Shunga asoslangan holda mazkur maqola bilimli, qobiliyatli va iste’dodli talabalarni aniqlash, rivojlantirish va rag‘batlantirish kabi uch komponentning takomillashuv modeli haqida, uning afzalliklari, o‘ziga xos jihatlari haqida yoritib beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Talabalarni rag‘batlantirish bu-talabalar o’qishda yuqori ko‘rsatkichlarga erishganligi, ilmiy-tadqiqot ishlari va oliy ta’lim muassasasi ijtimoiy hayotida faol ishtiroki uchub qo‘llab-quvvatlanadi. Rag‘batlantirish sifatida quyidagilardan foydalanish mumkin:

tashakkurnoma e’lon qilish;
pul mukofoti yoki qimmatbaho sovg‘a bilan taqdirlash;
faxriy yorliq, darajali va turli nominatsiyali diplomlar bilan taqdirlash.

Shu bilan birga, talabalarni moddiy rag‘batlantirish jamg‘armasi hisobidan davlat granti va to‘lov-kontrakt asosida ta’lim olayotgan alohida iqtidorga ega, xalqaro, respublika va oliy ta’lim muassasasi miqyosida o’tkazilgan fan olimpiadalari va sport musobaqalari g‘oliblari, shuningdek, oliy ta’lim muassasasi kengashi tomonidan belgilangan mezonlarga muvofiq alohida hollarda (ota-onasining vafoti, nogironligi, ijtimoiy himoyaga muhtojligi) talabalarga bir martalik rag‘batlantirish yoki moddiy yordam to‘lovi berilishi mumkin.

Ta’lim jarayoni harakat qilish, qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish jarayonidan iborat. O‘quv jarayonida ta’lim oluvchiga nisbatan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish amalga oshirilsa ta’lim samaradorligi yanada yuqorilashadi. Deyarli uch yarim yuz yil oldin Y.A. Komenskiy shunday fikr bildirdilar, “…Maktablar “o‘zga qarashlarlar” va “o‘zga fikrlar”ni o‘rgatishga harakat qiladi.” . Afsuski bu bilan maktablar hech nimani XVII asrda o‘zgartira olmadi. Aynan bugungi kunga kelib pedagogik texnologiyaning rivojlanishi, ta’lim jarayonida turli interfaol metodlardan, multimediali vositalardan foydalanish, ayniqsa, o‘quvchining bilimini, qobiliyati va iste’dodini aniqlash va rag‘batlantirish samarali natija bermoqda.

Hozirgi vaqtda shaxsni qo‘llab-quvvatlash tushunchasini talqin qilishda ikkita asosiy yo‘nalish mavjud. Birinchisi, shaxsni qo‘llab-quvvatlash shaxs faoliyatini belgilovchi motivlar majmui sifatida qaraydi. L.I. Bojovich, V.K. Vilyunas, V.I. Kovalyov, A.K. Markova, A. Maslou va boshqalar kabi mualliflar motivatsiyani xuddi shunday tushunishga moyil.

Ularning tadqiqotlaridagi ikkinchi yo‘nalish V.G. Aseev, V.I. Ivannikov, E.P. Ilyin, X. Xekxauzen, A.N. Leontyev kabi olimlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Ular motivatsiyani statik emas, balki dinamik shakllanish jarayoni sifatida qaraydilar.

V.G. Aseev motivatsiyani faoliyatni rag‘batlantirish jarayoni deb tushuntiradi. Rag‘batlatirish - insonni “harakatlantiruvchi kuch” bo‘lib hisoblanib, shaxsning shakllanishida yetakchi o‘rinni egallagan, ya’ni: shaxsning xarakteri, his-tuyg‘ulari, qobiliyatlari, faoliyati va aqliy jarayonlarining shakllanishida asosiy o‘rin tutgan.

V.K Vilyunas shaxsni rag‘batlantirishni hodisalar to‘plami sifatida tushunadi, ya’ni “haqiqiy bajarilgan faoliyat”ni keltirib chiqaradi, chunki inson astoyidil harakat qilib bu rag‘batga erishadi. Muallifning fikricha, potensial motivatsiya, bu fundamental tayyorlikni anglatadi va bu dastlabki xatti-harakatlarni baholovchi, rag‘batlantiruvchi bo‘lib hisoblanadi “potentsial motivlar” deb ataydi. Potentsial motivlar, V.K. Vilyunas fikricha, shaxsning hayotidagi asosiy maqsadini, xatti-harakatni uyg‘otadi va vositachilik qiladi.

Turli adabiyotlardagi ma’lumotlarga ko‘ra, talabalarni ta’limiy rag‘batlantirishning quyidagi tasnifi mavjud:

- kognitiv rag‘batlantirish (yangi bilimlarni egallash tufayli);
- keng ijtimoiy rag‘batlantirish (burch, mas’uliyat, o‘qishning ijtimoiy ahamiyatini tushunish, jamiyatga foyda keltirish);
- pragmatik rag‘batlantirish (yuqori daromadga ega bo‘lish tufayli);
- professional va qadriyatlarni rag‘batlantirish (imkoniyatlarni kengaytirish, istiqbolli va qiziqarli kasb tufayli);
- estetik rag‘batlantirish (o‘rganishdan zavq olish, yashirin qobiliyat va iste’dodlarni yaratish orqali);
- maqom-pozitsion rag‘batlantirish (o‘zini jamiyatda o‘rnatish istagi o‘qitish yoki ijtimoiy faoliyat, boshqalar tomonidan tan olinishi, ma’lum bir pozitsiyani egallash tufayli);
- kommunikativ rag‘batlantirish; (ijtimoiy doirani kengaytirish, intellektual darajani oshirish va yangi odamlar bilan tanishish tufayli);
- an’anaviy tarixiy rag‘batlantirish (o‘rnatilgan stereotiplar, jamiyatda paydo bo‘lgan va

vaqt o‘tishi bilan mustahkamlangan qonnunlarga amal qilish oqibatida);

- utilitar-amaliy rag‘batlantirish (o‘z-o‘zini tarbiyalash, qiziqishning ma’lum bir mavzusini o‘zlashtirish istagi tufayli);

- tarbiyaviy va kognitiv rag‘batlantirish (bilim, muayyan o‘quv fanlarini o‘zlashtirish)

- ijtimoiy va shaxsiy obro‘-e’tiborni rag‘batlantirish (o‘zini jamiyatda o‘rnatish va mavqega ega bo‘lish);

Muhokama va natijalar. Bilimli, qobiliyatli va iste’dodli talabalarni aniqlash, rivojlantirish va rag‘batlantirish kabi uch komponentning takomillashuv modeli ishlab chiqildi.

“Aniqlash” bosqichida bilimli, qobiliyatli va iste’dodli talaba-yoshlarni qidirib topish mexanizmini o‘z ichiga oladi. Bular auditoriya mashg‘ulotlarida (ma’ruza, seminar, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar), shuningdek auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarida (talabalar orasidagi konferensiyalar, olimpiadalar, tanlovlar, turli musobaqalar), shuningdek, mustaqil ta’lim va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonlarida aniqlanadi.

“Rivojlantirish” bosqichida bilimli, qobiliyatli va iste’dodli talaba-yoshlar uchun rivojlantiruvchi ilmiy markazlar tashkil etiladi. Bu markazlarga 3D grafiklarni modellashtiruvchi laboratoriyalar, ijodiy ustachilik xonalari, grafik-dizayn laboratoriyalari, robototexnika laboratoriyalari, IT markazlari, zamonaviy chet tili markazlari.

“Rag‘batlantirish” bosqichida bilimli, qobiliyatli va iste’dodli talaba-yoshlar turli mukofotlar bilan qo‘llab-quvvatlanadi.

Talabalar uchun turli yo‘nalishlar bo‘yicha tanlovlar va festivallar tashkil qilinadi, universitet talabalari konferentsiyalarda qatnashishadi, universitet nashrida pedagogika, fan va texnologiyaning dolzarb muammolari bo‘yicha tezislar va ma’ruzalarni nashr etishadi.

Talabaning o‘qishini rag‘batlantirish — produktiv samaradorlilikka sabab bo‘luvchi omildir, Rag‘batlantirish — talabaga yo‘naltirilgan jarayon bo‘lib, uning ichki dunyosi va xatti – harakatlarining o‘zaro aloqadorligining mahsuliga beriladigan bahodir.

Talabani rag‘batlantirish jarayonida nafaqat uning o‘zi, balki uning o‘qituvchisi, ota-onasi va do‘stlarining hissasi kattadir.

Shuni albatta bilish kerakki, talabani ta’limga qiziqtirishda nafaqat nazariy va amaliy darslar tushunarli bo‘lishi, balki talaba birinchi navbatda bu fanni “ichki” qa’bul qilishi lozim. Chunki rag‘batlantirishning asosiy qismi insonning o‘z “ichki motivatsiyasi”dir. Agarda inson biror faoliyatni astoyidil xohlab bajarsagina u juda ko‘plab yutuqlarga erishadi. Shu asnoda, talabaning o‘qishidagi asosiy qo‘llab-quvvatlovchi kuch bu uning o‘z “ichki motivatsiyasi”.

Talabani darsa majburlab olib o‘tirish mumkin, ammo unga bilimni majburlab berib bo‘lmaydi.

Talabalarning muvaffaqiyatlarini qo‘llab - quvvatlash, ularning yutuqlarini namoyish etishda albatta namoyon bo‘ladi (masalan,ishni yaxshi yoki a’lo darajada bajarishida). Ommaviy maqtov ayniqsa, talaba juda katta ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni nafaqat o‘qituvchi, balki do‘stlari tomonidan rag‘batlantirilishi juda yaxshi natija beradi. Bunda uning o‘ziga bo‘lgan ishonchning ortishiga , uning ichki motivatsiyasi va istagini yana oshirga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, maqolada pedagogika oliy o‘quv yurtlarida iqtidorli talabalarni aniqlash, rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash muammolari aytib o‘tilgan.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari oldidagi asosiy maqsad bilimli, qobiliyatli va iste’dodli kadrlarni qisqa muddat ichida maksimal darajadagi nazariy va amaliy bilimlar bilan boyitish va talaba-yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishdan iboratdir.

Oliy ta’lim muassasasi talaba-yoshlarning maqsadi shunchaki diplom olish emas, balki nazariya va amaliyotga asoslangan mustahkam va barqaror bilimlar bilan mustahkamlangan bilim olishga, o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirishdan iborat. Talabalarni rag‘batlantirish — bu ta’lim jarayonini rivojlantirishning asosiy belgisidir va o‘qish va o‘qitish jarayonining

samarali kechishiga sabab bo‘ladi.

Bugungi “Axborot asri” bo‘lgan XXI asrda axborotlarga to‘siqlarsiz ega bo‘lish mumkin. Shu sababli ham, doimiy ravishda izlanib, o‘qib bilim chanqoq bo‘lgan talaba-yoshlarni rag‘batlantirish bu ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Rag‘batlantirishning asosiy bosqichi yoshlarni qiziqtiradigan sohasiga yo‘naltirishdir va shu tufayli ham uning ijodiy yutuqlari boshlanishiga sabab bo‘ladi. Talaba-yoshlarning o‘qishini rag‘batlantirish nafaqat professor-o‘qituvchilarga bog‘liq, balki ularning oilasi va uning atrofidagi do‘stlariga ham bog‘liqdir. Chunki aynan bilimli yoshlar bugungi rivojlanayotgan dunyoda mamlakatimizning gullab- yashnashiga o‘z hissalarini qo‘shishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barakayevich, Q. S., & Baxtiyorovna, A. S. (2021). Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta’lim muhitini yaratish. Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal, 1(02), 132-137

2. Концепция интеграции эффективных механизмов поиска и поддержки талантливых детей и молодежи в общенациональную систему (проект) / Совет при президенте по модернизации экономики и инновационному развитию России [Электронный ресурс]. – Режим доступа : http://i-russia.ru/all/docs/9389. – Дата поступления : 15.12.2011.

3. Галустов, А. Р. Поиск, развитие, поддержка одарённых и талантливых студентов в педагогических вузах [Текст] : учеб. пособие (курс лекций) / А. Р. Галустов, В. С. Глухов – Армавир : РИО АГПА, 2012. – 128 с.

4. Мультимедийное моделирование в системе поиска и развития одаренных и талантливых студентов в педагогических вузах [Текст] / А. Р. Галустов [и др.] // Вестн. Брян. гос. ун-та. – 2012. – № 1. – С. 18–29.

5. Adbujalilova, S. A., & Koraev, S. B. (2020). Талабалар илмий дунѐқарашини шакллантиришда педагогик технологияларнинг ўрни. Academic research in educational sciences, (4).

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI PEDAGOGIC CIKL FANLAR INTEGRATSIYASI VOSITASIDA KASBGA QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Ismatova Nigina Baxodirovna
Buxoro davlat pedagogika instituti, Pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Pedagogika fanida taklif etilayotgan integratsiya jarayonining texnologik jihatlari kengroq bo‘lib, quyidagilarga ta’rif berishni o‘z ichiga oladi: integratsiyaning turlari va darajalari, uning tamoyillari, integrallashtiruvchi omil, integrativ bog‘lanishlar, integratsiyaning usullari, turlari va shakllari. Aynan ular bizning tadqiqotimizda integratsiya algoritmiga birlashtiriladi. Integratsiyaning muhim texnologik jihatlaridan biri tadqiqotchilar integral (integratsion) ulanishlar deb ataladi. Adabiyotda bu tushuncha fanichi va fanlararo aloqadorlik tushunchasi bilan birga qo`llaniladi.

Kalit so’lar: integratsiya, bilim, ta’lim, hamkorlik, tendenciya, ilmiylik, tizim, omil, global.

СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ ИНТЕРЕСА БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ К ПРОФЕССИИ ЧЕРЕЗ ИНТЕГРАЦИЮ ПРЕДМЕТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ЦИКЛА

Исматова Нигина Баходировна
Бухарский государственный педагогический институт
Старший преподаватель кафедры педагогики

Аннотация: Технологические аспекты предлагаемого интеграционного процесса в педагогической науке шире и включают определение: видов и уровней интеграции, ее принципов, интегрирующего фактора, интегративных связей, методов, видов и форм интеграции. Именно они интегрированы в алгоритм интегрирования в нашем исследовании. Одним из важных технологических аспектов интеграции являются то, что исследователи называют интегральными (интегративными) связями. В литературе это понятие используется вместе с понятием научности и междисциплинарности.

Ключевые слова: интеграция, знания, образование, сотрудничество, тенденция, научная, система, фактор, глобальный.

THE CONTENT OF DEVELOPING THE FUTURE TEACHER’S INTEREST IN THE PROFESSION THROUGH THE INTEGRATION OF SUBJECTS OF THE PEDAGOGICAL CYCLE

Ismatova Nigina Bakhodirovna
Bukhara State Pedagogical Institute
Senior teacher of the Department of Pedagogy

Annotation. The technological aspects of the proposed integration process in pedagogical science are broader and include the definition of: types and levels of integration, its principles, integrating factor, integrative connections, methods, types and forms of integration. They are the ones that are integrated into the integration algorithm in our study. One of the important technological aspects of integration is what researchers call integral (integrative) connections. In the literature, this concept is used together with the concept of scientificity and interdisciplinarity.

Key words: integration, knowledge, education, cooperation, trend, scientific, system, factor, global.

Bugungi kunda ta’lim tizimi muhim ahamiyatga ega tashqi omillar ta’sirida. U taqdim etgan tubdan yangi talablar, doimiy takomillashtirish bir qator global tendentsiyalar sabab bo’ldi rivojlanish:

- jamiyat taraqqiyoti sur’atlarini tezlashtirishni taqozo etadi talabalarni tez o’zgaruvchan hayotga tayyorlash shartlar;
- masshtabning sezilarli darajada kengayishi bilan madaniyatlararo hamkorlik alohida ahamiyatga ega xushmuomalalik va bag’rikenglikka ega bo’ling maktab bitiruvchilari;
- global muammolarning paydo bo’lishi va kuchayishi talab qiladi yoshlardan ularning zamonaviy tafakkurini hal qilish;
- jamiyatni demokratlashtirish, kengaytirish siyosiy va ijtimoiy tanlov uchun imkoniyatlar tayyorgarlikni shakllantirish zaruratidan oldin maktab fuqarolarning bunday tanlovga;
- dinamik iqtisodiy rivojlanish va chuqur belgilaydigan bandlik sohasidagi tarkibiy o’zgarishlar kasbiy rivojlanishga doimiy ehtiyoj ishchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash, talabalarning butun hayoti davomida o’rganish istagi va qobiliyatini shakllantirishni talab qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda integratsiya deganda ko’pincha har qanday elementlarni bir butunga birlashtirish jarayoni tushuniladi, buning natijasida yangi xususiyat paydo bo’ladi, bir-biri bilan chambarchas bog’liq, bir butunlikni yaratish jarayoni va natijasi, tizimlashtirish jarayoni va natijasi. , umumlashtirish va tushuntirish.

Pedagogikada integratsiya tushunchasi xilma-xildir. Biroq, bu tadqiqotchilar nuqtai nazarining nomuvofiqligi va o’zaro istisno ekanligini ko’rsatmaydi. Kasb-hunar ta’limi amaliyotida integratsiyani qo’llashning turli darajalari va turli mavzulari haqida gapirish adolatdan bo’lardi.

Shunday qilib, integratsiyani zamonaviy ta’limni takomillashtirishning istiqbolli yo’nalishi sifatida ko’rib chiqsak, biz integratsiyaning quyidagi darajalarini ajratib ko’rsatishimiz mumkin:

- universitetlararo (universitetlarning o’quv-uslubiy birlashmalari);
- hududiy (o‘quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmualari);
- kontseptual (gumanitar va politexnika tushunchalarining integratsiyasi);
- fanlararo (fanlararo aloqalar);
- fanlararo (uslublar va o’quv qo’llanmalar shakllarini birlashtirish).

Bizning tadqiqotimiz uchun eng qiziqarlisi fanlararo va fanlar ichidagi darajalardir.

Fanlararo integratsiyaning asosiy tamoyili shundan iboratki, umumiy kasbiy va maxsus fanlar bilimlari elementlari fundamental fanlar bilimlari elementlaridan ularni kengaytirish orqali tuzilishi kerak.

O’qitish usullari, shakllari va vositalarining fan ichidagi integratsiyasi quyidagi yo’llar bilan ma’ruza, laboratoriya va amaliy mashg’ulotlar, talabalarning mustaqil ishlarini mutlaqo yangi darajada tashkil etish imkonini beradi:

- o’quv va kasbiy faoliyatning jamoaviy shakllaridan keng foydalanish;
- o’quvchilarning jamoaviy va individual ta’lim faoliyati va pedagogik muloqotni boshqarishni tashkil etishda o’qituvchining tegishli ko’nikmalarini rivojlantirish;
- interfaol, muammoli ta’limning turli shakllaridan foydalanish, o’qitishning barcha xilma-xil vositalaridan foydalanish;

Fanlarning integrativ mazmunini loyihalash tamoyillarini belgilaymiz:

- kasbiy-pedagogik faoliyat mazmuni va funksiyalariga muvofiq maxsus fanlar mazmunini tanlash;
- tarmoq sikli fanlari mazmunini fan komponenti sifatida o‘zlashtirish uslubiy komponent sifatida psixologik-pedagogik tayyorgarlik mazmuni orqali amalga oshirilishi kerak;

- kasbiy-pedagogik kadrlar tayyorlash mazmunini takomillashtirish.

Bosqich maqsadlari	Tarkib	Usullari
1. Tayyorgarlik bosqichi		
Talabalarni yangi ta'lim sharoitlariga moslashtirish. O'quv va kasbiy faoliyatni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish. Kelajakdagi kasb-hunar va shaxsiy rivojlanish kontekstida o'rganilayotgan materialga qiziqishni uyg'otish. Maqsad belgilash bo'yicha trening	Ta'lim va kasbiy faoliyatning psixologik va pedagogik asoslari, ushbu fanning kasbiy rivojlanish, keyingi ta'lim va shaxsiy o'sish kontekstidagi ahamiyati.	Axborot usullari: tushuntirish va illyustrativ, ko'rsatma, professional vaziyatlarni tahlil qilish algoritmini namoyish qilish
2. Reproduktiv bosqich		
Ta'lim va kasbiy faoliyatni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojni barqarorlashtirish. O'rganilayotgan fanga va umuman kasbga qiziqishni saqlab qolish. Ta'lim va kasbiy faoliyatda maqsadni belgilash operatsiyalarini birlashtirish va tizimlashtirish. To'liq huquqli kognitiv, kasbiy va shaxsiy motivlarni shakllantirish	Ta'lim va kasbiy faoliyatni o'zlashtirishga bo'lgan ishonchni mustahkamlash. O'rganilayotgan fanga va umuman kasbga saqlashni saqlab qolish. Ta'lim va kasbiy faoliyatda maqsadni amalga oshirishni birlashtirish va tizimlashtirish. To'liq huquqli kognitiv, kasbiy va shaxsiy motivlarni kuzatish	Axborot usullari: tushuntirish va illyustrativ, ko'rsatma, professional vaziyatlarni tahlil qilish algoritmini avtomatlashtirish. Amaliy usullar: model bo'yicha professional vaziyatlarni tahlil qilish, algoritmga muvofiq moddiy va shaxsiy rivojlanishni o'rganish maqsadlarini belgilash bo'yicha mashq.
3. Ishlab chiqarish bosqichi		
Bilim olish, kasb-hunar egallash va shaxsiy rivojlanish ehtiyojlarini faollashtirish. Ta'lim va kasbiy faoliyatning qiziqish doirasini kengaytirish. Maqsadni belgilashni rag'batlantirish. O'quv va kasbiy faoliyat motivlari haqida tushunchani shakllantirish	Mutaxassisning kasbiy funktsiyalarini ochib beruvchi material, kasbiy vaziyatlar, kasbiy xatolar misollari	Axborot usullari: tushuntirish va illyustrativ, ko'rsatma, professional vaziyatlarni tahlil qilish algoritmini namoyish qilish. Interfaol ta'lim usullari: munozara, davra suhbati, o'zaro ta'lim. Muammoli ta’lim usullari
4. Ijodiy bosqich		
Ta'lim va kasbiy faoliyat uchun yaxlit motivatsiyaning mustaqil avlodini barqarorlashtirish va faollashtirish	Ilmiy faktlar, ilg'or professional amaliyotdan olingan ma'lumotlar	Evristik, qidiruv usullari

Integratsiyalashgan ta’lim usuli - birlashtirish, integratsiya va ta’limni birlashtirish. Integratsiyalashgan ta’lim usuli o‘quv dasturlari mazmunini semantika bilan bog‘lash va birlashtirish moddiy mazmun va tabiiy hayot, birdamlik va barqarorlik talaba o’rganish. Ushbu o’qitish usulida bolalar o’zlarini integratsiyalashgan holda topadilar murakkab real dunyo muammolari doirasida. Integratsiyalashgan ta’limda asosiy quyidagi jihatlarga e’tibor qaratiladi:

1) Bola shaxsini umumiy tarbiyalashga ahamiyat berish.

2) Kirish bosqichi uchun tegishli kitoblar to’plami bilan talabalar uchun boy muhit yaratish.

3) O‘quv dasturini tayyorlash barcha darsliklar mazmunida bir mavzuga oid barcha materiallarni jamlash asosida amalga oshirilishi kerak.

4) Bolalarda maktabga, sinfga, darsga daxldorlik hissini shakllantirish.

5) Ilmiy tajribalar uchun etarli joyni ta’minlash.

6) Maktabda bolalar uchun qiziqarli sharoitlarni tashkil etish.

7) O’qituvchi tomonidan dars mavzusi va unga oid materiallar taqdimoti.

8) Bolalarning quvnoqligi va hayotiyligini saqlash, fikrlashga e’tibor berish.

9) Sinfni o’quv yadrolariga bo’lish va darsning muayyan mavzulari bo’yicha tadbirlarni o’tkazish.

10) Raqobat va individual o’rganish o’rniga guruh faolligi va hamkorlikni rag’batlantirish.

11) Dars mavzusiga emas, balki talaba sifatida bolaga urg’u berish.

12) Og’zaki bilim va ko’nikmalarga monopol tayanishdan ko’ra, faoliyat, bevosita tajriba va ijtimoiy qadriyatlarga tayanish.

13) Dars mavzusiga oid mavzular va tadqiqotlar taklifi.

14) Ko’rib chiqilayotgan mazmunni hamkorlik modellari yordamida o’rgatish

Umuman olganda, bu yondashuvda o‘qitish jarayonida o‘qituvchi darsda hamkorlikda o‘qitish va guruhli ishlash usullaridan foydalanadi, o‘quvchilar esa sinfda yaratilgan boy muhitdan foydalanib, o‘z bilimlarini shakllantiradi va amalda qo‘llaydi.

O’z tadqiqotida Yu.M. Kolyagin ta’lim tizimiga nisbatan «integratsiya» tushunchasini ikki ma’noda qo’llaydi:

 maktab o‘quvchilari atrofidagi dunyoning yaxlit ko‘rinishini yaratish, ya’ni.

integratsiya o’rganish maqsadi sifatida ishlaydi, shu bilan birga u o’quvchiga dunyoning alohida qismlarining tizim sifatida bog’liqligini aks ettiruvchi bilimlarni berishi kerak, bolani o’rganishning birinchi qadamlaridanoq butun dunyoni butun dunyo sifatida tasavvur qilishga o’rgatadi. bir-biriga bog’langan;

 fan bilimlarini yaqinlashtirish uchun umumiy platformani topish, ya’ni. integratsiya o’rganish vositasi sifatida ishlaydi, shu bilan birga u talabalarning bilimdonligini rivojlantirishga, ta’limdagi mavjud tor ixtisoslikni yangilashga qaratilgan.

Aksariyat o’qituvchilar pedagogik integratsiya hodisasining protsessual xususiyatlariga tayanib, uni jarayon va natija, tizim, to’plam, assotsiatsiya, tarkibiy qismlar va elementlarning tashkiliy aloqasi, shakllar, usullar sifatida taqdim etadilar. Masalan, V.S. Bezrukova «pedagogik integratsiya» tushunchasining ko’p qirraliligini ta’kidlab, uni quyidagicha izohlaydi:

- tarkibiy qismlarning ajralmasligi, yangi ob’ektivlik – yagona ob’ekt, yangi tuzilma, bog‘lanishga kirishuvchi ob’yektlarning yangi funksiyalari bilan ajralib turadigan o‘zaro bog‘lanishning eng yuqori shakli (ta’lim bo‘limlari, ta’lim bosqichlari). Ushbu ta’rifda muallif o’zaro bog’lanishning eng yuqori shakli sifatida integratsiyaning o’ziga xos xususiyatlarini ta’kidlaydi.

- ta’limning bir necha bo‘limlarida amalga oshirilayotgan, o‘quvchilarni tayyorlash tizimini faollashtirishga qaratilgan maqsadlar, mazmun tamoyillari, ta’lim va tarbiya

jarayonini tashkil etish shakllari birligini ifodalashning oliy shakli;

- o‘quvchilarni tayyorlashning bir necha bo‘limlari o‘quv jarayonining turli komponentlarini o‘zaro bog‘lash asosida kengaytirilgan pedagogik birliklar yaratish.

A.A. Yataykinaning tadqiqotlarida pedagogik integratsiyaning mazmunini yanada chuqurroq o’rganish, ta’lim jarayoni elementlarining o’zaro ta’siri, o’zaro taxminlari, bir-birini to’ldirishi, o’zaro muvofiqligi, o’zaro bog’liqligi sifatida tavsiflanadi. A.A. Yataykina nuqtai nazaridan pedagogik integratsiya:

 dunyoning yaxlit manzarasini yaratishga, insonni hayotning barcha hodisalarini ularning chuqur o‘zaro bog‘liqligi va shu bilan birga, nomuvofiqlikda ko‘rishga o‘rgatish imkonini beradi;

- shaxsni tezda modellashtiradi, sog‘lom munosabatga turtki bo‘lib xizmat qiladi, o‘quvchi ongiga falsafiy shifo keltiradi;

- turli fanlar uchun umumiy bo‘lgan kognitiv, amaliy va baholash ko‘nikmalarini shakllantiradi, ular asosida to‘g‘ri baholarni shakllantiradi;

- dunyoga dialektik qarashning umumlashtirilgan bilim va ko‘nikmalari, uning hayotida insonning axloqiy qadriyatlar yo‘nalishlari uchun asos yaratuvchi axloqiy va estetik ideallar tizimi asosida shakllanadi. Integratsiya xususiyatlarini kengaytirib, uning ilmiy ob’ektlariga bilimlar, ob’ektiv hodisalar, jarayonlar, atrofdagi dunyo ob’ektlari, inson faoliyati turlari, tasvirlar, his-tuyg’ular, kasblar, shuningdek, bilim turlari, ilmiy tushunchalar tizimlari, qonunlar, nazariyalar, etakchi g’oyalar, tizimli harakatlar (fan usullari), ob’ektiv jarayonlar va hayot hodisalari modellari kiradi.

Pedagogika fanida taklif etilayotgan integratsiya jarayonining texnologik jihatlari kengroq bo‘lib, quyidagilarga ta’rif berishni o‘z ichiga oladi: integratsiyaning turlari va darajalari, uning tamoyillari, integrallashtiruvchi omil, integrativ bog‘lanishlar, integratsiyaning usullari, turlari va shakllari. Aynan ular bizning tadqiqotimizda integratsiya algoritmiga birlashtiriladi. Integratsiyaning muhim texnologik jihatlaridan biri tadqiqotchilar integral (integratsion) ulanishlar deb ataladi. Adabiyotda bu tushuncha fanichi va fanlararo aloqadorlik tushunchasi bilan birga qo`llaniladi.

Fanlararo aloqalarga oid masalalarni ishlab chiqish turli davrlarda G.I. Belenky, I.D. Zverev, D.M. Kiryushkin, P.G. Kulagin, N.A. Loshkareva, V.N. Maksimova, V.N. Maksimenko, M.N. Skatkin, V.N. Fedorova va boshqalar I.D. Ular ta’lim va tarbiyaning birligi shartini fanlararo aloqadorlikda, ta’limning fan tizimiga yaxlit yondashish vositasi deb hisobladilar. Olimlarning ta’kidlashicha, integrativ aloqalar fanlararo aloqalarga qaraganda ancha kengroqdir. N.K.Chapayev o‘z tadqiqotida fanlararo bog‘lanishlarga qaraganda integrativ bog‘lanishlar muhimroq, chuqurroq ekanligini qayd etadi. Shuni hisobga olib, biz fanlararo aloqalarni ta’limda integratsiyani amalga oshirish vositalaridan biri sifatida tushunamiz. Fanlararo aloqalarga qaraganda zamonaviyroq bo’lgan integrativ aloqalar hali etarlicha o’rganilmagan. Integratsiyaning yuqorida qayd etilgan va tahlil qilingan texnologik jihatlari pedagogik oliy o‘quv yurtida talabalarni o‘qitish jarayonida integratsiyani amalga oshirish algoritmi sifatida ifodalanishi mumkin, unga ko‘ra quyidagilar yuzaga keladi: integratsiya ob’ektlarini tanlash va asoslash —» integratsiya tamoyillarini belgilash, tanlash va o’rnatish —> integrallashtiruvchi omil —> integratsiya turi —> integral aloqalar va shakllar - turli fanlar bo’yicha o’rganiladigan kursning mavzui, bo’limlari, muammosi bo’lishi mumkin bo’lgan integral ob’ektni yaratish. , fanning turli sohalaridagi bilimlarni birlashtirgan maxsus kurs.

Shunday qilib, integratsiyaning nazariy va uslubiy asoslarini universitetda bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish vositasi sifatida ko’rib chiqib, biz xulosalar qilamiz.

Integral yondashuv pedagogik jarayonning barcha tarkibiy qismlariga integratsiyani qo’llashni, fanlararolik tamoyillaridan foydalanishga yo’naltirishni va umumiy ob’ekt,

mavzu va maqsadlarga ega bo'lgan o'quv fanlari guruhlari mazmunini tanlashning asosliligini o'z ichiga oladi. o'qitish va terminologik apparatning o'xshashligi. Integratsiya jarayonining mohiyati pedagogik jarayonning tarkibiy qismlari o'rtasida integrativ aloqalarni o'rnatish orqali bilimlarni o'zaro bog'lash, mustahkamlashda yotadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Исматова н. Б. Бўлажак ўқитувчиларни инновацион педагогик фаолиятга тайёрлаш давр талаби //scientific progress. – 2021. – т. 1. – №. 5.

2. Исматова Н. Б. Бўлажак ўқитувчиларни инновацион касбий фаолиятга тайёрлашнинг педагогик-психологик хусусиятлари //Integration of science, education and practice. scientific-METHODICAL JOURNAL. – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 50.

3. Афанасьева О.Ю. Коммуникативное образование студентов педагогических вузов на основе идеи междисциплинарности // Педагогическое образование и наука. 2006.

4. №2. С. 24–28. 2. Вишнякова Е.Г. Междисциплинарный сетевой учебно-методический комплекс как средство повышения эффективности обучения в вузе: автореф. дисс. на соиск. учен. степ. канд. пед. наук: (13.00.08). – Волгоград, 2007. С. 23.

DEMOKRATIK JAMIYATDA PEDAGOGLIK KASBI

Izbullayeva Gulchehra Valeriyevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada demokratik jamiyatda pedagoglik kasbi mazmuni mohiyati yoritilgan bo‘lib, pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi, pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari, pedagog xodimlarning majburiyatlari

Kalit so’zlar: pedagoglik kasb, pedagogik faoliyat, pedagog xodimlarning maqomi, pedagog xodimlarning majburiyatlari

ПРОФЕССИЯ ПЕДАГОГА В ДЕМОКРАТИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ

Избуллаева Гульчехра Валериевна
Доктор педагогических наук (DSc), профессор

Аннотация: В данной статье раскрыта сущность педагогической профессии в демократическом обществе, право заниматься педагогической деятельностью, статус педагогических работников и гарантии их деятельности, обязанности педагогических работников.

Ключевые слова: профессия педагога, педагогическая деятельность, статус педагогических кадров, обязанности педагогических кадров.

TEACHING PROFESSION IN A DEMOCRATIC SOCIETY

Izbullayeva Gulchehra Valerievna
doctor of pedagogical sciences (DSc), professor

Abstract: This article describes the essence of the teaching profession in a democratic society, the right to engage in pedagogical activities, the status of pedagogical workers and the guarantees of their activities, the obligations of pedagogical workers

Key words: pedagogic profession, pedagogical activity, status of pedagogic staff, responsibilities of pedagogic staff

Bugungi kun talablarini hisobga olgan holda o‘qituvchining shaxsiy sifatlari va kasbiy fazilatlarini quyidagicha belgilash mumkin:

shaxsiy sifatlar sifatida: yuksak ma’naviyatli, madaniyatli, ma’rifatparvar, insonparvar va bag‘rikeng, uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish uchun istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri qo‘ya oladigan, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha oladigan.

Kasbiy fazilatlari sifatida esa ijodkor va ijtimoiy faollik, g‘oyaviy va ma’naviy-axloqiy yetuklik, yuqori darajada ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, ilmiy-metodik tayyorgarlik orqali yuksak kasbiy madaniyatga ega bo‘lishi nazarda tutiladi.

Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunining 5-bob 44-moddasida Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi keltirilgan. Tegishli ma’lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo‘lgan va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega. Magistraturani tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega. Agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, pedagogik oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan o‘tganidan keyin ta’lim tashkilotlarida (bundan oliy ta’lim tashkilotlari mustasno) pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi beriladi. Ishlab chiqarish ta’limi ustalari qayta tayyorlash kurslaridan o‘tmasdan professional ta’lim tashkilotlarida pedagogik

faoliyat bilan shug‘ullanishga haqli. Zarurat bo‘lganda professional ta’lim tashkilotlari ishlab chiqarish ta’limi ustalarini, shuningdek, tegishli bilim hamda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, oliy ma’alumoti bo‘lmagan boshqa mutaxassislarni amaliy va qo‘shimcha mashg‘ulotlarni olib borish uchun jalb etishi mumkin.

Pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari esa Qonunining 5-bob 45-moddasida pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari keltirilgan. Pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagog xodimlar ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanadi, o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro‘sini oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, shuningdek, o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar beriladi. Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqlari, sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘si davlat himoyasi ostida bo‘ladi. Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy faoliyatiga aralashishga, ta’lim oluvchilarning bilimlarini to‘g‘ri va xolis baholashga ta’sir ko‘rsatishga, shuningdek, ushbu pedagog xodimlarning xizmat majburiyatlarini bajarishiga to‘sqinlik qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. Pedagog xodimlar quyidagi huquqlarga ega: o‘z sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini himoya qilish; o‘quv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, o‘qitish uslubiyotini ishlab chiqish, shuningdek, tegishli o‘quv fanlari, kurslari, modullaridan foydalanish, ijodiy faollik ko‘rsatish; zamonaviy pedagogik shakllarni, o‘qitish va tarbiya vositalarini, usullarini erkin tanlash hamda ulardan foydalanish; kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish; o‘quv, ilmiy va uslubiy yo‘nalishlardagi axborot-resurs markazlarining xizmatlaridan bepul foydalanish; davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablarini, malaka talablarini, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish; ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatni amalga oshirish, eksperimental faoliyatda ishtirok etish, innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish; ta’lim tashkilotini boshqarishda, shuningdek ta’lim tashkilotining faoliyati bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish; kasaba uyushmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari a’zosi bo‘lish, xodimlarining vakillari bo‘lish, fuqarolik jamiyati boshqa institutlari faoliyatida qatnashish; o‘z kasbiy huquqlarini va umumiy manfaatlarni ifoda etish hamda himoya qilish uchun pedagog xodimlarning jamoat birlashmalariga birlashish; o‘z kasbiy faoliyatiga aralashuvdan himoyalanish; davlat sog‘liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tish (davlat ta’lim muassasalari va tashkilotlari uchun); ta’lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish. Pedagog xodimlar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Pedagog xodimlarni ularning lavozim majburiyatlari bilan bog‘liq bo‘lmagan har qanday boshqa ishga jalb qilish taqiqlanadi.

Pedagog xodimlarning majburiyatlari Qonunining 5-bob 46-moddasida pedagog xodimlarning majburiyatlari haqida so‘z yuritiladi. Pedagog xodimlar: ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini hurmat qilishi; o‘quv mashg‘ulotlarini sifatli o‘tkazishi; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o‘qitish va tarbiyaning ilg‘or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi; ta’lim oluvchilarning psixologik va o‘ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan shaxslarni o‘qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e’tibor qaratishi; voyaga yetmagan ta’lim oluvchilar bilan ta’lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi; ta’lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta’sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etishi; o‘z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o‘tishi; tibbiy ko‘rikdan o‘z vaqtida o‘tishi shart. Pedagog xodimlarning zimmasida qonunchilikka, shuningdek, ta’lim oluvchi va ta’lim tashkiloti o‘rtasida tuziladigan shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin. Pedagog xodimlarga pedagogik faoliyatni amalga oshirishda axloq va

etika normalariga zid harakatlar sodir etish taqiqlanadi. Pedagog xodimlarning kiyim-boshiga doir talablar ta’lim tashkilotlari tomonidan belgilanadi.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari professor-o‘qituvchilari tarkibiga qo‘yiladigan umumiy talablar:

Bakalavriat o‘quv rejasi va o‘quv dasturini amalga oshirishda o‘qitilayotgan fan bo‘yicha tayanch ma’lumotga, bilim, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lgan malakali o‘qituvchilar (magistr yoki diplomli mutaxassislar), fan nomzodlari, falsafa doktori (PhD), dotsentlar, fan doktori (DSc), professorlar, ilmiy, pedagogik va ijodiy unvonlarga ega bo‘lgan shaxslar, shuningdek, tajribaga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassis va amaliyotchilar jalb etilishi lozim.

Magistratura o‘quv rejasi va o‘quv dasturini amalga oshirishda o‘qitilayotgan fan bo‘yicha fan nomzodlari, falsafa doktori (PhD), dotsentlar, fan doktori (DSc) va professorlar, ilmiy, pedagogik va ijodiy unvonlarga (darajalarga) ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassis va amaliyotchilar jalb etilishi lozim.

O‘qituvchi pedagog, uzluksiz ta’lim tizimi xodimi bo‘lib, o‘quvchi va talabalarni o‘qitish bilan shug‘ullanadi. Boshqa nomlari: «ustoz», «domla», «muallim». O‘qituvchi, muallim – turli yo‘nalishdagi o‘rta umumiy ta’lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollej va texnikumlarida o‘quvchilar bilan ta’lim-tarbiya ishlarini amalga oshiradigan mutaxassis. Oliy maktab o‘qituvchilari «domla» deb yuritiladi, ular «professor-o‘qituvchi» tarzida umumlashma nom bilan ham ataladi. Shuningdek, o‘qituvchilarga nisbatan «muallim» yoki «pedagog» atamasi ham qo‘llaniladi.

Shuni aytish kerakki, o‘qituvchi alohida ijtimoiy hodisa bo‘lib, jamiyat a’zolarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgani uchun ham uning shaxsiy sifatlari kasbiy fazilatlaridan muhimroq hisoblanadi. Chunki u jamiyatning buguni va ertangi qiyofasini shakllantiradi. Shuning uchun ham o‘qituvchining professional jihatdangina yetuk bo‘lishi kifoya qilmaydi. Uning ma’naviy olami o‘quvchilarga singdirilishi ko‘zda tutilgan ezgu insoniy sifatlarga to‘yingan bo‘lishi kerak. O‘qituvchilar tayyorlanadigan o‘quv yurtlarida ayni shu jihatga alohida e’tibor qaratiladi.

Hozirgi pedagogika fani o‘qituvchining amaliyotchilik, tadqiqotchilik, tashkilotchilik, vositachilik, ijrochilik singari vazifalari borligini qayd etadi. Ana shu vazifalarni to‘la uddalaydigan o‘qituvchigina bugungi yosh avlodning barkamol shaxslar sifatida shakllanishiga ta’sir ko‘rsata oladi. Istiqlol davri o‘qituvchilarida ana shunday xususiyatlarni qaror toptirish mamlakat taraqqiyotini ta’minlash omilidir.

Bugungi kunda o‘qituvchi zamonaviy metodik bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni egallashi lozim. Innovatsion ta’lim muhiti o‘qituvchilardan quyidagi bilimlarni egallash va amaliyotga qo‘llashni talab etmoqda:

- o‘qitishda innovatsion taexnologiyalarni qo‘llash yuzasidan amaliy faoliyat;
- o‘qitishning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashdagi amaliy faoliyati;
- o‘qitishda kasbiy yo‘naltirilganlikni amalga oshirishdagi faoliyati.

Ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash yuzasidan o‘qituvchining amaliy faoliyati quyidagi bosqichlar:

- innovatsion texnologiyalarning metodologik asoslarini o‘zlashtirgan holda uni pedagogik amaliyotda qo‘llash yo‘llarini belgilash;
- innovatsion texnologiyalar talablari asosida ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalash;
- o‘qitishning barcha sinf va sinfdan tashqari shakllari, mustaqil ta’limning didaktik maqsadlarini e’tiborga olgan holda innovatsion texnologiyalarni tanlash va joriy etish;
- mazkur jarayondan olingan natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish, talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalaridagi bo‘shliqlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo‘llarini belgilashdan iborat.

Kasbiy bilim ish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar hisoblanadi. Ko‘nikma esa bu vazifani hal qilish uchun harakatni bajarishga, zarur texnikalardan foydalanishga, ish muhitida harakat

qilishga tayyorlik va qobiliyatdir. Malaka bo‘lsa doimiy ko‘nikma bo‘lib, doimiy takrorlash natijasida avtomatlashtirilgan faoliyat. Kasbiy bilim kasbiy faoliyatda natijalarga erishish uchun xizmat vazifalarini sifatli bajarish uchun zarur bo‘lgan nazariy ilmiy ma’lumotlar va bilimlar, shuningdek, muayyan faoliyat sohasidagi xabardorlikdir.

«XXI asr kompetensiyalari» o‘qituvchilar, biznes rahbarlari, akademiklar va davlat idoralari tomonidan 21-asr jamiyatida va ish joylarida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar va qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi. Bu tez o‘zgarib borayotgan raqamli jamiyatda muvaffaqiyatga tayyorgarlik ko‘rish uchun talabalar uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga e’tibor qaratuvchi o‘sib borayotgan xalqaro harakatning bir qismidir. Ushbu ko‘nikmalarning aksariyati analitik fikrlash, murakkab muammolarni hal qilish va jamoada ishlash kabi ko‘nikmalarni egallashga asoslangan chuqurroq o‘rganish bilan ham bog‘liq. Bu ko‘nikmalar an’anaviy akademik ko‘nikmalardan farq qiladi, chunki ular asosan mazmunli bilimga asoslangan emas.

Shaxslarni kasbga tayyorlash ularga murakkab qobiliyatlar to‘plamini berishni o‘z ichiga oladi. Bu ko‘nikmalar ularni kelajakka tayyorlaydi va oldindan aytib bo‘lmaydigan vaziyatlarni yengishga yordam beradi. Quyida bo‘lajak lavozimga tayyorgarlik ko‘rishga yordam beradigan 12 ta 21-asr kasbiy ko‘nikmalar ro‘yxati keltirilgan:

Ijodkorlik (Creativity). Bugungi kunda ko‘plab ishlar ijodkorlikni talab qiladi. Rivojlanmoqchi bo‘lgan har qanday tashkilot yoki sanoat odatda ijodiy mutaxassislarni qidiradi. Tashkilotlar o‘zgaruvchan bozorlarga moslashishlari va boshqa narsalarni sinab ko‘rish orqali yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni yengishlari mumkin. Yangi g‘oyalarni yaratish, istiqbollarni o‘zgartirish va muammolarga noyob yechimlarni ishlab chiqish uchun ijodiy fikrlashdan foydalanish mumkin. Bu esa doimo rivojlanib borayotgan dunyoda rivojlanishga yordam beradi. Masalan, eskirgan ta’lim dasturini aniqlab olish va talablarga mos keladigan yangi texnologiyadan foydalanish yoki ishlab chiqish mumkin.

Tanqidiy fikrlash (Critical thinking). Tanqidiy fikrlash tegishli dalillar yordamida vaziyatni aniqlash va baholashga yordam beradi. Tanqidiy fikrlash qobiliyatidan foydalanib, har qanday muammoni aniqlash va hal qilish uchun ma’lumot, dalillar, tushunchalarni filtrlash, tartibga solish mumkin. Malakali mutaxassislar odatda amaliy yechimlar va oqilona mulohazalar uchun tanqidiy fikrlashlari mumkin. Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari vaziyatni obyektiv baholash, variantlarni aniqlab topish va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni prognoz qilish imkonini beradi. Tashkilotlar, odatda, kelajakdagi muammolarni yuzaga kelishidan oldin ko‘rish va rejalashtirish uchun yetarlicha faol bo‘lgan mutaxassislarni qadrlashadi.

Hamkorlik (Collaboration). Hamkorlik – bu shaxsning rolidan qat’iy nazar, kasbida yuqori lavozimni egallashga yordam beradigan yana bir muhim mahorat. Hamkorlik yaxshi tinglovchi bo‘lishni, muayyan maqsadga erishish uchun boshqalar bilan muloqot va hamkorlik («sherikchilik») qilishni o‘z ichiga oladi. Tashkilotlar o‘z sohalarida tajribali va yuqori bilimga ega bo‘lgan shaxslarni ishga olishlari mumkin. Boshqalar bilan ishlash imkoniga ega bo‘lish esa bu ularning tajribasidan foyda olish mumkinligini anglatadi. Hamkorlik ko‘nikmalari shaxsni ko‘p qirrali bo‘lishga o‘rgatadi va jamoasining umumiy ish faoliyatini yaxshilash va mahsuldorlikni oshirish uchun muhim imtiyozlar va tuzatishlar kiritadi.

Muloqot (Communication). Foydali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish shaxs ijtimoiylashuvida maqsadlar, vazifalar va talablarni aniq taqdim etishda yordam beradi. Bu shaxsning jamoada juda ishonchli ma’lumot olayotganini va muammosiz ishlashini ko‘rsatishi mumkin. Turli xil muloqot munosabatlari uchun to‘g‘ri odob-axloq qoidalarini bilish va foydalanishda malakali bo‘lish ko‘pincha juda foydali bo‘lishi mumkin.

Axborot va media savodxonligi (Information and media literacy). Axborot savodxonligi bozorni tadqiq qilishda, hisobot tayyorlashda yoki taqdimotni baholashda muhim ahamiyatga ega. Shaxsiy va professional hayotda to‘g‘ri va oqilona qarorlar qabul qilish uchun ishonchli

va haqiqatga asoslangan aniq ma’lumotlarni tan olish muhimdir. Axborot savodxonligini o‘zlashtirish axborotni qanday topish, uning aniqligini tahlil qilish va turli ssenariylarga moslashtirishni bilishni o‘z ichiga oladi. Mediasavodxonlik ko‘nikmalari sizga turli platformalardagi yangiliklar, empirik tadqiqotlar va boshqa ma’lumotlar uchun ishonchli manbalarni aniqlashda yordam beradi.

Texnologik savodxonlik (Technological literacy). 21-asrda kompyuterda ishlash qobiliyatlarining mustahkam poydevoriga ega bo‘lish juda muhim. Bugungi kunda ish maydoni onlayn taqvimlardan tortib, buxgalteriya dasturlari, loyihalarni boshqarish vositalarigacha bo‘lgan texnologiyalarga boy. Raqamli savodxonlikning asosiy ko‘nikmalariga ega bo‘lish, ishning yoki shaxsiy foydalanish uchun yangi turdagi texnologiyani tushunishni osonlashtirishi mumkin. Misol uchun, raqamli savodxonlik video qo‘ng‘iroqni tashkil qilish, hamkasblar bilan fikr almashish va samarali hamkorlik hamda muloqot qilishda yordam beradi.

Ijtimoiy ko‘nikmalar (Social skills). Ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rganish boshqalar bilan ishlashni osonlashtirishi mumkin, chunki ular mehnat faoliyatida qanday qilib professional va e’tiborli bo‘lishni ko‘rsatadi. Agar inson kuchli ijtimoiy va shaxslararo ko‘nikmalarga ega bo‘lsa, odatda, yanada muvaffaqiyatli aloqa o‘rnatishi, hamkasblar va bo‘lajak mijozlar bilan mustahkam hamkorlikni o‘rnatishi mumkin. Ushbu ko‘nikmalarni qo‘llash jamoaviy ish yoki yetakchilik kabi boshqa muhim ko‘nikmalarni yaxshilashga yordam beradi. Odob, munosabat, xushmuomalalik va hamdardlik jamiyatda muhim rol o‘ynaydi va tijoriy qarorlariga ta’sir qilishi mumkin.

Yetakchilik (Leadership). Yetakchilik qobiliyatlari tashabbus ko‘rsatish, muammolarni, nizolarni hal qilish, o‘z va jamoa a’zolarining harakatlari uchun javobgarlikni o‘rganishni o‘z ichiga olishi mumkin. Tashabbuskor, yetakchi va kuchli rahbarlar o‘z hamkasblariga ish sifatini hamda samaradorlikni oshirishda yordam berishlari mumkin, shuning uchun ko‘pchilik ish beruvchilar kuchli yetakchilik qobiliyatlarini hurmat qilishadi. Guruh loyihalari ustida ishlashda yoki yangi lavozimda birinchi marta ish boshlaganda yetakchilik qobiliyatni rivojlantirish, kelajakda yetakchilik lavozimiga tayyorlash va martabani oshirishga yordam berishi mumkin.

Moslashuvchanlik (Adaptability). Mehnat bozorida dinamik va ko‘p qirrali mutaxassislar ko‘p sabablarga ko‘ra ish beruvchilar uchun qimmatlidir. Bunday shaxslar onlayn yoki oflayn, mustaqil ravishda va jamoa sifatida yaxshi ishlashi mumkin. Ular ko‘rsatmalarni qabul qilishlari va berishlari, fikr-mulohazalarga teng darajada javob berishlari mumkin. Agar shaxs o‘zgaruvchan ish muhiti va sanoat tuzilmalariga moslasha olsa, ish uchun kerakli nomzod va umuman kuchli professional bo‘lishi mumkin. Moslashuvchanlik qobiliyati insonga yangi narsalarni o‘rganishga, qo‘shimcha mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga va tashkiliy o‘zgarishlarga moslashishga tayyor ekanligini anglatadi.

Global xabardorlik (Global awareness). Globallashuv davrida ko‘plab korxonalar butun dunyo bo‘ylab faoliyat yuritib, butun dunyodagi odamlar bilan bog‘lanish yoki chet elda ishlash imkoniyatini beradi. Turli mamlakatlar va jamoalar, madaniy me’yorlar va ularning turmush tarzini o‘rganish xalqaro jamoa a’zolarini ko‘proq qadrlash va o‘zgarishlarga moslashishga yordam beradi. Ushbu farqlarni tan olish va hurmat qilish sizga yanada samarali hamkorlik qilishga, professional tarmoqni kengaytirishga va yangi martaba istiqbollarini topishga yordam beradi.

Qaror qabul qilish (Decision making). Har bir mutaxassis o‘z tashkiloti uchun to‘g‘ri qaror qabul qila olishi muhimdir. Samarali qaror qabul qilish ko‘nikmalari muammolarga to‘g‘ri yondashishga yordam beradi va eng kam xavf bilan konstruktiv yechimlarni taklif qiladi. Qaror qabul qilish – bu masalani hal qilishda turli strategiyalar o‘rtasida qaror qabul qilishni o‘z ichiga olgan muhim iste’dod.

Muammoni hal qilish (Problem solving). Ishga qabul qilish bo‘yicha menejerlar ishdagi qiyin yoki oldindan aytib bo‘lmaydigan vaziyatlarni mohirona boshqarish qobiliyatini

tasvirlash uchun «muammoni hal qilish» qobiliyati atamasini tez-tez ishlatishi mumkin. Turli muammolarni baholay oladigan va tezkor yechimlarni taklif qila oladigan shaxslar odatda yuqori talabga ega. Bu mahorat kasbiy hayotingizning boshqa jabhalarida, masalan, tarmoqni qurish va kundalik qarorlar qabul qilishda ham foydalidir. Muammolarni samarali hal qilish, shuningdek, muayyan sohalar yoki rollarga tegishli texnik tajriba va mutaxassislikni o‘z ichiga olishi mumkin. Muammoni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish odatda, kuchli tahliliy, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini anglatadi. Ko‘pgina jahon mamlakatlarida bo‘lajak o‘qituvchi sifatida o‘quv dasturining bir qismi sifatida 21-asr ko‘nikmalarini o‘rganishlari kerak bo‘ladi.

Ushbu o‘n ikkita ko‘nikmalarning barchasini o‘rgatish zarur bo‘lsa-da, «4C» ko‘pincha eng muhimi hisoblanadi. 21-asrning «4C» ko‘nikmalari quyidagilardir: Tanqidiy fikrlash (Critical thinking); Ijodkorlik (Creativity); Hamkorlik (Collaboration); Muloqot (Communication).

Ushbu to‘rt ko‘nikma zamonaviy ta’limda bo‘lajak o‘qituvchiga ish joyida muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir.

Bilimlarni qanday ajratish, qanday axborot savodxoni bo‘lish, qanday mediasavodxon bo‘lish va axborot kommunikatsiya texnologiyalari ko‘nikmalarini qanday qo‘llashni tushunish 21-asr mahoratining maqsadidir. Bu narsalarni yaxshilash uchun «4C» deb nomlangan ko‘nikmalardan foydalanish foydalidir. Bular tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish, ijodkorlik, hamkorlik va muloqot qobiliyatlari.

Tanqidiy fikrlash (Critical thinking). Tanqidiy fikrlash boshqa fazilatlar qatorida muammolarni hal qilish amaliyotidir. Bu talabalarga, ayniqsa, haqiqatni fikrdan ajratish haqida gap ketganda, tasdiqlarda haqiqatni aniqlashga yordam beradi. Tanqidiy fikrlash bilan talabalar shunchaki bir qator dalillar yoki raqamlarni o‘rganmaydilar. Buning o‘rniga, ular o‘zlari uchun dalil va raqamlarni qanday topishni o‘rganadilar.

Ijodkorlik (Creativity). Ijodkorlik – bu «qutidan tashqarida fikrlash» amaliyotidir. Bu talabalarga katta muammoni rejalashtirishdan puxta tashkil etishgacha bo‘lgan ichki kuchli tomonlarini qamrab olishga imkon beradi. Talaba o‘z ijodini o‘rganar ekan, uni sog‘lom va samarali tarzda ifoda etishni ham o‘rganadi. Eng muhimi, ular o‘z ijodini boshqalar bilan baham ko‘rishga undaydilar.

Hamkorlik (Collaboration). Hamkorlik – bu umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda faoliyat yuritish amaliyotidir. Deyarli har bir ish, kundalik hayotdagi oddiy voqea-hodisalar kim bilandir muloqot o‘rnatib hamkorlik qilishni talab qiladi. Hamkorlikni mashq qilish talabalarga muammoni qanday hal qilishni, yechimlarni taklif qilishni va eng yaxshi harakat yo‘nalishini tanlashni tushunishga yordam beradi. Boshqa odamlar har doim ham ular kabi g‘oyalarga ega emasligini bilish ular uchun foydalidir.

Muloqot (Communication). Muloqot talabalarning o‘z qarashlari va fikrlarini boshqalarga aniq ifodalashda ma’lumot almashish qobiliyatini anglatadi. Muloqot, shuningdek, hamkorlikda yordam berish uchun kuchli tinglash va baholash qobiliyatlarini talab qiladi. U og‘zaki, yozma va multimedia xabarlarini o‘z ichiga oladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, o‘qituvchining kasbiy bilimi – pedagogik va psixologik jihatdan o‘qituvchi mehnatining mohiyati, pedagogik faoliyat va muloqot xususiyatlari, o‘qituvchining shaxsiyati, o‘quvchilarning aqliy rivojlanishi, ularning yosh xususiyatlari va boshqalar haqida ma’lumotdir. O‘qituvchi uning shaxsiy kasbiy rivojlanishi uchun kasbiy bilimlardan standartlarni tuzadi. Pedagogik mahorat – o‘qituvchining pedagogik harakatlari (ta’sirlari). Boshqa ko‘nikmalar singari, pedagogik mahorat ham yetarlicha yuqori darajada bajariladigan harakatlardir. Pedagogik mahorat o‘qituvchi faoliyatida «texnika»ni shakllantiradi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-oktabrdagi 816-son

qaroriga 4-ilova «Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi uchun o‘quv adabiyotlarini yaratishga qo‘yilgan talablar».

2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, 23.09.2020 yildagi 637-son

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qaroriga 1-ilovasi «Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida» nizom

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021 yil 19 oktabrdagi 11-son buyrug‘iga ilova. O‘zbekiston Respublikasining DAVLAT STANDARTI. Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori.

5. https://stat.edu.uz/Univer-list.php

6. https://www.blendedlearning.org/models/

ABDURAHMON JOMIY ILMIY MEROSIDAGI ENG YAXSHI FAZILATLARNING O‘ZIGA XOSLIKLARI

Karimov Jamshid To‘lqin o‘g‘li,
Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada Abdurahmon Jomiyning asarlari asosida tayyorlangan eng yaxshi fazilatlarning o‘ziga xosliklari haqida so‘z yuritildi va qisqacha ochib berishga harakat qilindi.
Kalit so‘zlar: insonparvarlik, vatanparvarlik, do‘stlik, kamtarinlik, samimiy do‘stlik.

ОСОБЕННОСТИ ЛУЧШИХ КАЧЕСТВ В НАУЧНОМ НАСЛЕДИИ АБДУРАХМАНА ДЖАМИ

Каримов Жамшид Тўлқин ўғли
Преподаватель кафедры педагогики, Бухарского государственного педагогического института

Аннотация. В статье говорилось об особенностях лучших качеств, созданных на основе произведений Абдурахмана Джами, и делалась попытка кратко раскрыть их.
Ключевые слова: гуманность, патриотизм, дружба, скромность, искренняя дружба.

FEATURES OF THE BEST QUALITIES IN THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ABDURAKHMAN JAMI

Karimov Jamshid To‘lqin o‘g‘li
Lecturer at the Department of Pedagogy of the Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract. The article talked about the features of the best qualities created on the basis of the works of Abdurakhman Jami, and an attempt was made to briefly reveal them.
Keywords: humanity, patriotism, friendship, modesty, sincere friendship.

XV asrda Xuroson va Movarounnahrda feodalizm nisbatan rivoj topgan, dehqonchilik, hunarmandchilik o‘sgan, Yunoniston, Xitoy, Rossiya hamda G‘arbiy Yevropa, Sharqning talaygina mamlakatlari bilan keng savdo-sotiq munosabatlari yo‘lga qo‘yilgan edi. Markazlashgan davlatning mavjudligi, mamlakatda bir qadar tinchlik hukm surganligi, shuningdek, Ulug‘bek va Husayn Boyqaro kabi hokimlarning fan va madaniyatga xayrixohlik bilan qaraganliklari sababli mamlakatda, ayniqsa, Hirotda ma’naviy hayotda juda katta jonlanish yuz bergan edi.

Hirotda buyuk adiblar, mashhur tarixchilar, mohir san’atkorlar, nozik qalam xattotlar yashar edilar. Mashhur ilm sohiblari Ulug‘bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, G‘iyosiddin Jamshid astronomiya fanini yangi bosqichga ko‘tardilar. Samarqanddagi Ulug‘bek observatoriyasi jahonning o‘sha vaqtgacha bo‘lgan barcha rasadxonalari ichida eng mukammali hisoblanar edi.

Bu davrda xalqning ahvoli og‘ir edi. Og‘ir soliq-to‘lov tizimi, temuriylarning o‘zaro nizolari xalq boshiga kulfat yog‘dirardi. Dehqonlarning hayoti ayniqsa fojiali edi. Ular o‘ndan ortiq soliq to‘lashga majbur etilardilar. Nihoyasi yo‘q jabr-zulmlardan, doimiy ochlik, qashshoqlikdan toqati toq bo‘lgan mehnatkash xalq bir necha bor bosh ko‘tarib chiqdi. 1441-1442 va 1469-yillardagi xalq qo‘zg‘olonlari ayovsiz bostirildi.

Lekin feodal sharoitlarining kulfat va og‘irliklariga qaramay, hamisha yaxshilikka va ijodga intiladigan xalq dahosi, inson aqli-zakosi ishladi, ajoyib, moddiy va ma’naviy boyliklar yaratdi. Bu madaniyatning ilg‘or vakillari ijodida, bir tomondan, davrning dahshatli manzaralari, ikkinchi tomondan, xalqning dod-faryodi, dil alamlari, olijanob fazilatlari, go‘zal orzulari,

ajoyib intilishlari, insonparvarlik g‘oyalar o‘z ifodasini topgan edi. Shunday ijod egalaridan biri Abdurahmon Jomiy bo‘ldi.

Jomiy 1414-yilning 7-noyabrida dunyoga keldi. U ma’lum vaqt Samarqandda yashab, tahsil oladi, lekin o‘z umrining aksar qismini Hirotda, Alisher Navoiy bilan hamkorlikda o‘tkazadi va shu yerda 1492-yilning 8-noyabrida olamdan o‘tadi.

Jomiy har narsadan oldin o‘z davrining – g‘oyat ziddiyatli davrning mevasi va farzandi edi. U, bir tomondan, hayratomiz komil san’atkor sifatida ilg‘or fikrlarni, insonparvarlik va vatanparvarlik g‘oyalarini ifodaladi, ulug‘ladi, kuyladi, ikkinchi tomondan esa, mamlakatda keng qanot yoygan hamda hokim bo‘lgan ijtimoiy fojianing azoblariga, yengilmas bo‘lib ko‘ringan zamon zo‘ravonlari razilliklarining chidab bo‘lmas tazyiqiga bardosh bera olmay, tarki dunyochilik kayfiyatlariga berilgan vaqtlari ham bo‘ldi.

Jomiy o‘z davrining eng ulkan va dono madaniyat arboblaridan biri edi. Uning ijodi va ijtimoiy faoliyati g‘oyat ko‘p qirrali va murakkabdir. U o‘ziga qadar va o‘z zamonida bo‘lgan fanning turli sohalarini chuqur egallagan va, ayniqsa, axloq, tilshunoslik, tarix, falsafa hamda musiqa ilmida ko‘p ish qilgan olim edi. Lekin u har narsadan oldin o‘zining badiiy ijodi bilan alohida e’tibor va maqtovga sazovor bo‘ldi, butun dunyoda shuhrat qozondi va o‘z nomini abadiylashtirdi. U birinchi navbatda o‘zining yuksak san’atkorlik ila yaratgan ajoyib poemalari va lirik she’rlari bilan hamon yashab kelmoqda.

Jomiy - o‘z xalqi va davri adabiyotini yana bir yuqori pog‘onaga ko‘targan ulkan shoir. U Fotihat ush-shabob» (“Yoshlikning ochilishi”), “Vositat ul-iqd” (“O‘rtalikdagi dur”), “Xotimat ul-hayot” (“Hayot xotimasi”) deb nomlangan va lirik she’rlarni o‘z ichiga olgan uch devonning muallifidir. Shu bilan birga u “Tuhfat ul-ahror”, (“Nuroniylar tuhfasi”), “Suhbat ul-arbob” (“Taqvodorlar tasbihi”), “Yusuf va Zulayxo”, “Layli va Majnun”, “Xiradnomai Iskandariy” (“Iskandar xiradnomasi”), “Silsilat uz-zahab” (“Oltin zanjirlar”) hamda “Salamon va Absol” dostonlaridan iborat “Haft avrang”ning, “Bahoriston”ning va boshqa talaygina asarlar ijodkoridir. Shoir o‘z dostonlarida g‘oyat yuksak badiiy mahorat namunasi bo‘lgan xilma-xil obrazlar tasvirini yaratdi. Uning Layli va Majnuni, Yusuf va Zulayxosi, Salamon va Absoli, Iskandar va Aflotunni jahon adabiyoti xazinasidan o‘rin olgan nodir obrazlardandir.

Jomiy asar yaratar ekan unda ajoyib insonparvar hamda vatanparvar mutafakkir sifatida buyuk va muhim ijtimoiy masalalarni hal etish bilan mashg‘ul bo‘ladi, ular yuzasidan ilg‘or fikrlarni ifodalaydi. U insonni ulug‘laydi, vatan haqida qayg‘uradi. Odamlardagi zararli xulqlarni qoralaydi, fitna va fujurni, xudbinlik va ayyorlikni, munofiqlik va aldamchilikni, tekinxo‘rlik va talonchilikni keskin tanqid ostiga oladi. Shoir bunday illatlarga o‘ralashib qolgan odamlarga halol, vijdonli, insofli, adolatli odamlarni, chin insoniy fazilatlarni, ajoyib xulq-odob normalarini qarama-qarshi qilib qo‘yadi.

Jomiy xalqning juda og‘ir va fojiali ahvoliga achinadi va uni yaxshilashni orzu qiladi. U zolim va talonchi shohlarga, yulg‘ich amaldorlar va din peshvolariga g‘azab bildirib, ularni adolatli bo‘lishga, el-yurt g‘amini yeyishga chaqiradi. U adolatlikni har narsadan yuqori qo‘yadi va adolat har bir odam uchun asosiy qonun bo‘lishligi zarurligini qayd qiladi.

Mana u nima deydi:

Nuktai xush guftaast on durbin,
Adl dorad mulkro qoim, na din.
Qufr keshe, k-o‘ ba adl oyad fareh,
Mulkro az zolimi dindor beh.

Ya’ni,

U uzoqni ko‘ruvchi odam yaxshi so‘z aytgan:
Mamlakatni din emas, adolat saqlaydi.
Adolat bilan mashhur bo‘lgan kofir
Yurt uchun dindor zolimdan [ko‘ra] yaxshiroqdir.

Jaholat hukmron bo‘lgan va mehnat ahllari xok-sor etilgan zamonda Jomiy ilm-ma’rifatni,

mehnatni ulug‘ladi, kuyladi. Har xil tilda so‘zlashuvchi yoki har xil mazhabga mansub bo‘lgan xalqlar, qabilalar o‘rtasida adovat qo‘zg‘ovchi - taraqqiyotning ashaddiy dushmanlarining ta’siri zo‘r bo‘lgan zamonda Jomiy birodarlik, tinchlik, tenglik, ahllik g‘oyalarini targ‘ib va tashviq etdi. U nifoq yaratuvchilarga javoban g‘azab bilan dedi:

Ey mug‘bachai dahr, bideh jomi mayam,
Q-omad zi nizoi sunniyu shiy qayam.
Go‘yand, ki: Jomiyo, chi mazhab dori?
Sad shukr, ki sag-sunniyu xar-shiy nayam.
Ya’ni,
Ey dahrning mug‘bachasi, bir jom may tutgil,
Sunniy va shiya nizosidan ko‘nglim behuzur bo‘ldi.
Deydilarki, ey Jomiy, mazhabing nedur?
Yuz shkurki, ot saniyu, ishak shia emasman.

Jomiy real hayot va haqiqiy muhabbatni jo‘shqin misralarda tarannum etadi. Yerdagi hayot lazzatlarini, sevgili yor visolini din va shariat peshvolari va’da qiladigan jannat “rohat”laridan ustun qo‘ydi:

Dar bihishti nas’ya xalqe basta dil, lekin ba naqd,
Har kujo didori tust, onjost, Jomīro bihisht.

Ya’ni, Xalq nasiya jannatga ko‘ngil bog‘ladi, lekin naqdi [shuki] sening visoling qayerda bo‘lsa, Jomiyning jannati o‘sha yerdir.

Yoki:

Moyemu hamin oshiqivu lazzati didor,
Zohid tu birav, dar talabi xuldi barin bosh.
Ya’ni,
Bizlar shunday oshiq va [yor] jamolidan lazzatlanuvchilarmiz.
Zohid, sen bor, jannat talabida bo‘laver.

Shoir o‘z sevgilisining husnu latofatini, raftoru nazokatini g‘oyat ravon va o‘ta maroqli tarzda tasvirlaydi:

Ba chehra surati Chini, ba g‘amza ofati dini,
Ba ishva shuri jahoni, ba xanda ofati joni.
Ya’ni,
Chiroyda Chin suratisan, g‘amzada din ofatisan,
ishvada jahon g‘avg‘osisen, tabassumda jon ofatisan.

Jomiy g‘azaliyotidagi lirik qahramon - oshiq sevgiga sodiq, mahbubasiga mehribon, raqiblariga ayovsizdir. Uning sevgilisi - ma’shuqa sernoz, istig‘nochi bo‘lib, goho iltifotsiz va ba’zan bemuruvvatdek ko‘rinadi. Lekin u ham sevgini qadrlovchi, haqiqiy ishq lazzatlarini orzu qiluvchi, vafo va sadoqat kabi go‘zal fazilatlar sohibasidir.

Shoir o‘zining hajviyalarida voizlar, zohidlar, shayxlarning, amaldor gumashtalarining yaramas xulq-atvorlarini ayovsiz tanqid qiladi. Ularning tamomi faoliyatlari zaminida firibgarlik va g‘alomuslik, qabohat va razolat, munofiqlik va shuhratparastlik kabi jirkanchliklar yotishini fosh etadi.

Jomiyda insonparvarlik, do‘stlik, kamtarinlik kabi eng yaxshi fazilatlar mujassamlangan edi. Buni Jomiy va Navoiy munosabatlarida yaqqol ko‘ramiz.

Jomiy bilan Navoiy orasidagi do‘stlik, umuman, buyuk shaxslar o‘rtasida bo‘lgan eng ibratli va eng samimiy do‘stliklardandir. Bu do‘stlik ikki xalq orasidagi asrlar mobaynida mavjud bo‘lgan ahillik va hamkorlikning ajoyib ifodasi va timsoli edi. Ko‘p qirrali xususiyatga ega bo‘lgan bu do‘stlik hamma vaqt - mamlakat taqdirini hal qiladigan eng katta masalalarda ham, murakkab ijod muammolarida ham namoyon bo‘ldi va o‘zining ajoyib samaralarini berdi. Ikki jonu bir tan bo‘lgan Jomiy va Navoiy birgalikda ijod etishdi va ijtimoiy faoliyatda

bo‘lishdi. Ular birgalikda mamlakatda keng qanot yoygan zulm va adolatsizlikni, hokimlarning o‘zboshimchalik va razilliklarini qoralashdi, yurtni obod, xalq turmushini yaxshilash haqida o‘ylashdi, zamondosh ijodkorlarga har jihatdan faol yordam berishdi, bir-birlarining asarlarini o‘qishdi va bir-birlariga qimmatli maslahatlar berishdi.

Foydalarilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Абдураҳмон Жомий. “Баҳористон”, “Янги авлод”, 2007 йил. 114-бет
2. Abdurrahman Djami. Lirika. Pojemy. Vesennij sad (Lyrics. Poems. Spring garden), Dushanbe: Adib, 1989, 624 p.
3. Alisher Navoiy. Yigirma jildlik. Birinchi jild (Twenty volumes. First volume), Tashkent: Fan, 1987, 724 p.
4. Alisher Navoi. Izbrannoe (Selected works), Tashkent, 1978, 248 p.
5. Haqqul I. Irfon va idrok (Irfan and Perception), Toshkent: Manaviyat, 1998, 160 p.

CHARACTERISTICS OF INCLUSIVE EDUCATION: THE EXAMPLE OF THE FINLAND EXPERIENCE

Makhmudova Zebiniso Maksudovna
Bukhara State Pedagogical Institute, Teacher of the department of pedagogy

Abstract. In this article, about the organization of inclusive education, the main rules and forms of organization of inclusive education in foreign countries, especially in Finland, the development of inclusive education in Finland, the importance of organizing education for children with special needs in the country. Opinions about its importance have been expressed.

Key words: inclusive, education, Finland, school, children with disabilities, rules, special education, ability, opportunity, inclusion, equality, principle.

INKLYUZIV TA'LIM XUSUSIYATLARI: FINLANDIYA TAJRIBASI MISOLIDA

Mahmudova Zebiniso Maqsudovna
Buxoro davlat pedagogika instituti, Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada inklyuziv ta'limni tashkil etish, xorijiy davlatlarning, xususan, Finlyandiya davlatida inlyuziv ta'limni tashkil etishning asosiy qoidalari va shakllari xususida, Finlyandiya inklyuziv ta'limning rivojlanishi, mamlakatda alohida ehtiyojga muhtoj bolalar uchun ta'lim olishni tashkil etishning nechog'liq ahamiyatli ekanligi borasida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: inklyuziv, ta'lim, Finlyandiya, maktab, nuqsoni bor bo'lgan bolalar, qoidalar, maxsus ta'lim, qobiliyat, imkoniyat, inklyuzivlik, tenglik, tamoyil.

ХАРАКТЕРИСТИКИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: НА ПРИМЕРЕ ОПЫТА ФИНЛЯНДИИ

Махмудова Зебинисо Максудовна
Бухарский государственный педагогический институт, Преподаватель кафедры педагогики

Аннотатция. В этой статье об организации инклюзивного образования, основных правилах и формах организации инклюзивного образования в зарубежных странах, особенно в Финляндии, развитии инклюзивного образования в Финляндии, важности организации образования для детей с особыми потребностями в стране. Высказывались мнения о его важности.

Ключевые слова: инклюзивное образование, Финляндия, школа, дети с ограниченными возможностями, правила, специальное образование, способности, возможности, инклюзия, равенство, принцип.

Today, the development of any country is evaluated by the quality of inclusive education for children with special needs and disabilities. The main goal of all the reforms carried out in our country is to build a solid foundation for the future of our country. This foundation is created as a result of raising healthy, mature and perfect individuals. Such reforms in the field of education are bearing fruit today. The scope of these legal regulations covers the education of children with special needs. The issue of education and upbringing of children with special needs is becoming one of the most urgent issues today. Special education has developed as an educational system for children with disabilities. It is built on the assumption that the needs of children with disabilities cannot be met in general education institutions. Special educational institutions operate

all over the world in the form of schools or boarding schools, as well as a small part of general education schools.

One of the effective models of the innovative educational system presented in foreign countries, in particular, Finland, shows the experience of inclusive education. According to the researchers, one of the most important values in the Finnish school system is inclusion. Educational institutions are organized according to the principle «School for all».

Ma'lumiki, Prezidentimizning 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori , 2020-yil 25-dekabrdagi O'zbekiston Yoshlari forumida hamda 2020-yil 29-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi da hamda joriy yilning 19-yanvar kuni Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati hamda vazirliklar, qator davlat va jamoat tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlashga chorlaydi. Davlatimiz rahbarining "Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni, ruhi ma'naviyatdir", degan so'zlari mohiyatidagi uyg'onish nafasi buyuk mutafakkirimiz A. Navoiy da'vatlariga mohiyatan uyg'un bo'lib, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga shijoat bilan kirishgan xalqimiz uchun tarbiya, yaxshi xulq, aql-idrok, bilim, ma'naviyat naqadar tengsiz qudrat va ruhiy manba ekanligini yana bir bor anglatdi.

Demak, yuksak ma'naviyat bilan jamiyat hayotining tanasi bo'lgan iqtisodiyot vujudiga jon, ruh kiradi, unga tiriklik, tengsiz yaratuvchi qudrat baxsh etiladi.

Negaki ma'naviyat va ma'rifat barcha zamonlarda tengsiz qudrat, baxt-saodat, tinchlik, bunyodkorlik, hamjihatlik mezoni, ruhiy poklanish va qalbni yuksaltiruvchi ne'mat bo'lib kelgan. Chunki u millatni, xalqni, demakki, insonlarni yuksak fazilatlar, kamolotga yo'llovchi axloqiy mezonlar asosida yashashga, xudbinlik, g'aflat asiriga aylanmay hamisha yaxshilik yo'lida bedor bo'lishga, bu olamni obod qilishga, go'zallikka burkashga chorlagan.

Endilikda, "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi qarorda ta’kidlanganidek, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni jaholat soyasidan asrash, tinimsiz chiranib yotgan ma’naviy tahdidlardan himoya qilish uchun tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlarini yangi talablar asosida yo‘lga qo‘yish, bu yo‘nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligini mustahkamlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko‘taradi.

Mavjud muammolarni hal etish yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish ko‘lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida Vatanimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha yagona tizim yaratish, yoshlarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishni talab etadi.

Bu borada nafaqat respublikamiz, balki jahon ta’lim tizimida yoshlarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mexanizmi, yoshlarning axloqiy sifatlarini rivojlantirishning amaliy pedagogik tizimi, o‘qitish modellari texnologik taraqqiyot g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirilgan interfaol dasturlar ta’lim jarayoniga tatbiq etilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “XXI asrning Oliy ta’limi” Butunjahon deklaratsiyasi, UNESCOning “Oliy ta’limni isloh qilish va rivojlantirish” dasturiy hujjatlarida dunyo miqyosida ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga, modulli ta’limni tashkil etishga, o‘qitishning zamonaviy usullarini joriy etish orqali talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasini yanada takomillashtirishga alohida e’tibor berilgan.

Jahon oliy ta’lim tizimida yoshlarni kasbiy ijtimoiylashtirish, ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish, ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini tarbiyalash metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Germaniya, AQSH, Rossiya, Fransiya, Xitoy, Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda talaba-yoshlarning tafakkurini o‘stirish, qobiliyatlarini erta aniqlash, ma’naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlari samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirishda modulli o‘qitish, “blended learning” (aralash o‘qitish), mahorat darslari, vebinarlar tashkil etilib kelinmoqda.

Tadqiqot metodi. Respublikamizda ko‘pgina olimlar tomonidan ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonining turli jihatlari o‘rganilgan hamda ushbu tadqiqotlar natijalarini ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llash imkoniyatlari tavsiya etilgan. Bu tadqiqotlarning ba’zilari keng qamrovli bo‘lgan ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonining ma’lum bir qirrasini tahlil etishga qaratilgan bo‘lsa, boshqalari ta’lim-tarbiya jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mazmunini boyitishga va turli o‘quv kurslarida yangi usullarini qo‘llashga yo‘naltirilgan, ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirish masalalari joriy etilgan.

Talabalarning ma’naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishda o‘tmish axloqiy merosini, ayniqsa buyuk mutafakkirlarning fikrlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki ularning ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya sohasidagi fikrlari, axloqiy qarashlari bugungi taraqqiyot uchun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Ularning hayot yo‘li, axloq haqidagi fikrlari har bir o‘quvchini axloqiy madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Sharq allomalarining axloqiy qarashlari talabalar qalbida insoniylikni shakllanishiga yordam beradi.

Butun dunyoda, jamiyatda axloqiy tarbiyaning ahamiyati ortib bora-yotganini, lekin shu bilan birga ommaviy axborot vositalari, keng jamoatchilik, turli soha mutaxassislari hayotning turli sohalarida axloqiy normalarni pasayishi kuzatilayotganligi haqida fikr bildirilayotganini kuzatishimiz mumkin. Nima uchun aynan yoshlar, bolalar orasida axloqiy normalarni buzilish holatlari kuzatilmoqda? Ushbu savolning javobi axloqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi.

Axloqning vujudga kelishi va mohiyati, odamlarni axloqiy ongi va xulqi to‘g‘risidagi muammolarni etika fani o‘rganadi. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, ijtimoiy munosabatlar va shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan, rioya qilinishi zarur bo‘lgan tartib, odob, o‘zaro munosabat, muloqot, xulq-atvor qoidalari, mezonlarining majmui sanaladi. Axloq tarixiy, o‘zgaruvchan xarakterga ega bo‘lib, axloqiy qoidalar odamlar hayotining ijtimoiy sharoitlarida aniqlanadi va jamiyatning turli

qatlamlarida turlicha bo‘ladi. Axloqiy me’yor jamiyat tomonidan tan olingan bo‘lib, uning a’zolari tomonidan bajarilishi majburiy-ixtiyoriy bo‘lgan qoida hisoblanadi.

Axloqiy odat – axloqiy xatti-harakatlarning mukammallashtirishga bo‘lgan ehtiyoj bo‘lib, u o‘quvchilarda qulay vaziyatlarda ijobiy mazmunga ega xatti-harakatlarning izchil, doimiy, tizimli takrorlanishi hisobiga hosil bo‘ladi.

Axloqiy ong – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari, milliy istiqlol g‘oyasining o‘quvchilar ongida aks etishi.

Axloqiy xulq motivlari va nazorat joyiga ko‘ra, axloqiy rivojlanish darajasi amerika olimi Ya.Kolbergning ta’kidlashicha, uchta guruhga bo‘linadi.

1. Axloqgacha (bola axloq talablarini jazodan, ya’ni tashqi nazoratdan qo‘rqib bajaradi).
2. Konventional (axloq talablariga yaxshi yashash uchun amal qiladi).
3. Avtonom (hayot qoidasiga aylanib bo‘lgan, o‘z ixtiyori bo‘yicha amal qiladi).

Axloqiy tarbiya bu tarbiyalanuvchilarda axloqiy bilimlar, axloqiy his- tuyg‘u, axloqiy xulqni shakllantirish bilan bog‘liq pedagogik faoliyatdir. Axloqiy tarbiyaning ijtimoiy aspekti bu jamiyatda qabul qilingan axloq me’yorlari va prinsiplaridir.

Axloqiy tarbiya talabalar ongi, hayoti, turmush tarziga muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan tartib, odob, o‘zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarni singdirish jarayoni.

Axloqiy tarbiyani maqsadi talabalarni ijtimoiy-axloqiy me’yorlar mazmunidan xabardor etish, ularga axloqiy me’yorlarning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, ularda ijtimoiy-axloqiy me’yorlarga nisbatan hurmat hissini qaror toptirish asosida axloqiy ong va madaniyatni shakllantirish hisoblanadi.

Axloqiy tarbiyani vazifalari:

1. Talabalarni odob-axloq qoidalari va ijtimoiy axloq me’yorlari bilan tanishtirish.
2. Talabalarda ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirish.
3. Talabalarning ma’naviy-axloqiy his-tuyg‘ularini tarbiyalash va rivojlantirish.
4. Talabalarda ma’naviy-axloqiy sifat (ota-onani, kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzat ko‘rsatish, mehnatsevarlik, bilim olishga intilish, kamtarlik, halollik, rostgo‘ylik, olijanoblik, muruvvatlilik, rahmdillik, moddiy va ma’naviy ne’matlarni asrash, kelajakka ishonch bilan qarash va h.o.)larni tarbiyalash.
5. Talabalarda axloqiy xulq-atvor ko‘nikma, malaka va odatlarini tarkib toptirish.

Hozirda zamonaviy dunyo insoniylik prinsiplariga asoslangan, axloq normalariga va insoniylik axloqiga tayangan qadriyatlarga muhtojlik sezmoqda. Ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

Insoniylik insonni axloqiy fazilati hisoblanib, insonni insonga hurmatini, insonni oliy qadriyat sifatida qarashni, uni tushunishni, unga yordam berishni ifodalaydi.

Insonga, uning qarashlari, qadriyatlariga ishonish, ushbu ideallarga xizmat qilish.

O‘z mas’uliyatini bajarishda erkinlik, maqsadga erishishni bilish, o‘z o‘ziga talabchan bo‘lish va jamiyat talablarini bajarish hamda intizomli bo‘lish.

O‘z xatti-harakati uchun javob berish, o‘z xatolarini tan olish va tuzatish.

Yer yuzidagi barcha jonzotlarga, tabiatga nisbatan hurmatda bo‘lish.

Halollik, adolatlilik, prinsipiallik, o‘ziga va boshqalarga nisbatan talabchan hamda sabrli bo‘la olish. Yuqoridagilar O‘zbekiston xalqini axloq kodeksi emas, balki oiladagi, maktabdagi,oliy ta’limdagi, jamiyatdagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etish uchun asos bo‘la oladigan axloqiy normalardir. Axloqiy tarbiyani tashkil etishning asosiy shakli bu oliy ta’limda pedagogika, psixologiya, falsafa, sotsiologiya,yunagogika, pedagogika nazariyasi va tarixi,oila pedagogikasi kabi fanlaridir. Bundan tashqari, auditoriyadan tashqari axloqiy mavzularda tashkil etilgan tadbirlar, uchrashuvlar ham o‘quvchilarda axloqiy sifat va fazilatlarni shakllantirilishida muhim o‘rin tutadi. Shaxsning tabiiy va ijtimoiy borliqqa, o‘ziga hamda

atrofdagilarga ijobiy munosabatini, shaxslararo munosabatda axloqiy me’yorlarga qat’iy amal qilishini ifodalovchi sifatlar ma’naviy-axloqiy sifatlar deb yuritiladi.

Shaxsning axloqiy sifatlariga xushmuomalalik, axloqlilik, mehnatsevarlik, kamtarlik, mehribonlik. rahmdillik, saxovatlilik, oqko‘ngillilik, bag‘rikenglik, vatanparvarlik, baynalmilallik, sabrlilik, bilimlilik, e’tiqodlilik, adolatparvarlik, haqiqatgo‘ylik, o‘zgalarni tushuna olish, muhtojlarga yordam ko‘rastish kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzat ko‘rsatish, intizomlilik v.b. Maktabda, oliy ta’limda, oilada axloqiy tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgandagina shaxsga xos quyidagi salbiy axloqsizlik, odobsizlik, manmanlik, kibrlilik, dangasalik, maqtanchoqlik, ko‘ngli qoralik, xasislik, vatanfurushlik, sabrsizlik, bilimsizlik, e’tiqodsizlik, adolatsizlik, yolg‘onchilik, qahri qattiqlik, berahmlik, kattalarni hurmat qilmaslik, kichiklarga izzat ko‘rsatmaslik, intizomsizlik kabi axloqiy sifatlarni shakllanishining oldini olinishiga erishiladi. Axloqiy tarbiya umuminsoniy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanaladi. Axloqiy tarbiya talabalar ongi, hayoti, turmush tarziga muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan tartib, odob, o‘zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarni singdirish jarayoni. Ushbu tarbiya asosini ijtimoiy axloqiy me’yorlar hamda shaxsni ulardan xabardor etish tashkil qiladi. Axloqiy me’yor jamiyat tomonidan tan olingan bo‘lib, unda yashovchi kishilar tomonidan bajarilishi majburiy-ixtiyoriy bo‘lgan qoida hisoblanadi

Axloq axloqiy tarbiyaning asosiy kategoriyasi sanaladi. Axloq (lot. «moralis» – xulq-atvor) ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, ijtimoiy munosabatlar va shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan, rioya qilinishi zarur bo‘lgan tartib, odob, o‘zaro munosabat, muloqot, xulq-atvor qoidalari, mezonlarining majmui sifatida aks etadi.

Oliy ta‘limda ma‘naviy-axloqiy tarbiyadagi funksiyalarini amalga oshirish muammosi talabalarni zamonaviy voqelikka o‘z vaqtida moslashtirish, bizningcha, har bir ta‘lim muassasasining muvaffaqiyatli rivojlanishining garovidir. Oliy ta‘limda ma‘lumot olish – talaba shaxsini rivojlantirish, ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari va elementlarining o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro bog‘liqligining o‘sishida ifodalangan uzluksiz ta’lim tizimining samaradorligini oshirishning mavjud tendentsiyalari ma’naviy-axloqiy muammolarga yangicha qarashni talab qiladi. Talabaning ma‘naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish jarayoniga alohida e‘tibor qaratilayotgani universitet ta‘lim sifatiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Hatto Aristotel, I. Kant, N.A. Berdyaev asarlarida insonning axloqiy va ma’naviy qadriyatlari muammosi ko‘tarildi. Mashhur olimlar V.A. Slastenina, O.S. Bogdanova, N.I. Boldireva axloqni rivojlantirish muammosini tahlil qilishni o‘rganib chiqdi. Bu borada o‘zimizda ham qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Masalan, O.Musurmonova, M.Ochilov, Sh.Olimov, S.Annamuratova, S.Fayzulina, O.Musurmonova, M.Quronov, N.X.Oripova, Z.Q.Ismoilova, N.A.Muslimov, N.M.Ochilov, Y.P.Azarov, Z.E.Azimovalarning ilmiy ishlarida oliy ta‘lim tizimida ma‘naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish hamda bo‗lajak mutaxassislarning ma‘naviy-kasbiy tayyorgarligi muammosi tahlil qilingan.

Zamonaviy tadqiqotlarda Qur’oni karim va Hadisi shariflardagi axloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar asrlar davomida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an’ana va qadriyatlar mazmunida o‘z ifodasiga ega bo‘lgan. Sharq mutafakkirlari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg‘oniy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Nahshband, Amir Temur, Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek, Abdurahmon Jomiy, Sa’diy Sheroziy, Alisher Navoiy Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning axloq haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o‘z ifodasini topgan.

Amir Temur – yaxshi xulqlar egasi bo‘lgan. U oqil va tadbirli hukmdor sifatida kishilarni turli lavozimlarga tayinlash va vazifasidan ozod etishda ham shoshma-shosharlik va adolatsizlikka yo‘l qo‘ymagan, balki yetti o‘lchab, bir kesgan.

Imom Ismoil al-Buxoriy «Axloqning yaxshi bo‘lishi, taomning pokizaligi, rostlik va

omonatga xiyonat qilmaslik – mana shu to‘rt xislatni Alloh taolo senga bergan bo‘lsa, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo‘lsang ham, zarari yo‘qdir», degan edi.

Demak, axloqiy tarbiya barkamol inson tarbiyasida yetakchi bo‘g‘in, insoniy sifatlarni yaratuvchi, shakllantiruvchi, mukammalikka erishtiruvchi vosita hisoblanadi. Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, axloqiy tarbiya insonlarni yaxshilik-ka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir omildir. Yaxshi xulqlarning yax-shiligi, yomon xulqlarning yomonligini dadil va misollar bilan bayon qiladurg‘on kitobdir. Axloq kishining xulq-atvori, e’tiqod-imoni, yurish-turishi, fikr-mulohazalari, mushohada va muloqotida namoyon bo‘ladi. Axloqli inson o‘zini qattiq hurmat qiladi, intizomli bo‘ladi. Suhbatdoshning ko‘ngliga qarab gapiradi, kishi dilini og‘ritmaydi, muloqot odobiga rioya qiladi.

Tadqiqot muhokama va natijasi. Tahlillar asosida yoshlarning ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligi asosida ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishda ma’naviy-axloqiy bilimlar, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy fazilatlar, ma’naviy faoliyat kabi komponentlarni o‘z ichiga olishi aniqlandi.

Ma‘naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibi sifatida ma‘naviy-axloqiy bilimlarning shakllanishi natijasida talaba-yoshlarda baxt, vijdon, burch, adolat, or-nomus, muhabbat, ezgulik, shon-sharaf, e‘tiqod, sadoqat kabi bir qancha axloqiy kategoriyalar shakllanadi. Ma‘naviy-axloqiy bilimlarni o‘zlashtirgan talaba-yoshlarda tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, kamtarlik, fidoyilik kabi fazilatlar qaror topa boshlaydi. Ushbu fazilatlarga ega yoshlar axloqiy me‘yorlar talablarini ongli bajaradi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar sanalmish ma‘naviy meros, urf-odat va an‘analarga nisbatan hurmatda bo‘ladi. (1-rasmga qarang).



1-rasm. Ma‘‘naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibi.


Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibi sifatida ma’naviy-axloqiy bilimlarning shakllanishi natijasida talaba-yoshlarda baxt, vijdon, burch, adolat, or-nomus, muhabbat, ezgulik, shon-sharaf, e’tiqod, sadoqat kabi bir qancha axloqiy kategoriyalar shakllanadi. Ma’naviy-axloqiy bilimlarni o‘zlashtirgan talaba-yoshlarda tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, kamtarlik, fidoyilik kabi fazilatlar qaror topa boshlaydi. Ushbu fazilatlarga ega yoshlar axloqiy me’yorlar talablarini ongli bajaradi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar sanalmish ma’naviy meros, urf-odat va an’analarga nisbatan hurmatda bo‘ladi. Ammo ma’naviy-axloqiy me’yorlar haqida bilimga ega bo‘lish, uni tushunish, ezgu fazilatlarni

tarkib toptirish hali yoshlarning ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanganini anglatmaydi. Insoniylik fazilatlari qachonki hayotiy tajribalarda aks etib, shaxsning munosabatlarga kirishish faoliyatida yorqin namoyon bo‘lsa, bu uning tarbiyalanganlik darajasini belgilaydi.

Jamiyat taraqqiyoti uchun, avvalo, ma’naviy-axloqiy kompetentli, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash, shuningdek, asosiy e’tiborni yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini oshirish masalasiga qaratish zarur.

Ma’naviy-axloqiy kompetentsiyalar deganda shaxsning ma’naviy va axloqiy rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan qobiliyat va fazilatlar tushuniladi. Bu kompetensiyalar insonning axloqiy xulq-atvori, shaxsiy o‘sishi va o‘zidan kattaroq narsa bilan bog‘lanishiga hissa qo‘shadigan bir qator ko‘nikmalar, munosabatlar va qadriyatlarni o‘z ichiga oladi.

Talabalarda ma’naviy-axloqiy kompetensiyalar (fazilatlar)ni rivojlantirish oliy ta’lim oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Talabalarning ma’naviy-axloqiy kompetensiyalariga Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlikni kabi kompetensiyalarni kiritish mumkin (2-rasmga qarang).



2-rasm. Talabalarning ma’naviy-axloqiy kompetensiyalari.

Talabalarda ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali: asosiy faoliyat turlari jarayonida o‘zini-o‘zi anglashga o‘rgatish, muloqot, kuzatish va taqlid orqali atrofdagilarning ma’naviy-axloqiy tajribasini o‘zlashtirish, o‘zining va boshqalarning xulqiga baho berishga o‘rgatish, ma’naviy-axloqiy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish, kundalik turmushda xavfsizlik qoidalarini o‘rgatish, turli kasb egalariga xos shaxsiy fazilatlar to‘g‘risida tushunchalar berish, o‘zaro munosabatlar, oiladagi munosabatlar, yaqin kishilarga g‘amxo‘rlik qilish ehtiyojining paydo bo‘lishi orqali xarakter sifatlarini shakllantirib borish, talabalar tarbiyasida milliy tarbiya usullari va zamonaviy pedagoglarning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rgatish kabi masalar bugungi kunda e’tibordan chetda qolyapti desak adashmagan bo‘lamiz.

Talabalarda ma’naviy-axloqiy komptentlikni shakllantishida dastlabki qadami talabalarga vatanimizning milliy boyliklariga, meroslariga ehtiyotkorona mnosabatda bo’lish, ularni avaylab-asrash, tariximizdan faxr va iftixor tuyg’ularini rivojlantirib, xalqimizning milliy

urf-odat va an’analariga sodiqlik ruhida tarbiyash lozim. Ma’naviy-axloqiy meyorlar asosida talabalarda nunosabatga kirishish madaniyatini, jamoa orasida, jamiyat insonlari bilan to’g’ri munosabatni o’rnata olishga erishish lozim. Ma’naviy-axloqiy tarbiyanini talabalar mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetishlari ularning ijtimoiy hayotda o’zlarini qanday tartibda tutganliklari bilan baholanadi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda talaba yoshlarning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish tuzilishi turlicha tavsiflangan bo’lib, umumiy jihatdan o’quv-tarbiya jarayoni (maxsus kurslarni o’qish, o’qituvchilarning o’z fanlari bo’yicha ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish, ma’ruza va seminarlar, ijodiy uchrashuvlar) va auditoriyadan tashqari ishlar (o‘qituvchilar uchun odob-axloq masalalari bo‘yicha metodik seminarlar o‘tkazish, qiziqishga doir klublar, jamoat tashkilotlari, kutubxona ishi, o‘quv guruhlarini tashkil etish) kabi elementlarni o’z ichiga oladi.

Auditoriyadan tashqari ishlar tizimi maqsadli, individual-guruhiy, muntazam-vaqtinchalik va faoliyat komponentlaridan iborat. Maqsadli komponent ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlari jarayonida amalga oshiriladigan bunday ishlarning maqsadini, auditoriyadan tashqari ishlar tizimida o’ziga xos o’ringa ega bo’lgan va keyingi o’quv-tarbiyaviy mashg’ulotlarida davom etadigan har bir mashg’ulotning maqsad va vazifalarini o’z ichiga oladi. Individual-guruhiy komponenti o’qituvchilar va talabalar, ta’lim va tarbiyaning boshqa ishtirokchilarining hamkorligi va hamjihatligini ifodalaydi. Muntazam-vaqtinchalik komponentiga predmet-moddiy muhit, ta’lim muhiti, ta’lim muassasasi xodimlarining shahar va viloyat madaniyat muassasalari va ijodiy jamoalari bilan aloqalari va munosabatlari kiradi. Faoliyat komponenti tizimni tashkil etuvchi faoliyat turini, qo’shma faoliyat va aloqalarni tashkil etish shakllari va usullarini o’z ichiga oladi.

Auditoriyadan tashqari ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlari tizimi samarali amalga oshirish uchun quyidagi talablarga rioya etish talab etiladi:

• ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonining maqsad va vazifalari, tarbiyaviy ishlarning majmui, muaynyan tarbiya masalasi jamoaviy rejalashtirishga muvofiq belgilanadi;

• ma’muriyat, tyutor va guruh rahbarlari, talabalar, fan to‘garaklari va yoshlar ittifoqi rahbarlari, amaliyot rahbarlari va auditoriyadan tashqari tarbiyaviy mashg‘ulotlarda qatnashuvchi boshqa shaxslarning sa’y-harakatlari yagona maqsadga bo‘ysundirish;

• talabalar va o‘qituvchilarning o‘amkorligdagi ijodkorligi, pedagogik jarayon sub’ektlarining yuksak axloqiy fazilatlarini namoyon etishi uchun sharoitlar yaratilganligi;

• auditoriyadan tashqari ishlar tizimi badiiy, munozara va reflektiv vaziyatlarning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalangan holda hissiy rag’batlantirishni qamrab olganligi.

Talabalarda ma’naviy-axloqiy tarbiya fazilatlarini quyidagi prinsiplar asosida rivojlantirish mumkin.

• insonparvarlik prinsipi (shaxsning huquq va erkinliklarini hisobga olish, vijdon erkinligi, mustahkam qadriyatlarga tayanish);

• dunyoviylik prinsipi;

• ilmiylik prinsipi (shaxs rivojlanishining psixologik asoslariga tayanish);

• falsafiy pozitivizm (isbotlilik) prinsipi;

• uzluksizlik prinsipi;

• kompetentlik;

• ochiqlik prinsipi.

Insonparvarlik prinsipi, insonlarga hurmat ko‘rsatish, ularning huquqlarini qo‘llab-quvvatlash va ularning xayotini yaxshilashga asoslangan qadriyatdir. Bu prinsip, barcha insonlarni teng huquqlar va imtiyozlarga ega bo‘lishiga, farqliliklarni qabul qilishga, adolatsizlik va zulmga qarshi kurashishga, o‘zga xususiyatlarni qabul qilishga va o‘zga qarashga erishishga asoslanadi. Insonparvarlik prinsipi, insonlarning jinsiy, etnik, milliy,

dini, ma’naviy, ijtimoiy yoki boshqa turdagi farqliliklari bo‘lsa ham, ularning huquqlarini va erkinliklarini himoya qilishga, ularning qadr-qimmatini tushunishga va ularning xayotini yaxshilashga erishishga intiladi. Bu prinsip, adolatsizlik, diskriminatsiya, zulm, yomon ko‘rish va boshqa insonparvarlikga zid bo‘lgan har qanday amallarga qarshi kurashishni talab qiladi.

Yoshlarda ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish o‘ziga xos bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.Talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda, eng avvalo, millatimiz tarixi va ma’naviyati ildizlariga e’tibor qaratish taqozo etiladi. Vatanimizda azal-azaldan inson ma’naviy kamoloti, axloqiy fazilatlar tarbiyasi ajdodlarimiz diqqat markazida bo‘lib kelganini yoshlarning tafakkuriga singdirishga erishish zarur.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning individual shakliga barcha darsdan tashqari mashg’ulotlar, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi muloqot kiradi. Ishning individual shakllariga quyidagilar kiradi: suhbat, maslahatlashuv, fikr almashish, qo‘shma topshiriqni bajarish, muayyan ishda individual yordam ko‘rsatish, muammo yoki topshiriqning echimini birgalikda izlash. Talabani o‘ziga jalb qilish, uni ochiq-oydin bo‘lishga undash, ishonchni qozonish, o‘qituvchi bilan o‘z fikrlari va shubhalarini baham ko‘rish istagini uyg‘otish muhimdir. Yurakdan suhbat talaba uchun bir nechta jamoaviy faoliyatdan ko‘ra foydaliroq bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, yuqorida ko’rsatilgan yondashuvlar, tamoyillar va mezonlarga tayanib, oliy ta’lim talabalarida ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli ishlab chiqishga erishildi.

Xulosa. Jamiyat taraqqiyotida, ayniqsa, bugungi XXI asr-texnika taraqqiyoti davrida tarbiyaning o‘rni beqiyos. Yoshlarni to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalash, ularni bilim olishga, mehnat qilishga undash va uning xulq-atvorini bosqichma-bosqich malakaga aylantirish va asosiy kompetensiyalarni shakllantirish zarur. Zamanovaiy axborot asri rivojlanib borayotgan bir davrda ta‘lim tizimda yoshlarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda kompetension yondashuvchi, erkin fikrlovchi, milliy qadriyatlarni e‘zozlovchi shaxsni tarbiyalash imkonini beradi.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni ma’naviy-axloqiy kompetensiyarini rivojlantirishning asosiy ko‘rsatkichlari bilim, bilish qiziqishlari, axloqiy-irodaviy intilishlari va axloqiy harakatlarining yetukligi, ma’naviy madaniyatga qiziqish, uning ma’naviy-axloqiy tarbiyadagi rolini anglash, axloqiy qadriyatlarni anglash hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichlar asosida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning darajalari belgilandi.

Talabalarda ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning mavjud holatni o‘rganish natijalari bu sohada amalga oshirilayotgan pedagogik chora-tadbirlar yetarli emasligini ko‘rsatdi.

Talabalarda ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda Sharq mutafakkirlarining yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga qaratilgan pedagogik merosni talabalarga o‘rgatishning samarali shakllari va metodlari yaxlit pedagogik tizim sifatida ishlab chiqish lozimligi belgilandi.

Talabalarda ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning qator tamoyillari, jumladan, uzluksizlik, demokratiklik, altruizm, bag‘rikenglik, hamkorlik va individuallashtirish tamoyillari ishlab chiqilib, ularga asoslangan holda ma’naviy-ma’rifiy ishlar amalga oshirildi.

Talabalarda ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga doir shaxsga yo‘naltirilgan, kommunikativ, faoliyatga yo‘naltirilgan va aksiologik yondashuvlar mavjud bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonida mazkur yondashuvlarni hisobga olish muhimligi aniqlandi.

Talabalarda ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan shakl, metod va vositalari ishlab chiqilib, ular auditoriya mashg‘ulotlari hamda auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Talabalarda ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda psixoterapevtik yondashuvga asoslangan art¬terapiya, hayotiy muammolarni hal etishning maxsus tashkillashtirilgan psixodrama (sotsiodrama), shaxsiy rivojlanish, muloqot treninglari alohida ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

Talabalarda ijodiy fikrlashga o‘rgatish, yangi yechimlarni topish va muammolarni hal

qilishda kreativlik, ehtiyotkorlik va ishonchni o‘rgatish, o‘zlarining so‘zlari va harakatlari bilan boshqalarga zarar yetkazmaslik va vaqtni boshqarishni o‘rgatish ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berishiga e’tibor qaratish.

Talabalarda ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda motivlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, ularda yuksak ma’naviy fazilatlarni egallashga bo‘lgan ijobiy motivlarni shakllantirish, ijodiy muhitni yaratish, hamkorlikka asoslanib, m a ’ n a v i y - axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda tizimli va refleksiv yondashuv imkoniyatlarini hisobga olish orqali natijaviylikka erishish. Talabalarda ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning sifati va samaradorligini baholashning ob’ektiv mexanizmini joriy etishdan iborat. Ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimida axloqiy his-tuyg‘ular talabalar tomonidan

Demak, axloqiy tarbiya barkamol insonni tarbiyalashda yetakchi bo‘g‘in, insoniy sifatlarni yaratuvchi, shakllantiruvchi, mukamallikka erishuvchi vosita hisoblanadi. Axloqiy tarbiya asosini ijtimoiy axloqiy meyorlar hamda shaxsni ulardan xabardor etishni tashkil qiladi. Axloqiy meyorlar jamiyat tomonidan tan olingan bo‘lib, unda yashovchi kishilar tomonidan bajarilishi majburiy-ixtiyoriy bo‘lgan qoida hisoblanadi. Axloq kishilarning xulq-atvori, e’tiqod-iymoni, yurish-turishi, fikr-mulohazalari, mushohada va muloqotida namoyon bo‘ladi. Axloqli inson ma’naviyatli, o‘zini va o‘zgalarni hurmat qiladi, intizomli bo‘ladi. Suhbatdoshining ko‘ngliga qarab gapiradi, kishi dilini og‘ritmaydi, muloqot odobiga rioya qiladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonida talabalar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash, uni asrab-avaylash masalasini kun tartibiga qo‘yish zaruratining yuzaga kelishi, ma’naviy-axloqiy his-tuyg‘ularini tarbiyalash, ularda xulq-atvor ko‘nikma va odatlarini tarkib toptirish, manaviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchi ekanligi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me’yorlarga rioya qilishi, talabalar tomonidan ma’naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a’zolariga bo‘lgan hurmat-e’tiborini namoyon etuvchi mezonlardan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir.- Toshkent: O‘zbekiston. 2018. 2-tom,–B. 491.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF–158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi Farmoni (https://lex.uz/pdfs/6600413)

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907 qarori.

4. Рахмонова Г. Ш. и др. ЗАДАЧА ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ ЛИЧНОСТИ И ЕЕ СОЗРЕВАНИЯ //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 162-162.

5. Рахмонова Г. Ш. РОЛЬ, СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В СОЗРЕВАНИИ ЧЕЛОВЕКА //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 121-124.

6. Shavkatovna R. G., Nawaz S. Spiritual and Moral Education of Schoolchildren // EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 78-82.

7. Kuldoshev R. et al. Mathematical statistical analysis of attainment levels of primary left handed students based on pearson’s conformity criteria //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 371. – С. 05069.

8. Shavkatovna R. G. Technologies for the Development of Spiritual and Moral Competencies in Students //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – Т. 25. – №. 4. – С. 14205-14210.

9. Рахмонова Г. Ш. Содержание развития духовно-нравственных компетенций у сту-

дентов //Проблемы педагогики. – 2022. – №. 1 (59). – С. 14-16.

10. Raxmonova G.Sh.Thechnologies for the Development of Spiritual and Moral Competencies in Students // Annals of R.S.C.B.,ISSN:1583-6258,Vol.25, Pages 14205-14210. Received 05.March 2021; Accepted 01 April 2021.

11. Raxmonova G.Sh. Talabalarda ma’naviy- axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish usullari // “Pedagogik mahorat” Buxoro, 2020- №5.-90-92.(13.00.00;№23)

12. Raxmonova G.Sh.Shaxs kamolotida bo‘lajak o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy va pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish. –Toshkent: Uzluksiz ta’lim. Ilmiy-uslubiy jurnal. Maxsus son 2020й. 50-54betlar. (13.00.00 №9).

13. Rakhmonova G.Sh. Improving Technologies To Develop Spiritual And Moral Competencies in Future Teachers // The American journal of management and economics innovations.2020.(ISSN-2693-0811) Impact Factor. -P.1-5

14. Рахмонова Г.Ш. Значение духовно-нравственного воспитания в воспитании учащихся и методы его развития // Academic research in educational sciences. 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00400

TALABALARDA AFORIZMLARNI TARJIMA QILISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLAR

Nosirov Qudrat Polvonnazarovich,
Toshkent Gumanitar fanlar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada talabalarga matnni tarjima qilish orqali tushunish bilan bog‘liq lingvistik muammolar, badiiy matnlarni o‘zbek tiliga o‘girish bilan bog‘liq masalalar, xususan, matn tarkibidagi ibora, maqol va aforizmalarni ingliz tilidan ona tiliga o‘girish muammolari va yechimlari bo‘yicha fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: matn, tushunish, tarjima, maqol, aforizm, ibora, muammolar, yechimlar, tafovutlar, o‘xshashliklar, bilim, ko‘nikma va Malaka

ЗАДАЧИ И РЕШЕНИЯ ДЛЯ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ПЕРЕВОДА АФОРИЗМОВ У УЧАЩИХСЯ

Назиров Кудрат Полвонназарович,
Преподаватель Ташкентского гуманитарного университета

Аннотация. В статье изложены лингвистические проблемы, связанные с пониманием учащимися текста посредством перевода, вопросы, связанные с переводом художественных текстов на узбекский язык, в частности, вопросы и решения проблемы перевода идиом, пословиц и афоризмов, содержащихся в тексте, с английского на родной язык.

Ключевые слова: текст, понимание, перевод, пословица, афоризм, фраза, проблемы, решения, различия, сходства, знания, умения и навыки

TASKS AND SOLUTIONS FOR DEVELOPING STUDENTS' APHORISM TRANSLATION SKILLS

Nazirov Kudrat Polvonnazarovich,
Lecturer at Tashkent University of the Humanities

Abstract. The article presents linguistic problems related to students' understanding of the text through translation, issues related to the translation of literary texts into Uzbek, in particular, issues and solutions to the problem of translating idioms, proverbs and aphorisms contained in the text from English into their native language.

Keywords: text, understanding, translation, proverb, aphorism, phrase, problems, solutions, differences, similarities, knowledge, skills

Talabalarda matnlarni tarjima qilish bilan bog‘liq muammolar qiynaydi, ayniqsa, matnda qo‘llangan maqol, ibora va aforizmlarni tarjima qilish va tushunib olish o‘ziga xos murakkabliklarga ega. Hozir o‘qishning psixo-fizilogik mexanizmlari aniqlanib unga ko‘rish – yozuv va nutq – harakat sezgilari kiritilyapdi. Ular o‘zaro birga nutq faoliyatida ishtirok etib, o‘qish paytida ma’lumot olishni ta’minlaydi. Mazmun ifodalanishi o‘qish mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Inglizcha matnni o‘qib tushunishda 2 ta jarayon sodir bo‘ladi :1) Qabul qilish;2) Tushunish. Tarjima usullari ilmiy, badiiy tahlildagi e’tibor berish kerak bo‘lgan talablar grammatik kategoriyalar o‘rganish, lingvistik muammolar bo‘yicha “Roulingning fantastik asarlaridagi antroponimlarning lingvo-erspektiv muammolari” qo‘llanmasidan ma’lumotlar olingan . J.Solijonovning ta’kidlashicha, “Tarjima san’ati va tarjima turlari hamda tarjima jarayonlari, uning bugungi kundagi ahamiyati xususida so‘z yuritiladi, va shuningdek, tarjimonlar og‘zaki va yozma tarjimada o‘z bilim va mahoratlarini qanday qilib yaxshilash

borasida tushunchalar beriladi. Tarjima turlari va usullaridan foydalanish tarjima sifatini oshiruvchi vosita. Tarjima uchun muhim bo‘lgan tarjima usullari va tarjima turlari matnlarni, og‘zaki nuqtni yoki asarlarni tarjima qilish jarayonidagi eng kerakli bo‘lgan tarjimaning asosiy bo‘ginidir” .

Tillar orasidagi farqlar maqol, ibora va aforizmlarda sezilib turadi. Matnlar tarjima qilinganda uning mazmun-mohiyatini tushunish uchun unda qo‘llangan lisoniy birlikalar mazmunini yaxshi anglash talab etiladi. Ayniqsa, aforizmlardan foydlanishda bu jihatga diqqat qratish zarur, ya’ni aforizmlarni tarjima qilishda ularning har ikki tildagi variantini solishtirish uchun yonma-yon berish maqsadga muvofiqdir.

Success does not consist in never making mistakes but in never making the same one a second time. — Muvaffaqiyat siri xato qilmaslik emas, balki bir xil xatolarni ikki marta takrorlamaslikdir (Bernard Shou).

Simplicity is the ultimate sophistication. — Oddiylik-bu eng yuqori darajadagi nafosat (Leonardo da Vinchi).

There are three things which the superior man guards against. In youth...lust. When he is strong...quarrelsomeness. When he is old...covetousness. — Aqlli odam hayotdagi uchta narsadan qochadi. Yoshligida-shahvat. Yetuklikda-janjal. Qarilikda-ochko‘zlik (Konfutsiy).

Always forgive your enemies; nothing annoys them so much — Har doim dushmanlaringizni kechiring, ularni hech narsa bezovta qilmaydi (Oskar Uayld).

Your time is limited, so don’t waste it living someone else’s life — Sizning vaqtingiz cheklangan, shuning uchun boshqa birovning hayotida uni yo‘qotmang (Stiv Djobs).

I don’t like those cold, precise, perfect people, who, in order not to speak wrong, never speak at all, and in order not to do wrong never do anything. — Men bu sovuq, ozoda, mukammal odamlarni yoqtirmayman, ular noto‘g‘ri aytmaslik uchun umuman hech narsa demaydilar, lekin noto‘g‘ri ish qilmaslik uchun-umuman hech narsa qilmaydilar (Genri Beecher)

No two persons ever read the same book. — Xuddi shu kitobni o‘qigan ikki kishi bo‘lmaydi. (Vudro Uilson)

While we are postponing, life speeds by. — Biz hamma narsani kechiktirar ekanmiz, hayot o‘tib ketadi (Seneka)

Build your own dreams, or someone else will hire you to build theirs. — O‘z orzularingizni ro‘yobga chiqaring yoki kimdir sizni o‘zingiznikini amalga oshirish uchun yollaydi (Farrah Grey)

It is not the strongest of the species that survives, nor the most intelligent, but the one most responsive to change. — Omon qolish eng kuchli yoki eng aqlli emas, balki o‘zgarishlarga eng yaxshi moslashadigan kishi (Charlz Darvin)

Love the life you live, and live the life you love. — Siz yashayotgan hayotni seving va sevgan hayotingizni yashang (bob Marli)

Music is the universal language of mankind. — Musiqa insoniyatning universal tilidir (Genri Uodsvort Longfello)

Never regret anything that made you smile. — Sizni tabassum qiladigan narsadan hech qachon afsuslanmang (Mark Tven)

Always dream and shoot higher than you know you can do. Do not bother just to be better than your contemporaries or predecessors. Try to be better than yourself. - Har doim orzu qiling va imkoniyatlaringiz chegarasidan oshib ketishga intiling. Zamondoshlaringiz yoki o‘tmishdoshlaringizdan yaxshiroq bo‘lishni maqsad qilmang. O‘zingizdan yaxshiroq bo‘lishga intiling (Uilyam Folkner)

If you only read the books that everyone else is reading, you can only think what everyone else is thinking. — Agar siz faqat boshqalar o‘qigan kitoblarni o‘qisangiz, faqat boshqalarning fikri haqida o‘ylaysiz (Haruki Murakami)

Whenever you feel like criticizing any one, » he told me, «just remember that all the people

in this world haven't had the advantages that you've had. — Agar siz to'satdan kimnidir hukm qilmoqchi bo'lsangiz, — dedi u, - esda tutingki, dunyodagi hamma odamlar ham siz ega bo'lgan afzalliklarga ega emas edi(Frensis Fitsjerald, «Buyuk Getsbi» kitobi)

We must run as fast as we can, just to stay in place. And if you wish to go anywhere you must run twice as fast as that. — Faqat joyida qolish uchun siz barcha oyoqlaringizdan yugurishingiz kerak va biron joyga borish uchun siz kamida ikki baravar tez yugurishingiz kerak (Lyuis Kerol, «Alice in wonderland»kitobi)

Mazkur namunalar asosida quyidagi aforizmlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

T/r Ingliz tilida O'zbek tilidagi tarjimasi

1. Keep your friends close, but your enemies closer.
2. All we have to decide is what to do with the time that is given to us.
3. What we do in life echoes in eternity.
4. It is only with the heart that one can see rightly; what is essential is invisible to the eye.
5. As long as man continues to be the ruthless destroyer of lower living beings he will never know health or peace. For as long as men massacre animals, they will kill each other.
6. There are only two ways to live your life. One is as though nothing is a miracle. The other is as though everything is a miracle

Aforizm – bu aniq ifoda etilganidan kengroq ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kichik shakldagi matn. E. Zemlyanskaya aforizmning yashirinligi uning mazmuni muallifning fantastika natijasi ekanligi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi, bu esa aforizmni miniatyura san'at asari sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi.

Aforizmlar va nomlangan yaqin tushunchalar o'rtasidagi farq chizig'i ingichka: boshqa aforizm so'zlashuv nutqida maqol yoki qanotli ifoda shaklida bo'lishi mumkin, bu erda uning tuzilishi o'zgarishi mumkin. Masalan, agar biz maqol va aforizmni taqqoslasak: maqol odatda ijobiy va mahalliy xarakterga ega: «quduqqa tupurmang - suv ichish foydali bo'ladi», odamni majoziy ma'no haqida o'ylashga majbur qiladi «qo'shniga qo'pollik qilmang - siz undan qarz olishingiz kerak bo'lishi mumkin.»Aforizmning o'ziga xos xususiyati uning umumlashtirilishi va vaqtsizligidir. Bu aforistik so'zni beton bilan taqqoslaydi va uni universal so'zlar toifasiga yaqinlashtiradi.

Aforizm yanada murakkab va shuning uchun katta qiziqish uyg'otadi. Bu ijobiy jihatdan farq qilmaydi, chunki mualliflar, boy va boy hayotiy tajribaga ega buyuk odamlar haqiqatni bezashga moyil emaslar. Natijada, biz maqolning antitezi sifatida aforizmni olamiz. Aforizmning ta'siri bir vaqtning o'zida uning dizaynining shubhasizligi va estetikasida yotadi. Aforizmlar bilan ishlashda aforizmdagi shakl va mazmunning uzluksizligini, reformulyasiya paytida aforizmning buzilishini hisobga olish muhimdir. Bundan kelib chiqadiki, strukturani o'zgartirganda va hatto aforizmlarni tarjima qilishda juda ehtiyot bo'lishingiz kerak.

Aforistik janrning barcha xilma - xilligi bilan ingliz aforistikasida imtiyozli tuzilmalarni ajratib ko'rsatish mumkin - bu to'plam bilan fe'l bilan identifikasiyaning hukmi, antitetik va mutanosib oppozisiyalar amalga oshiriladigan parallel konstruktsiyalar, shuningdek teskari parallellik-xiyazm. Ushbu tarkibiy turlar binomiallik, ritmik ekvivalentlik va simmetriya bilan ajralib turadi.

Aslida aforizmlarni tillar o'rtasida qiyoslab o'rganish, yoki O'zbekcha-inglizcha muqobillarini izlab topish, O'zbekcha aforizmlarni ingliz yoki rus tiliga, shuningdek, boshqa tillardan o'zbek tiliga tarjimalar qilish korpus tilshunosligining ham muhim masalalaridan biri bo'lib turibdi.

O'zbek tilidagi Internet ma'lumotlar bazasida O'zbekcha-inglizcha yoki O'zbekcha-ruscha va aksincha inglizcha O'zbekcha aforizmlar lug'atlari, tezaurslar mavjud emas. Ayniqsa, butun dunyoga taniqli bo'lgan Alisher Navoiy hikmatlari ham juda kam miqdorda rus tilida uchraydi,

ingliz tilida umuman, mavjud emas, hatto o’zbek tilida ham kam.

Menga ne ishqu, ne oshiq havasdur,
Agar men odam o’lsam, ushbu basdur.

* * *

Yuz jafo qilsa manga bir
qatla faryod aylamon,
Elga qilsa bir jafo, yuz
qatla faryod aylaram.

1. Dunyoning barcha tillarida yaratilgan aforizmlar shakliy jihatdan farq qilsa-da mazmunan bir-biriga o’xshash, ba’zan bir xil ma’noni ifodalashi mumkin. Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, Alisher Navoiy kabi teran tafakkur egalari aytgan aforizmlar o’ziga xoslikka ega bo’ladi va umumiy mazmundan farq qilishi mumkin:

2. Kimki kishi o’lmakidan shod erur,

3. Go’rkanu g’osilu jallod erur.

4. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, aksariyat inglizcha aforizmlar rus tiliga tarjima qilingan. Internet saytlariga turli shaklda qidiruv topshirg’i berilsa ham aforizm so’zi bo’lsa, ma’lumot istagancha chiqib kelaveradi:Those who cannot change their minds cannot change anything.

Bernard Shaw

2. Two things are infinite: the universe and human stupidity; and I’m not sure about the universe.

Albert Einstein

Aforizmlarni tarjimasi bilan berish foydalanuvchilar miqyosi kengayishiga olib keladi. Lisoniy vositalar orasida iboralar va aforizmlar ta’sirchanlik jihatdan ustunlik qiladi. Aforizmlar korpusini yaratishda qulay variantlarni tanlash lozim, ya’ni mualliflar nomiga nisbatan emas, mavzular bo’yicha shakllantirish maqsadga muvofiq, bizningcha.

Ma’lumotning zarurligi nuqtai nazaridan qidiruv aksariyat hollarda mavzu bo’yicha beriladi, chunki aforizmlar ko’p hollarda matnlarga iqtibos shaklida berish uchun tanlanganda mavzu bo’yicha qidiruv amalga oshiriladi. Internet saytlarida joylashgan kontentlar, asosan, mualliflar kesimida berilgan. Mavzu bo’yicha ma’lumot so’ralganda kutilgan natija bo’lmaydi. Shu ma’noda aforizmlarning bir tilli va ko’p tilli korpusini yaratish zarurati mavjud.

U atrofimizdagi haqiqatdan moddiy narsalarning umumiyligiga nisbatan qo’llaniladi, chunki «olam manzarasi» tushunchasi dunyoning aksi emas, balki «inson shaxsining ma’naviy faoliyatidan olingan natijalarning mujassamlashuvidir.

Aforizm qo’llangan original manbani keltirish.

Hilm inson vujudining xushmanzara bog’idir va odamiylik olamining javohirga boy tog’idir. Yumshoq ko’ngillik hodisalar to’la dengizdagi kishilik kemasining langari desa bo’ladi va insoniyat qadrini o’lchaydigan tarozining toshiga tenglashtirsa ham bo’ladi. Hilm axloqi odamning qimmatbaho libosi va u kiyim turlarining eng chidamli matosidir. U yomon nafsni daydi shamol uchirishidan asraguvchi va ikkiyuzlama munofiqlarning behuda harakatidan himoya qiluvchi. Hilm natijasida odam xaloyiqning izzat-hurmatiga sazovor bo’ladi; hilm tufayli kattalardan kichiklarga iltifot va marhamat etishadi.

Katta kishilar yoshlarni masxara va kulgi qilsa, ular qoshida o’zi shuncha obro’siz va bachkana tuyuladi; yoshlar ham kattalarga nisbatan hazil va engiltaklik qilsa, uning qoshida uyatsiz va e’tiborsiz bo’ladi.

Bu davr bog’ining xasxashak singari odamlari shamoldek betayin, engiltak kishilari oldida hilm ahli go’yo og’ir tabiatli va yomon fe’lli, deb kamsitiladi. Ularning o’zlari esa, quyundek tuproqni havoga to’zitadilar va engiltabiatlilari bilan boshlarini go’yo ko’kka etkazadilar. Tog’jussasini oyoq osti qilmoq — odatlari; dala-dashtlardagi zarralarni havoga sovurmoq — bularning salobatlari. Bunday odamlar eldek har eshikdan kirishga or qilmaydi; o’tdek

otashdonni qizdirishdan o’zga ishni bilmaydi. El — garchi Lolaning tojini uchiradi, ammo tog’qoyalari kamariga qanday ta’sir qila oladi? o’t tog’etagidagi xas-xashaklarni kuydirishi mumkin, lekin quyosh uchquniga qanday tenglasha oladi?..

El, agar ko’kka etsa ham, baribir engil va qadrsiz; tog’agar tuproqqa botsa ham salobatlidir. Elning orasida o’tga yoqiladigan xas-xashaklar bor; hilm mazmunida esa, shoh tojiga qadalgudek cho’g’kabi qizil la’l bor.

Tarjima uchun kontekstdan aforizmni belgilab olish. Kimki ko’ngilni qattiq so’z bilan jarohatlar ekan, unga achchiq til zaharli nayzadek sanchiladi. Ko’ngiida til nayzasining jarohati bitmas; u jarohatga hech narsa malhamlik qilmas. Agar bir ko’ngilda til nayzasining jarohati bordir, faqat yaxshi so’z va shirin til unga malham va rohatdir. Muloyim so’z — vahshiylarni ulfatga aylantiradi; sehrgar — ohang bilan afsun o’qib, ilonni inidan chiqaradi. Tilga ixtiyorsiz — elga e’tiborsiz. Ko’p, bemaza so’zlaydigan ezma — kechalari tong otguncha tinmay huradigan itga o’xshaydi. Tili yomon odam — xalq ko’nglini jarohatlaydi, o’z boshiga ham ofat etkazadi. Nodonning vahshiylarcha baqirmog’i — eshakning bemahal hangramog’i. Xushsuxan odam yumshoqlik bilan do’stona so’z aytadi; ko’ngilga tushishi mumkin bo’lgan yuz g’am — uning so’zi bilan daf bo’ladi. So’zda har qanday yaxshilikning imkoni bor, shuning uchun ham aytadilarki; «nafasning joni bor...»

O’zi xunuk, gapi bema’ni, ovozi yoqimsiz odam qurbaqaga o’xshaydi. Baxt bag’ishlovchi toza ruh manbayi ham til; yomonliklar keltiruvchi nahs yulduzining chiqar joyi ham til. Tilini tiyolgan odam — donishmand oqil; so’zga erk bergan odam — beandisha va pastkash. Til shirin va yoqimli bo’lsa yaxshi; til bilan dil bir bo’lsa yana yaxshi. Til bilan dil — insondagi eng yaxshi a’zolardir. Bo’stonda — gulsafsar, gulg’uncha va rayhonlar eng yoqimli gullardir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ingliz tilidagi matnlarni tarjima dasturlari yordamida o‘zbek tiliga tez va oson tarjima qilib olish mumkin, ammo hali o‘zbek tilining milliy korpusi to‘la yaratilmagani sababli, qolaversa, ingliz va o‘zbek tillari morfologik jihatdan farq qilgani sababli tarjima g‘alizroq chiqadi va asli bilan bitta-bitta solishtirib mazmunni aniqlab olish zarur bo‘ladi. Oddiy matnlarda muammo unchalik emas, ammo maqol, ibora va aforizmlar tarjimasida ehtiyotkor bo‘linmasa, bitta noto‘g‘ri so‘z tarjimasi ham mavmunni o‘zgartirib yuboradi. Bu haqda talabalarga muayyan bilim, ko‘nikma va malakalar berilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov J. J. Chet tili o’qitish metodikasi O’qituvchi nashryot-matbaa ijodiy uyi –T. 2012.

2. Kamoljnovich, S. J. (2022). J.K. Roulingning fantastik asarlaridagi antroponimlarning lingvo-perspektiv muammolari. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(1), 334-343. https://doi.org/10.24412/2181 -2454-2022

3. Solijonov J. Advantages and differences between interpretation and translation// Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies ISSN (online): 2181-2454 Volume 2 | Issue 11 |November, 2022 | SJIF: 5,965 | UIF: 7,6 | ISRA: JIF 1.947 | Google Scholar |2022-11-88-91

4. https://ziyouz.uz/

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СПОРТИВНЫХ ШКОЛ

Сатторов.М.Э.,
Преподаватель Бухарского государственного педагогического института

Аннотация: Статья охватывает комплексные педагогические и психологические аспекты функционирования спортивных школ. Освещаются ключевые вопросы, связанные с особенностями обучения и воспитания в спортивных учебных заведениях, включая подходы к обучению, развитию физических и психологических качеств учащихся, а также вопросы социальной адаптации и личностного развития молодых спортсменов. Подчеркивается важность интеграции педагогических и психологических методов для достижения высоких результатов в спорте и формирования гармонично развитой личности.

Ключивие слова: Спортивное образование, Педагогические методы, Психологическая подготовка, Физическое развитие, Юные спортсмены, Спортивные учебные заведения, Воспитательная работа, Командная динамика, Лидерские качества, Самодисциплина

Введение. Проведение соревнований, где от спортсмена требуется полная отдача, работа на пределе своих возможностей создает ситуации, в которых спортсмену необходимо регулировать свое состояние. Если физические нагрузки велики, а спортсмен плохо управляет своим состоянием, возникает чрезмерное психическое напряжение, которое снижает эффективность деятельности, приводит к ее дезорганизации, а в результате к проигрышу, что может привести к потере уверенности в себе, к депрессии.

Бесспорно, что как среди слагаемых успеха, так и среди причин поражения в спортивном соревновании определенная доля принадлежит психическому состоянию спортсмена, перед и во время соревнования. Современный уровень науки о спорте позволяет признать зависимость результативности и надежности соревновательной деятельности спортсмена от его психического состояния, предшествующего или сопровождающего ее.

В настоящее время в споре равных по своим физическим, техническим, тактическим возможностям спортсменов, как правило, выигрывает тот, кто лучше умеет управлять своим психическим состоянием, кто психологически более устойчив против воздействия различных стресс-факторов, кто обладает способностью к самоконтролю и саморегуляции.

Но не только соревновательная деятельность предъявляет высокие требования к умению управлять своим состоянием. Не меньшее значение имеет способность к самоконтролю, саморегуляции и в тренировочном процессе.

Монотонность тренировочного процесса, вызванная многократным повторением одних и тех же упражнений, движений, способствующих их совершенствованию, однообразие обстановки тренировки вызывают не только физическое утомление, но и огромное психическое напряжение. Это требует тщательно продуманной, систематической психологической подготовки, одним из составляющих которой является обучение спортсменов методам самоконтроля и психорегуляции.

Сегодня в спортивной практике распространено явление, когда спортсмены выступают в соревнованиях, недостаточно к тому подготовленные - физически, технически, тактически, психологически. Это становится, очевидно, уже в период непосредственной подготовки к соревнованию. У спортсмена появляется нежелание выступать в соревновании, что вызывает естественную для такого случая реакцию организма, не обеспечивающую мобилизационную готовность спортсмена к стартам. В результате

формируется неблагоприятное психическое состояние неуверенности, тревожности, боязни, апатии. Естественно, что выступление спортсмена с недостаточной подготовкой не будет успешным и вызовет после соревнования отрицательные эмоции. Тренеру необходима достаточно полная информация об отношении спортсмена к предстоящему соревнованию. Неоднократные выступления спортсмена при недостаточной подготовленности приводят к закреплению отрицательных эмоций, нежеланию выступать в соревнованиях и постоянному возникновению неблагоприятных предстартовых состояний по принципу условного рефлекс.

Возникновение неблагоприятных эмоциональных состояний, как обусловленных отрицательными свойствами личности, так и ситуативных, вызванных экстремальными (особо сложными) условиями деятельности, делает необходимой разработку средств их предупреждения и регуляции, а также воспитания эмоциональных свойств личности, способствующих высокой эмоциональной устойчивости.

Цель исследования: Изучить процесс психологической подготовки борцов.

Объект исследования: Процесс психологической подготовки.

Предмет исследования: Учебно-тренировочный процесс.

Задачи исследования:

1. Установить роль психологической подготовки борца и проанализировать, как это процесс влияет на спортивный результат;

2. Рассмотреть и изучить процесс воспитания морально – волевых качеств борцов.

3. Проанализировать и рассмотреть обязанности и функции спортивного психолога

4. Проанализировать и рассмотреть различные методы и приемы психологической подготовки в борьбе.

Спортивные школы играют важную роль в системе образования, поскольку они формируют не только физические качества учащихся, но и развивают их психологическую устойчивость, учат целеустремленности и дисциплине. В данной статье рассматриваются основные педагогические и психологические аспекты, связанные с обучением и воспитанием в спортивных школах. Спортивные школы предоставляют уникальное образование, в основе которого лежит сочетание физического тренинга и учебного процесса. Эти учебные заведения не только формируют профессиональные навыки будущих спортсменов, но также оказывают значительное воздействие на их личностное развитие. В данной статье рассмотрим педагогические и психологические аспекты спортивных школ, выделяя ключевые особенности, которые необходимо учитывать при обучении молодых спортсменов. 1. Индивидуализация обучения

Спортивные школы собирают в своих стенах учащихся с различным уровнем физической подготовки и талантов. Одной из важных педагогических особенностей является способность к индивидуализации обучения. Педагоги должны адаптировать программы обучения, учитывая индивидуальные потребности каждого спортсмена. Это включает в себя разработку персонализированных тренировочных планов и подходов, сфокусированных на развитии сильных сторон и преодолении слабостей.

Развитие лидерских качеств

Спортивные школы ставят перед собой задачу не только формирования выдающихся спортивных достижений, но и развития лидерских качеств у своих воспитанников. Педагоги способствуют формированию ответственности, руководящих навыков, и способности к командной работе. Эти аспекты играют важную роль в формировании личности будущего спортсмена и его успешной адаптации в командной спортивной среде.

Здоровье и безопасность

В связи с интенсивностью тренировок и высокими требованиями к физической подготовке, спортивные школы уделяют особое внимание здоровью и безопасности учащихся. Педагоги тесно сотрудничают с медицинским персоналом, разрабатывая програм-

мы, учитывающие физическое состояние спортсменов и предотвращающие возможные травмы. Осведомленность о правилах безопасности и забота о физическом благополучии становятся неотъемлемой частью образовательного процесса.

Педагогические аспекты в спортивных школах

1.Особенности учебного процесса: Обучение в спортивных школах включает не только спортивную подготовку, но и академическое образование. Важно обеспечить гармоничное сочетание этих двух аспектов, чтобы учащиеся успешно справлялись как со спортивными, так и учебными нагрузками.

2.Формирование навыков и умений: Педагоги спортивных школ должны сосредоточиться на развитии конкретных физических навыков и умений, необходимых для определенного вида спорта, а также на формировании общих физических качеств, таких как сила, выносливость, ловкость.

3.Воспитательная работа: Важным аспектом является воспитание уважения к противникам, умение работать в команде, развитие лидерских качеств и ответственности.

Психологические аспекты в спортивных школах

1. Развитие психологической устойчивости: Спортсменам необходимо уметь справляться с давлением и стрессом, особенно в соревновательной деятельности. Психологическая подготовка направлена на развитие устойчивости к стрессу, умение концентрироваться и сохранять спокойствие в критических ситуациях.

2. Социальная адаптация: Юные спортсмены часто сталкиваются с проблемой социальной адаптации, поскольку большая часть их времени уходит на тренировки и соревнования. Психологическая помощь в этом аспекте включает развитие навыков общения и умение находить общий язык с разными людьми.

3. Личностное развитие: Важно поддерживать развитие личности спортсмена, формирование его самооценки, самостоятельности и инициативности. Психологическое сопровождение направлено на помощь в самопознании и самореализации.

Интеграция педагогических и психологических методов

Эффективность обучения и воспитания в спортивных школах во многом зависит от грамотного сочетания педагогических и психологических методов. Создание целостной образовательной среды, в которой учащиеся могут развиваться как в физическом, так и в психологическом плане, является ключевым фактором успеха.

Психологические аспекты

1. Управление стрессом и давлением

Успешная карьера в спорте часто сопряжена с высоким уровнем стресса и давления. Психологические аспекты в спортивных школах включают в себя обучение способам управления стрессом, развитие эмоциональной стойкости и адаптации к переменам. Психологи работают с учащимися, помогая им строить позитивное отношение к вызовам и развивать ментальные стратегии для эффективного справления трудностями.

2. Формирование ментального фокуса

Спортивные достижения часто зависят от ментальной подготовки. Психологи в спортивных школах помогают спортсменам формировать ментальный фокус, концентрируя внимание на важных задачах, управляя отвлекающими факторами и развивая позитивное мышление. Эффективное управление ментальными ресурсами становится ключевым элементом успешной спортивной деятельности.

3. Работа с командой и социализация

Спортивные школы подготавливают не только индивидуальных спортсменов, но и команды. Психологические аспекты включают в себя работу с командной динамикой, построение взаимоотношений и развитие коммуникативных навыков. Успешная работа в команде требует уважения к партнерам, умения слушать и эффективно взаимодействовать в стрессовых ситуациях.

Заключение

Спортивные школы играют ключевую роль в формировании будущих спортсменов, предоставляя им не только технические навыки, но и личностные качества, необходимые для успешной карьеры.

Спортивные школы представляют собой уникальную образовательную среду, требующую особого подхода в педагогической и психологической работе. Гармоничное сочетание этих двух компонентов позволяет формировать не только высококлассных спортсменов, но и гармонично развитых личностей, способных успешно реализовать себя в жизни.

Список литературы

1. Трутнев П.В. Основы теории тренировки в дзюдо. - Красноярск, 2004.- 166 с.

2. Хекалов, Е.М. Неблагоприятные психические состояния спортсменов. Их диагностика и регуляция. - М., 2003. - 5 с.

3. Фролов, В.В. Педагогические средства и методы совершенствования надежности высококвалифицированных дзюдоистов: автореф. дис. канд. пед. наук/ В.В. Фролов. - М., 2002.-24 с.

Список использованных статей

1. Сатторов М. Особенности эмоционального интеллекта спортсменов в индивидуальных и командных видах спорта //Физическое воспитание, спорт и здоровье. – 2020. – №. 1.

2. Условия эффективного повышения уровня физической подготовленности студентов Г.К. Саидов - Nexus: Журнал перспективных инженерных исследований, 2022/12/24

3. Психо-эмоциональные состояния и стрессовой терпимость у спортсменов Г.К. Саидов, Н.С. Ахмедов Образовательные исследования в области универсальных наук 2 (13), 517-520

4. Соревновательная деятельность в системе многолетней подготовки спортсменов, РФ Саидов Голибжон Комилович. Procedia of Social Values and Community Ethics 1 (ISSN: 2795-5508), 62-65

OTAULLA XO‘JAYEVNING HAYOT YO’LI VA BUXORO JADIDCHILIK HARAKATIDAGI O’RNI

Sobirov Ulug’bek G’ofurovich
Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
https://orcid.org0009-0000-9104-4866

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashagan Jadid namoyondalaridan biri Otaulla Xo‘jayev hayot yo‘li, uning Buxoro jadidchilik harakatidagi tutgan o’rni, Otaulla Xo‘jayev tomonidan yuritilgan jamiyatlar hamda talabarni chet elga o’qishga yuborish borasidagi olib borgan siyosati haqida so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: maorif, jadid, ma’rifat, milliy g’oya, maktab, ta’lim-tarbiya

ЖИЗНЕННЫЙ ПУТЬ ОТАУЛЛЫ ХОДЖАЕВА И ЕГО РОЛЬ В БУХАРСКОМ ДЖАДИДИСТСКОМ ДВИЖЕНИИ

Собиров У.Г.
Бухарский государственный педагогический институт, преподаватель кафедры педагогики

Аннотация: В данной статье описывается жизненный путь Отауллы Ходжаева, одного из представителей джадида, жившего в конце XIX - начале XX веков, его роль в бухарском джадидистском движении, обществах, которыми руководил Отаулла Ходжаев, и его политика отправки студентов на обучение за границу.

Ключевые слова: образование, современное, просвещение, национальная идея, школа, образование.

OTAULLA KHOJAYEV’S LIFE PATH AND HIS ROLE IN THE BUKHARA JADIDIST MOVEMENT

Sobirov U.G.
Bukhara State Pedagogical Institute, Teacher of the Department ofPedagogy

Abstract: This article describes the life path of Otaulla Khodjaev, one of the representatives of the Jadid who lived in the late 19th - early 20th centuries, his role in the Bukhara Jadidist movement, the societies led by Otaulla Khodjaev, and his policy of sending students to study abroad.

Key words: education, modern, enlightenment, national idea, school, education

KIRISH. XX asr boshlarida xalqimizning ma’naviy-falsafiy qarashlari, birinchi navbatda, ma’rifatparvarlik va uning yangi bosqichi bo‘lgan jadidchilik bilan bog‘liq davr pedagogik merosini o‘rganish hozirgi globallashuv sharoitida dolzarb muammolaridan biridir. Jadidlar yoshlar ta’limi va tarbiyasi borasida ilgari surgan g‘oyalarda millatni taraqqiy ettirish ko‘p qirrali ijtimoiy-ma’naviy hodisa deb qaralganligi bunday yondashuvning o‘ziga xos jihatini tashkil etadi. Buxoro ma’rifatparvarlari bilan bog‘liq bo‘lgan merosini keng o‘rganish va targ‘ib etish shu kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lgani holda, ushbu meros mazmunidagi ilg‘or g‘oya va qarashlar respublikamizdagi barcha ta’lim musassalarida tahsil olayotgan yoshlarimizni milliy g‘oya talablari ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi shubhasizdir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’grisidagi farmoni, 2017 yil 17 fevrallagi PQ-2789-sonli (Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risidagi qarori, 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-sonli Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq

va targ'ib qilish to'risida yanada takomillashtirish choralari to'g'risidagi qarori, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qaroriga muvofiq "Jadid ma'rifatparvarlari g'oyalaridan yosh avlod tarbiyasida foydalanish" ishlarini olib borish va 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyyot strategiyasi" loyihasining "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chish" deb nomlangan 5-bo'limidagi 69-maqsadda ham "Buyuk ajdodlarimiz boy me'rosini chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish"ni ko'zda tutadi, bundan tashqari soxaga oid boshqa me'yoriy-xuquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish bilan bog'liq ayrim jihatlarni yoritishda ushbu ish muayyan darajada xizmat qiladi. Jamiyatimizda jadidchilik harakati tarixiga bag'ishlangan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

ASOSIY QISM:

Buxoro jadidchilik harakatining jonkuyarlaridan biri Ota Xo'ja Po'latxo'jayev (Otaulla Xo'jayev) hisoblanadi. Otaulla Xo'jayev 1880-yilda Buxoro shahridagi yirik qorako'l savdogari Qori Po'latxo'ja oilasida tug'ilgan. Dastlab Buxoroda eski maktabda, so'ng madrasa tahsilini olgan. So'ngra Turkiyaga borib, akasi Usmon Xo'ja, Fitrat va boshqa bilan Istambulda Voizin madrasasida tahsil olgan (1909-1913). 1913-yilning bahorida Turkiyadan Fitrat bilan birga Otaulla Xo'jayev ham Buxoroga qaytib kelgan. "Tarbiyai Atfol" maxfiy tashkiloti va Yosh buxoroliklar partiyasi faoliyatida qatnashgan. 1913-1914-yillarda Buxoro amirligida jadid maktablari ochgan va muallimlik qilgan. 1914-yildan boshlab Fitrat va Otaulla Xo'jalar boshchiligida jadidlar G'ijduvon, Karmana, Nurota, Chorjo'y, Karki kabi manzillarda ham yangi usul maktablari tashkil etgan. Buning uchun Buxoro amiri Amir Olimxon tomonidan ta'qibga uchragan va 1915-yilda 45 kun zindonda o'tirgan.

1917-yil aprel namoyishida Otaulla Xo'jayev rahbarligida Hoji Mirbobo Mirmuhsinov, Abdurahim Yusufzoda kabilardan iborat "Yosh buxoroliklar" delegatsiyasi qushbegi huzuriga yuboriladi. Ular mutaassib kuchlarning talabi bilan Arkda qabul qilinmasdan zindonga tashlanadi. Sadriddin Ayniy, Mirzo Narzullo, Mirzo Sahbo kabi jadidlar mavjud tuzum tarafdorlari tomonidan qo'lga olinib, kaltaklanadi. Muvaqqat hukumatining vakillari yordami bilan jadidlar zindondan ozod bo'ladi.

Ota Xo'jayev 1918-yil martda "Kolesov voqeasi"dan so'ng muhojirlikka ketib Samarqandda Rahmat Rafiq Abdullabekov bilan birgalikda "Yosh buxoroliklar"ga rahbarlik qiladi. Toshkentga borib turk asirlari Ali Some'bek va Usmonbeklar bilan tanishadi. So'l eserlar partiyasi bilan hamkorlik qilib, ularning yig'inlarida ishtirok etadi.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil topgach, Ota Xo'jayev 1920-yil sentabrida hukumat topshirig'i bilan Qarshi viloyati inqilobiy qo'mitasiga rahbar etib tayinlanadi.

1921-yil yozida Turkiston taraqqiyparvarlari iltimosiga binoan Buxoroga tashrif buyurgan Anvar poshsho bir haftacha poytaxtda bo'ladi. U deyarli hamma nozirlik va davlat idoralariga borib, rahbar xodimlar bilan suhbat quradi. Fayzulla Xo'jayev va Abduqodir Muhiddinovlarning xatolarini tushuntirib, kurash uslubi xususida maslahatlar beradi. Milliy istiqlolchilik harakatini siyosiylashtirish g'oyasi ham aynan Anvar poshshodan chiqqan edi. 1921-yil yozida BXSR ichki ishlar noziri Ota Xo'jayev boshchiligidagi Sodiq Muhammadiyev, Naimjon Yoqubovlardan iborat maxsus komissiya Sharqiy Buxoroga yuboriladi. Ota Xo'jayev 1921-yil 12-avgust kuni Baljuvonda qo'rboshilar Davlatmandbek, Kamolbiy va Qayum To'qsabolar bilan BXSR hukumati nomidan muzokaralar o'tkazadi. Ikki o'rtada sulh shartnomasi tuziladi.

Otaulla Xo'jayevning ko'p qirrali va samarali faoliyati solnomasiga qisqa muddat bo'lsada, BXSR hukumatining Moskva (RSFSR) vakolatxonasini boshqargan davri muhim o'rin tutadi. Avvalo Otaulla Xo'jayev Buxoro hukumatining Rossiya davlatidagi vakolatxonasini boshqargan tarixiy-xronologik chegaraga aniqlik kiritishga zarurat mavjud ekanligi ko'zga tashlanadi. Buxorolik jurnalist va adib N.Naimov: "Otaulla Xo'jayev 1922 yildan Moskvada ikki yil yashab, BXSRning Rossiyadagi vakolatxonasini boshqardi" – deb qayd etsa, professor S.I. Inoyatov: "1922-yilning yanvar-may oylarida Otaulla Xo'jayev Rossiya davlatida BXSRning muxtor vakili bo'lib xizmat qiladi. 1923-yil may oyidan esa Xalq Nozirlar Kengashi raisi

lavozimini vaqtinchalik bajara boshlaydi” – deb yozgan.

Otaulla Xo‘jayev Buxorodagi ko‘plab istiqbolli yoshlarni Moskva, Sankt-Peterburg shaharlaridagi oliy va o‘rta maxsus bilim yurtlariga yo‘llaydi. Shuningdek, Germaniya va Turkiya davlatlariga o‘qishga jo‘natish, ularni mablag‘ bilan ta’minlashda jonbozlik ko‘rsatadi. Uning imzosi bilan Germaniyaning Moskvadagi vakolatxonasiga yuborilgan rasmiy xabarlardan birida: “BXSR o‘zining talabalarini ixtisos ilmi tahsil etmak uchun Germaniyaga yubormakni orzu qiladur. Hozirgi vaqtda mening tarafimdan Buxoro xalq maorif nazoratidan xat olundi. Mazkur xatda ko‘rsatiladurkim, Germaniyaga yuborilaturg‘on talabalarning miqdori 30 nafar belgilangan va yoshlari 10 ila 15 orasidadur” , deyilgan.

Jadidlar oruzusidagi Turkiston ilg’or ta’limga, ma’rifatga, taraqqiyotga asoslangan edi; bu orzu qobiqni, chegaralarni, monarxiya va diktaturani inkor etadi. Yurt ozodligi va saodati yo‘lida shirin jonidan kechgan ma’rifatparvar bobolarimizning pok nomi tiklanishi chin ma’noda tarixiy haqiqat tantanasi bo‘ldi. Darhaqiqat, Birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek:“Mahmudxo‘ja Behbudiy, Otaulla Xo’jayev,Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Is’hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon kabi yuzlab ma’rifatparvar, fidoyi insonlarning o‘z shaxsiy manfaati, huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o‘chmaydi”.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda biz bugungi kunda bu jadidlarni nimaga o’rganamiz degan savolga javob shundan iboratki: ”Jadidlar ilmiy me’rosi asosida pedagogika oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining kasbiy ko’nikmalarini rivojlantirish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat”.

Ma’lumki, Otaulla Xo‘jayevning Buxoro ozodligi uchun kurashda turli ma’rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan harakatlarni tuzgani yuksak e’tirofga loyiq edi. Mazkur harakat maqsadalariga ko‘ra, Vatan, millat va davr oldida turgan ulkan ijtimoiy–siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy muammolarni Turkiston xalqlarini ma’rifatli qilish, ular hayotini qaytadan madaniylashtirish va zamonaviylashtirish yo‘li bilangina hal etish mumkin edi. Bunday miqyosli va tarixiy vazifani tor doiralarga mansub yoki muayyan tabaqaviy qarashlarga asoslangan oqim hal qilolmasdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova. O’zbekiston tarixi.-T:Iqtisod-Moliya,2016
2. S.A’zamxo’jayev. Turkiston Muxtoriyati. – T: Ma’naviyat,2000
3 Q.Ergashov, H.Hamidov. Ozbekiston tarixi.T: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2018
4. L.P.Muhammedjonova, M.M.Alimova. – Buxoroda Jadidchilik harakati tarixidan,-B: Durdona nashriyoti,2019
5. E. Erkayev. Turkistonda jadidchilik harakati va ularning islohotchilik faoliyati, - Andijon, 2015
6. Germaniyaga talabalar yubormak ishining borishi//Buxoro axbori, 93-son. 1922 yil 27 iyul
7. Naimov N. Buxoro jadidlari (Tarixiy ocherklar, hujjatli qissa). – Toshkemt. Fan. 2000 yil
8. Inoyatov S. Buxoroi sharif xo’jalari: Usmon Xo’ja, Otaulla Xo’jayev, Fayzulla Xo’jayev ajdodlari va avlodlari shajarasi. Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2022. – B. 122-123.

AUDITORIYA MASHG‘ULOTLARDA TALABALARNING IJODIY FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Sobirova Moxira Rasulovna
Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
https://orcid.org/0009-0008-3697-1868b

Annotatsiya. Dunyo ilm-fanida ta’lim olishning internet texnologiyalariga asoslanganligini inobatga olgan holda aralash ta’limni qo‘llash metodikasini ishlab chiqish ahamiyatga molik masalalardan biri hisoblanadi. Aralash ta’lim zamonaviy ta’limning nisbatan yangi va tobora ommalashib borayotgan shakli sanalib, onlayn o‘quv materiallari hamda o‘qituvchi rahbarligida guruhda ta’lim olishga asoslangan o‘qitish shaklidir. Ta’lim olishning internet texnologiyalariga asoslangan masofaviy ta’limni qo‘llagan holda turli xil o‘quv kurslarining (Coursera, Znanio onlayn o‘quv kurslari, MOOK kurslari) tashkil etilishi ham talabalarning uydan turib bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishga, ularning vaqtini tejashga, xohlagan paytda ta’lim platformalariga kirib o‘qishiga imkon beradi hamda bugungi kunda aralash ta’limdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: “Blended learning”, LMS (Learning management system), Moodle platformasi, asinxron va sinxron vositalar, o’quv adabiyotlari, chat, forum, ijodkorlik, mustaqil ta’lim, o’qituvchi va talaba faoliyati.

ВОЗМОЖНОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАТЬ ТВОРЧЕСКУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ОБУЧАЮЩИХСЯ НА АУДИТОРНЫХ ЗАНЯТИЯХ

Собирова Мохира Расуловна.
Преподаватель кафедры педагогики Бухарского государственного педагогического института

Аннотация. Учитывая тот факт, что образование в мировой науке базируется на интернет-технологиях, одним из важных вопросов является разработка методики использования смешанного образования. Смешанное обучение — это относительно новая и все более популярная форма современного образования, форма обучения, основанная на онлайн-обучающих материалах и групповом обучении под руководством учителя. Организация различных образовательных курсов (Coursera, онлайн-образовательные курсы Znanio, курсы MOOC) с использованием дистанционного образования на основе интернет-технологий обучения также способствует совершенствованию знаний, навыков и умений студентов из дома, позволяет студентам экономить время, доступ образовательные платформы, когда захотят, и сегодня используют смешанное обучение.

Ключивые слова: «Смешанное обучение», LMS (система управления обучением), платформа Moodle, асинхронные и синхронные инструменты, учебная литература, чат, форум, творчество, самостоятельное обучение, деятельность преподавателя и учащихся.

OPPORTUNITIES TO IMPROVE THE CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS IN AUDITORIUM LESSONS

Sobirova Mokhira Rasulovna
Teacher of the Department of Pedagogy of the Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract. Taking into account the fact that education in world science is based on Internet technologies, one of the important issues is the development of the methodology of using mixed education. Blended learning is a relatively new and increasingly popular form

of modern education, a form of teaching based on online learning materials and teacher-led group learning. The organization of various educational courses (Coursera, Znanio online educational courses, MOOC courses) using distance education based on the Internet technologies of education also helps to improve the knowledge, skills and abilities of students from home, their allows students to save time, access educational platforms whenever they want, and use blended learning today.

Keywords: «Blended learning», LMS (Learning management system), Moodle platform, asynchronous and synchronous tools, educational literature, chat, forum, creativity, independent education, teacher and student activities.

Kirish. Oliy ta’lim tizimini axborotlashtirishning zamonaviy bosqichining o‘ziga xosligi shundaki, oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashning muhim jihatlari asosiy o‘ringa qo‘yiladi. Oliy ta’lim sifati ko‘p jihatdan ushbu muammoni muvaffaqiyatli hal etilishiga bog‘liq. Oliy ta’lim bitiruvchisi axborotlashgan jamiyatda yashar ekan, u axborotlarni olish, ularni qayta ishlash usullarini o‘zlashtirishi, birinchi navbatda, intellektual salohiyati hamda ijodiy potensialini rivojlantirishi uchun axborot-kommunikatsion texnologiyalardan oqilona foydalanishi zarur.

“Aralash ta’lim” bugungi kunning axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Ko‘pgina yirik kompaniyalar “Aralash ta’lim”ning ijobiy samarasini allaqachon anglaganlar: xodimlar ta’limni ishdan ajralmagan holda olishadi. Kelajakda aralash ta’lim an’anaviy ta’lim shakllari orasida yetakchi o‘rinni egallaydi hamda “jonli” muloqot bilan uyg‘unlashgan internet resurslaridan foydalangan holda ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi oliy ta’lim muassasalarining asosiy raqobatbardosh ustunliklariga ega bo‘ladi.

Jahon pedagogika hamjamiyatining zamonaviy bosqichida “Aralash ta’lim”ninig usullari va samaralarini oliy ta’lim muassasalari ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha muhokamalar qilinyapti. Aralash ta’limni oliy ta’lim muassasalariga joriy qilish elektron platforma bazalarida masovafiy ochiq ommaviy kurslarni ishlab chiqib, o‘quv portallariga joylashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunday portal universal axborot manbayi bo‘lib xizmat qiladi, talaba o‘ziga qulay vaqtda platformadan foydalanish imkoniga ega bo‘lishi lozim.

Metodlar. LMS (Learning Management System) Moodle platformasi eng ko‘p foydalanib kelinayotgan ta’lim platformalaridan biridir, bu platformalar ta’lim mazmunini tayyorlash va yetkazib berish, shuningdek, o‘quv jarayonini boshqarish vositalarini o‘z ichiga oladi. Moodlega asoslangan o‘quv kurslari ma’lumotlarni raqamli (hujjatlar, videolar, keyslar va boshqalar) tarzda uzatish, talabalar va murabbiylar o‘rtasida o‘zaro aloqa, talabalarning bilimini tekshirish uchun turli xil topshiriqlar, testlar, Wiki mexanizmlari orqali hamkorlikda loyihalar ustida ishlash, forumlar, seminarlar orqali amalga oshiriladi. Quyida Moodle patformasi o‘quv kursi elementlari ro‘yxati hamda Blum taksonomiyasi bo‘yicha iyerarxiya tahlili keltirildi. Har bir element iyerarxiyaning ma’lum bir to‘plamiga to‘g‘ri keladi va ular quyidagicha ifodalandi (1-jadvalga qarang):

1-jadval

Blum taksonomiyasi tasnifi

№	Darajalar	Tasnifi
1.	Yodda saqlash (bilish)	Eslab qoling, takrorlang, tartiblang, tavsiflang;
2.	Tushunish	Tushuntiring, ta'riflang, muhokoma qiling;
3.	Qo'llash	Hal qiling, izohlang, tasvirlang;
4.	Tahlil qilish (analiz)	Izlang, qiyoslang, guruhlang;
5.	Sintez	To'plang, tuzing, shakllantiring, quring;
6.	Baholash	Yakunlang, baholang, tavsiya bering, xulosa chiqaring.

Moodle yordamida yaratilgan kurslar quyidagilardan tashkil topadi:

"Ma'ruza" (yodda saqlash darajasi) – "doc" ko'rinishidagi ma'ruza matnlari, videorolik, taqdimot va boshqalar kiradi;

"Topshiriqlar" (tushunish, qo'llash, analiz, sintez darajasi) o'qituvchi tomonidan talabalarning mavzuni o'zlashlashtirish sifatini baholash uchun foydalaniladi. Talabalardan topshiriqlarni bajarishda batafsil javobni talab qiladi va ular topshiriqlarni quyidagi shakllardan biriga topshirishlari mumkin:

1. Matnli javob (talaba savolga javobni bosma matn ko'rinishida yuboradilar, shu bilan birga, platforma turli multimedia fayllarni biriktirish imkonini beradi).
2. Fayllarni yuborish (talabalar topshiriqni bitta yoki bir nechta faylda yuborishi mumkin).

- "Vebinar" (yodlash darajasi) onlayn videokonferensiya sifatida namoyon bo'ladi;
- "Seminar" (analiz, sintez, baholash darajasi) o'quv jarayonini bir qator mezonlarga muvofiq o'zaro va o'zini o'zi baholash asosida tashkil etish imkonini beradi;
- "Testlar" (qo'llash darajasi) test topshiriqlarini o'z ichiga oladi;
- "So'rovnoma" talabalar o'rtasida ovoz berish imkoniyatini beradi;
- "Anketa" o'qituvchi va talabalar o'rtasida fikr almashish uchun xizmat qiladi;
- "Forum" ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi muloqotni tashkil etish vazifasini bajaradi;
- "Chat" tezkor xabarlar almashish imkonini beradi;
- "Ma'lumotlar bazasi" berilgan mavzular bo'yicha tizimlashtirilgan yozuv (zapis)larni yaratish;
- "Glossariy" onlayn-lug'at yaratish uchun xizmat qiladi.

Didaktik jihatdan LMS Moodleda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- axborot yetkazib berish – bu elektron darsliklar, taqdimotlar, forum mavzulari, nazorat va kurs ishlari, o'quv rejasi, bajarilgan topshiriqlarni baholash, adabiyotlar ro'yxati, e'lonlar, havolalar, shuningdek, ochiq o'quv resurslari;
- forum, elektron pochta, chat orqali muloqot;
- talabalar faoliyatini guruhiy (forum, wiki-sahifalar) va individual (fayl almashish) tarzda tashkil etish;
- testlar orqali talabalar bilimini nazorat qilish.

O'quv jarayonini tashkil etish nuqtayi nazaridan Moodle platformasi o'quv natijalarini kuzatish imkonini beradi. Raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish aralash ta'limning muhim va ajralmas tarkibiy qismidir. T.V.Dolgovaning fikriga ko'ra, ular elektron ommaviy axborot vositalarining umumiy xususiyatlaridan kelib chiqadi, ularni bosma nashrlardan ajratib turadi va ularga bir qator afzalliklarni beradi.

Oliy ta'limning hozirgi holati ta'lim jarayonini doimiy ravishda o'zgartirish zarurati bir tomondan, turli talablar asosida malakali kadrlarni tayyorlashni ta'minlash bo'lsa, boshqa

tomondan esa oliy ta’lim muassasalarining samarali tajribalarini o‘zlarining faoliyatiga moslashtirish bilan belgilanadi. Shubhasiz, zamonaviy ta’lim metodlarini ishlab chiqishda so‘nggi o‘n yillikda axborot texnologiyalaridan foydalanishning o‘sishi hamda ko‘plab ta’lim va texnik yangiliklarni ham inobatga olish zarur. Ana shunday yangiliklardan biri aralash ta’limdan foydalanish bo‘lib, bu konsepsiya oliy kasbiy ta’lim tizimining hozirgi holatida an’anaviy ta’limni masofaviy ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish mumkinligini ko‘rsatadi . G‘oya shundan iboratki, materialning muhim qismi masovafiy shaklga aylantirilib, ularning samarasini oshiradigan turli interaktiv shakllar uchun auditoriyada vaqt ajratiladi. “O‘qituvchi-talaba”, “talaba-talaba”ning o‘zaro ta’sirini ta’limni boshqarishning turli ta’lim elementlaridan foydalangan holda masofaviy shaklda amalga oshirish mumkin .

Bundan tashqari, talabalar faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan bog‘liq fanlarni o‘rganishda reproduktiv darajadagi ko‘plab mashqlar mavjud bo‘lib, namuna bo‘yicha topshriqlarni bajarishga to‘g‘ri keladi. Bunday mashqlardan foydalanganda talabaning ijodiy tashabbusini shakllantirish qiyin kechadi, shuning uchun aralash ta’lim elementlari yordamida topshiriqlar asosini o‘zgartirish zarur.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni o‘qitishda asosan Moodle va Hemis platformalaridan foydalanib kelinmoqda. Mazkur tizimning axborot-ta’lim funksiyasi OTMning elektron kutubxona, o‘quv zali va internet markazi bilan to‘ldirilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan qismlarni o‘zaro bog‘liqlikda ta’lim muassasasining joriy infratuzilmasini – axborot-ta’lim muhitini qurish mumkin:

Ma’muriyat (tashkilot va ta’lim jarayonini nazorat qilish: tashkilot resurslarini taqsimlash, hisoblarni boshqarish, ta’lim dasturlarini qo‘llab-quvvatlash, o‘qitish birliklaridan foydalanish uchun me’yorlarni yaratish);

O‘quv bo‘limi uch qismdan tashkil topgan (ta’lim jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro ta’siri):

- axborot qismi (o‘quv jarayoni, o‘quv materiallarining elektron va bosma shakllaridan foydalanish, nazariy materiallarni va fanga oid adabiyotlarni o‘rganish, o‘z-o‘zini tekshirish uchun o‘quv testlaridan foydalanish);
- guruhiy qism (“o‘qituvchi-talaba” va “talaba-talaba”lar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, shuningdek, chatlar, forumlar orqali guruhiy ta’sir qilish);
- ijodiy qism (fan mavzusi uchun ma’lumotlar bazasidan foydalanish, glossariy mazmunini taqdim etish, ijodiy ishlarni bajarishda texnologiyalardan foydalanish);
- dastur muhandislik bloki (ta’lim jarayonida ta’lim ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlarini, ma’lumotlarni saqlash va dasturiy ta’minotni ta’minlaydi).

Ushbu qismlar funksional xususiyatlari bilan kesishishi mumkin. Ta’lim muhitini boshqarishning asosiy o‘zagi Moodle tizimi bo‘lib, kasbiy faoliyatda (tilshunoslik, ijtimoiy sohada va boshqalar) axborot texnologiyalari bilan bog‘liq turli fanlarni o‘rganish hamda egallagan bilim, ko‘nikmalarni faoliyatga joriy etish va kelgusida ham zamonaviy axborot-texnologiyalardan foydalanib amaliy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishdan iborat.

Pedagogik tizimning o‘quv vositalarini bosma materiallari (o‘quv qo‘llanmalar, kitoblar va boshqalar), elektron hujjatli vositalar (elektron shakldagi darsliklar, qo‘llanmalar va boshqalar), multimedia resurslari (video, audio, interfaol o‘quv vositalari), elektron ta’lim tizimlari, ma’lumotlar bazasi (elektron shaklda axborot resurslar katalogi) tashkil etar edi. Ta’lim mazmuni ta’lim yo‘nalishlarining o‘quv dasturlari va rejalari bilan belgilanar edi. “Blended learning” standartlari bularning barchasini o‘zida jamlaydi. Ta’limning tashkiliy shakllari: ma’ruza, seminar, maslahat, amaliy, laboratoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ishlar, testlarning har biri axborot va ta’lim muhiti elementlaridan foydalangan holda masofaviy shaklda tartibga solinadi. Bugungi kunda Oliy ta’lim muassasalarida an’anaviy ta’lim hamda axborot muhitidan foydalangan holda uch xil o‘zaro ta’sir munosabati tashkil etiladi:

- talaba-o‘qituvchi (o‘qituvchi va talabaning munosabati passiv shaklda (elektron

materiallar, audio va video yozuvlar) va faol shaklda (ovozli va matnli chatlar, videokonferensiyalar, auditoriyada o‘qish)gi munosabatlar “bir kishi hamma bilan” yoki “bir kishi bir kishi bilan” ko‘rinishida qo‘llaniladi);

- talaba-talaba (talabaning boshqa talaba bilan munosabati);
- talaba-axborot va ta’lim muhiti (talabaning ta’lim resurslarida foydalanishi va boshqa talaba hamda o‘qituvchilarning minimal ta’siri, mustaqil ta’lim).

Shunday qilib, o‘qituvchi Moodle tizimi yordamida har bir talabaning so‘roviga mos keladigan turli ta’lim yondashuvlarni amalga oshirishi , talaba bilan hamkorlikda nazorat qilishi hamda berilgan ta’lim trayektoriyasi asosida harakatlanish jarayonini to‘g‘rilashi mumkin. Doimiy ravishda o‘quv bosqichlarini bajarish, nazorat tizimining shaffofligi talabalarning tizimili ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa o‘z-o‘zini kasbiy va shaxsiy takomillashtirish ehtiyojiga aylanadi.

Natijalar. Aralash ta’lim modeli ta’lim jarayoni sifatini oshirishga, ta’lim subyekti sifatida mustaqil ta’lim faoliyatini takomillashtirishga va kelajakda o‘z-o‘zini rivojlantirishga tayyorligini shakllantirishga xizmat qiladi. Aralash ta’limni joriy etishda o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri eng samarali axborot-kommunikatsion texnologiyalar, dasturlar, ilovalarni tanlash orqali auditoriya va elektron komponentlarni yagona tizimga birlashtirishdir.

“Blended learning”ni zamonaviy ta’lim tizimiga joriy etish o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda yangi uslubiy yechimlarni shakllantirish uchun keng imkoniyatlarni ochadi. Aralash ta’lim modellari ta’lim jarayonining shaxsga yo‘naltirilgan muhiti har bir talabaga ma’lum bir kompetensiyaga erishish imkonini beradi. Aralash ta’lim modellariga o‘tishning o‘ziga xos xususiyatlari – ta’lim jarayoni ishtirokchilari (o‘qituvchining roli – maslahatchi, navigator, tyutor; talabalarning mustaqilligini oshirish natijasida passiv tinglovchi pozitsiyasidan faol tadqiqotchi pozitsiyasiga) rollarining, o‘quv faoliyati shakllari (makon va usullari)ning, mehnat reglamentining o‘zgarishi hamda raqamli ta’lim muhitining yaratilishi bilan xarakterlanadi.

Talabalarning ijodiy faoliyatlarini takomillashtirish uchun quyidagi bilimlarni egallashlari lozim: loyihaviy, evristik, tadqiqotchilik va intellektual.

Talabalarning loyihaviy bilimlariga faoliyat maqsadini anglashi, kelgusi faoliyat va harakat bosqichlarini rejalashtirish; bilimlarni umumlashtirish, integratsiyalash, qidiruv sohasini kengaytirish; turli obyekt, g‘oyalar, konstruksiyalarning ko‘rinishlarini maksimal miqdorda yaratish; maketlar, modellar, loyihalar, chizmalar va boshqalarning texnologik tartiblarini ishlab chiqish.

Evristik bilimlar – bu maqsadga erishishda evristik usullardan foydalangan holda muammoni nostandart usulda hal qilish qobiliyatidir.

Tadqiqotchilik bilimlari ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilib, shunday xulosaga kelingan: tadqiqotchilik bu talabaga ilmiy-tadqiqot faoliyatini bajarishga, fan asoslarini o‘rganish jarayonida egallagan bilim va ko‘nikmalarini ilmiy tadqiqot mantig‘iga yaqinlashtirishga imkon beradi. Ilmiy tadqiqotchilik ko‘nikmalariga farazlarni ilgari surish va tekshirish, mustaqil kuzatish, tajribalar o‘tkazish va boshqalar.

Intellektual bilimlar ijodiy o‘quv-biluv faoliyatida maxsus amaliy va aqliy harakatlarni mazmunan anglagan holda bajarish bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi: mantiqiy qonuniyatlarni o‘rnatish, axborot va xotira, tasavvur qilish qobiliyati, muammolarni turli usullarda hal qilish, yangiliklarni tezda o‘zlashtirish.

Bugungi kunda ta’limni to‘g‘ri tashkil etish o‘qituvchi va talabalarning iste’dodlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Talabalarning ijodiy faoliyatini takomillashtirish uchun faol hamda interfaol usullardan foydalanish zarur.

Mashq qilish (trening) bilim, ko‘nikma, malaka va ijtimoiy ustanovkalarni rivojlantirishga qaratilgan faol o‘qitish usuli bo‘lib, nteraktiv ta’lim shakli sifatida shaxslararo muloqot va

kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadida qo‘llaniladi. Treningning afzalligi shundaki, u o‘quv jarayoniga barcha talabalarning faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi.

Guruhiy muhokama (yarimovozda muhokama qilish). Bunday muhokamalar amaliy mashg‘ulotlarda tashkil etiladi, talabalar kichik guruhlarga bo‘linib mavzu doirasidagi u yoki bu masalalar muhokama qilinadi. Muhokamalar ikki usulda tashkil etilishi mumkin: kichik guruhlar bir masalani birgalikda tahlil qiladilar yoki bo‘lmasa, bir katta mavzu alohida topshiriqlarga bo‘linib muhokama qilinadi. Muhokama so‘ngida fikrlar umumlashtirilib, xulosalar chiqariladi.

Keys (“Case”) metodi – muayyan vaziyatlarni tahlil qilish usuli bo‘lib, muammolarni hal qilishga asoslangan. Talabalar vaziyatni tahlil qila olishlari, muammolar yechimini ishlab chiqishlari, yechimning eng yaxshilarini tanlab olish imkoniga ega bo‘lishlari lozim. Keyslar quyidagilarga bo‘linadi: amaliy keyslar (haqiqiy hayotiy vaziyatlarni aks ettiruvchi), ta’limiy keyslar (sun’iy yaratilgan hayotiy vaziyatlarni aks ettiruvchi), va tadqiqotchilik (modellashtirish metodini qo‘llagan holda tadqiqot ishlarini olib borishga qaratilgan). Keyslar yordamida talabalar guruhda, jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan muammolarni hal qilish imkoniyatlarini kengaytiradilar.

Loyiha metodi didaktik maqsadga erishishda muammoni to‘liq ishlab chiqish metodidir. Loyiha usulining asosiy maqsadi talabalarning turli fan sohalardagi bilimlarni birlashtirishni talab qiladigan muammolarni amaliy hal qilish orqali mustaqil bilim olishdir.


“Aqliy hujum” metodi ijodiy faollikni rag‘batlantirishga asoslangan muammoni operativ usulda hal qilish, talabalardan iloji boricha muammoga ko‘proq yechimlarni ifodalash so‘raladi. Keyin bildirilgan fikrlardan eng samaralilari tanlab olinadi. Eksport baholash usuli uch bosqichda amalga oshiriladi: birinchi bosqichda talabalarga muayyan muammo muhokama uchun taqdim qilinadi, talabalar navbatma-navbat muammoga takliflar berishadi. Ikkinchi bosqichda bildirilgan takliflar muhokama qilinadi. Uchinchi bosqichda talabalar oldindan belgilangan tamoyil bo‘yicha muammo yechimini taqdim etishadi.

Muammoli ma’ruzada yangi bilimlar muammoli vaziyatlar, topshiriqlar orqali egallanadi. Bunda o‘qituvchining talabalar bilan hamkorlikda bilish jarayonlari tadqiq qilinadi. Ijodiy fikrlash jarayonini takomillashtirish o‘qituvchi va talabalarning maqsadli o‘zaro ta’siridan, darslarni maxsus sharoitlarda tashkil etishdan iborat. Quyida an’anaviy ta’lim hamda aralash ta’limning qiyosiy tahlili keltirilgan (2-jadvalga qarang).

An’anaviy ta’lim		**Aralash ta’lim**	
Interfaol usullar	**O‘zaro ta’sir**	**Interfaol usullar**	**O‘zaro ta’sir**
Mashq qilish (trening)	O‘qituvchi↔talaba	Taqdimot, debat, esse, interaktiv mashqlar	O‘qituvchi↔axborot muhiti↔talaba
Guruhiy muhokama	O‘qituvchi↔talaba talaba↔talaba	Onlayn loyihalar	O‘qituvchi↔axborot muhiti↔talaba
Keys (“Case”) metodi	O‘qituvchi↔talaba talaba↔talaba	Keyslar	O‘qituvchi↔axborot muhiti↔talaba
Loyiha metodi	O‘qituvchi↔talaba talaba↔talaba	Forumlar	O‘qituvchi↔axborot muhiti↔talaba
“Aqliy hujum”	O‘qituvchi↔talaba	Kahoot, Veb kvest	O‘qituvchi↔axborot muhiti↔talaba
Muammoli ma’ruza	O‘qituvchi↔talaba	Audio va videoma’ruza	O‘qituvchi↔axborot muhiti↔talaba

2-jadval

Ma’lumki, an’anaviy ta’limda ma’ruza mashg‘ulotlari ta’limning asosiy tashkiliy shakllaridan biri bo‘lib, boshlang‘ich bilimlarni egallashga qaratiladi. Ta’limning nazariy asoslarini ta’minlash, talabalarning bilish jarayonlarini va ma’lum bir o‘quv faniga qiziqishini oshirish, o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish ma’ruzaning boshlang‘ich vazifasi sanaladi. Shubhasiz, an’anaviy ta’limda ma’ruza bir qator afzalliklarga ega: tinglovchiga ma’lumotni yetkazishning qulayligi; o‘qituvchining talaba bilish faoliyatiga hissiy ta’sir etish. Quyida o‘quv jarayonining yangi elementllari keltirilgan (1-rasmga qarang).




1-rasm. O‘quv jarayonining yangi elementlari

Ma’ruzachi o‘qituvchi yuksak nutq egasi, notiqlik mahoratiga ega bo‘lishi, shuningdek, tinglovchilarning idroki, tafakkuri va ruhiyatini, yosh xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Aralash ta’limda esa ma’ruza materiallari va taqdimotlar o‘quv platformalariga joylashtiriladi, talabaga darsda yoki istalgan vaqtda mustaqil o‘rganish uchun foydalanish imkonini beradi. O‘qituvchi kirish ma’ruzasida talabalarga aralash ta’limda o‘quv jarayonini tashkil etish xususiyatlari, platforma interfeysi, onlayn kursning mazmuni va tuzilishi haqida ma’lumot beradi. Raqamli texnologiyalar tufayli mahoratli o‘qituvchilar uchun keng auditoriyaga ma’ruza mashg‘ulotini o‘tkazish imkoni tug‘iladi. “Teskari sinf” modeli misolida oladigan bo‘lsak, o‘qituvchi ma’ruzani o‘qib, talabalar keyinchalik foydalanish uchun platformaga yuklab qo‘yadilar, onlayn guruhlarda tahsil olayotgan ko‘plab talabalarga, hattoki fundamental bilimni oshirish maqsadida o‘qituvchilar vebinarlar tashkil qilishi mumkin. Bularning barchasi o‘qituvchining o‘z yutuqlarini, adolatni tan olishni, hurmat va boshqalar orasida kerakligini his qilish imkonini beradi. Aralash ta’limda audio va videoma’ruzalar, animatsiya va simulyatsiyalardan foydalanish, o‘quv jarayonini qulay, talabalar uchun tushunarli va qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi. Shuningdek, aralash ta’lim jarayonida turli loyihalar va konferensiyalar tashkil etish orqali talabalarning jamoaviy hamkorligini oshiradi.

Yangi sharoitlarda ma’ruza mashg‘ulotlarini tashkil etishda yangicha uslubiy yondashuvlar

talab etiladi. O‘quv jarayonini shunday tashkil etish kerakki, talaba o‘quv materialining ma’lum bir qismini masofaviy texnologiyalar yordamida mustaqil o‘zlashtirsa, qolgan qismini esa o‘qituvchi darsni ma’ruza-seminar, ma’ruza-muloqot, ma’ruza-munozara va boshqa ko‘rinishlarda tashkil etish imkoniga ega bo‘lsin. Bunday interfaol ma’ruzalarni tayyorlanmagan talabalar bilan o‘tkazish qiyinchilik tug‘dirishi yoki imkonsiz bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi har bir ma’ruza materialini diqqat bilan tanlashi kerak, chunki har bir o‘quv materiali o‘qituvchining izohisiz talabalar tomonidan mustaqil ravishda tushunilishi va o‘zlashtirilishi mumkin emas. Pedagoglar ta’limda bunday yondashuv bilan talabalarning o‘quv materialini mustaqil ravishda faolroq ishlab chiqishga majbur bo‘ladilar. Masofaviy texnologiyalar asosida bilimlarni mustaqil egallash o‘qituvchi rahbarligidagi seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarini turlicha variantda o‘tkazish imkonini beradi. Ta’lim texnologiyalarining shakllanishining o‘ziga xos xususiyati texnik vositalardan ustunligidir. Ta’limda interfaollik esa ta’lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini ko‘rib chiqishga olib keladi. O‘qituvchi o‘quv materiallarini tasvirlar shaklida namoyish etadi, bu esa aralash ta’lim sharoitida talabalarning ishlashga tayyorligini shakllantirishda qo‘llaniladigan eng muhim qismi bilim va ma’lumotlarni fikrlar orqali namoyish etishidir. Aralash ta’limda quyidagilar samarali texnologiyalar sanaladi: “video va audioma’ruzalar, multimedia ma’ruzalar; laboratoriya mashg‘ulotlari; elektron darsliklar; test topshiriqlari; axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda maslahatlar olish, videokonferensiyalarda qatnashish”. Quyida o‘quv jarayonini tashkil qilish bo‘yicha “Teskari sinf” texnologiyasi keltirilgan (2-rasmga qarang).



Aralash ta’lim texnologiyasi tufayli ma’ruza mashg‘ulotlarini mustaqil videoma’ruzalarni ko‘rish orqali o‘zlashtirish imkoni paydo bo‘ldi va muayyan mezonlar asosida videotaqdimotlar yaratish talabalarning ijodiy faoliyatini takomillashtirish, seminar va amaliy mashg‘ulotlarda (auditoriyada) muhokama qilish, talaba-talaba, o‘qituvchi-talaba hamkorligini rivojlantirish mumkin.Auditoriyadatashkilqilinganmuhokamalartalabaningkommunikativkompetensiyasini rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Bunday yondashuv talabaning ish yukini kamaytiradi, bilim faolligini oshiradi. Shunday qilib, talabaning mustaqil ta’limdagi rolini kuchaytirish ma’ruza materiallarini mustaqil o‘rganish orqali amalga oshiriladi, mavzu yuzasidan turli topshiriqlarni bajarish va auditoriyada muhokama qilish XXI asr “4C” kompetensiyalarining rivojlanishiga yordam beradi.

Talabalarningmustaqilta’limi(auditoriyadantashqari)dastlabkibilimlarnimustahkamlashga

qaratilgan ma’lumotlarni rivojlantiruvchi o‘qitish usullari guruhiga kiradi. An’anaviy ta’limda talabalarning mustaqil ta’limi faqat tavsiya etilgan adabiyotlar bilan mustaqil ishlashdan iborat. Aralash ta’limda esa mustaqil ta’lim chegarasi birmuncha kengayadi, talabalar nafaqat qog‘oz tashuvchilar (o‘quv adabiyotlari, qo‘llanmalar), balki o‘quv dasturlari, elektron ta’lim resurslari, test tizimlari, ma’lumotlar bazalaridan foydalanadilar. Aralash ta’limda talabalarning mustaqil ishlash imkoniyatlarini kengaytirish, o‘quv jarayonining tashkiliy jarayonlarini oshirishga olib keladi. Ko‘pincha talabalarning nazariy ma’lumotlar bilan mustaqil ishlashi, joriy va oraliqlarni mustaqil nazorat qilishi, muayyan mavzu bo‘yicha mustaqil izlanishi, kompyuter simulyatsiyalari bilan seminar va amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgalik ko‘rishi va boshqalar misol bo‘ladi.

Aralash ta’lim sharoitida o‘qituvchilarining ishlash ko‘nikmalarining o‘zlashtirishi nafaqat talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini va o‘zaro hamkorlikni tashkil etishga, balki muammoli qidiruv usullaridan foydalangan holda guruhlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish imkonini beradi. Talabalarni o‘qitishda reproduktiv usullaridan ijodiy-kognitiv usullariga o‘tish aralash ta’limning asosini tashkil etadi. Aralash ta’lim tizimi turli xil pedagogik texnologiyalarni o‘z ichiga oladi, o‘qituvchiga talabalarning ijodiy va tadqiqot faoliyatlatlarini yuzaga chiqarish va takomillashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, aralash ta’lim faoliyatni tashkil etish va mustaqil rejalashtirish, bilim egallash va tahlil qilish, ma’lumotlarni qidirish va saralash, qaror qabul qilish hamda mustaqil shug‘ullanish qobiliyatini rivojlantiradi. Bundan tashqari, loyihalarni taqdim etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, shu bilan birga, talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun muhim sanaladi.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “Blended learning” o‘quv jarayonining eng yangi konsepsiyalaridan biridir. Ta’lim tizimida yangi texnologiyalarini joriy etish, maqsadga erishishning yangi usullarini o‘rganish, barcha qatlam vakillari uchun sifatli ta’lim imkoniyatlarini yaratishga harakat qilish, yangi, gibrid ta’lim metodologiyasini yaratish uchun sinfda o‘qitishning an’anaviy usullari va o‘z-o‘zini boshqarish usullarini birlashtirgan elektron ta’lim usulini tavsiflash maqsadida aralash ta’limni tobora ko‘proq qo‘llash zarur. “Blended learning”dan ta’lim jarayonida keng foydalanish orqali sohadagi bir qancha muammoli vaziyat va kamchiliklarni bartaraf etish bilan bir qatorda, ta’lim sifatini yanada oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirish, loyiha ishlarini himoya qilishlari, talaba hamda o‘qituvchi o‘rtasida mavzu yuzasidan bahs-munozaralar tashkil etishlari, ijodiy va amaliy vazifalar, nazorat testlarini topshirishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Australian National Training Authority, Definitions of Key Terms Used in e-learning, 2003.

2. Bersin & Associates. 2003. Blended Learning: What Works? An Industry Study of the Strategy, Implementation, and Impact of Blended Learning. San Francisco, CA: Pfeifer.

3. Bonk, C.J. Graham, C.R. 2004. Handbook of blended Learning: Global Perspectives, Local Designs. San Francisko, CA:Wiley.

4. Colis, B. and Moonen, J., Flexible Learning in a Digital World: Experiences and expectations, 2001

5. Driscoll, M. Blended learning: Let’s get beyond the hype. e-Learning,Learning and Training Newsline 2002.

6. Harriman, G. 2004. What is blended learning. E-learning Resources.

7. H.W.Fowler, F.G. Fowler, E. Allen Robert, The Concise Oxford Dictionary of Current English. – Print book : English : 8th ed. – Oxford : Clarendon Press ; New York : Oxford University Press, 1990.. The Concise Oxford dictionary of current English. (1990 edition) | Open Library

8. Kane, G. C., & Alavi, M. (2007). Information technology and organizational learning: An investigation of exploration and exploitation processes. Organization Science, 18(5), 796–812. https://doi.org/ 10.1287/orsc.1070.0286

9. New South Wales Department of Educational and Training. Blended learning, Learning technologies, 2005

10. Node Learning Technology Network. 2001. The Node’s Guide to Blended Learning: Getting The Most Ourt of your Classroom and the Internet. Available at: http://thenode.org/guides/blended/blended. pdf.

11. Oliver, M., & Trigwell, K. Can ‘blended learning‘ be redeemed? E-learning and Digital Media, 2(1), 17–26., 2005

12. Protector C.T. Blended Learning in Practice, available at: www.ece.salford.ac.uk/proceedings/papers/cp_03rtf

SINF VA GURUHLARDA INKLYUZIV TA'LIM TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISH

Temirov Abdumalik Ikrom o'g'li
Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi.
Orcid-ID: 0009-0009-2203-3405

Annotatsiya. Ushbu maqolada sinf va guruhlarda inklyuziv ta'lim tushunchasini rivojlantirish, ta'lim oluvchilar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratish, imkoniyati cheklangan ta'lim oluvchilarda ta'lim jarayonida kuzatiladigan muammolar va ushbu muammolarni bartaraf etishda pedagog faoliyati va vazifalari nimalardan iborat ekanligi, inklyuziv ta'limni amalga oshirish yo'llari haqida fikr mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Inklyuziv, nogironlik, imkoniyati cheklanganlik, guruh, pedagog, dars, muhit, oila, sinf, darslik.

РАЗВИТИЕ КОНЦЕПЦИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В КЛАССАХ И ГРУППАХ

Темиров Абдумалик Икром ўғли.
Бухарский государственный педагогический институт, Преподаватель кафедры педагогики

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие концепции инклюзивного образования в классах и группах, создание равных образовательных возможностей для учащихся, проблемы, наблюдаемые в образовательном процессе учащихся с ограниченными возможностями здоровья, а также каковы деятельность и задачи педагога по устранению этих проблем, инклюзивные Представлены мнения о путях реализации образования.

Ключевые слова. Инклюзив, инвалид, инвалидность, группа, педагог, урок, среда, семья, класс, учебник.

DEVELOPING THE CONCEPT OF INCLUSIVE EDUCATION IN CLASSES AND GROUPS

Temirov Abdumalik Ikrom o'g'li
Bukhara State Pedagogical Institute Teacher of the Department of Pedagogy.
Orcid-ID: 0009-0009-2203-3405

Abstract. In this article, the development of the concept of inclusive education in classes and groups, the creation of equal educational opportunities for students, the problems observed in the educational process of students with disabilities, and what the pedagogue's activities and tasks are in eliminating these problems, inclusive Opinions about ways to implement education are presented.

Keywords. Inclusive, disabled, disability, group, pedagogue, lesson, environment, family, class, textbook.

Bolalar ongida irqchilik, nogironlik hamda imkoniyatlar kengligi xususida to'g'ri tushunchalarni shakllantirish inklyuziv ta'limning samaradorligini oshirishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Noto'g'ri tushunchalarning mavjudligi sababli imkoniyati cheklangan bolalar haqoratlar va masxaralanishlarga duchor bo'lmoqdalar. Bundan ham ayanchlisi shu kabi salbiy munosabatdagi xulq-atvorni ayrim o'qituvchilarning e'tiborsiz qoldirayotganliklaridir. Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish uchun ham barcha maktablarda hamma bolalar uchun

tenghuquqli, sevimli, do‘stona iliq munosabatdagi ta’lim muhitini yaratish lozim.

Maktabda irqchilikni, nogironlik ustidan kulishni qoralanishi va turli ko‘rinishlardagi tassavvurlarga qarshi chiqib bolalar o‘rtasidagi tenghuquqlilik tushunchasini shakllantirish kerak. Shuning uchun ham quyida bolalar o‘rtasida tenghuquqlikni tushunchalarini shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar berildi:

• Pedagoglar barcha sinflarda bolalar o‘z hayotlari va his tuyg‘ularini muhokama qila oladigan o‘zaro qo‘llab-quvvatlovchi va hamjihatlikdagi ijobiy muhitni yaratishga yordam berishlari lozim;

• O‘quvchilar ongiga nogironlik-alohidalik emas, balki kamchilikning mavjudigi natijasida imkoniyatlar chegralanganligini tushuntira bilish lozim. Nogiron bolalardan qo‘rqish, jirkanish hislarini yo‘qotishga erishish talab etiladi.

Pedagoglar darslarda stereotiplarni qo‘zg‘ashdan qochishlari va tashabbuslarini qo‘llashdan keyin ham bolalar oldida sharhlamasliklari lozim. Ular bolalarga nima uchun laqab qo‘yish, masxara qilish salbiy munosabatlarni yuzaga keltirishini tushuntirib berishlari va bunga yo‘l qo‘ymasliklari talab etiladi.

Zarur bo‘lgan holatlarda imkoniyati cheklangan bolalarga ayrim o‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan salbiy munosabatlarni butun sinf bilan muhokama qilish o‘rinli hisoblanadi. Ijobiy natijaga erishish uchun oxirigacha kurashish lozim.

Har bir muhokamada bolalarning yutuqlarining uning avvalgi yutuqlariga solishtirib, qayd etib, ta’kidlab borish muhimdir. O‘quvchilar bilan turli xildagi anketalar va psixologik testlar o‘tkazishda bolaning irqiga, ijtimoiy kelib chiqishga jinsi va nogironlikka oid savollarni bermaslik ayni muddao.

O‘quvchilar ishlarini va ularning yutuqlarini barcha sohalarda maktab va maktabdan tashqari ishlarda namoyish qilib borish kerak. Darslarga materiallar tayyorlashda imkoniyati cheklangan bolaning ijod namunalarini ham qo‘llash juda katta samara beradi.

Kitob, plakatlar va dasturlarni qo‘llayotib, shunga ishonch hosil qilish kerakki, ular inklyuziv ta’limga mos kelishi kerak. Maktablar oshkoralik tamoyiliga amal qilinishi, o‘quvchilar, ota-onalar va pedagoglar o‘zaro yaqindan muloqot qila olishi muhimdir.

Inklyuziv ta’limni amalga oshirish yo‘llari.

Yuqorida keltirib o‘tilganlarni maktab hayotiga joriy etish uchun o‘qituvchilar o‘quvchilar bilan har kuni ularni qiziqtiruvchi, ular uchun ahamiyatli yoki havotirga soluvchi, tahlikaga tushiruvchi sabablar, mavzular haqida suhbatlashish imkoniyatini topish zarur.

Bu jarayon barcha o‘quvchilarning jumladan, imkoniyati cheklangan bolaning ham ichki dunyosini o‘rganish, muammolarini anglash imkonini beradi. Agar alohida ehtiyojli o‘quvchi o‘z ichki kechinmalari haqida gapira olmasa, unda uyalish, hadiksirash hissi kuchli bo‘lsa shunday yo‘l tutish lozimki, butun sinf uni qo‘llab-quvvatlasin. Bunday muhitda har bir bola o‘zini xavfsiz sezadi va o‘z kechinmalarini boshqalarga qo‘rqmay bayon eta oladi. Shuningdek, o‘qituvchi diskriminatsiya ildizlarini tarixiy va zamonaviy holda shunday tushuntirishi kerakki, bolalar insonlardagi istalgan farqlarni tushunish va qabul qilish mumkinligini anglab yetsinlar. Ayniqsa ushbu vazifani o‘quvchilar ongida kichik yoshidan boshlab shakllantira bilish kerak.

Bunday muammolarni ayrim bolalar bilan tanaffusda ochiq jamoat bilan muhokama qilishi yaxshiroq samara beradi. Lekin ayrim holatlarda yakka, holdagi muhokama eng yaxshi variant bo‘lishi ham mumkin. Barcha sinf va guruhlarda agar kimnidir xafa qilishgan bo‘lsa, (ozgina bo‘lsa ham pedagog darsini to‘xtatish va buni muhokama qilishi lozim). Muhokamaning maqsadi ijobiy munosabatni rivojlantirishdir.

Darslarda o‘quvchilar guruhini shunday joylashtirish kerakki, bolalarda alohida holda, moslamalardan bir oz foydalanib ishlash imkoniyatiga ega bo‘lsin. Pedagogda ma’lum o‘quv rejalarida majburiy bo‘lgan topshiriqlarga egiluvchan, moslashuvchan munosabatda bo‘lish kerak.

Sinfni guruhlarga, juftliklarga bo‘lish va individual topshiriqlar topshirishlari kerak. Guruh

tarkibini turli o‘quvchilardan iborat ekanligiga ishonch hosil qilish (bolalar qiziqishlarini hisobga olib) guruhlarda nogiron va sog‘lom o‘quvchilardan iborat bo‘lishi talab etiladi.

O‘qituvchi har bir bolaning bajargan ishini individual baholashini va sinf yutuqlarini rivojlantirishga chorlashi ham muhim.

Yuqoridagilardan tashqari alohida e’tiborni bolalar oyoqlarini uzoq muddatga chalkashtirib o‘tirmasliklariga qarating, chunki bu noqulay, ularning jismoniy rivojlanishlariga yomon ta’sir etadi va diqqatni pasayishiga olib keladi. Ayrim bolalarga oyoqlarini chalkashtirib o‘tirish umuman mumkin emas. Masalan, bolalar argriti bo‘lgan bolalarga, shuningdek imkoniyati cheklangan bolalarning qulay o‘tirishlari uchun turli yordamchi vositalardan yostiqlar, stullar va boshqalardan foydalanish kerak.

Inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirishning ba’zi bir xususiyatlari.

Aravachaga yuradigan yoki hassa va boshqa moslamalar orqali harakatlanuvchi bolalar uchun sinfdagi harakatlanish joylarini yetarli ekanligiga ishonch hosil qilish maqsadida quyidagilarga e’tibor bering:

• Ko‘rish va eshitish qiyinchiliklariga ega bolalar gilam va partalar orasida butun sinf faoliyatida ishtirok eta oladigan tarzda o‘tirganlariga ishonch hosil qiling;

• Ta’lim olishda qiyinchilikka uchraydigan bolalar o‘yinlarda ishtirok etishlariga imkoniyat yaratilgan va bunda ta’lim olish imkoniyatlarini qo‘llay olishlariga ishonch hosil qiling;

• Turli xil tibbiy muammolarga ega bolalarning ayrimlari tez-tez ovqatlanish, suyuqlik ichish yoki boshqalarga qaraganda hojatga ko‘proq borish ehtiyojiga ega bo‘ladilar. Bunday bolalar o‘zlarini noqulay his etmasliklari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga e’tibor qarating;

•Uzoq muddat tik tura olmaydigan bolalarni ham e’tibordan chetda qoldirmang;

•Agar bolaga diqqatni jamlash yoki ko‘rinmas yashirin (autizim yoki giperfaollik natijasida diqqatning yetishmasligi) natijasida tinch o‘tirishga qiynalsa, boshqa o‘quvchilar aytilgan vazifalar bilan mashg‘ul bo‘lsalar ham diqqati tarqoq o‘quvchilarning bir nafas dam olishlariga imkon bering.

Inklyuziv ta’limda tenglik tushunchasini shakllantirish yo‘llari.

• Pedagoglar imkoniyati cheklangan biror bir katta yoshdagi shaxsni taklif etish asosida nogironlikning ijtimoiy holatlari haqida suhbatlashish natijasida o‘quvchilarga nogiron insonlar hayoti, ularning yutuq va muammolarini tushuntirib berishlari mumkin. Sinfni nogironlik-imkoniyatlarning chegaralanganligi tushunchalarini tushuntirib, kimlar nogiron hisoblanishini aytib, o‘quvchilarga to‘g‘ri tushuncha bera oling.

• Kasal bo‘lgan yoki qisqa muddatga biror joyini jarohatlagan inson bilan nogiron inson orasidagi farqni tushuntirib bering. Ko‘pgina bolalar kasallik yoki jarohatlanishi tajribasiga egalar. Ular bilan shu haqida va ularning tanalarida yuz bergan o‘zgarishlar haqida suhbatlashing. Ulardan bunday vaqtda o‘zlarini qanday his qilganliklarini so‘rang. Ularga nogironlik bu batamom tuzalib ketmaslik yoki sog‘ayish uchun yillar kerak bo‘ladigan holatda tana bilan yuz beradigan hodisa ekanligini tushuntiring. Nogironlikning ko‘rish, eshitish, ruhiy va boshqa jarayonlarning zaifligi, kamligi kabi oddiy tushuncha ekanligini o‘quvchilar ongiga singdiring.

• Nogiron insondan o‘z hayoti haqida gapirib berishni iltimos qiling, bu bolalar uchun katta taassurot qoldiradi.O‘z hayotlarida kechirgan qiyinchiliklar, muammolar, boshqalarning munosabatlari, nima sababdan kamsitishlarga uchraganligi va hokazolar. Bu o‘quvchilardan o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilishga yordam berdi.

• Sinflar oshkoralik tamoyili asosida barcha masalalarni muhokama qilish lozim. Bolalar o‘z tajribalarini yoki o‘zlarini taniydigan masalan, qarindoshlari yoki do‘stlarining nogironligi

haqida gapirib berishlari mumkin. Boshqalarning masxaralashlari, haqorat qilishlari qanday ta’sir qilganligini so‘zlab berayotgan vaqtda imkoniyati cheklangan o‘quvchining hikoyasini qo‘llab-quvvatlab turish kerak. Barcha nogironlar sinfda o‘zlarini erkin sezishlari va bemalol gaplashishlari lozim, hattoki yashirin turdagi nogironlar ham (masalan, tutqanog‘i bor, qandli diabetlar, surunkali astmalar).

• Pedagog so‘zga chiqqan nogiron bolaning yoki sinfdagi istalgan nogiron bolaning erishgan yutuqlarini yoki qobiliyatlarini qayd etib o‘tishi mumkin. Shuningdek quyidagilarga ham e’tibor qarating:

1. Insonlar o‘rtasidagi farqlar mavzusini tushuntirish uchun rasm chizish, o‘yin o‘ynash, spektakl, musiqa, ashula, hikoyalardan foydalaning. Shuni har doim eslatib turingki, har tomonlama sog‘lom insonlarning hammasi ham jamiyatga foyda keltiravermaydi.

2. O‘quvchilarga aslo laqab qo‘ymang. Butun sinfni guruhlarga bo‘lib katta formatdagi qog‘ozga yoki doskaga nogironlik haqida eshitgan so‘zlarini barchasini yozishlarini talab eting. So‘ngra butun sinfdan yoki har bir guruhdan salbiy deb hisoblangan so‘zlarni alohida ijobiy deb hisoblanganlarini alohida ajratib yozishlarini so‘rang. Bolalar bilan ularning o‘zlarini boshqalar mana shu so‘zlar bilan atashganda qanday his qilishlarini muhokama qiling. O‘zingizda mana shu so‘zlarning ayrimlarini kelib chiqishi yozilgan kartochkalar bo‘lsin.

3. Maktabdagi atrof-muhit. Maktab atrofida imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning erkin va muammosiz harakatlanishiga ham o‘qituvchi eng birinchi galda e’tibor qaratishi talab etiladi. Shuning uchun ham siz aravachada o‘tiradigan o‘quvchi bilan maktab atrofini aylanib chiqing. Natijalarini muhokama qiling va yozma tarzda maktab rahbariyatiga taqdim eting.

4. Tashqi olam. Sinf bilan sizning mahalliy do‘koningizning atrofini barcha hudud va alohida segmentlarini tasvirlang, xarita bilan sayr qiling. Oldin ayrim do‘kon turlari yoki xizmat qilish binolarini belgilash uchun belgilarini kelishib oling. Bolalarga oziq-ovqat do‘konlarini, sartaroshxonalari, banklar, restoran, dorixonalarning aravachada harakatlanuvchi insonlar uchun to‘siq bo‘la oladigan jihatlarini daftarda belgilab borishni taklif eting. Aniqlangan belgilar bo‘yicha butun sinf bilan muhokama o‘tkazing. Shuningdek bolalarning aniqlanganlari bo‘yicha nimalarni o‘ylayotganliklarini ham har biridan so‘rang. Munozara natijasida guruhlar sinfda quyidagi topshiriqlari asta-sekinlik bilan bajarishlari mumkin:

A) Tashkilot rahbariyatiga muassasasining nogironlarga noqulaylik jihatlari aniqlanganlarini tushuntirish xati asosida yozib tushuntirish ishlarini olib borish;

B) Qulaylik barchaga kerakligini va nima uchunligini aks ettirgan devoriy gazeta yaratish yoki chizish.

V) Xizmat ko‘rsatish sohalarida qulaylik mavjud bo‘lmaganda nogironlarda yuz beruvchi ayrim muammolarning aks ettiruvchi rolini sahnalashtirish.

G) Umumiy majlis uyushtirish va butun sinf o‘quvchilarini maktabda amalga oshirgan ishlari haqida ma’lumot berishlari.

Imkoniyatlar chegaralanganligi tushunchasini muhokama qilish bosqichlari.

1. “Nogiron” so‘zidan uyalmang. Bu so‘zni siz kimlarningdir

imkoniyatlari cheklanganligini bayon etish uchun emas ko‘proq jamiyatning insonlarga bo‘lgan munosabatini bildirish uchun qo‘llashingiz mumkin.

2. Nogironlik haqidagi suhbat o‘quvchilar o‘rtasidagi farqlarni muhokama qilishning bir qismi bo‘lishi kerak, masalan, irqi, jinsi, dini, madaniyati va boshqalar haqidagi ma’lumotlar kattalar kundalik muloqotining bir qismi bo‘lishi kerak.

4. Darslarni nogironlar hayoti bilan bog‘lab olib boring. Masalan, tarix darslarida imkoniyati cheklangan insonlar haqidagi tarixiy materiallarni kuzatish, matematika darslarida shunga oid muammolarni yechishga qaratilgan topshiriqlar berish (masalan, o‘quvchilarga binoga aravacha kirishida mos yo‘lka qurish uchun proporsiya tuzish topshirig‘i beriladi).

5. O‘quvchilarga insonlarning cheklangan imkoniyatlari haqida savollar berishni man etmang. Yaxshisi gapirilayotgan insondan so‘rang, uning o‘zi mana shu savolga javob berishni

istaydimi. Agar istamasa bolaga bu inson hozir ushbu mavzuda gaplashishni istamayotganini tushuntirish kerak. Masalan, sizning o‘zingiz javob bera olasiz yoki javob topa olasiz, boladan mana shu haqida bir oz keyinroq so‘rashni taklif eting.

6. Siz nogironlik haqida baxtsizlik haqida gapirgandek gapirmayotganingizga amin bo‘ling. Imkoniyati cheklanganlar o‘zlarini kasal sifatida his qilishlari yoki ortiqcha davolanishga ehtiyoj sezishlari shart emas. Nogiron bolalar uchun ularning hayotlarida katta yoshdagi nogiron insonlarning ijobiy hayotlaridan namunalar ko‘rsatilishi, o‘zi haqida va o‘z hayoti haqida ijobiy lug‘at boyligining bo‘lishi muhimdir.

7. Imkoniyati cheklangan bolalarga o‘zlarining cheklangan imkoniyatlari haqida gapirib berishga imkon bering, lekin istamasalar majburlash mumkin emas.

8. Imkoniyati cheklangan bolaning xohish-istaklari, qiziqishlari va ehtiyojlarini doimiy ravishda so‘rab turing.

9. Shunday muhit yaratingki, bolalar o‘z fikrlari va qiziqishlarini mustaqil bildira olsinlar.

10. Bolalarning o‘zlaridan oilalarida, tanishlari orasida nogironlar bor yoki yo‘qligini so‘rang. Ularga mana shu insonlar haqida savollar bering. O‘quvchilarga erkin gapirishlariga imkoniyat yarating, ammo haqoratli va masxaromuz mulohazalarga darhol chek qo‘ying.

XULOSA. Imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlar inklyuziv ta’limi bugungi kunning eng dolzarb va muhim masalasidir. Chunki alohida ehtiyojli bolalar inklyuziv ta’limining samarali tashkil etilishi natijasida imkoniyati cheklangan farzandlari mavjud bo‘lgan oilalarning moddiy va ma’naviy muammolariga barham beriladi va mahallarda ajratish iskanjasidan qutulishga imkon yaratiladi.

- imkoniyati cheklangan bolalarni maktablar va jamoatchilik orasida kamsitishlarning oldi olinadi, bolalar o‘rtasida tenghuquqlilik ta’minlanadi, do‘stona munosabatlar shakllanadi;
- maxsus ehtiyojli bolaning o‘z oilasi va jamiyat davrasida bo‘lishdek ulkan imkoniyat yaratiladi;
- jamiyatning yanada inklyuzivlashuviga olib keladi;
- barcha uchun ta’lim sifati yanada yaxshilanadi;
- imkoniyati cheklangan bolalar sog‘lom tengdoshlari orasida tabiiy sharoitlarda yashash va mehnat qilishga moslashadilar;
- imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy jamiyatga erta va samarali moslashishlari ta’minlanadi, ya’ni jamiyatda boshqalar ko‘magiga qaramlar soni kamayadi. Inklyuziv ta’limni joriy etish borasida Respublikamizda ko‘zga ko‘rinarli yutuqlar qo‘lga kiritilayotgan bo‘lsada ammo, juda ko‘plab umumta’lim muassasalarida kompleks tibbiy-pedagogik yordam olish imkoniyatining yo‘qligi;
- umumta’lim muassasalari pedagoglari maxsus metodikalarni bilmaganligi sababli imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ehtiyojlarini qondira olmayotganligi;
- umumta’lim muassasalarida tiflotexnik, surdotexnik vositalar mavjud emasligi;
- sinfda o‘quvchilar sonining ko‘pligi natijasida imkoniyati cheklangan o‘quvchilargi individual yondashish jarayoning qiyinligi;
- imkoniyati cheklangan bolalar o‘qituvchi tomonidan ko‘proq diqqat-e’tibor talab qilishi oqibatida, boshqa o‘quvchilarning o‘zlashtirishiga salbiy ta’sir ko‘rsatyotganligi;
- umumta’lim muassasalarining binolari imkoniyati cheklangan bolalarning xususiyatlariga mos ravishda qurilmaganligi sababli maktabda xarakatlanishga qiynalayotganligi;
- ota-onalarda inklyuziv ta’lim xususidagi tushunchalarning juda sayozligi natijasida, qarshiliklarning mavjudligi;
- imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta’lim uchun individual dasturlarning ishlab chiqilmaganligi kabi boshqa ko‘plab muammolar kuzatilmoqda. Ushbu muammolarni hal etish va inklyuziv ta’limning samaradorligini oshirishda muassasa pedagoglarining o‘rni va roli juda katta. Inklyuziv ta’limni joriy etilishi natijasida umumta’lim muassasalari pedagoglariga yanada yuqoriroq talablar qo‘yiladi. Chunki, inklyuziv ta’lim pedagoglari har bir turdagi imkoniyati

cheklangan bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning maxsus usullarini, bolalar ruhiyatidagi o‘ziga xosliklarni, imkoniyati cheklangan bolalar korreksion davlat ta’lim standartlarini ham mukammal bilishi talab etiladi. Shuningdek, o‘qituvchi normal rivojlanishdagi hamda alohida ehtiyojli o‘quvchilar o‘rtasida iliq-do‘stona, samimiy munosabatlar uyg‘ota olishi, ota-onalar ongida inklyuziv ta’lim xususida ijobiy va to‘liq tushunchalarni shakllantira olishi ham zarur.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv sinflarda o‘quv tarbiya jarayoni ijobiy munosabat va ertaga bugundan ham yaxshiroq bo‘lishiga ishonch bilan yo‘g‘rilgan bo‘lishi lozim. Har bir darsni shunday yakunlash lozimki, barcha o‘quvchilar uni ishonch va mamnuniyat bilan hamda yana va yana o‘qish, o‘rganish ishtiyoqi bilan tark etsin. Ana shunday muhitni yarata olsakkina, chinakkam inklyuziv jamiyatni qura olamiz. Barchasi biz pedagoglarning shijoatimiz va mahoratimizga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. P. Pulatova Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika). T.:
«G‘afur G‘ulom», 2007.
2. V.S. Raxmanova. “Maxsus pedagogika”. -T., ”G‘afur G‘ulom”, 2004.
3. Нишонова С. Турдикулов Э.О. Педагогик атамалар луғати. – Т. “Фан” нашриёти, - 2008. – 198 б.
4. Фарберман Б.Л., Мусина Р.Г., Жумабоева Ф.А. Олий ўқув юртларида ўқитишнинг замонавий усуллари. –Т.: 2002. – 192 б.
5. Федюкин В.К. Квалитология: Учебное пособие. Часть 1. - СПб.: Изд-во СПбГИЭУ, 2002.
6. Федюкин В.К. Основы квалиметрии. - М.: Изд-во «ФИЛИНЪ», 2004.
7. Фомин В.Н. Квалиметрия. Управление качеством. Сертификация. - М.: Ассоциация авторов и издателей «ТАНДЕМ». Изд-во «ЭКМОС»,2002.
8. Бекоева М.И. Педагогическая квалиметрия в управлении качеством образования студентов современного вуза // Nauka-rastudent.ru. – 2015. URL: http://naukarastudent.ru/18/2760/
9. www.tdpu.uz
10. www.pedagog.uz
11. www.ziyonet.uz
12. www.edu.uz
13. tdpu-INTERNET.ped

O‘QUVCHI YOSHLARDA IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK - PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Temirov Rahmatulla Ismatulla o‘g‘li
Buxoro davlat pedagogika institute pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
https://orcid.org/0009-0004-2046-5208

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab yoshidagi o`quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirishning psixologik-pedagogik imkoniyatlari to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: qobiliyat, kretivlik mezonlari ,uchinchi renessans, iqtidor, evristik kreativlik, stereotip.

ПЕДАГОГО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСТВА У СТУДЕНТОВ

Темиров Рахматулла Исматулла ўғли.
Бухарский государственный педагогический институт,
Преподаватель педагогического факультета

Аннотация: В данной статье рассматриваются психолого-педагогические возможности выявления и развития творческих способностей школьников.

Ключевые слова: способности, критерии творчества, 3 возрождение, талант, эвристическое творчество, стереотип.

PEDAGOGICAL - PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF DEVELOPING CREATIVITY IN STUDENTS

Temirov Rahmatulla Ismatulla o‘g‘li
Bukhara state pedagogical institute, Teacher of the pedagogical department

Abstract: This article discusses the psychological-pedagogical possibilities of identifying and developing creative abilities in school-aged students.

Key words: ability, criteria of creativity, 3rd Renaissance, talent, heuristic creativity, stereotype.

“Tasavvur – bilimdan muhim”
Albert Eynshteyn

Bugungi jadal sur’atda davom etayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida jamiyatni rivojlantirishning eng muhim omili bu o‘zining ijtimoiy va kasbiy funksiyalarini bajara oladigan,qaror qabul qilishda mas’uliyat bilan yondashuvchi hamda o‘zini –o‘zi rivojlantirishga qodir bo‘lgan mustaqil fikrlovchi yoshlarning ijodiy salohiyati yetakchi o‘rinni egallaydi.

Buning uchun ta’limning barcha bosqichlarida shaxsning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganish,o‘quvchi yoshlarning qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda pedagog psixologlarning faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning 2021-yil Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida ”Biz oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak”[1] – degan so‘zlari yosh avlodning barkamol shaxs bo‘lib yetishishida, ulardagi iqtidorni rivojlantirishda, ta’lim- tarbiya va muhitning o‘rni nechog‘lik muhim ekanligining isbotidir.

Shaxs tushunchasi insonga taaluqli bo‘lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyatning a’zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo‘lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o‘zini yaxlit inson sifatida his etishi, o‘z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog‘i kerak.

Bizga ma’lumki, bizdagi bilim bu biz o‘qigan kitoblar, adabiyotlar bir so‘z bilan aytganda ilmiy mutoolamizning mahsuli bo‘lib hisoblanadi. Shaxsda mana shu bilimlarni o‘zlashtirishda zamin yaratadigan shunday noyob bir xususiyat borki, biz uni qobiliyat deb ataymiz. Rus psixologi A.G.Kovalevning qobiliyatga bergan ta`rifi quyidagicha, “Birorta xususiyatning o`zini emas,balki inson shaxsining faoliyat talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatga yuqori ko`rsatkichlarga erishishni ta`minlay oladigan xususiyatlar ansambli yoki sintezini tushunish kerak.”[5,324]

Qobiliyatlar bu shaxsning aniq bir faoliyatida mavjud bo‘lgan sifatlari hisoblanadi. Qobiliyatlarning turlari bir qancha bo‘lib, tug‘ma qobiliyatlar zehn deb atalsa, iqtidor, iste’dod, talant kabilari insonning ijodiy faoliyati davomida orttiriladigan qobiliyatlari sirasiga kiradi. “Ijodkorlik bu sifat jihatdan yangi, original, takrorlanmas biror yangilikni paydo qiluvchi faoliyatdir.Ijodkorlik mahsuldor, evristik , kreativ turlarga bo‘linadi. Mahsuldor ijodkorlikda har qanday muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi. Evristik ijodkorlik jamiyatda ro‘y berayotgan kasbiy faoliyatga oid yangiliklarni o‘zlashtirishni anglatadi. Kreativ ijodkorlik yangi nazariyalarni yaratadi.”[3,323]

“Kreativlik (lotincha ; ing,”create” – yaratish,”creative” – yaratuvchi,ijodkor) – individning yangi g`oyalarni ishlab chiqarishga tayyorgarlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi.”[4,3]

Kreativlik so`zini birinchi marta 1922-yilda AQSH olimi D.Simpson qo`llagan.Olim kreativlik atamasini shaxsning ma`lum bir qolipdagi,odatiy fikrlashidan voz kechish qobiliyatini ta`riflagan. “Shuningdek,boshlang`ich sinf o`quvchilarining kreativligini rivojlantirish,faollashtirish uchun o`qituvchilar o`quvchilarni obrazli fikrlashga undashi,muammoni aniq ifodalash,fukrning doimo tugallangan jumla bilan hamda muhim joylarga urg`u berib ajratgan holda ifoda etishi,xushmuomalali va ziyrak bo`lishi,”faraz qiling”,”tasavvur eting”,”ijodiy parvoz eting” va shu kabi so`z birikmalaridan foydalanishi bo`yicha tavsiya beriladi.”[2]

Ijodkorlik — insonning ijodiy qarorlar qabul qilish, tushunish, qabul qilish va tubdan yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati.

Kundalik hayotda ijodkorlik o‘zini zukkolik — maqsadlarga erishish, atrof-muhit, ob’ektlar va vaziyatlardan g‘ayrioddiy tarzda foydalanib, umidsiz bo‘lib tuyulgan vaziyatdan chiqish yo‘lini topish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi.

Keng ma’noda, muammoni maxsus bo‘lmagan vositalar yoki resurslar bilan aniq va mohirona hal qilish. Bu, shuningdek, muammolarga jasur, nostandart yechimlar qobiliyatini ham anglatadi.

Psixologik nuqtayi nazaridan Elis Pol Torrancening so‘zlariga ko‘ra, ijodkorlik muammolarga, bilimlarni yetishmasligi yoki nomuvofiqligiga yuqori sezuvchanlik, ushbu muammolarni aniqlash, gipotezalarga asoslangan yechimlarni topish,gipotezalarni sinab ko‘rish va o‘zgartirish, yechim natijasini shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Ijodkorlikni baholash uchun turli xil fikrlash testlari, shaxsiyat anketalari va ishlash tahlili qo‘llaniladi. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun to‘liq bo‘lmagan yoki yangi elementlarni birlashtirish uchun ochiq bo‘lgan o‘quv vaziyatlaridan foydalanish mumkin.

Insonning bilim yaratish qobiliyatini ekspert va eksperimental baholash shuni ko‘rsatadiki, insonning ijodiy qobiliyatlari unchalik katta emas. Barcha xodimlarni tashkilotni doimiy takomillashtirishga jalb qilish tashkilotning ijodkorligini keskin oshiradi.

Ijodiy fikrlashni o‘lchash uchun psixologik vositalar mavjud; Psixologik amaliyot olamida

eng mashhuri Pol Torrance testidir. Ushbu test quyidagilarni baholaydi:

-og‘zaki ijodkorlik

-obrazli ijodkorlik

-Shaxsiy ijodiy qobiliyatlar:

-ravonlik miqdoriy ko‘rsatkichdir;

testlarda bu ko‘pincha bajarilgan vazifalarning turli xil yechimlari soni.

„Kichik ijodiy topshiriqlar“ dan iborat testlar bo‘yicha baholanadi — ko‘rib chiqish uchun topshiriqlar va turli jumboqlar; hal qilish jarayonining muhim o‘xshashligiga ko‘ra, ular „ko‘rib chiqiladigan vazifalar“ umumiy nomi ostida ham birlashtirilgan.

-moslashuvchanlik — bu ko‘rsatkich g‘oyalar va strategiyalarning xilma-xilligini, yangilarini yaratish, g‘oyalarni o‘zgartirish va strategiya bilan birlashtirish, bir jihatdan ikkinchisiga o‘tish qobiliyatini baholaydi.

-o‘ziga xoslik — bu ko‘rsatkich aniq, taniqli, umume’tirof etilgan, odatiy yoki qat’iy belgilanganidan farq qiladigan g‘oyalarni ilgari surish qobiliyatini tavsiflaydi.

-muammoning ildizini ko‘rish qobiliyati.

-stereotiplarga qarshi turish qobiliyati.

Shuningdek, Pol Torrance tomonidan ijodkorlikning quyidagi mezonlari tavsiflanilgan:

Ravonlik — ko‘p sonli g‘oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati;

Moslashuvchanlik — muammolarni hal qilishda turli xil strategiyalarni qo‘llash qobiliyati;

O‘ziga xoslik — noodatiy, nostandart g‘oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati;

Ishlab chiqish — yuzaga kelgan g‘oyalarni batafsil ishlab chiqish qobiliyati.

Izolyatsiya chegarasidan tashqariga chiqish, ma’lum chegaralar — stereotiplarga ergashmaslik va muammolarni hal qilishda turli xil kiruvchi ma’lumotlarga uzoq vaqt davomida „ochiq“ qolish qobiliyati.

Haqiqatan ham muhim bo‘lgan muammoning mohiyatini tushunish asosida umumlashtirilgan, mavhum nom yaratish qobiliyati. Nomlash jarayoni g‘oyalarni, majoziy ma’lumotlarni og‘zaki shaklga aylantirish qobiliyatini aks ettiradi.

Bundan tashqari, ko‘p sonli g‘oyalarni osongina yaratish qobiliyati kabi mezon mavjud.

O‘quvchi yoshlarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda “Noodatiy fikrlaymiz”, “Rasmni davom ettiring” metodikalardan va kreativ qobiliyatni aniqlaydigan maxsus testlardan foydalanish yaxshigina samara berishi ilmiy tatqiqotlar natijasida aniqlangan.

Kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim ahamiyatga ega. Albert Enshteynning “ Tasavvur-bilimdan muhim” degan mashhur iborasidan ham shaxsda kreativ qobiliyatni rivojlantirishda tasavvurning roli nechog‘lik muhim ekanligini bilish mumkin. Shaxsning ijodkorligi uning tafakkurida, shaxslararo munosabatlarida, muayyan bir faoliyat turlarida o`z aksini topadi. Ijodkorlik qobiliyati,ya`ni kreativlik shaxsda o`z-o`zidan birdaniga shakllanmaydi. Bola o‘z menligini anglashi, atrof muhitga bo‘lgan dastlabki tasavvurlar, ta’lim tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar natijasida asta sekinlik bilan shakllanib boradi.

1924- yilda angliyalik olim G. Uolles shaxsdagi ijodiy faoliyat to‘rt bosqichda kechishini ta’kidlab o‘tgan.

1) Tayyorgarlik;
2) G‘oyalarning tug‘ilishi;
3) Ularning to‘la aks etishi;
4) Tekshirib ko‘rish;

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarida ijodkorlik (kreativ) qobiliyatning rivojlanishida pedagoglarning hissiy qobiliyatga ega bo‘lishlari bu sinfdagi o‘quvchilar bilan ruhiy-hissiy yaqinlikni yuzaga keltiradi.Pirovardida esa, pedagogik faoliyatni muvoffaqiyatli tashkil etilganligi o‘quvchi yoshlarda kreativ qobiliyatning rivojanishiga zamin yaratib beradi. Bu o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga va shu bilan birga o‘zlaridagi noodatiy

fikrlarni dadil tarzda yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Sharqona ta’lim falsafasida ham Ustoz-shogird an’anasiga muvofiq, ta’lim beruvchi pedagogik jarayonni tashkil etishda ijodiy yondashuv asosida tolibning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashda va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan noodatiy metodlardan foydalanganligi tarixiy manbaalardan bizga ma’lum.

Naqshbandiya tariqatining asoschisi hazrat Bahouddin Naqshbandiy ta’birlaricha:

Nabini, vaqti sufton mardi xakkok,

Ba shogirdon dixad duri xatarnok.

Mazmuni: Ko‘rmaysanmi, durga shakl beruvchi usta durni teshayotgan paytda xatarnok (nozik va qimmatbaho) durni teshishni shogirdiga topshiradi. Bunday o‘quv holatida shogird ham ta’lim subyektiga aylanadi.

Xulosa qiladigan bo`lsak, maktab ta’lim tizimida o‘quvchi yoshlarning ijodkorlik(kreativ) qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va ularni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik-psixologik yondashuvlar faqatgina o‘quvchining individual psixologik aqliy ko‘rsatgichlari bilangina emas balki, mustaqil “ijodiy fikrlovchi jamoa” maqomiga ega hisoblanuvchi maktab jamoasining pedagogik mahorati bilan ham belgilanishi bugungi zamonaviy ta’lim jarayonida o‘z aksini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi (2021)
2. M.Ziyaqulova. TerDU talabasi. Maqola “Savod o`rgatish jarayonida o`quvchilarning kreativligini oshirish usullari”.
3. O‘.J.Yo`ldoshev tahriri ostida. Umumiy pedagogika. – T.: ”Fan va texnologiya” 2017 (323-bet)
4. M.Usmonboyeva, A.To`rayev. Kreativ pedagogika asoslari o`quv-uslubiy majmua. – T.:2016 (3-bet)
5. E.G‘oziyev. Umumiy psixologiya. O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. T.: - 2010 (324-bet)
6. https://www.psychologos.ru/articles/view/kreativnost

TEXNIK TAYYORGARLIK FANIDA VIRTUAL TA'LIMNI QO'LLASH

Turayev Jaxongir Anvarovich,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Harbiy ta'lim fakulteti boshlig'ining o'rinbosari dotsent

ПРИМЕНЕНИЕ ВИРТУАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ ПО ТЕХНИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ

Тураев Джахангир Анварович,
Бухарский государственный педагогический институт
Заместитель начальника факультета военного образования, Доцент.

APPLICATION OF VIRTUAL TRAINING FOR TECHNICAL TRAINING

Turaev Jakhangir Anvarovich,
Bukhara State Pedagogical Institute
Deputy Head of the Faculty of Military Education Docent.

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining texnik tayyorgarlik fanida virtual ta'limni qo'llash, virtual ta'lim muhiti, virtual ta'lim muhitining vazifalari, virtual ta'lim muhitining afzalliklari, virtual ta'lim muhitida o'qituvchi, uning roli keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: vertual ta'lim, o'quvchi, maktab, global axborot, vizual muhit, ta'lim, kommunikatsiya, harbiy ta'lim, texnik vosita, internet, interaktivlik.

Аннотация: В данной статье рассматривается применение виртуального образования в технической подготовке общеобразовательных школ, виртуальная образовательная среда, задачи виртуальной образовательной среды, преимущества виртуальной образовательной среды, учитель в виртуальной образовательной среде, его роль. широко освещено.

Ключевые слова: виртуальное образование, студент, школа, глобальная информация, визуальная среда, образование, общение, военное образование, оборудование, Интернет, интерактивность.

Annotation: This article discusses the use of virtual education in the technical training of secondary schools, the virtual educational environment, the tasks of the virtual educational environment, the advantages of the virtual educational environment, the teacher in the virtual educational environment, his role. Widely lit.

Keywords: virtual education, student, school, global information, visual environment, education, communication, military education, hardware, Internet, interactivity.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida texnik tayyorgarlik fanini o'qitishni rivojlantirish kontseptsiyasi, O'zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining kontseptsiyasi, 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli hamda 2019 yil 6 sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli va 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmonlari, 2025 yilgacha O'zbekiston sanoatining rivojlanishi kontseptsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagi "Yoshlarni harbiy-vatanpavarlik ruhida tarbiyalash Kontseptsiyasi to'g'risida"gi 140-sonli qarori hamda O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasi belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanining Kontseptsiya asosan maktablarning 10 va 11 sinf o‘quvchilarning chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik kompetentsiyalarini virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanib takomillashtirish.

Zamonaviy o‘zgarishlarning parametrlari va dinamikasi, global axborot infratuzilmasi, kontinentalizatsiya va globallashuvning paydo bo‘lishi, axborotning «portlashi» - bularning barchasi tizimli birlikda ta’limning tahlillarida, xususan Texnik tayyorgarlik fani o‘qituvchilarning kasbiy ta’limida yuqori sifatli innovatsion yo‘naltirilgan o‘zgarishlarga ehtiyojni aniqlaydi.

Hayotning deyarli barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatadigan sezilarli o‘zgarishlar shunchalik jadaldirki o‘rta va oliy kasbiy ta’lim tizimlari endi biron bir sohada mutaxassisni tayyorlash vazifasini hal qila olmaydi, shuning uchun professional faoliyat davomida u yetkinlik inqirozi bilan bog‘liq emas bu o‘zgarishlar orqasida qolib ketgan. Bu, eng kamida, umumiy ta’lim sohasida, birinchi navbatda, o‘qituvchilarga nisbatan qo‘llaniladi. O‘qituvchi endi ilm-fan, texnika va axborot sohasida erishilgan yutuqlarga mos kelmasligi kerak emas: ta’lim sifatini kutish zaruriyati bu taraqqiyotning professional o‘sishiga erishish zarurligini anglatadi.

Mazkur shartlar, birinchi navbatda texnik tayyorgarlik fani o‘qituvchilarni innovatsiyalarga o‘rgatish uchun virtual ta’lim muhiti salohiyatini o‘rganishning dolzarbligi va ahamiyatini belgilaydi.

Maqolaning dolzarbligi texnik tayyorgarlik fani o‘qituvchilar malakasini oshirishni yangi o‘quv muhiti nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqish zarurligi bilan bog‘liq.

Innovatsion virtual ta’lim muhitining asosiy tavsiflari va toifalari ushbu maqolada keltirilgan bo‘lib, tushunchalarning kengaytirilgan talqiniga ega lug‘at shaklida yaratilgan.

Virtual ta’lim muhiti

Virtual ta’lim sohasi - tashqi dunyoga keng tarqalib, hissiy, intellektual va intellektual qobiliyatini ishlatadigan o‘quvchining faoliyati orqali o‘zining tashqi sohalarini kashf eta oladigan makondir.

Virtual o‘quv muhiti:

- Bu o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan ta’lim maqsadlarida tashkil etilgan va foydalaniladigan mahalliy, korporativ va global kompyuter tarmoqlarining axborot mazmuni va kommunikativ imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi;

- O‘quv jarayonining barcha ishtirokchilarini samarali muloqot qilish uchun yaratilgan va ishlab chiqilgan;.

Ta’lim olishning an’anaviy usullaridan farqli o‘laroq, ta’lim kommunikat-siyaning tabiati, bilvosita, ham uzoq, ham an’anaviy tarzda «ko‘zdan-ko‘zga» olib boriladi.

Virtual ta’lim muhiti tezkor o‘sib borayotgan, ko‘p bosqichli va ko‘p funktsional tizimni birlashtiradi:

1) asinxron individual ta’limning ochiq modeli doirasida o‘quv jarayonida ishtirokchilarning o‘zaro aloqalariga xos innovatsion va an’anaviy texnologiyalar;

2) axborot resurslari: ma’lumotlar bazalari va ma’lumotlar, kutubxonalar, elektron o‘quv materiallari va h .;

3) zamonaviy dasturiy ta’minot: dasturiy ta’minot kabinalari, elektron aloqa.

Virtual ta’lim muhiti vazifalari

Ma’lumot va trening (turli xil ta’lim ma’lumotlarining shakllarida taqdim etilgan);

Aloqa (o‘quv jarayoni ishtirokchilari bilan muloqotda bo‘ladi);

Nazorat va ma’muriy (bilim, ko‘nikma va boshqaruv darajasini nazorat qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ko‘rilmoqda).

Virtual ta’lim muhitida texnik tayyorgarlik fani o‘qituvchisining o‘rni quyidagilardan iborat:

- texnik tayyorgarlik fani o‘quv jarayonining tashkilotchisi, bilim oluvchisi va o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini baholaydi, innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda virtual o‘qitish muhitida o‘qitish ishlarini olib boradi.

Maslahatchi, trening va postdan keyin o‘qitish jarayonida professional pedagogik yordamni tashkil etishi zarur;

Virtual ta’lim muhitining afzalliklari

O‘quvchi moslashuvchanligi quyidagicha ko‘rsatib o‘tilgan:

- Barchasi trenajor Internet texnologiyalari orqali amalga oshirilganligi uchun qulay joyga joylashadi;

O‘quvchilar ta’lim muassasalariga joylashtirilishidan masofa samarali o‘quv jarayoni uchun to‘sqinlik qilmaydi;

O‘zlari uchun qulay vaqtda qatnashadi. Har bir inson o‘z biologik «soatiga» ega va ularga qarab sinflar vaqtini tanlashi va o‘zgartirishi mumkin: biri erta tongda, ikkinchisi esa kechaning kechqurunida samarali bo‘ladi;

O‘z didaktikasini qurish orqali o‘tilgan nazariy va amaliy mashg‘ulot jarayonlarini qayta ko‘rib chiqadi, avvalgi darslardagi saqlangan materiallarga murojaat qila oladi va o‘qituvchi bilan virtual makon orqali bog‘lana oladi;

Muayyan bo‘limlarga konsentratsiyalash, har bir bo‘limni, modulni va zarur bo‘lgan vaqtni blokirovkalash. Shunday qilib, uni tezroq qilish orqali vaqtni tejash mumkin;

O‘qituvchi bilan yakka holda muloqot qila oladi. Jarayonning texnik va mazmunli interaktivligi tufayli virtual o‘quv muhitida ta’lim antropocentricity va sub’ekt sub’ektlik ta’limida amalga oshirilishiga imkon beradi.

Iqtisodiy samaradorlik.

O‘quv mashg‘ulotlarini amalga oshirish uchun talaba va ta’lim tizimining xarajatlari ta’lim sohasi, vaqt va texnik resurslardan samarali foydalanish maksadida kamayadi.

O‘qituvchining yangi roli. Yangi xususiyatlar:

O‘quv-uslubiy majmuani tayyorlash, virtual o‘quv muhiti atrofidagi materiallarni joylashtirish;

O‘quv jarayoni virtual o‘quv muhitida qanday amalga oshirilishini, o‘qituvchilar dars materiallari bilan qanday tanishishi, topshiriqlarni qanday topshirishlari, forumlarda ishtirok etishlari, muloqot qilishlari va boshqalar bilan tanishishlari uchun tanishtiruvchi tashkiliy darsni o‘tkazish;

Kelajakdagi professional faoliyat muhitida o‘rganish - o‘quv muhitida ta’lim olish;

Kurs materiallari samaradorligini kuzatish;

O‘quvchilarning mustaqil ishi bo‘yicha topshiriqlarni bajarilishini nazorat qilish;

Kollektiv muhokamalarda ishtirok etish, forumlar va suhbatlar, veb-seminarlar, veb-kvestlar;

Munozaralarni, yuzaga kelgan savollarga javoblarni umumlashtirish;

O‘qituvchilar bilan forum, lahzali xabar almashish tizimi, Skype va boshqalar orqali muloqot qilish;

Virtual o‘quv muhitining innovatsion salohiyatidan amaliy foydalanish:

O‘quv jarayonlarini zarur o‘quv materiallari bilan ta’minlash; o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar; trening tizimidagi boshqaruv axborotlarini almashish; aloqa uchun xalqaro axborot tarmoqlaridan foydalanish, professional pedagogik yordamni amalga oshirish, axborotni o‘zlashtirishni nazorat qilish;

Virtual ta’lim muhiti, birinchi navbatda, mehnat muhiti va innovatsion ta’lim faoliyatiga aylanadi: «Doingle leaming!» - «Doing o‘rganing!» (Dewey printsipi, XIX asr); amaliyoti davomida o‘z tajribangizni qurish;

O‘qituvchini malakasini oshirish, nou-xauga ega bo‘lish va o‘z faoliyatining natijalarini

tezda baholash va zamonaviy asbob-uskunalar va texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘qitishning afzalliklarini o‘rganish imkoniga ega bo‘lganligi sababli o‘qituvchini muvaffaqiyatli vaziyatga qo‘yish.

Interaktivlik

O‘qituvchilar, murabbiylar, ma’murlar bilan muntazam aloqada bo‘lish jarayonida yangi ta’lim shakliga moslashish va kasbdagi virtual ta’lim muhiti innovatsion salohiyatidan foydalanish jarayonlarini tushunish;

Talaba va umuman tizim o‘rtasida axborot almashinuviga tayanish;

Ko‘p tomonlama o‘zaro ta’sirni amalga oshirish.

Hosildorlik va samaradorlik

O‘qituvchining mustaqil va ongli ravishda o‘qitish kursini tanlaganligi, o‘z kasbiy malakasi bo‘yicha o‘z baholagiga asoslanib, pedagogik amaliyotda qo‘llaniladigan ma’lum professional bilimlar va ko‘nikmalarga, hosildorlik va o‘quv samaradorligining boshqa ta’lim shakllariga nisbatan taqqoslanadigan darajada ortib borishi zarurligiga asoslantirilgan holda belgilanadi.

Virtual ta’lim muhitida o‘qituvchi virtual o‘quv muhiti metodikasi

Virtual ta’lim muhitida o‘qituvchi, uning roli:

Yangi aloqa shaklida - asenkron «suhbat» da virtual munozaralar boshqacha tarzda amalga oshiriladi (xabarlarning qisqartirilishi va aniqligi, bayonlarning aniqligi muhim jihatlarga aylanadi) va muloqotda aks ettirish qobiliyatini rivojlantirish uchun qo‘shimcha vosita sifatida xizmat qiladi, talabalarning mantiqiy va mavhum fikrlash darajasini oshiradi;

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish (masalan, loyiha metodologiyasi) - virtual uyushmalarni o‘rganish uchun muhim bo‘lgan nazariy asoslardan biri sifatida;

Zamonaviy ta’lim asoslarini qo‘llash (individualizatsiya - bugungi kunda o‘rganishning ustuvor yo‘nalishi sifatida, amaliy mashg‘ulotlar - uzluksiz ta’lim tizimi va malakali rivojlanish tizimining o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalari bilan samarali kombinatsiyasi sifatida, virtual jamoalarning har bir a’zosiga innovatsion ish uchun o‘ziga xos traektoriya yaratish imkonini beradi);

Texnologik, ma’muriy va moliyaviy imkoniyatlarni hisobga olgan holda pedagogik Internet muhitini yaratishda;

O‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, individual farqlarga moslashish va yangi kontseptsiyani va o‘qitish metodologiyasini ishlab chiqishni talab etadigan virtual moslashuv muhitini yaratish jarayonida;

Ushbu yangi virtual maydonlarning professional faoliyatini yo‘naltirish va pedagogik qo‘llab-quvvatlash uchun virtual assotsiatsiyalar va an’anaviy jamoalarning turli shakllari bilan bog‘liq.

Virtual ta’lim muhitida o‘qituvchi (virtual o‘qituvchi), an’anaviy muhitda o‘qituvchilik faoliyati o‘rtasidagi farqlar:

Ular asta-sekinlik bilan an’anaviy ishlarga olib keladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘zlashtirish orqali o‘zlarining ham, o‘quvchilarning nazarida ham pedagogik vakolatini oshiradilar. Tezkor seminar real vaqtda o‘tkaziladi: o‘qituvchi va talabalar bir vaqtning o‘zida suhbatga kirishadi va muhokama (yoki o‘qituvchi taklif qilayotgan qo‘shma faoliyatning boshqa turi) barcha ishtirokchilar tomonidan odatda bir soat ichida o‘tkaziladi. Belgilangan vaqtda ishtirokchilar bir-biriga «kirish», «ko‘rish» va real vaqtda muloqot qilishlari mumkin. Shunday qilib, har bir ta’lim guruhida ishlash hissi bor.

Foydalanilgan manbalar ro‘yxati

1. Abulxanova-Slavskaya, KA, faoliyat va shaxsiyat psixologiyasi KA Abulxanova-Slavskaya. - M .: Fan, 1980. - 335 p.

2. Agaponov, S. V. Masofaviy ta’lim uchun platformani tanlash: muammolar va echimlar

S.V. Agaponov // Ta’lim telekommunikatsiya va axborotlashtirish. - 2005. - № 1. - 48-55.

3. Adolf, V. A. Professional rivojlanish jarayonida o‘qituvchining innovatsion faoliyati V.Adolf, N. F. Il’ina. - Krasnoyarsk: Polikom, 2007. - 190 p.

4. Astlyayner, G. masofadan o‘qitish WWW orqali: Ijtimoiy va hissiy jihatlar G. Astlyayner // Internetda gumanitar tadqiqotlar; tomonidan. A.E. Voyskunsky. - M.: Mozhaisk-Terra, 2000. - S. 333-367.

5. Atanov, G. A. O‘quv va sun’iy intellekt yoki Oliy maktabning zamonaviy o‘qitish asoslari G.Atanov, I.Pustinnikov. - Donetsk: DOU nashriyoti, 2002. - 504 p.

6. Bobayeva, Yu.P. Axborotlashtirishning psixologik oqibatlari: muammoli bayon Yu.Babayeva, A.E. Voyskunskiy // Ilmiy kengash. - 2005. - № 8. - 83-91.

7.Носов Н. Образование и виртуальнаya реальность / Н. Носов // Дистантsионное и виртуальное обучени: Дайджест рос. и зарубеж. прессы. - 2000. - № 11. - С. 31-35.

8.Хуторской А.В. О виртуальном образовании / А.В. Хуторской // Дистантsионное и виртуальное обучение: Дайджест рос. и зарубеж. прессы. - 2000. - № 1. - С. 25-27.

9. Raximov F.B. The formation structure of students’ skills for the subject of military education // Zamonaviy fan, ta’lim va kadrlar tayyorlashning dolzarb muammolari elektron jurnali. – Urganch. 2021 y. – b. 11-16.

TALABA-YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Umedjanova Malika Lukmanovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
https://orcid.org/0000-0001-9969-8995

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bilan oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lishi belgilangan. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlab, navqiron avlod vakillari ongida er-xotin huquqlari va majburiyatlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida nizolarni bartaraf etish usullari, oilada muloqot madaniyati to‘g‘risidagi tasavvurlar shakllantirilib borilsa, oilaviy nizolar va ajrimlar soni kamayib borishi haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: oila va jamiyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, muloqot madaniyati, oilaviy nizolar va ajrimlar, sog‘lom oilada sog‘lom farzand.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ МОЛОДЕЖИ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Умеджанова Малика Лукмановна,
Бухарский государственный педагогический институт
Преподаватель кафедры педагогики

Аннотация: Конституцией Республики Узбекистан предусмотрена роль семьи как основного звена общества и определено право семьи на защиту государства. При подготовке молодых людей к семейной жизни, существует понимание прав и обязанностей молодого поколения, путей разрешения конфликтов на основе национальных и общечеловеческих ценностей и сокращения числа семейных конфликтов и разногласий.

Ключевые слова: семья и общество, национальные и общечеловеческие ценности, культура общения, семейные разногласия и разводы, в здоровой семье здоровый ребенок.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PREPARING YOUTH STUDENTS FOR FAMILY LIFE

Umedjanova Malika Lukmanovna,
Bukhara State Pedagogical Institute Teacher of the Department of Pedagogy

Annotation: The Constitution provides for the basic principle of the family and the right to protect society and the state. When preparing young people for family life, there is an understanding of the rights and obligations of the young generation, ways to resolve conflicts based on national and universal values, and reduce the number of family conflicts and disputes.

Key words: family, social and national values, communication culture, family disputes and decisions, a healthy child in a healthy family, moral and legal criteria for family relations, family ethics.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “Oila” jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hamda jamiyat va davlat muxofazasida bo‘lish huquqiga ega ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Oilaning muqqadasligi bilan, muammolari va ko‘p qirraligi bilan hamisha ilim ahlini va tadqiqotchilar aqlu zakovatini to‘lqinlantirib kelmoqda. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlab navqiron avlod vakillari ongida er-xotin huquqlari va majburiyatlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, oilada muloqot madaniyati to‘g‘risidagi tasavvurlarni muntazam shakllantirib borish oilaviy nizolar va ajrimlar soni kamayishiga xizmat qiladi. Shuning uchun bu yoshda sodir bo‘ladigan shaxslararo munosabat, faoliyat va uning tarkibiy qismlari, o‘z-o‘zini

anglash, oilaviy hayotga tayyorlanishning ruhiy-axloqiy tayyorgarlik jarayoni kabi pedagogik-psixologik asos talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash hamda sog‘lom turmush tarzini qurish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, taniqli o‘zbek psixologi G‘.B.Shoumarov: “Ikki yoshning ruhiy-axloqiy xususiyatlari, dunyo qarashi, ideallari, hayotiy qadriyatlarga munosabatlari uyg‘un bo‘lgandagina ularning oilasi mustahkam, barqaror va turmushi tinch-totuv bo‘ladi”,- deb ta’kidlagan.

Shu nuqtai nazardan, talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlarini inobatga olish va ularga tayanish muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etib, oilaviy hayotni ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma’naviy-axloqiy talablarga mos qurishga nazariy-amaliy yordam beradi. Binobarin, pedagogik-psixologik xususiyatlar talabalarni oilaviy hayotga shaylikni, emotsional-hissiy tayyorlikni, iymon-e’tiqodli bo‘lishni, qa’tiyatli inson bo‘lib, mustahkam iroda, jismoniy va fiziologik-jinsiy hayotga moslikni aniqlash uchun amaliy yordam ko‘rsatadi.

Oila barqarorligiga asos bo‘lgan huquqiy ahloqiy mezonlar, hamma davlatlarda ham aynan bir xil bo‘lgan emas. Jamiyat hayotidagi iqtisodiy, siyosiy munosabatlar, diniy qarashlar, milliy an’analar, tarixiy sharoitlar, oilaviy munosabatlarninng ahloqiy, huquqiy mezonlarni, aynan bir qolip bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqlarga asoslanishi belgilangan. Nikoh umr savdosi deb ham yuritiladi, xalqimizda. Nikoh bir-biriga begona insonlarning qarindoshlik rishtalari bilan bog‘laydi. Shu o‘rinda kelajakda turmush qurishini niyat qilgan yigit va qizlar o‘zlarini doimo turmushga ota yoki ona bo‘lishga tayyorlab borishlari lozim. Buning uchun birinchi navbatda, o‘z sog‘liklari, tanlangan juftlarining harakterini, dunyoqarashi o‘ziga qay darajada mos kelishi to‘g‘risida qayg‘urishi kerak. Chunki sog‘lom oilada sog‘lom farzand tug‘iladi. Oila farovonligi va barqarorligi-jamiyat, davlat farovonligi va u insoniyat davomiyligini ta’minlaydi. Ota-onaning xohishiga ko‘ra hali voyaga yetmagan qizlarni turmushga uzatish, o‘g‘il bolalarni uylantirib qo‘yish, ma’lum bir kasb-hunarni egallamasdan, mehnat qilish, oiladagi iqtisodiy moddiy ta’minotni boshqara olish tajribasiga ega bo‘lmasdan, erta uylantirish yoki turmushga uzatish ko‘pgina salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Bular quydagilarda kuzatilmoqda:

Birinchidan: o‘zlari tarbiyaga muhtoj bo‘lgan yosh oilalar, farzandni dunyoga keltirish va tarbiyalashda ota-onalik majburiyatlarini his qilmaslik, yoki oilaviy munosabatlarga tayyor emaslik;

Ikkinchidan: oilada er xotin vazifalarini taqsimlanishidagi ma’naviy tayyorgarlikning yetishmasligi.

Uchinchidan yoshlar, er-xotinlik faqat nozik munosabatlar emas, balki erlik va xotinlik ma’suliyatini tushunib yetmayotganliklari;

To‘rtinchidan yosh oilaning mustaqil mablag‘i bo‘lmasligi ota-ona qo‘liga qaram bo‘lishi va boshqa sabablar.

Beshinchidan: Hali oila borasida tajribaga ega bo‘lmagan yosh kelinga pandu nasihat qilib, uni yo‘lga solish o‘rniga arzimagan mol-mulkni bahona qilib, kelinga haddan ortiq vazifalar yuklab, zulm qilib oxir oqibat ajralib kelishi:

Oltinchidan: Bir uyda qaynota, qaynona, kuyov va uning aka – uka, opa – singillari tomonidan kelishib olib, kelinga zulm qilishlari va uni yakkalatib qo‘yilishi va boshqa sabablar hozirgi kunda yosh oilalar orasidagi ajralish sonini ortib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Hamma inson ham hato qiladi, kechira olish esa hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi. Mehr esa har qanday muammolarning oddiy yechimi hisoblanadi. Qaynonalar yosh kelinlaridan o‘tgan kamchilik va xatolarni kechira bilishlari ham olijanoblik sanalib, yoshlarning to‘g‘ri yo‘lga tushishiga yordam beradi. Oilada qaynonalar yoshi ulug‘, tajribali bo‘lganlari uchun yoshlarga imkon berishi, bilmaganlarini o‘rgatishi, bag‘rikenglik qilishlari darkor. Bizning tajribamizda, eng ko‘p kuzatilayotgan ajralishlar yosh oilalar orasida kuzatilmoqda,

Hayot tajribasini ega bo‘lamagan oq-qorani hali yaxshi farqlay olmayotgan yosh turmush qurganlar orasidagi nikoh moddiy qaramlik o‘zi mehnat qilib oila boqishga tayyor emas erkak yoki ayol o‘rtasida juda ko‘p kelishmovchiliklarni vujudga keltiradi. Yoki yosh oilaga uchunchi shaxs (qaynona-qaynota va boshqa yaqin qarindoshlar) aralashuvi tufayli ajralishlar ko‘paymoqda. Agar o‘g‘il va qizlarimiz turmushga chiqish uchun qizlar 21-22 yoshda, uylanish uchun yigitlar 25-26 yoshlarda bo‘lsa, bu yoshga yetganda o‘g‘il va qiz bolalar, umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasbhunar ta’limi va oliy ta’limni tugatib, ma’lum bir soha yo‘nalishi kasbga egalagan bo‘ladilar. Bu davrlardagi nikoh har tomonlama yetilgan va mukammal, mustahkam bo‘lishi mumkin. Chunki shu yoshga kelib farzandlarimiz ancha ulg‘aygan, oq-qorani tanigan, o‘zi ishlab moash oladigan, uy-ro‘zg‘or tashvishlarini his qilgan, ota-ona bo‘lish ma’suliyatini sezgan va aqil-idrok bilan ish ko‘radigan darajada bo‘ladilar. Yoshlar hayotiga yengil–yelpi qarab, ba’zan ota–ona bilan ham maslahatlashmay oila quradilar, oradan ko‘p o‘tmay ajralish taraddudiga tushib qoladilar. Buning sababi ham oilaviy munosabatlarga asos bo‘lgan ma’naviy omillarning zaifligidir. Natijada ko‘plab go‘daklar yetim qolib, ota-onalar mehridan maxrum bo‘ladilar. Ota-onasiz qolib, mehribonlik uylarida katta bo‘layotgan bolalarning soni ko‘payib borishi jamiyat hayotidagi ma’naviy inqiroz yanada kuchayishga olib keladi.

Fuqarolar yoshlarning oilaviy hayotga tayyor emasligi, ularda hayotiy tajriba, mas’uliyatning yetishmasligi, murosa qilishni bilmaslik yoki buni istamaslik, nizolarda yon bosish, vaqtinchalik moddiy qiyinchiliklar, er-xotinning ruhiy jihatdan bir-biriga mos emasligini oilaning barbod bo‘lish omillari sifatida o‘rganilib kelinmoqda. Er-xotin oila uchun bir xil mas’ul bo‘ladi, oila va uning a’zolari hayotiga taalluqli muhim qarorlarni birgalikda qabul qiladi.

Oilalarni mustahkam bo‘lishi uchun quyidagi shartlar bo‘lishi kerak:

– oila budjetiga ularning har ikkisi o‘z hissasini qo‘shishi va uning taqsimoti bilan ham birga shug‘ullanadi.

– ota-onalar oilada muntazam ravishda o‘g‘il-qizlarini oilaviy hayotga tayyorlab borishga ma’sul ekanliklarini his qilishiga o‘rgatish;

– o‘quv muassasalarida yigit va qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash fani kiritish;

– oilalarni bir-biriga bo‘lgan ishonch xurmat ruhini uyg‘otish, er va xotin bir-birining yaqinlariga shirin muomalada bo‘lishni o‘rgatish:

– oilada qizlarga, uy-ro‘zg‘orni yuritish, sarishta-saramjonlikka doimiy amal qilishga o‘rgatish;

– oiladagi axloqiy qoidalarni ustun qo‘yishga, er va xotin bir–birlariga doimo xush-muomala bo‘lishiga o‘rgatish;

– ayol eridan doimo hayo qilishi, uning huzurida yerga boqib turishi, buyrug‘iga itoat qilib, gapirayotganda sukut saqlashi, kirib kelganida yoki chiqib ketayotganida o‘rnidan turishi, unga yoqmaydigan barcha narsalardan uzoq bo‘lishiga o‘rgatish.

– ayol kishi eri huzurida shirinsuxan, xushmuomala bo‘lish bilan birga, toza, chiroyli kiyingan, ziynatlangan holda bo‘lishi kerak. Chunki bu narsa er qalbiga xursandchilik, ruhiga sokinlik kiritadi, qalbiga quvonch bag‘ishlaydi.

– er onasi va ayoli o‘rtasida hamda yaqinlariga bo‘lgan mehr–u muhabbatda tarozini ikki pallasini teng tutishga o‘rgatish;

– er ona uchun solih farzand, ayoli uchun solih er siymosini amalda ko‘rsatishi kerak.

Yuqorida keltirilgan shartlar asosida mahalla institutlari va keng jamoatchilik ishtirokida yosh oilalar o‘rtasida o‘quv-tarbiyaviy tadbirlar, treninglar, oilaviy nizolar va uning yechimlari bo‘yicha sahna ko‘rinishlari, er va xotinning burch vazifalari muntazam tushuntirib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ana shunday mashg‘ulotlar orqali navqiron avlod vakillari ongida nikoh instituti, nikoh shartnomasi, er-xotin huquqlari va majburiyatlari, oilani rejalashtirish, xo‘jalik va budjet yuritish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida nizolarni bartaraf etish usullari, oilada

muloqot madaniyati to‘g‘risidagi tasavvurlar shakllantirilib borilsa oilaviy nizolar va ajrimlar soni o‘z-o‘zidan kamayib boradi.

Xulosa qilib aytganda, biz yuqorida ta’kidlab o‘tgan turmush go‘zalligi mezonlari, faqat oila uchungina emas, balki jamiyat uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki turmushdagi turli xil yaxshilik va yomonliklarni farqlash salbiy, ijobiy narsalarni anglash, jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhimdir. Binobarin, kelin- kuyov bo‘lish arafasida turgan, nikohga tayyorlanayotgan har bir yigit va qiz yuqorida ta’kidlab o‘tilgan madaniyat mezonlari – odob-ikromni, aql-farosatni, hayo-iboni bilishi, muloqot-muomalada muloyimlik va yoqimlilik, iffatlilik va uyatchanlilik, sarishta-saranjomlik, pazandalik, mardlik, jasurlik, kamtarinlik, hurmatga sazovor bo‘la olish kabi ijobiy insoniy fazilatlarga ega bo‘lishi lozim. Bu mezonlar mustahkam va barqaror oilani qurish uchun asos bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi

2. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga sharhlar. - T., 2000.52-bet

3. G‘.B.Shoumarov, Sh.B.Shoumarov. Sh.74, Muhabbat va oila. – T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1994. 58-59b.

4. Erkin Yusupov, O‘tkir Yusupov. Oila – ma’naviyat bulog‘i. – T., 2003. 34-39 betlar.

5. G.Inomjonova. Oilaviy huquq. Ota-onalar va bolalar munosabatlari haqida ba’zi mulohazalar. Taraqqiyot va qonun, 2003. №-2, 73 bet

СМЕНА МОДЕЛИ ИНВАЛИДНОСТИ: ИСТОРИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС

Баходирова Халимабону Баходировна,
Бухарский государственный педагогический институт, Преподаватель кафедры педагогики

Аннотация: Образование является мощным инструментом оциальных изменений-,и часто инициирует восходящее движение в социальной состав. Тем самым помогая преодолеть разрыв между различные слои общества. Образовательная сцена в стране произошли серьезные изменения за лет, что приводит к лучшему обеспечению образования и лучшие образовательные практики. В 1944 году Центральный Консультативный совет по образованию (CABE) опубликовал всеобъемлющий отчет под названием «Отчет сержанта о послевоенное развитие образования страны.

Согласно отчету, положения об образовании Инвалид, должны были составить существенную часть Национальная система образования, которая должна была быть находится в ведении Департамента образования.

Правительство (Министерство образования) инициативы после обретения независимости проявились в создание нескольких мастерских означало, прежде всего, для слепых взрослых (Luthra, 1974). Эти единицы позже включали людей, которые были глухими, физически неполноценными, и умственно отсталые (Рохиндекар и Уша, 1988).

Хотя некоторые положения существовали в Штатах, они были считается лучшим способом оказания помощи и поощрения обровольные организации, уже работающие в этой области подход к благосостоянию продолжился в правительстве программы. Была оказана поддержка добровольным организации по созданию модельных школ для слепых, глухих и умственно отсталых. Правительство создало Национальную библиотеку для слепых, Центральная пресса Брайля и биржи труда для инвалидов. Он также предусмотрел положения для стипендии для профилактики и раннего выявления инвалидизирующие условия, для развития функциональных навыков, а также вспомогательных средств и приспособлений для инвалидов.

Ключевые слова: формулировками инвалидности, стереотип, гендерных инвалидность, модель, Устранение барьеров, Равенство и недискриминация.

CHANGING THE MODEL OF DISABILITY: HISTORICAL PROGRESS

Baxodirova Halimabonu Baxodirovna
Bukhara State Pedagogical Institute
Teacher of the Department of Pedagogy

Annotation: Education is a powerful instrument of social change, and often initiates upward movement in the social structure. Thereby, helping to bridge the gap between the different sections of society. The educational scene in the country has undergone major change over the years, resulting in better provision of education and better educational practices. In 1944, the Central Advisory Board of Education (CABE) published a comprehensive report called the Sergeant Report on the post-war educational development of the country. As per the report, provisions for the education of the handicapped2 , were to form an essential part of the national system of education, which was to be administered by the Education Department.

The government's (Department of Education) initiatives after independence were manifested in the establishment of a few workshop units meant primarily for blind adults (Luthra, 1974). These units later included people who were deaf, physically impaired, and mentally retarded (Rohindekar and Usha, 1988). While some provisions existed in the States, it was considered the best course to assist and encourage voluntary organisations already working in the field. The welfare approach continued in government programmes. Support was provided to voluntary

organisations for the establishment of model schools for the blind, the deaf, and the mentally retarded. The government set up the National Library for the Blind, the Central Braille Press, and employment exchanges for the disabled. It also made provisions for scholarships, for prevention and early identification of disabling conditions, for the development of functional skills, and for aids and appliances for the disabled.

Key words: wording of disability, stereotype, gender disability, model, Removing barriers, Equality and non-discrimination.

Изменение подходов к инвалидности привело к изменению в очень разнообразную политику и практику. Различные модели инвалидности налагают разные обязанности на Штаты, с точки зрения действий, которые необходимо предпринять, и они предполагают существенные изменения в способах инвалидности понял. Закон, политика, программы и права инструменты отражают два основных подхода или дискурсы: инвалидность как индивидуальная патология и как социальная патология.

В рамках этих двух важнейших парадигм четыре Основными идентифицируемыми формулировками инвалидности являются: модель благотворительности, биоцентрическая модель, функциональная модель и модель прав человека.

1.1 Модель благотворительности

Благотворительный подход породил модель опекунства. Ухода, вызывая крайнюю изоляцию и маргинализацию людей с ограниченными возможностями. К сожалению, в некоторых современные практики отражение этой модели еще можно отследить. Например, выводы исследовательский проект, предпринятый Национальным управлением по правам человека

Гендерный вопрос Существует множество доказательств того, что женщины с инвалиды испытывают серьезные психосоциальные проблемы, включая депрессию, стресс, снижение самооценка и социальная изоляция, которые остаются в значительной степени игнорируются (Nosek and Hughes, 2003). Данные также свидетельствуют о том, что женщины склонны ограничиваться домашней деятельностью, в то время как мужчины, скорее всего, будут поддержаны более публично и внешние пути. Стереотипы артефакты культуры, которые могут быть только понять, исследуя их отношения к каждому другие в культурной системе. Пол стереотипы взаимодействуют со стереотипами об инвалидности составить глубокую матрицу гендерных инвалидность в каждой культуре развивается внутри конкретные исторические контексты и затрагивающие эти контексты во времени. Хотя язык является наиболее анализируемый участок для исследования обоих пол (Коннелл, 2002) и инвалидность (Коркер и French, 1999), они взаимодействуют во многих других культурные места — кино, телевидение, художественная литература, одежда и язык тела. Таким образом, культуры поддерживать социальные отношения гендерных инвалидность при постоянном повторении стереотипов и ожидания (Микоша).

В образовании сцена, дискриминация по признаку пола имеет сообщалось во многих исследованиях. Однако, девочки с ограниченными возможностями остались невидимыми как из работ о гендере и инвалидности. Поэтому потребности девочек с ограниченными возможностями могут быть более особенными, чем потребности любого другого группы и должны решаться во всех сферах образования.

Комиссия по правам Индии в 1997–1999 годах подтвердила что сегодня большое количество психиатрических учреждений все еще находятся под стражей и администрируются модель ухода, характеризующаяся тюремными структурами с высокими стенами, сторожевыми башнями, огороженными палатами и запертыми клетки. Эти учреждения функционировали как центры содержания под стражей. Где людей с психическими за-

болеваниями держали в цепях, что привело к трагедиям, подобным той, что произошла в «Эрвади» на тамильском языке. Наду, в котором содержатся более 27 воспитанников такого центра потеряли свои жизни.

1.2 Биоцентрическая модель

Современная биоцентрическая модель инвалидности рассматривает инвалидность как медицинское или генетическое заболевание. Остается вывод о том, что инвалиды и их семьи должны стремиться к «нормализации», посредством медицинские исцеления и чудеса. Хотя биологии нет. Больше не является единственной линзой, через которую рассматривается инвалидность в законодательстве и политике он продолжает играть заметную роль при определении права на участие в программе, право на льгот, а также влияет на доступ к правам и полной социальное участие (Мохит, 2003). Критический анализ развития благотворительности и биоцентрические модели позволяют предположить, что они выросли из «корыстных интересов» профессионалов и элита, чтобы держать инвалидов «необучаемыми» или объявить им умственно отсталых (MR) детей и держите их из системы обычного школьного образования, используя тем самым специальные школы как «предохранительный клапан» для общеобразовательных школ школы (Томлинсон, 1982). Инклюзивное образование предлагает возможность реструктуризировать всю школьную систему, с особым упором на учебную программу, педагогику, оценка, и прежде всего смысл образования (Джа, 2002).

1.3 Функциональная модель

В функциональной модели право на права определяется дифференцированы в соответствии с суждениями отдельных недееспособность и степень, в которой человек воспринимается как независимый в осуществлении своих прав. Для Например, право ребенка на образование зависит от может ли ребенок посещать школу и участвовать в занятиях, а не обязанность участие в школьной системе становится доступным для дети с ограниченными возможностями.

1.4 Модель прав человека

Модель прав человека позиционирует инвалидность как важное измерение человеческой культуры и подтверждает что все люди рождаются с определенными неотъемлемыми права. Соответствующими понятиями в этой модели являются:

1.4.1 Разнообразие

Греческий философ Аристотель однажды сказал, что «вещи к одинаковым следует относиться одинаково, тогда как к вещам к непохожим следует относиться пропорционально к их несходству». Принцип уважения к различия и принятие инвалидности как части человеческой разнообразие и человечность важны, поскольку инвалидность – это универсальное свойство человеческого существования.

1.4.2 Устранение барьеров

Политика, идеологически основанная на правах человека модель начинается с выявления барьеров, ограничивающих возможности инвалидов участие человека в жизни общества. Это сместило сосредоточить внимание на том, как организована среда. В образование, например, там, где раньше люди помечен как необучаемый, модель прав человека исследует доступность школ с точки зрения обоих физический доступ (например, пандусы и т. д.) и педагогический стратегии.

1.4.3 Равенство и недискриминация

В международном праве прав человека равенство основано на двух взаимодополняющих принципах: недискриминации и разумной дифференциации. Учение о дифференциации имеет особое значение инвалидам, некоторым из которых может потребоваться специализированные услуги или поддержка для размещения на основе равенства с другими. Различия обращение между людьми не является дискриминационным если они

основаны на «разумных и объективных оправдание». Более того, равенство не только подразумевает предотвращение дискриминации (например, защита лиц против неблагоприятного обращения со стороны введение антидискриминационных законов), но заходит далеко помимо этого, в борьбе с дискриминацией. Если говорить конкретно, это означает принятие идеи позитивных прав, позитивные действия и разумное приспособление.

1.4.4 Разумное приспособление

Важное признание, что разумно размещение – это средство, с помощью которого создают условия для равное участие может быть достигнуто, и это требует Бремя проживания должно быть экономичным мощность субъекта. В проекте Комплексного и Интегральная всемирная конвенция о защите и Поощрение прав и достоинства людей с Инвалиды, «разумное приспособление» было определяется как «внедрение ресурсов и соответствующие меры по обеспечению человека с ограниченными возможностями в полной мере пользоваться возможностями правами и свободами и иметь доступ без каких-либо помех для всех структур, процессы, общественные услуги, товары, информация и другие системы».

1.4.5 Доступность

Экономический и специальный комитет ООН Комиссия по Азии и Тихому океану (ЭСКАТО) определил «доступность» как «меру или условие вещей и услуг, к которым можно легко добраться или используется (на физическом, зрительном, слуховом и/или когнитивном уровне). Уровнях) людьми, в том числе лицами с инвалидность» (Риу и Мохит, 2005).

1.4.6 Равное участие и инклюзивность Сосредоточив внимание на достоинстве, присущем человеку. Модель прав человека ставит человека в центральное место во всех решениях, затрагивающих его/ее. Таким образом, модель прав человека, уважает автономию и свободу выбора инвалидов, а также обеспечивает что они сами определяют приоритетность критериев поддержки программы.

Это требует, чтобы люди с ограниченными возможностями и другие

индивиды и институты, имеющие фундаментальное значение для общества, являются возможность обрести способность к свободному взаимодействию и участие, жизненно важное для инклюзивного общества.

1.4.7 Частные и общественные свободы

Правозащитный подход к инвалидности с одной стороны требует, чтобы государства играли активную роль в повышение уровня доступа к общественным свободам и с другой стороны, требует, чтобы пользование правами инвалидам не мешает постороннее вмешательство субъекты частной сферы. Образовательные учреждения и промышленность, как в государственном, так и в частном секторах, должны обеспечить равное обращение с лицами с инвалидность.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Advani, L. (2002). “Education: A Fundamental Right of Every Child Regardless of His/Her Special Needs”. Journal of Indian Education; Special Issue on Education of Learners with Special Needs. New Delhi: NCERT.

2. Alur, M. (2002).“Special Needs Policy in India”, in S. Hegarty and M. Alue (eds), Education and Children with Special Needs: From Segregation to Inclusion. New Delhi: Sage.

3. Anita, B.K. (2000). Village Caste and Education. Jaipur: Rawat Publications.

4. Applebee, A. (1998). Curriculum and Conversation: Transforming Traditions of Teaching and Learning. Reviewed by B. Day and T. Yarbrough, Journal of Curriculum Studies, 30 (3): 357–74.

5. Balasubramanian, K. (2004). The Helping Hand (A Short Story about a Disabled Child). Hyderabad: Spark-India.
6. Baquer, A. and A. Sharma (1997). Disability: Challenges vs. Responses. New Delhi: CAN.
7. Bhattacharya, B. (2001). Multi-colored Wings. Kolkata: Indian Institute of Cerebral Palsy.
8. Booth, T. (1996). “Stories of Exclusion: Natural and Unnatural Selection”, in E. Blyth and J.Milner (eds), Exclusion from School: Inter Professional Issues from Policy and Practice. London: Routledge.
9. UNESCO(2000). Inclusion in Education: The Participation of Disabled Learners. World Education Forum: Education For All 2000 Assessment. Paris: UNESCO.
10. Borah, J. R. (2003). An In-depth Study into the Problems of Education of the Mentally Retarded Children in Assam. Ph.D thesis, Guwahati University.
11. Bose, K. (1996). Studying the Effectiveness of Computer Programmes as Remedial Strategies for Overcoming Specific Learning Disabilities. Ph.d. thesis, Jamia Millia Islamia.
12. Chadha, A. (2002). “Inclusive Education in DPEP”. Journal of Indian Education. Special issue on Education of Learners with Special Needs.

ТАЛАБАЛАРДА ИЖТИМОИЙ ФАОЛЛИК СИФАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ

Исматов Шуҳрат Убайдович,
Бухоро давлат педагогика институти ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада талаба-ёшлар ўртасида олиб борилаётган тадбирларни ташкил этишдаги принциплар (ишонтириш, тезкорлик, долзарб янгиликлардан фойдаланиш, тушунарлилик, ҳудуддан мисол келтириш, тингловчилар қатламини инобатга олиш) аниқланган ҳамда талабаларда ижтимоий фаоллик сифатларини ривожлантириш омиллари тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: талаба, ижтимоий фаоллик, тарбия, ватанпарварлик, маънавий-маърифий тадбирлар, ишонтириш, тезкорлик, долзарб янгиликлардан фойдаланиш, тушунарлилик, ҳудуддан мисол келтириш, тингловчилар қатламини инобатга олиш

ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО АКТИВНЫХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ

Исматов Шухрат Убайдович,
Преподаватель Бухарского государственного педагогического института

Аннотация: В статье выявлены принципы организации мероприятий среди студентов и молодежи (убеждение, оперативность, использование актуальных новостей, понятность, приведение примеров из региона, учет аудитории), а также факторы развития качеств социальной активности. у студентов исследуются.

Ключевые слова: студент, общественная активность, образование, патриотизм, духовно-просветительская деятельность, убеждение, скорость, использование актуальных новостей, понятность, подача примера из региона, учет аудитории.

FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF SOCIALLY ACTIVE QUALITIES OF STUDENTS

Ismatov Shukhrat Ubaidovich,
Teacher at Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract: The article identifies the principles of organizing events among students and youth (persuasion, efficiency, use of current news, clarity, giving examples from the region, taking into account the audience), as well as factors for the development of the qualities of social activity. students are examined.

Key words: student, social activity, education, patriotism, spiritual and educational activities, persuasion, speed, use of current news, clarity, setting an example from the region, taking into account the audience.

КИРИШ. Мустақиллик йилларида мамлакатимизда мустақил фикр, ҳаётий дунёқараш ва жамиятда ўз ўрнини, вазифаси, бурч ва ҳуқуқлари билан биргаликда мажбурияти ҳамда масъулиятини англай оладиган ижтимоий фаол шахсни тарбиялашга алоҳида эътибор бериб келинмокда. Чунки, ҳар бир мустақил давлатда унинг фуқароси бўлмиш мустақил шахсни шакллантириш –яъни инсон мустақиллигининг таъминланиши жуда муҳим масала ҳисобланади. Ҳар бир инсон, фуқаро, мустақил шахснинг жамиятдаги ўрни ва мавқеи шу мақом билан белгиланади. Тўғри, ҳар бир одам боласи албатта инсон ҳисобланади, аммо юқорида кўрсатилган сифатларга эга бўлиш ва жамиятда ўз ўрнига эга бўлиш учун ҳар бир инсон, айниқса ёшларимиз, ҳаёти давомида камолотнинг юксак пиллапояларини босиб ўтиши керак. Чунки, одам боласи Шахс даражасига етмаса, у

мустақилликни ҳам, ислоҳотларни ҳам, ўтмиш ёки келажакни ҳам ва ҳаттоки турли ахборотлар ва қўлга киритилган ютуқларга ҳамда мамлакатда бўлаётган оламшумул ўзгаришларга тўла шарафли ҳозирги кунларимизнинг туб моҳиятини тўлиқ англай олмайди ва қадрига етмайди.

АСОСИЙ ҚИСМ. Шахсликка даъвогарлик бу ботинан ёруғликка интилишдир. Чунки, мустақил фикрга, ўз ҳаётий қараш ва инсоний эътиқодига эга шахс ҳеч қачон оиласига, яқинларига, халқига хиёнат қилмайди, ҳеч бир мол-дунёга, ўткинчи ҳою-ҳавасларга сотилмайди. Шахс Ватан тўйғуси, Ватан ҳисси каби муқаддас тушунчаларга юрак тубидан жой беради. Юрт тақдирига дахлдорлик туйғуси ва ватанпарварлик ҳамда фарзандлик бурчи билан жавоб беришга тайёр туради.

Ахборотлар оқими кўпайган, турли ғоя, мафкура ва сиёсат бўй кўрсатган ҳозирги таҳликали замонда мустақил шахсни, ижтимоий фаол фуқарони қандай тарбиялаш ёки шакллантириш, яъни унда маънавий – ахлоқий сифатларни ривожлантириш мумкин? деган ҳақли савол туғилади. Уни қандай, қачон, қаерда ва кимдан ёки нимадан бошлаш мумкин.

Муҳтарам Президентимиз Ш.Мирзиёевнинг бугунги кунда ёшларга кўрсатаётган оталарча ғамхўрликлари замирида ҳам уларга эртага ўзини –ўзи идора қилиши, мустақил шахс, ижтимоий фаол фуқаро сифатида борлиқ билан мустақил мулоқотга киришишга тайёрлаш каби улуғвор тарбиявий аҳамиятга эга бўлган мақсад турганлиги бор ҳақиқат.

Юрт раҳбарининг ёшларга қарата: “Заҳматли меҳнати орқали орзу-умидлари ушалган инсон-энг бахтли инсон. Шунинг учун доимо баландларга интилинг, эзгу мақсадингиз учун курашинг. Доимо ўкинг-ўрганинг, ўзингизга ишонинг, кашфиётлар қилинг, янгиликлар яратинг, олдингизга мақсад қўйиб, дадил қадам ташланг” дея қилган хитоби ёшларимизни меҳнат қилишга, илм олишга, Ватанимиз ва халқимиз тақдирига бефарқ бўлмасликка, юртимизда амалга оширилаётган ислоҳотлар натижаларидан баҳраманд бўлиб шукроналик билан яшашга, шу мамлакатга ҳаиқий фарзанд бўлиб ўз тақдирини Ватан ва миллат тақдири билан боғлаб унинг келажаги учун қайғуриш, Ватан қисматини ўз қисмати деб қабул қилишга ундамоги шарт” [1].

Албатта, биз ёши катталарни агарда ёшлар қалбида шижоат,ўз сўзи ва мустақил фикрига, қатъий ҳаётий позициясига эга бўлмаслик ёки жавоб бера олмаслик хислати, замон талабларига ўзининг илмий потенциали ва соғлом фикри,тарбияланганлик даражаси билан тенг кела олмаслик сифатлари етишмас экан,албатта,жамиятдаги дуч келадиган ҳар қандай тўфонларга бардош бера олмайдиган жуда ҳам соғлом бўлмаган ниҳолларни парваришлаяпмиз деган фикр ташвишлантирмоғи лозим.

Бу сўзлар билан биз,ёшларимиз-илм олишга, касб-ҳунар ўрганишга, китоб мутолаа қилишда, спорт билан шугулланиш ёки хорижий тиллардан бирини ўрганишга, хуллас,кундалик ҳаётда улар жамият талабларига бефарқ деган фикрдан йироқмиз албатта.

Илм олишда,спорт ёки санъатда, бизнес ва бошқа соҳаларда замон билан ҳамнафас ҳолда яшаб, ўқиб-изланиб,ижод ёки ихтиро ва кашфиётлар қилиб ютуқларни қўлга киритаётган, ўрни келганда Ватанимизнинг нафақат байроғини балки, нуфузи ҳамда обрўйини дунёга достон қилаётган иктидорли ва шижоатли ёшларимиз ниҳоятда кўп. Улар ҳақида қанча гапирсак шунча оз. Лекин, шунинг баробарида бугунги кун талабларидан ортда қолаётган, юртимизда амалга оширилаётган барча соҳадаги ислоҳотлар жараёнидан ўзини четга олаётган, мавжуд имкониятлардан тўлиқ фойдалана олмаётган, давлат ёки жамият ишлари, миллат ва Ватан тақдирига дахлдорлик ҳиссини сезмаётган айрим лоқайд ва бефарқ ёшларимизнинг афсуски,оз бўлсада борлиги бизни ташвишга солмоқда.

Тарихчи олимимиз, профессор Абдухалил Маврулов бу борада ўзининг “Тафаккур ислоҳоти” номли мақоласида қўйидаги фикрларни келтиради : “Биз кўпроқ эътибор беришимиз лозим булган айрим ҳолатлар назаримиздан четда қолаётганга ўхшай-

ди. Орамизда айрим Маргинал (лотинча Маргиналис-аросатдаги одам)шахслар ҳам йўқ эмас. У аро йўлдаги –на у ёқли,на бу ёқли одам. Муайян ижтимоий гуруҳлар ўртасидаги оралиқ вазиятни эгаллаган ёки бирор табақа ва қатламга мансуб бўлмаган индивид демакдир. Маргиналлик ҳолати шахснинг руҳияти,мақоми,жамиятда тутган ўрнига муайян таъсир ўтказиб, уларнинг ижтимоий-сиёсий хулқ-атворида яққол намоён бўлади [2].

У ёки бу шахснинг замондан орқада қолиши, илмли-билимли бўлиш истагининг йўқлиги, ўзининг “аросатда қолган”лигини сезмаслиги, мавҳум, тушунарсиз “ғоя”лар исканжасига тушиб қолганлиги фожеа эмасми? Маргиналлик ҳолати шахсдаги худбинлик,қариндош –уруғчилик, лоқайдлик, маҳаллийчилик, коррупция, манфаатпарастлик, бировларни менсимаслик, ҳасадгўйлик, айниқса, сотқинлик каби иллатлар туфайли ҳам кучайиши мумкин.

Шахсда маргиналлик ҳолати бўлар экан, унда Ватан ҳисси ҳам йўқ, яъни унга барибир, қаерни истаса, шу ер унга макон. Бундай шахсда икки жихат кўзга ташланади. Биринчидан, маргиналлик ҳолати шахсда ижтимоий пассивликни юзага келтиради. Ижтимоий пассивлик ўз навбатида индивидда бепарволик, яъни “ўзи бўларчилик”, “менга нима” дея яшаш кайфиятини келтириб чиқаради. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантиришга халақит бераётган омиллардан бири ҳам айрим шахсларда ижтимоий фаолликнинг сустлигидир ва бунинг оқибатида улар маргиналлик ҳолатига тушиб қолаётганидир.

Кишининг маргиналлик ҳолатига тушиб қолишига сабаб булувчи иккинчи “омил” эса унинг теварак –атрофдаги воқеа-ҳодисаларни таҳлил эта олмаслиги, уларни ижтимоий экспертизадан ўтказиш амалиётининг йўқлиги ҳамда сиёсий маданият даражасининг сустлиги билан боғлиқ. Инсон ўзи туғилиб ўсган юртнинг қадр-қимматини англай олмас, унда содир бўлаётган воқеа-ҳодисаларни анализ ва синтез қила билмас экан,табиийки, у жамиятдан ажралиб қолади”[3].

Бу фикрлардан шундай хулоса қилиш мумкинки,маргиналлик ҳолати шахсда айниқса ёшларда айнан ижтимоий пассивликдан келиб чиқар экан. Бундай ҳолатга тушмаслик учун ўсиб келаётган ёш авлодни Ватанга садоқат ва миллий қадриятларимизга ҳурмат, миллийлик руҳида тарбиялаш, бир сўз билан айтганда, уларда ижтимоий фаолликни ривожлантириш муҳим аҳамият касб этади. Бу улуғ вазифани барча ота-оналар, устоз-мураббийлар,таълим муассасалари ва ёшлар тарбиясига масъул бўлган ташкилот ва муассасаларнинг раҳбар ва ходимлари унутмасликлари керак.

Биз юқорида ёшларни тарбиялашда ижтимоий муҳитнинг таъсири,ижтимоий тарбиянинг роли ва ижтимоий фаолликни ривожлантиришнинг катта аҳамияти борлигини алоҳида таъкидлаш лозим деб ўйлаймиз [4].

Юқоридаги тушунчалардан маълум бўлмоқдаки,ўсиб келаётган ёшларимизда ижтимоий фаолликни ривожлантириш ва юрт тақдирига бўлган дахлдорлик ҳиссини кучайтиришда таълим муассасаларидаги таълим-тарбия жараёни кифоя қилмас экан. Шахс тарбиясида оила, боғча, мактаб, профессионал таълим, мактабдан ташқари турли таълим маскан- (турли соҳалар бўйича ҳунар ўргатадиган ёки тарбиявий иш олиб борадиган тўгараклар, масалан – спорт, мусиқий таълим, робототехника, компьютер курслари шунингдек, мусиқа ва спорт мактаблари, “Баркамол авлод” муассасалари каби) масканлари, хорижий тилларни ўргатиш марказлари, олий таълим муассасаларига ўқишга киришга абитуриентларни тайёрлайдиган турли ўқув марказлари, репититорлик курслари билан бир қаторда, ёшлар тарбиясига масъул бўлган кўпгина давлат ва жамоат ташкилотлари, жамғарма, фонд ва муассасалар, жамиятнинг социал институтлари ҳисобланган –оила ва маҳалла каби муҳим бўғинларнинг фаолияти бирлаштирилмас ва ягона мақсад йўлида сафарбар қилинмас экан, бу борадаги тарбиявий ишларнинг натижадорлиги ва самараси ҳам бўлмайди.

Бугунги кун мисоли билан айтадиган бўлсак, мазкур ташкилот ва муассасалар томонидан турли-туман маънавий-маърифий тадбирлар ёшлар иштирокида ўтказилади. Фотосуратлар илова қилинган ҳолда турли баённомаю –ҳисоботлар ёзилади ва юқори ташкилотларга тақдим этилади. Бундай руҳдаги ҳисоботлар учун йил бошидаги ёки ўқув йили аввалида иш режасига киритилган ва доимий такрорланиб келинадиган “навбатчи” мавзулардаги тадбирлар билан ёшларнинг маънавияти ошиб, ижтимоий фаоллиги ривожланади деган одам хато қилади.Чунки,ҳеч кимга сир эмас,бундай таниш ва олдиндан ўқувчилар учун маълум булган сценарийлар асосидаги, яъни бир қолибдаги тадбирлар ёшларни буюк мақсадларга сафарбар қиладиган ва уларнинг ижтимоий фаоллигини ривожлантиришга ёки мустақил фикрини шакллантиришга эмас балки,ёшларнинг дарс машғулотларидан бўш вақтини “мазмунли” ўтказишга, нари борса, уч-тўртта янги маълумотлар олишларига, таъбир жоиз бўлса, “дам олиш”га мўлжалланган маданий (албатта мусиқавий)-кунгилочар тадбирлар эканлиги ҳеч кимга сир эмас.

Маълумки, ўтказиладиган ҳар бир тадбирнинг ўз эришадиган мақсади бўлади. Ҳар бир тарғибот –ташвиқот ёки маънавий –маърифий тадбир самарадорлиги унинг таъсирчанлиги, турли долзарб ва айни вақтда ҳозирги замонга мослиги, яъни ҳаётийлиги ҳамда ёшларнинг қизиқишларига, ижтимоий фаоллик сифатларини ривожлантиришга ва пировард мақсад-ёш авлод маънавиятини юксалтириш ва ғоявий тарбиялашга хизмат қилмоғи даркор. Мана шундай, яъни таъбир жоиз бўлса,ҳарбийлар тили билан айтганда “жанговар”руҳдаги тадбирларнинг самараси ва натижаси бўлади.

Таниқли тарбияшунос олим профессор М.Қуронов ва бошқалар муаллифлигида нашр қилинган “Тадбир самарадорлигининг ўн шарти” рисоласида: “Тарғибот-бирор ғоя,таълимот,фикр ва қарашни аҳоли ўртасида кенг ёйиш,кишилар онгига сингдиришга қаратилган, аниқ мақсадни кўзлаб олиб бориладиган тушунтириш ва даъватни, одамларни муайян бир вазифани ҳал қилиш,маълум бир тартиб-қоидалар асосида яшаш,меҳнат қилишга маънавий-руҳий тайёрлаш, ғоявий руҳлантириш,сафарбар қилишни англатади. Демак,тарғибот (лотинча пропаганда-тарқатилиши керак бўлган маълумот)- оғзаки ёки оммавий ахборот воситалари орқали аниқ бир мақсад, ғоя ва қарашларнинг жамоатчилик ўртасида оммалашишига йўналтирилган фаолиятдир.

Ташвиқот эса—одамларга таъсир ўтказиш мақсадида ёзма ва оғзаки қилинадиган ишлар,ундаш,даъват қилиш,шу асосда уларнинг қалбида завқ-шавқ,муҳаббат ёки нафрат ўйғотишни ўз ичига олади.Ташвиқот (лотинча агитатио-ҳаракатга келтирмоқ)-маълум бир ижтимоий гуруҳ ёки оммани кўзланган мақсад сари фаолликка ундайдиган тарғибот фаолиятидир” дейилган [5].

Худди шу манбада яна таргиботнинг икки тури –жумладан вайронкор ва бунёдкор таргибот тушунчаларига ҳам таъриф берилган. Жумладан, “..Ҳозирги кунда ҳам инсоният ҳаёти турли хавф-хатарлардан холи эмас. Жаҳон миқёсида диний экстремизм, халқаро терроризм, эгоцентризм, ватансизлик, ахлоқсизлик каби бузғунчи ғоялар янги, XXI аср технологиялари билан қуролланган ҳолда тарғиб этиляпти, глобаллашиб боряпти. Гарчи восита, шакл ва мақсадлар ўзгариб бораётган, турли номларда аталаётган бўлсада, уларнинг замирида ғаразли мақсадлар тарғиботи ётибди. Шунинг учун бошқаларнинг тинчини бузиш,барқарор тараққиётга ғов бўлишга йўналтирилган ҳамда миллий манфаатларга қарши қаратилган бундай тарғиботни вайронкор тарғибот деймиз.

Мустақил Ўзбекистонда тарғибот ишлари юксак мақсадларга – Ватанимиз мустақиллигининг маънавий асосларини янада мустаҳкамлаш, миллий ўзликни англаш, жамиятни юрт тинчлиги, Ватан равнақи, халқ фаровонлиги, ижтимоий ҳамкорлик, комил инсонни тарбиялаш, миллатлараро тотувлик, динлараро бағрикенглик каби олижаноб ғоялар атрофида бирлашиш учун, мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг кўламли ўзгаришларни, пировард мақсадимиз бўлган эркин ва фаровон ҳаёт моҳиятини кенг тарғиб қилишга қаратилган. Шунинг учун бу-бунёдкор тарғибот ҳисобланади” деб

уқтирилган [6].

Юқоридаги манбада ёшлар ўртасида олиб борилаётган тадбирларни ташкил этишда қўйидаги принциплардан фойдаланиш тадбирнинг мазмун-моҳиятини тўлиқроқ очиб бериш ва тингловчи қалбига осон етиб бориб ижобий таъсир ва яхши самара бериши кўрсатиб ўтилган .Жумладан :

1.Ишонтириш принципи.
2.Тезкорлик принципи.
3.Долзарб янгиликлардан фойдаланиш принципи.
4.Тушунарлилик принципи.
5.Тадбирда лозим булса ўша ҳудуддан мисол келтириш принципи.
6.Тингловчилар қатламини инобатга олиш принципи.

Албатта,бу принциплар тавсиявий характерга эга эканлигини инобатга олиб, ҳар бир ўқитувчи ёки ёшлар мураббийи,яъни тарбиявий ишлар ташкилотчилари уюштирадиган маънавий-маърифий тадбирларини юқорида кўрсатилган принципларни қўллаб,янада бойитиб ва таъсирчанлигини оширишга ҳаракат қилсалар фойдадан холи бўлмайди.

Бу борадаги фикрларимизга хулоса қилиб айтиш мумкинки,ҳар бир тарбиявий тадбир аввало,миллий заминга эга ва халқимизнинг ёшлар тарбияси соҳасидаги бой тажрибалари ва асосийси,илмга асосланган бўлсагина,улар ёшлар тарбиясини такомиллаштиришга ва ижтимоий фаоллигини ривожлантиришга хизмат қилади.

Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, ёшлар тарбияси барча замонларда ҳам ижтимоий муаммо ва долзарб масала бўлиб келган.Чунки,ўз халқининг келажагини ўйлаган ҳар бир мамлакат аҳолининг барча қатламларини давлат томонидан олиб борилаётган сиёсат ҳамда янгилик ва ислоҳотлар жараёнидан хабардор қилиб боришга ҳаракат қилган. Бу хабардорлик фақат халқнинг ижтимоий фаоллигини оширишгагина таъсир ўтказмай,жамият аъзоларини бирлаштиришга ва бунёдкор ишлар йўлида сафарбар қилиб, давлат ва жамиятни якдиллигига эришишдек эзгу мақсадларга хизмат қилган.

Ёшлар тарбияси масаласи бугунги кунда ҳам нафақат долзарб масала балки,давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланди. Ўзбекистонда биргина сўнгги 4-5 йил ичида узлуксиз таълимни ривожлантиришга катта эътибор қаратилганлигини кўрамиз.Мактабгача ва мактаб таълими тизими,профессионал таълим тизими ва олий таълим тизимини ислоҳ қилиш ва тубдан янгилаш жараёнлари амалга оширилди. Биргина олий таълим тизимидаги ислоҳотларни ўз ичига қамраб олган ўнга яқин Фармон,қарор ва республика ҳукуматининг тегишли қонун ҳужжатлари қабул қилинди. Шулардан бири, Президентимизнинг 2019 йил 8-октябрдаги “Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш тўғрисида”ги ПФ 5844-сонли Фармонидир..Айнан ушбу фармонда мамлакатдаги олий таълим тизимининг узоқ муддатли тараққиёт ва юксалиш йўли белгилаб берилди.Тарихга мурожаат қиладиган бўлсак, мустақиллик йилларида, аниқроғи 2018 йилгача мамлакатимизда 76 та давлат олий таълим муассасаси фаолият кўрсатиб келганлигини, бу эса республиканинг барча ўрта умумтаълим мактаблари битирувчиларининг бор-йўғи 10-12 фоизини олий таълим билан қамраб олганлигини кўришимиз мумкин . Яқин уч йил ичида эса уларнинг сони 170 тадан ошганлигини, хорижий давлатлар олий таълим муассасаларининг Ўзбекистонда очилган филиаллари сони салкам 30 тага етганлигини ва айни вақтда замон талаблари асосида 40 га яқин нодавлат, яъни хусусий олий таълим муассасалари ўз фаолиятини олиб бораётганлигига барчамиз гувоҳ бўлмоқдамиз.

Бундай имконият ва шароитлар айнан мамлакат олий таълим тизимида ислоҳотларнинг ўтказилиши натижасида яратилаётганлигини, айтиш мумкинки,замон талабларига жавоб бера оладиган рақобатбардош кадрлар етиштириб бериш учун олий таълим муассасалари ўртасида соғлом рақобатни юзага келтириш ва бундан кўзланган мақсад-

ривожланиш ва тараққиёт эканлиги барчага маълум. Мазкур таълимий ислоҳотлардан кўзда тутилган улуғ ният ҳам эртанги кун эгалари бўлган ёшларимизни ҳар томонлама ривожланган баркамол инсонлар қилиб тарбиялашдир.

Яқинда умумхалқ муҳокамасидан ўтиб қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Конституциясида ҳам таълим соҳасининг устуворлигини кўриш мумкин.Аввалги Конституцияда “Давлат-жамият-инсон” тамойилига амал қилинган бўлса, Янгиланган Конституцияда “Инсон-жамият-давлат” тамойили устуворлик қилмоқда. Яъни, инсон қадр-қимматини улуғлаш бош ғоя сифатида устуворлик даражасига чиқди. Шу билан бирга таълимни ривожлантириш билан боғлиқ янги нормалар ҳам киритилдики, бу нормалар олдинги Конституцияда мавжуд эмасди.

Масалан, инсонни улуғлаш ва фуқароларни айниқса,ногиронлиги бўлган аҳоли вакилларини таълимга жалб қилиш,яъни таълим билан қамраб олиш масаласи ҳам Конституцияга кафолатлаб қўйилгани ижобий ҳодиса сифатида фикримизга далил бўла олади.Шунингдек, “Фуқароларнинг бандлигини таъминлаш”,”Аҳолининг ижтимоий жиҳатдан эҳтиёжманд тоифалари”, “Соғликни сақлаш тизимининг нодавлат шакллари”,”Ногиронлиги бўлган шахслар”, “Инклюзив таълим ва тарбия”, “Нодавлат таълим ташкилотлари”, “Мактабгача таълим”, “Бошланғич профессионал таълим” каби кўпгина янги ҳуқуқий нормаларнинг киритилганлигини ҳам кўрсатиш мумкин.

Олдинги Конституциямизда “Ўзбекистон-суверен демократик республика” деб белгиланган бўлса, Янгиланган таҳрирда бу-“Ўзбекистон –бошқарувнинг республика шаклига эга бўлган суверен, демократик, ҳуқуқий, ижтимоий ва дунёвий давлат” сўзлари билан муҳрлаб қўйилди.Бу ерда “ҳуқуқий”, “ижтимоий” ва “дунёвий” каби сўзларнинг мазмун-моҳиятига эътибор қаратадиган бўлсак, яъни давлат Конституция ва бошқа қонунларга тўла-тўкис риоя қилиб,халқимизнинг камдаромадли қатламини ижтимоий муҳофаза қилган ҳолда ҳуқуқий демократик давлат сифатида дунёнинг энг тараққий топган давлатлари қаторига чиқишни мақсад қилганлигини эътироф этиш мумкин.

“Ижтимоий давлат” нима дегани? каби савол туғилиши табиий ҳол. Аввало, бу борада шунга эътибор қаратиш керакки, “ижтимоий давлат” ёки “ижтимоийлик” бу –давлат томонидан камхарж қатлам вакиллари (қариялар, ногиронлар, болалар, боқувчисини йўқотган вояга етмаганлар ва бошқалар)ни муҳофаза қилиб ғамхўрлик қилади, деган тушунчани беради.

Янада кенгроқ масала моҳиятини таҳлил қиладиган бўлсак,маълум бўлишича, “Ижтимоий” сўзининг луғавий маъноси “жамият-жамоа-жам”сўзлари билан боғлиқ эканлигини кўрамиз.Яъни ҳар бир инсон ўз ҳаётини жамоа ёки жамият билан олиб борар экан. “Ижтимоий давлат”-жамият аъзоларининг соғлом ижтимоий эҳтиёжларини қондириб борадиган, аҳоли турли қатламларининг мамлакат равнақи йўлидаги ижтимоий мўлжалларини қўллаб-қувватлайдиган, жамиятда барқарор ижтимоий-маънавий муҳитни таъминлайдиган давлат ҳисобланади. Биргина мисол, Янги Конституцияда “ижтимоий” сўзининг эътибор беринг, 42 маротаба ишлатилганлигининг ўзи халқимизнинг фаровонлиги учун давлат барча имкониятларни яратиб бериш кафолатини ўз зиммасига олганлигидан далолат бермоқда.

Бу фақат қоғоздаги гаплар эмас. Ўзбекистон –ижтимоий давлат мақоми мажбуриятини қандай бажармоқда? деган ҳақли савол ҳам туғилиши табиий.Коституциямиз қабул қилинганлигига ҳали кўп вақт бўлгани йўқ. Аммо, шунга қарамай давлат, халқ олдидаги, Конституцияда белгиланган вазифаларни амалга ошириб келмоқдаки, давлатимиз раҳбари бошчилигидаги бу амалий ишлар халқимиз кўнглидан жой олмоқда. Жамиятимиздаги ўзгаришларни таҳлил қиладиган бўлсак қўйидаги ижобий ишларни кўриш мумкин. Масалан, Президентимизнинг 2023 йил 1-июндаги Фармони билан мамлакатимизда халқимизни ижтимоий ҳимоя қилиш борасида янги қадамлар қўйилди. Айнан мазкур Фармон билан Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузурида “Ижтимоий

ҳимоя миллий агентлиги” ташкил этилди. Жорий йилимизнинг 15-октябридан бошлаб республикадаги 28 та туман(шаҳар)ларда эксперимент тариқасида фаолияти йўлга қўйилган агентликнинг “Инсон” ижтимоий хизматлар марказлари тизими ишга туширилди.

Вазирлар Махкамасининг 2023 йил 28- сентябрдаги “Аҳолига ижтимоий хизматлар ва ёрдамлар кўрсатиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”-ги қарори билан Агентликнинг вазифалари белгилаб берилди. Бу вазифалар қўйидагилар :

-комплекс ёндашув асосида профессионал ижтимоий ҳимоя тизимини жорий этиш;

-ижтимоий ҳимоя тизими самарадорлиги ва манзиллилигини ошириш орқали аҳолининг кўмакка муҳтож қатлами ижтимоийлашувини таъминлаш;

-ижтимоий ҳимояни маҳалла даражасигача ташкил этиш,оғир ҳаётий аҳволга тушиб қолган аҳолига индивидуал ёндашувга мувофиқ ижтимоий хизмат ва ёрдам кўрсатишни йўлга қўйиш;

-аҳолининг ижтимоий суғурта механизмлари билан қамраб олинишини кенгайтириш;

-хавф гуруҳларига тушиб қолган оилаларни аниқлаш ва комплекс ижтимоий хизматлар кўрсатиш орқали уларнинг оғир ижтимоий аҳволга тушиб қолишининг олдини олиш;

-ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳаёт кечириши учун қулай муҳит яратиш кабилардир.

Ушбу маълумотларни келтиришдан мақсад шуки, ижтимоий давлат мазмун –моҳиятини тўлиқ англамай туриб, атрофда бўлаётган ўзгаришларни айнан ўзи учун амалга оширилаётганлигини сезмай туриб,яъни ўз ҳаёти мисолида кўрмай туриб фукароларимиз, айниқса ёшларимизда ижтимоий фаоллик сифатларини ривожлантириш қийин кечади.Бошқача қилиб айтганда, айнан атрофдаги воқеа-ҳодисалардан хабардорлик инсонни фаолликка ундайди. Буюк мутафаккир бобомиз Алишер Навоийнинг қўйидаги мисралари фикримизга асос бўла олади:

Агар сен шоҳ сен- сен,демак огоҳ, сен-сен,

Агар огоҳ сен-сен,демакким, шоҳ сен-сен.

Мулоҳазаларимизни давлатимиз раҳбари Ш.М.Мирзиёевнинг фикрлари билан якунлаймиз: “Ижтимоий давлат бу, энг аввало,инсон салоҳиятини рўёбга чиқариш учун тенг имкониятлар,одамлар муносиб ҳаёт кечиришига зарур шароитлар яратиш,камбағалликни қисқартиришдир”.

Яъни,ижтимоий давлатнинг вазифаси-ёшларни тарбиялаш,фуқароларга ғамхўрлик қилишга қаратилганлиги билан ҳам катта ижтимоий аҳамиятга эга.

Шулар билан бир қаторда мамлакатимизда ёшлар сиёсатининг ҳуқуқий асослари яратилганлигини, уларнинг ўзлигини намоён қилишлари ва истеъдодларини рўёбга чиқаришлари учун “Ниҳол”, “Мард ўғлон”, “Зулфия” номидаги давлат мукофотларининг бериб борилиши йўлга қўйилганлиги, “Ёш китобхон”, “Ёш чегарачи”, “Ёш тадбиркор”, “Ёш дастурчи”, “Ёш ижрочи”, “Ёш спортчи”, “Ёш рассом”, “Артист” каби кўпгина спорт, кино, мусиқа ва санъатнинг бошқа йўналишидаги кўрик-танловларнинг мунтазам равишда ўтказилиб келиниши ёшларнинг иқтидорини юзага чиқаришга ҳамда уларнинг ижтимоий фаоллигини ривожлантиришга ҳам хизмат қилмоқда.

Биринчидан, давлат томонидан яратиб берилган бундай имкониятлардан улар яхши хабардор.Аммо,бу ғамхўрликка жавобан барча ёшлар илм олиб,касб-ҳунар сирларини ўрганаяпти,бўш вақтини ижтимоий-фойдали меҳнатга сарфлаяпти дейиш нотўғри. Агар шундай бўлганда эди, ёшлар ўртасида жамиятимизда учраб турадиган айрим салбий иллатлар яъни, ҳуқуқбузарлик ва жиноятчилик ҳолатлари юз бермаган бўлар эди.

Иккинчидан, таълим-тарбия жараёнида таълим муассасаларида қанчалик пи-

шиқ-пухта сифатли таълим жараёни ташкил этилмасин,агар ўқувчи ёки талабаларда илм олиш ва касб-ҳунар ўрганишга бўлган интилиш,жамиятда муносиб ўрин эгаллаш, яъни мустақил шахс сифатида шаклланиб бориш учун ҳаракат сезилмаса, яъни ақл, тафаккур, илмий идрок,ўз «мен”ини англашга шижоат кўрсатилмаса ёки улар ўқитувчи –мураббийлар томонидан руҳлантириб (мотивация) борилмаса, бундай ёшлар жамият талабларига жавоб бериши қийин. Бошқача қилиб айтганда,бундай пассив ва ўз тақдирига бефарқ бўлган ёшларда ижтимоий фаоллик сифатларини ривожлантириш анча мураккаблигича қолади.

Учинчидан, ёшларни мамлакатимизда олиб борилаётган кўпқиррали, жумладан,маънавий (аниқроғи, таълим тизимидаги) соҳадаги ислоҳотлардан хабардор қилиб бориш ва барча хайрли ишлар халқ фаровонлиги, шу жумладан ёшлар манфаати учун қилинаётганлигини ва ушбу имкониятлардан улар фойдаланиб илм-фан чўққиларини эгаллашлари лозимлигини тушунтириб бориш ёшларнинг ижтимоий фаоллик даражасини ривожлантириб боришга ёрдам беради.

Ёшларимизда ижтимоий фаоллик сифатларини ривожлантириш –уларнинг ижтимоий ҳаётда ўз ўрнини топишда ва жамиятда бўлаётган ўзгаришлар ҳамда давлат томонидан олиб борилаётган ислоҳотлар жараёнининг фаол иштирокчисига айланишларига қўйидаги омиллар ёрдам беради:

1. Аввало,фаол фуқаро сифатида ёшларда шахсий масъулият туйғусини тарбиялаш орқали мамлакатда қабул қилинаётган қонун ва қарорлар мазмун-моҳиятини чуқур англаб, уларга риоя этиш кўникмасини шакллантириш.

2. Давлатнинг фаол ёш фуқароси сифатида ўз ҳуқуқ ва бурчи билан биргаликда шахсий масъулияти ва мажбуриятини ҳам англаб етиши яъни, Ватан тақдирига дахлдорлигини ошириш орқали ҳуқуқий маданиятни шакллантириш;

3. Ёшларимизда ўз шахсий ҳаётида келажакни олдиндан тасаввур қилган ҳолда олдига аниқ мақсад қўйиб унга интилиб меҳнат қилиш кўникмасини шакллантириш;

4. Таълим муассасаси жамоатчилик ишлари ёки давлат ва жамият ишларига фаол қатнашиб (масалан турли сиёсий партиялар сафига кириб фаоллик намунасини кўрсатган ва ёш бўлишига қарамай турли даражадаги сайлов органлари депутатлари этиб сайланганлар бор) ўз шахсий фикр ва мустақил ҳаётий позицияга эга бўлиш,яъни лидерлик қобилиятини тарбиялаш;

5. Ватанга содиқлик, ўз меҳнат жамоаси,оиласи,яқин атрофдагиларга ғамхўрлик қилиш ва жамият аъзоларига хайрихоҳлик билан муносабатда бўлиш фазилатларини ривожлантириш;

6. Ҳаёти давомида ақл ва тафаккур эгаси сифатида ўзини маънавий жиҳатдан юксалтириб боришни одатга айлантириш.

7. Турли маънавий таҳдидлар, инсон онги учун мафкуравий курашлар ва космополитик ғоялар тарғиботи кучайган ҳозирги даврда ўз фикри, фуқаролик позициясига эга шахс сифатида –Юрт тинчлиги,Ватан равнақи ва ўз халқининг фаровонлигини ўйлайдиган ижтимоий фаол ватанпарвар сифатида шакллантириш.

8. Жамиятда миллатлараро тотувлик ва динлараро бағрикенглик муҳити ҳукм сураётган ҳозирги даврда ёшларимизда “Ўзбекистон-умумий ўйимиз” ғояси асосида мамлакатда яшаётган ва унинг тараққиёти учун меҳнат қилаётган бошқа миллат ва элат вакилларини ҳурмат қилиш орқали байналминаллик руҳида тарбиялаш ҳамда ватанпарварлик,бағрикенгликка асосланган миллатлараро муомала маданиятини юксалтириш.

9. “Ёшлар-Янги Ўзбекистон бунёдкорлари”ғояси асосида ўсиб келаётган ёш авлодни Янги Ўзбекистон стратегиясининг мустаҳкам пойдевори бўлган тарихий-маънавий омил-халқимизнинг улкан маданий мероси ва илмий салоҳиятидан унумли фойдаланган ҳолда ижтимоий фаол фуқаро сифатида тарбиялаш ва амалий натижадорликка эришиш.

10.Узлуксиз таълим тизимида маънавий тарбия асосларини кучайтириш,ёшлар-

нинг онгу-тафаккурини маърифат асосида шакллантириш ва тарбиялаш “Янги Ўзбекистон-маърифатпарвар давлат” тамойилини амалга оширишда ҳамда Янги Ўзбекистонда маърифатли жамиятни шакллантиришда ёш авлодни маънавий-ахлоқий руҳда тарбиялаб уларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш орқали замонавий Ўзбекистон давлатини барпо этишда муносиб иштирокини таъминлашга эришишдан иборат.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки,ёшларимизни жамиятимизнинг фаол фуқароси этиб тарбиялаш ва уларда ижтимоий фаоллик сифатларини ривожлантириш узоқ давом этадиган ғоявий-тарбиявий жараёндир.Бу улуғвор ният йўлида жамиятимизнинг барча ижтимоий институтлари томонидан яқин алоқадорликда баҳамжиҳат иш олиб борилса,-шунча тез ёшларимизнинг жамиятда муносиб ўринларини эгаллашларига ва пировард мақсад-Янги Ўзбекистонни барпо этиш ва маърифатли жамият қуришда халқимиз фаровонлиги ва давлатимиз тараққиётига муносиб ҳисса қўшишларига сафарбар қилинар эди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.Тошкент.”Ўзбекистон” нашриёти.2021 й. 269-270 бет,

2. Маврулов А. Тафаккур ислоҳоти.” Маърифат “ газетаси.2011й.20-июль.58-сон.

3. Маънавият.Асосий тушунчалар луғати.”Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти” нашриёти.Тошкент.2021 йил.196-197 бет.

4. Исматов Ш. Талабалар ижтимоий фаоллигини ошириш –жамият ривожининг омили сифатида // Педагогика журнали, 2023 й. 2-сон.262-бет.

5. Қуронов М.ва бошқалар. “Тадбир самарадорлигининг ўн шарти”. Маънавий – маърифий тадбирлар самарадорлигини ошириш бўйича илмий-амалий тавсиялар.”Истиқлол”.Тошкент -2006.3-бет.

6. Исматов Ш.У. Олий таълим муассасаларида талабалар ижтимоий фаоллигини ривожлантиришнинг педагогик шарт-шароитлари //Экономика и социум. – 2023. – №. 5-1 (108). – С. 574-578.

7. Исматов Ш. Шарқ маънавий-маърифий таълимотлари мазмунидаги маънавий-ахлоқий тарбия талқини //Экономика и социум. – 2022. – №. 4-1 (95). – С. 291-294.

8. Исматов Ш. Олий таълим муассасалари талабаларини тарбиялашда гуруҳ мураббийлари (тьютор) нинг роли //Pedagogik mahorat. – С. 155.

9. Жураев Б.Т. Социально-духовное развитие студентов //Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. – 2019. – С. 22-23.

10. Жураев Б. Т. Деятельность педагога по гуманизации учебно-воспитательного процесса //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. – 2017. – Т. 31.

11. Олимов Ш. Ш., Сайфуллаева Н. З. Влияние социального развития на духовно-нравственное воспитание //тренды развития современного общества: управленческие, правовые, экономические и социальные аспекты. – 2014. – С. 186-188.

ТАЛАБАЛАРНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА ЖАМОАТ ТАШКИЛОТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ МУВОФИҚЛАШТИРИШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА

Ҳомидов Ҳусниддин Купайсинович
Бухоро давлат педагогика институти “Педагогика” кафедраси дотценти, педагогика фанлари фалсафа доктори(PhD)

Аннотация. Маскур мақолада талабаларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда жамоат ташкилотлари фаолиятини мувофиқлаштириш педагогик муаммо сифатида таҳлил қилинган. Шунингдек маънавий-маърифий тадбирларни самарали ўтказиш жараёнида жамоат ташкилотлари ҳамкорлиги ҳақида сўз юритилган.

Калит сўзлар: Ватан, талабалар, маънавий-маърифий тадбирлар, миллий қадриятлар, маънавият, маданият, маърифат, давлат, жамоат ташкилотлари.

СТУДЕНТЫ ПАТРИОТИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ И ОБРАЗОВАНИЯ ОБЩЕСТВЕННЫЕ ОРГАНИЗАЦИИ КОРПОРАТИВНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ЗАГАДКА

Хамидов Хусниддин Купайсинович
Бухарский государственный педагогический институт доцент кафедры «Педагогика», Доктор философии педагогических наук (PhD)

Абстрактный: В статье анализируется координация деятельности общественных организаций как педагогическая проблема воспитания студентов в духе патриотизма. Также было упомянуто о сотрудничестве общественных организаций в процессе эффективного проведения духовно-просветительских мероприятий.

Ключевые слова: Родина, студенты, духовно-просветительская деятельность, национальные ценности, духовность, культура, просвещение, государство, общественные организации.

STUDENTS PATRIOTIC DEVELOPMENT AND EDUCATION COMMUNITY ORGANIZATIONS CORPORATE ACTIVITY PEDAGOGICAL PUZZLE

Hamidov Husniddin Kupaysinovich
Bukhara State Pedagogical Institute, Associate Professor of the «Pedagogy» Department, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

Abstract: The article analyzes the coordination of activities of public organizations as a pedagogical problem in educating students in the spirit of patriotism. It was also mentioned about the cooperation of public organizations in the process of effectively conducting spiritual and educational events.

Key words: Motherland, students, spiritual and educational activities, national values, spirituality, culture, enlightenment, state, public organizations.

XXI аср глобаллашув, тараққиёт асри, фақат интеллектуал жиҳатдан юксак ривожланган давлатларгина дунёда устувор мавқе эгаллайдиган давр бўлиши барчамиз учун аён. Мана шу йўлда Янги Ўзбекистон давлати тақдирини ўз қўлига олиб, янги ҳаёт, жамият қуришга, келажагини жаҳон ҳамжамиятининг узвий бир қисми сифатида ташкил этишга киришди. Заҳматкаш халқимиз ўзининг фидоий меҳнати билан дунёда ҳеч

кимдан кам бўлмай, тараққий топган мамлакатлар қаторидан ўрин олиб, тинч, фаровон ва осуда ҳаёт кечиришга ҳақлидир. Лекин бу йўл жуда мураккаб йўл бўлиб, у жамият аъзоларидан фидойилик, ватанпарварлик, халқпарварлик туйғулари устувор бўлишини талаб қилади. Бунинг учун жамият ҳаётининг эртанги кунини яратадиган ёшларда худди мана шу туйғуларни шакллантириш зарур.

XIX асрнинг иккинчи ярми XX аср бошларида яшаб, ижод этган мутафаккирлар ўз асарларида ёшлар тарбиясига, ватанпарварлик, ватанпарварликтуйғусини камол топтиришга алоҳида эътибор берганлар. Алишер Навоий, Абдураҳмон Жомий, Захириддин Муҳаммад Бобур, Фаробий, Ибн Сино, Юсуф Хос Хожиб, Кайковус, Муслиҳиддин Садий, Имом Исмоил ал-Бухорий каби буюк зотлар Ватан ободлиги, юрт фаровонлиги учун тинмай жонбозлик кўрсатганлар ва ўз замондошларини ҳам шунга даъват қилганлар.

Истиқлол Янги Ўзбекистоннинг иқтисодий ва маънавий такомиллигининг барча соҳалари ривожига самарали таъсир кўрсатди. Шу билан бирга адабиёт ва адиблар олдига улкан маъсулиятли вазифаларни қўйди. Ўсиб келаётган ёш авлод элим, юртим деб яшаши, ватанимизнинг гуллаб-яшнаши буюк келажакка ишонч руҳида тарбияланиши кўп жиҳатдан таълим-тарбия жараёнига боғлиқ. Ушбу улкан ишларни амалга ошириш учун Ўзбекистон Республикасининг таълим соҳасидаги қонун ва фармонларга кўра таълимнинг мазмуни ва бошқарувини миллий қадриятлар, тарихий, маънавий тарбияга мос тарзда танлаш ва ташкил этиш зарурати қўйилди.

Маълумки, халқимизнинг келажаги, мамлакатнинг истиқболдаги тараққиёти фарзандларимизнинг қандай ривожланишига боғлиқ.

Ўзбек халқининг ардоқли фарзандлари бўлган аждодларимиз ўзларида ватанпарварлик туйғусини намоён қила олган. Жумладан, Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг қуйидаги сўзларида миллий мансубликдан ғурурланиш, ватанпарварликтуйғуси яққол намоён бўлади: «Биз ўз қисматимизни биламиз. Агар бизнинг ҳаётимиз ҳуррият ва халқнинг бахт-саодати учун қурбонлик сифатида керак бўлса, биз ўлимни ҳам хурсандчилик билан кутиб оламиз ... мумкин қадар кўпроқ яхши мактаблар очиш, шунингдек, маориф ва халқ бахт-саодатини таъминлаш соҳасида тинмай ишлаш бизга ҳайкал бўлади ...».

Абдурауф Абдураҳмон ўғли Фитрат ҳам ўз Ватанини севади, у билан фахрланади, уни ҳар нарсадан муқаддас тутади ва ёшларни Ватанни севишга, ардоқлашга чорлайди. У «Сайҳа» тўпламидаги шеърларидан бирида шундай ёзади:

Ватанни зиёрат қилмоққа
Эрта тонгда кел.
Ҳай-ҳай қандай Ватан бу!
У менинг саждагоҳим,
Осойишим, иззатим, шарафим,
Ҳам каъбам, ҳам қалбим,
Ҳам чаманимдир.

Бу мисралар ватанпарварликнинг юксак намунаси бўлиб, ёшларда ватанпарварликтуйғусини шакллантиришда алоҳида қимматга эга. Муаллиф Ватаннинг равнақ топиши учун ёшларни дунёвий илмларни эгаллашга даъват этади, бу йўлда ўзи фидойилик намунасини кўрсатади.

Фитратнинг фикрича, ҳар бир инсон ҳаётда ўз ўрнига эга бўлиши учун у соғлом фикрли ва пок ахлоқли бўлмоғи керак. Ҳар миллат ўз келажагини ўйлар экан, ёшларга эътиборини қаратмоғи, уларни мунтазам жисмоний, ақлий, руҳий томонидан чиниқтирмоғи лозим.

Мунавварқори Абдурашидхон ўғли болаларга атаб ёзган асарларида Ватанга садоқат ва меҳр-муҳаббат, инсонийлик, тўғрилик, меҳнатсеварлик фазилатларини шакллантиришга эътибор берган. Унинг фикрича, Ватанни севиш, унинг гуллаб яшаши учун меҳнат қилиш ва улғайиш зарур. Шу сабабли аллома болалар қалбига Ватан гўзаллиги-

ни сингдириб, уларни Ватан олдидаги фуқаролик бурчини юксак даражада бажарадиган кишилар қилиб камол топтиришни, Ватан ўз фарзандларидан нажот кутиб турганлигини таъкидлайди.Тарбия-жуда кенг маъноли бўлиб, у ижтимоий фаолият, жараён, қадрият, тизим, таъсир, ўзаро ҳаракат ва ҳоказо тарзида тушунилади. Кўпгина тадқиқотчилар тарбияга кенг ижтимоий маънода қарайдилар. Унга инсонни жамиятнинг яхлит ҳолдаги таъсири киритилади, яъни у тарбияни амалда ижтимоийлаштириш билан тенглаштирилади; чуқур маънода-таълим муассасаларида амалга ошириладиган, аниқ йўналтирувчи мақсадга қаратилган, тор педагогик маънода-болаларда муайян сифатлар,

қарашлар, этиқодлар тизимини шакллантиришга йўналтирилган тарбиявий иш сифатида; ундан ҳам торроқ маънода – аниқ тарбиявий вазифаларни ҳал этиш тарзида тушинилади.

Ҳозирги замон жамият тараққиёти шароити тарбия натижасида ва самарадорлиги инсон томонидан маданий қадриятлар ҳамда ижтимоий тажриба қанчалик ўзлаштирилаётгани ва қайта ишлаб чиқарилаётгани билан эмас, балки жамият аъзоларининг ўтмишдаги авлодлар тажрибасида ўхшаши бўлмаган вазифаларни қўйиш ва ҳал этишига имкон берадиган онгли фаоллик ҳамда мустақил ижодий фаолиятга тайёрлиги билан белгиланади.

Тарбиянинг муҳим натижаси – инсоннинг ўзи ўзгартириш (ўзи қуриш, ўзи тарбиялаш)га тайёрлиги ва қадрлигидир.

Ватан тушунчасининг илмий, педагогик, фалсафий, бадиий, жиҳатларига тўхталадиган бўлсак, 1981 йилда нашр этилган “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да ватан тушунчасига қуйидагича таъриф берилган: Киши туғилиб ўсган ва ўзини унинг фуқароси ҳисоблаган мамлакат; кишининг туғилиб ўсган ўлкаси, шаҳри ёки қишлоғи; турар жой, бошпана, маскан, уй сифатида талқин этилган.

Ўзбекистон миллий энциклопедиясида эса, ватан тушунчасига шундай таъриф келтирилади: Ватан - кишиларнинг туғилиб ўсган жойи, юрти, мамлакати; тарихан муайян халққа тегишли ҳудуд ҳамда унинг табиати, аҳолиси, ўзига хос тараққиёти, тили, маданияти, турмуши ва урф-одатлари мажмуи. Ватан она каби муқаддас. Ватан олдидаги қарздорлик туйғуси, масъулияти ҳар бир етук инсонга хос хусусиятдир. Ватанни севиш ватанпарварликда намоён бўлади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек, “Барчамизга яхши маълумки, ватанпарварлик ҳар бир давлат ҳаётининг маънавий асоси ҳисобланади ва жамиятни ҳар томонлама ривожлантириш борасида энг муҳим сафарбар этувчи куч сифатида намоён бўлади”. Ҳар қандай ишда ватанпарварлик ҳисси намоён бўлиши керак. Дарҳақиқат, ватан бир кишининг мулки эмас, у ўтиб кетган аждодлар юрти, ўсиб-улғаяётган фарзандларимиз, келажакда дунёга келадиган авлодларнинг мулки - ватан шу юртда яшаб турган ҳар-биримизнинг мулкимиздир. Демак, ер юзида миллат учун ватан мавжуд экан, халқда ватан туйғуси доимо, барча даврларда мавжуд бўлаверади. Бир сўз билан айтганда ватанпарварлик ўз она Ватани учун жонбозлик кўрсатишидир. Бундай жонбозлик эса ёшларда таълим жараёнида сингдирилади.

Дарҳақиқат, бугунги кунга қадар ёшлар орасида ватанпарварлик ҳиссини шакллантириш кейинги ўринларга тушиб кетган эди. «2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси»да ҳам бу масала алоҳида ўз аксини топди. Жумладан, ёшларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилишга қаратилган қуйидаги устувор вазифалар белгиланди:

республикамиздаги барча таълим муассасалари битирувчиларини ишга жойлаштириш ҳамда хусусий тадбиркорлика жалб этиш;

ёшларнинг ижодий – интеллектуал қобилиятини ривожлантириш, қўллаб-қувватлаш, ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш, уларни жисмонаний тарбия

ва спортга кенг жалб этиш.

Ёшларда ватанпарварлик ҳиссини шакллантириш давр талаби, уларни ватанпарварлик руҳида тарбиялай олмасак, уларда ҳарбий ватанпарварлик ҳиссини шакллантириб бўлмайди. Янги Ўзбекистонда ёшларнинг таълим-тарбия олиши, ҳар томонлама ривожланган етук инсон бўлиб ўсиб-улғайиши йўлида замонавий шарт-шароитларни яратиб бериш учун барча имкониятлар яратилмоқда. Чунки ёш авлодни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, маънавий етук, жисмонан соғлом, ватанпарвар ва фидойи этиб тарбиялаш, ҳуқуқ ҳамда манфаатларини ҳимоя қилишга эътибор қанча кучайтирилса, унинг самараси ҳам шунча юқори бўлади.

Шу билан бирга, миллий қадриятларга, халқларнинг маданиятига ва ўзлигига бўлган таҳдидлар, ёд ғояларни сингдиришга бўлаётган уринишлар кучайиб бораётган глобализация жараёнлари жадал ривожланаётган шароитда ёшлар энг заиф қатлам бўлиб қолаётганлиги сабабли бу йўналишда қўшимча комплекс чора-тадбирлар қабул қилиниши долзарб вазифалардан бири бўлиб қолмоқда.

А.Авлоний ўзининг «Туркий гулистон ёҳуд ахлоқ» асарида, А.Иброҳимов, Х.Султонов, Н.Жўраевларнинг “Ватан туйғуси” китобида, машҳур татар олими Ризоуддин Ибн Фахриддинни “Илми ахлоқ” китобида, Ҳамид Олимжоннинг “Ўзбекистон”, Абдулла Ориповнинг “Ўзбекистон Ватаним маним”, “Мен нечун севаман Ўзбекистонни», Эркин Воҳидовнинг “Ўзбегим”, Барот Бойқобиловнинг “Хамса”, “Ўзбекнома” асарида, Турсуной Содиқованинг “Меҳр қолур” китобида ватан тушунчасининг моҳиятини илмий-назарий ҳамда бадиий нуқтаи назардан талқин этганларки, улардаги ватанга эътиқод ҳақидаги ғоялар талабаларни ватанга эътиқод руҳида тарбиялашда муҳим аҳамиятга эгадир.

Олим Улфат Маҳкамов «Ахлоқ-одоб сабоқлари» китобида ватан тушунчасини қуйидагича ифодалайди: “Ватан - ҳар бир кишида ўз уйига, туғилиб ўсган юртига, энг яқин кишилари ота-она, ака-ука, опа-сингилларига бўлган муносабатида акс этади. Она-Ватан шундай тушунчаки, у киши қалбида ҳеч қачон ўзгармайди. Ватанга муҳаббат туйғуси она сути билан қонга киради. Бу азиз туйғуни она алласи парвариш этади, вояга етказади».

Ватан туйғуси ҳақида гапирар эканмиз, аввало унинг инсонда мавжуд психологик ҳис-туйғу эканини алоҳида таъкидлаб ўтмоқчимиз. Ватан тушунчасини педагогик нуқтаи-назардан ўрганганда эса инсонда мавжуд бўлган билиш фаолиятининг умумийликдан хусусийликка томон борадиган фикр юритиш нуқтаи назаридан ёндашмоқ лозим: демак, ватаннинг умумий тушунча экани - бу инсоният учун ер куррасининг ўзига макон этгани бўлса; миллатнинг пайдо бўлиши ва қайси миллат қаерни ватан деб билгани эса билишнинг хусусийлик томон борадиган йўлидир.

Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А.Каримов таъкидлаганидек: «Биз учун энг асосий, энг муҳим устивор мақсад тенгсиз олий неъмат мустақилликни бундан буён ҳам асраб-авайлаш, химоя қилиш ва мустаҳкамлаш бўлиб қолаверади. Зеро, маънавий етукликнинг муҳим белгиси ватанпарварликдир» [1,7].

Ватанпарварлик - умуминсоний қадриятларга содиқликнинг асосий тамойилларидан биридир. «Ватан» арабча сўз бўлиб, ўзбек тилида «она-юрт» деган маънони англатади. Ватанга муҳаббат, юртга муҳаббат ҳар бир миллат кишисига хос бўлган муқаддас ва улуғ қадриятдир. Ватанпарварлик ҳар бир кишида ўз уйига, туғилиб ўсган ерига, ота-она, ака-ука, опа-сингилларига бўлган муносабатида акс этади. Ватанпарварлик - бу умуминсоний қадрият бўлиб, ҳар бир кишининг Ватанга бўлган содиқлигини, садоқатини ифодалайди.

Олий таълим тизими талабаларида ватанпарварлик туйғусини шакллантиришда Шарқ дурдоналаридан Кайковуснинг «Қобуснома» асари муҳим ўрин тутади.

Шарқ оламида илмий–тарбиявий ва педагогик томондан китобхонлар диққатини

жалб қилган муҳим асарлардан бири Кайқовуснинг 1082-1083 мелодий, 175 ҳижрий йилларда яратилган «Қобуснома» асаридир. Кайқовус бу асарни ўғли Гилоншохга бағишлайди.

«Қобуснома» асарида ота-она ҳақида айтилган ҳикматлар замирида Ватанга бўлган муҳаббат мужассамдир. Бу асар орадан неча йиллар ўтса ҳамки, худди кечагина ёзилгандай ўзининг тарбиявий қийматини йўқотмаган.

Ватан, ватанпарварлик, ватанга эътиқод сўзлари доимо бири-иккинчисини тўлдириши, ифодалашини инобатга олиб, “ватанпарварлик” тушунчасининг мазмуни, моҳиятини тушуниб олиш лозим. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”да ватанпарварлик - кишиларнинг она-юртига, ўз ватанига муҳаббати ва садоқатини ифодалайдиган тушунча. Ватанпарварлик барча кишилар, халқ, миллатлар учун умумий бўлган асрлар давомида сайқалланиб келган умуминсоний туйғу, маънавий қадриятлардан бири. Тарихий жиҳатдан ватанпарварлик кишиларнинг ўз ватанлари тақдири билан боғлиқ ижтимоий ривожланиш, халқларнинг ўзлари яшаётган ҳудуднинг дахлсизлиги ва мустақиллиги йўлидаги кураши жараёнида такомиллашиб келган ҳис-туйғулар жамланмаси ҳамдир. Бу ватаннинг ўтмиши ва ҳозири билан фахрланишда, манфаатларини ҳимоя қилишда намоён бўлади.

А.Эркаевнинг “Маънавият миллат нишони” китобида ватанпарварлик туйғуси ҳақида қуйидагича фикр билдириб ўтилади:- “ватанпарварлик”-энг аввало, мустақилликни мустаҳкамлашга ижобий ҳиссий муносабатдир. Шунинг учун ҳам олий таълим муассасалари талабаларига ватанпарварлик туйғусини шакллантиришда улкан ва бой меросимиздан, жумладан, «Муҳаммад пайғамбар қиссаси», «Ҳадислар»дан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Талабаларда ватанпарварлик туйғуларини шакллантиришда юксак нафосат ва мангу ҳикмат обидаси бўлган «Калила ва Димна» асарининг аҳамияти ҳам жуда каттадир.

Энг қадимий маданият бешиги бўлган мамлакатдан бири Ҳиндистонда мелоднинг I асрларидаёқ вужудга келган «Рамаяна», «Маҳабҳорат», «Қурал», «Мегадуда», «Рахуванша», «Кумарасамбхава», «Дашакумачарита», Панчатаитра», «Хитопадеша», «Шакунтала», «Малявика ва Агнимтра», «Мудраракшаяса» каби машҳур ва маълум асарлар қаторида яратилган «Калила ва Димна»да ватанпарварликка ундовчи қимматли эпизодлар талайгина.

III-IV асрларда яратилган бу қадимий адабий ёдгорлик ўша даврнинг савиясига ва шароитлари тақозо қилинган баъзи ғоявий маҳдудлик ҳамда зиддиятларга қарамай, унинг асосида ётган илғор фикрлар катта аҳамиятга эгадир. «Калила ва димна» даги ҳикоялар ҳайвонлар тилидан олиб борилсада, ижтимоий ҳаёт, одамлар орасидаги муносабат кўзда тутилади.

Ўз даврининг ҳақиқий манзарасини акс эттирган бу асардан шундай хулоса чиқади: «Хўжайин ва қирол, шох ва қул бор жойда ҳамиша ўлим ва жазо бўлади». Асарда бундай кўримсиз манзарани, бундай фожиали ҳолатни қайд этиш билангина чекланмасдан у қаттиқ қораланади.

Мана шу бир бирини истисно этадиган олам, улар орасидаги кескин зиддият, уларнинг ўзаро олишуви; биринчи оламга нафрат ва иккинчи оламга муҳаббат; ёмонликни қоралаш ва яхшиликни улуғлаш, шу ёмонликка қарши курашга ундаш, уни йўқотишга интилиш, шу яхшиликнинг тантанасини таъмин этишга чорлаш асарнинг асосий мазмунини ташкил этади. Бу масалаларнинг барчаси юксак бадий гўзал ҳикояту ривоятлар, ажойиб умумлашмалар ва ҳайратомуз ҳикматли иборалар орқали очилади, тасвир этилади.

Бунинг устига асарда фалсафа ва илоҳиётга оид мураккаб масалалар ҳақида жуда кўп фикрлар баён этилади. Чунончи, гарчи одамнинг бахти ва ё бахтсизлиги осмондан, тақдирдан бўлсада, лекин асосан барибир, одамнинг ўз ҳаракати ва интилишига, ақли ва

иродасига, меҳнатни ва қобилиятига боғлиқдир, деган фикр илгари сурилади ва ҳаётий мисоллар билан тасдиқланади. Асарни ўқиганда шундай тасавур пайдо бўладики, уни яратганлар зўр файласуф ва улкан сўз саънаткор бўлганлар. Улар ўзларининг ғоят ғазабли ҳам юмшоқ табиатли эканликларини намоён қилганлар, ҳазил- мутойиба ва ўткир тилли ҳақиқиат ҳимоячилари эканликларини кўрсатганлар.

Шунингдек «Калила ва Димна» бошқа ҳалқлар, жумладан, ўзбек ҳалқи тарихида ҳам асрлар мобайнида ғоят муҳим ижобий роль ўйнаган. У ўзининг ажойиб ғоялари ва юксак бадийлиги билан талабалар онгини оширишда, бадий дид ҳамда хиссиётини бойитишга ёрдам берди. Қадимдан бошлаб ўзбек ҳалқининг оғзаки ва ёзма адабиётига таъсир кўрсатиб, илғор маданиятининг бойишига муҳим ҳисса қўшди. Буни биз ўзбек халқ ижоди намуналари ва Навоий, Гулханий, Ҳамза, каби қатор мумтоз шоирларимизнинг ижодларида яққол кўрамиз.

Ўз даврининг ҳақиқий манзарасини акс эттирган бу асар бугунги кун учун ҳам жуда қимматли бўлиб, талабаларда ватанпарварлик, юртсеварлик туйғусини шаклантиришда муҳим аҳамиятга эга.

Ўзбекистонда жамиятни янгича тараққий эттириш даври давлат сиёсатининг устувор йўналиши сифатида белгиланган экан, бу муҳим жараёнда Ёшлар иттифоқининг ўрни алоҳида аҳамиятга эга. Мустақиллик шарофати туфайли ёшлар тарбиясига тарбиянинг муҳим омилларидан бири ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашга эътибор кучайди.

Талабаларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда уларнинг ўз юртига содиқ фарзанд эканлигини акс эттириш ва шу асосида уларда юксак даражадаги фуқаролик маданийятини шаклантириш, ўз юртининг мустақиллигини мустаҳкамлаш учун фидоий инсонлар, бунёдкорларни табиялашни назарда тутади. Шунингдек, ўзи яшаётган мамлакат, жамият равнақи, истиқболи учун улардан оқилона фойдаланишга қаратилган шахс инсонпарварлигини тарбияловчи фаолиятни ривожлантириш, юксак ақл-заковат эгаси бўлиб, яратувчанлик, бунёдкорлик, ташаббускорлик, Ватани ва халқига меҳр-муҳаббат, фахр ва ифтихор туйғулари билан яшаш, ахлокий-ҳуқуқий бурчни, масъулиятни теран англаши лозим.

Мустақиллик каби олий неъматни мустаҳкамлаш, Янги Ўзбекистонни барпо этиш учун ёшларнинг сиёсий-маънавий фаоллигини ошириш, ватанпарварлик ҳояларини шаклантириш мазмунидан ўрин олган Ватан қувончи, Ватан севинчи, Ватан туйғуси, Ватан фахри каби тушунчаларни улар онгига сингдириш лозим. Бунинг таълим муассасаларида ўқитувчи талабаларнинг ўқув-билув фаолиятини ташки этишда мустақиллик ғоясининг мазмун-моҳияти туғрисида маълумот берар экан, аввало талабаларда ватанпарварлик,фуқаролик туйғуси, бурч, масъулият, фахр, ифтихор бирлигини тарбиялашга ҳаракат қилмоғи зарур.

Т.Қурбоновнинг “Миллий ғурур ва маданий мерос диалектикаси” китобида ҳам ватанпарварликка тўхталиб ўтилади, унда “ватанпарварлик”- ватан олдидаги масъулият ва бурчни англаш тушунилади. Ватанпарварлик ниҳоятда серқирра бўлиб, тарихий, ижтимоий, сиёсий, иқтисодий тараққиёт жараёнида доимо такомиллашиб, ривожланиб боради. Ватан манфаати, қадр-қимматини, тақдирини, истиқболини қанча кўп англатилса, кишиларда ватанпарварлик туйғуси шунча баланд бўлади. Ҳар бир шахсдаги ватанпарварлик туйғуси жамият тараққиёти билан узвий боғлиқ. Ҳақиқий ватанпарварлик миллат, ватан манфаати билан яшаш, унинг истиқболи, манфаати йўлида меҳнат қилиш ҳамда курашишдир”.

Ватанпарварлик туйғуси наслдан наслга ўтадиган, туғма ҳис-туйғулар жамланмаси эмас, балки, тарбия жараёнининг маҳсулидир. Ватанпарварлик ватан бойликлари-ю, гўзал табиатидан фахрланишгина эмас, балки уни янада мукаммалроқ ҳис қилиш, шу

замин учун тер тўкиш, халқининг фаровон хаёти учун ўз манфаатидан юртдошлари манфаатини юқори қўйиш, ватан ҳимоясига шай туриш, халқ қадриятларини келажак авлодларга мерос қилиб қолдиришда ўз ҳиссасини қўшиш билан намоён бўладиган ҳатти-ҳаракатлар мажмуасидир. Шу билан бирга ватанга эътиқод ватанпарварликни тўлдириб, мукаммаллаштириб борувчи дунёқарашнинг бир бўлагидир.Чунки олий таълимда таҳсил олаётган талабалар жамиятда ўзларининг муносиб ўринларини топишлари, Ватан равнақи учун сидқидилдан хизмат қилишлари, фидойилик кўрсатишлари, сафарбарлик хислатларини намоён қила олишлари учун уларда ватанпарварлик туйғусини шакллантириш ниҳоятда зарур.

Таълим-тарбияда фақат таълим муассасаларигина эмас, балки жамоат ташкилотларининг ҳам ўрни беқиёс.

- Ёшлар иттифоқи мамлакатимиздаги барча ёшларни қамраб олган. Буларнинг кўп қисми таълим муассасаларида таълим олади. Лекин ёшлар тарбиясида қатор муаммолар мавжуд бўлиб, булар:

- ёшларнинг сиёсий, ҳуқуқий, ахлокий, экологик, эстетик маданиятини шаклллантириш учун тарбиявий ишлар самарадорлигини ошириш мақсадида ахборот технологияларини қўллаш орқали инсон қадр-қимматини юқори қўювчи ўзаро муносабатлар маданиятини қарор топтириш суст кетаётгани, ҳар қандай муаммони ҳал этишдан олдин у келиб чиққан вазиятни ўрганиш масалаларига кам эътибор берилаётгани;

- ёшлар тарбиясига оид илмий тадқиқот ишларининг кўламини кенгайтириш мақсадида уларда мустаҳкам эътиқодни шакллантириш, жамият тараққиётига тўсиқ бўлаётган диний ақидапарастлик, экстремизм, терроризм каби иллатларга қарши тарғибот ишлари талаб даражасида эмаслиги;

Шу жиҳатдан олий таълим муассасалари талабаларини ватанпарварлик руҳида тарбиялашда жамоат ташкилотларининг фаолиятини мувофиқлаштириш муаммоси долзарблик касб этади.

Жамоат ташкилотлари фаолияти жамият ҳаёти, умуман олганда, Ўзбекистоннинг XXI асрда жаҳон ҳамжамиятида ўз ўрнига эга бўлиши, биринчи навбатда, ёшларнинг тарбиясига қаратмоқ зарур. Чунки мустақил Ўзбекистоннинг янги жамият қуриш йўлидаги барча эришган ва эришаётган ютуқларига тўғаноқ бўлиб, ёшларни турли усуллар билан тўғри йўлдан чалғитишга ҳаракат қилаётган зарарли мафкуралар ва оқимлар иш кўрмоқда.

Ёшларни баркамол инсонлар қилиб тарбиялашда таълим-тарбиянинг узлуксизлигини таъминлаш, шунингдек, ташкил этиладиган дарсдан ташқари машғулотларга эътиборни кучайтириш, талабаларга ватанга, миллий қадриятларимизга нисбатан қизиқишини уйғотиш, талабаларнинг фаолиятини ташкил қилишга йуналтирилган дарсдан ташқари тарбиявий тадбирларни ўтказишга эътиборни қаратиш лозим.

Айниқса, улар бугунги кунда талабаларда ватанпарварлик туйғусини ривожлантириш, миллий меросимизга нисбатан қизиқишларини ўстириш мақсадида олий таълим муассасаларида кўплаб тадбирлар ташкил қилинади. Зеро, Янги Ўзбекистоннинг асосий ғояларидан бири ҳам жамиятда маънавий-ахлоқий тарбия ва ватанпарварлик туйғусини ривожлантиришдан иборат

Ўзбекистон Республикаси Конститутциясининг 13-моддасида шундай сўзлар ёзилган: “Ўзбекистон Республикаси демократия, умуминсоний принсипларга асосланади, уларга кўра инсон, унинг эркинлиги, ҳаёти, шаъни, қадр-қиммати ва бошқа дахлсиз ҳуқуқлари ваолий қадрият ҳисобланади”

Жамоат ташкилотлари фаолиятини мувофиқлаштириш орқали талаба-ёшларларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг моҳият-мазмуни ва ёшлар ҳаётидаги ўрнини назарда тутиб, олий таълимда қуйидаги вазифаларни амалга оширишни мақсадга мувофиқ деб биламиз:

- Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг ёшлар сиёсати тўғрисидаги маърузалари асосида ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, фуқаролик маданиятини шакллантириш бўйича мулоҳазаларини, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик кодексини ўрганиш ёрдамида талабаларда бурч, масъулият, ватанга бўлган муҳаббат туйғусини шакллантириш;

- олий ўқув юрти талабаларида миллатидан қатъий назар ўз давлатининг мустақиллигини, унинг рамзлари – герби, байроғи, мадҳиясига ҳурмат билан қараш, улардан фахрланиш ҳис туйғуларини тарбиялаш;

- айни пайтда дунёда ғоявий қарама-қаршиликлар, терроризм кескин тус олган, мафкура полигонлари ядро полигонларига нисбатан ҳам кўпроқ кучга эга бўлиб бораётган бир вақтда талабалар дунёқарашида ватанга садоқат масъулияти куникмаларини ҳосил қилиш ва уларни ривожлантириш;

- Янги Ўзбекистон, мустақил Ватан, эркин ва фаровон ҳаётни яратувчи, уни эъзозловчи ҳамда турли офатлардан ҳимоя қилувчи фуқаро бўлиш ҳис-туйғусини ҳар бир ёш-талаба онгига сингдириш:

- талабаларда ғоялар ўз маъно-моҳиятига кўра бунёдкор ёки вайронкор бўлиши ҳақидаги ҳаётий ва ҳаққоний тасаввурларни шакллантириш;

- ватанпарварлик ғоясининг инсонпарварлик моҳиятини кўрсатиш асосида мустақиллик биз учун энг олий қадрият, уни асраб-авайлаш эса ҳар биримизнинг муқаддас бурчимиз эканини талабаларнинг қалби ва онгига сингдириш.

Юқорида қайд этилган вазифаларни амалга ошириш ҳар бир талаба–ёшда мустақиллигимиз, эркинлигимиз ва эзгу мақсадларга тўла эришиш ҳис туйғусини тарбиялаб, уларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг муҳим омили - Ватанимиз истиқлолини ҳимоялаш фуқаролик бурчи ва масъулиятининг олий даражаси эканлигини англашларига кўмаклашади. Зеро, бу хусусиятлар ҳар бир мамлакат фуқароси учун куч-қувват ва руҳий бойлик бўлиб, эртанги кунимизнинг ишончли пойдевори ва кафолатига айланади. Ватанимиз тараққиётида ёшларимизни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда қудратли куч бўлиб хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. -Т.: «Шарқ» нашриёт-матбаа концерни, 1997. - 19 б.

2. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон,
2019. – 48 б.

3. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни. « // Халқ сўзи 2020 йил 24-сентябрь

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида»ги Фармони. // Халқ сўзи 2017-йил 8-февраль

5. Абдуллаева Ш.А. Педагогика. Бакалаврлар учун дарслик. – Т.: Фан ва технологиялар, 2015. – 288 б.

6. Абдуманнотов Э.А. Умумий ўрта таълим мактаби талабаларида экскурсия туризми воситасида ватанпарварлик туйғусини такомиллаштириш
(Умумий ўрта таълим мактабининг 5-9-синф талабалари мисолида). П.ф.б.ф.д.диссертацияси. Самарқанд. 2021. – 155 б.

7. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам тарж.- Т.: Шарқ, 2001. - 400 б.

8. Авлоний, Абдулла. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: Ўқитувчи, 1992. - 160 б.

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

BIZNES FAOLIYATI VA UNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O‘SMIRLAR FAOLIYATIGA TADBIQ ETISH

Ag‘amurodov Sarvar Istamovich
Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi o’qituvchisi
https://orcid.org/0009-0003-1147-2062

Annotatsiya mazkur maqolada biznes faoliyati va uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida bir qancha ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, keltirilgan ma’lumotlarni biz yosh davrlar bilan asosan o‘smirlik davri bilan bog‘liqligini bayon etishga harakat qildik. Bevosita tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan yoshlarda, o‘smirlarda yuzaga keladigan muammolar: omadsizliklar, muvaffaqqiyatsizliklar kabi holatlar keng yoritilgan. Bunday holatlar natijasida yuzaga keladigan ong osti bloklari va bu bloklar shaxsning keyingi faoliyatiga ham bevosita salbiy ta’sir o‘tkazishi va biz bunday ong osti bloklaridan qanday xolos bo‘lishimiz haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Psixologiya, o‘smir, tadbirkorlik faoliyati, biznes, ongosti bloklari, marketing.

ПРИМЕНЕНИЕ ДЕЛОВОЙ АКТИВНОСТИ И ЕЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПОДРОСТКОВ

Агамуродов Сарвар Истамович
Бухарский государственный педагогический институт
Преподаватель кафедры педагогики

Аннотация В данной статье изложен ряд данных о деловой активности и ее социально-психологических особенностях, которые связаны с разными возрастными категориями, в основном, с подростковым периодом. Широко освещаются такие проблемы, как провалы и неудачи, возникающие у молодежи, подростков, непосредственно занимающихся предпринимательской деятельностью. Приводится информация о блоках подсознания, возникающих в результате таких ситуаций, и о том, как эти блоки напрямую негативно влияют на дальнейшее функционирование личности, и как мы можем избавиться от этих блоков подсознания.

Ключевые слова: психология, подросток, предпринимательская деятельность, бизнес, блоки подсознания, маркетинг.

IMPLEMENTATION OF BUSINESS ACTIVITIES AND THEIR SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS IN THE ACTIVITIES OF ADOLESCENTS

Agamurodov Sarvar Istamovich
Bukhara State Pedagogical Institute Teacher of the Department of Pedagogy

Annotation This article presents several facts about business activities and their socio-psychological characteristics, and we tried to describe the connection between the information provided and young periods, mainly adolescence. In young people who are directly engaged in entrepreneurial activity, situations such as problems that arise in adolescents bad luck, failures are widely covered. Information is provided about the subconscious blocks that arise as a result of such situations, how these blocks directly negatively affect the further activity of the individual as well, and how we can get rid of such subconscious blocks.

Key words: psychology, teenager, entrepreneurial activity, business, subconscious blocks,

marketing.

The socio-economic changes that are taking place in our country are laying a wide groundwork for the ever-growing development of small and medium-sized businesses, in particular entrepreneurial activities today. «The head of our state is bringing the youth policy support system to an absolute new level in Uzbekistan. Of course, this is not for nothing. President Shavkat Miromonovich Mirziyoyev considers the success of every young man and girl in Uzbekistan as his achievement; they are proud.» 1. By joining the developed countries of the world, Uzbekistan, following its independent path, has achieved many achievements in bringing to life the practical and theoretical work carried out in this area. One of our important goals is the issue of personnel, that is, the creation of personnel that serve the development of society and are competitive, educated, and able to approach creatively. Stabilization of market relations in our independent country, liberalization of the economy, development of entrepreneurial activity, labor in people, and material goods assume a change in attitudes towards blessings. Currently, the introduction of effective methods and means of entrepreneurial activity in business, family business, joint ventures, the upbringing of personal qualities that allow such entrepreneurial activity, and the formation of new ideas and ideas in the thinking of people presuppose a consistent and continuous study of entrepreneurial activity calculated from important issues of psychology.

Further improvement of the socio-economic sphere in Uzbekistan, the beginning of an active movement on the liberalization of socio-political life in our country, in the person of citizens of our country, assumes the correct formation of socio-economic thinking, their upbringing in the spirit of an honest entrepreneur, focusing on the formation of economic thinking from a young age.

From the analysis of scientific sources, it can be seen that the main essence of adaptation is manifested in the fact that a person perceives and assimilates the requirements of the social environment in pursuit of social conditions and goals set by a person, surrounded by his environment. When we analyze this definition, it implies that the person is familiar with the activities that he must carry out at the moment, changing his behavior in accordance with the demands of the new environment.

As we know, the development and transformation of all economic objects, events, and relationships in the world that surround the environment serves to make the connection between the sciences of economics and psychology increasingly clear.

According to psychological sources, a person is a social reality. His sociability is manifested in everyday life, in his behavior, in his attitude towards himself and others, and in his interactions with people. Currently, young entrepreneurs are one of the urgent tasks of the field of social psychology to understand the social essence of labor activity, to know the mechanisms of formation and change of social characteristics in them under the influence of the market economy, and to research them in modern ways.

Today, there are many opportunities for establishing entrepreneurial activity among young people. Giving a definition of the concept of entrepreneurship itself, there are many definitions of this concept in the scientific literature. Q. Abdurahmanov and F. Mamarasulovs write: “Entrepreneurship is the right of property that the subjects act with initiative within the framework of the law on the basis of the production of goods or the provision of services for profit or income.»2 In short, entrepreneurial activity is a type of activity aimed at making a profit. And now let’s dwell on the essence of why we associate entrepreneurship and business activities precisely with adolescence. As we know, every activity requires social experience from a person. Experience, on the other hand, is acquired as a result of existing knowledge in the individual, interpersonal relationships, and attitudes towards events in the environment.

We wrote this article as a result of the formation of entrepreneurial abilities in teenage youth and a scientific analysis of their interests in this field. As a result of the opportunities created for young people and the special attention given to young people by the head of our state, entrepreneurial activity among our young people is developing rapidly. Analyzing the socio-psychological aspects of entrepreneurial activity, willpower is required directly in the person during the elimination of any problems and obstacles that arise during entrepreneurial activity. Each individual achieves many achievements throughout his career. Together with this, bad luck and failures also occur. As a result, a person experiences various sensations, anxiety, and various states of depression. Here, each of these negative states continues to form blocks of the subconscious in the individual. The result is a change in the attitude of a person toward his existing activities. A survey of more than 100 teenagers found that 13% of them had low self-confidence in questions about why they were not engaged in entrepreneurial activity, while 16% of teenagers had a fear of failure, 21% of teenagers still had an entrepreneurial dream, and the remaining 32% of teenagers were currently engaged in entrepreneurial activity in a full-fledged original way.

Results of the survey conducted in order to determine the attitude towards entrepreneurial activity among adolescents

№	Attitude to entrepreneurial activity	Percentage of figures
1	Fear of failure	16%
2	Low self-confidence	13%
3	Having a dream to deal with in the future	21%
4	The fact that they are engaged in entrepreneurial activity at the moment	32%
5	Other reasons	18%

If we dwell on the essence of the resultant in this reason why the fear of failure in our adolescents or if the low self-confidence is psychologically analyzed, it has been unclear whether they all have a high sense of imitation as the main problem, as well as the presence of blocks of consciousness. Okay, here we now dwell separately on the blocks of the subconscious mind. What is the subconscious mind? All our activities, states, and behaviors are associated with the subconscious. All our past experiences, memories, abilities, qualifications, and skills that are not applied at the same time are all embodied in the subconscious. The main task of the subconscious is to adapt our body and behavior to our thoughts. That is, when positive thoughts are formed in us, our body and our actions are also aligned with positive thoughts, and if negative thoughts are formed on the contrary, our state and actions will continue to form in an appropriate way. So it is that in any case, always positive thoughts should be formed in us; otherwise, we will become an obstacle to our activities ourselves. So are the reasons for the formation of subconscious blocks in adolescents. As young adolescents begin to engage in entrepreneurial activity, they should strive to reveal only the secrets of success. Only then will the chances of achieving the goal continue to manifest. As we talk about the problem of entrepreneurship, it is directly applied in harmony with the concept of business. Entrepreneurial activity is primarily associated with intellectual and mental abilities in a person. In what conditions does the concept of business become inappropriate in an entrepreneur, or in what behavior do we see it?

Entrepreneurship among entrepreneurial youth is manifested in the following manifestations:

• Creativeness in solving various problems in production and other fronts, searching for

the most convenient ways;

• Loyalty, conscientiousness and fairness to one's own folly;

• To bring to the end of every career that he starts, to show his ability to perform in his activities;

• Able to introduce news and ideas into production;

• Attitude to people: his own promise, his action over the word;

• The fact that people are not separated from each other is that everyone is treated the same;

• The positive attitude and self-control, decency and politeness of every midwife to his team and others;

• To be treated taking into account the individual psychological characteristics of each person in relation to people.

The self-sufficiency of an entrepreneur can be seen in:

• Being able to critically assess one's behavior;

• Performance taking into account its capabilities;

• Analyzing the positive and negative assessments that others give him and drawing appropriate conclusions from them.

The organizational skills of entrepreneurial teenage youth are an important condition for their success in every activity. When it comes to the answer to the question of which young entrepreneurs can achieve success quickly, psychologists have noted that this depends on several factors.

These are: Manifestations of the manifestation of organizational abilities in entrepreneurial youth:

• It must be able to organize a purely ethical environment in its community to ensure that it operates in cooperation with all;

• It is necessary to be able to convince a military person in his team of success and to heal the conditions for the formation of a positive relationship in the team.

• The skills of an entrepreneur to find a language with people;

• The entrepreneur must act, taking into account what qualifications, skills, and abilities his subordinates have and what he is capable of;

• The use of the most important factors in ensuring the success of his team.

In conclusion, the activities of an entrepreneur are not solely dependent on the legal and organizational foundations of entrepreneurship; they are also assessed by the fact that people, hand-held specialists, and workers, especially foreign colleagues, adhere to universal criteria within the framework of businessmen. More than half of success at work directly depends on the extent to which he knows his manners, culture, worldview, and business rules. The conditions of a market economy require entrepreneurial leaders to improve their management styles. Management styles primarily serve to consciously achieve specific goals.

Bibliography:

1. Shavkat Mirziyoyev. Asarlar. 1-jild. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz

2. Alimov X.M. Milliylik va ijtimoiy ruhiyat. – T.: «O'zbekiston», 1992.

3. Andreyeva I.V. Ekonomicheskaya psixologiya. – SPb.: Piter, 2000.

4. Asomova R.S. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi: Psixol. fan. nom.... dis. avtoreferati: 19.00.05. T.: O'zMU, 2002.

5. Axinov G.A., Jilsov Ye.N. Ekonomika obĉestvennogo sektora: Ucheb. posob. M.: INFRA-M, 2008.

6. Batarshev A.V. Psixodiagnostika v upravlenii: Prakticheskoe rukovodstvo: Ucheb.-praktich. posobie. M.: Delo, 2005.

7. Bendas T.V. Gendernaya psixologiya: Uchebnoe posobie. – SPb.: Piter, 2016.
8. Kak sbalansirovat rabotu i lichnuyu jizn / Per. s angl. M.: Alpina Biznes Buks, 2018.
9. Karimova V., Hayitov O., Ochilova G., Iqtisodiy psixologiya va psixologik iqtisod to’g’risida/Iqtisodiyot va ta’lim, 2017.
10. www.ziyonet.uz

OILAVIY NIZOLAR AJRALISHLARNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ahmadov Shohruh Rahmatullo o'g'li
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilaviy nizolar ajralishlarning ijtimoiy psixologik xususiyatlari oilaviy o'zaro munosabatlar sharoitida er-xotin munosabatlari negizida shakllangan konstruktiv hamda destruktiv nizolarning sabablari keltirib o'tilgan. Shuningdek oilaviy nizolar va ajralishlar bo'yicha xorijda va yurtimizda chop etilgan ilmiy asarlar tahlili olib borilgan. Bundan tashqari oilaviy nizolar va oilaviy buzilishlarning murakkab tuzilmasi bo'yicha modul ishlab chiqilgan bo'lib bunda oila turmush tarzining shiddat bilan o'zgarishi, oilaviy hayot bosqichlarining o'zaro almashinuvi haqida fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: nizo, destruktiz, konstruktiv, individuallik, temperament konfilikt, xavotirlanish, hayajon, psixologik so'nish, psixologik mexanizm.

СЕМЕЙНЫЕ КОНФЛИКТЫ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВОДОВ

Аннотация. Семейные конфликты социально-психологические особенности разводов в данной статье приведены причины как конструктивных, так и деструктивных конфликтов, складывающихся на основе супружеских отношений в условиях семейного взаимодействия. Также проведен анализ опубликованных за рубежом и в нашей стране научных работ по семейным конфликтам и разводам. Кроме того, разработан модуль по сложной структуре семейных конфликтов и семейных распадов, в котором даны размышления о насильственном изменении образа жизни семьи, взаимозаменяемости этапов семейной жизни.

Ключевые слова: конфликт, деструктивный, конструктивный, индивидуальность, темперамент конфронтация, тревога, возбуждение, психологическое угасание, психологический механизм.

FAMILY CONFLICTS SOCIAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DIVORCES

Annotation. In this article, family conflicts the social psychological characteristics of divorces the causes of constructive and destructive conflicts formed on the basis of a couple's relationship in the context of family interactions are mentioned. There was also an analysis of scientific works published abroad and at home on family disputes and divorces. In addition, a module has been developed on the complex structure of family conflicts and family distortions, reflecting on the rapid change in the family lifestyle, the exchange of family life stages.

Key words: conflict, destructiveness, constructive, individuality, temperament conflict, anxiety, excitement, psychological fading, psychological mechanism.

Kirish. O'zbekistondagi besh milliondan ziyod oilalar va ulardagi shaxslararo munosabatlarning o'ziga xosligi shundaki, munosabatlarning maromini belgilashda, er-xotin o'rtasidagi muomalani tashkil etish va o'sib kelayotgan avlodni komil inson qilib tarbiyalashda ota-onalardan tashqari, oiladagi katta avlod vakillari, jumladan, bobo, buvilarining ham sezilarli roli bor. Shaxs shakllanishida bundan tashqari, aka, opalar, uka-singillar o'rtasidagi konstruktiv hamda destruktiv o'zaro munosabatlar ta'siri ham mavjudligini olimlar o'z izlanishlari, monografiya va qo'llanmalarida alohida ta'kidlaganlar Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, oilada o'sib kelayotgan har bir bolaning qaysi faoliyat bilan bandligi va qanday ishlar bilan

shug‘ullanishi dastlab, aka-singillar yoxud opa-ukalar, keyinchalik esa onaga ma’lum bo‘ladi. Shunga qaramay, oilaviy tarbiya masalasida asosiy mas’uliyat birinchi navbatda, ota-onaning, ularning o‘zaro va boshqa oila a’zolari bilan o‘rnatadigan muomala maromlari va munosabatlari zimmasiga tushadi.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonda oila va undagi o‘zaro munosabatlar alohida qadriyat sifatida qaralishi ham bu borada yurtimizgagina xos bo‘lgan ma’lum qonuniyatlarning borligini dalillaydi. Shu bois ham, mavjud muammoni xududiy va etnopsixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda o‘rganish zarur.

Yangi davr ingliz demokratlari va fransuz ma’rifatparvarlaridan D. Pristli, Sh. Monteske, D. Didro, J. Russo, Volterlar nizolarni ko‘proq salbiy jarayon sifatida baholashgan. Ulardan tashqari, I. Kant, T. Gobss, Gegel, T. Maltus, Ch. Darvin, G. Spenser, U. Samner, L. Gumplovich, G. Zimmel, R. Park kabi sotsiolog, faylasuf, iqtisodchi olimlarning asarlarida ham mazkur muammo, bevosita jamiyat miqyosida, siyosiy jarayonlar doirasida o‘rganilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa, o‘z navbatida tadqiqot predmetini aniqlash va umumiy xulosalar chiqarish jarayonida muhim manba bo‘lib xizmat qildi.

Bahovuddin Naqshbandi, Ahmad Yassaviy, At-Termiziy, Al-Buxoriy, Bobarahim Mashrab, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nosir Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabi mutafakkirlar o‘zlaridan oilaviy hayot masalalari bo‘yicha bebaho xazinani meros qoldirganlar. Ular o‘zlari-ning shaxsiy tajriba va kuzatishlariga asoslanib, zamondoshlari hamda donishmandlarning oilaviy muammolar borasidagi qarashlarni tahlil qilib, qimmatli fikr-mulohazalarini bayon etishgan.

Muhokama va natijalar tahlili. Ahmad Donish: “Agar kelin-kuyov birovlarning gaplariga, fisqu-fasodlariga kirar ekanlar, ularning shirin turmushlari buziladi, oralariga sovuqlik tushadi”, – degan edi Bu fikrlari orqali u yosh oila hayotiga boshqa kishilarning noo‘rin aralashuvi, ba’zi hollarda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini izohlab beradi. Ushbu mutafak-kirning oila va uning muammolari yuzasidan bildirgan qator qimmatli fikr-mulohazalari hamda bebaho asarlari butun dunyoda tan olinib, bir necha tillarda tarjima qilingandir.

Mavzuning muammosi nuqtai nazaridan xorijda va yurtimizda chop etilgan ilmiy asarlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, nizo yoki ziddiyatlarning insoniy munosabatlar tizimida sodir bo‘lishi tabiiy holat hisoblanib, ularni o‘rganish jamiyat boshqaruvini yengillashtirishga xizmat qiladi.

Psixologik nuqtai nazardan talqin etganda, odamlarga halokatli ta’sir etadigan jihat bu – nizolarning o‘zi emas, balki ularning oqibati hisoblanadi. Nizolar oqibatida inson ruhiyatida qo‘rqinch, vahima, adovat kabi salbiy hislar yuzaga keladi. Agar mazkur kechinmalar kuchli bo‘lsa va uzoq muddat davom etsa, odamda himoya reaksiyasi paydo bo‘lishi va mustahkamlanishi mumkin. Nizo natijasidagi salbiy holatlar shaxsning his-siyoti, xatti-harakatlari, tafakkur va hatto xarakterida ma’lum o‘zgarishlar sodir etadi. Bu o‘zgarishlar shaxsning xulq-atvorida namoyon bo‘lib, mazkur sub’ekt qatnashayot-gan boshqa vaziyatlarga ham tarqaladi va o‘zaro munosa-batlarning keng sohalarini egallay boshlaydi. Masalan, qo‘rquv va xavf muhitida tarbiyalangan odam keyincha-lik xuddi shunday muhitning manbaiga aylanishi ehti-moldan xoli emas. U hatto o‘z bolalarini ham shunday muhitda tarbiyalaydi yoki oilani ham ana shu uslubda boshqaradi.

Ijtimoiy hayotni nizolarsiz tasavvur etish qiyin. Shuning uchun ba’zan olimlar ziddiyat yoki nizolarning nafaqat salbiy, balki ijobiy tomonlari ham bo‘lishi mumkinligi-ni ochiq e’tirof etadilar. Masalan, G.Andreyeva ayrim nizolarning konstruktiv oqibatlari to‘g‘risida yozadi. Uning fikricha, ba’zan ikki shaxs o‘rtasida kelib chiqqan nizo ular istiqbolda to‘g‘ri xulosa chiqarib, shunday harakatni boshqa qaytarmaslikka, omilkorlikka, hushyorlikka undaydi. Yoki bir qarashda tanbehga asoslangan shaxslararo nizo shaxsni o‘z ustida muttasil ishlashga, o‘z xulqini o‘zi tuza-tishiga olib keladi.

Oilada yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan nizo-janjallarning sabablarini aniqlash va ularning oldini olish masalalarini ijobiy hal qilish uchun birinchi navbatda ularning kimlar o‘rtasida

yuz berayotganligini farqlab olish maqsadga muvofiqdir. Oilaviy nizolarda kimlar ishtirok etishiga ko‘ra, ularni quyidagicha asosiy turlarga ajratish mumkin:

• er-xotin o‘rtasidagi nizolar;
• qaynona-kelin o‘rtasidagi nizolar;
• qaynona-kuyov o‘rtasidagi nizolar;
• ovsinlar o‘rtasidagi nizolar;
• ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi nizolar.

Albatta, bu ro‘yxatni yanada davom ettiraverish mumkin, lekin hozircha shu yuqorida keltirilganlar bilangina kifoyalanib, oilaviy hayotda ro‘y berish ehtimoli nisbatan yuqori bo‘lgan nizolarning eng muhimi bo‘lmish er-xo-tin o‘rtasidagi nizolarning ayrim xususiyatlarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Oilaviy nizolarning eng xarakterlilaridan biri bu er va xotin o‘rtasidagi nizolardir. Xo‘sh, eng ezgu niyatlar bilan bir-birlarini sevib oila qurgan yoshlar nega oila qurishgandan keyin ularning o‘zaro munosabatlarida ni-zo-janjallar ro‘y beradi? Ular nima uchun urushadilar? Umuman, er-xotinlik hayotida nizolarsiz, urush-janjal-larsiz ham yashasa bo‘ladimi? Bu kabi savollarni yana ko‘p davom ettirish mumkin. Xalqimizda bir gap bor: oshsiz uy bo‘lishi mumkin, lekin nizosiz uy bo‘lmaydi. Faqat nizoning nizodan farqi bor.

Psixologik adabiyotlarda ajrimlarning tabiati, bu jarayonga oid qonuniyatlar ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan bo‘lib, masalan, S.Kraxotvil ajrim jarayonining quyidagi bosqichlarini ajratadi:

• bosh ko‘tarish bosqichi: xo‘rlangan va norozi ayol o‘z faolligini oshirib, ajrim sodir bo‘lmasligining oldini olish uchun muayyan sa’y-harakatlarga kirishadi. Lekin barcha ishlarni xavotirlik va hayajon bilan amalga oshirgani sababli ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yadi va noma’qul ishlar ham qilib qo‘yishi mumkin;

• tushkunlikka tushish bosqichi:ajralishni xohlamagan tomon vaziyatni boshqara olmaganligini tan olib, tushkunlik, depressiya holatiga tushadi va endi o‘zini ham ayblay boshlaydi;

• bo‘yinga olish bosqichi:ajralishni xohlamagan tomon endi mavjud holat bilan kelishib, bunday nikohning bo‘lganidan bo‘lmagani ma’qulligi fikriga keladi.

Albatta, shuni ta’kidlash joizki, ayrim hollarda ikkala tomon ongli ravishda, o‘zaro kelishib, bir-birlariga ta’na-dashnom bermaydilar va bunday ajrimlar yuqori-da ko‘rsatilgan bosqichlarsiz sodir bo‘ladi. Demokratik huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurilayotgan davlatlarda ajrimlar masalasiga ham demokratik tarzda qaraladi, ya’ni ikki tomonning yoki birining manfaatiga mos kelishi inobatga olinib, ajrim sodir etiladi, lekin bunday holatlarda, ayniqsa, yosh bolasi bilan qolgan ona ijtimoiy-psixologik yordamga, jamiyat tomonidan ko‘rsa-tiladigan madadga muhtoj bo‘ladi.

Konflikt, nizo yoki ziddiyat – bu ayrim alohida olin-gan shaxs ongida, yoki shaxslararo muloqot jarayonida, guruh doirasida yoki guruhlararo o‘zaro muloqot va ta’sir paytlarida biror muammo, masala yoki qarashlar borasida bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan, qarama-qarshi fikr, qarash va pozitsiyalarning to‘qnashuvi oqibati paydo bo‘lgan salbiy hissiyotlarga to‘la munosabatlar maromini bildiruvchi ijtimoiy-psixologik hodisadir.

Nizoni keltirib chiqaruvchi omillar, sabablar nihoyatda ko‘p, lekin ularni 5 asosiy guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Informatsion-axborot omillari: muloqot jarayonida sheriklarga noto‘g‘ri tarzda yetib keladigan noto‘liq, noaniq faktlar, mish-mishlar; shubhalar, to‘la aniqlik kiritilmagan ataylab yoki bilmay turib deyarli xufyona tarzda yetkazilayotgan ma’lumotlar; axborot manbaiga nisbatan ishonchning yo‘qligi; ayrim hodisa, voqealarga aloqador bo‘lgan tortishuv va kelishmovchiliklarga sabab bo‘lgan qoidalar, aqidalar, chaqiriqlar, qonun normalari va boshqalar ham shaxslararo yoki guruhlararo ziddiyatlarning omili bo‘-lishi mumkin.

2. Jamiyat miqyosidagi ayrim tizimlarning faoliyatiga bog‘liq omillar: mulkchilikka oid muammolar, ijtimoiy maqom talashish, hokimiyat yo‘nalishidagi amal va hisobotlarga oid janjallar, turli ijtimoiy norma-lar, an’analar, standartlar, xavfsizlik masalalaridagi qarama-qarshiliklar, rag‘batlantirish va jazolash, uy-joy, mulk tortishuvlari, resurslar, tovar, xizmat va foydalar taqsimoti jarayonlarida kuzatiladigan nizolar;

3. Qadriyatlarga aloqador omillar (o‘zimiz e’tirof etgan yoki rad etgan tamoyillar): jamoaviy, guruh-guruh yoki shaxsiy e’tiqod, ishonmagan va ishongan qadriyatlarimiz va ularning xulqda namoyon bo‘lishi, mafkuraviy, madaniy, diniy, axloqqa oid, siyosiy, professional qadriyatlar va ehtiyojlar borasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolar;


4. Munosabatlar omili: bunday omillar bevosita o‘zaro aloqalar va muloqotdan insonning qoniqishi yoki noma’qul, deb e’tirof etishidan kelib chiqadi. Shaxslararo o‘zaro munosabatlarda ko‘proq bir shaxsning kutishlariga boshqa bir insonning yoki odamlarning muomalasi mos kelmasli-gi holatlarida shaxsiy nizolar kelib chiqadiki, ularning bartaraf bo‘lishi turli vaziyatlarda turlicha tus olishi, cho‘zilib ketganda, battar “gazzak” otishi, qisqa fursatda hal etilsa, muammo hal bo‘lishi ham mumkin. Shaxsiy muloqotdagi nizolar shaxsning hayotiy tajribasi, ma’lumotliligi darajasi, professional mahoratiga bog‘liq ravishda turli ko‘rinishlarda o‘z yechimini topishi mumkin;

5. Xulq-atvor bilan bog‘liq omillar: manfaatlar, qiziqishlar, o‘ziga bo‘lgan bahoga zid keladigan yoki xavf-xatar tug‘diruvchi vaziyat paydo bo‘lishi bilan go‘yoki, himoya vositasi sifatida paydo bo‘luvchi omillar turkumi bo‘lib, notinch nizoli oilalarga psixologik xizmat ko‘rsatish bu ikkinchi tomonning xudbinligi, adolatsizligi, mas’uliyatsizligi yoki loqaydlik, beparvolik oqibatida kelib chiqadi. Nizokashlar bunday sharoitda o‘zlariga nisbatan bo‘layotgan salbiy munosabatni xatti-harakatda ko‘rib, sezib turganlari bois xafagarchilik kelib chiqadi va bu konflikt bilan tugaydi. Konflikt yoki nizolar o‘zaro munosabatlardagi odamlarning sub’ektiv xatolari sababli ham kelib chiqishi mumkin, shu nuqtai nazardan ham konfliktlarning turlari farqlanadi:

Shaxsning o‘ziga aloqador bo‘lgan ichki nizolar – odatda, bevosita ijtimoiy psixologiya tomonidan o‘rganilmaydi, bu kabi nizolar umumiy, pedagogik hamda patopsixologiyaning predmeti bo‘lib, u asosan bir inson qalbidagi turli his-kechinmalar, istak-xohishlar va motivlarning bir biriga zid kelishi, qarama-qarshi fikrlarning paydo bo‘lishi oqibatida yuzaga keladi. Bunday nizo shaxsgagina ma’lum bo‘lgan, ba’zan esa odam qilib qo‘ygan ishi aynan o‘zining ichki nizolari oqibati ekanligini anglamaganda, unga psixoanalitik yoki psixiatr yordamga keladi. Shaxs va guruh o‘rtasida sodir bo‘ladigan nizolar odatda, bir shaxs qarashlari, xatti-harakatining u mansub bo‘lgan yoki ishi tushgan guruhning normalari, xulq-atvor maromlariga zid kelishi, shaxs kutishlarining guruh normalaridan og‘ishi oqibatida kelib chiqadi. Agar bu mehnat jamoasida ro‘y bersa, bu guruh a’zolarining malakasizligi yoki rahbarning odamlarni boshqarishdagi uquvsizligi natijasida kelib chiqishi mumkin. Demak, bunday jamoada psixologik, ma’naviy muhit nosog‘lom bo‘ladi, shaxs bilan boshqa shaxslar o‘rtasida kelishmovchilikka olib keladi.

Guruhlararo ziddiyat yoki nizo – ikki yoki undan ortiq guruhlarning bir-birlari bilan murosaga kelisholmay qolgan taqdirda ro‘y beradi va bunda ularning o‘z maqsad-lariga erishishlariga bir-birlarining xalaqit berishlari asosiy omillardan hisoblanadi. Ko‘pincha muayyan formal, rasmiy guruh a’zolari guruhbozlikka berilib, har bir ki-chik guruh manfaatlari bir-biriga mos kelmay qolganda ham, nizo kelib chiqadi. “Guruhbozlik” deb atalmish bunday holat ham ijtimoiy-psixologik nuqtai nazaridan zararli bo‘lib, bu yaxlit jamoadagi ma’naviy muhitga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zan bir jamoa rahbariyati va rasmiy tizimi bilan guruh ichidagi norasmiy tuzilma o‘rtasida ham nizo kelib chiqadi. Lekin bu holatlarni sog‘lom raqobatga asoslangan manfaatlar kelishmovchiligi, masalan, siyosiy partiyalar o‘rtasidagi raqobatdan farqlash lozim. Shaxslararo nizo - bir yoki bir necha konkret shaxslarning o‘zaro yoki guruh doirasidagi ziddiyatidir. Bu keng tarqalgan nizolardan biri bo‘lib, bunday

nizolar rasmiy jamoalarda ham, norasmiy muloqotlar oqibatida ham yuzaga kelishi mumkin. Bunday nizolar odamlarning fe'l-atvori-ga ham, konkret vaziyatlarga ham bog'liq tarzda kelib chiqishi va vaziyatning xarakteriga bog'liq holda turlicha kechishi mumkin. Keng tarqalgan shaxslararo nizolardan biri – bu er va xotin, ota-ona va farzandlar, qaynona-kelin o'rtasidagi nizolar hisoblanadi. Ularning tabiati ham, davom etish muddati ham, hal bo'lish yo'llari ham turlicha bo'lib, har qanday ko'rinishda ham baribir bunday nizo ikki va undan ortiq shaxslar o'rtasidagi psixologik masofani tobora uzoqlashtiradi, samimiyatning kamayishiga olib keladi.



1-rasm. Oilaviy buzilishlarning murakkab tuzilmasi.

Ma'lumki, garmonik muvozanat hukm surgan oilalarda qarama-qarshilik va ziddiyatlarni mustaqil yengishda oilaviy "Biz" hissi, ya'ni adekvat "Biz" timsoli ustuvorlik qiladi. Disgarmonik oila tizimida muvozanat ichki va tashqi funksiyalarning optimal bajarilishida o'zining adaptatsiya vazifasini o'tamasligida namoyon bo'lib, oila yaxlitligiga salbiy ta'sir etadi.

Mazkur oilada noadekvat "Biz" timsoli yetakchilik qiladi. Oqibatda o'zaroharakat tizimidagi buzilishlar: a) frigidlilik; b) o'zaro raqobat; v) munosabatlardagi rasmiylik; g) shaxsiy ustanovkalar va rolli kutilmalarning buzilishi; d) persepsiyadagi xatoliklar va hokazalar ro'y beradi.

Oilaviy ziddiyatlar asosida, ya'ni disgarmonik o'zaroharakatlarda idrokning noadekvatliligi yotadi (L.A.Petrovskaya,). Shunga ko'ra, funksional (sog'lom) va disfunksional (sog'lom emas yoki nosog'lom) oilaga ajratiladi.

Oilaga psixologik xizmatni joriy etish konkret oila muammosining konkret vaziyatga bog'liqligi bilan belgilanadi. Qo'llanilajak har qanday usul psixologning kasbiy mahorati, muolajani qo'llash shart- sharoitlariga bog'liq bo'lib, vaqtli qimmatga egadir. Shuning uchun

ham oilaviy munosabatlarning psixokorreksion dasturini aniq tuzish kerak.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa tarzida shuni aytishimiz mumkinki, barkamol avlodni tarbiyalashda, avvalo, oila muhitini, oila ma’naviyatini yuksaltirish, ayollarga hurmat va e’tiborni yanada kuchaytirish bugungi kun talablaridan biridir. Chunki kelajagimiz bo‘lgan yosh ma’naviy barkamol avlod mana shu oilaviy muhitda, shu oiladagi tarbiya tufayli voyaga yetadi. Tavsiya sifatida xalqimizning milliy mentaliteti, ma’naviy-axloqiy sifatlari, mavqei, aqliy (intellektual) salohiyati, mehnatsevarligi ko‘p jihatdan oila tarbiyasi bilan bog‘liq. Shuning uchun uning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy, tarixiy, falsafiy, mafkuraviy ildizlarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boorish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karabanova O.A. Psixologiya semeynых otnosheniy. - Moskva-Samara, 2008. – 270 s.
2. Karta konflikta (X.Kornelius, Sh. Feyr) https://studme. org/1299101011102/ marketing/ karta_konflikta_kornelius_feyr
3. Kornelius X., Feyer Sh. Vыigrat mojet kajdыy: Kak razreshat konfliktы. M.: Stringer, 1992
4. Shoumarov G‘.B., Rasulova Z.A. Oila ensiklopediyasi. – Toshkent, 2016. – 416-bet.
5. G‘afforova M.Q. O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida xotin-qizlar mavqei. Monografiya. – Toshkent: Yangi kitob, 2017. - 288 b.
6. Камарали С.Е. Социально-психологические аспекты общения (тезисы к докладу). – Донецк: ДонНУ, 2007.- 16 с.
7. Стефаненко Т.Г. Этнопсихология. Учебник для вузов. – М.: Аспект Пресс, 2004.- 368 с.
8. Fозиев Э. Психология: (Ёш даврлари психологияси). Педагогик институтлар ва университетларнинг талабалари учун ўқув қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1994.- 224 б.

Internet saytlari

1. http://elar.uspu.ru/bitstream/uspu/9660/2/16Chzhan2.pdf
2. https://vak.gov.by/sites/default/files/2018-04.pdf

EKSTREMAL VAZIYATLAR FENOMENI VA SHAXSDA HIMOYA MEXANIZMINING PSIXOLOGIK TAHLILI

Avezov Olmos Ravshanovich,
Buxoro davlat pedagogika instituti, Pedagogika kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ekstremal vaziyatlarda ruhiy tushkunlikda shaxsga psixologik yordam ko‘rsatish, shaxs psixikasida yuzaga keladigan stressli vaziyatlar va ularni oldini olishning ijtimoiy –psixologik xususiyatlari haqida tushunchalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Psixologik stress, uzoq muddatli stresslar, hissiy reaksiyalar, surunkali stressorlar, stress va kasbiy salomatlik, stressli hodisa, vaziyatni idrok etish va javob berish usuli, stressorlar, ta’sirning intensivligi.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФЕНОМЕНА ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ И МЕХАНИЗМ ЛИЧНОЙ ЗАЩИТЫ

Авезов Олмос Равшанович,
Бухарский государственный педагогический институт
Доцент кафедры педагогики

Аннотация: В данной статье представлены концепции оказания психологической помощи человеку с психической депрессией в экстремальных ситуациях, стрессовых ситуациях, возникающих в психике человека, и социально-психологические особенности их профилактики.

Ключевые слова: психологический стресс, стрессовое событие, способ восприятия ситуации и реакции на нее, стрессоры, длительные стрессы, эмоциональные реакции, хронические стрессоры, стресс и профессиональное здоровье, интенсивность воздействия.

PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF THE PHENOMENON OF EXTREME SITUATIONS AND PERSONAL PROTECTION MECHANISM

Avezov Olmos Ravshanovich,
Bukhara State Pedagogical Institute
Associate Professor of the Department of Pedagogy

Keywords: Psychological stress, stressful event, way of perceiving and responding to the situation, stressors, long-term stresses, emotional reactions, chronic stressors, stress and occupational health, intensity of exposure.

Abstract: This article presents concepts of providing psychological help to a person with mental depression in extreme situations, stressful situations that occur in the psyche of a person, and the socio-psychological features of their prevention.

Mavzuning dolzarbligi. Har bir shaxs tezkor vaziyat muhit bilan bog‘liq o‘ziga xos psixologik imkoniyatlariga yetarlicha baho bermay turib shaxsning taraqqiyotiga hozirgi zamon talablariga mos natija ko‘rsatish juda mushkuldir. Tabiiyki, bu holat psixologlar, favqulotda vaziyat xodimlari zimmasiga yanada ko‘proq mas’uliyat yuklatiladi. Azal-azaldan mehribon mehmon do‘st va inson parvar hisoblangan o‘zbek xalqi uchun inson hayoti hamma narsadan ustundir. Shuning uchun ham ekstremal vaziyatlarda shaxsga psixologik yordam ko‘rsatish va favqulotda vaziyatlarda psixologik himoya qilish qlish hozirgi kunda dolzarb muommo hisoblanadi.

«Vaziyat» tushunchasi (lotin tilidan situs- holat) inson va uning xatti-harakati mavzusi bo‘lgan fanga qat’iy kiritilgan, ammo foydalanish ko‘lamiga qaramasdan, «vaziyat» tushunchasi

doimo aniq talqin qilinmaydi. Ko‘pincha «vaziyat» tushunchasidan «atrof-muhit» tushunchasi uchun sinonim sifatida foydalanamiz. Ushbu tushunchalarning noaniqligini oldini olish uchun biz ularning har birini xarakterlaymiz. Atrof-muhit insonga nisbatan tashqi sharoitlarning umumlashmasidir va vaziyat har doim insonni o‘z ichiga oladi. Vaziyat turlari bir xil emas, ular atrof-muhit turlari (geografik, ijtimoiy va boshqalar) bilan tutashdir. Atrof-muhit barqarorlik va ta’sir qilish muddati bilan tavsiflanadi, vaziyat esa qisqa muddatli hisoblanadi. Atrof-muhit har doim sub’ekt emas, ammo vaziyat sub’ekt bo‘lib, u har doim «kimningdir holati» dir. Bularning barchasi, bu tushunchalar bir xil emasligini va ularni sinonim sifatida ishlatish uchun qabul qilinmasligini bildiradi.

Xorijiy psixologiyada vaziyatni fazoviy va vaqtli tuzilma sifatida aniqlash eng keng tarqalgan bo‘lib, vaziyat insonning hayotiy faoliyatining muayyan bosqichida atrof-muhitning elementlari yoki atrof-muhitning bir qismidir. D. Magnusson vaziyatlarning beshta darajasini farqlashni taklif qiladi (Magnusson, Fernxam, Mishel, 1983):

1. Imtiyozlar, ya’ni muayyan ob’ektlar va tashqi muhit harakati.
2. Epizodlar, ya’ni sabab va ta’sirga ega bo‘lgan maxsus, muhim voqealar.
3. Tashqi sharoitlar bilan belgilanadigan vaziyatning jismoniy, vaqtinchalik va psixologik parametrlari. Vaziyatni anglash va talqin qilish rag‘bat va epizodlarga ahamiyat beradi.
4. Atrof-muhit– vaziyat turlarini tavsiflovchi umumiy tushuncha.
5. Atrof-muhit- tashqi dunyoning jismoniy va ijtimoiy o‘zgaruvchilari to‘plami.

Favqulotda va ekstremal vaziyatlar (yer qimirlashi, turli xil avariya holatlari, yong‘inlar, epidemiya tarqalishi va hokazolar) barcha zamonlarda insoniyatga turli xildagi hissiy zo‘riqishlar va ruhiy shikastlar yetkazib kelgan. Masalan, bu holat tarixdan bizga ma’lumki, ilk bor Yegipetda sodir etilgan bo‘lib butun O‘rta yer dengizi bo‘ylab 60 yil davom etgan. Mazkur epidemiyaning eng avj olgan davrlarida, aniqrog‘i 542-yilda Konstantinopolda har kuni 1000 dan ortiq odamga o‘lim-o‘lat vabosi chang solgan. Dunyo tarixida ikkinchi eng fojiali epidemiya bu G‘arbiy Yevropa hududida “qora o‘lim” nomi bilan iz qoldirgan (XIVasr) Bundan tashqari, 1346-48 yillarda G‘arbiy Yevropada ayovsiz “vabo”ning keng tarqalishi tufayli 25 milliondan ortiq aholi qirilib ketgan. 1892 yilda mudhish “Vabo” kasalining tarqalishi oqibatida Hindistonda 6 million aholi qirilib ketdi va bu hayot Janubiy Amerikaga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi.

1986 yilning 26 aprelida Ukraina hududida Chernobel Atom elektrostansiyasi to‘rtinchi blokining portlashi tufayli radioaktiv nurlanish bilan bog‘liq minglab odamlar sarosimaga tushdi va ularni tinchlantirish juda mushkul bo‘ldi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha mazkur holatdagi ruhiy bezovtalikning paydo bo‘lishi odamlardagi bevosita jiddiy kasalliklarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda.

Binobarin, yuqoridagi ekstremal vaziyatlarning inson psixikasiga ta’sirining o‘rganilishi psixologiya fani amaliyotida yangi yo‘nalish – ekstremal psixologiya fanining keng ko‘lamda rivojlanishini taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan ekstremal psixologiya fani turli xil noodatiy yoki favqulotda inson psixikasida hosil bo‘luvchi psixologik qonuniyatlarni o‘rganuvchi fan hisoblanadi.

Tegishli adabiyotlarda favqulotda va ekstremal vaziyatlarga ma’lum darajadagi ta’riflar beriladi. Jumladan, favqulotda vaziyat – bu ma’lum chegaralangan hududlarda namoyon bo‘luvchi avariya holatlarining inson salomatligiga, uning ongi va hissiyotlariga, ruhiy holatlariga salbiy ta’sir etuvchi holatlar bilan belgilanadi.

Ekstremal vaziyat lot. extremus – oxirgi, inqirozli kabi tushunchalardan olingan bo‘lib, unda alohida sub’ekt sifatidagi shaxs idrokiga, hayotiga, salomatligiga turli xil tahdidlar solinishi oqibatida salbiy ta’sirlar qurshovida qolib ketadi.

Favqulodda vaziyat (favqulodda holatlar) — biror voqea sodir bo‘lishi, xavfli tabiiy hodisa, falokat, tabiiy yoki inson qurbonlari, inson salomatligi yoki atrof-muhitga zarar olib kelishi mumkin bo‘lgan boshqa ofatlar, muhim moddiy zarar natijasida yuzaga kelgan ma’lum bir

hududda vaziyat va inson hayoti sharoitlarini buzilishidir.

Shaxsdagi o‘zini o‘zi turli xil muvaffaqiyatsizlikdan, turli xil salbiy holatlarga tushib qolishdan himoya qila olish tizimini o‘rganish, tadqiq qilish va rivojlantirish masalasi ham o‘ta muhim ahamiyat kasb etishini unutmaslik kerak bo‘ladi. Chunonchi o‘tkazilgan barcha nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy amaliy xulosalar yotadi:

1.Ekstremal psixologiyadagi ilmiy–nazariy va metodik adabiyotlar tahlili shaxs uchun harakterli bo‘lgan o‘zini o‘zi psixologik himoya qilish jarayonini maxsus tahlil qilishga bag‘ishlangan tadqiqotlarning nihoyatda taqchil ekanligini ko‘rsatadi. Holbuki, har qanday shaxsning taraqqiyotiga salbiy ta’sir etishi mumkin bo‘lgan turli xil muvaffaqiyatsizliklar, ichki ziddiyatlar, yuqori darajadagi stress holatlari shaxsda psixologik himoya qila olishga tayyorlaydi.

2.Tanlangan va ishlab chiqilgan usullar majmuasini qo‘llash tizimli tarzda tashkil etilgan psixologik xizmat jarayonida shaxsga xos bo‘lgan psixologik himoya mezonlari va uning ierarxik tizimiga oid ko‘rsatkichlar dinamikasini o‘rganish va tadqiq qilish imkoniyatini yaratadi. Jumladan, Riks-Uessman shkalasi bo‘yicha o‘zini o‘zi hissiy baholash me’yorlari, Ch.D.Spilberg tomonidan yaratilgan “Reaktiv va shaxsiy xavotirlik shkalalarini o‘rganuvchi metodika”si yordamida shaxsning xavotirlik xususiyatlari, doirasidagi mutanosiblik ko‘rsatkichlari shaxs uchun xarakterli bo‘lgan psixologik himoya omillari haqidagi yangi ma’lumotlar beradi.

3.Bugungi psixologik xizmat jarayonida shaxs o‘zini o‘zi psixologik himoya qilish jarayoniga ta’sir qiluvchi va ayni paytda tadqiqot predmetiga aylantirilgan mezonlarning har biri o‘ziga xos himoya omili, belgisi, dinamikasi va ierarxik tizimiga ega ekanligi va bu umumiy psixologik himoyaning bir–biriga bog‘liq ierarxik zanjirni mustahkamlashga hamda mukammallashtirishga xizmat qilishi bilan alohida xarakterlanadi. Shu nuqtai nazardan mazkur mezonlar talqini shaxsning o‘zini o‘zi psixologik himoya qilish tizimi haqida empirik ma’lumotlar berish mumkinligini isbotladi.

4.Riks-Uessman shkalasi bo‘yicha qo‘lga kiritilgan empirik ma’lumotlar tahlili shaxslardagi o‘zini o‘zi psixologik himoya qilish jarayonining kechishi aksariyat hollarda o‘smirlardagi maktab hayotiga, o‘z–o‘ziga, shaxslararo umumiy muloqotga bog‘liq bezovtalik me’yorlariga, shuningdek, shaxslar faolligini ta’minlovchi xotirjamlik, g‘ayrat-shijoatlilik, hissiy ko‘tarinkilik, o‘z-o‘ziga ishonchlilik sifatlariga mutanosiblik yoki nomutanosiblik ko‘rsatkichlarining namoyon etilishi bilan bog‘liq ligini ko‘rsatadi. Jumladan, qayd etilgan mutanosiblik ko‘rsatkichlarining ortib borishi, shaxsidagi psixologik himoya imkoniyatlarining tobora kengayib borishiga olib kelishi mumkinligi o‘z tasdig‘ini topdi.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning barchasi eng avvalo inson shaxsi va uning manfaatlarini himoya qilishga, qolaversa, har bir shaxsning ijtimoiy-psixologik taraqqiyotini ta’minlashga qaratilgan.

Respublikada qo‘lga kiritilgan natijalariga tayangan holda, mamlakatimizda hozirgi zamon ilg‘or psixologiyasi yutuqlarini hayotga tadbiq etish zaruriyatini hisobga olib, shaxslardagi psixologik himoya jarayoni bilan bog‘liq holatlarni to‘g‘ri tushunish, tadqiq qilish va uning bugungi yoshlarimizni tarbiyalash ishidagi ulushini oshirishga qaratilgan quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqilmoqda.

1. Bugun respublikamizda faoliyat yuritayotgan favqulotda vaziyat xodimlari, yong‘in xavfsizligi xodimlari,va ekstremal holatlarga tushib qolgan shaxslar bilan hamkorlikda shaxslar uchun zarur bo‘lgan ishlar dasturini tuzishlari va shu dasturga mos psixologik himoya jarayonini o‘rganishga qaratilgan tadbirlarni belgilashlari zarur.

2. Respublikamizda faoliyat olib borayotgan psixoliglarga psixologik xizmat talablarini o‘rganishi, tahlil qilish va tadqiq qilishning mahsuli o‘laroq, psixologik xizmatning ish mazmunini tashkil etuvchi “Nizom”ga qo‘shimcha ravishda amaliyotchi – psixologlar bajarishi

lozim bo‘lgan quyidagi vazifalarni tavsiya etilmoqda:

- Faoliyat va individual imkoniyatlar o‘rtasidagi adekvatlikning qay darajada tarkib toptirilayotganligini aniqlash; har bir shaxsdagi mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli bajarish bilan bog‘liq individual uslubni aniqlash; mehnat faoliyati jarayonida har bir shaxsning o‘zini o‘zi muvaffaqiyatli idora qilishning ta’minlanishi bilan bog‘liq me’yoriy hissiy faollik ko‘rsatkichlarini aniqlash imkoniyatlari yaratilmoqda.

- Ota – onalar, tezkor xizmat xodimlari, o‘rtasida psixologik himoya imkoniyatlari va istiqbollari xususida maxsus tushuntirish ishlarini olib borish talab etiladi.

- Har bir shaxs uchun xarakterli bo‘lgan faoliyatdan qoniqishga nisbatan psixologik himoya ierarxiyasining qaror toptirilishiga xizmat qiluvchi, rivojlantiruvchi korreksion ishlar rejasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish kerak bo‘ladi.

- Har bir shaxsning psixologik himoya imkoniyatlaridan kelib chiqib, mehnat faoliyati talablarini bajarish bilan bog‘liq muvaffaqiyatlarga erishish, ayni paytda, turli xil muvaffaqiyatsizliklarga uchramaslik uchun tegishli yakka hol maslahatlar berib borish bilan birga, mazkur shaxsning faoliyatga nisbatan muvaffaqiyatli individual uslubni rivojlantirish uchun tegishli shart-sharoit yaratilishini ta’minlovchi tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘ylaymizki, mazkur vazifalarning muntazam ravishda amalga oshirilishi psixologik himoya samaradorligini ta’minlashda, ayni paytda, shaxsdagi psixologik himoya omillarini tadqiq qilish bilan bog‘liq ekstremal vaziyatlarda psixologik xizmat samaradorligini taqozo etadi. Demak, eksremal vaziyatlarda shaxsni o‘rganish va unga psixologik ta’sir qilish mehanizmlaridan xabardor bo‘lish har bir amaliyotchi psixologdan juda katta mahorat talab etadi.

Fodalanilgan adabiyotlar

1. Avezov O.R. Mutaxassislikka kirish. B; Durdona, 2021.
2. Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. - Worth Publishers. 2010. -
3. 910 p.
4. Barotov Sh.R. Psixologik xizmat: Magistrlar uchun darslik. – T.: “Navro‘z” nashriyoti, 2018. – 344 b.
5. Avezov O.R. va boshq. Shaxs psixologiyasi. B; Durdona, 2019.
6. Кокс Т. Стресс. Пер. с англ. М.: Медицина, 1981
7. Avezov O.R. Mental Status and Behavioral Reactions in Emergency and Extreme Emergencies. AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH ISSN: 2690-9626 Vol.3, No 1, 2022
8. Авезов О.Р. Экстремал вазиятларда психологик хизмат. Дарслик, Б:. ”КАМОЛОТ” нашриёти, 2023 йил. 332 бет.
9. Avezov O.R., Z.J.Ahmedova. Ekstremal vaziyatlar psixologiyasi. Darslik,B:. ”KAMOLOT” nashriyoti, 2022 yil. 256 bet.
10. Avezov O.R. Ekstremal va favqulotda vaziyatlar to‘g‘risida zamonaviy tushunchalar. Pedagogik mahorat 4 (№. 24), 106-109
11. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda oilaga psixologik xizmat ko‘rsatish amaliyoti. PEDAGOGIK MAHORAT 3 (№. 13), 145-150
12. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda shaxsning stressli holati va xulq-atvor reaksiyalari. Psixologiya 3 (№. 23), 94-98

ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARINING AMALIY XUSUSIYATLARI

Ahmedov Farhod Furqatovich
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ichki ishlar organlari psixologik kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy - psixologik mexanizmlari va xodimlarning muloqot qobiliyatlari ulardagi kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirish haqida fikr yuritiladi. Shuningdek ichki ishlar organlari uchun psixologik kompetentsiyalar bo'yicha qilinadigan ishlar, kasbiy mahoratga oid fazilatlarni shakllantirish bosqichlari yoritib berilgan. Bundan tashqari kompetensiya va kompetentlik tushunchalari, ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar kasbiy pedagogik kompetensiyalarning turlari pedagogik kompetentlik shakllanish bosqichlari tavsiflab berilgan.

Kalit so'zlar: intellektual fazilatlar, qobiliyat, kommunikativ kompetentsiya, modernizatsiya, kasbiy kompetentsiyani, kognitiv faoliyat.

ПРАКТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МЕХАНИЗМОВ ФОРМИРОВАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Ахмедов Фарҳад Фуқатович
Исследователь Бухарского государственного университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются социально - психологические механизмы формирования психологической компетентности органов внутренних дел и коммуникативных навыков сотрудников по развитию у них профессиональных компетенций. Также освещена работа по психологическим компетенциям для органов внутренних дел, этапы формирования качеств, связанных с профессионализмом. Кроме понятий компетентность и компетентность, сходства и различия между видами профессионально-педагогических компетенций описаны этапы формирования педагогической компетентности.

Ключевые слова: интеллектуальные качества, способности, коммуникативная компетентность, модернизация, профессиональная компетентность, познавательная деятельность.

PRACTICAL FEATURES OF THE MECHANISMS FOR THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL COMPETENCE IN THE ACTIVITIES OF INTERNAL AFFAIRS BODIES

Ahmedov Farhad Furqatovich
Bukhara State University researcher

Annotation. This article reflects on the socio - psychological mechanisms of the formation of psychological competence of internal affairs bodies and the communication skills of employees on the development of professional competencies in them. Also, the work on psychological competencies for the internal affairs bodies, the stages of the formation of qualities related to professional skills are highlighted. In addition, the concepts of competence and competence, similarities and differences between them types of professional pedagogical competencies pedagogical competency stages of formation are described.

Key words: intellectual qualities, abilities, communicative competence, modernization, professional competence, cognitive activity.

Kirish. Respublikamizda so‘nggi yillarda huquq-tartibot organlari faoliyati samaradorligini oshirish, ichki ishlar organlari xodimlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Kadrlar tayyorlashda kasbiy kompetensiyasini shakllantirish murakkab muammolar orasida alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, ta’limni modernizatsiya qilish bilan bog‘liq islohotlarning hozirgi bosqichida kasbiy faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ichki ishlar organlari xodimlarida amaliy, psixologik, uslubiy yo‘nalishlarga o‘rgatish xodimlarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish bilan bir qatorda tadqiqot turlari ham boyib bormoqda. Kasbiy kompetentsiyani baholash diagnostik, kommunikativ, boshqaruv va proyektiv tadqiqotlarning kasbiy shakllanishi guruhlarining mohiyatidir. Ichki ishlar organlarining kognitiv faoliyati ko‘p jihatdan o‘rganilayotgan narsalarning murakkabligi, dinamikasi, nostandart, ijtimoiyni ajratib turadigan chegaralardir.

Adabiyotlar tahlili. Kompetentlik va kompetensiya kategoriyalarining tuzilmasini o‘rganish jarayonida bir nechta yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ko‘pgina mualliflar faoliyatli yondashuvni istiqbolli deb baholaydilar, shuningdek ular kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo‘ladi va shu bilan bir qatorda uning asosi ham, deb hisoblaydilar. Bunday holatda kompetentlik jarayonning aniq doirasida samarali harakatni yuzaga keltirish uchun zarur bo‘lgan ichki resurslar tizimi sifatida tushuniladi. Kompetentlik tuzilmasi quyidagi komponentlarga ajratiladi: yo‘naltiruvchi va ijrochi, mazmunli (bilim) va jarayonli (ko‘nikma), kognitiv va operatsional.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammosining umumiy jihatlari G.M.Andreyeva, Ye.A.Abulxanova-Slavskaya, V.P.Bederxanova, A.A.Bodalev, M.Kyarest, V.A.Labunskaya, A.N.Leontev, A.K.Markova, D.Mayers, Ye.S.Mixaylova, A.V.Petrovskiy, S.L.Rubinshteyn, A.V.Xutorskiy, A.J.Yujaninova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

A.K.Markova ijtimoiy kompetentlikni mazmun jihatdan tahlil qilib, uning jarayonli va natijali tomonlarini ajratib ko‘rsatgan. Muallif kompetentlik tuzilmasini jarayon (pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot, o‘qituvchi shaxsi) va pedagogik faoliyat natijalari, ya’ni ta’lim oluvchining ta’lim olganlik va tarbiyalanganlik nuqtai nazaridan tizimlashtirilgan.

A.V.Xutorskiyning o‘tkazgan ilmiy izlanishlarida, kompetentlik - o‘ziga xos individual-psixologik xususiyat sifatida namoyon bo‘lishi, kompetensiya esa insonning aniq bir muhitda samarali va sifatli faoliyati uchun zarur bo‘lgan tayyorgarlikka qo‘yilgan va oldindan belgilangan ijtimoiy talablardan iboratligini
ta’kidlaydi.

Psixologik kompetentlik tuzilmasida J.G.Garanina quyidagi ikkita darajaning mohiyatini bilim, ko‘nikma, malaka va fikrlash asosida talqin qiladi:

1) kategoriyalar, hissiy-emotsional obrazlar, ijtimoiy etalonlar, stereotiplar va boshqalar, hamda fikrlash tizimlari (ijtimoiy muammolarni hal etish bo‘yicha refleksiv aqliy faoliyat);

2) amaliy, ijrochilik, ya’ni insonlar bilan o‘zaro ta’sir o‘tkazish malaka va ko‘nikmalar tizimi. Yuqoridagi ikkala yo‘nalish kompetentlikning refleksiv va progressiv xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, agar shu ikki daraja bo‘lmaganida edi kompetentlik tushunchasining mohiyati u qadar to‘laqonli hisoblanmasdi. I.A.Zimnaya kompetentlikni yo‘naltirilganlik, maqsadni qo‘ya bilish, xulqning hissiy-irodaviy boshqarilishi, qadriyatli-mazmunli munosabatlarni o‘z ichiga olgan shaxs xususiyatlari sifatida qaraydi. Uning fikricha, kompetentlik tuzilishi quyidagi komponentlar tizimidan iborat:

a) shaxsning ichki psixik, tashqi xulqiy harakatida ushbu xususiyatlarni namoyon
qilishga tayyorlik;

b) muvaffaqiyatga erishish uchun vazifalarni bajarishning vositasi, metodlari va dasturlarini anglash, ijtimoiy va kasbiy masalalarni yecha olish, tartib-intizom talablari va

o‘ziga xos bo‘lgan me’yorlariga rioya qilish. Bu kompetensiyaning asosiy mazmunmohiyatini quyidagicha mazmunda ochib beradi;

c) bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish tajribasi, ya’ni ko‘nikma va malaka;

d) hissiy-irodaviy regulyatsiya, kompetentlikni namoyon qila olish qobiliyati, uning ijtimoiy va kasbiy o‘zaro ta’sir holatlariga bog‘liq holda namoyon bo‘lishini muvofiqlashtirish sifatida.

Muhokama. Psixologik kompetentsiya eng umumiy shaklda bir-biriga bog’liq bo‘lgan bir nechta tarkibiy qismlardan iborat:

- gnostik, shu jumladan zarur psixologik bilimlar tizimi;
- prognozlash va oldindan ko‘rish jarayonlari bilan bog’liq xususiyat;
- tartibga solish yoki konstruktiv, ta’sir qilish qobiliyatidan iborat;
- kommunikativ, samarali muloqotda namoyon bo‘ladi.

Psixologik kompetentsiyaning o‘zaro bog’liq bo‘lgan beshta asosiy turi mavjud:

 Ijtimoiy-pertseptiv kompetentsiya (odamlarni bilish, uning asosini kuzatish va tushunish);

 Ijtimoiy-psixologik (kasbiy guruhga, jamoaga kiritilgan shaxsning xatti-harakatlari, faoliyati va munosabatlari modellarini bilish)

 Avto-psixologik (o‘z-o‘zini bilish, o‘zini o‘zi qadrlash, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z holati va faoliyatini boshqarish qobiliyati, o‘z-o‘zini samaradorligi);

 Muloqot (samarali muloqotning turli strategiyalari va usullarini bilish);

 Psixologik va pedagogik (ta’sir qilish usullarini bilish).

Ichki ishlar organlari kasbiy kompetensiyasi. Zamonaviy mutaxassis modelida xodimlar malakalarining asosiy turlari.

Kasbiy kompetentsiya - bu kasbiy kompetentsiya sohasi, doimiy ravishda kengayib borayotgan bilimlar tizimi bo‘lib, u yuqori mahsuldorlik bilan professional faoliyatni amalga oshirishga imkon beradi.

Qobiliyat turlari:

1. Kasbiy huquqiy kompetentsiya –ichki ishlar organlarining qonunchilik va boshqa normativ-huquqiy hujjatlaridan kasbiy faoliyatda samarali foydalanishni ta’minlaydigan harakatlar sifati; amaldagi qonunchilik doirasida qarorlar qabul qilish.

2. Axborot kompetentsiyasi - fuqarolarning axborotni samarali idrok etish va baholashni, ustuvorliklar tizimiga muvofiq axborotni tanlash va sintezini ta’minlaydigan harakatlari sifati; ma’lumotlarni samarali qidirish, tizimlashtirish, uni kasbiy faoliyatning o‘ziga xos ehtiyojlariga moslashtirish; kasbiy faoliyatda axborot texnologiyalaridan foydalanish, turli xil axborot manbalari va resurslari bilan ishlash, bu kasbiy muammolar va amaliy vazifalarni hal qilish yo‘llarini ishlab chiqishga imkon beradi; muntazam mustaqil kognitiv faoliyat, masofaviy maslahat va boshqa kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorlik; kompyuter va multimedia texnologiyalaridan, raqamli resurslardan foydalanish; elektron tashuvchilarda hujjatlarni yuritish.

Quyidagi kompetentsiyalarda xodimlarning o‘zlarini xususiyatlarini namoyon qiladi namoyon qiladi:

- og’zaki va yozma nutqni mantiqiy, asosli va tushunarli shaklda qura olish
- xulq-atvor madaniyatiga ega, hamkasblari bilan hamkorlik qilishga va jamoada ishlashga tayyor bo‘lish;
- chet tilida professional muloqot qilishning zarur ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- ommaviy nutq va faol tinglash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- ekstremal va stressli vaziyatlarda his-tuyg’ular va kayfiyatni o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- ishbilarmonlik muloqotining turli ishtirokchilari bilan hissiy aloqalarni o‘rnatishga qodir, jalb qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- konfliktli vaziyatlarda vaziyatga adekvat kommunikativ xulq-atvor strategiyasini amalga oshirishga qodir bo‘lish;
- yuksak imij madaniyatiga ega bo‘lish.

3.Kasbiy va axloqiy kompetentsiya – fuqarolarning kasbiy faoliyatida umuminsoniy axloq va jamoat axloqi normalariga, kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya qilishni ta’minlaydigan harakatlarining sifati; kasbiy yuridik faoliyatning mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish; kasbiy faoliyatida huquqiy va psixologik madaniyatni namoyon etish, qonunga chuqur hurmat, qonun ustuvorligining ijtimoiy qadriyatlarini, fuqaroning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish.

Kasbiy va axloqiy kompetentsiya quyidagi kollarda o‘zini namoyon qiladi:
- o‘zining bo‘lajak kasbining ijtimoiy ahamiyatini tushunadi, yetarli darajada professional huquqiy ongga ega ekanligini tushunish.
- kasbiy burchlarini vijdonan bajarishga, huquqiy etika tamoyillariga rioya qilishga qodir bo‘lish;
- korruptsion xatti-harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘ladi, qonunni hurmat qiladi.
- me’yoriy xulq-atvorning yuqori darajasiga ega bo‘lish;
- kasbiy faoliyatda axloqiy va huquqiy talablarni uyg’unlashtira oladi.

6. Kasbiy va intellektual kompetentsiya - fuqarolarning yuqori darajadagi bilim faolligini, ma’lumotlarni umumlashtirish, tahlil qilish, idrok etish, maqsadni qo‘yish va unga erishish yo‘llarini tanlashni ta’minlaydigan harakatlarining sifati; analitik va ijodiy tahlil qilish, shuningdek, katta hajmdagi ma’lumotlarni yodlash ko‘nikmalari; asosiy narsani ajratib ko‘rsatish qobiliyati, yuqori aqliy qobiliyat, to‘g’ri mulohazalar va xulosalar chiqarish qobiliyati.

Quyidagi kompetentsiyalarda o‘zini namoyon qiladi:
- fikrlash madaniyatiga ega, axborotni umumlashtirish, tahlil qilish, idrok etish, maqsad qo‘yish va unga erishish yo‘llarini tanlash qobiliyatiga ega bo‘lish;
- o‘z-o‘zini rivojlantirishga, malaka va ko‘nikmalarni oshirishga intilish;
- ijtimoiy va kasbiy muammolarni hal qilishda ijtimoiy, gumanitar va iqtisodiy fanlarning asosiy tamoyillari va usullaridan foydalana olish;
- ijtimoiy ahamiyatga ega muammo va jarayonlarni tahlil qila olish;
- ijodiy fikrlash, aqliy faoliyatni saqlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- katta hajmdagi axborotni eslab qolish va aqliy qayta ishlashga qodir bo‘lish;

Kasbiy kompetentsiya professional kompetentsiyada sodir bo‘ladi faoliyat va qoidalar va xususiyatlarga ega bo‘lish bilan tavsiflanadi ushbu faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari va egalik doirasidagi o‘zaro ta’sirlar buni amalga oshirish uchun maxsus bilim va ko‘nikmalar faoliyat muvaffaqiyatli hisoblanadi.

Quyidagilarni tavsiya va xulosa qilib aytishimiz mumkin.

Kasbiy jihatdan muhim fazilatlar- bu ishlashga ta’sir qiluvchi shaxsiy xususiyatlar hisoblanadi:

1.Shaxsiy va ishbilarmonlik fazilatlari:
a) tashkilot
b) intizom
c) tashabbus
d) diqqatlilik
e) javobgarlik

2. Adaptiv sifatlar (moslashish, sharoitga moslashish qobiliyatini tavsiflovchi)
a) ish rejimlarini o‘zgartirganda qobiliyatlarni saqlab qolish qobiliyati
b) muayyan jamoaning me’yorlarini bajarish qobiliyati

v) ish rejimi va uslubiga moslashish qobiliyati
d) jamoada kasbga tez moslasha olish.
3.Neyropsikologik fazilatlar:
a) yuqori ishlash, stressli vaziyatlarda chidamlilik
b) stress omillariga bardosh berish qobiliyati
v) o‘zining hissiy holatini o‘zlashtirish qobiliyati
d) o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan impulsiv reaktsiyalarni ushlab turish qobiliyati
4.Aloqa maxorati:
a) suhbat ishtirokchilari bilan psixologik aloqa o‘rnatish qobiliyati
b) muloqot jarayonida psixologik va kommunikativ to‘siqlarni yengish qobiliyati
v) kuchli rivojlangan nutq madaniyati
d) ma’lumotni to‘g’ri etkazish qobiliyati
e) empatiya - insonning ichki tajribalariga hissiy jihatdan javob berish qobiliyati)
f) konfliktda xulq-atvorning adekvat strategiyasini tanlash qobiliyati
3. Intellektual fazilatlar:
a) yuqori intellekt
b) analitik bilim
c) bilimdonlik
d) fikrlash chuqurligi
d) katta hajmdagi axborotni idrok etish qobiliyati
e) aqliy faoliyat
g) evristik fikrlash (ijodiy ijodkorlik)
4. Tashkiliy fazilatlar - sheriklariga ta’sir o‘tkazish qobiliyati
a) faoliyat
b) energiya, samaradorlikni oshirish
c) o‘ziga ishonch
d) mas’uliyat hissi

Kommunikativ o‘z-o‘zini takomillashtirishning maqsadi aniq, ammo motivlar boshqacha bo‘lishi mumkin. Gumanitar jihatdan takomillashtirish uchun kommunikativ o‘zini o‘zi nafaqat o‘z-o‘zini takomillashtirish, balki amalga oshirishning asosiy sharti sifatida samarali o‘zaro ta’sir ularning individualligi va o‘ziga xosligini saqlab qolishga yordam beradi. Shuning uchun ham kommunikativ o‘z-o‘zini rivojlantirishda amaliy mashg’ulotlar muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Laptev V.V. Informatika o`qitishning metodik nazariyasi. Fundamental tayyorgarlikning aspektlari / V.V. Laptev, N.I. Rijova, M.V. Shvetskiy. -SPb.: Sankt-Peterburg universiteti nashriyoti, 2003. - 352 p.
2. Mysin M.N. Bo‘lajak mutaxassisning kasbiy vakolatlarini shakllantirish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish / M.N. Mysin. - Samara: Samara universiteti nashriyoti, 2004. - 194 p.
3. Абдуқодиров А. Мактабгача таълим муассасаларида мультимедиа технологиясидан фойдаланиш услубиёти. «Насаф» нашриёти. 2011 й. - Б. 213.
4. Альтшуллер Г.С. Творчество как точная наука. - М., 1979. - С 14-15.
изобретательские задачи. –Петразаводск, Карелия, 1980, – 221 с.
Internet saytlari:
1. https:// uz.m.wikipedia.org.
2. https://mymedic.uz.
3. http:// library.ziyonet.uz.

OLIY TA’LIM MUASSALARI TALABA-YOSHLARIDA SOG’LOM TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDOGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Ataxanova Sayyora Otkurovna
Nizomiy nomidagi pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talaba yoshlarda sog’lom tafakkur muammosining dolzarbligi hamda nazariy-psixologik asoslari tahlil qilinib, sog’lom tafakkurni rivojlantirish jarayonining kognitiv, psixologik tayyorlov, yakuniy fazalariga ustuvorlik berishga oid tarkibiy komponentlar mazmuni yoritilgan. Shuningdek, maqolada tajriba ishlarining dastlabki nazorat natijalari hamda sog’lom tafakkurning o’ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: sog’lom tafakkur, patogen tafakkur, sanogen refleksiya, sog’lom fikr yuritish, sanogen xulq-atvor

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Атаханова Сайёра Откуровна
Педагогический университет имени Низами, Исследователь

Аннотация: В статье анализируются актуальность и теоретико-психологические основы проблемы здорового мышления учащейся молодежи, а также выделяется содержание структурных компонентов, связанных с расстановкой приоритетов познавательной, психологической подготовки и завершающих этапов процесса формирования здорового мышления. Также в статье приведены сведения о результатах предварительного контроля экспериментальной работы и специфических особенностях здорового мышления.

Ключевые слова: здоровое мышление, патогенное мышление, саногенная рефлексия, здоровое мышление, саногенное поведение.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING HEALTHY THINKING AMONG STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Atakhanova Sayyora Otkurovna
Nizami Pedagogical University independent researcher

Abstract: This article analyzes the relevance and theoretical-psychological foundations of the problem of healthy thinking among young students, and highlights the content of structural components related to prioritizing the cognitive, psychological preparation, and final phases of the process of developing healthy thinking. The article also provides information on the preliminary control results of experimental work and the specific characteristics of healthy thinking.

Key words: healthy thinking, pathogenic thinking, sanogenic reflection, healthy thinking, sanogenic behavior

Kirish. Jahon ijtimoiy-psixologik munosabatlar rivojida inson aql-zakovati, ruhiyati va ma’naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo’lmoqda. Bu esa, o’z navbatida yuqori saviyaga ega mutaxassislarni, mehnat

bozorida raqobatbardosh va innovatsion ta’lim muhitida hamkorlikdagi faoliyatga qodir pedagogik kadrlarni tarbiyalash muammosini yanada dolzarblashtirmoqda.

3. Sportchilarda o‘yindan oldin va o‘yindan keyingi xavotirlanish darajasining o‘zgaruvchanligi, xavotirlanish jarayonida o‘zini o‘zi nazorat qilish, kuchli emotsional holatdan uzoqlashish, xavotirlik sportchi shaxsining xatti-harakatlarida anomal holatlarni keltirib chiqarishi kabi holatlarni o‘rganishga mo‘ljallangan metodlardan foydalanish uchun sportchi shaxsining ekspressiv-diagnostika qilish usullarini mohiyati izohland

Xulosa. Mamlakatimiz psixolog olimlarining kazusli vaziyat va emotsional holatlar muammosiga doir qarashlarini tahlil qilib, bu borada quyidagicha ilmiy to‘xtamga kelish mumkin. Emotsional holatlar yoki tor ma’noda emotsiyalar hissiy kechinmalarining o‘ziga xos xususiyatli shakllaridan bittasidir. Emotsiyalarning kechishi insonning yo‘nalganligi, maqsadi, faoliyati va o‘zaro munosabatlariga keskin ta’sir qiladi. Sport faoliyatida sportchi murakkab jismoniy psixologik- tayyorgarlik bosqichini amalga oshirganda, ular orasida psixologik tayyorgarlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, sport musobaqalarida sportchini emotsional holatini boshqarishi, nazorat qilishi, salbiy kechinmalarga berilishiga yo‘l qo‘maslik bilan bog‘liq kechinmalar va uni yengishi psixologik tayyorgarlikning mohiyatini tashkil etadi.

Foydanalingan Adabiyotlar

1. Ilyin E.P. Sport psixologiyasi. - Sankt-Peterburg
2. Piter, 2008. - 352 p
3. Ilyin E.P. Iroda psixologiyasi Sankt-Peterburg Piter, 2009. – 233
4. Babushkin G.D Smolentsev V.N. Psixo jismoniy madaniyat logiyasi Omsk: SibGUFK 2007. P.330.
5. Eroxin A. . I Irodaviy fazilatlarni rivojlantirish sportchilar Xalqaro pedagogika portal. 01/11/2022.
6. Xaitova O S Yusupova F.Z.
7. CASESTUDY o’qitish usulini amalga oshirish imkoniyati yoshlar bilan ijtimoiy ish sohasida
8. Xalqaro ilmiy jurnal Aktual tadqiqot 2022 yil, 35-son(114). B.81-83.
9. Yusupova F Rag’batlantirish istiqbollari O’zbekiston yoshlarining innovatsion faoliyati lager Ilmiy-metodik jurnal Vestnik fan va ta’lim– Rossiya: “Muammolar fan”, 2020. No 12 (90). 3-qism. B.66-68.

TARBIYASI QIYIN O'SMIRLARNI TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATNI PSIXOLOGIK JABHALARI

A'zam Ahadovich G'aybullayev
Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'smir psixik taraqqiyotida hal etish zarur bo'lgan psixologik muammolar, o'smirlik davriga xos xususiyatlar, pedagogik-psixologik vaziyatlar va ularni bartaraf etish mexanizmlari hamda tarbiyaviy ishga oid vazifalar keltirilgan. Maktab, oila va jamoatchilik hamkorligi hamda milliy qadriyatlar bolalar tarbiyasida asosiy hal etuvchi omil sifatida asoslab berilgan. Shuningdek tarbiya tizimidagi mavjud kamchiliklar, tarbiyasi "qiyin" bolalar psixologiyasi, ular bilan individual milliy qadriyatlar asosida munosabatda bo'lishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy- psixologik muhit, axloqiy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, oilada bolalar tarbiyasi, salbiy xarakter xususiyatni shakllanishi, ijtimoiy-pedagogik faoliyat, axloqiy tarbiya, shaxsning kamoloti, sog'lom shakllanish

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ВОСПИТАНИИ ТРУДНЫХ ПОДРОСТКОВ

Азам Ахадович Гайбуллаев
Бухарского государственного педагогического института Преподаватель кафедры педагогики

Аннотация: В статье представлены психологические проблемы, которые необходимо решать в психическом развитии подростка, особенности подросткового возраста, педагогико-психологические ситуации и механизмы их преодоления, а также задачи, относящиеся к воспитательной работе. Школа, Семья и общественное сотрудничество, а также национальные ценности являются основными решающими факторами в воспитании детей. Также освещаются имеющиеся недостатки в системе воспитания, психология "трудных" детей, особенности взаимодействия с ними на основе индивидуальных национальных ценностей.

Ключевые слова: социально - психологическая среда, нравственные ценности, национальные ценности, воспитание детей в семье, формирование отрицательной черты характера, социально-педагогическая деятельность, нравственное воспитание, созревание личности, здоровое формирование

PSYCHOLOGICAL FRONTS OF NATIONAL VALUE IN THE EDUCATION OF DIFFICULT ADOLESCENTS

Azam Ahadovich Gaybullayev
Bukhara state pedagogical institute Teacher of the department of Pedagogy

Abstract: The article presents psychological problems that are necessary to solve in the development of the adolescent psyche, features characteristic of adolescence, pedagogical-psychological situations and mechanisms for their elimination, as well as tasks related to educational work. School, family and community cooperation and national values are substantiated as the main determining factor in the upbringing of children. Also covered are the existing shortcomings in the system of upbringing, the psychology of children "difficult" in upbringing, the peculiarities of dealing with them on the basis of individual national values.

Key words: socio-psychological environment, moral values, national values, upbringing of children in the family, formation of a negative character trait, socio-pedagogical activity,

moral education, personality maturation, healthy formation

Har bir ota - ona o’z farzandining baxtu - saodatli, ma’naviy sog’lom, istiqboli porloq, kelajakdagi mustaqil hayotida ham moddiy jihatdan sog’lom bo’lib yashamog’ini orzu qiladi va shu maqsadga erishish uchun butun umrini, bor-yo’g’ini sarf qiladi. Ayniqsa, bu bolasevar xalqimizning qalbiga singib ketgan fazilat milliy qadriyat darajasiga ko’tarilgan.

Bola tarbiyani dastlab oilasida oladi. Kattalarning butun hatti - harakatlarini xuddi suratga olgandek ongiga joylab, ulg’aygach, ularni hayotiga tatbiq etadi. Axloqi yomon bolalar asosan muhiti sog’lom bo’lmagan oilalardan chiqishi ma’lum. “Bugungi o’g’ri, firibgar va xulqi yomon kimsalar kecha tarbiyasiga e’tibor berilmagan bolalardir!” degan edi Abdulla Avloniy. Oiladagi tarbiyadan tashqari, bolalarimizning ko’cha -ko’yda yurish - turishlariga va kimlar bilan aloqa qilayotganiga ham alohida ahamiyat berish lozim.

Menimcha, faqat ota - onasini yo’qotgan emas, balki qarovsiz qolgan, tarbiyasiga birov ahamiyat berilmagan, oiladagi nosog’lom ijtimoiy- psixologik muhit tarbiyasi qiyinlikni olib keluvchi sabablardan hisoblanadi. Kelajagimiz bo’lgan bolalarimiz tarbiyasiga katta ahamiyat berishimiz, ularning yuksak axloqiy qadriyatlar, milliy va diniy an’analarimizga sodiq bo’lishlariga harakat qilish lozim. Buning uchun eng avvalo oilaning ahamiyati benihoya katta ekanligi juda ko’plab olimu ulamolarimiz, shoir va yozuvchilarimiz o’z asarlarida bayon qilib o’tganlar.

Buyuk bobokalonimiz Abu Ali Ibn Sino oilaviy tarbiyaning umumiy asoslarini bayon etishga harakat qilgan. “Agar oila tarbiya usullaridan to’g’ri foydalansa, – deb yozgan edi olim, – o’z hayotida baxtga erishadi”. Ibn Sino oilada bolani tarbiyalash – ota-onaning asosiy burchi deb hisoblagan, o’z qusurlarini bartaraf qilgan kishigina boshqalarni tarbiyalashi mumkinligini ta’kidlagan. Ibn Sino bolani tarbiyalash omillarini tahlil qilib, ulardan eng to’g’risi – bola bilan birga bo’lish va ijobiy misollardan foydalanib, alohida-alohida suhbatlashish, uning izzat-nafsiga tegmaslik, deb uqtirgan. Ibn Sino tarbiyada otaning rolini ifodalashga katta ahamiyat bergan. Uning “Ro’zg’orshunoslik” kitobida “Otaning bolalarga munosabati” degan bobida shunday fikrlarni bayon qilgan, jumladan: “Onalar o’z tabiatlariga ko’ra, yumshoq ko’ngillidirlar va o’zlarining erkalashlari bilan bolaning xarakterini buzadilar”, – deydi. Ibn Sinoning fikricha, oilada asosiy tarbiyachi ota bo’lishi, u maqsadga erishmoq uchun bolani ba’zan jazolashi, ba’zan rag’batlantirishi, vaqti-vaqti bilan maqtashi, ba’zan tanbeh berishi, vaqtida qo’rqitib qo’yishi lozim [1].

Oilada bola tarbiyasi to’g’risida Alisher Navoiyning ajoyib fikrlari ham bor. Unga ko’ra, tarbiyada eng muhimi bolalarni sevish, “Bolaga, – degan edi ulug’ shoir, – kichikligidan boshlab, yoshini hisobga olgan holda axloqiy tarbiya bermoq zarur”. Taniqli alloma va pedagog Abdulla Avloniy ham oilada bolalar tarbiyasi to’g’risida muhim ahamiyatga ega bo’lgan ajoyib fikrlarni bayon qilgan. U o’zining “Yashnagan o’lka va axloq” kitobida yozganidek, bolaning sog’lig’i va baxti, avvalo, uning yaxshi tarbiyalanishiga, badanining tozaligiga, e’tiqod hosil qilishiga, yaxshi xulqqa ega bo’lishiga, uni g’ayriaxloqiy xatti-harakatlardan ogohlantirilishiga bog’liq. [2] Ushbu allomalarimizning g’oyat katta va boy meroslaridan foydalanish orqali yosh avlodni tarbiyalash o’z milliy va ma’naviy qadriyatlarimiz ruhida ravnaq topishiga olib keladi.

O’zbek halqining milliy qadriyatlari tizimida insonparvarlik, xalqparvarlik, insof, qo’li ochiqlik, homiylik, mehribonlik, islomiy axloq normalari, muloqot madaniyati, mehru muhabbat, me’yorlik, xushxulqlik, sabr va qanoatli bo’lish, adolat, to’g’rilik, samimiylik, bag’rikenglik, sadoqat, rostgo’ylik, bordoshlilik, shukronalik, hayo, halimlik, viqor, rahm-shafqat, rostgo’ylik, ochiqlik, ochiqyuzlilik, kibr va nizodan qochish, kamtarlik, yordamga tayyorlik, lozimmandalik, mehmondo’stlilik, andishalilik kabi xislatlar azal – azaldan aynan oilada tarbiya topgan komil inson xususiyatlarining oliy qadriyat namoyishi sanalgan[3]. Mana shu qadriyatlarimizning ba’zi oilalar tomonidan yetarlicha bilimga ega bo’lmaganligi, ota-bobolarimizning boy ma’naviy meroslaridan bebahraligi sababli jamiyatimizda oilaviy

ajrimlar, ota- onalarning noloyiq hatti- harakatlari sababli ulg'ayib kelayotgan o'smirlarning ruhiyatiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi albatta

Shuni afsus bilan ta'kidlash joizki, yoshlarimiz orasida ayniqsa voyaga yetmaganlar orasida tarbiyasi qiyinlik(deviant xulqlilik) holatlari uchrab turibdi. Ushbu salbiy xarakter xususiyatni shakllanishiga bir qancha oila bilan bog'liq bo'lgan omillar mavjud. Bular quyidagilar:

-ota-ona, oilasining yo'qligi(ota onasi vafot etgan yoki ota-onalik huquqidan mahrum etilib ularning farzandlari mehribonlik uylariga tarbiyalanuvchisi);

-to'liqsiz oila (otaning yoki onaning yo'qligi);

-qaram oila(ishsiz, kasbi kori mavjud bo'lmagan, ijtimoiy himoyaga muhtoj);

-deviant oila(janjalkash, huquqbuzarlik va jinoyat qilishga moyil yoki ushbu harakatlarni amalga oshirib jazo muddatini o'tab qaytganidan keyin ham tuzalish yo'liga kirmagan oila);

-oilaning past ijtimoiy mavqei;

-krizis kechayotgan oila (ajralish, moliya krizisi, bir joydan boshqa joyga ko'chish, oila a'zosining o'limi, oila a'zosining jiddiy kasallanishi);

-ijtimoiy izolyatsiya;

-tengdoshlarining qo'llab-quvatlovchi guruhining yo'qligi;

-referent ijtimoiy guruhda past shaxsiy mavqei (o'quv guruhida);

-yaqin do'stlarining yo'qligi;

-ijtimoiy band bo'lmasligi;

-muammoli ulfat(jo'ra)larning mavjudligi (og'ma xulq-atvorli)[5].

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan oila hamda ijtimoiy muhit bilan bog'liq bo'lgan omillar o'smirlarda tarbiyasi qiyinlikni keltirib chiqarmoqda. Buning oqibatida o'smirlar orasida kashandalik, o'g'rilik, maishiy buzuqlik, ijtimoiy normalarni pisand qilmaslik va boshqa bir qancha salbiy illatlar shakllanib jamiyatimizni sog'lom ma'naviy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Tarbiyasi qiyinlikni bartaraf qilish, o'smirni ma'nan sog'lom qilib tarbiyalash uchun shaxsga pedagogik psixologik bilim zarur bo'ladi.

Deviant xulqli o'smirlar bilan olib boriladigan profilaktika va tuzatish ishlari ijtimoiy psixologik xususiyatlarga ega bo'lib deviant xulqli o'smir ustida olib boriladigan ishda dastlab yakka tartibdagi ishlarni olib borish maqsadga muvofiq, chunki, guruhda o'smirlar birbiriga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu paytning o'zida oila bilan ham ishlash kerak.

Oiladagi munosabatlarning ahvolini tahlil qilib bo'lgandan so'ng, individual ish bilan birga guruhda ham ish olib borish kerak. Tuzatish ishlari olib borilganda, o'smirning ijtimoiy, ma'naviy hamda milliy qadriyatlarini, qarashlar va qobiliyatlarini hisobga olish kerakki, aynan shu mezonlar shaxsning dunyoqarashini shakllantiradi. Shaxsning bo'sh vaqtini iloji boricha foydali ishlar bilan band etib, uni ijobiy shakllanish vositalari: kitob o'qish, o'zini-o'zi takomillashtirish, uy ishlari, musiqa, sport bilan tarbiyalash kerak[6].

Shuni hisobga olish kerakki, deviant xulqli o'smirlarga nisbatan olib borilgan tarbivaviy profilaktik ishlar faqatgina o'smirlarning o'zlariga qaratilgan bolishi mumkin emas. O'smirni to'liq tuzatish uchun uning atrofidagi muhitni o'zgartirish darkor. Deviant xulqli o'smirga jamoatchilik tarafdan ta'sir qilinishi quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin: huquqiy choralar, tibbiy aralashuv, pedagogik ta'sir, ijtimoiy himoya va psixologik yordam kabilar. Deviant xulqli o'smirning og'ir fe'li va davomli illatlari sababidan tuzatish, qayta tarbiyalash ishlarini olib borishni yaxshi tashkil qilingan ijtimoiy-pedagogik va ruhiy faoliyat ketma-ketligi kabi qurish talab etiladi. Profilaktika ishlarining samarasi quyidagi belgilar darajasi bilan baholanadi: salbiy xulqning kamayishi darajasini ko'rsatuvchi obektiv belgilar va salbiy xulqning kamayishi darajasini ko'rsatuvchi subektiv o'zgarishlar hisoblanadi. Ijobiy o'zgarishlarning asosiy mezonidan biri - ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri qurishga bo'lgan ko'nikmaning shakllana boshlashidir.

Har qaysi davlat, har qaysi millat unib-o’sib kelayotgan yosh avlod timsolida shu xalqning azaliy orzu-intilishlarini ro’yobga chiqaradigan buyuk kuchni ko’radi. Mamlakatimizdagi islohotlarning asosiy ustuvor yo’nalishlardan biri ana shunday komil insonlarni tarbiyalashga yo’naltirilgan. Kelajak avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash barcha zamonlarda xalqimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri bo’lib kelgan va shunday bo’lib qoladi. Bu kabi savobli maqsad va vazifani nafaqat tarbiya bilan shug’ullanuvchi tashkilotlar, balki barcha - barchamiz o’z oldimizga asosiy maqsad sifatida qo’yishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bahriddin Umarov.- Oilaviy tarbiya saboqlari. Ilmiy-uslubiy qo’llanma. “Tasvir nashriyot uyi” Toshkent – 2019

2. Mansurov A., Ibroximov N., To’xliev N., Hasanov A.Er va ayol burchi. Saylanma hadislar. –T., 1998. – B. 39;

3. Yusupova N. Islomda ayol huquqlari.T: Islom universeteti. 2006. –B. 38;

4. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. –T. O’qituvchi, 1996, -B. 4

5. L.Ya.Olimov, A.M.Nazarov. Xulqi ogishgan bolalar psixologiyasi. O‘quv qo’llanma «Tafakkur avlodi» nashriyoti, 2020.

6. G‘aybullayev A’zam Ahadovich. (2023). Ijtimoiy psixologiyada ommaviy madaniyatni yoshlar milliy qadriyatlariga ta’sirini o‘rganish masalasi . Образование наука и инновационные идеи в мире, 14(4), 148–150. Retrieved from http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/3180

PSIXOLOGIK AXLOQIY ZO‘RAVONLIK BILAN BOG‘LIQ O‘Z JONIGA QASD QILISH MEXANIZMLARI

Ibodova Gulimehr Inoyat qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti, Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tobora rivojlanib borayotgan dunyoda umumbashariy muammo hisoblangan o‘z joniga qasd qilish, suitsidal xulq-atvor shakllari,shuningdek suitsidga olib keladigan ijtimoiy-psixologik muammolar xususida fikr yuritilgan. Suitsid psixoprofilaktikasi va psixokorreksion chora-tadbirlar JSST va shunga o‘xshash yuqori tashkilotlarning bu muammoga munosabati,takliflar,mulohazalar va yechimlar ochib berilgan. Semantik mazmun, qo‘llash shakli (oshkora yoki yashirin) va zo‘ravonlikni amalga oshirishning psixologik texnologiyasidagi farqlarni hisobga olgan holda, o‘z joniga qasd qilishning ikkita patogenetik varianti aniqlandi: «axloqiy-sadistik variant» va «induksiyalangan kvazaltristik variant» ”.

Kalit so‘zlar: suitsid,psixologik-axloqiy zo‘ravonlik,o‘z joniga qasd qilish variantlari,psix oprofilaktika,xulq-atvor buzulishlari,nazorat, ruhiy zo‘ravonlik kombinatsiyasi,motiv.

МЕХАНИЗМЫ СУИЦИДА, СВЯЗАННЫЕ С ПСИХОЛОГИЧЕСКИМ НАСИЛИЕМ

Ибодова Гулимер Иноятовна
Бухарского государственного педагогического института
Преподаватель кафедры педагогики

Аннотация: В данной статье рассматриваются самоубийства, формы суицидального поведения, а также социально-психологические проблемы, приводящие к самоубийству, которые считаются универсальной проблемой во все более развивающемся мире. Психопрофилактика суицида и психокоррекционные мероприятия. Выявлено отношение ВОЗ и аналогичных высших организаций к данной проблеме, предложения, замечания и пути решения. С учетом различий смыслового содержания, формы применения (явной или скрытой) и психологической технологии насилия были выделены два патогенетических варианта суицида: «морально-садистский вариант» и «индуцированный квазисадистский вариант».

Ключевые слова: суицид, психологическое и моральное насилие, варианты суицида, психопрофилактика, нарушения поведения, контроль, сочетание психического насилия, мотив.

MECHANISMS OF SUICIDE RELATED TO PSYCHOLOGICAL VIOLENCE

Ibodova Gulimehr Inoyat qizi
Bukhara state pedagogical institute Teacher of the department of Pedagogy

Abstract: This article discusses suicide, forms of suicidal behavior, as well as socio-psychological problems that lead to suicide, which are considered a universal problem in the increasingly developing world. Psycho-prophylaxis of suicide and psycho-corrective measures. The attitude of WHO and similar higher organizations to this problem, suggestions, comments and solutions are revealed. Taking into account the differences in the semantic content, the form of application (overt or covert) and the psychological technology of violence, two pathogenetic variants of suicide were identified: «moral-sadistic variant» and «induced quasi-sadistic variant».

Key words: suicide, psychologic and moral violence, variant suicide, psychoprophylaxis,

behavior disorder, control, psychological violence, motivation.

Kirish. Zo‘ravonlik va o‘z joniga qasd qilishning yuqumli ta’siri ostida yotgan mexanizmlar hozircha noaniq. Ijtimoiy o‘rganish, muhim boshqalar bilan identifikatsiya qilish va muayyan me’yorlarni normallashtirish rol o‘ynashi ta’kidlangan. Bu mexanizmlarning barchasi ijtimoiy yuqumli kasallikni individual, aloqador va ijtimoiy omillarning murakkab o’zaro ta’siri sifatida tushunishni talab qiladi. Ijtimoiy yuqumli kasalliklar nuqtai nazaridan nafaqat salbiy natijalarni tekshirish, balki ijtimoiy munosabatlar va xulq-atvorni rivojlantirish uchun asos sifatida foydalanish kerak bo’lsa, bu muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, zo‘ravonlik va o‘z joniga qasd qilishning mumkin bo‘lgan ta’sirini minimallashtirish uchun psixo-ijtimoiy aralashuvlar va davlat siyosati bo’yicha ko’proq tadqiqotlar talab etiladi.

Adabiyotlar tahlili

O’zbekistonda psixologik xizmatning joriy etilishi, bugungi holati va istiqbollarini o’rganishga, tahlil qilishga va izohlashga bag’ishlangan psixologik va pedagogik psixologik tadqiqotlarning olib borilishi kelajagi buyuk bo’lgan O’zbekistonimiz ravnaqi uchun kechiktirib bo’lmas davr taqozosidir. O’zbek olimlaridan E.G’.G’oziev, M.G.Davletshin, G’.B.SHoumarov, B.R.Qodirov, R.G.Gaynutdinov, V.M.Karimova va N.A.Sog’inovlarning O’zbekiston o’rta umumta’lim maktablari hamda oila tizimlarida psixologik xizmatni joriy etish borasida olib borayotgan qator nazariy-ilmiy va amaliy uslubiy ishlari Respublikamizda psixologik xizmatni joriy etish va rivojlantirish uchun ma’lum darajada asos bo’lmoqda. Zero, Respublikada psixologik xizmatga oid olib borilayotgan nazariy-ilmiy va amaliy uslubiy tadqiqotlar ko’lamiga ma’lum tartibda baho bermay turib, O’zbekistonda psixologik xizmatni yanada takomillashtirish va rivojlantirish masalasi haqida fikr-mulohaza yuritish mushkulroqdir.

Muhokama

O‘z joniga qasd qilish muammosi jahon globallashuvi davrida tobora kuchayib bormoqda. XXI asrda ham MDH va chet davlatlarda o‘z joniga qasd qilishlar soni o‘sishda davom etmoqda.Ba’zi mamlakatlarda bu milliy muammo xarakteriga ega bo‘lib, bu asosan axloqiy zo‘ravonlikning umumlashtirilishi bilan hayotning «axloqiy ekologiyasi» ning sezilarli darajada yomonlashishi bilan belgilanadi. Axloqiy zo‘ravonlikni qo‘llashning maqsadlari, vositalari va usullari, uning semantik mazmuni, uni amalga oshirishning aniq yoki yashirin psixologik texnologiyasiga qarab,tashqi sabablarga ko‘ra o‘z joniga qasd qilish (o‘z joniga qasd qilishga undash)ning ikkita asosiy variantini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Ochiq, o‘z joniga qasd qilishga undash. Ko‘pincha ko‘rgazmali-axloqiy tajovuz, jabrlanuvchining qadr-qimmatini kamsituvchi,ko‘pincha jismoniy zo‘ravonlik bilan birlashtiriladi («axloqiy-sadistik variant»).

2. Yashirin taklif. Maqsadli noto‘g‘ri ma’lumotlar va aldash, xulq-atvorni to‘liq nazorat qilish, ongsiz ta’sir qilish obyektlari, «ma’naviy o‘sish» niqobi ostida ularning shaxsiyatini behayo yo‘q qilish va asotsial o‘zgartirish va boshqa xayoliy illyuziya imtiyozlari («induktsiyali kvazi-altruistik» variant»).

Birinchi turdagi suitsidogenez o‘lim sabablarini huquqiy baholash va (yoki) o‘z joniga qasd qilishga undash masalalarini hal qilishda kriminologlar, sud-tibbiyot ekspertlari, jinoiy tergov va sudlarga yaxshi ma’lum.Keng qamrovli sud-psixologik va psixiatrik ekspertizalarni o‘tkazish bo‘yicha shaxsiy tajribamiz shuni ko‘rsatadiki, o‘z joniga qasd qilish yoki o‘z joniga qasd qilishga urinish ko‘pincha axloqiy zo‘ravonlik shaklida takroriy (tizimli) ruhiy zo‘ravonlik kombinatsiyasidan kelib chiqadi.Tahqirlash, birinchi navbatda shaxsiy qadr-qimmat , jismoniy shafqatsiz tajovuzning namoyon bo‘lishi bilan. Axloqiy jarohatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega, bu o‘z joniga qasd qilishdan oldingi og‘riqli tajribalarning tabiati va mazmunidan dalolat beradi. Shuningdek,sharmandalik, noma’qbul haqorat va jamoat oldida tahqirlash, hurmatsizlik, shaxsiy obro‘ga putur yetkazishga urunish, ma’lum guruhidagi axloqiy maqomni yo‘qotish hissi o‘z joniga qasd qilishga sabab bo‘lishi mumkin. Aynan inson qadr-

qimmatini ommaviy ravishda kamsitish, jamiyat tomonidan o‘z vaqtida himoya va qo‘llab-quvvatlanmagan ma’naviy qadriyatlar, axloqiy qarashlar va milliy urf-odatlarni masxara qilish jabrlanuvchini xavotirsizlikka, doimiy ruhiy dardga va passiv o‘zini-o‘zi izolyatsiya qilishga olib keldi.Bu ongning torayishini yanada kuchaytirdi, travmatik vaziyatdan chiqish yo‘lini izlashni cheklaydi,halokatli shafqatsiz doirani shakllantirish va halokatli tajribalarni chuqurlashtirishga olib keladi.Bunda jabrlanuvchi o‘lim to‘g‘risidagi qarorni subyektiv ravishda qabul qilishni yagona yo‘l sifatida qabul qiladi. JSST ma’lumotlariga ko‘ra, o‘z joniga qasd qilish uchun 800 ga yaqin motivlar mavjud bo‘lib, ularning aksariyati aniq mojaro xarakteriga ega va umidsizlik, tushkunlik, hayotdagi qaytarib bo‘lmaydigan buzilish, butun hayotni butunlay yo‘qotish kabi alamli tajribalar bilan potentsial va yoki haqiqiy o‘z joniga qasd qilish qurboni bilan birga keladi. Hayotning bundan keyingi ma’nosini yo‘qotish bilan intilishlar ham passivlashadi. Birinchi turdagi o‘z joniga qasd qilishning o‘ziga xos xususiyati tajovuzkor bilan travmatik o‘zaro munosabatlarning ochiq tabiati bo‘lib, bu yerda axloqiy psixologik zo‘ravonlik namoyon bo‘lishining ma’nosi va ahamiyati tajovuzkor tomonidan ham, jabrlanuvchi tomonidan ham qasddan huquqbuzarlik (fruziya) sifatida aniq qabul qilinadi. Birinchi muhim shaxsiy ehtiyojlar va ikkinchisining shaxsiy qadriyatlari. Bu ma’lum vaqt davomida jabrlanuvchiga psixologik himoyani shakllantirish, kurashish strategiyalarini qo‘llash va boshqalardan yordam so‘rash uchun virtual imkoniyat qoldiradi. Shu munosabat bilan, birinchi turdagi o‘z joniga qasd qilishning semantik sohasini tahlil qilish o‘z joniga qasd qilish uchun shaxsiy ma’nolarning (motivlarning) 5 ta asosiy umumlashtirilgan turini aniqlashga imkon berdi.

1. Norozilik. O‘z joniga qasd qilishning ma’nosi so‘nggi e’tirozni, mavjud sharoitlarga, mavjudlik shartlariga rozi bo‘lmaslikni anglatadi.

2. Ogohlantirish. Bunday holatlarda o‘z joniga qasd qilish xatti-harakatlarining ma’nosi vaziyatni istalgan yo‘nalishda o‘zgartirish uchun boshqalarning reaksiyalarini faollashtirish, jamoatchilik e’tiborini og‘ir va (yoki) adolatsiz shaxsiy holatlarga jalb qilish, o‘zini o‘zi tiklash, o‘limdan keyin o‘ziga nisbatan rahm-shafqatni shakllantirish va tavba qilishdir.Atrofdagilar orasida mehr qozonish.

3. Qochish. O‘z joniga qasd qilish xulq-atvorining ma’nosi o‘zini shaxs, ijtimoiy va biologik shaxs sifatida mavjudligiga chidab bo‘lmaydigan tahdiddan, kutilayotgan muqarrar azoblardan, yo‘qotishlardan, jismoniy va ruhiy azoblardan xalos qilishdir.

4. O‘z-o‘zini jazolash. Ushbu turdagi o‘z joniga qasd qilishning ma’nosi turli xil tuslarga ega: «o‘z ichidagi dushmanni yo‘q qilish» yoki «aybni to‘lash». Ularning umumiy formulasi: «Men o‘zimni hech qachon kechirmayman».

5. Rad etish. O‘z joniga qasd qilish xulq-atvorining ma’nosi - vaziyatga to‘liq taslim bo‘lish, chidab bo‘lmas vaziyatda mavjud bo‘lishdan bosh tortish, ko‘pincha dunyoga har qanday yomonlik manbaai sifatida munosabatni global qayta ko‘rib chiqish, yaxshi mavjudlikdan xalos bo‘lish. Boshqa fenomenologik manzara va uning rivojlanish mexanizmlari ikkinchi turdagi o‘z joniga qasd qilishda sodir bo‘ladi - totalitar sektalar tarafdorlari uchun xos bo‘lgan «induktsiya qilingan kvazaltruistik variant». Ushbu barcha holatlarda, ushbu turni ishonchli ravishda farqlash imkonini beradigan quyidagi asosiy atributiv xususiyatlar yuzaga keldi.

1. Konfliktsiz ong va o‘lim holatlari.

2. Mazhabning xarizmatik yetakchisi tomonidan o‘z ongini qattiq nazorat qilishni bilmaslik, buning uchun jamiyatda qo‘llaniladigan ularning ongi, tafakkuri, his-tuyg‘ulari va xatti-harakatlarini manipulyatsiya qilishning psixologik texnikasi (texnologiyasi)ning asl ma’nosini tushunmaslik.

3. Haqiqatga, o‘z shaxsiyatidagi buzg‘unchi o‘zgarishlarga tanqidiy munosabatning chuqur buzilishi.

4. O‘zining aqliy tartibga solish jarayonlarini aks ettirishni yo‘qotish, o‘z xatti-harakatlarini mustaqil ravishda boshqarish, mustaqil muhim qarorlar qabul qilish va harakatlarni amalga


oshirish qobiliyati. Shunday qilib, psixologik, birinchi navbatda, axloqiy zo‘ravonlik, uni amalga oshirishning ochiq yoki yashirin shakliga qarab, o‘z joniga qasd qilishning ikkita patogenetik turini aniqlaydigan ikkita tubdan farq qiladigan o‘z joniga qasd qilish mexanizmida namoyon bo‘lishi mumkin: «axloqiy-sadistik variant» va «induktsiya qilingan kvazi» -altruistik variant.» Ularning farqlanishi beqiyos miqyosdagi turli xil xavf-xatarlar, turli xil profilaktika va profilaktika vositalari, tugallanmagan o‘z joniga qasd qilgan shaxslarni birlamchi oldini olish va reabilitatsiya qilishning tubdan farqli usullari tufayli muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. XX asrimizning boshlarigacha bo‘lgan davrda o‘z joniga qasd qilish hodisasini o‘rganish bir qancha yo‘nalishlar bo‘yicha olib borilgan bo‘lib, bu yo‘nalishlarning deyarli barchasi suitsidni tushuntirishda bir yoqlamalikka asoslangan nazariyalarni o‘rtaga tashlaydi. Masalan, suitsidni o‘rganishning sotsiologik yo‘nalishdagi nazariyasi namoyondalari (asoschisi E.Dyurkgeym) o‘z joniga qasd qilish xulqi faqatgina ijtimoiy muhit ta’siri natijasida yuzaga keladi deb hisoblab, suitsidial xulqning keltirib chiqaruvchi boshqa (psixologik, patologik, biologik) omillarni ko‘ra bilmaydilar. Bu yo‘nalishning asoschisi hisoblangan E.Dyurkgeym o‘zining 1897- yilda chop etilgan “O‘zini-o‘zi o‘ldirish” nomli asarida “O‘z joniga qasd qilish psixik yoki organik kasalliklar natijasida bo‘lmay, balki shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarining izdan chiqishi yoki buzilishi mahsulidir”; – deb ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra suitsidni yuzaga keltiruvchi va sabablarni shaxsning ruhiy va individual psixologik xususiyatlaridan emas balkim, jamiyatdan, undagi ijtimoiy muhitdan izlash kerakdir. Uning ta’kidlashicha o‘z joniga qasd qilish ijtimoiy hodisa bo‘lib, uning miqdori har bir jamiyatda individga ta’sir qiluvchi “jamoa” kuchi bilan boshqariladi va bu kuchning faolligi jamiyatda amal qilinadigan institutlar (oila, davlat, partiya va boshq.) tili bilan belgilanadi. Ya’ni suitsid ko‘lami ijtimoiy tizimning “noinsoniy” strukturasi bilan bog‘liqdir.

Natijalar

Shaxslararo nizo muammosining maktab psixologi faoliyatining obyekti sifatida qo’yilishi mantiqan shaxslararo nizolarning o’smirlar shaxsliligi rivojlanishidagi rolini tan olish printsipidan hamda o’smirlar muhitidagi nizolarni maktab psixologi faoliyatiga kiritish zaruratidan kelib chiqadi. O’smirlar nizolilik darajasini hamda ularni nizoli xatti-harakatlarining shakl va xarakterini inobatga olgan holda psixologik korrektsiyasi dasturini maktab psixologi tomonidan qo’llash samaradorligini o’rganish maqsadida empirik tadqiqotning umumiy tanlovi (n=172) nazorat va eksperimental guruhga ajratildi. Eksperimental guruhga 10 yoshdan 15 yoshgacha bo’lgan (o’smir o’gil va qiz bolalar) 98 nafar o’smir, shunga ko’ra nazorat guruhiga xuddi shu o’rtacha yosh davri va jinsiy kategoriyadagi 74 nafar o’smir kiritildi. Eksperimental guruhdagi o’smirlar 11 oy davomida o’smirlar nizolilik darajasini ularning nizoli xatti-harakatlarining shakl va xarakteri inobatga olingan psixologik korrektsiya dasturi doirasida mashg’ulotlarda ishtirok etish uchun jalb 56 etilgan. Nazorat guruhi o’smirlari yuqorida keltirilgan dasturdagi mashg’ulotlarga jalb etilmagan bo’lib, bu bizga keyinchalik maktab psixologining psixokorrektsion ishlarining nizolik darajasi hamda o’smirlarning nixoli xatti-harakatlarining shakl va xarakteriga ta’sirini aniqlash imkoniyatini berdi. Maktab psixologining o’smirlarning nizoli xatti-harakatlarining shakl va xarakterini o’rganishning eksperimental anketa so’rovi yordamida psixokorrektsion ishlargacha bo’lgan tekshiruvi natijalarini ko’rsatishicha, eksperimental va nazorat guruhi o’smirlarining diagnostik shkalalar bo’yicha ko’rsatgichlari bir-biridan farq qilmaydi, ya’ni ahamiyatli farqlarga ega emas. Bunda, nizolilik darajasi o’rtadan yuqori bo’lgan eksperimental guruhning o’smirlari soni (82,3% - 81 nafar o’smir) nazorat guruhidagi nizoli o’smirlar sonidan (80% - 54 nafar o’smir) ozgina ko’proq. O’z navbatida ushbu kategoriyada maktab jamoasida tengdoshlari va o’qituvchilariga nisbatan nizoli vaziyatlar tez-tez kuzatilib, bu o’zlashtirish va o’quv muassasasining davomatida salbiy aks etadi. Bu o’smirlar oila ichidagi shaxslararo munosabatlarda ota-onalari bilan bo’lgan muloqotda nizoli vaziyatlar bilan birgalikda kechuvchi qiyinchiliklarni his etishadi. Ushbu o’smirlar odatda, tengdoshlari bilan aloqalarda qiyinchiliklarni his etishadi va o’zlarining

yolg'izliklarini azobli boshdan kechirishadi. Eksperimental (87,3% - 86 nafar o'smir) va xuddi shunday, nazorat guruhidagi (87,1% - 58 nafar o'smir) aksariyat o'smirlar nizoli hulq-atvorning verbal shaklining o'rtadan yuqori darajasiga ega ekanliklari va shaxslararo nizolar sharoitlarida faollikning verbal shakli ustivorlik qilishi kuzatiladi. Bilvosita nizoli xatti-harakatlar eksperimental guruhning 79,5% (78 nafar o'smir) o'smirlarida va nazorat guruhida esa 68,6% (46 nafar o'smir) o'smirlarida kuzatiladi. Ushbu kategoriyadagi o'smirlarda nizoli xatti-harakatlar nizoli vaziyatlar sharoitida opponentning predmetli yoki ijtimoiy qurshovga ustunlikda yo'nalgan, opponentlarning biryoqlama yoki ikkiyoqlama faolliklari bilan xarakterlanadi. O'z navbatida eksperimental guruhning 4,1% (4 nafar o'smir) va nazorat guruhining 12% (8 nafar o'smir) o'smirlariga bevosita nizoli vaziyat ob'ektiga yo'naltirilgan, birmuncha bevosita nizoli xatti-harakatlarni qabul qilishar ekan. Shu bilan birga verbal bevosita nizoli xatti-harakatlar o'rtacha 70% o'gil va 50% qiz jinsidagi o'smirlarda kuzatiladi. Bilvosita verbal nizoli xatti-harakatlar ko'pincha qizlarda(atigi 40% holatlardagina) o'smirlarga nisbatan o'gil bolalarda(75%) o'smirlarda tez-tez kuzatiladi. Bevosita noverbal nizoli xattiharakatlar o'rtacha o'gil bola75% o'smirlarda kuzatilgan bo'lsa, faollikning ushbu shakli qiz bola o'smirlarning 30% da kuzatigan.

Biz ushbu tadqiqot doirasida ilgari o'tkazgan nizoli vaziyatlarda turli xil tipdagi xarakterdagi o'smirlar xulq-atvorlari tasniflarini o'rganishda ham o'smirlar jinsiy farqlanishlarini inobatga olgan holda o'smirlarning nizoli xatti-harakatlarining shakl va xarakterini ifodalanishining o'rtacha xuddi shunday o'zaro nisbati kuzatilgan. Qiyosiy tahlil o'tkazish maqsadida biz umumiy tanlovdagi (eksperimental va nazorat guruhlar) o'smirlarni nizoli xatti-harakatlarning shakl va xarakterlarini o'rganishning eksperimental anketa so'rovnomasi yordamida maktab psixologining psixokorrektsion ishlaridan so'ng tekshirib chiqdik. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, uchala diagnostik shkalalar bo'yicha eksperimental va nazorat guruhlarini inobatga olganda jiddiy 59 farqlarga ega. Ishlab chiqilgan dastur bo'yicha maktab psixologining psixokorrektsion ishlari natijasida eksperimental guruhning 30,6 % (30 nafar o'smir) o'smirida nizolilik darajasining ko'rsatgichi o'rta darajaga, 69,4% (68 nafar o'smir) da esa o'rtadan past darajaga pasaydi.



Xulosa. Shuni alohida inobatga olib aytishimiz mumkinki,suitsid kecha yoki bugun paydo bo‘lgan muammo emas. Har bir davrda, har qaysi jamiyatda o‘z joniga suiqasd qilish turli sabablarga va ijtimoiy ta'sirlarga borib taqalishi shubhasiz. Bu muammo sotsiologiya,

kriminologiya va shunga o‘xshagan turli fan tarmoqlarida salmoqli o‘rganilmoqda jumladan, psixologiya fanlarida ham bu mavzu juda dolzarb va eskirmasdir. Ma’lumki, bugungi kunda farzandarimizning ma’naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi biz uchun eng dolzarb vazifa bo’lib qolmokda. Shu sababli yoshlar o’rtasida sog’lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, ularning giyohvandlik, chetdan kirib kelayotgan har xil zararli ta’sirlardan, “Ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi tahdid va xatarlardan asrash masalalari bir zum ham e’tiborimizdan chetda qolmasliklari zarur. Har bir shaxs o’z davriga xos muayyan ijtimoiy munosabatlar egasi hamda unga jamiyat tomonidan ko’rsatiladigan ko’plab iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy ta’sirlarning ob’ekti hisoblanadi. Ma’lumki, har qanday jamiyat o’z a’zolariga nisbatan insonparvarlik munosabatlarida bo’lishga intiladi va uning maqsadi insonning o’zini o’zi namoyon qilishga, o’zini o’zi tasdiqlashga, o’zining shaxs sifatida jamiyat tomonidan tan olinishi ehtiyojini amalga oshirish imkoniyatlariga yo’l ochib berishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Borodin S.V. O‘z joniga qasd qilishga undaganlik uchun jinoiy javobgarlik. – M., 1986.
2. Kudryavtsev I.A. Keng qamrovli sud-psixologik va psixiatrik ekspertizasi. – M.: Moskva davlat universiteti nashriyoti, 1999. – 457 b.
3. Polishchuk Yu.I. Psixiatriyadagi ruhiy o‘lchov. – M.: 2010.- 142 b.
4.To‘laganova G.K. Deviant xulq psixokorreksiyasi. T. 2015.y.
5.L.Ya.Olimov,O.R.Avezov, E.S.Eshov Deviant xulq-atvor psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Buxoro-2017.-58 b.

XAVOTIR VA QO‘RQUV BOLALAR VA O‘SMIRLARDA IJTIMOIY VA EMOTSIONAL BUZILISHLAR OMILI SIFATIDA

Buxoro davlat Pedagogika institute
Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
Karimova Maftuna To‘ra qizi

ANNOTATSIYA: Xavotir-individual psixologik xususiyat hisoblanib insonning ma`lum bir sabablarga yoki hech qanday sabablarsiz ham tashvishlanish xususiyatidir. Xavotir va qo‘rquv har bir rivojlanish davrida bo‘lgani kabi bolalar va o‘smirlar hayotida ham juda muhim jarayondir. Bolalik va o‘smirlik davrlarida eng ko‘p o‘zgarishlar yuzaga keladigan davr hisoblanadi, shu jumladan: aqliy, jismoniy, ruhiy jihatdan o‘zgarishlar kuzatiladi. Ushbu maqolaning maqsadi, bolalar va o‘smirlar hayotida tez-tez uchraydigan xavotir va qo‘rquv jaroyonida yuzaga keladigan emotsional va ijtimoiy buzilishlar va ularning yechimlarini o‘rganishdir. Maqola bolalik va o‘smirlik davrlarida yuzaga keladigan xavotir va qo‘rquv jarayonlari ularning sabablari va xususiyatlari ularni yengish usullari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarga asoslangan adabiyotlarni o‘rganish asosida olib boriladi.

Kalit so‘zlar: Xavotir, qo‘rquv, emotsional, ontogenez, qo‘rquv hissi, psixik taraqqiyot, hissiy noqulaylik, jismoniy zararlar

ТРЕВОГА И СТРАХ КАК ФАКТОР СОЦИАЛЬНО-ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ РАССТРОЙСТВ У ДЕТЕЙ И ПОДРОСТКОВ

Преподаватель кафедры педагогики
Бухарского государственного педагогического института
Каримова Мафтуна Тураевна

АННОТАЦИЯ: Тревога рассматривается как индивидуально-психологическая характеристика и является свойством человека волноваться по определенным причинам или без каких-либо причин. Тревога и страх – важные процессы в жизни детей и подростков, как и в любой период развития. Детство и подростковый возраст — это периоды, когда происходит наибольшее количество изменений, в том числе: психических, физических и духовных изменений. Целью данной статьи является изучение эмоциональных и социальных нарушений и способов их решения, возникающих на фоне тревоги и страха, которые распространены в жизни детей и подростков. Статья подготовлена на основе обзора литературы, основанного на исследованиях причин и особенностей процессов тревоги и страха, возникающих в детском и подростковом возрасте.

Ключевые слова: Тревога, страх, эмоциональный, онтогенез, чувство страха, психическое развитие, эмоциональный дискомфорт, физическое повреждение.

ANXIETY AND FEAR AS A FACTOR OF SOCIAL AND EMOTIONAL DISORDERS IN CHILDREN AND ADOLESCENTS

Karimova Maftuna To‘ra qizi
Teacher of Bukhara Pedagogical Institute

ABSTRACT: Anxiety is considered as an individual psychological trait and it is the characteristic of a person to worry for certain reasons or without any reasons. Anxiety and fear are a very important process in the life of children and adolescents, as in any developmental period. Childhood and adolescence are the periods when the most changes occur, including: mental, physical, and spiritual changes. The purpose of this article is to study the emotional and social disorders and their solutions that occur in the course of anxiety and fear, which

are common in the lives of children and adolescents. The article is based on the study of the literature based on research on the causes and characteristics of anxiety and fear processes that occur in childhood and adolescence.

Keywords: Anxiety, fear, emotional, ontogenesis, feeling of fear, mental development, emotional damage, physical damage.

KIRISH. Bolalik davri psixologik jihatdan balog`atga yetishgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davr bolaning shaxs sifatida ulg`ayish, uning kishilik jamiyatining haqqoniy azosiga aylanishi davri hisoblanadi. Bolalik bu inson hayotidagi eng beg`ubor va yorqin xotiralarga boy davr hisoblanadi. Har bir narsa hayajonli, qiziqarli, betakror bo‘lib tuyiladi. Xuddiki har bir qilingan orzu amalga oshayotgandek. Lekin har bir bola har xil sharoitda katta bo‘ladi. Bu jarayonda beg`ubor bolalik bilan bir qatorda noxush vaziyatlar ham uchrashi tabiiy hol. O‘smirlik davri bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib fizologik va psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatdir. Bu bosqichda bolaning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi. Hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangiliklarga bo‘lgan intilishlari ortadi, o‘ziga xos bo‘lgan xarakter shakillanadi, ma`naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladigan muhim bir davr hisoblanadi. Bundan tashqari o‘smirlikka xos bo‘lgan xususiyatlardan yangicha his tuyg`ular sezgilar va jismoniy hayotga taaluqli bo‘lgan vaziyatlar paydo bo‘la boshlaydi.

ASOSIY QISM

Xavotir va qo‘rquv muhim psixologik jarayonlar hisoblanadi. Inson shakillanishi davomida har bir yosh davrini o‘tar ekan bu davrlarning barchasida qo‘rquv va xavotir o‘z ta`sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Ayniqsa inson shakillanishining asosiy bosqichlari hisoblangan bolalik va o‘smirlik davrlarida bu jarayon shakillana boshlaydi. Qo‘rquv-bizni xavli signal bilan ta`minlaydigan hissiyotdir. Bu signalga javoban biz darhol o‘zimizni ehtiyot qilish rejimiga o‘tamiz. Shuningdek, xavotir insonning yangi sharoitlarga moslashishiga yordam beruvchi, shaxsning ma’naviy kamolotini yuqori darajaga ko‘tarishga turtki bo‘luvchi shaxsning omon qolishi ya`ni o‘zini himoya qilishi va uning naslining davom etishi uchun zarur bo‘lgan normal reaksiyadir. Qo‘rquv va xavotir asosan quyidagi vaziyatlarda paydo: kuchli og`riq beruvchi jismoniy zararlar, daxshatli voqealarning guvohi bo‘lish, tibbiy yordam talab qiladigan og`ir kasallikalarni boshdan kechirish, oilada kelishmovchilik, zo‘ravonlik holatlarida, stresli vaziyatlarda, yangi joyga ko‘chish vas hu kabi boshqa salbiy voqealar ruhiyatga eng ko‘p zarar yetkazuvchi omillardan sanaladi. Kattalardek fikrlash salohiyatiga ega bo‘lmagan bolalar uchun bu jarayon qiyin kechadi.

Bolalarda qo‘rquv va xavotir jarayonlarining yuzaga kelishiga yana bir sabablardan biri oiladagi muhit hisoblanadi. Bolalarga o‘ta qattiqqo‘lllik qilish ham ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini so‘ndiradi. Bu holatga tushgan bolalar yaqqol ko‘zga tashlanadi, ular tortinchoq odamlarga qo‘shila olmaydigan, o‘z qobig`iga o‘ralib olgan bolalardek katta bo‘ladi. Bumdan tashqari bolalar jazodan, hayvonlardan, turli xil og`riqlardan qo‘rqishadi. Bola maktabga borishni boshlashi bilan yangi hayot faoliyati yani muhitga moslashishi kerak. Bola hayotida maktabga borgandan so‘ng juda katta burilish yuz beradi yani turli xil mahsulotlar yuklanadi darslar vazifalar bolalar o‘rtasida turli xil kelishmovchiliklar bolada qo‘rquv va xavotirni keltirib chiqaradi.

A.M.Prixojanning takid-lashicha xavotirlanish - bu muammoni tushinish bilan bog‘liq bo‘lgan hissiy noqulaylik, yaqinlashib kelayotgan xafni oldindan bilish bilan bog‘liq. Xavotirlanish hissiy holat sifatida va barqaror xususiyat yoki temperament sifatida ajralib turadi. A.S.Nematov tarifiga ko‘ra xavotirlanish bu odamng doimiy yoki situatsion ravishda nomoyon bo‘ladigan xususiyati bo‘lib, xavotirlanishning kuchayishi muayyan ijtimoiy vaziyatlarda qo‘rquv va xavotirni boshdan kechiradi.

Xavotir shaxsning ontogeneziga ham ta’sir qiladi, uning bir necha xil ko‘rinishlari mavjud.

Bu o‘tmish bugun va kelajak bilan bog‘liq xavotirlanishdir . O‘tmish bilan bog‘liq xavotir aynan ota -ona yaqinlar bolalik jarayoni bilan bog‘liq xavotirdir. O‘tmishdagi tasavvurlar natijasida o‘smir ko‘proq odamlar e’tiborining markazida bo‘lishni uni tan olishlari istagi tufayli xavotirga duch keladi. Bundan tashqari o‘smirlik davrida yosh davriga bog‘liq bo‘lgan bir qancha muammolar yuzaga keladi. O‘smirlar orasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar, kelajakda o‘zini qaysi kasbda tasavvur qilishi va bunga erishish jarayonidagi qiyinchiliklar ham uni xavotirlanishiga qo‘rquv jarayoning paydo bo‘lishiga sababdir. Xavotir buzilishi o‘simirda eng ko‘p uchraydigan holatlardan biridir. Xavotir buzilishining asosiy belgilariga « haddan tashqari qo‘rquv», « tashvish» dir. Yuqoridagi asosiy alomatlar barcha tashvish buzilishlarida mavjud. Xavotir buzilishlari bir - biridam boshdan kechiradigan alomatlar uni keltirib chiqaradigan omillar bilan farqlanadi. Xavotir buzilishlarida jismoniy alomatlar ham yuzaga kelishi ham mumkin: mushaklarning kuchsizlanishi, bosh aylanishi, uyqusizlik, nafas olishda qiyinchilik, yurak urishing sekinlashishi, qorin og‘rig‘i, qusish diareya va boshqa alomatlarni ketirib chiqarishi mumkin. Bu davrida o‘smirlar o‘zizga ishonmaydi, o‘zini past baholaydi, o‘zing salbiy xususiyatlariga etibor beradi, kelajakka umidsiz qarash va o‘z qobiliyatlariga baho bera olmaslikka duch keladi.

XULOSA

Bunday jarayonda albatta o‘smirlarga sport bilan muntazam shug‘ullanish, kelajak uchun aniq maqsadlar qo‘yish, o‘zi sevgan mashg‘uloti bilan shug‘ullanish o‘smirlar uchun muhim va samarali qo‘rquv va xavotirni kamaytirish ularni nazort qilishning eng yaxshi usullaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Захаров А.И. Как преодолеть страх у детей. М.:1986
2. Ситникова А.С. Детские страхи [Электронный ресурс].
3. Кряжева Н.Л. Развитие эмоционального мира детей. Популярное пособие для родителей и педагогов. – Ярославл: Академия развития, 1996.
4. “ Psixologik xizmat ” Toshkent-2014. Z.T.Nishonova, SH.T.Alim-baeva, M.V.Sulaymanov.
5. Do‘stmuhamedova SH.A., Nishonova Z.T. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: Fan va texnologiyalar, 2013

ПАТРИОТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ НЕОРГАНИЗОВАННОЙ МОЛОДЕЖИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ

Қаршиева Дилафруз Суюновна
доктор психологически наук(DSc),доцент
Ташкентский государственный педагогический университет,
доктор психологических наук(DSc)
(Статья написана в рамках проекта “Об организации научно-практической лаборатории «Life-коучинг» по оказанию психологических услуг неорганизованной молодежи”)

PATRIOTIC EDUCATION OF UNORGANIZED YOUTH IN MODERN CONDITIONS

Karshieva Dilafruz Suyunovna
Doctor of Psychology (DSc), Associate Professor Tashkent State Pedagogical University
(The article was written within the framework of the project “On the organization of the scientific and practical laboratory «Life coaching» for the provision of psychological services to unorganized youth”)

ZAMONAVIY SHAROITDA UYUSHMAGAN YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH

Qarshiyeva Dilafruz Suyunovna
Toshkent davlat pedagogika universiteti, psixologiya fanlari doktori (DSc)
Maqola uyushmagan yoshlarga psixologik xizmatlar ko’rsatish bo’yicha «Life-Coaching» ilmiy-amaliy laboratoriyasini tashkil etish to’g’risida « loyihasi doirasida yozilgan)

Аннотация. В статье автор анализирует актуальную проблему разрешения фундаментального противоречия современного узбекского общества — обозначившийся теоретический и инструментальный разлом между необходимостью модернизации всех сфер жизни и онтологической потребностью сохранения и преумножения культурно-исторического наследия и национальной индивидуальности Узбекистана.
Ключевые слова: молодежь, патриотизм, гражданственность, воспитание

Abstract. In the article, the author analyzes the urgent problem of resolving the fundamental contradiction of modern Uzbek society — the identified theoretical and instrumental gap between the need to modernize all spheres of life and the ontological need to preserve and enhance the cultural and historical heritage and national identity of Uzbekistan.
Key words: youth, patriotism, citizenship, education

Annotatsiya. Maqolada muallif zamonaviy o’zbek jamiyatining fundamental qarama — qarshiligini hal qilishning dolzarb muammosini-hayotning barcha sohalarini modernizatsiya qilish zarurati va O’zbekistonning madaniy-tarixiy merosi va milliy individualligini saqlash va ko’paytirishning ontologik zarurati o’rtasidagi nazariy va instrumental nosozlikni tahlil qiladi.
Kalit so’zlar: yoshlar, vatanparvarlik, fuqarolik, tarbiya

(Основным противоречием современного узбекского общества становится противоречие между необходимостью модернизации всех сфер жизни и необходимостью сбережения культурно-исторического наследия Узбекистана и сохранение ее национальной индивидуальности. В начале нового тысячелетия это противоречие осознается в различ-

ных дискурсах как проблема, без решения которой дальнейшее развитие узбекского общества будет затрудненным. Вместе с тем вопрос об исторической судьбе Узбекистана традиционно «прорастает» в общественном сознании, мышлении профессиональных экспертных сообществ как проблема выбора исторического пути развития. В рамках решения данного противоречия важно обращать внимание на работу со всеми возрастными группами, но самое большое внимание следует уделять патриотическому развитию подрастающего поколения, в частности молодежи, и делать ставки на качественное развитие их гражданственности и патриотизма, что окажет влияние на формирование образов будущего страны. В этой связи особо остро стоит вопрос воспитания и развития гражданственности и патриотизма. Патриотизм — понятие более духовного плана, это чувство уважения к своим предкам, любовь к своим землякам, а также проявление терпимости ко всем проживающим на данной территории, желание помогать им, отучать от всего дурного [1, с. 45]. Гражданственность же — это конкретное нравственное понятие, которое выражается в том, что личность с развитой гражданственностью обладает способностью пользоваться своими правами и исполнять свои обязанности как в личных интересах, так и на благо общества [3, с. 32].

Если патриотизм выражает отношение личности к своей Родине, к ее историческому прошлому и настоящему, то гражданственность связана с принадлежностью человека к тому или иному народу и его политической активностью. Личность, у которой развита гражданственность, может мыслить и действовать государственно, что будет выражаться в осознании своей причастности к Родине, ее народу, своим истокам и корням. В этой связи, анализируя аспекты патриотического воспитания молодежи в современных условиях, стоит отметить, что в рамках существующего содержания патриотического воспитания рассматриваются этические, правовые, политические, экономические, экологические и другие вопросы. Формирование гражданственности — одно из основных направлений работы с молодежью по патриотическому воспитанию.

Shu bilan birga, harbiy xizmatchi tabiatan harbiy mehnat sub’ekti, shaxs, shaxs va individuallik sifatida o’ziga xos makro xususiyatlariga ega bo’lgan yaxlit hodisa sifatida namoyon bo’lishini hisobga olish muhimdir. Uning faoliyatining har bir ko’rinishida ehtiyojlar tizimi taqdim etiladi, ammo boshqa ierarxiyada. Natijada, harbiy kasbiy faoliyat ob’ektlari bilan o’zaro aloqada bo’lganida, u nafaqat ularning xususiyatlarini, balki o’zini ham o’rganadi. Bu bilimlarning natijalari uning tajribasida qayd etilgan. Har qanday ehtiyojni qondirish zarurati tug’ilsa, harbiy xizmatchi o’z tajribasiga tayanib, o’z faoliyatini unga erishishga imkon beradigan vositalarni izlashga yo’naltiradi. Ob’ektning xossalari to’plami bunday kelib chiqish faoliyatning ongli motivlaridir. xodimlarning hayotiy faoliyati, ayniqsa yashash paytida harbiy xizmatchining faoliyati ehtiyojni qondirishga qaratilgan bo’lib, ushbu ehtiyojning predmeti hisoblanadi. Natijada, harbiy faoliyat sharoitlarini shakllantiruvchi ob’ektlar shaxsiy ehtiyoj ob’ektiga aylanadi

Harbiy kasbiy faoliyatda namoyon bo’ladigan yana bir omil - bu motiv. Shu bilan birga, harbiy psixologlar harbiy faoliyatning ko’p motivli ekanligidan kelib chiqadilar, ya’ni. ko’plab motivlar, ularning ierarxiyasi bilan turtki bo’ladi. Etakchi motivlar asosan faoliyat yo`nalishini belgilaydi. Ammo bu, dastlab motivatsion kuchga ega bo’lmagan ba’zi vaziyatlarda unga ta’sir qilishni istisno qilmaydi. Boshqacha qilib aytganda, harbiy faoliyat jarayonida uni turtki beruvchi motivlar ierarxiyasi o’zgarishi mumkin. Bu, qoida tariqasida, faoliyat harbiy xizmatchilarning qiymat yo’nalishlari tizimida etakchi o’rinlarni egallamaydigan motivlar bilan qo’zg’atilganda sodir bo’ladi.

Maqsad va motiv o’zaro bir-biriga aylanadi. Misol uchun, ilgari motiv tomonidan boshqarilgan maqsad vaqt o’tishi bilan mustaqil kuchga ega bo’ladi, ya’ni o’zi motivga aylanadi. Motivlar bor harbiy xizmatchilarning shaxs sifatidagi asosiy farqlari ijtimoiy ehtiyojlarning miqdoriy va sifat ko’rsatkichlarida namoyon bo’ladi. Harbiy xizmatchining shaxsiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo’lsa, uning ijtimoiy aloqalari shunchalik ko’p bo’ladi, bu uning ijtimoiy ehtiyojlari, ijtimoiy faolligi va faoliyati qanchalik boy bo’lishini anglatadi.

Professional askarning tizimni tashkil etuvchi omili - bu uning ideal qiyofasi bo’lgan maqsad tadbirlar Shu bilan birga, harbiy xizmatchi tabiatan harbiy mehnat sub’ekti, shaxs, shaxs va individuallik sifatida o’ziga xos makro xususiyatlariga ega bo’lgan yaxlit hodisa sifatida namoyon bo’lishini hisobga olish muhimdir. Uning faoliyatining har bir ko’rinishida ehtiyojlar tizimi taqdim etiladi, ammo boshqa ierarxiyada. Natijada, harbiy kasbiy faoliyat ob’ektlari bilan o’zaro aloqada bo’lganida, u nafaqat ularning xususiyatlarini, balki o’zini ham o’rganadi. Bu bilimlarning natijalari uning tajribasida qayd etilgan. Har qanday ehtiyojni qondirish zarurati tug’ilsa, harbiy xizmatchi o’z tajribasiga tayanib, o’z faoliyatini unga erishishga imkon beradigan vositalarni izlashga yo’naltiradi. Ob’ektning xossalari to’plami bunday kelib chiqish faoliyatning ongli motivlaridir

Shunday qilib, harbiy xizmatchi, boshqa har qanday shaxs kabi, ob’ektiv ravishda atrof-muhit bilan o’zaro munosabatlarda faol bo’lishga va harbiy xizmat bilan ifodalanadigan muayyan faoliyatda o’zini amalga oshirishga moyildir. Bu uning hayotining sharti. Uning harbiy faoliyatdagi faolligini cheklashga bo’lgan har qanday urinish, ma’lum bir bosqichda tashqi dunyo bilan o’zaro munosabatlarning yangiligini izlash psixologik noqulaylik, shaxsiy zo’riqishning kuchayishiga olib keladi va uning etakchi tarkibiy qismlarining ajralmas faoliyatiga salbiy ta’sir qiladi.

Xulosa: Harbiy xizmatga kadrlar tayyorlashda kasbiy yo'l-yo'riq berish masalalari o'ziga xos psixologik o'ziga xoslikka ega, uning asosini kontseptsiyaning o'zi - davlat xizmatining turlaridan biri bo'lgan davlat harbiy xizmati tashkil etadi. Masalan, davlat xizmatchisining o'ziga xos xususiyati shundaki, harbiy xizmatchi, bir tomondan, qurol ishlatish huquqiga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, agar kerak bo'lsa, qo'mondonning buyrug'i bilan o'z vazifalarini bajarishi shart. oxirigacha harbiy burch.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda psixologik xizmat Darslik,"KAMOLOT" nashriyoti, 2023 yil. 332 bet.
2. Avezov O.R. Ta'lim- tarbiya jarayonida agressiv xulqli bolalar ota- onasi bilan ishlashning o'ziga xos psixologik jihatlari. "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish sharoitida shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishning falsafiy omillari" //Respublika ilmiy–amaliy anjumani materiallari// Farg'ona, 2017 y. B. 248-251.
3. Avezov O.R. Mutaxassislikka kirish. Darslik,"Durdona" nashriyoti, 2021 yil. 243 bet.
4. SH.R. Barotov, Avezov O.R., L.YA. Olimov. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. "O'zbekiston faylasuflari jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2019 yil. 492 bet.
5. A.M. Nazarov, Avezov O.R. L.YA. Olimov. Shaxs psixologiyasi. Darslik. "Durdona" nashriyoti Buxoro. 2019 yil. 340 bet.

MONOZIGOTA VA DIZIGOTA EGIZAKLARNI FARQLASHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Toyirova Shahlo Izatovna
Buxoro Pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi katta o’qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada Monozigota va dizigotali egizaklarning bir-biridan farq qiluvchi psixologik determinantlari ilmiy-nazariy jihatdan ochib berilgan bo’lib, aynan egizaklarning o’ziga xos xususiyatlari sifatida tadqiqotni o’tkazish natijasida olingan xulosalarda aks ettirgan.

Tayanch tushuncha: Monozigota, dizigota, biologiya, patologiya, kognitiv, intellektual, destruktiv, fiziologik, ijtimoiy, maskulinizm-feminizm, serjahillik, jizzalik, ekstroversiya va introversiya.

PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF DIFFERENTIATION OF MONOZYGOTIC AND DIZYGOTIC TWINS

Abstract: In this article, the different psychological determinants of monozygotic and dizygotic twins are revealed from a scientific and theoretical point of view, and they are reflected in the conclusions obtained as a result of conducting research as the unique characteristics of twins.

Keyword: Monozygous, dizygous, biology, pathology, cognitive, intellectual, destructive, physiological, social, masculinism-feminism, intelligence, anger, extroversion and introversion.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ДИФФЕРЕНЦИАЦИИ МОНОЗИГОТНЫХ И ДИЗИГОТНЫХ БЛИЗНЕЦОВ

Аннотация: В данной статье с научной и теоретической точки зрения раскрываются различные психологические детерминанты монозиготных и дизиготных близнецов, которые отражены в выводах, полученных в результате проведения исследований, как уникальных характеристик близнецов.

Ключевое слово: Монозигота, дизигота, биология, патология, когнитивная, интеллектуальная, деструктивная, физиологическая, социальная, маскулинизм-феминизм, интеллект, гнев, экстраверсия и интроверсия.

Egizaklarga bo’lgan qiziqish 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida fanda juda xarakterli hodisa edi. Tadqiqotchi olimlar egizaklarning biologiyasi, patologiyasi, kelib chiqishi va boshqalarni o’rgandilar. O‘sha davrning ko‘plab taniqli psixologlarining ilmiy -nazariy asarlarni uchratamiz; masalan, E. Torndik 15 juft egizak va ularning bir tug‘ilgan aka-uka va opa-singillarini bir qancha testlar, jumladan, arifmetika, lug‘at va boshqalar bo‘yicha o‘rgangan; bu testlar bo’yicha aka-uka korrelyatsiyasi 0,3-0,4, egizaklar -0,71-0,90. Tadqiqot natijalari Torndaykni irsiyatning ruhiy xususiyatlardagi aniq roli haqidagi fikrlari o’z ahamiyatlilik darajasida bo’lgan. Biroq, bu holda, bir butun sifatida egizaklar guruhi bir tug’ilganlar guruhi bilan taqqoslansada, zamonaviy shakldagi egizak usuli hali shakllanmagan edi.Tajribalar natijasida fransuz psixologi R. Zazzo ikki yoshli monozigot egizaklar oynadagi o‘z aksini zo‘rg‘a tanib, boshqa egizakni ko‘rishiga ishonishlarini aniqladi. Egizaklar usuli E. Torndayk, R. Zazzo tomonidan qo’llanilgan.[1] Egizaklar orasida monozigotik (bir tuxumdan rivojlanadi va shuning uchun bir xil genlar to’plamiga ega) va dizigotik (gen to’plamidagi oddiy aka-uka va opa-singillarga o’xshash, bir vaqtning o’zida tug’ilgan yagona farqi bilan) ajralib turadi.

Bugungi kunda kelib psixologlar uchun egizaklarni bir-biridan taqqoslash faqatgina

o’zaro bo’lmasligini balki qaysi hujayrada rivojlanganligi bilan tafavutlanish orqali kutgan natijaga erishish mumkinligini qayta -qayta takrorlashadi. Xususan bunday usulni ilk bor 1929 yilda Gezell va Tyumsen tomonidan amalga oshirilgan bo’lsalarda keyinchalik xuddi shunga o’xshash tadqiqotlar ancha jadallashib bordi. Psixologlardan biri monozigota egizaklarni taqqoslash orqali psixologik savollarga javob olib bo’lmaydi va bunday egizaklarning tug’lishining o’zidayoq ikki xil xususiyat mavjudligini e’tirof etadilar. Hattoki ularning qaysi hujayrada shakllanayotganligiga ko’ra psixologik moslashuvchanlik holatlarda ham o’zgarishlar mavjudligini aytishgan. Bir tuxumda rivojlangan egizaklarning aksariyatida vazminlik xislatlari bilan birga bir faoliyatga kirishish jarayonlarda kemtiklik holatlari kuzatiladi yoki ularning birlari harakatchan bo’lib sheriklarini tortib yuradilar.

Zamonaviy psixologiyada Monozigota va Dizigota egizaklarni o’rganishga oid muammolar bevosita shaxs bilan shug’ullanuvchi fan mutaxasislarning nazariy va amaliy tadqiqotlarini amalga oshirishga undaydi. Egizaklar psixologiyasi sir -sinoatga boyligi bilan psixologiyasi fani nuqtai -nazardan ham alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Bu esa bizdek tadqiqotchilarning qiziqishini ortib borishiga olib keladi.

XX-asr laboratoriya tadqiqotlaridagi psixologik muammo o’zgara boshlaydi. Tadqiqotning asosiy predmeti kognitiv xususiyatlar - aql va kognitiv qobiliyatlarni o’rganishga qaratilgan bo’lib unda aynan o’smir egizaklarining rivojlanishini bevosiya langyuted metodini qo’llash asosida rivojlanish psixologiyasining asosiy savollaridan biri - qaysi omillar, genetik yoki ekologik va rivojlanishning uzluksizligini qay darajada ta’minlashi haqidagi savolni hal qilishga yondashishga urinish sifatida ishlab chiqilgan

Zamonaviy psixologiyada shunga o’xshagan tadqiqotlar ancha bo’lib aynan egizaklarning psixologik farqlash bo’yicha A.V Krelova, I.S.Navikov, A.G.Vilenskaya, kabi olimlarimizni ilmiy ishlarida ko’rishimiz mumkin. [3]Ammo shuni ta’kidlash kerakki, hozirda egizaklarning rivojlanishi va ularning o’smirlik davrida bir-birlari va tengdoshlari bilan o’zaro munosabatini o’rganadigan juda kam tadqiqotlar olib borilmoqda.

Egizaklar, ayniqsa, tashqi o’xshashligi juda yuqori bo’lgan monozigotlar o’z sherigiga o’zlarining oyna tasviri sifatida qarashga shunchalik odatlanib qolishadiki, ular qo’sh egizakning nomiga xuddi o’zlari kabi oson va tez-tez javob berishadi. Ba’zan ular o’zlarini bitta umumiy nom bilan atashadi, ular o’zlarining shaxsiy xususiyatlari va xususiyatlarini egizak sherigiga bog’laydilar va o’ta og’ir holatlarda ular o’zlari va egizak sheriklari bilan sodir bo’lgan voqealarni aralashtirishlari mumkin . Bularning barchasi bitta tug’ilgan bolalar bilan solishtirganda egizaklarni individuallashtirish jarayonini murakkablashtiradi.

Maktabda o‘quvchi o‘smir yoshdagi egizaklar ko‘pincha psixologik rivojlanish va shaxslararo muloqotlarga kirishish jarayonida «odatdagi» tengdoshlaridan orqada qoladilar. Bu ularning umumiy intellektual rivojlanishida hamda ijtimoiylashuv jarayonining dinamiklik kasb etishini yanada ortda qolishiga olib kelishi mumkin. Ota-onalar juda erta egizaklarni to‘laqonli muloqot hamkorlari sifatida ko‘rishni boshlaydilar va ko‘pincha ularni o‘zlariga qoldiradilar. Bir-birlari bilan muloqot qilishda egizaklar faqat ikkalasi uchun tushunarli tilni rivojlantiradilar, bunda imo-ishoralar, yuz ifodalari va boshqa og‘zaki bo‘lmagan muloqot vositalari ustunlik qiladi. Ko‘pincha, hatto ota-onalar ham ularni tushunmaydilar. Egizaklar ko‘p shu tarzda muloqot qilishsa, ular bir-biriga shunchalik bog‘lanib qoladilar va go‘yo boshqalardan o‘ralib qolishadi. Keyinchalik, o‘smirlik va ilk o‘spirinlik davrida, egizaklar o‘rtasidagi nizo munosabatlariga olib kelishi mumkin bo‘lgan bunday haddan tashqari o‘ziga xosliklar destruktiv shaxslararo nizolarga zamin yaratishi mumkin.

O‘smirlik davrini o‘rganuvchi ko‘pchilik olimlar agressiya, emotsional qo‘zg‘alishni, jahl chiqqan holatlarda balog‘atga yetmagan bolalarda psixologik muammolar qanday namoyon bo‘lishiga ko‘proq e’tibor qaratadilar.Chunki, bu yoshda ularda hayot tajribalari yetarli bo‘lmaydi, lekin boshqalar tomonidan tan olinishga va mustaqil bo‘lishga intiladilar. O‘smirlik davri insonni bolalikdan -yoshlikka o‘tuvchi va o‘z navbatida boshqa davrrlardan

o‘zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi inson ontogenetik rivojlanishining yeng xarakterli davrlaridan biridir. Bu davr psixologik pedagogik adabiyotlarda «o‘tish davri», «og‘ir davr», «inqiroz davri», kabi iboralar bilan ataladi. Bu davr taxminan bolalarning 5-8 sinflarda o‘qish paytlariga to‘g‘ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo‘lgan davr oralig‘ida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1-2 yil yertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin. Shuni hisobga olgan holda aytish mumkinki, o‘smirlik davri ayrim bolalarda (aksariyat hollarda qiz bolalarda)

9-10 yoshlardan boshlanib, yana boshqalarida 16-17 yoshlargacha davom yetishi mumkin. O‘smirlik davrning og‘ir, murakkab davr ekanligi ko‘plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog‘liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham o‘zgaradi.

O’smirlik davrida o’qish bilan bog’liq muammolar keyingi o’ringa tushadi chunki bunday vaqt egizaklar o’rtasidagi munosabatlarning eng nozik payti hisoblanadi. O’ziga va atrofdagilarga bo’lgan munosabatlarining o’zgarishi har bir egizak juftining o’zi shaxs sifatida tushunish talabi vujudga keladi, egizagi va boshqa insonlardan farq qiluvchi sifatlarining borligidan. Juftlik ichida o’z sifatlarini ta’kidlash tendentsiyasi paydo bo’ladi: urush , har xil kiyim, bir biridan yuz o’girish. Ammo monozigota egizaklarida o’zaro bog’liqlik va to’satdan ayriliqda ko’rinadi .

Egizaklarning rivojlanishining asosiy determinantlari egizaklardagi o’ziga xos individual xususiyatlarni,emotsional holatlarini va shunga o’xshash muhim ko’rsatgichlarni ifodalashga ko’maklashadi. Jahon olimlari egizaklarning rivojlanishi uchun xos bo’lgan determinantlarni o’z tadqiqotlarda ko’rsatib o’tishga ma’lum darajada erishgan bo’lsalarda, egizaklarning birgalikda o’sishlari ,tashqi stimullarning ichki holatlarida ifoda etilishi holatlari ular o’rtasidagi farqlanuvchi xususiyatlarning doimiy emasligini anglaymiz. Biroq quyidagi tadqiqot ishimizda mazkur xususiyatlarning farqlanuvchi holatlarini ko’rishimiz mumkin.

3.3.1-jadval

Monozigotali egizaklarda shaxs xususiyatlarini o‘rganish aloqadorligi tahlili (Ch.Spirmen korrelyastion koeffitsienti asosida)

	Asabiylashganlik	P shkala	SH shkala	U1 shkala	U shkala	V1 shkala	UP shkala	USH shkala	1X shkala	X shkala	X1 shkala	XP shkala
Asabiylashganlik	1,00	0,04	0,23	0,11	0,22	0,12	0,16	0,09	0,17	**0,29***	0,06	0,19
P shkala		1,00	**0,45****	-0,08	**0,45****	-0,23	0,13	0,15	0,09	0,24	**0,52****	**0,42****
SH shkala			1,00	-0,13	**0,75****	-0,17	0,01	0,24	**0,48****	**0,63****	**0,48****	**0,29***
U1 shkala				1,00	-0,17	**0,25***	**0,40****	0,05	0,10	-0,22	-0,09	-0,01
U shkala					1,00	**-0,34****	-0,08	**0,30***	**0,44****	**0,80****	**0,61****	**0,26***
V1 shkala						1,00	0,12	-0,04	-0,08	**-0,33****	**-0,34****	-0,21
UP shkala							1,00	0,03	-0,00	-0,08	0,10	**0,28***
USH shkala								1,00	0,02	0,22	0,18	0,16
1X shkala									1,00	**0,55****	0,25	0,16
X shkala										1,00	**0,48****	**0,28***
X1 shkala											1,00	**0,48****
XP shkala												1,00

Monozigotali egizaklarda shaxs xususiyatlarini o‘rganish aloqadorligi tahlilini amalga oshirganimizda quyidagi natijalar bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, monozigotali

egizaklarda asabiylashish, o‘zidan qoniqmaslik, ikkilanish va atrifdagilarga nisbatan “zahrini sochish” ko‘rsatkichining ortishi muloqotga moyillik, barcha narsani boshqalar bilan baham ko‘rish orqali o‘z ichki kechinmalarini tushunish, asabiylik holatidan psixik barqarorlik holatiga o‘tish darajasini oshirishi mumkin ekan (r=0,29, p<0,05).

Shaxs xususiyatlarini o’rganuvchi maskur metodika tafsifi bo’yicha Sh shakalasi ko‘rsatkichi (r=0,45, p<0,01) monozigota egizaklardagi ruhiy emotsional holatida o’zgaruvchanlik xususiyati mavjudligini ko’rsatib beradi. Monozigota egizaklarda o’z-o’zidan paydo bo’ladigan tajavuzkorlik xususiyati mavjudligini bildiradi. Ya’ni Monozigota egizaklar bitta hujayrada hosil bo’lishi natijasida bir -biraga nisbatan bog’liqlik yuqori bo’ladi. Natijada egizagini himoya qilish mexanizmi shakllanadi. Bu holatda esa Monozigota egizaklarda ma’suliliyatlikni olishi natijasida ruhiy siqilish kabi jarayonlar namoyon bo’ladi albatta vaziyatga qarab.

U shkala ko‘rsatkichi Monozigota egizaklarda (r=0,45 p<0,01) P shkala ko‘rsatkichi bilan doimo birgalikda yuzaga keladi. Monozigota egizaklarda muloqatchanlik xususiyati bu shkala natijalariga ko’ra o’z -o’zidan paydo bo’ladigan tajavuskorlik holatidan ko’ra passivlik darajasini ko’rsatib bermoqda. Haqiqatdan ham ijtimoiy jarayonlarda monozigota egizaklarning muloqatchanlilik xususiyatlari ko’p holatlarda ayniqsa munosabat bildirish , fikrini bayon eta olish kabi muammolarda sherigiga o’rnini berish holatlari tez tez takrorlanib turadi.

Monozigota egizaklarda (r=0,52 p<0,01) ko‘rsatkichi bo’yicha yuzaga keladigan tajavuskorlik holati ta’sirchanlik va o’zgaruvchanlik xususiyatlari aktivligi ortishi natijasida hosil bo’lgan. Ta’sirchanlik xususiyati monozigota egizaklarda yuqoriroq holatda turishi ayniqsa emotsional holatlarda o’zgaruvchanlikni olib keladi.

Mardlik xususiyati Monozigota egizaklarda (r=0,42 p<0,01) shkalasida yuqori ko‘rsatkichni namoyon qilsada , har qanday vaziyatlarda o’ziga xos nazokatlilik xislati bilan Dizigota egizaklardan farqlanib turadi. Monozigota egizaklardagi maskur xususiyatlarni e’tiborga olinmasligi natijasida ularda tajavuskorlik holatlarini o’z o’zidan yuzaga kelish ehtimoli mavjud.

Egizaklarda (U=0,75 sh<0,01) muloqatchanlik xususiyati o’zaro hosil bo’ladi deb tasniflashadi olimlar biroq Dizigota egizaklarga nisbatan Monozigota egizaklarda bu ko‘rsatkich yuqori natijani berdi o’rganilgan va tahlil qilgan metodikam natijasida. Ayniqsa muloqotchanlikning rivojlanishi natijasida Monozigota egizaklarda ruhiy siqilish holati tez tez kuzatilib turadi.

Quyidagi (1X=0,48 sh<0,01) shkala natijalariga ko’ra Monozigota egizaklarda samimiylik, ochiqlik kabi ijobiy munosabatlar ancha rivojlanganligini ko’rsatmoqda. Bevosita yuzaga keladigan oshkoralik ,ochiqlik xususiyati ulardagi ruhiy holatlarining o’zgarishlariga olib keladi. Monozigota egizaklarda ruhiy siqilish holati ulardagi o’ta ochiqlik bo’lishlari natijasida yuzaga kelar ekan.

Ushbu shkalada (X=0,63 sh<0,01) Monozigota egizaklarda do’stona, muloqotchan, harakatchan xulq-atvor bo’lsada ba’zi holatlarda kamgap ,ruhiy siqilish, yolg’iz qolishga intilish kabi kampanetlar namoyon bo’ladi.

Monozigota egizaklarda vaziyatlarga qarab ta’sirchanlik holatlari kuzatilishi (X1=0,48 sh<0,01) shkalada aks ettirilgan bo’lib bunda kuzatilishi mumkin bo’lgan o’zgaruvchanlik dinamikasi bevosita ruhiy siqilishdan hosil bo’lishini ko’rsatib bergan.

Egizaklarning aksariyati mardlik, nazokatlilik xususiyatlari mavjud bo’lib egizaklarning farqlash jarayonida o’rtacha (XP=0,29 sh<0,05) ko‘rsatkich orqali namoyon bo’ldi. Ayniqsa nazokatliligi o’zini o’ziga baho berish jarayonida

Monozigota egizaklarda Dizigota egizaklarga nisbatan (V1=0,25 U<0,05) har qanday vaziyatga nisbatan ochiqlik munosabatda bo’lish bilan bir qatorda muloqatchanlik xususiyati ma’lum darajada shakllangan. Garchi ular muloqotda noziklik va xushmuomalalikdan mahrum

bo’la olmasalar ham, ularga hamdardlik, odamlarning hurmat qilish bilan birga har qanday odamlarning ularga nisbatan qo’polligi ko’pincha xafa qilmaydi, hattoki ular g’azabning namoyon bo’lishini emas, balki to’g’ridan-to’g’ri vazminlik xislatlari bilan ajralib turishlari mumkin.

(UP=0,40 U1<0,05) Monozigota egizaklarda ushbu korrelatsiya natijasiga ko’ra tajavuskorlik xususiyati ma’lum ko‘rsatkichini hosil qilishi aynan o’smirlik davrida meyoriy hol sanalishi bilan ifodalanadi. O’smir egizak yoshida shaxsiy nuqtai nazarning vujudga kelishi sababli kattalarning unga nisbatan qayg’urishi ,qoyishiga qaramay ,o’zining fikrini o’tkazishga harakat qiladi. Ayniqsa o’z qadr -qimmati haqidagi tassavuri ,narsa va hodisalarda munosabati oqilonalikdan uzoqlasha boshlaydi, u ayrim ma’lumotlarni tushuntirib berishni yoqtirmaydigan bo’lib qoladi. Bu ko‘rsatkichning yuqoriligi shu yoshda kuzatiladigan xususiyatlar bilan bevosita bog’liq bo’lib Monozigota egizaklarda serjahillik, jizzalikning hosil bo’lishi natijasida o’ta tajavuskorlik holati vujudga kelgan.

Monozigota egizaklarda (V1=-0,34 U<0,05) ko‘rsatkich asosida og’irlik va vazminlik kabi xususiyatlar borligi aniqlandi . Bunda bevosita muloqotga kirish jarayonida o’z aksini topadi. Muloqotchanlik determentlari monozigota egizaklarda dizigota egizaklarga nisbatan pastroq ko‘rsatkichga ega. Bunda ijtimoiy ta’sirlarning monozigota egizaklarning rivojlanishiga ma’lum darajada o’z ta’sirini o’tkazadi.

(USH=0,30 U<0,05) Dizigota egizaklarda Monozigota egizaklarga nisbatan muloqatchanlik sifatlari yuqori bo’lganligi sababli maskur korrilatsiya natijasiga ko’ra Monozigota egizaklarda ijtimoiy faoliyatda qo’shilib ketish ,tortinchoqlik kabi xususiyatlari namoyon bo’lib turadi.

(1X=0,44 -<U=0,01) Monozigota egizaklarda ushbu korrelatsiya natijasiga ko’ra o’ziga va atrofdagilarga nisbatan muloqatchanlik xususiyati rahmdillik ,ochiqlik va vaziyatlarga nisbatan ko’ngilchanlik xislati mavjudligi yuqori ko‘rsatkichni aks ettirdi. Mazkur kelib chiqqan ko‘rsatkich asosida egizaklarning bir -biriga nisbatan yaqinligi va bir hujayrada shakllanganligi yuqorida kelib chiqqan natijalarga muofiq kelganligini bildiradi. Sababi Dizigota egizaklarga nisbatan Monozigota egizaklarda yaqinlik , ishonuvchanlik kabi xususiyatlar shakllanib boraveradi.

(X=0,80<U=0,01) Ekstroversiya va introversiya ko‘rsatkichi Monozigota egizaklarda yuqori natijani ko’rsatmoqda. Sababi Monozigota egizaklarda Dizigota egizaklarga nisbatan muloqatga kirish jarayonida bir -birini himoya qilish mexanizmi tabiiy shakllanadi va bir -biriga nisbatan Ekstroversiya va introversiya holati o’rin almashib turadi. Ayniqsa Monozigota egizaklarda bu ko‘rsatkich ijtimoiy jarayonlarda yaqol namoyon bo’lib turadi.

(XP=0,26<U=0,05) Egizaklarda ko’pincha muloqot jarayoni sust bo’ladi deyishadi biroq muloqotga ehtiyoj seza boshlansa ulardagi ichki holatida kuzatiladigan fikr mulohazalari o’zaro bir birini to’g’rilab boradi. Muloqot jarayonidagi sherigining xatolarini tan olish xususiyati mardligi asosida gavdalanadi. Ayniqsa Monozigota egizaklarda bu ko‘rsatkich yuqori.

Ekstroversiya -introversiya shkalasida (X=0,33>V1=0,01) ko‘rsatkich asosida Monozigota egizaklarda vaziyatlarga nisbatan og’irlik , vazminlik va o’z- o’zini boshqara olish, ruhiy zarbaga chidamlilik ayniqsa o‘ziga ishonchi odatdagi hayotiy holatlarda ruhiy zarba omillari ta`siridan yaxshi himoyalanganligini anglatadi. Monozigota egizaklarda bu ko‘rsatkich ulardagi o’zaro va atrofdagilarga nisbatan yaxshi kayfiyat, barqarorlik, matonatlik, xotirjamlilik, o‘z kuchiga ishonch, ishonuvchanlik, faollik demakdir.

(XP=0,28<X=0,05). Monozigota egizaklarda qat’iylik xususiyati hatto qiyin sharoitlarda ham xohlagan narsalarga erishish qobiliyati vujudga keladi. Biroq Ularning ichki dunyosida psixologik energiyani ayrim holatlarga muofiq izlash oson kechmaydi. Boshqa odamlar bilan muloqot qilishdan tezda charchaydigan odatlari ham mavjud. Ular muntazamlik va aniq rejalarni yoqtirishadi. Mardlik xususiyatlari jozibadorlikka xos xususiyatlari bilan namoyon bo’lib turadi. Nazokatliliklari introvertlikka yetaklab borishi mumkin. Egizaklardagi ekstrovertlik va introvertlik shkalasi har qanday vaziyatda uchrab turadi.

(r=0,48; p<0,01) O'ziga ishonchi Bu sifat notanishlar yoki yuqori maqomga ega odamlar bilan suhbatni boshlashga yordam beradi.

Moslashuvchan fikrlash. Tez harakatlaning va yangi sharoitlarga moslashing - ekstrovertning odatiy tartibi. Busiz, bunday turdagi odam zerikishi mumkin.

Tez qaror qabul qilish qobiliyati. Tez qaror qabul qilish qobiliyati. Ammo bu ustunlikning salbiy tomoni bor - qaror shoshilinch bo'ladi. Oddiy ekstrovert uzoq vaqt davomida biror narsa haqida o'ylashni, ijobiy va salbiy tomonlarini tortishni va eng mos variantni topishni yoqtirmaydi. U qanday qilib tezda qaror qabul qilishni biladi.

Muloqot qilish qobiliyati monozigota egizaklarda kamdan kam uchrasada ulardagi mardlik,o'ziga nisbatan ishonch tuyg'usini yuzaga keltiradi. Nazokatlilik, o'zini tuta bilishlik, aqllilik, emotsional sipolik, estetik ustamonlik, atrofdagilarga ziyraklik, izzattalab, ehtiyotkorlik xususiyatlari monozigota egizaklarda yuqori o'rinda ekanligini yuqorida keltirib o'tilgan natijalarga muvofiq ochiq berilganligini ko'rishimiz mumkin.

XULOSA. Egizaklarni farqlashning psixologik determinantlari namoyon bo'lishi va rivojlanishini empiric tadbiq etishga oid tadqiqot ishimiz quyidagi xulosaga kelishga asos bo'ldi:

1.Zamonaviy psixologiyada monozigota va dizigota egizaklarning bir -biridan farqlashdagi psixologik determentlarni aniqlashtirishda individual xususiyatlar, emotsional hamda rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni ish tajribasidan kelib chiqib o'zaro mutanosib ravishda dinamik ko'rsatgichlarnining faoliyat samaradorligini ta'minlashda ularning individual xususiyatlari differensial farqlarga bog'liqligiga asoslandi.

2.Differensial madaniy tadqiqotlar doirasida milliy muhitda ilk bor egizaklarni farqlashning psixologik tabiati o'smir yoshdagi mono va dizigotali egizaklarni tadqiq etish misolida ochib berilgan natijada egizaklar psixologiyasini o'rganish muhim o'rinda ekanligini taqazo etdi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Морозова Т.Б. Формирование направленности личности близнеца-подростка как социально-педагогическая проблема в системе дополнительного образования М 2011 г.

2. Twin and Triplet Psychology A professional guide to working with multiples Edited by Audrey C.Sandbank London and New York First published 1999

3. Тойирова Л. И., Тойирова Ш. И. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПОДРОСТКОВ-БЛИЗНЕЦОВ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ В ШКОЛЕ //негізі» атты халықаралық білім беру онлайнконференциясының материалдары. – 2019. – С. 113.

4. Тойирова Ш. Ўзбек оилаларда эгизак фарзандларни тарбиялашдаги ўзига хос психологик муаммолар //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. I (2). – С. 122-125.

5. Izatovna, T. L., & Izatovna, T. S. (2021, February). PSYCHODIAGNOSTIC BASES OF THE STUDY OF TWINS IN PSYCHOLOGY. In E-Conference Globe (pp. 98-104).

6. Izatovna, T. S. (2021). THE INFLUENCE OF PSYCHOGENETIC FACTORS ON THE UPBRINGING OF TWINS IN UZBEK FAMILIES. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2(05), 297-303.

7. Izatovna, T. S. (2021). PSYCHOLOGICAL APPROACHES OF PARENTS IN THE UPBRINGING OF TWINS IN UZBEK FAMILIES. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2(05), 82-87.

8. Izatovna, T. S. (2022). Theoretical and Scientific Approach to the Psychology of Adolescent Twins in the Process of Social Adaptation. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(2), 51-57.

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ УСПЕШНОГО ОВЛАДЕНИЯ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ В СТУДЕНЧЕСКИХ КОЛЛЕКТИВАХ

Тиллашайхова Хосият Азаматоювна
Кандидат психологических наук, доцент Ташкенский Государственный Педагогический университет

Аннотация: Данная статья основана на результатах экспериментального исследования, посвященного изучению одной из актуальных и значимых проблем современной психологии – психологической атмосферы в студенческих группах. В статье представлено подробное описание психологической атмосферы в учебных группах. Приводится сравнение особенностей восприятия психологической атмосферы студентами I и IV курсов, юношами и девушками. Раскрываются различия в восприятии психологической атмосферы студентами с разными акцентуациями характера. Ключевые слова: психологическая атмосфера, атмосфера общения, атмосфера деятельности, социально-психологический климат, студенческая группа, акцентуации характера.

MAIN FACTORS OF SUCCESSFUL MASTERY OF LEARNING ACTIVITIES IN STUDENT COLLECTIVES

Tillashaykhova Khosiyat Azamatoyuvna
Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor Tashkent State Pedagogical University

Abstract: Abstract: This article is bases on the result of experimental issue, that was devoted to study of one of the most important and actual problems of modern psychology – to psychological atmosphere of students’ groups. Detailed description of psychological atmosphere of academic students’ groups. Comparisons of perception’s peculiarities of psychological atmosphere by students of 1 and 4 courses, and by boys and girls are given. Differences of perception of psychological atmosphere by students with various character’s accentuations are shown.

Key words: Psychological atmosphere, communication’s atmosphere, activity’s atmosphere, social-psychological climate, students’ group, character’s accentuations.

TALABALAR JAMOALARIDA O’QUV FAOLIYATINI MUVAFFAQIYATLI O’ZLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI

Tillashayxova Xosiyat Azamatovna
Toshkent Davlat Pedagogika universiteti psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy psixologiyaning dolzarb va muhim muammolaridan biri - talabalar guruhlaridagi psixologik muhitni o’rganishga bag’ishlangan eksperimental tadqiqot natijalariga asoslangan. Maqolada o’quv guruhlaridagi psixologik muhitning batafsil tavsifi berilgan. Birinchi va to’rtinchi kurs talabalari, o’g’il bolalar va qizlar tomonidan psixologik muhitni idrok etish xususiyatlariga nisbatan taqqoslash amalga oshiriladi. Turli xarakterli urg’ularga ega bo’lgan talabalar tomonidan psixologik muhitni idrok etishdagi farqlar aniqlanadi.

Kalit so’zlar: psixologik muhit, muloqot muhiti, faoliyat muhiti, ijtimoiy-psixologik iqlim, talabalar guruhi, xarakter urg’ulari.

Специфика психологической атмосферы студенческих групп мало изучена, хотя известно, что невозможно изучать своеобразие личности, не учитывая социальный и психологический контекст, в котором она развивается. Знание особенностей эмоцио-

нального состояния, преобладающего настроения в студенческих группах необходимо для совершенствования системы подготовки молодых специалистов в высших учебных заведениях. Таким образом, малая проработанность проблемы и высокая практическая значимость изучения психологической атмосферы студенческих групп делает исследования в данном направлении весьма актуальными. В отечественной и зарубежной научной литературе раскрываются понятия «социально-психологический климат» и «психологическая атмосфера» групп или коллективов. Большинство исследователей считает, что эти понятия являются синонимами. На сегодняшний день насчитывается несколько десятков определений данных понятий. Настоящее экспериментальное исследование основано на определении, предложенном Б.Д. Парыгиным. Под социально-психологическим климатом он понимает «преобладающую и относительно устойчивую духовную атмосферу или психический настрой коллектива, проявляющийся как в отношениях людей друг к другу, так и в их отношении к общему делу» [5]. Исследование психологической атмосферы студенческих групп проводилось на базе Ташкентского государственного педагогического университета. В течение 2019–2021 гг. было обследовано 74 студента дневного отделения. В обследовании принимали участие студенты I и IV курсов в возрасте от 18 до 23 лет. Среди обследованных были и девушки, и юноши. В качестве психодиагностической методики использовалась шкала-опросник оценки психологической атмосферы в коллективе Ф. Фидлера [6]. Методика позволяет не только измерить степень благоприятности психологической атмосферы в студенческой группе, но также выявить и сравнить ее составляющие – атмосферу деятельности и атмосферу общения. Атмосфера деятельности вычисляется как сумма баллов по шкалам «удовлетворенность – неудовлетворенность», «увлеченность – равнодушие», «продуктивность – непродуктивность», «занимательность – скука», а также «успешность – неуспешность». Атмосфера общения определяется суммой баллов по шкалам: «дружелюбие – враждебность», «согласие – несогласие», «теплота – холодность», «взаимная поддержка – недоброжелательность» и «сотрудничество – отсутствие сотрудничества». Итоговый показатель благоприятности психологической атмосферы рассчитывается как сумма баллов по всем 10 шкалам. Методика построена по принципу обратной шкалы, т. е. благоприятной атмосфере соответствуют низкие оценки, а неблагоприятной – высокие. При обследовании студентов-программистов и студентов менеджеров было выявлено, что большинство из них положительно оценивает атмосферу деятельности и общения в своих учебных группах. Студенты удовлетворены организацией и проведением учебных занятий, во время которых они имеют возможность продуктивно работать. Многие увлеченно выполняют задания, которые часто носят занимательный характер.

Оценка благоприятности атмосферы деятельности и общения в студенческих группах Студенты-программисты по сравнению со студентами менеджерами склонны более позитивно оценивать психологическую атмосферу, создавшуюся в их группах. Оценки степени благоприятности психологической атмосферы и ее отдельных характеристик, данные студентами I и IV курсов, существенно не различаются. Обследование студентов I курса проходило во втором семестре учебного года. К этому времени уже устанавливаются устойчивые отношения между однокурсниками, завершаются процессы адаптации к новым социально-психологическим условиям. Вероятно, психологическая атмосфера, создавшаяся в группе к концу первого года обучения, мало изменяется в оставшиеся четыре года получения высшего образования. Хотя для более точных выводов необходимо лонгитюдное исследование.

Оценки степени благоприятности психологической атмосферы, данные юношами и девушками, обучающимися по специальности «Менеджмент», существенно не различаются. Количество девушек и юношей на данном факультете примерно одинаково.

Восприятие окружающих людей и происходящих событий зависит от личностных особенностей человека. Поэтому дополнительно все обследованные студенты были протестированы с помощью методики С. Шмишека. Данная методика позволяет выявить 10 типов акцентуаций характера: демонстративный, застревающий, педантичный, возбудимый, гипертимный, дистимический, тревожнобоязливый, экзальтированный, эмотивный и циклотимный. Для изучения особенностей восприятия психологической атмосферы студентами с разными типами акцентуаций характера испытуемые были разделены на две группы: с акцентуацией характера и без нее. Затем производилось сравнение результатов тестирования по методике Ф. Фидлера у этих групп испытуемых. Студентам с застревающей акцентуацией характера во взаимоотношениях с однокурсниками не хватает дружелюбного отношения ($t = 2,02$ при $p < 0,05$). Выявленный факт подтверждает общую закономерность. Лицам с застревающей акцентуацией в целом свойственно считать, что окружающие проявляют недостаточно симпатии по отношению к ним. Студенты с экзальтированной акцентуацией характера по сравнению с однокурсниками полагают, что увлеченность и удовлетворенность учебной деятельностью, успешность ее выполнения студентами их группы недостаточно высоки. Они склонны давать больше отрицательных оценок, характеризуя атмосферу деятельности, чем их однокурсники. Лица с экзальтированной акцентуацией легко приходят в восторг от радостных событий и в полное отчаяние – от печальных. Поэтому психологическую атмосферу, которую другие люди склонны оценивать как вполне нейтральную, эти лица воспринимают негативно. Восприятие психологической атмосферы группы студентами с экзальтированной акцентуацией и без нее. Показатели Среднее значение и стандартное отклонение Значение t-критерия Стьюдента Студенты с экзальтированной акцентуацией Остальные испытуемые

1.	Удовлетворенность	$5,17 \pm 0,37$ $3,26 \pm 0,21$ 2,12 при $p < 0,05$
2.	Увлеченность	$4,81 \pm 0,52$ $3,56 \pm 0,16$ 2,25 при $p < 0,05$
3.	Успешность	$5,64 \pm 0,99$ $3,28 \pm 0,22$ 2,36 при $p < 0,05$
4.	Атмосфера деятельности	$23,67 \pm 3,38$ $16,52 \pm 0,80$ 2,05 при $p < 0,05$

Студенты с циклотимной акцентуацией характера по сравнению с остальными студентами дают существенно более низкие оценки психологической атмосфере деятельности в целом и таким ее составляющим, как занимательный характер, продуктивность, успешность и удовлетворенность ситуацией обучения. Также эти студенты считают, что в группе сформировалась недостаточно благоприятная атмосфера общения. В отношениях между однокурсниками недостаточно теплоты, согласия, взаимной поддержки и сотрудничества. Оценки по интегральному показателю психологической атмосферы учебной группы у студентов с циклотимной акцентуацией характера существенно ниже, чем у их однокурсников. Известно, что для лиц с циклотимной акцентуацией характерны периодические смены настроения: периоды ровного настроения сменяются периодами подъема с высокой умственной активностью и спада с минорным настроением, замкнутостью, немногословностью, рассеянностью. Все это может существенно затруднять общение с сокурсниками. Интересы также зависят от цикла настроения. В периоды спада настроения они пассивны, пессимистичны, погружены в свой внутренний мир, зависимы от внешних событий, а в периоды подъема настроения проявляют

себя как студенты с гипертимной акцентуацией. Восприятие психологической атмосферы группы студентами с циклотимной акцентуацией и без нее. Показатели Среднее значение и стандартное отклонение Значение t-критерия Стьюдента.

1.	Удовлетворенность	1,80 ± 0,34 3,47 ± 0,22 4,09 при p < 0,001
2.	Увлеченность	2,60 ± 0,47 3,69 ± 0,18 2,21 при p < 0,05
3.	Продуктивность	2,60 ± 0,37 3,62 ± 0,22 2,40 при p < 0,05
4.	Занимательность	2,40 ± 0,47 3,76 ± 0,20 2,69 при p < 0,001
5.	Успешность	2,20 ± 0,34 3,54 ± 0,24 3,20 при p < 0,001
6.	Атмосфера деятельности	10,80 ± 2,35 17,37 ± 0,83 2,63 при p < 0,05
7.	Дружелюбие	1,20 ± 0,18 2,79 ± 0,21 5,69 при p < 0,001
8.	Согласие	2,40 ± 0,47 3,46 ± 0,20 2,08 при p < 0,05
9.	Теплота	2,00 ±0,41 3,50 ±0,18 3,40 при p < 0,001
10.	Сотрудничество	2,00 ±0,41 3,54 ±0,22 3,33 при p < 0,001
11.	Взаимная поддержка	1,64 ± 0,37 2,66 ± 0,25 2,44 при p < 0,05
12.	Атмосфера общения	9,20 ± 1,34 17,19 ± 0,96 4,85 при p < 0,001

Интегральный показатель атмосферы 20,80 ± 2,79 34,63 ± 1,70 4,23 при p < 0,001 Оценки степени благоприятности психологической атмосферы у лиц с гипертимным, демонстративным, возбудимым и другими типами акцентуаций характера не отличаются от результатов тестирования их однокурсников. Таким образом, большинство студентов-программистов и студентов-менеджеров положительно оценивают атмосферу деятельности и общения в своих учебных группах. При этом студенты менеджеры по сравнению со студентами-программистами высказывают больше претензий к эффективности групповой деятельности и благоприятности атмосферы общения в своих группах. Восприятие студентами особенностей психологической атмосферы группы, в которой они обучаются, связано с их акцентуациями характера. Студенты с экзальтированной, застревающей и циклотимной акцентуациями оценивают психологическую атмосферу существенно более негативно, чем остальные студенты. Выявленные факты следует учитывать при формировании студенческих групп, а также для оптимизации учебного процесса. Однако для более целостного представления о психологической атмосфере в студенческих группах необходимо обобщить результаты обследования студентов разных вузов, обучающихся по различным специальностям.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Акопов Г.В. Социальная психология образования. – М.: Моск. психолого-социальный ин-т: Флинта, 2000. – С. 51–54, 182–183.

2. Волова Н.Ю. Студент и образовательное пространство: мотивация и социально-профессиональные ориентации: моногр. – Самара: Самарский ун-т, 2001. – С. 74–140.

3. Кондратьев Ю.М. Отношения межличностной значимости в студенческой группе современного российского вуза // Вопр. психологии. – 2007. – №

4. – С. 56–65. 4. Кондратьев Ю.М. Социальная психология студенчества. – М.: Моск. психолого-социальный ин-т, 2006.

5. Парыгин Б.Д. Социально-психологический климат коллектива. – М.: Наука, 1981. – С. 12–28.

6. Практикум по психологии менеджмента и профессиональной деятельности / под ред. Г.С. Никифорова, В.А. Снеткова, М.А. Дмитриевой. – СПб.: Речь, 2001. – С. 411–415.

7. Смирнов С.Д. Педагогика и психология высшего образования: от деятельности к личности. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 2003.

АСРИЙ АДАБИЙ ЭРТАКЛАРДА ЭВРИЛИШ МОТИВИ ВА МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР СТИЛИЗАЦИЯСИ

Ражабова Гўзал Зарифовна
Бухоро давлат педагогика институти, Педагогика кафедраси ўқитувчиси

Раъно Ражабова Зариповна
БухДУ Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси ўқитувчиси, ф.ф.ф.д(PhD)

Аннотация. Мақолада насрий адабий эртакларда эврилиш анъанавий мотиви ҳамда аждар, дев, пари, жин сингари мифологик образлар стилизацияси хусусида фикр юритилган.

Таянч сўзлар: Эртак, халқ эртаги, адабий эртак, насрий эртак, эврилиш, аждар, дев, пари, жин, мотив, образ, стилизация.

МОТИВ ЭВОЛЮЦИИ И СТИЛЬ МИФОЛОГИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ В ПРОЗЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ СКАЗОК

Аннотация. В статье рассматривается традиционный мотив эволюции в прозаических сказках и стилизация таких мифологических персонажей, как драконы, великаны, феи и демоны.

Ключевые слова: Сказка, народная сказка, литературная сказка, прозаическая сказка, эволюция, дракон, великан, фея, демон, мотив, образ, стилизация.

MOTIF OF EVOLUTION AND STYLE OF MYTHOLOGICAL IMAGES IN PROSE LITERARY TALES

Abstract. The article examines the traditional motif of evolution in prose fairy tales and the stylization of such mythological characters as dragons, giants, fairies and demons.

Key words: Fairy tale, folk tale, literary fairy tale, prose fairy tale, evolution, dragon, giant, fairy, demon, motif, image, stylization.

Кириш. Тилсимий ҳодисалар, сеҳр-жоду аралашган воқеликлар ҳаёт воқелиги билан ёнма-ён келтирилади. Айтайлик, эпик қаҳрамонларнинг ўз қиёфасини ўзгартириши, бир кўринишдан бошқа кўринишга айланишини ифода этувчи эврилиш мотиви сеҳрли-фантастик йўналишдаги насрий ёзма эртаклар сюжетининг ҳам етакчи мотивларидан бири бўлиб, бу афсонавий мотивдан адабий эртак муаллифлари маҳорат билан ўринли фойдаланишгани кузатилади. Адиблар ундан фойдаланиб, ўз асарларининг халқона руҳини оширишга, таъсирчанлигини кучайтиришга ҳаракат қилганлар.

Асосий қисм. Халқ эртакларида сеҳр-жоду иштирок этган мотивлар, воқеликнинг хаёлий уйдирма орқали талқин қилиниши, сирли воқеалар баёни, сирли предметлар образи муҳим ўрин тутади. «Қор одам» эртаги – анъанавий афсонавий қор одамни излаб топиш мавзуида. Олимлар кўпдан бери бу ҳақда бош қотирадилар, изланадилар. Иттифоқо, Тянь-шань тоғи этакларида қор одам пайдо бўлган деган шов-шувнинг ҳақиқат ё ёлғонлигини аниқлаш мақсадида уч олим йўлга тушадилар, ниҳоят унинг изига тушадилар, беҳуш қиладиган доридан тайёрланган ўқ билан уни отиб, қўлга туширадилар. Бироқ бу чинаккам қор одам эмас, балки қачонлардир ҳаммани безор қилган, дангаса, текинтомоқ ва худбин бир бола бўлиб чиқади. Аслида у магазинчи ўғли бўлиб, сеҳргар чолни туртгани учун тоғ ёнбағрига улоқтирилган эди. Кимсасиз тоғда ёввойиларча ҳаёт кечириб улғайган, аммо қилмишларидан хулоса чиқаргани туфайли қайта тарбияланиб,

асл инсонлар сафига қўшилади.

«Қор одам» эртагида сеҳргар чолнинг бўйи секин-аста чўзилиб беш қаватли иморатдан ҳам баланд бўлиб кетибди» Яна «сеҳргар чол уни кафтида ўйнаб туриб аслида қайтиб, йўлида кетаверибди. Безори бўлса, қор уюмининг устига «поп!» этиб тушибди. Атроф совуқ, бўрон, бironта жондор йўқ эмиш. Бирдан у яланғоч қолганини ва бадани оппоқ юнг билан қопланганини кўриб қолибди». Кўринаётирки, бундай эврилиш воқеликнинг ваҳимали тус олишини таъминлаган ва ички маънавий эҳтиёж замирида воқеликка айланган.

Т.Ғойиповнинг “Салом – биринчи калом” эртагида сўз сеҳри билан инсоннинг тезкор балиққа, лочин қушга, одобсиз боланинг эса кесакка айланиб қолиши, Д.Абдураҳимованинг “Етимнинг бахти” эртагида бойнинг сеҳр-жодуси билан турнага айлантирилган онанинг ўғли чалган най овозини эшитиб яна ўз ҳолига қайтиши ифода этилган.

Эврилиш мотиви Т.Ғойиповнинг «Гилосхон» эртагида ҳам учрайди. Унда яккаю ягона ўғли Рустам аждарни йўқотгани кетиб бедарак йўқолгач, ёлғизликдан эзилиб азият чека бошлаган миришкор деҳқон Тожибой ота ногоҳ одам қиёфасига кирган гилос уруғидан қувноқ ва хушчақчақ Гилосхонга дуч келиб қолади. Гилосхон унга ёлғизлигини сездирмайди, хизматини адо эта бошлайди, ҳатто бедарак кетган акаси Рустамни топиб, сеҳрли пат ёрдамида унинг жароҳатини даволайди. Акасига ўзи ва минг кишининг қули теккан жодуланган қилични беради. У шу қилич билан аждарнинг қолган каллаларини чопиб ташлайди. Халқ осойишталиги ва тинч турмушини таъминлайди. Гилосхон қасоскорлик ғайрати билан халқ эртакларидаги камситилган инсонлар тимсолига айланган кўринмас Нўхат полвонни эслатади.

Эртакда Аждар образи ҳам қўлланганлиги эътиборни тортади. Маълумки, аждар ўзбек фольклоридаги мифологик образлардан биридир. У кўпинча сеҳрли-фантастик эртакларда учрайди ва эпик қаҳрамонга асосий рақиб сифатида иштирок этади.

Адабий эртакларда дев, аждар каби образлар айнан ўзбек халқ эпик асарларидаги каби анъанавий тарзда тасвирлангани кузатилади. Халқ тасаввурига кўра, Аждар қирдай бир йирик махлуқ бўлиб, кўзларидан ва оғзидан ўт пуркайди. Унинг оғзи ғордай баҳайбат бўлиб, ҳамма нарсани домига тортишга уринади[2.211].

Т.Ғойиповнинг “Ҳар ким экканини ўради” эртагида қаҳрамон “бораверибди, бораверибди, неча-неча адирлардан ошиб, неча чўлдан ўтиб, охири буюк бир тоғ ёнида тўхтабди. Қараса, тоғ тепасига томон илонизи йўл чўзилиб кетганмиш. Тоғ устида ажойиб кунгирадор қўрғон ястаниб ётганмиш. “бой хонадонга ўхшайди, қарай-чи, ким яшаркин, балки бирон фойдали нарса ундираман”, - деган ниятда терлаб-пишиб қўрғон сари кўтарилибди. Қўрғон остига еткач, шарпа эшитиб қараса... катта бир аждар ғордай келадиган оғзини кенг очиб, кўзларидан чарсиллатиб ўт олов сочиб, паншаха панжаларини ерга дуп-дуп босиб, Эшматга томон тиш қайраб келаётганмиш!”.

Келтирилган тасвир шуни кўрсатадики, аждар образи адабий эртакларда халқ эртаклари анъаналари руҳида тасвирланади.

Т.Ғойиповнинг “Атомдев”, “Дев ва техника”, “Раҳмат девни қандай алдагани” каби эртакларида анъанавий мифологик персонажлардан яна бири – дев образи келтирилган.

“Раҳмат девни қандай алдагани” эртагида дев момоқалдироқдек гулдираган товуш билан инсонлардек гапириши тасвирланган. Бу эртакда дев китобнинг қули сифатида акс эттирилади. Маълумки, халқ эртакларида, одатда, у узукнинг ёки чироқнинг, ё кўзанинг қули қилиб тасвирланади. Демак, бу ўринда адибнинг ўзига хос ижодкорлик қилгани кузатилади[5.123.] Ушбу эртакда дев уч юз йилдирки, китоб қули эканлиги айтилади. Сеҳргар уни бир вақтлар китоб ичига қамаб қулфлаб, калитини уч шохли қайрағоч дарахтининг остига кўмиб кетган бўлади. Тасодифан қуюқ ўрмонга кириб қолган ўқувчи Раҳматни кўриб қолган дев ундан ўзини озод қилишини ялиниб сўрайди. Раҳмат сеҳрли калитни топиб, девни озод қилади. Китоб ичидан қўлларини бир-бирига ишқаб, баҳай-

бат дев чиқади. Бу худди эртакларда ҳикоя қилинадиган девнинг ўзгинаси экан. Дев елкаларини қимирлатиб, қўлларини ҳар томонга силкибди ва қаҳ-қаҳ уриб кулиб, рақсга тушиб кетибди. Бола эса девнинг тинчланишини кутибди. Дев бир пайт рақсдан тўхтаб: “Эй, бола! Сени нима қилай? Ҳув олисда кўринган баланд тоғ устига олиб чиқиб, саҳрога улоқтирайми ёки туби йўқ, даҳшатли денгиз сувларига чўктириб юборайми? Тез бўл, бирини танла!” – дебди. Бола девдан бундай гапни сира кутмаган экан, ҳайрон бўлибди. Раҳмат ақлли бола экан. У дарров елкасидаги транзисторни олиб, девга узатибди-да: “Агар сен ҳақиқатан ҳам қудратли бўлсанг, шу кичкина қутичани бир сайратиб юборчи”, - дебди.

Дев олайган кўзлари билан гоҳ болага, гоҳ транзисторга ажабланиб қарабди. Ниҳоят транзисторни боланинг қўлидан олиб, айлантириб кўрибди, ялабди, искабди-да, бош чайқабди. Бола эса девга “Эй, замондан орқада қолган, фан-техникадан хабарсиз дев” –деб, девни калака қилибди. Сўнгра бола транзисторни бурабди. Приёмникдан баланд, ваҳимали қичқириқлар эшитила бошлабди: “Олға, югур! Ур!!! Чапдан сол! Бўш келма, теп!” Бу футбол ўйинининг энг қизғин чоғи, ишқибозлар ўзларини унутиб, бақиришаётган пайт экан. Футбол ўйини нималигини билмайдиган дев бу овозларни эшитиб, қулоқларини беркитиб олибди. “Бўлди бас. Шерикларингни чақирма. Улар мени бир бурдадан қилиб юборишади, деб ялинибди. Айтганларингнинг барчасини бажараман дебди. Раҳмат эса: “Сендақа девларнинг инсон билан куч синашадиган вақти ўтиб кетган! Ҳеч кимга ёмонлик қилмайман, деб сўз бер. Кейин мени ўртоқларим ёнига элтиб қўй”, -дебди. Дев ҳеч кимга ёмонлик қилмасликка сўз берибди ва болани ўрмондан уйига олиб бориб қўйибди.

“Кичкина боланинг қўлидан шунақа ишлар келса, катталарнинг қўлидан нималар келмайди, қойил-э! – деб ўйлабди дев. Кейин эртаклар оламига қайтиб кетибди.

Бу ўринда дев лақма кўринишда тасвирланган. Девларнинг гўл кўринишда тасвирланиши “Қўрқмас чол ва айёр тулки” номли халқ эртагида ҳам кузатилади.

Адабий эртакларда ўзбек фольклоридаги мифологик образлардан яна бири – жин ҳам акс эттирилганлиги кузатилади. Т.Ғойиповнинг “Ҳар ким экканини ўради” эртагида жинларнинг кўриниши шундай тасвирланади: “Эрматнинг ёнига ажойиб қиёфали икки махлуқ чиқиб келибди. Улар қотма ва узун бўйли эмиш. Қора юзларида кўзлари чўғдай қизариб ёниб турганмиш. Қулоқлари от қулоғидай диккайган. Эгниларида узун қора кўйлак, бармоқлари узун ва ингичка эмиш. Улардан бири эчки соқолли экан. Жинлардан бирининг исми Мисқол жин, иккинчисиники Ғалвирак жин экан. Улар гавҳар чироқлар билан ёритилган ғор ичида яшар эканлар”.

Ушбу эртакда адиб айрим олифта, тарбиясиз, такасалтанг ёшларнинг ҳаётини, уларнинг маишатли турмушини жинлар базмига ўхшатади.

Эртакда тасвирланишича, ҳалиги жинлар Эшматни кенг залга бошлаб киришибди. Эҳ-ҳе, у ерда жаз мусиқа дейсизми, рокн-ролми, бақириш, чинқириш, увлаш, тарақлаш, гумбирлаш овозлари оламни титратармиш, қанча ёш-яланг жинлар ер тепиб, сакрашиб, қичқириб, ув тортишиб, рақс тушаётганмишлар, туёқлари тақирлар, калта кўйлаклари ҳилпирар, уларнинг лаблари, юзлари қип-қизил рангга бўялганмиш. Бир четда бўлса бир неча жин катта пул тикиб қимор ўйнашмоқда. Оғизларига келган сўзлар билан сўкиниб бир-бирига дўқ уришади. Еб ташланган овқат пўчоқлари ерга сочилган, умуман жинлар озодаликка сира эътибор бермайдиган тоифа экан. Эшмат ҳам уларга қўшилиб “кўнгил оча” бошлабди.

Эртакда болалигидан нотўғри қадам ташлаб, қинғир йўлга кириб кетадиган ёшлар танқид қилинган. Уларнинг характер-хусусиятини очиб кўрсатишда ёзувчи жин образидан маҳорат билан рамзий усулда фойдалана олган.

Адабий эртакларда анъанавий пари образи ҳам учрайди. Масалан, Турғунбой Ғойиповнинг “Парилар макони” эртагида халқнинг парилар ҳақидаги эпик қарашлари,

ишонч-эътиқодлари ўзига хос бадиий талқин этилган. Ушбу эртак шундай бошланади: “Бир вақтлар Шоҳимардон тоғлари этагида бир йигит деҳқончилик қилар экан. Ойдин кечада йигит экинларини суғориб юрган экан”. Шунда у сув париларига дуч келади.

Маълумки, халқ орасида сув бўйига борилса, париларга ёки ажинага йўлиқиш мумкин деган қараш бор. Бу ўринда ёзувчи халқнинг шу тасаввур-тушунчасини бадиий ифодалашни назарда тутган.

Хулоса қилиб айтганда, халқ эртаклари сюжетига хос сеҳр-жоду, хаёлий уйдирма талқини, анъанавий мифологик ва афсонавий мотивлар, демонологик образлар тасвири адабий эртаклар сюжетида ҳам учраши кузатилади. Бу эса адабий эртакларнинг халқ эртаклари асосида шаклланиб, бадиий такомилга эришганлигидан далолат беради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Гўзалев Физули. Сеҳрли эртакларда эврилиш ва унинг қадимий шакли // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1989. – № 4. – Б.48-51.

2. Jo`rayev M., O`rayeva D. O`zbek mifologiyasi. Darslik. – Toshkent: Excellent Polygraphy, 2020. – 496 b.

3. Жумабоев М. Болалар адабиёти ва фольклор. Дарслик. – Т.: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006. – 216 б.

4. Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Т.: Фан, 2001. – 136 б.

5. Ғойипов Т. Сеҳргарнинг хатоси. Эртаклар. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – 239 б.

ИНКЛЮЗИВ ТАЛИМГА ДОИР ПСИХОЛОГИК ҚАРАШЛАР

Ядгарова Гулбахор Тиллаевна-
БухДПИ «Педагогика» кафедраси доценти,

Аннотация: В статье рассматриваются социально-психологические аспекты инклюзивного образования и роль совместной работы семьёй в её развитие. Выделены факторы и проблемы и психологические подходы к детям умственно отсталым и физическим нуждающемся в помощи. Подчеркивается роль «семейного фактора», как наиболее значимого для детей и родителей. Речь о воспитание, коррекционной работы и обучении детей, нуждающихся в помощи, адаптации их к жизни требующего специальных знаний и подходов со знанием особенностей ребенка-инвалида.

Ключевые слова: инклюзивное образования, коррекция, семейный фактор, психологический подход, умственно и физическая отсталость, черты характера, направленность личности, повидение.

Abstract: The article discusses the socio-psychological aspects of inclusive education and the role of family collaboration in its development. Factors and problems and psychological approaches to mentally retarded and physically disabled children in need of help are highlighted. The role of the "family factor" is emphasized as the most significant for children and parents. We are talking about upbringing, correctional work and training of children in need of help, adapting them to life, which requires special knowledge and approaches with knowledge of the characteristics of a disabled child.

Keywords and concepts: inclusive education, correction, family factor, psychological approach, mental and physical retardation, character traits, personality orientation, vision.

Юртимизда оналик ва болаликни ҳимоя қилиш, болаларни умуминсоний қадриятлар руҳида ҳар томонлама баркамол ривожлантириш учун шарт-шароит яратиш масалалари давлат сиёсати даражасига кўтарилган ва устивор вазифа сифатида белгиланган. Зеро, халқимизнинг энг эзгу қадриятларидан бири ҳам фарзанд тарбиясидир. Унга ҳаёт мамот даражасидаги муаммо деб қаралади. Чунки келажагимиз пойдевори, унинг равнақи ва фаравонлиги бугунги кунда фарзандларимиз қандай тарбия олганлиги даражаси билан белгиланади. Буни республикамизда дунёга келган ҳар бир болага бўлган эътиборда кўришимиз мумкин. Бизда бола хоҳ соғлом, хоҳ ногирон бўлиб туғилишидан қатъий назар ҳар бир бола чиройли яшашга, гўзал хулқ эгаси бўлишга лойикдир. Шу нуқтай назардан келиб чикиб, «Таълим тўғрисида»ги Қонунда ҳам айнан узлуксиз таълимнинг асосий бўлимларидан бири инклюзив таълимга алоҳида эътибор қаратилиб, яъни ёрдамга муҳтож болаларни имкониятларидан келиб чиқиб, уларни ақлий ривожланиши, жамиятда ўз ўрнини топиши, фан ва маданиятнинг ютукларини ўзига сингдиришлари учун шарт-шароитлар яратиш, янги авлодни камол топтириш вазифаси белгиланган.

Мамлакатимизда бу борада талайгина ишлар, яъни болаларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш, уларни ахлоқли, жисмонан соғлом бўлишларига қартилган қатор тадбирлар амалга оширилмокда. Бундай тадбирлар қаторида алоҳида ёрдамга муҳтож болалар, яъни имконияти чекланган болалар таълим-тарбияси ҳам зарурий масала сифатида эътироф этилмокда. Зеро алоҳида ёрдамга муҳтож болаларнинг соғлом тенгдошлари катори миллий рухда тарбияланиши, аклий ва маънавий, ахлокий ва жисмоний жиҳатдан камол топишларига, жамиятдаги ижтимоий мустақил ҳаётга, фуқаролик етук даражасига тайёр бўлиб етишишлари масалаларига жиддий эътибор қаратилмокда. Ушбу вазиятларни ҳал этишда ақли заиф ёки ақлан соғлом бироқ жисмонан камчилиги бўлган болаларнинг руҳий ҳолатини ўрганиш марказий ўрин эгаллайди. Чунки болаларни руҳий ва физиологик жиҳатларини ўрганмай туриб, уларга психологик нуқтай назар-

дан тўғри ёндашув ёки педагогик томондан таъсир ўтказиш ижобий натижа бермаслиги табиийдир.

Инкюзив таълимни ривожлантиришда оила билан ҳамкорликнинг ўрни алоҳида аҳамият кашф этади. Ёрдамга муҳтож болаларни тарбиялаш, коррекциялаш ишларини оила билан ҳамкорликда амалга ошириш мақсадга мувофиқ бўлиб, бундай болаларга таълим-тарбия бериш ва уларни хаётга мослаштириш махсус билим ва ногирон бола хусусиятларини билган ҳолда ёндашишни талаб этади. Бунда махсус педагогиканинг муҳим масалаларидан бири ногирон болалар оиласидаги тарбиявий вазифаларни аниқлашдан иборатдир. Биргина ақли заиф болаларни тарбиялаш мисолида оладиган бўлсак, унда оила учун хос бўлган асосий қонуниятлар – болаларнинг хислатларини шакллантириш, тарбия максади, вазифаси ва тамойиллари муштараклигига амал қилишни тақазо этади. Яъни, бундай оилаларда тарбия жараёнига қуйидагича ёндашув назарда тутилади:

- меҳнатга муносабат, жамоа бўлиб меҳнат қилиш, интизом, тежамкорлик, бажариладиган иш учун масъулият хиссини тарбиялаш;
- муҳофаза қилувчи педагогик режимни ўз ичига олган махсус шарт-шароитлар, ижобий муҳит яратиш;
- оилада ногирон фарзаннинг меҳнат тарбияси сифатини узлуксиз ошириш: фаоллик ва мустақилликни ривожлантириш;
- инсоний қадриятлар асосида шахснинг ахлоқий ва жисмоний сифатларини шакллантириш;
- ақли заиф болаларни соғлом тенгдошлари билан мулоқотда бўлишга интилиш.

Бунинг учун болаларни турли меҳнат фаолиятига жалб қилиш, уларда фаолликни рағбатлантириш, педагогик раҳбарлик қилиш, болаларни ўз мажбуриятларини бажариш жараёнини назорат қилиш талаб этилади.

Ақли заиф болаларнинг сўзлаши, ишга онгли муносабатда бўлиши ва ўзини тутишида фарқ бўлиши табиий. Бунинг учун сўз билан тушунтиришнинг ўзи кифоя эмас, бундай ҳолатни фаол ижтимоий фаолиятга жалб қилиш оркали бартараф этиш мумкин. Болалар жамоавий меҳнат билан бевосита танишадилар, шаклланаётган тушунчаларда ўз аксини топган реал ижтимоий муносабатга киришадилар. Бунда ижтимоий жиҳатдан ҳуқуқий тарбия ҳам муҳим аҳамият касб этади, жамият ҳуқуқий нормаларининг бузилиши ижтимоий ихтилофларга олиб келади. Ҳуқуқий нормаларга риоя қилиш эса инсон ва жамият муносабатларини белгилаб беради.

Шунингдек, ақли заиф болаларни тарбиялашда интеллектни бошқариш ролини ошириш махсус вазифа ҳисобланади. Бунда оилада жисмоний тарбия муаммоси алоҳида аҳамият касб этади, бу ақли заиф болалардаги маънавий ва оддий эҳтиёжларнинг номутаносиблиги билан боғлиқ. Оилада хар қандай тарбиявий тадбир белгиловчи йўналишга эга бўлиши бола шахсига таъсир этиши лозим. Яъни тарбиянинг мақсади ва вазифалари тарбиявий жараённинг қонуниятларини акс эттирувчи тамойиллар орқали амалга оширилиши лозим. Булар – тарбиявий таъсирнинг узвийлиги, мунтазамлилиги ва узлуксизлиги бўлиб, у узоқ давом этадиган жараёндир. Хусусан ёрдамга муҳтож болалар билан ишлашда ҳам ота-онадан, ҳам педагоглардан катта куч ва сабр талаб этилади. Бунда педагогик таъсирнинг изчил эмаслиги, тасодифийлиги, педагогик режимга қарама-қаршидир. Тарбиявий таъсирдаги келишувчанлик ва бирлик умумий мақсадга интилувчанлик, педагогик талаб ва услубларнинг ахлоқ, маънавият нормалари ва принципларига мувофиқлиги билан белгиланади. Шу нуқтаи назардан келиб чиқиб, ақли заиф болаларда ижтимоий сифатларнинг шаклланиши ақлан соғлом болаларга нисбатан узоқ давом этиши, бу жараёнда ота-оналар, педагогик жамоа, шифокор, тарбиячилар иштирок этадилар. Шунинг учун улар ягона талабларга, кетма-кетликка, узвийликка риоя қилишлари жуда муҳимдир. Айникса, бунга оилавий тарбиядан мактаб тарбиясига ўтганда,

ўқитувчилар алмашганда катта аҳамият бериш керак.

Шунингдек, ақлан соғлом бироқ жисмонан нуқсонли ногирон болаларни ўзини тутиш одоби қоидларига ота-она, оила аъзоларининг ўгит- насиҳатлари, тушинтиришлари ҳам муҳим ўрин тутади. Лекин ўзини тута олиш одоби жумласига қирувчи маълум қоидалар ногирон болаларни умуман муомилада роя қилиш керак бўлган одоб нормаларини батамом ўз ичига олмайди. Балки, бу талаблар (қоидалар) маълум ёшдаги, яъни мактабгача ёшидаги ва кичик мактаб ёшдагиги ногирон болаларни ана шу элементар одоб нормасига одатлантира боришнинг маълум босқичида муҳим роль ўйнайди. Бу бола онгининг ривожланиши давомида, чунончи, аник фикрлаш, муҳокама этиб, абстракт тафаккур қила оладиган даврида одобнинг элементар нормаларига ота-она, дефектологлар, тарбиячининг обрўси, хурмати, хайкириши туфайли амал килиб маълум кўникма ҳосил этган бўлса, абстракт тафаккур юритадиган, муҳокама қила оладиган даврига келиб одобнинг маълум қоидаларига бевосита, жамият талаба нуқтаи назаридан, тушуниб риоя қилади, бунда кичик ёшли даврида эгалланган маълум кўникма ва одатлар муҳим аҳамият кашф этади. Катта ёшли кишиларнинг ногирон бола кўзи олдида жамоат жойлари: кўча-куй, маҳаллаларда, бир-бири билан муомиласида, ширинсўзлик, такаллуфлилиги, одоби бола хулқида маълум инсоний фазилатларни шакллантиришида муҳим ўрин тутади. Буни яхши тушинган ҳар бир ота-она ва катта ёшли кишилар болага ҳар жойда, ҳар қандай ҳолатда ибрат-намуна кўрсатиши лозим. Шуниндек, ўзини тутиш одобига ўргатишда педагог ходимлар, ота-она, оила аъзоларининг ўгит-насиҳатлари, тушунтиришлари ҳам муҳим метод бўлиб хизмат килган. Одатда, бундай панд-насиҳат, тушинтириш, бола олдида обрў, ҳурматга лойиқ, ҳаётий тажрибага эга киши томонидан жонли қилиб, бирор вокеа, ҳикоялар, мақол ва ҳикматли сўзлардан фойдаланган ҳолда берилса мақсадга мувофиқ бўлади.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, ногирон болаларга уларнинг имкониятларидан келиб чикиб, ўз вақтида самарали ёрдам кўрсатилсагина, уларга келажакда барча ўз тенгдошлари қаторида таълим олишлари, жамиятда ўз ўрнини топишлари учун катта йўл очиб берилган бўлади. Тўғри, мақсадли йўналтирилган таълим-тарбия бериш ота-она, мактаб педагог ходимлари ҳамкорлигида бажариладиган вазифалардан бири бўлиб қолади .

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.F.U.Qodirova, N.U.Kenjayev- Inklyuziv ta’lim sharoitida kar va zaif eshituvchi bolalarning o‘qishiga ta’sir etuvchi omillar maqola - 2

2.D.S.Qaxarova- Inklyuziv ta’lim texnologiyasi monografiya Toshkent 2014 y - 6

3.X.N.Muzaffarova, D.Tangirova “Inklyuzv ta’lim” fani bo`yicha o`quv metodik qo`llanma / Jizzax davlat pedagogika institute/. 2011 y – 9

4.Конвенция о правах инвалидов. Режим доступа: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/disability.shtml.

5.http://library.ziyonet.uz/uz/book/82495

6. https://lex.uz/

KO‘P BOLALI OILA FENOMENINING IJTIMOIY PSIXOLOGIYADA TADQIQ ETILISHI

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti (PhD)

Annotatsiya: Ko‘p bolali oilalarga munosabat, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish nuqtayi nazaridan ushbu hodisaning ahamiyatini baholash noaniq bo‘lib, bu fanning turli sohalari tadqiqotchilarining e’tiborini jalb qilishda davom etmoqda. Maqolada ko‘p bolali oilalar fenomenining ijtimoiy-psixologik jihatidan tadqiq etilishiga bag‘ishlangan qiyosiy adabiyotlar tahlili hamda empirik tadqiqot natijalari asosida mualliflarning qarashlari bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: ko‘p bolali oila fenomeni, demografik o‘zgarishlar, shaxslararo munosabatlar, maqsad, jarayon, hayot mazmuni yo‘nalganligi.

ИЗУЧЕНИЕ ФЕНОМЕНА МНОГОДЕТНОЙ СЕМЬИ В СОЦИАЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИИ

Янгибоева Дилдорахон Раҳмон қизи
научно-исследовательский институт «Семья и женщина». аспирант (PhD)

Аннотация: Отношение к многодетности, оценка значимости данного феномена в аспекте регулирования общественных отношений неоднозначны, что продолжает привлекать внимание исследователей из различных отраслей наук. В статье изложены взгляды авторов на основе анализа сравнительной литературы и результатов эмпирического исследования, посвященного социально-психологическому изучению феномена многодетности.

Ключевые слова: феномен многодетности, демографические изменения, межличностные отношения, цель, процесс, направление смысла жизни.

STUDY OF THE PHENOMENON OF THE MULTIPLE CHILDREN FAMILY IN SOCIAL PSYCHOLOGY

Yangiboeva Dildoraxon Rahmon qizi
Research Institute «Family and Women» doctoral student (PhD)

Abstract: The assessment of the importance of large family from the point of view of attitude to large families, regulation of social relations is unclear, and it continues to attract the attention of researchers from various fields of science. The article describes the views of the authors based on the analysis of comparative literature and the results of yempirical research devoted to the socio-psychological study of the phenomenon of large families.

Key words: the phenomenon of large families, demographic changes, interpersonal relations, purpose, process, direction of the meaning of life.

Kirish (Introduction). Zamonaviy ilm-fanda hal qilingan asosiy vazifalardan biri oiladagi bolalar soniga turli xil ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy omillarning ta’sirini aniqlashdir. Matematik modelni qurish natijasida birinchi va har bir keyingi bolaning tug‘ilishiga turli omillar ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Uchinchi va undan keyingi bolalarning tug‘ilishi mintaqadagi qashshoqlik darajasi, uy-joy bilan ta’minlanishi, nikoh darajasi, qishloq aholisining ulushi, abortlar soni kabi omillar bilan bog‘liq. Shu bilan birga, ko‘p farzandli bo‘lishga aholining real daromadlari darajasi va hududning o‘zi rivojlanishining ta’siri kamroq yekanligini aytish mumkin [1].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, oilaning ko‘p bolali oilalarga o‘tishi turli xil rejimlarda

amalga oshirilishi mumkin. Birinchidan, ko‘p bolali ota-onalarning (onalar) bu masala bo‘yicha dastlabki munosabatidagi farq haqida gapirish mumkin - ularning katta qismi dastlab ko‘p bolali oilalarning paydo bo‘lishini taxmin qilmagan. Ikkinchidan, bu ongli va maqsadli bo‘lishi mumkin bo‘lgan tug‘ilishni rejalashtirishga bo‘lgan munosabat (ota-onalar butun reproduktiv yoshda tug‘ilish oralig‘ini yehtiyotkorlik bilan rejalashtirishadi va qurishadi) yoki ko‘pincha reproduktiv hodisalarga javob sifatida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lishi mumkin. Uchinchidan, keyingi farzand ko‘rish to‘g‘risidagi qaror ko‘pincha hayotiy voqealarga javob sifatida situatsion xarakterga yega va bir qator motivlar (iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik) ta’siri ostida yuzaga keladi [2]. Ushbu omillarga asoslanib, tadqiqotchilar ko‘p farzandli bo‘lish uchun motivatsiyaning to‘rtta modelini taklif qilgan: “an’anaviy” model ko‘p farzandli bo‘lish boshlang‘ich reproduktiv munosabatlarning yuqori darajasi va tug‘ilishning rejadan tashqari tabiati bilan tavsiflanadi; past reproduktiv munosabatlar va tug‘ilishning rejalashtirilgan tabiati bilan ajralib turadigan “zamonaviy” ko‘p farzandli oilalarmodeli; “zamonaviy-an’anaviy” ko‘p bolali oilalar modelida past reproduktiv munosabatlar va tug‘ilishning rejalashtirilmagan tabiati mavjud; yuqori reproduktiv munosabatlar va tug‘ilishning rejalashtirilgan tabiati bilan ajralib turadigan “an’anaviy-zamonaviy” ko‘p bolali oilalar modeli [3]. Rivojlangan mamlakatlardagi oilalar o‘z farzandlarining inson kapitaliga asosan kelajakda shaxsiy qoniqishni olish uchun sarmoya kiritadilar. Yosh bolaga g‘amxo‘rlik qilish yosh bolani parvarish qilishdan ko‘ra ko‘proq vaqt talab yetadi, bu yesa o‘z navbatida uning ta’lim olishi va qobiliyatini yanada rivojlantiruvchi boshqa tadbirlar uchun zarur bo‘lgan boshqa oilaviy resurslarni sarflash nuqtai nazaridan qimmatroq hisoblanadi.

Metodlar (Methods). Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarni ko‘p bolali oilalar fenomeni, uning oilalarning hayot sifatiga ta’siri uzoq vaqtdan beri qiziqtiradi. An’anaviy jamiyat sharoitida bolalar tug‘ilishining iqtisodiy motivlari ustunlik qildi, chunki bolalar mehnatkash sifatida oilaga iqtisodiy jihatdan foydali bo‘lgan va qariganda ota-onalarning farovonligining kafolati bo‘lgan. Bolalar alohida iqtisodiy ne’matdir, chunki ular nafaqat oila yehtiyojlarining manbai, balki uning uzoq muddatli investitsiya obekti hamdir. Bunday investitsiya jarayonini amalga oshirib, oila kelajakdagi xarajatlarini butun oila uchun yoki bolaning o‘zi uchun daromadlar oqimini oshirish orqali qoplashga umid qiladi. Shuni ham hisobga olish kerakki, bolaning inson kapitalini shakllantirish sifati oiladagi bolalar soniga bog‘liq bo‘ladi va bu jarayonda ota-onalarning hissasi boshqacha tarzda idrok yetiladi. 1970-yillarda oiladagi bolalar soni va sifati o‘rtasidagi muhim bog‘liqlikni isbotlovchi, ushbu determinantlarga ta’sir qiluvchi individual omillarni o‘rganuvchi bir nechta mashhur nashrlar paydo bo‘ldi. G.Bekker ota-onalarning moddiy farovonlik darajasini oilada bolalarning ta’lim olish darajasiga ta’sir qiluvchi asosiy omil sifatida ajratib ko‘rsatdi. Ushbu talqindan kelib chiqqan holda, oila inson kapitaliga investitsiya qilish imkoniyatiga yega bo‘lgan moliyaviy resurslarni taqsimlashning asosiy kanali sifatida ishlaydi. Oila a’zolari tomonidan olingan daromadlar inson kapitalini ishlab chiqarish, rivojlantirish va takror ishlab chiqarish uchun shart-sharoitlarni to‘liq shakllantiradi [4].

Natijalar (Results). Alohida tadqiqot muammosi ota-onalarning reproduktiv munosabatlarining oiladagi bolalar soniga ta’siri bilan bog‘liq. Masalan, nigeriyalik olim U.Isuigo-Abaniyning tadqiqotida nigeriyalik oilalarda bolalar soni va oilaning kattaligi haqidagi qaror faqat yerkak tomonidan qabul qilinadi [5], degan xulosaga kelinadi. Y.Z.Garipov va I.S.Mavlyautdinovlarning fikricha, katta oilani yaratish uchun har ikkala yer-xotinning ham tayyor bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, ular ko‘p bolali oilalarda farzand ko‘rish tashabbusi deyarli teng ulushlarda otaga ham, onaga ham tegishli yekanligini ta’kidlashadi.

1-jadval

Ko‘p bolali oilalarda hayot mazmuni yo‘nalganligi hamda juftliklar ustanovkasi o‘rtasidagi bog‘liqliklar

Ko‘rsatkichlar	Maqsad	Jarayon	Natija	Men lokus nazorat	Hayot lokus nazorat
Ajralis’hga munosabat	**-0,237***	-0,169	**-0,248***	-0,079	-0,067
Jinsiy hayotga munosabat	-0,084	-0,103	-0,185	**-0,247***	-0,106
Egalitar turdagi oilaga munosabat	**-0,256***	**-0,273***	**-0,281***	-0,163	-0,211
Pulga munosabat	-0,089	-0,123	**-0,135***	-0,015	-0,115

Izoh:* * - *p<0.05

Ko‘p bolali oilalarda hayot mazmuni yo‘nalganligi hamda juftliklar ustanovkasi o‘rtasidagi bog‘liqliklarga asosan, ajralishga munosabat hamda maqsad (r=-0,237, p<0,05), ajralishga munosabat va natija (r=-0,248, p<0,05), jinsiy hayotga munosabat va man lokus nazorat (r=-0,247, p<0,05), yegalitar turdagi oilaga munosabat va maqsad (r=-0,256, p<0,05), jarayon (r=-0,273, p<0,05), natija (r=-0,281, p<0,05) shkalalarida teskari, manfiy korrelyatsion bog‘liqliklar qayd yetildi. Olingan yempirik natijalardan ko‘p bolali oilalarda ajralishga munosabat kamroq darajada bo‘lib, bunday fikr juftliklarda tug‘ilgan taqdirda ushbu qaror ularning hayotiy maqsadlari hamda turmush tarzidagi natijalarning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi ma’lum bo‘ladi. Demak, ko‘p bolali oilalarda ajralish fenomeni kamroq kuzatilishi mumkin. Shuningdek, jinsiy hayotga munosabatning ko‘p bolali oiladagi yer va xotinda yehtiyojlar ierarxiyasida ustunlik qayd yetishi ularning o‘zlarini nazorat qilishi hamda reproduktiv salomatligiga jiddiy ta’sir ye’tishiga ham zamin yaratadi.

Aniq belgilangan oila boshliqlari bo‘lmagan va ota va ona o‘rtasidagi hokimiyatning vaziyatga qarab taqsimlanishi ustunlik qiladigan teng huquqli oilalar sifatida tavsiflanuvchi yegalitar turdagi oila bo‘lishga nisbatan ustanovkaning ko‘p bolali oilalarda kuzatilishi ulardagi oilaviy maqsadlar, rejalar hamda turmush tarsi mobaynida kechadigan jarayonlarning sifatiga teskari ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlandi. Bunda oilaviy rollar vaziyat taqozosi bilan o‘zgaradi, ro‘zg‘or yumushlari ham vaziyatning dinamik holatiga bog‘liq tarzda kechadi. Oilaviy munosabatlarni yaxshilashda teng huquqli oila baraka va mo‘jiza yekanligi aniq ta’kidlanadi. Turmush o‘rtoqlar har tomonlama tenglikka yerishish juda kam uchraydi. Bunday nikohda hech narsa ikkinchi yarmining “nafasini cheklamaydi”, lekin bunday qulay uy dunyosi faqat o‘zaro kelishuv asosida, sherikni buzmasdan yoki uni «inqilobiy» g‘oyalari ostida raqsga tushishga majburlamasdan yaratilishi kerakligi bilan ham xarakterli jabhalardan biridir.

Juftliklar ustanovkasi metodikasi bo‘yicha olingan tahlillarga ko‘ra, farzandga munosabat, burch va zavq hissi hamda jinsiy hayotga munosabat shkalalarida minimal ko‘rsatkichlar boshqa qiymat ko‘rsatkichlariga qaraganda ozchilikni (min=2; min=3) tashkil yetganini

ko‘rish mumkin. Bundan xulosaga kelinadiki, farzandlarning ko‘p bo‘lishi natijasida ota-onada farzandlarga nisbatan individual yondashuv jihatidan zamon hamda makon tezligiga munosabatda bo‘lish ko‘lami past darajada bo‘ladi. Bu yesa, farzandlarda ota hamda ona bilan munosabatlarning disfunksional tarzda kechish imkoniyatini oshirishi mumkinligini bilan ham ahamiyatga molikdir. Shuningdek, minimal ballar hisobidan burch va zavq hissi va jinsiy hayotga munosabat ko‘rsatkichlarida quyi natijalar qayd yetilganini, ko‘p bolali oilalardagi masuliyat hamda qarashlar xilma-xilligi nuqtayi nazaridan oilaviy burchni va oilaviy hayot, oila an’analaridan rohatlanish, zavqlanish hissining doimiy baqraror tusda yemasligi bilan izohlash mumkin bo‘lsa, jinsiy hayotga munosabat, unga baho darajasi intim aloqalar rakursida juftliklarning ma’naviy hamda psixologik qoniqishlari yo‘lida kamroq miqdorda xizmat qilayotganidan darak beradi.

Muhokama (Discussion). Nikoh yoki oilaviy munosabatlar orqali, umumiy hayot va o‘zaro ma’naviy javobgarlik va ijtimoiy yehtiyoj jamiyatning aholining jismoniy va ma’naviy ko‘payishiga bo‘lgan yehtiyojidan kelib chiqadi. V.N.Arxangelskiyning asarlari katta turmush tarzidan o‘rta va kichik turmush tarziga o‘tishning turli tarixiy bosqichlarida reproduktiv xatti-harakatlarning o‘zgarishi masalalarini ochib beradi. Muqobil yondashuv ma’lum ustuvor hayot strategiyalarini joriy ko‘rib chiqish va shaxsiyatning yetno-demografik va ijtimoiy-iqtisodiy belgilanishi tizimida turmush o‘rtoqlar uchun qiymat yo‘nalishlari tuzilmasini tanlash, makromintaqa va “oilaviy rejalashtirish” vazifalarini oddiy darajada tushunish va demografik o‘tishning tarixiy shakllari bilan bog‘liq [6]. A.V.Noskovaning ta’kidlashicha, agar ilgari ota-onalik insonning hayotiy (o‘zini o‘zi saqlaydigan) yehtiyoji va bolalarning tug‘ilishi “fuqarolik burchi” deb hisoblangan bo‘lsa, hozirgi vaqtda ba’zi yevropaliklar uchun ko‘payish va ota-onalik haqidagi bunday tushuncha o‘z kuchini yo‘qotmoqda. Umumjahon me’yor tanlov bilan, yehtiyoj xohish bilan almashtiriladi. Ammo odamning apriori bo‘lgan bolalarga bo‘lgan yehtiyojidan farqli o‘laroq, farzand ko‘rish istagi paydo bo‘lmasligi mumkin [7].

Asarlarini fundamental deb tasniflash mumkin bo‘lgan M.S.Matskovskiy, P.Sorokin va A.G.Xarchevlar oila institutining mavqei bevosita ijtimoiy-iqtisodiy omilga bog‘liqligini ochib berdi. Biroq, bugungi kunda, yehtimol, o‘zgarishlar yuz berdi - ko‘p farzandli bo‘lishning ijtimoiy-iqtisodiy omillari o‘z faoliyatini to‘xtatdi. Bu tendensiya, Yevropa sotsiologlarining fikriga ko‘ra, yer-xotin uchun bolalarning yangi roli bilan bog‘liq. Zamonaviy bolalar oila uchun iqtisodiy foydaliligini yo‘qotib, ota-onalari uchun katta hissiy va psixologik ahamiyatga yega bo‘ldilar.

Mahalliy tadqiqotlarda ota-onalikni o‘rganishga katta ye’tibor beriladi. O.N.Bezrukova oilaning kundalik hayoti qanday tashkil yetilishi, ota-onaning ota-ona vazifasi uchun javobgarligi tabiati va ota-ona roli bilan identifikatsiya darajasiga qarab ota-onalarning modellarini tiplashtirdi. Ushbu mezonlarga muvofiq, ota-onalarning quyidagi modellari aniqlandi: an’anaviy (ota-ona rollarini farqlash bilan), birdamlik (bolalar tarbiyasi uchun birgalikdagi masuliyat), delegatsiya (bolalar tarbiyasi uchun javobgarlik ko‘proq boshqa shaxslarga - katta avlodga o‘tkaziladi, uy xodimlari).

Xulosa (Conclusion). Ko‘p bolali oilalarni o‘rganishda ko‘pchilik mualliflar ularni xavf guruhiga kiritishadi. Ayrim oilalar hozirgi sharoitda o‘z hayotlarini yaxshilash imkoniyatiga yega yemaslar. Ushbu guruhning qiyinchiliklari shunchalik murakkabki, ular asosan oilada bolalarni tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlaydiKo‘p bolali oilalar turli jins, yoshdagi odamlar o‘rtasida doimiy muloqot qilish uchun haqiqiy imkoniyat yaratadi va xudbinlik, dangasalik kabi fazilatlarni shakllantirish imkoniyatini kamaytiradi. Ko‘p bolali oilalarda paydo bo‘ladigan qiziqishlar, xarakterlar, munosabatlarning xilma-xilligi bolalarning rivojlanishi, ota-onalarning shaxsiyatini yaxshilash uchun yaxshi zamindir. Ko‘p bolali oilalar a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarda kattalarni hurmat qilish ayniqsa muhimdir. Ko‘p bolali oilalar har bir bolani kelajakdagi mustaqil oilaviy hayotga tayyorlaydigan kollektivizmning ajralmas maktabidir. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, har ikkinchi ko‘p bolali oilalar moddiy

yordamga muhtoj, har beshinchisi - profilaktik ijtimoiy yordamga muhtoj, bu ota-onalarning psixologik va pedagogik malakasini oshirishga va bolalarning ijtimoiylashuviga yordam berishi kerak. Koʻp bolali oilalardagi ota-onalar odatda kuchli psixologik barqarorlikka yegaligi bilan ajralib turadi. Ular stresslarga koʻproq bardosh beradilar, hayot qiyinchiliklarini osongina yengib oʻtishadi, chunki ular allaqachon qadriyatlarni birinchi oʻringa qoʻygan va yeng qimmatli narsa - farzandlari foydasiga tanlov qilgan boʻlishadi. Shuningdek ularda mustaqil qaror qabul qilish biroz sustroq boʻlib, oilaga aloqador har qanday muammo birgalikda umumiy qarashlarga asoslanib qabul qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati (References):

1. Кузьмин А.И., Костина С.Н. Влияние уровня экономического развития региона на многодетность // Социально-экономические и демографические аспекты реализации национальных проектов в регионе. Сборник статей X Уральского демографического форума. В 2-х томах. 2019. С. 223-228.

2. Костина С.Н., Зайцева Е.В., Банных Г.А. Дети как ценность: современные подходы в фамилистике // Вестник экономики, права и социологии. 2019. № 3. С. 117-122.

3. Костина С.Н., Зайцева Е.В., Банных Г.А. Дети как ценность: современные подходы в фамилистике // Вестник экономики, права и социологии. 2019. № 4. С. 183-188.

4. Зайцева Е.В., Костина С.Н., Кузьминчук А.А. Деятельность социально ориентированных некоммерческих организаций в отношении многодетных семей в Свердловской области // Стратегии развития социальных общностей, институтов и территорий: материалы В Международной научно-практической конференции. В двух томах. Министерство науки и высшего образования Российской Федерации, Уральский федеральный университет имени первого Президента России Б. Н. Ельцина. 2019. С. 64-68.

5. Банных Г.А., Костина С.Н. Институт брака и многодетность: точки соприкосновения // Культура, личность, общество в современном мире: методология, опыт эмпирического исследования: Материалы XXИИ Международной конференции памяти профессора Л. Н. Когана. 2019. С. 1502-1514.

6. Uche C. Isiugo-Abanihe Reproductive Motivation and Family-Size Preferences among Nigerian Men // Studies in Family Planning. Vol. 25. № 3 (May - Jun., 1994). P. 149-161

7. Гарипов Я.З., Мавляутдинов И.С. Мужское лицо многодетности: тенденции формирования репродуктивных установок // Мониторинг общественного мнения. 2011. №6(106). С. 76-81.

O‘SMIR SHAXSINING PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIGA OILA SHAKLINING TA’SIRI

Rustamova Mo‘tabar Ravshanovna
Al-fraganus university, ‘‘Pedagogika va psixologiya kafedrasi’’ o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bolalar tarbiyasida namunali oilalar bilan bir qatorda bolalarga moddiy sharoit yaratish bilangina chegaralanadigan, bolaning tarbiyasi, uning kelajagi haqida o‘ylamaydigan, e’tibor bermaydigan noto`liq oilalarni ham uchratish mumkin. Oila a’zolarining ajralishlari yoki ota va onaning birini vafot etishi natijasida noto`liq oilalar paydo bo‘ladi. Oila a’zolaridan birining bola tarbiyasida qatnashmasligi qator ob’ektiv qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Natijada bola tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi onaning zimmasiga ikkita og‘ir vazifa: o‘z qaramog‘ida qolgan bolalarni moddiy jihatdan ta’minlash va ularning tarbiyasi uchun javobgar bo‘lish mas’uliyati yuklanadi. Bundan tashqari yolg‘iz ona juda katta ruhiy qiyinchilikni hamda bolalar tarbiyasiga doir katta javobgarlikni his qila boshlaydi.

Kalit so‘zlar: noto‘liq oila, funksional to‘liq bo‘lmagan oila, o‘smir, o‘smir shaxsi, ota-ona, muvaffaqiyatsiz oila.

ВЛИЯНИЕ ФОРМЫ СЕМЬИ НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ПОДРОСТКОВ

Рустамова Мотабар Равшановна
преподаватель кафедры педагогики и психологии Университета Аль-Фраганус

Аннотация: наряду с образцовыми семьями в воспитании детей можно встретить неполные семьи, которые ограничиваются только созданием материальных условий для детей, не задумываются о воспитании ребенка, его будущем, не обращают внимания. Неполные семьи возникают в результате развода членов семьи или смерти одного из родителей. Неучастие одного из членов семьи в воспитании ребенка создает ряд объективных трудностей. В результате на мать, занимающуюся воспитанием ребенка, возлагаются две тяжелые задачи: материальное обеспечение детей, оставшихся на ее попечении, и ответственность за их воспитание. Кроме того, мать-одиночка начинает испытывать огромные умственные трудности, а также большую ответственность за воспитание детей.

Ключевые слова: неполная семья, функциональная неполная семья, подросток, личность подростка родитель, неблагополучная семья.

THE INFLUENCE OF A DYSFUNCTIONAL FAMILY ON THE DEVELOPMENT OF ADOLESCENT PERSONALITY AND BEHAVIOR

Rustamova Motabar Ravshanovna
Al-fraganus University «Department of Pedagogy and Psychology» teacher.

Abstract: Along with exemplary families in the upbringing of children, one can meet single-parent families who are limited only to creating material conditions for children, do not think about the upbringing of a child, his future, do not pay attention. Single-parent families arise as a result of the divorce of family members or the death of one of the parents. The non-participation of one of the family members in the upbringing of a child creates a number of objective difficulties. As a result, the mother involved in the upbringing of a child is entrusted with two difficult tasks: material support for the children left in her care, and responsibility for their upbringing. In addition, a single mother begins to experience enormous mental difficulties, as well as great responsibility for raising children.

Keywords: incomplete family, functional incomplete family, teenager, personality of a teenager, parent, dysfunctional family.

Kirish (Introduction). Oilaviy muloqot tajribasi zamirida go‘dak rivojlanishining dastlabki bosqichlaridan boshlab uning ijtimoiy munosabatlar olamiga shaxsiy Meniga bo‘lgan munosabatlari umumiy qoidalari yotadi. Shaxsning shakllanishini bola tomonidan ota-onasining unga nisbatan munosabatlarining muayyan ko‘rsatkichini o‘zlashtirish natijasi sifatida ko‘rish mumkin.

Klinik kuzatuvlar va tajribaviy tadqiqotlar ota-onalar va bolalar munosabatlarining ularning barcha haqiqiy xilma-xilligi bevosita ikki o‘lchovni qamragan: sevgi - dushmanlik va muxtoriyat - nazorat kabi turlarini tizimlashtirishga imkon beradi. “Sevgi – dushmanlik” yoki “Qabul qilish - rad etish” kabi ziddiyat ota-ona tomonidan bolaning bevosita hissiy munosabati va idrokini belgilaydi. Ota-ona munosabati shaklida ota-onada ifodalangan yoki bilvosita mavjud bo‘lgan implitsitiv qabul qilish - bolaga nisbatan g‘amxo‘rlik qilish, uning ichki dunyosini tushunish, individual psixofizik xususiyatlariga nisbatan bag‘rikenglik, uning mustaqilligini hurmat qilish, tashabbusini rag‘batlantirish kabi tushunchalar – ota-ona mehrini ifodalaydi [1].

Rad etish - bu bolaga nisbatan “bunga emas” qabilida e’tiborsizlik, iltifotsizlik, shafqatsizlik ko‘rsatish kabi munosabatlarni ifodalaydi. “Muxtoriyat – nazorat” kabi ziddiyat oilaviy tarbiyada qo‘llaniladigan bolaning xatti-harakatlarini intizomiy tartibga solish turlarini tavsiflaydi. Ota va onaning har ikkisi tomonidan teng taqsimlangan ma’lum bir intizomiy tizimning mavjudligi maqbul sanaladi; samarasiz yoki hatto patogen nazoratning ekstremal turlarini o‘z ichiga oladi - to‘liq muxtoriyat, e’tiborsizlik bilan chegaradosh va haddan tashqari qattiqqo‘llik, qattiq nazorat qilish, bu ota-ona irodasiga mutlaq bo‘ysunishni, bolaning har qanday tashabbusi va o‘zbilarmonligini bartaraf etishni nazarda tutadi.

Ayniqsa o‘smirlarga nisbatan nazorat masalasi keskin qo‘yilgan. Ota-onalar tinimsiz axloqiy tarbiya, ko‘rsatmalar, o‘rganish va o‘smirning hayotini qat’iy tartibga solishga intilish ular tomonidan hurmatsizlik, ishonch-sizlik, erkinlik va mustaqillik huquqlariga tajovuzkorlik ko‘rinishi sifatida qabul qilinishini bilishlari kerak. Faol, kuchli tuyg‘uga ega bo‘lgan shijoatkor, faol o‘smir albatta kattalarning zulmiga qarshi kurasha boshlaydi, odatda bu oiladagi suronli janjallarga, o‘zaro g‘azab va tajovuzga va hatto ba’zi hollarda uydan qochishga ham olib keladi. Odatda ota-onasiga bog‘lanib qolgan ko‘ngli nozik, zaif, itoatkor bolalar esa ota-onalarning cheklovlariga nisbatan: ko‘z yoshlari, o‘zlarini ayblash va pushaymonlik, o‘z intilishi va mustaqilligidan butunlay voz kechishgacha bo‘lgan bo‘rttirilgan itoatkorlik bilan o‘z maqsadlari va mustaqilliklaridan ham voz kechishgacha boradilar. Yana bir jihati ham yomon: o‘smirga mutlaq mustaqillik berish mohiyatan ota-onaning farzandining ma’naviy olamiga e’tiborsizligiga aylanib, o‘smirning ruhiy olamining ota-ona uchun befarqligi, e’tiborsizligi, bola uchun esa o‘zining oila uchun keraksiz ortiqcha yuk sifatida his qilishi kabi holat boshdan kechiriladi.

Metodlar (Methods). O‘smirning oiladagi muloqot shakli va uning o‘zini-o‘zi qadrlashning adekvatligi va barqarorligi darajasi o‘rtasidagi munosabatni o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, ota-onalari bilan ishonchli munosabatda bo‘lgan o‘spirinlarda o‘zini-o‘zi qadrlash xolisona va barqaror bo‘ladi. Tartibga solinadigan (shafqatsiz) turdagi oilalarda voyaga yetayotgan o‘spirinlarda o‘zini-o‘zi beqaror va noxolis baholash birmuncha xosdir. Shuningdek test ma’lumotlarining shahodat berishicha, kichikroq yoshdagi o‘smirlar (10-12 yoshli) darajasi, yosh o‘smirlarning (10-12 yosh) o‘zini-o‘zi qadrlashi, ota-ona va bola munosabatlari uslubida ijobiy korrelyatsiya (o‘zaro bog‘liqlik) mavjud [2].

Shunday qilib, o‘z-o‘zini yuqori baholash va yaxshi ijtimoiy va shaxsiy moslashuvchanlik ota-onalar va bolalar o‘rtasida o‘ziga xos iliq va ishonchli munosabatlar mavjudligi, talabchanlik va qat’iy intizom bilan bir vaqtning o‘zida o‘smirning hurmati va nisbatan mustaqilligi bilan birlashtiriladi. O‘zini past baholaydigan, o‘zining yakkalanishi va qadrsizligi, past ijtimoiy

faolligi va shaxslararo munosabatlardan norozi bo‘lgan bolalar oilaviy munosabatlar borasida: to‘g‘ridan-to‘g‘ri hissiy munosabatdan oqilona “tarbiyaviy” ta’sirlarning ustunligi, jazo sifatida nazorat qilishning asosiy usuli, aniq ta’lim dasturining yo‘qligi kabi salbiy tajribasiga ega edilar. Shunday qilib, ota-onalarning bolaning hayotidagi hissiy ishtirokini o‘smir o‘z-o‘zini ijobiy baholashining rivojlanishi uchun deb maqbul sharoit deb hisoblash mumkin, biroq bu uning mustaqilligini rivojlanishiga to‘sqinlik qilmaydi.

Natijalar (Results). Bolaning qiyofasi onaning salbiy umidlari, bola sevilmagan odamning (er, ona) xususiyatlarini takrorlashi yoki bolada ongsiz ravishda o‘ziga xos bo‘lgan o‘zining nomaqbul illatlarini o‘zida mujassamlashtirganidan qo‘rqish ta’sirida buziladi. Shu bilan birga, bolaning yoshi qanchalik katta bo‘lgani sari, undagi o‘zligini tasdiqlash, hurmat qilish va mustaqillik huquqini etish zarurati va unga yuklangan o‘zini qadrsizlangan “Men” obrazi o‘rtasidagi ziddiyat shunchalik aniq bo‘ladi [3].

Adabiyotni tahlil qilish va korreksion ishlari tajribasi ota-onalarning bolaning shaxsiy “Men” obraziga ta’sir qilishining bir qator noto‘g‘ri usullarini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi.

Ota-onalar tomonidan bolaning ko‘rish qobiliyatining turli xil buzilishlari ota-onalarning o‘zlarining ruhiy iztiroblari bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Shunday qilib, tashvishli, qattiqqo‘llik, giperijtimoiylashuv kabi xarakterli onalarga ongsiz ravishda bolaga ayni paytda mavjud bo‘lmagan yoki minimal ifodalangan salbiy xususiyatlarni beradi [4]. Ushbu tasvirga (ota-onalarning ongli intilishlariga qarshi) turtki bo‘lgan bolada ota-onaning salbiy imidjidan kelib chiqadigan o‘sha fazilatlar va xatti-harakatlarning namunalari paydo bo‘lishi xavfi mavjud. Xuddi shu mexanizm, agar ota-onalar bolaning ijobiy imidjiga ega bo‘lsa, bolaning o‘zini o‘zi takomillashtirish yo‘nalishi bo‘yicha rivojlanishini belgilaydi; ammo, shartli ota-ona sevgisi bilan, rivojlanish xunuk shaklga olib kelishi xavfi mavjud: bola «yaxshi bola» qiyofasiga mos kelishga harakat qilib, qattiq ter to‘kadi.

Maslahatlashuvga murojaat qilgan ota-onalarning o‘ziga xos xususiyati ota-ona uchun muhim parametrlar bo‘yicha bolani aniq ortiqcha yoki kam baholashdir. Bolaning imidjini buzish - nohaqlik, ajralish, zaiflikni belgilash, irodasizlik, o‘zi mustaqil holda turishga qodir emaslik kabi “yomonlik” ni belgilash fenomenlarida - bolaning rejalari, niyatlari, sevimli mashg‘ulotlarini qadrsizlantirish kabi hodisalarda namoyon bo‘ladi. Albatta, psixologik maslahatga murojaat qilgan ota-onalar bolaning ayrim xususiyatlariga yoki muayyan vaziyatlarda uning xatti-harakatiga salbiy baho berish uchun qandaydir asoslarga ega ekanligi ko‘rinadi. Biroq, haddan ziyod ortiqcha talablar, axloqiy qattiqqo‘llik va da’vo qilishning noxolisona shakli (yorliqlardan foydalanish, ota-onaning oxirgi hukmlari) bizni ota-onalarning reaktsiyalarini o‘zidan norozilik, o‘zini past his qilish uchun ongsiz kompensatsiya sifatida ko‘rib chiqishga majbur qiladi. Bola, o‘z navbatida, bularning barchasini o‘z qobiliyatiga ishonchsizlik, ichki dunyosini noto‘g‘ri tushunish sifatida qabul qiladi. O‘sib borayotgan shaxsiy tajriba va ota-onalarning umidlarini qondira olmaslik o‘rtasidagi nomuvofiqlik bolaning o‘z-o‘zini ongida chuqur ichki ziddiyatni keltirib chiqaradi, bu nevrotik tipdagi rivojlanish buzilishlariga olib keladi [5].

Bolaning muayyan bir davrga qadar bo‘lgan o‘ziga bo‘lgan munosabati kattalarning, eng avvalo ota-onalarining unga bo‘lgan munosabatining aksi sanaladi. Bola qadriyatlarni, baholash va o‘z-o‘zini baholash ko‘lamlarini, ota-onasi tomonidan taqdim etilgan va u o‘zini baholashni boshlaydigan me’yorlarni, shuningdek, o‘zidagi muayyan fazilatlar va xususiyatlarga ega bo‘lgan siymosini o‘rganadi. Shu bilan birga, ob’ektiv vaziyatning tabiati va faqat ota-ona munosabati bilan bu bolaning ichki dunyosida qanday aks etishini aniq taxmin qilish mumkin emas. Eksperimental tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolaning ota-ona munosabatlarini idrok etishi haqidagi ma’lumotlar ota-onalarning munosabatlarini obyektiv baholashdan ko‘ra, bolaning o‘zini o‘zi qadrlashi rivojlanishini ishonchliroq tushuntirishi mumkin.

Muhokama (Discussion). Bolaning o‘z faoliyatini, uning subyektiv tajribalari dunyosini

chetlab o‘tib, oila bilan tuzatish ishlarining yo‘nalishi va usullarini to‘g‘ri aniqlash mumkin emas. Ota-onalarning har qanday hissiy munosabati va bolaga ta’sir qilish usullari faqat uning psixologik reaktsiyalarida o‘z ma’nosiga ega bo‘ladi. Har bir bola oiladagi o‘z o‘rnini aniqlashga intiladi, bu yo‘lni jamiyat tuyg‘usini anglash va o‘z ahamiyati va o‘zini hurmat qilish istagini amalga oshirish uchun tanlaydi. Undan tashqari, o‘z ijtimoiy tajribasini rivojlantirish, boshqalar bilan aloqalarni kengaytirish, yangi “e’tiborli boshqalar” ning paydo bo‘lishi, o‘z xatti-harakatlarini o‘zlashtirish, baholash va o‘zini o‘zi qadrlashning oldingi chiziqli munosabatlarini yo‘q qilishga olib keladi. O‘smirlikdan oldingi davrda tashqi baholash va o‘z-o‘zini baholash sezilarli darajada farq qilishi mumkinligi ko‘rsatilgan [6].

To‘liq bo‘lmagan oilada onaning bolalar bilan munosabati. To‘liq bo‘lmagan oilada yolg‘iz ona to‘laqonli to‘kis oiladagi onadan ko‘ra bolalarni tarbiyalash borasida nisbatan jiddiyroq munosabatda bo‘ladi. Bu, ayniqsa, ajrashgan turmush o‘rtoqlar oilasida seziladi. Tarbiya jarayoni va ona va bola o‘rtasidagi munosabatlarning butun tizimi hissiy jihatdan birmuncha to‘yingan. Shu bilan birga, onaning bola bilan munosabatlariga nisbatan xatti-harakatlarida ikki jihat kuzatiladi. Ulardan biri, birinchi navbatda, o‘g‘il bolalarga nisbatan qat’iy tarbiyaviy ta’sir choralarini qo‘llashdir. Mutaxassislarning fikricha, bunday munosabat onaning o‘g‘lining otasi bilan uchrashishiga hasad qilishi, sobiq erining fe’l-atvoridagi nomaqbul xususiyatlar tufayli doimiy ravishda o‘g‘liga nisbatan hissiy norozilik va qoniqmaslik hissini boshdan kechirishi bilan bog‘liq. Onani qo‘rqitish, qoralash va jismoniy jazolash ko‘proq o‘g‘il bolalarga nisbatan qo‘llaniladi. O‘g‘illar ko‘pincha asabiy taranglik va hissiy norozilik tuyg‘ularini bartaraf etish uchun “ayb echkisi” bo‘lishadi. Bu onalarning bolalarda otalar bilan umumiy bo‘lgan fazilatlarga va oiladagi oldingi ziddiyatli munosabatlarga nisbatan murosasizligidan dalolat beradi.

Xulosa (Conclusion). Ajralishdan keyin ona xatti-harakatining ikkinchi jihati shundaki, u o‘z ta’siri bilan, o‘z fikricha, otasi yo‘qligi sababli bolalar mahrum bo‘lgan narsaning o‘rnini qoplashga intiladi. Bunday ona bolasining tashabbusini to‘xtatadigan qo‘riqchi, himoyachi, nazorat qiluvchi vasiy pozitsiyasini egallaydi, bu esa o‘z navbatida, hissiy jihatdan zaif, tashabbuskor bo‘lmagan, nomustaqil, itoatkor, tashqi ta’sirlarga beriluvchan, o‘zgalar tomonidan boshqariluvchan, xudbin shaxsning shakllanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

1. Елизаров А.Н. Ценностные ориентации семьи как фактор родительско-юношеского конфликта: Диссертация канд. псих. наук. - М. 1995. - 88 с.

2. Елизаров А.Н. Ценностные ориентации семьи как фактор родительско-юношеского конфликта.: Диссертация канд. псих. наук. - М. 1995. - 88 с.

3. Абрамова Г.С. Возрастная психология: Учебник для студентов вузов.- М.: Сфера, 1992. - 389 с.

4. Соколова Е.Т. Влияние на самооценку нарушений эмоциональных контактов между родителями и ребенком и формирование аномалий личности // Семья и формирование личности. М., 1981 . С. 51.

5. Бернс Р. Развитие Я - и воспитание. М.: Наука, 1986. - 267 с.

6. Бернс Р. Я - концепция и Я - образы. Самосознание и защитные механизмы личности. Самара. Изд. Дом «Бахрах», 2003г., 656 с.

7. Титаренко В. Я. Семья и формирование личности, М.: Мысль, 1987. - 68 с.

Jurnal Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan 2020 yil 6 oktyabrda o‘tgan.
Jurnal har oyda bir marta o‘zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.
Jurnalning hajmi 60x84, 1/8, A-4;

«Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnali 2020 yil oktyabrdan nashr etilmoqda.

Pedagogika, psixologiya, filologiya va tilshunoslik, matematika, fizika va mexanika, texnika fanlari, tabiatshunoslik, tarix va falsafa, turizm va iqtisodiyot, axborot kommunikatsion texnologiyalari, geografiya sohalardagi ilmiy va ilmiy-uslubiy materi-allarni o‘z ichiga oladi. Nashr qilingan materiallar mualliflari O‘zbekiston Respublikasi hamda yaqin va uzoq xorijning yetakchi olimlari, tadqiqotchi-izlanuvchilari.

Jurnalning kalit so‘zlari:

Oliy pedagogik ta’lim nazariyasi va amaliyoti; umumiy va maxsus pedagogika va psixologiya, pedagogika va innovatsiya, integratsiya,O‘zbekiston, Rossiya va xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimi; ta’lim jarayoni; ko‘p madaniyatli va mintaqaviy ta’lim; III Renessans, XXI asrdagi ta’lim; ta’lim va tarbiya sohasidagi milliy va qadriyat ustu-vorliklari; ta’lim sifatini monitoring qilish; uzluksiz pedagogik ta’lim tizimi; ta’lim dasturlari; umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlari; o‘qituvchilarni tayyorlash tizimidagi ta’lim texnologiyalari.

Guvohnoma raqami № 8882
Bosh muharrir: B.B.MA’MUROV

Bosishga ruxsat etildi 15.02.2024. Buyurtma №2447.
«FAN VA TA’LIM» MCHJda chop etildi.

